Tadqiqot metodologiyasi, tahlil va natijalari. Bizning ilmiy tadqiqot ishimizda shaxsda suitsid oldi xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlarini o'rganish maqsadida Samarqand davlat universiteti va Qarshi davlat universitetida ta'lim olayotgan 20 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan, oila qurgan talabalar, jami 280 nafar sinaluvcilar jalb qilindi. Tadqiqot ishimizda shaxsda suitsid oldi xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlarini o'rganish maqsadida T.N.Ruzayevaning "O'z joniga qasd qilish xavfi bo'yicha" so'rovnomasi, Dj.Amirxonning "Koping-indikator" so'rovnomasi, G.Shmeshik va K.Leongardlarning "Xarakter akentuatsiyasi" so'rovnomasi hamda A.A.Bakanovanning "Hayotga, o'limga va inqirozli vaziyatlarga munosabat" kabi so'rovnomalari hamda parametrik va noparametrik mezonlar va K.Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti kabi metodlardan foydalandik.

Ma'lumki, shaxsning ma'naviy shakllanishiga ta'sir etuvchi muhim omillar orasida oila, maktab, mahalla, jamiyat va undagi ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy, iqtisodiy sohalarining umumiy holati ayniqsa muhimdir. Voyaga yetmagan o'smirlarning shaxs sifatida shakllanish jarayoni muammoli vaziyatlarda ularning maqbul qaratilgan qabul qilishlariga to'sqinlik qiladi va ba'zi hollarda yoshlar bunday to'siqlarning oldida ojiz qolib o'z joniga qasd qilishgacha borib

yetalilar. Aslida, o'z joniga qasd qilayotgan odamlar odatda kuchli ruhiy og'riqdan, qattiq depressiyadan aziyat chekadilar va stress holatida bo'ladilar hamda kelajakka umidsizlik bilan qaraydilar. Ular o'z muammolarini yengish imkoniyatidan mahrum ekanliklarini his 1-jadval

Koping indikator so'rovnomasi umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari (Styudent-t mezon bo'yicha)

Shkalalar	Yosh oilalar		SamDU talabalar		QarDU talabalar	
	Eks. oldin	Eks. keyin	Eks. oldin	Eks. keyin	Eks. oldin	Eks. keyin
Muammoni yechish	5	7*	6	7	7	9*
Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni qidirish	5	6	3	4	2	3
Muammodan qochish	4	6*	4	5	2	4*
Tanqidiy tafakkur	4	6*	4	6*	3	5*

Tadqiqotdan olingan natijalar suitsid oldi xulq-atvor xususiyatlarini tadqiq etishga mo'ljallangan bo'lib, olingan natijalar birinchi shkala bo'yicha, ya'ni muammoni yecha olish yosh oilalarda (5-7), SamDU talabalarida (6-7) va QarDU talabalarida (7-9) miqdor bilan o'rtachadan yuqori darajani tashkil etganligini ko'rish mumkin. YA'ni sinaluvchilarda muammoni yecha olish darajasi o'rtacha ekanligi, ularda ma'lum bir vaziyatlarga tushganda ular mustaqil hal eta olish imkoniyatiga ega ekanligini ko'rsatgan. Ikkinchi shkala bo'yicha ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni qidirish ham yosh oilalarda (5-6), SamDU talabalarida (3-4) va QarDU talabalarida (2-3) o'rtacha darajadagi qiymatni namoyon qilganligi, sinaluvchilar insonlar bilan munosabatlarni amalga oshirish jarayonida atrofda insonlardan yordam olish darajasi to'laqonli boshqalarga suyanib qolmasligidan dalolat beradi.

Uchinchi shkala bo'yicha muammodan qochish (4-6), (4-5), (2-4) nisbatni qayd etganligi va bu natija standart meyorga ko'ra, o'rtacha darajani ko'rsatishi, ular hayotiy qiyinchiliklar va vaziyatlardan qochishga o'zlarida barqaror immunitetni hosil qilganligini anglatishi bilan alohida xarakterlanadi. To'rtinchi shkala bo'yicha sinaluvchilarning samimiylik ya'ni tanqidiy tafakkur shkalasi natijalari (4-6), (4-6), (3-5) natija bilan umumiy o'rtacha miqdorni tashkil qilgan. Bu esa shuni ko'rsatadiki, berilgan so'rovnomani mazmun-mohiyatini to'g'ri ravishda anglab yeta olgan va so'rovnomani ishlash jarayonida berilgan mulohazalarga nisbatan o'rtacha darajada o'zlarining holatini obyektiv tarzda baholay olishi bilan alohida xarakterlanadi.

2-jadval

O'limga hamda inqirozli vaziyatlarga munosabat darajasi so'rovnomalarining umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari

Shkalalar	Yosh oilalar		SamDU talabalar		QarDU talabalar	
	Eks. oldin	Eks. keyin	Eks. oldin	Eks. keyin	Eks. oldin	Eks. keyin
Hayot o'zgaruvchanligini qamrab olish	2	4*	3	5*	4	6*
Hayotga nisbatan o'sish	3	4	4	5	4	6*
Hayotni qabul qilish	2	4*	5	6	6	7
O'zini qabul qilish	3	3	4	6*	5	7*
O'sishga intilish	2	4*	3	5*	4	6*
Mas'uliyat	3	4	3	6**	4	5
O'limga munosabat	3	4	2	3	1	3*
O'limni qabul qilish	2	4*	3	5*	4	6*
Inqiroz	4	6*	2	4*	2	3

Tadqiqotdan olingan natijalar hayot o'zgaruvchanligini qamrab olish, o'zini qabul qilish, o'sishga intilish, o'limni qabul qilish, inqiroz va mas'uliyat kabi shkalalarda sinaluvchilar o'rtasida o'rtacha farqlar kuzatilganligini ko'rish mumkin.

Suitsidni amalga oshirganlarning aksariyati ruhiy sog'lom bo'lish, ular suitsid holatida faqat o'zlarini, o'z muammolarini, boshidan o'tkazayotgan "qiyinchilik-azoblarini" o'ylashadi. U bir harakat bilan hammasiga nuqta qo'yishni o'ylaydi. Ammo yaqin insonlarini, qarindosh-urug'ini qanchalar og'ir bo'lgan ruhiy azoblarga tashlab ketayotganligini o'ylab ham ko'rmaydi. Suitsident bu bir lahzalik holat ekanligini, uni yengish uchun aql va jasorat, kuchli iroda kerakligini, hali kelajakda uni haqiqiy baxtga to'la hayot kutayotganini anglab yetmaydi.

O'z joniga qasd qilish jamiyatda, odamlar orasidagi munosabatlarda inson o'zi yecha olmagan yoki odatiy, hammaga

3-jadval

O'z joniga qasd qilish xavfi bo'yicha so'rovnomasi umumiy o'rtacha ko'rsatkichlari

Shkalalar	Yosh oilalar		SamDU talabalar		QarDU talabalar	
	Eks. oldin	Eks. keyin	Eks. oldin	Eks. keyin	Eks. oldin	Eks. keyin
Namoyishkor	3	4	2	3	1	3*
Affektiv	3	3	1	3*	1	2
Unikal	3	5*	2	4*	2	3
Inqirozli vaziyat	2	5**	2	3	1	2

Pessimizm	3	5*	1	3*	2	3
Madaniy to'siqlar	2	4*	1	3*	2	3
Maksimalizm	3	5*	2	3	1	3*
Pespektiv qarash	3	4	2	2	1	2
Antisuitsidal xulq	2	3	2	4*	3	5*

O'z joniga qasd qilish xavfi bo'yicha so'rovnomasi bo'yicha olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, namoyishkor, inqirozli vaziyat, perspektiv qarash va affektiv shkalalar pastroq, unikal-o'ziga xoslik, pessimizm, madaniy to'siqlar, maksimalizm va antisuitsidal xulq-atvor kabi shkalalar o'rtacha darajani tashkil etgan. Yosh oilalarda bu natijalar o'rtacha natijani, talabalarda esa pastroq natijani namoyon qilgan.

Shubhasiz, inson ongi foniylikni mutanosib ravishda o'zlashtirishga qodir emas, lekin, shunday bo'lsada, o'zini o'zi o'ldirish ehtimolini ko'rib chiqayotgan odam qanchalik agnostik va skeptik bo'lmasin, u beixtiyor o'limdan keyingi, hatto yanada ma'qulroq hayot mavjudligini tan oladi. O'z-o'zidan bu hali o'zini o'zi o'ldiruvchi shaxsning aqldan tashqari fikrlashi va voqeiy bo'lmagan narsalarni afzalroq ko'rishini isbotlamaydi, lekin shu bilan bir vaqtda o'zida o'limdan keyingi hayotga bo'lgan ishonch har doim ko'plab xalqlarning madaniy-diniy udumlari predmetini tashkil qilib kelgan.

Bunday holda, potensial o'zini o'zi o'ldiruvchilar tafakkurining irratsionalligi va xayoliyligi tushunarli bo'ladi. O'zini o'zi o'ldirish hodisa sifatida quyidagi tarkibiy elementlar bilan tavsiflanishi mumkin. Birinchidan, bu qotillik. Ko'p tillarda uning tub, tashkil qiluvchi so'zi "qotillik" hisoblanadi. Biroq, atamaning ikkinchi qismi – "o'zini o'zi" so'zi insonning o'zi tomonidan sodir etilgan qotillikni nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, qotil va qurbon bir kishining o'zi bo'lgan vaziyat yuzaga keladi. Demak, o'zini o'zi o'ldirishni o'limning uchta ajralmas elementi: o'lish elementi, o'ldirish elementi va qotillik qurboni elementini anglatuvchi o'ziga xos turi deb hisoblash mumkin. Ayrim mualliflar o'zini o'zi

o'ldirishga moyillikni xarakterning, ularning fikricha, shoirlar, rassomlar, artistlarga xos bo'lgan alohida badiiy tipiga moyillik deb ta'kidlaydilar.

Ba'zan odamlar o'zlarini yashashning qiyinligi va imkoniyatsizligi sabab bo'lgan ekstremal vaziyatlarda: masalan, konsentration lagerlardagi shafqatsiz sharoitlarda, qiynash, azoblash, xo'rlash va ochlik ta'siri ostida o'zlarini o'ldirishga urinadilar. O'zini o'zi o'ldirish to'g'risida fikrlarga shuningdek, chidab bo'lmaydigan og'riq beruvchi og'ir, davosiz kasalliklar – saraton va ba'zi boshqa kasalliklar ham olib kelishi mumkin. Agar bunda ong xiralashmasdan qolgan bo'lsa, unda azob-uqubatlarga barham berish haqida tabiiy istak paydo bo'ladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot yuzasidan amalga oshirilgan nazariy tahlillar, bizda muammo yuzasidan o'ziga xos ilmiy qarash hamda yondoshuvlarni yuzaga keltirdi. Shu bois, suitsid oldi xulq-atvor namoyon shakllanishini dalillovchi ayrim psixologik shart-sharoitlarga alohida e'tibor qaratishga harakat qildik. Mohiyatan, yuzaga keluvchi suitsid oldi xulq-atvorning sabablari va uning psixologik sharoitlari tahlili, xavf omillarini aniqlashga imkon beruvchi, suitsidal xulq-atvorning pedagogik-psixologik diagnostikasi va korresiyasini to'g'ri tashkil etishni nazarda tutadi. Shuningdek, real suitsidal xavfni aniqlash jarayonida, faqat suitsid xavfni shakllantiruvchi omillarni e'tiborga olib qolmasdan, balki shaxsni suitsidal xulq-atvorni amalga oshirishdan to'xtatib qoluvchi pedagogik, psixologik, ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarini aniqlash va ularni faollashtirish amaliy imkoniyatlariga ham alohida e'tibor berish lozim sanaladi.

ADABIYOTLAR

1. Амбрумова А.Г. Суицидальное поведение как объект комплексного изучения. / В кн.: Комплексные исследования в суицидологии. Тр. Моск. НИИ психиатрии, Москва., вт. изд. 2009. – 224 с.
2. Бородин Д.П., Коровин А.Н. Особенности суицидального поведения подростков, злоупотребляющих алкоголем и лекарственными препаратами // Сравнительно-возрастные исследования в суицидологии/ Сборник научных трудов// М., 2007. – 186 с.
3. Вроно Е.М. Особенности суицидального поведения детей и подростков с различными типами депрессий: Автореф. . канд. мед. наук. М., 2006. – С.11-12.
4. Ефремов, В.С. Основы суицидологии / В. С. Ефремов. – СПб. : Диалект, 2004. – 480 с.
5. Usmanov E.SH. O'zbek xotin-qizlari suitsidal xulqining (o'zini yondirishning) yosh psixologik xususiyatlari. Pixol. fan. nomz... dis. avtoref. – T., 1993. – 29 b.
6. Shoumarov G.B., Sog'inov N.A., Qodirov U.D., Paluanova Z.D. Suitsid holatlarini tadqiq etish: muammo va yechimlar / Uslubiy qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti. – Toshkent: "Ilm-ziyo-zakovat", 2020. –144 b.



Zulfiya ALISHEROVA,
ADPI doktranti, Pedagogika va psixologiya kafedrasida o'qituvchisi
E-mail: AlisherovaZulfiya77@gmail.com

Andijon davlat universiteti dotsenti, p.f.n M.Dumorov taqrizi asosida

EMOTSIONAL INTELLEKT – O'SMIRLARNING MUVAFFAQIYATLI IJTIMOYILASHUVINI PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya

Emotsional intellekt – o'smirlarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini psixologik omillari yoritilgan bo'lib, shuningdek, emotsional intellektning asosiy komponentlari bo'lgan o'z-o'zini anglash, boshqarish, empatiya va ijtimoiy ko'nikmalar o'smirlarning har tomonlama rivojlanish jarayonlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Emotsional intellekt, psixologik omillari, his-tuyg'ularini anglash, o'smirlik davri, o'z-o'zini anglash, muloqot, ijtimoiy ko'nikmalar, shaxsning ijtimoiylashuvi, empatiya, muvaffaqiyatli integratsiya, ko'nikmalar, ijtimoiy tarmoqlar, o'z-o'zini anglash, boshqarish, empatiya.

EMOTIONAL INTELLIGENCE – THE PSYCHOLOGICAL FACTORS OF THE SUCCESSFUL SOCIALIZATION OF ADOLESCENTS

Annotation

Emotional intelligence – the psychological factors of the successful socialization of adolescents are highlighted, and the processes of comprehensive development of adolescents, which are the main components of emotional intelligence, self-awareness, management, empathy and social skills are described.

Key words: Emotional intelligence, psychological factors, awareness of feelings, adolescence, self-awareness, communication, social skills, socialization of the individual, empathy, successful integration, skills, social networks, self-awareness, management, empathy.

ЭМОЦИОНАЛЬНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ – ВЫДЕЛЕНА ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ УСПЕШНОЙ СОЦИАЛИЗАЦИИ ПОДРОСТКОВ

Аннотация

Эмоциональный интеллект – выделены психологические факторы успешной социализации подростков, а также описаны процессы всестороннего развития подростков, которые являются основными компонентами эмоционального интеллекта, самосознания, управления, эмпатии и социальных навыков.

Ключевые слова: Эмоциональный интеллект, психологические факторы, осознание чувств, подростковый возраст, самосознание, общение, социальные навыки, социализация личности, эмпатия, успешная интеграция, навыки, социальные сети, самосознание, управление, эмпатия.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda psixologik rivojlanish va shaxsning ijtimoiy muhitga moslashuvi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o'smirlar davrida bu jarayon murakkablashib, shaxsning ijtimoiylashuvi, hayotiy tanlovlari va kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun poydevor qo'yiladi. O'smirlar rivojlanishining o'ziga xosligi ularning hissiy va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish qobiliyatini talab qiladi. Bu jarayonda emotsional intellekt tushunchasi alohida e'tiborga loyiqdir. Emotsional intellekt shaxsning o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish, boshqalarning his-tuyg'ularini to'g'ri baholash va ijtimoiy vaziyatlarda o'zini samarali tutish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Ushbu ko'nikmalar o'smirlik davrida jamiyat bilan muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda o'smirlar tobora ko'proq ijtimoiy tarmoqlar va boshqa virtual platformalarda vaqt o'tkazayotgan bo'lsa-da, yuzma-yuz ijtimoiylashuv hamon ularning psixologik sog'lig'i va umumiy farovonligi uchun muhimdir. Emotsional intellekt esa bu jarayonni muvozanatli va samarali o'tishini ta'minlaydi. Bugungi dunyoda shaxsning ijtimoiy muvaffaqiyati nafaqat intellektual qobiliyatlariga, balki hissiy va ijtimoiy ko'nikmalariga ham bog'liq. O'smirlarning emotsional intellekti ularning ijtimoiy muhitda qanday munosabat o'rnatishini, qiyinchiliklarni qanday yengishini va jamiyatda qanday rol o'ynashini belgilaydi. Shuning uchun emotsional intellektni rivojlantirish nafaqat o'smirlarning shaxsiy o'sishi, balki jamiyat bilan muvaffaqiyatli muloqot o'rnatishi uchun ham zarurdir.

O'smirlik davri inson hayotida murakkab o'tish davridir. Bu davrda o'smirlar jismoniy, hissiy va ijtimoiy o'zgarishlarni boshdan kechirishadi. Shu jarayonda shaxsning hissiy boshqaruv qobiliyati katta ahamiyat kasb etadi. Emotsional intellekt o'smirlarning o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarish qobiliyatini, boshqalarning hissiy holatlarini tushunish va ular bilan sog'lom ijtimoiy aloqalarni o'rnatish qobiliyatini oshiradi. O'smirlarning rivojlanish jarayonida emotsional intellektning rivoji ijtimoiylashuvning samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'smirlar o'z hissiyotlarini boshqarishni o'rganganlarida, turli stressli va muammoli vaziyatlarni osonroq yengishadi. Bu esa ularning maktabda, oilada va do'stlari orasidagi

muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqori emotsional intellektga ega bo'lgan o'smirlar ijtimoiy munosabatlarda ko'proq muvaffaqiyat qozonadilar, ularning ruhiy sog'lomligi yuqori bo'lib, jamoada faol va yetakchilik qobiliyatlariga ega bo'ladilar. Emotsional intellektning yuqori darajasi o'smirlarning ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli integratsiyalashishiga yordam beradi. Ular tengdoshlari bilan yaxshi muloqot o'rnatadilar, turli xil muammolarni hal qilishda etuklik ko'rsatadilar va konfliktlarni oldini olishda muvaffaqiyatga erishadilar. Emotsional intellektning asosiy komponentlari bo'lgan o'z-o'zini anglash, boshqarish, empatiya va ijtimoiy ko'nikmalar o'smirlarning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari: ushbu tadqiqotning maqsadi – emotsional intellektning o'smirlarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganishdir. Tadqiqotda emotsional intellektning turli komponentlari (o'z-o'zini anglash, boshqarish, empatiya va ijtimoiy ko'nikmalar) bilan o'smirlarning ijtimoiylashuv jarayonlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash ko'zda tutilgan. Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Emotsional intellekt tushunchasining o'smirlarning psixologik rivojlanishiga ta'sirini tahlil qilish.

O'smirlarning ijtimoiylashuv jarayonlari va emotsional intellekt komponentlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish.

Emotsional intellektni rivojlantirishning o'smirlar uchun ijtimoiy muvaffaqiyatga erishishdagi ahamiyatini tadqiq qilish.

O'smirlar orasida emotsional intellekt darajasini oshirishga qaratilgan psixologik trening va strategiyalarning samaradorligini baholash.

O'smirlarning ijtimoiy muvaffaqiyatini oshirish uchun emotsional intellektni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Ushbu tadqiqot natijalari emotsional intellektning o'smirlarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga ta'sirini chuqurroq anglashga yordam beradi va o'smirlarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim qo'llanmalar taqdim etadi. Emotsional intellekt tushunchasi so'nggi yillarda psixologiya va ijtimoiy fanlar

sohasida keng ko'lamda o'rganilayotgan konseptlardan biridir. Ushbu bo'limda emotsional intellektning nazariy asoslari, uning ta'rifi, asosiy nazariyalari va komponentlari haqida to'liq ma'lumot beriladi. Emotsional intellekt shaxsning o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish va ularni samarali boshqarish, boshqalarning his-tuyg'ularini to'g'ri talqin qilish va ularga mos ravishda munosabat bildirish qobiliyatidir. Bu ko'nikmalar shaxsning ijtimoiy va hissiy jihatlari bilan bog'liq bo'lib, shaxsiy hayotda va jamiyat bilan aloqalarda muvaffaqiyat qozonishda muhim omil hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Emotsional intellekt nazariyalari: Meyyer va Salovey, Goleman va boshqalar emotsional intellekt tushunchasini birinchi bo'lib 1990-yillarda Piter Salovey va Jon D. Meyyer ilmiy muomalaga kiritgan. Ular emotsional intellektni odamlarning o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqalarning his-tuyg'ulariga ta'sir qiluvchi qobiliyat sifatida ta'riflagan. Ushbu yondashuv EI ni intellektual qobiliyatning muhim qismi sifatida ko'rsatadi va bu his-tuyg'ularni boshqarish va ularni muloqotlarda qo'llash orqali ijtimoiy muvaffaqiyatni oshirishi mumkinligini ta'kidlaydi[1]. Meyyer va Salovey emotsional intellekt ni quyidagi to'rt asosiy komponentga ajratgan:

Emotsiyalarni aniqlash – inson o'z his-tuyg'ularini va boshqalarning his-tuyg'ularini anglash va farqlash qobiliyati.

Emotsiyalarni boshqarish – o'z va boshqalarning his-tuyg'ularini ijobiy yo'nalishda boshqarish qobiliyati.

Emotsiyalarni foydalanish – emotsiyalarni fikrlash va muammolarni hal qilishda foydalanish, his-tuyg'ularni qaror qabul qilish jarayonlariga qo'shish.

Emotsiyalarni tushunish – his-tuyg'ularning murakkabliklarini, ularning qanday shakllanishini va qanday rivojlanishini tushunish.

Tadqiqot metodologiyasi. Daniel Goleman esa emotsional intellekt ni ommaga mashhur qilgan va o'zining kitobi orqali keng ommaga tanitgan. U emotsional intellektni nafaqat shaxsning individual rivojlanishi uchun, balki ularning ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyatlari uchun ham muhim deb ta'kidlagan. Goleman emotsional intellekt ni shaxsiy va ijtimoiy qobiliyatlarining majmui deb biladi va uni beshta asosiy komponentga bo'ladi:

O'z-o'zini anglash – insonning o'z his-tuyg'ulari, kuchli va zaif tomonlari, qadriyatlari va maqsadlarini aniq bilishi.

O'z-o'zini boshqarish – inson o'z his-tuyg'ularini nazorat qilish va ijobiy yo'nalishda boshqarish qobiliyati, bu esa stressni kamaytiradi va mojarolarni oldini oladi.

Motivatsiya – insonning ijobiy natijalarga erishish uchun ichki rag'batga ega bo'lishi, bu esa shaxsiy rivojlanishni rag'batlantiradi.

Empatiya – boshqalarning his-tuyg'ularini his qilish va ularga mos ravishda munosabat bildirish qobiliyati.

Ijtimoiy ko'nikmalar – samarali muloqot qilish, jamoalarda ishlash va boshqalarga ta'sir ko'rsatish qobiliyati.

Golemanning yondashuvi shuni ko'rsatadiki, emotsional intellekt nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat, balki ijtimoiy muhitdagi muvaffaqiyatga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Emotsional intellekt bir nechta muhim komponentlardan tashkil topgan bo'lib, har biri shaxsning o'z his-tuyg'ularini va boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va boshqarish qobiliyatini yaxshilashga xizmat qiladi. Asosiy komponentlar quyidagilar[6].

O'z-o'zini anglash: Bu komponent shaxsning o'z his-tuyg'ularini aniq tushunishi va ularni to'g'ri talqin qilish qobiliyatini anglatadi. O'z-o'zini anglay olgan odam o'z his-tuyg'ularini yaxshi boshqaradi va turli vaziyatlarda qanday reaksiya berishi haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. O'z-o'zini anglash shaxsning o'z hayotiy tajribalari, qadriyatlari va maqsadlariga mos ravishda qarorlar qabul qilishiga yordam beradi.

O'z-o'zini boshqarish: O'z-o'zini boshqarish qobiliyati shaxsning his-tuyg'ularini nazorat qilish va ularni konstruktiv yo'nalishda boshqarish qobiliyatidir. Bu komponent stressli vaziyatlarda o'zini tinchlantirish, ziddiyatlarni oldini olish va his-tuyg'ularni ijobiy tarzda yo'naltirish qobiliyatini o'z ichiga oladi. O'z-o'zini boshqara oladigan odamlar hissiy barqarorlikni saqlab, ijtimoiy vaziyatlarda muvaffaqiyat qozonadilar.

Empatiya: Empatiya boshqalarning his-tuyg'ularini his qilish va ularning his-tuyg'ulariga javoban munosabat bildirish qobiliyatidir. Empatiya yuqori darajadagi EI ning ajralmas qismidir, chunki u boshqalar bilan samarali muloqot qilishni osonlashtiradi va sog'lom munosabatlar o'rnatishga yordam beradi. Empatik shaxslar boshqalarning his-tuyg'ularini hisobga olib, ularning nuqtai nazarini tushunishga harakat qiladilar.

Ijtimoiy ko'nikmalar: Bu komponent shaxsning boshqalar bilan munosabatlarni o'rnatish, saqlash va boshqarish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Yaxshi ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'lgan odamlar boshqalar bilan samarali aloqa o'rnatadilar, jamoada faol ishtirok etadilar va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash orqali jamoa ichida ijobiy ta'sir ko'rsatadilar. Ijtimoiy ko'nikmalar konfliktlarni samarali hal qilish va hamkorlikda ishlash uchun zarurdir.

Tahlil va natijalar. O'smirlarning psixologik rivojlanishi va emotsional intellekt O'smirlilik davri (adolescence) inson hayotida o'ziga xos o'tish davri bo'lib, bu bosqichda nafaqat jismoniy, balki hissiy va psixologik rivojlanish ham keskin o'zgarishlarga uchraydi. Bu davrda shaxsiylik shakllanadi, hayotiy qadriyatlar va ko'nikmalar rivojlanadi va kishi o'zini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his qila boshlaydi. Emotsional intellektning shakllanishi va o'smirlarning psixologik rivojlanishi o'zaro bog'liq jarayonlar hisoblanadi. Bu bo'limda o'smirlilik davridagi psixologik jarayonlar, emotsional intellektning o'smirlilik davrida shakllanishi va emotsional intellekt komponentlari bilan o'smirlilik davridagi bog'liqlik tahlil qilinadi[2].

O'smirlilik davridagi psixologik jarayonlar: o'smirlilik – bu bolalikdan o'smirlilik va keyinchalik kattalikka o'tish jarayoni bo'lib, u ko'plab psixologik va ijtimoiy o'zgarishlar bilan kechadi. Ushbu davrda shaxs o'zligini anglash, o'z his-tuyg'ularini boshqarish va jamiyat bilan ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga urinadi. Bu jarayonlar odatda quyidagi omillar bilan ifodalanadi:

O'z-o'zini anglash va identifikatsiya: O'smirlilik davrida shaxsning o'zini kim deb bilishi, qaysi qadriyatlar va maqsadlarni muhim deb hisoblashi kabi savollar juda muhim o'rin tutadi. Bu davrda o'smirlar o'zlarini o'rganish va identifikatsiya jarayonida o'zlarini qanday ko'rishni istayotganini aniqlashga harakat qiladilar. O'z-o'zini anglash qobiliyati shakllanishi bilan birga, ularning EI rivoji ham ijtimoiy muhitga moslashishga yordam beradi.

Emotsional beqarorlik va o'zgarishlar: Bu bosqichda o'smirlarning gormonal o'zgarishlari ularga emotsional jihatdan ta'sir ko'rsatadi. O'smirlar ko'pincha o'z his-tuyg'ularini to'liq tushunishmaydi va ularni nazorat qilishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Emotsional intellekt o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarish imkonini bergan holda, bu jarayonda o'smirlar uchun muhim ko'makchi rolini o'ynaydi.

Ijtimoiy rollar va munosabatlar: O'smirlar ijtimoiy rollarini qabul qilish va jamiyatda o'z o'rnini aniqlashga harakat qiladilar. Ushbu davrda tengdoshlari bilan muloqot, do'stlik va jamiyat bilan bo'lgan munosabatlar katta ahamiyatga ega. Emotsional intellekt o'smirlilik davrida ushbu ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish va mustahkamlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa emotsional intellekt o'smirlarning ijtimoiylashuv jarayonida muhim ahamiyatga ega. O'smirlar emotsional intellekt darajasi yuqori bo'lganda, ularning o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish va boshqalarning hissiyatlarini tushunish qobiliyati oshadi. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga, mojarolarni muvaffaqiyatli hal etishga va ziddiyatli vaziyatlarda muvozanat saqlashga yordam beradi. O'smirlar o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarish orqali, ijtimoiy muhitda samarali muloqot qilishlari va boshqalar bilan mustahkam aloqalar o'rnatishlari mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, emotsional intellekt darajasi yuqori bo'lgan o'smirlar, o'zlarining hissiy holatini nazorat qilish qobiliyatlarini bilan birga, ijtimoiy vaziyatlarda o'zini qulay his qilishadi va yanada muvaffaqiyatli ijtimoiy aloqalarni o'rnatishadi. O'smirlarning emotsional intellekt darajasining pasayishi esa ularning ijtimoiylashuv jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishiga olib keladi. Emotsional intellektni rivojlantirish nafaqat o'smirlarning shaxsiy rivojlanishi, balki ijtimoiy muhitda ham muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Goleman, D. (1995). *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. Bantam Books.
2. Mayer, J. D., Salovey, P., & Caruso, D. R. (2004). *Emotional Intelligence: Theory, Findings, and Implications*. *Psychological Inquiry*, 15(3), 197-215.
3. Bar-On, R. (1997). *Bar-On Emotional Quotient Inventory (EQ-i): Technical Manual*. Multi-Health Systems.
4. Schutte, N. S., Malouff, J. M., Simunek, M., Hollander, S., & Barlow, P. (2002). *Emotional Intelligence and Interpersonal Relations*. *The Journal of Social Psychology*, 142(6), 687-698.

5. Brackett, M. A., & Katulak, N. A. (2006). Emotional Intelligence in the Classroom: Skills that Promote Student Achievement*. In A. C. Cohen (Ed.), *Handbook of Emotional Intelligence: Theory, Development, Assessment, and Application at Home, School, and in the Workplace* (pp. 100-116). Jossey-Bass.
6. Parker, J. D. A., Summerfeldt, L. J., Hogan, M. J., & Majeski, S. A. (2004). Emotional Intelligence and Academic Achievement: Predicting the Development of Social Competence. *Journal of Psychoeducational Assessment*, 22(3), 189-202.
7. Zins, J. E., Bloodworth, M. R., Weissberg, R. P., & Walberg, H. J. (2007). The Scientific Base Linking Social and Emotional Learning to School Success. *Theory into Practice*, 46(3), 216-226.
8. Havard, L.(2011). Emotional Intelligence and Leadership: A Review of the Literature. *International Journal of Business and Social Science*, 2(7), 118-126.
9. Palmer, B., & Stough, C. (2001). Emotional Intelligence and the Leadership of Teams. *Journal of Management Development*, 20(4), 304-318.
10. Saarni, C. (1999). *The Development of Emotional Competence*. Guilford Press.



УДК 323>327:347(575.1)

Otabek ALLAYAROV,
O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi dotsenti
E-mail: Otabekallayarov@gmail.com

GulDU dotsenti, f.f.n N.Temirova taqrizi asosida

"THE ROLE OF INTERNET TECHNOLOGIES IN THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF YOUTH IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION"

Annotation

The article reveals the great importance of Internet technologies in the spiritual and moral education of young people in the process of globalization. The role of Internet technologies in the development of the intellectual potential of young people is analyzed. Also, the influence of the Internet on the spiritual world of young people is considered.

Key words: Globalization, Internet technologies, youth, education, morality and immorality.

«РОЛЬ ИНТЕРНЕТ-ТЕХНОЛОГИЙ В ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОМ ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ В ПРОЦЕССЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ»

Аннотация

В статье раскрывается большое значение Интернет-технологий в духовно-нравственном воспитании молодежи в условиях глобализации. Анализируется роль Интернет-технологий в развитии интеллектуального потенциала молодежи. рассмотрен духовный мир молодежи.

Ключевые слова: Глобализация, интернет-технологии, молодежь, образование, мораль и безнравственность.

"GLOBALLASHUV JARAYONIDA INTERNET TEXNOLOGIYALARINING YOSHLAR MA'NAVIY-AHLOQIY TA'LIM-TARBIYASIDAGI O'RNI"

Annotatsiya

Maqolada globallashuv jarayonida internet texnologiyalari yoshlarning ma'naviy-axloqiy ta'lim-tarbiyasida katta o'rni ochib berilgan. Internet texnologiyalarining yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, internetning yoshlar ma'naviy olamiga ta'siri ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Globallashuv, internet texnologiyalari, yoshlar, ta'lim sohasi, axloq va axloqsizlik.

Kirish. Globallashuv jarayonida internet texnologiyalari yoshlarning ma'naviy-axloqiy ta'lim-tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda internet faqat ma'lumot olish manbai emas, balki yoshlarning fikrlash tarzi, ijtimoiy munosabatlari va ma'naviy qadriyatlarini shakllantirishda muhim vositaga aylanmoqda. Internet yoshlarga o'rganish va rivojlanish uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Onlayn kurslar, elektron manbalar va ijtimoiy platforma orqali ular ilm-fan, madaniyat, inson huquqlari va ijtimoiy adolat haqida bilim olishlari mumkin. Bundan tashqari, internet jamiyatdagi ijtimoiy masalalarga faol munosabat bildirish va innovatsion g'oyalarni sinab ko'rish imkoniyatini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Globallashuv va internet texnologiyalari yoshlarni madaniy almashinuv, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash va ijobiy o'zgarishlarga olib kelish uchun zarur sharoitlarni yaratadi. Yoshlar internetdan foydalanishda axloqiy me'yorlarga rioya qilib, konstruktiv kontentlarga e'tibor berishi kerak. Globallashuv jarayoni inson hayotining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Maxsus, internet texnologiyalari yoshlarning ijtimoiy rivojlanishi va ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda. Bugungi kunda internet faqat ma'lumot manbai emas, balki ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash, o'z fikrlarini bildirish va ijobiy o'zgarishlarga olib kelish uchun mukammal vositaga aylanmoqda.

Internetning yana bir salbiy jihati-kishilardagi xudbinlik, manmanlik, zamonaviy tilda ifoda etganda, egosentrizm illatining kuchayishiga sabab bo'lishidir. Bugungi dunyo yoshlari-son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Bugun internet madaniyati, virtual madaniyat, axborot madaniyati, ma'lumotlardan to'g'ri foydalanish madaniyati kabi tushunchalar hayotimizdan o'rin egalladi. Yoshlarda internet olamida o'z o'rnini to'g'ri belgilash va foydalanuvchilar bilan to'g'ri muomala qilish, virtual olamdagi axborotlarni to'g'ri tahlil qilish malakasini shakllantirish davr talabidir [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi zamonda globallashuv jarayonlari hayotning barcha sohalariga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan ta'lim tizimi ham mustasno emas. Axborot texnologiyalari, ayniqsa internet, yangi ta'lim standartlarini shakllantirishda muhim rol o'ynamoqda. Internet orqali ma'lumot olish, muloqot qilish va

tadqiqotlar olib borish imkoniyatlari kengayib, yoshlarning ma'naviy olamiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, barkamol avlod tarbiyasida internet texnologiyalarining o'rnini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Internet texnologiyalari ta'lim sohasida inqilobiy o'zgarishlar olib keldi. Yoshlar endi dunyo miqyosidagi axborot manbalariga to'g'ridan-to'g'ri kirish imkoniyatiga ega bo'lib, bilim olishning yangi yo'llarini qidirish imkoniga ega bo'ldi. Buning natijasida ta'lim jarayoni dinamik, interaktiv va samarali bo'lib qolmoqda. Globallashuv ta'lim tizimida ham o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Oliy ta'lim muassasalari orasidagi hamkorlik, onlayn ta'lim platformalari va xalqaro programma almashinuvi yoshlarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Internetdagi keng axborot resurslari yoshlarga mustaqil ravishda tahlil qilish va bilim olish imkoniyatini beradi. Ularning turli manbalardan olingan ma'lumotlarni to'plab, o'z fikrlarini shakllantirishlari uchun platformalar mavjud. Coursera, edX, Khan Academy kabi onlayn platformalar yoshlarga dunyo miqyosidagi eng nufuzli universitetlar va olimlardan ta'lim olish imkonini yaratdi. Interaktiv ta'lim vositalari, onlayn forumlar va diskussiyalar yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ular savol berish, fikr almashish va turli nuqtai nazarlarni ko'rib chiqishga asoslangan muhitda o'rganadilar.

Internet texnologiyalari yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular bilim olish jarayonini samarallashtirish bilan birga, yoshlarni mustaqil fikrlashga, innovatsion yondashuvlarga va kritik tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga ham yordam beradi.

Internet orqali yoshlar dars va tadqiqotlarda qo'llaniladigan materiallarni, ilmiy ishlarni hamda kitoblarni tezkor ravishda topish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu esa yoshlarning doimiy o'rganish va izlanish madaniyatini shakllantirishga yordam beradi. Internetdagi keng ma'lumot manbalari, elektron kitoblar, ilmiy jumallar va onlayn kurslar yoshlarga o'z xohishlari va qiziqishlari asosida har qanday temada bilim olish imkonini beradi. Universitetlarning ilmiy maqolalari, dissertatsiyalari va tadqiqotlari internetda joylashgan bo'lib, yoshlar bu materiallardan foydalanib, o'z tadqiqotlari uchun zarur ma'lumotlarni olishlari

umkin. Video darslar, vebinarlar, interaktiv simulyatsiyalar va onlayn forumlar orqali yoshlar turli o'rganish usullarini sinab ko'rishlari va shunga mos ravishda bilim olishni yuqori samaradorlikda amalga oshirishlari mumkin.

Internet yoshlarga dunyo bo'ylab turli millat va madaniyat vakillari bilan muloqot qilish imkoniyatini beradi. Bu esa ularni keng dunyoqarashli, bag'rikeng va madaniy xilma-xillikni qabul qila oladigan shaxslar qilib tarbiyalaydi. Shunday qilib, muayyan foydalanuvchiga internet taqdim etadigan axborot va kommunikatsiyalarning ulkan tanlovi ijtimoiy muhitning individuallashuvi jarayoniga ko'maklashadi. Undan tashqari samarali qayta aloqa asosidagi internet butun insoniyatni o'zaro harakatlarning yangi usullariga va ilg'or yutuqlarini o'zlashtirishiga o'tishga imkon beradi. Bu, shu jumladan ijtimoiy munosabatlar va tashkiliy tuzilmalarning (tarmoqli tashkilotlar "onlayn hamjamiyatlar") yangi ko'rinishlari vujudga kelishiga olib keladi[2].

Internet yoshlarning mustaqil o'rganish va izlanish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Undan foydalanish ularning bilim olish jarayonini yengillashtiradi va ularni mustaqil fikrlashga, tadqiqotlar olib borishga va yangi ko'nikmalarni egallashga ilovatan rag'batlantiradi. Internet yoshlarning mustaqil o'rganish va izlanish qobiliyatlarini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Ular bilim olishda faqat ta'lim muassasalariga bog'liq bo'lmay, balki mustaqil ravishda bilim olishni, tahlil qilishni va ijod qilishni o'rganadilar. Bunday yondashuv yoshlarning shaxsiy rivojlanishida, ijtimoiy faolligini oshirishda va kelajakdagi muvaffaqiyatlarida muhim ahamiyatga ega. Ular o'z qiziqishlari va talablari mos ravishda bilim olishlari mumkin, bu esa ularning tahlil qilish va mulohaza yuritish qobiliyatlarini oshiradi. Internet yoshlarning ilmiy tadqiqotlar olib borish, natijalarni tahlil qilish va innovatsion yechimlar taklif etish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayonlarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va tadqiqotlarni amalga oshirish qobiliyatini rivojlantirish yoshlarning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun asosiy omil bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Internet yoshlarga ilmiy tadqiqotlar olib borish va natijalarni tahlil qilish imkoniyatini beradi. Ular bu jarayonda o'z fikrlarini izlashga, yangi ideyalarni sinab ko'rishga va innovatsion yechimlarni taklif etishga yo'naltirilgan.

Internet orqali yoshlar ijtimoiy tadbirlarda, loyihalarda ishtirok etish uchun ma'lumot olishlari mumkin. Misol uchun, volontyorlik, jamiyatni rivojlantirish dasturlari yoki ekologik faoliyatlar kabi yo'nalishlarda ishtirok etish ularning ijtimoiy mas'uliyat hissini oshiradi.

Yoshlar internet orqali jamiyatdagi muammolar haqida ma'lumot olib, fuqarolik harakatlariga qo'shilishi mumkin. Ular jamiyatdagi adolatsizlikka qarshi kurashish va o'z ovozlari bilan talablarini uchun platformalardan foydalanishlari mumkin. Shu tariqa, internet orqali ta'lim olish imkoniyatlari yoshlarning doimiy o'rganish va izlanish madaniyatini shakllantirishga yordam beradi. Ularning bu jarayonda mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, bu esa kelajakda professional va shaxsiy rivojlanishlarida muhim ahamiyatga ega.

Internetning yoshlar ma'naviy olamiga ta'siri ikki tomonlama bo'lishi mumkin. Bir tomondan, internet axborotga kirish va bilim olish imkoniyatlarini kengaytirib, yoshlarning ma'naviy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Boshqa tomondan esa, nazoratsiz va fil'trsiz internet kontentlari yoshlarning ma'naviy yoki axloqiy qadriyatlariga salbiy ta'sir o'tkazishi ehtimoli bor.

Internetning ijobiy ta'sirlari: Internet yoshlarga dunyodagi eng yaxshi ma'naviy adabiyotlar, ilmiy manbalar va ma'naviyatga doir onlayn kurslarga kirish imkoniyatini taqdim qiladi. Bu imkoniyatlar yoshlarning bilim olish, ijodiy fikrlash va ma'naviy rivojlanishlarini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu ularning ma'naviy rivojlanishida katta yordam beradi.

Internetda klassik va zamonaviy ma'naviy adabiyotlar, falsafiy asarlar va psixologik kitoblar yozuvchilarining asarlari mavjud. Yoshlar bu manbalardan foydalanib, ma'naviy haqiqatlarni o'rganish va tafakkurlarini rivojlantirish imkoniga ega.

Turli mavzularda, jumladan, ma'naviyat, psixologiya va falsafa bo'yicha muhokamalar olib boriladigan forumlar yoshlarga dunyoning turli burchaklaridan kelgan odamlar bilan fikr almashish imkonini beradi. Internetda jamiyatning ma'naviy rivojlanishi, psixologiya, etika va inson huquqlari kabi mavzularda onlayn kurslar mavjud. Yoshlar bu kurslarda ishtirok etish orqali o'zlarining ma'naviy hislarini rivojlantirishlari mumkin.

Ma'naviyat, ijtimoiy adolat va inson huquqlari haqidagi onlayn kurslar yoshlarga bu mavzularda bilim olish va ijtimoiy faollik ko'rsatish imkoniyatini beradi. Bunday kurslar ularning bilim olish

jarayonini samaralilashtirish, ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirish va jamiyatda ijobiy o'zgarishlarga olib kelishga yordam beradi. Ma'naviy kurslar yoshlarga insonlar orasidagi munosabatlarni, etik printsiplarni va ma'naviy qadriyatlarini o'rganish imkonini beradi. Bu ularning faoliyatini ma'naviy jihatdan asoslashga yordam beradi. Ma'naviy kurslar yoshlarni ijodiy fikrlash va tanqidiy qarashlarini rivojlantirishda ko'maklashadi. Ularda eng muhim mavzular bo'yicha o'rganish va muhokama qilish imkoniyati bor.

Ijtimoiy adolat mavzusidagi kurslar yoshlarga jamiyatdagi turli muammolar – kamsitish, adolatsizlik, tengsizlik va ijtimoiy boshqaruv usullari haqida keng tushuncha beradi. Bunday kurslarda ishtirok etish orqali yoshlar ijtimoiy adolatni ta'minlashda faol ishtirok etish uchun ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Ularning amaliy loyihalari hamda tadbirlarda ishtirok etishi ijtimoiy masalalarni yechishga yordam beradi.

Inson huquqlari mavzusidagi onlayn kurslar yoshlarga o'z huquqlari, boshqalarning huquqlari va ularni himoya qilish usullari haqida bilim olish imkonini beradi. Bu yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Yoshlar inson huquqlari sohasidagi bilimlari bilan jamiyatda fuqarolik faolligi ko'rsatishlari, adolatsizliklarga qarshi kurashishlari va ijtimoiy o'zgarishlarga erishishlari mumkin.

Ma'naviyat, ijtimoiy adolat va inson huquqlari haqidagi onlayn kurslar yoshlarning bilim olish, ijtimoiy faollik ko'rsatish va jamiyatda ijobiy o'zgarishlarga olib kelishga yordam beradi. Bunday kurslarda ishtirok etish yoshlarga nafaqat intellektual, balki ijtimoiy va ma'naviy rivojlanish imkoniyatlarini taqdim etadi, bu esa ularning kelajakdagi faoliyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Internet yoshlarga dunyodagi eng yaxshi ma'naviy adabiyotlarga, ilmiy manbalarga va onlayn kurslarga kirish imkoniyatlarini taqdim etadi. Bu ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ma'naviy o'sishini ta'minlash va ijtimoiy masalalarda faol bo'lishlarga yordam beradi. Innovatsion yondashuvlar va ilmiy manbalardan foydalanish yoshlarning bilim olish jarayonini samarali va qiziqarli qilish imkonini beradi.

Internetning salbiy ta'sirlari: Internetdagi axloqsiz yoki zo'ravonlikka oid kontentlar yoshlar o'rtasida axloqiy buzilishlarga sabab bo'lishi mumkin. Bunday kontentlar ularning foydali axloqiy qadriyatlarini shakllantirishga yordam bermasdan, o'zgalarga nisbatan xiyonat, zo'ravonlik va ma'naviy kamsitish hissini rivojlantirishga olib kelishi mumkin.

Axloqsiz va zo'ravonlikka oid kontent yoshlarning fikrlash tarzi, dunyoqarashi va munosabatlarini shakllantirishda negatív ta'sir ko'rsatadi. Ularning jamiyatga bo'lgan munosabati, insonlarga, qadriyatlarga bo'lgan ehtiromi kamayishi mumkin[3]. Bunday kontentlar yoshlarni o'rganish, axloqiy qadriyatlarini tushunish va hayotdagi muammolarni yechishda kerakli bo'lgan ma'naviy negizlarni zaiflashtirishga olib keladi. Natijada, yoshlar real hayotdagi axloqiy qadriyatlarini buzishlari va o'z xulq-atvorlarini negatív tomonga o'zgartirishlari mumkin. Axloqsiz kontentlarga ko'p uchrashish, yoshlarni boshqa insonlarga nisbatan in'ikos qilish, zo'ravonlik qilish va shov-shuvlardan foydalanish hissini rivojlantirishi mumkin. Bu esa jamiyatda muammolarni yangi, xatarli shakllarda yechishga olib keladi.

Yoshlar internetdagi axloqsiz kontentni yaqinlaridan va urushdan, zo'ravonlikdan va inson huquqlaridan olishgan moddalarini o'zgartirishlari mumkin. Bu ularning ijtimoiy faolliklariga va muhokama qilish qobiliyatlariga negatív ta'sir ko'rsatadi.

Axloqiy buzilishlar yoshlarning ta'lim jarayoniga, ijtimoiy munosabatlarga va jamiyatdagi mo'ljallangan masalalarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu ta'sirlar, o'z navbatida, yoshlarning shaxsiy rivojlanishi va jamiyatdagi roliga o'zgartirish kiritishga sabab bo'ladi. Axloqiy buzilishlar yoshlarda ta'limga bo'lgan qiziqishni pasaytirishi mumkin. Ularning tahsil olishga bo'lgan motivatsiyasi zaiflashib, bu ularning akademik natijalarini yomonlashishiga olib keladi. Axloqiy buzilishlar, yoshlarning diqqatini tarqatib, o'rganish jarayonini murakkablashtiradi. Natijada, yoshlar ilm olishda samarali bo'la olmaydi, va ularning bilim bazasi zaiflashadi. Ular ijtimoiy muammolarni yechishda e'tiborsiz bo'lib, asl masalalardan chetlashadilar.

Axloqiy buzilishlar yoshlarning ta'lim jarayoni, ijtimoiy munosabatlar va jamiyatdagi masalalarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa, ularning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy jamiyatdagi rollarini to'g'ri anglashini yo'qotishga olib keladi. Shunday qilib, axloqiy qadriyatlarini shakllantirish, ijtimoiy adolat va ma'naviy o'sishni ta'minlashda aholining faoliyati va oilaviy ta'lim muhim ahamiyatga ega.

Shu bois internetdan foydalanishda mas'uliyatli yondashuv va nazorat muhim ahamiyatga ega. Internetdagi axloqsiz yoki zo'ravonlikka oid kontentlar yoshlar o'rtasida axloqiy buzilishlarga sabab bo'lishi mumkin. Bunday kontentlar yoshlarning fikrlash, dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlarini ta'sirlantirib, ijtimoiy muammolarni yechishda samarasizlikka olib keladi. Shuning uchun, yoshlarning axloqiy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlashda, internetdagi kontentning monitoringini olib borish va salbiy ta'sirlarni minimallashtirish muhim ahamiyatga ega.

Yoshlarni internetdagi salbiy kontentlardan himoya qilish uchun maxsus filtrlar joriy qilinishi kerak. Bu choralar yoshlarning internetdan faqat ta'limiy va ma'naviy maqsadlarda foydalanishlarini ta'minlaydi. Bunday filtrlar joriy qilinishi, bir necha muhim ijobiy natijalarga olib keladi. Filtrlar yoshlarni axloqsiz, zo'ravonlikka oid va yoshlarga mos bo'lmagan kontentdan himoya qiladi. Bu ularning ma'naviy rivojlanishi va ijobiy axloqiy qadriyatlarini saqlab qolishga yordam beradi. Filtrlar internetdan foydalanishni faqat ta'limiy manbalar va ma'naviy resurslarga yo'naltiradi. Yoshlar, ta'limga yo'naltirilgan kontentdan foydalanish orqali, bilimlarini mustahkamlash va umumiy rivojlanishga erishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Yoshlarning psixologiyasi va e'tibori salbiy kontentlarga ko'p uchrasa, ularning hayotiga foydasiz ta'sirlar ko'rsatishi mumkin. Bunday kontentlar yoshlarning emotsional holatlariga, ijtimoiy munosabatlariga va ularning umumiy rivojlanishiga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin.

Salbiy kontentlarning doimiy ta'siri yoshlarda stress, anksiya, depressiya va boshqa emotsional buzilishlarga olib kelishi mumkin. Ular bunday kontentlarga doimiy ravishda duch kelganida, foydasiz va zararli xislatlarga ega bo'lishlari mumkin.

Axloqsiz kontentlar yoshlarning jamiyatdan chetlashishiga, ijtimoiy aloqalarining zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Ular o'zgaralar bilan muomala qilishni kamaytirishi, ijtimoiy muhitdan uzilib ketishlari mumkin. Salbiy kontentlar yoshlarda zo'ravonlik, kamsitish va negativ xulq-atvoriga rag'batlantirishi mumkin. Bunday

kontentlarni ko'rish, yoshlarning boshqa insonlarga nisbatan kamsitish hissini va zo'ravonlikka oid qarorlarini shakllantiradi.

Yoshlarni internetdagi salbiy kontentlardan himoya qilish uchun maxsus filtrlar joriy qilinishi, ularning internetdan faqat ta'limiy va ma'naviy maqsadlarda foydalanishlarini ta'minlaydi. Bu yoshlarning axloqiy rivojlanishi, bilim olishi va ijtimoiy faolligi uchun muhimdir. Ushbu choralar orqali internetni foydalanish muhiti ihotagi yoshlarning kelajagi uchun ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yoshlar internetdan foydalanishda axloqiy me'yorlarga rioya qilishni o'rganishlari zarur. Zamonaviy dunyoda internet resurslari orqali o'z fikrlarini bildirish, ma'lumot olish va ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish imkoniyatlari kengaytirilgan. Shuning uchun, yoshlarni axloqiy me'yorlarga rioya qilishga o'rgatish, ta'lim tizimida muhim vazifa hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Globallashuv sharoitida internet texnologiyalari barkamol avlodni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. To'g'ri yo'naltirilgan internetdan foydalanish yoshlarning ta'lim va ma'naviyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, internetning salbiy ta'sirlaridan himoya qilish choralarini ko'rilishi yoshlar tarbiyasida asosiy vazifa bo'lishi lozim.

Yoshlarning kelajagi, ularning internetdan qanday foydalanishiga va unga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Internet zamonida ma'lumotlar, resurslar va aloqa vositalarining kengligi yoshlarning hayotida muhim o'rin tutadi. Shu sababli, internet texnologiyalaridan samarali va ma'naviy maqsadlarda foydalanishni targ'ib qilish har bir jamiyatning asosiy vazifasi bo'lishi lozim. Shunday qilib, yoshlarning kelajagi internetdan qanday foydalanishlari va unga bo'lgan munosabatlariga bog'liq. Internet texnologiyalaridan samarali va ma'naviy maqsadlarda foydalanishni targ'ib qilish, har bir jamiyatning asosiy vazifasi bo'lishi lozim. Bunday yondashuv yoshlarning ma'naviy rivojlanishi, ijtimoiy faolligi va professional muvaffaqiyatini ta'minlashga yordam beradi. Jamiyat, oila va ta'lim tizimidagi barcha ishtirokchilarning faolligi yoshlarning internetdan samarali foydalanishini ta'minlash uchun kerakli muhitni yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/internet-va-uning-yoshlar-tarbiyasidagi-ahamiyati>
2. Шалимов А.Б. Философия социальных сетей: онтологический и социально-философский анализ. Новосибирск Изд-во ЦРНС 2013. 153с
3. Нисневич Ю.А. Информация и власть. – М.: Мысль, 2000. – Ст. 48.



Zebiniso ALLAYAROVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD
E-mail:zeboallayarova51@gmail.com

Falsafa fanlari doktori, professor Q.Nazarov taqrizi asosida

O'ZBEK TILINING DAVLAT TILI SIFATIDAGI TARBIYAVIY MAQOMINI KO'TARISH DIALEKTIKASINING IJTIMOYIY-FALSAFIY MEZONLARI

Аннотация

XXI asrda dunyoning ijtimoiy-kommunikativ voqeligida tillarning mavqeini o'rganish, zamonaviy sivilizatsiya tendensiyalari tarkibini hisobga olgan holda diskursiv amaliyotlar va lingvistik hodisalarning ijtimoiy-gumanitar tomonini tahlil qilish dolzarb masalalar sirasida e'tirof etila boshlandi. Ushbu maqola zamonaviy globallashtirilgan dunyoda til hodisalarini ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va ular bilan hamohang ravishda yuzaga keladigan muammolar bilan birga o'rganishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Davlat tili, ona tili, milliy o'zlik, milliy til, til va tafakkur munosabatlari, etnos, milliy o'zlikni anglash tuyg'usi, milliy siyosat, milliy ong, jamiyat taraqqiyoti, lisoniy vaziyat.

SOCIO-PHILOSOPHICAL CRITERIA OF THE DIALECTIC OF RAISING THE EDUCATIONAL STATUS OF THE UZBEK LANGUAGE AS A STATE LANGUAGE

Annotation

In the 21st century, the study of the position of languages in the socio-communicative reality of the world, the analysis of the socio-humanitarian side of discursive practices and linguistic phenomena, taking into account the composition of the trends of modern civilization, began to be recognized in the ranks of current issues. This article is devoted to the study of linguistic phenomena in the modern globalized world along with socio-political changes and problems that coexist with them.

Key words: State language, native language, national identity, national language, language and thinking relations, Ethnos, sense of national identity, national politics, national consciousness, community development, linguistic situation.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ КРИТЕРИИ ДИАЛЕКТИКИ ПОВЫШЕНИЯ ВОСПИТАТЕЛЬНОГО СТАТУСА УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА КАК ГОСУДАРСТВЕННОГО

Аннотация

This article is devoted to identifying fast and effective strategies for using innovative approaches in intelligent English language teaching to future medical professionals in teaching English, as well as exploring the methods for improving medical students' professional skills based on English. Good communication skills and communicative competence in English are not only a professional language skill, but also can promote mutual understanding and cooperation in the global world. The process of teaching English based on the language goals and needs of students has led to the development of the so-called English for Professionals or English for Specific Purposes (ESP). This study mainly describes the importance of learning English through the development of medical students' communicative skills in developing countries, as well as the role of ESP teachers and the training courses they conduct.

Key words: Medical terms, innovative technologies, extrasensory perception, non-linguistic sphere, approach, traditional method, modern method.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ В ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОМ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ БУДУЩИХ МЕДИЦИНСКИХ КАДРОВ

Аннотация

Данная статья посвящена выявлению быстрых и эффективных стратегий использования инновационных подходов в интеллектуальном обучении английскому языку будущих медицинских работников при обучении английскому языку, а также изучению методов совершенствования профессиональных навыков студентов-медиков на базе английского языка. Хорошие коммуникативные навыки и коммуникативная компетентность на английском языке — это не только профессиональный языковой навык, но и способный способствовать взаимопониманию и сотрудничеству в глобальном мире. Процесс преподавания английского языка, основанный на языковых целях и потребностях учащихся, привел к развитию так называемого английского языка для профессионалов или английского языка для специальных целей (ESP). В этом исследовании в основном описывается важность изучения английского языка посредством развития коммуникативных навыков у студентов-медиков в развивающихся странах, а также роль преподавателей ESP и учебных курсов, которые они проводят.

Ключевые слова: Медицинские термины, инновационные технологии, экстрасенсорное восприятие, неязыковая сфера, подход, традиционный метод, современный метод.

BO'LAJAK TIBBIYOT XODIMLARIGA INGLIZ TILINI INTELLEKTUAL O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLARNI TAKOMILLASHTIRISH

Аннотация

Ushbu maqola ingliz tilini o'qitishda bo'lajak tibbiyot xodimlariga ingliz tilini intellektual o'qitishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish bo'yicha tezkor samarali strategiyalarni aniqlashda shuningdek, ingliz tili asosida tibbiyot talabalarning kasbiy mahoratlarini oshirish usullarini o'rganishga bag'ishlangan. Ingliz tilida yaxshi muloqot qilish ko'nikmalariga va kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lish nafaqat professional tilni bilishni anglatadi, balki global dunyoda o'zaro tushunish va hamkorlikni osonlashtirishi mumkin. Ingliz tilini o'qitish jarayoni o'quvchilarning til maqsadlariga asoslangan va ehtiyojlar mutaxassislar uchun ingliz tili yoki maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP) deb ataladigan tilning rivojlanishiga olib keldi. Ushbu tadqiqot, asosan, rivojlanayotgan mamlakatlarda tibbiyotni o'rganayotgan talabalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish orqali ingliz tilini o'zlashtirishning muhimligini, shuningdek, ESP o'qituvchilarining roli va ular olib boradigan o'quv kurslarini tavsiflaydi.

Kalit so'zlar: Tibbiy atamalar, innovatsion texnologiya, ESP, non lingvistik soha, yondashuv, ananaviy metod, zamonaviy metod.

Kirish. Bugungi kunda ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy, siyosiy hayotimizning deyarli barcha soharlarida mavjud bo'lgan xalqaro til sifatida ingliz tili madaniyatlararo muloqotning jadal o'sishi va rivojlanishi tufayli dunyo notiqlikni o'rgatish maqsadini takomillashtirishni talab qilmoqda. talabalarning kommunikativ qobiliyatlari, talabalar o'z fikrlarini o'z-o'zidan ifoda eta olishlari va hayot tajribasida tildan qanday foydalanishni o'rganishlari uchun. Hozirgi kunda ko'plab o'qituvchilar shunday fikrga qo'shiladilar. mmo, afsuski, bugungi kunda talabalar bu ko'nikmalarga kamroq e'tibor berishadi, chunki ular o'zlarini bu harakat qanday amalga oshirilganligidan oldin aniq ko'rsatish qobiliyatini hisobga olishadi. Va shunga qaramay, achinarlisi shundaki, talabalar yakuniy natijaga e'tibor berishadi (bu holda aloqa kompetentsiyasini egallash) va bu o'rganish jarayonining to'g'ri rivojlanishidan ko'ra muhimroqdir. Talabalar yozishlari, o'qishlari, grammatikani o'rganishlari yoki alohida tinglashlari mumkin, lekin ular o'zlariga gapira olmaydilar, shuning uchun nutqni o'rgatish ko'proq e'tiborga olinishi kerak. Muloqot qilishni bilishning aynan shu talabi ko'pincha talabalarning o'z bilimlarini ish yoki ijtimoiy hayotda qo'llash istagi bilan belgilanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda chet tilini o'qitishning zamonaviy texnologiyalari, yangicha yondashuv va

strategiyalarini inobatga olgan holda zamonaviy uslub va uslublarning ko'pligi cheksizdir. Kontentni o'rganishga asoslangan ikkinchi tilni o'qitishga yondashuv metodologiya sohasida nisbatan yangi hisoblanadi. U madaniyatlararo muloqot, aniq maqsadlar uchun ingliz tili yoki ta'limni singdirish maqsadida o'sdi. Birinchi yondashuvlar 1980-yillarning boshlarida Beneschning kashshof asarlarida tasvirlangan; 1989 yilda Brinton, Snow va Welsche; Crandall 1987 yilda; Crandall va Christian, 1989. Biroq, kontentga asoslangan yondashuv 90-yillarning o'rtalarida, TESOL kabi konferentsiyalar paydo bo'lishi ESL/EFL nashriyot sohasiga ta'sir qilgandan keyingina to'liq e'tirof etildi. Usul asosan ESP ni o'rganayotgan talabalarda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish orqali ingliz tilini o'zlashtirishning muhimligini, shuningdek, ESP o'qituvchilarining roli va ular olib boradigan o'quv kurslarini tavsiflaydi. Flipped classes (FC) 1990-yillardan buyon tibbiy ta'limda qo'llanilib kelinmoqda va qiziqarli o'quv jarayonini osonlashtirish uchun samarali vosita sifatida keng e'tirof etilgan. Bunday mashg'ulotlarning mazmuni o'quvchilarga o'z-o'zidan ta'lim olishlari uchun didaktik materiallarni taqsimlashdan iborat bo'lib, dars vaqtini muhokama qilish, muammoni hal qilish, mulohaza yuritish kabi interfaol mashg'ulotlarni o'z ichiga olgan holda samaraliroq o'tkazishdir. o'qituvchilar nafaqat qattiq ko'nikmalarni, balki yumshoq

ko'nikmalarni, shuningdek, jamoada ishlash, ijodkorlik, muloqot qilish, o'z-o'zidan o'rganish qobiliyatlari, kognitiv qobiliyatlarni va boshqalarni rivojlantiradi [1].

Virtual haqiqat simulyatsiyalari, onlayn til platformalari va mobil ilovalar tibbiyot talabalari uchun interaktiv va qiziqarli o'rganish tajribasini taqdim etishi mumkin. Ushbu vositalar shaxsiy fikr-mulohazalarni, mustaqil o'rganishni va hamkorlikda til amaliyoti imkoniyatlarini taklif qilishi mumkin. Til o'qituvchilari va tibbiyot mutaxassislari o'rtasidagi hamkorlik tibbiyot talabalari uchun ingliz tilini o'rganish tajribasini boyitishi mumkin. Tibbiy tarkibni til darslariga va aksincha, integratsiyalash orqali talabalar til va tibbiy tushunchalarni chuqurroq tushunishlari mumkin. Ilmiy maqolalar yoki taqdimotlar kabi fanlararo loyihalar talabalarni til ko'nikmalarini tibbiy kontekstda qo'llashga undashi mumkin. Tengdoshlarni o'rganish ingliz tilini o'rganayotgan tibbiyot talabalari uchun qimmatli manba bo'lishi mumkin. Guruhlarda o'quv mashg'ulotlari, til almashish dasturlari va fikr almashish mexanizmlari talabalar ingliz tilini gapirish, tinglash va yozishni mashq qilishlari mumkin bo'lgan qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yaratishi mumkin. Tengdoshlarning o'zaro ta'siri, shuningdek, turli millatdagi talabalar o'rtasida madaniy almashinuv va tushunishni kuchaytiradi. Shuningdek, ingliz tilini o'qitishning innovatsion usullari kommunikativ, kognitiv va tarbiyaviy xarakterdagi muammolarni hal qilishga yordam beradi, muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi; talabalar bilan hissiy aloqa o'rnatish; ularni jamoada ishlashga, boshqalarning fikri va bayonotlarini hisobga olishga o'rgatish [2]. Tajriba shuni ko'rsatadiki, bu o'qitish usullaridan foydalanish o'quvchilarning asabiy tarangligini engillashtiradi, faoliyat shaklini o'zgartiradi, diqqatni darsning asosiy masalalariga qaratadi. Innovatsion metodik yondashuvlarni amaliyotda qo'llash chet tili o'qituvchilariga o'qitishning yangi usullarini joriy etish va takomillashtirish, o'quv jarayoni samaradorligi va talabalar bilim darajasini oshirish imkonini beradi. Oliy o'quv yurtlarida chet tilini professional o'rganish amaliy ahamiyatga ega bo'lib, his-tuyg'ularni ifodalash, mulohazalar va har qanday shaklda taqdim etilgan ma'lumotlar, bilimlarni o'zlashtirish jarayonida tilning kommunikativ funksiyasi katta rol o'ynaydi. Oliy tibbiyot muassasasida ingliz tilini o'qitish amaliyotining tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quv jarayonida qo'llanilayotgan darsliklar va uslubiy ishlanmalarda hali ham talabalarning motivatsion sohasining o'rni va ahamiyati, o'quv jarayonining o'lchovi va tabiati yetarlicha hisobga olinmaydi. O'rganishga motivatsion tayyorgarlikning o'zaro bog'liqligi. Shuning uchun talabalarning motivatsion sohasini o'rganish, uni tuzatish usullari va usullarini ishlab chiqish dolzarb muammodir [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Tibbiyot talabalariga ingliz tilini o'qitishning innovatsion usullaridan foydalanish bo'yicha istiqbollarni taqdim etish uchun biz talabalar o'qituvchilari va sog'liqni saqlash mutaxassislarining istiqbollarni o'rganishimiz mumkin. Har bir istiqbol tibbiyot talabalariga ingliz tilini o'rgatishda innovatsion o'qitish usullaridan foydalanishning afzalliklari, qiyinchiliklari va oqibatlar haqida qimmatli tushunchalarni beradi. O'qituvchilar tibbiyot talabalari uchun innovatsion o'qitish usullarini ishlab chiqish va joriy etishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ularning nuqtai nazari tilni o'qitishning innovatsion yondashuvlarini birlashtirgan pedagogik mulohazalar, o'quv dasturlarini loyihalash va baholash strategiyalarini yoritadi. O'qituvchilar tibbiy kontekstda ingliz tilini bilish darajasini oshirish uchun interfaol va tajribaviy ta'lim faoliyati, texnologiya integratsiyasi va real dunyo ilovalarining muhimligini ta'kidlashlari mumkin. Ular, shuningdek, innovatsion o'qitish usullarining samaradorligini ta'minlash uchun doimiy kasbiy rivojlanish va til mutaxassislari bilan hamkorlik qilish zarurligini ta'kidlashlari mumkin. til almashinuv va boshqa innovatsion yondashuvlar[4]. Ularning tushunchalari ushbu usullarning muloqot ko'nikmalarini, madaniy kompetentsiyani va tibbiy sharoitlarda ingliz tilidan foydalanishga bo'lgan ishonchini oshirishdagi samaradorligini ochib berishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Talabalarning fikr-mulohazalari, shuningdek, ularning ta'lim ehtiyojlari va afzalliklarini yaxshiroq qondirish uchun innovatsion o'qitish usullarini takomillashtirish va moslashtirish yo'nalishlarini ta'kidlashi mumkin. Ular ingliz tilini o'rganish ularning bemorlar, hamkasblar va xalqaro hamkorlar bilan o'zaro munosabatlariga qanday ta'sir qilganini aytib berishlari mumkin. Sog'liqni saqlash sohasi mutaxassislari tibbiyot talabalari uchun ingliz tilidagi ta'limga aloqa ko'nikmalarini o'rgatish, tibbiy terminologiya seminarlari va madaniy malaka modullarini integratsiyalashuviga yordam berishi mumkin. Ularning istiqbollari bemorlarga sifatli yordam ko'rsatish, tadqiqot va sog'liqni saqlash sohasida ishlanmalarni ta'minlashda samarali muloqotning

muhimligini ta'kidlashi mumkin. Ushbu xilma-xil istiqbollarni hisobga olgan holda, tibbiyot talabalariga ingliz tilini o'rgatishda manfaatdor tomonlar innovatsion o'qitish usullaridan foydalanish bilan bog'liq imkoniyatlar va muammolarni har tomonlama tushunishlari mumkin. Professor-o'qituvchilar, talabalar va sog'liqni saqlash sohasi mutaxassislari o'rtasidagi hamkorlikdagi sa'y-harakatlar tibbiyot talabalariga o'z tillarida va kasbiy faoliyatlarida ustunlik qilish imkonini beruvchi moslashtirilgan va samarali yondashuvlarni ishlab chiqishga olib kelishi mumkin. Tibbiyot talabalariga ingliz tilini o'rgatishning innovatsion usullari ko'p afzalliklarni taqdim etsa-da, ular ham muayyan qiyinchiliklar va mumkin bo'lgan muammolar bor[5]. Ingliz tilini o'qitishda innovatsion o'qitish usullarining samaradorligini o'lchash murakkab bo'lishi mumkin. An'anaviy baholash vositalari tajribaviy o'rganish, simulyatsiyaga asoslangan faoliyat yoki hamkorlikdagi loyihalar natijalarini etarli darajada qamrab ololmasligi mumkin. Tegishli baholash strategiyalarini ishlab chiqish va innovatsion usullarning tilni bilish va muloqot ko'nikmalariga ta'sirini baholash o'qituvchilar va muassasalar uchun qiyin masala. Tibbiyot talabalari turli xil til va madaniy kelib chiqishidan kelib chiqqan holda, ushbu inklyuziv va samarali tilni yaratadilar, bu dasturlarni ishlab chiqishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Ko'p tilli o'quvchilarning ehtiyojlarini qondirish, turli xil ta'lim uslublariga moslashtirish va til o'rgatishda madaniy sezgirlikni oshirish innovatsion o'qitish usullarini ta'minlashni puxta rejalashtirish va moslashtirishni talab qiladi. O'qituvchilar yangi yondashuvlarni institutsionalizatsiya qilish, doimiy yordamni ta'minlash va turli tibbiyot maktablari va dasturlari bo'ylab ilg'or tajribalarni tarqatishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin[6]. Til ta'limga innovatsiyalar sur'atini saqlab qolish va doimiy takomillashtirish doimiy muammo bo'lishi mumkin. Hamkorlik, kasbiy rivojlanish va talabalarga yo'naltirilgan ta'limga sodiqlik bu muammolarni bartaraf etish va tibbiyot ta'limga innovatsion til o'rganish tashabbuslarining afzalliklarini maksimal darajada oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Kasbiy chet tilini o'qitishning yangi ishlab chiqilgan usullari orasida siz taqdimot usulini ajratib ko'rsatishingiz mumkin. Audiovizual metodning usullaridan biri sifatida multimediyali taqdimotlardan foydalanish o'quvchilarni o'quv faoliyatiga qo'shilish usuli hisoblanadi. Bu o'qituvchining ijodiy bo'lishiga, darsga rasmiy yondashuvdan qochishga imkon beradi. Har qanday taqdimotning asosi yorqin tasvirlar yordamida idrok etish va yodlash jarayonini osonlashtirishdir.

Buyuk Britaniya, AQSH, Germaniya, Daniya va boshqa mamlakatlarda mashhurlikka erishgan innovatsion usullardan biri ingliz olimlari M.Sxever, F.Edey va K.lar tomonidan ishlab chiqilgan keys-stadi (keys-metod, vaziyatlarni tahlil qilish usuli) bo'ldi. Yates. Usulning mohiyati fanning ma'lum bir bo'limida talabalar tomonidan birgalikda tahlil qilish, muhokama qilish yoki qarorlarni ishlab chiqish uchun aniq holatlardan (vaziyatlar, hikoyalar, matnlari "des" deb ataladi) foydalanishdan iborat. Talabalarga papkaga (ishlarga) birkirilgan o'quv materiallari to'plami beriladi va taqdim etilgan materiallar bilan tanishish taklif etiladi, shundan so'ng aniq echimga ega bo'lmagan muammoning ma'nosi va mohiyatini tushunish kerak. , va mavjud professional bilim va ko'nikmalardan foydalangan holda o'z yechimlarini taklif qiladi.

Xulosa va takliflar. Zamonaviy usullardan foydalanish oliy tibbiyot muassasalarida professional chet tilini o'rganish dasturini kengaytiradi va diversifikatsiya qiladi, turli xil haqiqiy materiallardan foydalanishni ta'minlaydi, talabalarni chet tillarini o'rganishga rag'batlantiradi, ularning o'qishga bo'lgan ishtiyoqini kengaytiradi, oliy o'quv yurtlarida ishlash imkoniyatini beradi. Ular uchun qulay bo'lgan sur'at, bu esa o'rganishni individuallashtirishga va professional chet tilini samarali o'zlashtirishga yordam beradi. Innovatsion texnologiyalar nafaqat innovatsion usullardan, balki butun mamlakat bo'ylab ta'limni tashkil etishning innovatsion tizimidan foydalanishni, shuningdek, zamonaviy mutaxassis tayyorlashga tegishli talabalarni joriy etishni, rivojlanishi uchun sharoit yaratishni nazarda tutadi. -har bir o'quvchining o'z-o'zini anglash, o'zini o'zi qadrlashini oshirish. Ishning mazmuni bilan tanishib chiqqandan so'ng, talabalar birinchi navbatda monologik bayonot shaklida o'z fikrlarini bildirishlari, so'ngra muhokamada (muloqotning dialogik shakli) ishtirok etishlari taklif etiladi. vaziyatni topish kerak. Kollektiv yechim topishga qaratilgan muammoli ta'limni tashkil etish va uni keyinchalik muhokama qilish va muhokama qilish jarayonida himoya qilish nuqtai fikrlash jarayonlarini rivojlantirishga va ularni biznes doirasidagi mashg'ulotlar ishtirokchilarining nutq aloqalarida amalga oshirishga yordam beradi. o'yin. Keys-usuli o'quvchilarga materialni o'zlashtirish jarayonini mustaqil tashkil etish imkonini berishi bilan

foydalidir; ular sizga turli ma'lumot manbalari bilan ishlash va kontekstli o'rganish imkonini beradi.

Tibbiyot talabalariga ingliz tilini o'rgatishning innovatsion usullari bo'lajak tibbiyot mutaxassislarini globallashtirgan dunyoda muvaffaqiyatga tayyorlash uchun zarurdir. O'qituvchilar immersiv tajribalar, moslashtirilgan seminarlar, texnologiya asosida rivojlangan ta'lim, fanlararo hamkorlik va tengdoshlarni qo'llab-quvvatlashni o'z

ichiga olgan holda, o'qituvchilar tibbiyot talabalariga tibbiy kontekstda ingliz tilida samarali va ishonchli muloqot qilish imkoniyatini berishi mumkin. Ushbu innovatsion yondashuvlar nafaqat til ko'nikmalarini yaxshilaydi, balki madaniy kompetentsiya va empatiyani rivojlantiradi, bugungi o'zaro bog'liq dunyoda tibbiyot xodimlari uchun muhim fazilatlaridir.

ADABIYOTLAR

1. Millard, E. (2012). 5 reasons flipped classrooms work: Turning lectures into homework to boost student engagement and increase technology-fueled creativity. *University Business*, 12, 26–29. Retrieved 27 September from <http://www.universitybusiness.com/article/5-reasons-flipped-classrooms-work>
2. Нормуродова, М. А., & Ахмедова, Д. А. (2023). Педагогнинг касбий маҳоратини шакллантиришнинг долзарблиги. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(23), 59-61.
3. Anvarovna, A. D., & Batirovich, T. B. (2023). Effectiveness of integrating project-based learning into esp courses for improving esp teaching to iper (the institute of pharmaceutical education and research) pharmacy students “Web of Scientist: International Scientific Research Journal”.
4. Ахмедова, Д. А. (2024). Тиббиёт талабалаарини инглиз тили ўқитишда таълим технологияларини ўрни. *International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING*, 5(1), 41-47
5. Talipov, B., Normuradova, M. T., Akhmedova, D., & Taryanikova, M. (2023). JIGSAW strategy to teaching IPER students. *Solution of social problems in management and economy*, 2(13), 185-195.5. Anvarovna, A. D. (2024). Implementing Suggestopedia and Memory Training in the Foreign Language Classroom. *Journal of Innovation in Education and Social Research*, 2(2), 72-76



UDK: 377.169.3

Sevara AXMEDOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali tayanch doktranti
PhD G'. Otamurodov taqrizi asosida

PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF THE INTEGRATED APPROACH IN ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation

This article talks about the pedagogical nature and necessity of organizing the educational process based on an integrative approach, the ever-complicated and urgent problems of the theory and practice of improving the educational process based on interdisciplinary integration. Also, the process of forming knowledge and skills through interdisciplinary integration, identifying the leading ideas and main concepts of the studied material is covered.

Key words: integrative, relational, competence, empiric, interdisciplinary integration, integrative approach, social partnership, interconnectedness.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ КОМПЛЕКСНОГО ПОДХОДА В ОРГАНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

Аннотация

В данной статье говорится о педагогической природе и необходимости организации образовательного процесса на основе интегративного подхода, постоянно усложняющихся и актуальных проблемах теории и практики совершенствования образовательного процесса на основе межпредметной интеграции. Также освещается процесс формирования знаний и умений посредством междисциплинарной интеграции, выявления ведущих идей и основных понятий изучаемого материала.

Ключевые слова: интегративная, реляционная, компетентность, эмпирическая, междисциплинарная интеграция, интегративный подход, социальное партнерство, взаимосвязанность.

TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA INTEGRATSION YONDASHUVNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Аннотatsiya

Ushbu maqolada integrativ yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etishning pedagogik mohiyati, zarurati, fanlararo integratsiya asosida o'quv tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish nazariya va amaliyotning hamisha murakkab va dolzarb muammolari haqida so'z boradi. Shuningdek, Fanlararo integratsiya orqali bilim va ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni o'rganilayotgan materialning etakchi g'oya va bosh tushunchalarini aniqlash yoritilgan.

Kalit so'zlar: integrativ, aloqadorlik, kompetentlik, emperik, fanlararo integratsiya, integrativ yondashuv, ijtimoiy sheriklik, o'zaro aloqadorlik.

Kirish. Integrativ yondashuv o'zaro manfaatli sharoitlarda va ijtimoiy sheriklik asosida ish olib boruvchi, bir-birini to'ldiruvchi, ta'lim muassasalari yoki ularning tarkibiy tuzilmalarini bir hududiy zonada birlashtirish usullarini ochib beradi. Buning uchun turli xil shakllar va darajadagi ta'lim tashkilotlarini resurs, ilmiy, o'quv markazi atrofida birlashtirish talab etiladi, uning vazifasi oliy ta'lim muassasasi tomonidan mintaqadagi pedagogik ta'lim va pedagogik fan sohasida tan olingan etakchi sifatida amalga oshirilishi kerak.

Integratsiyalashgan yondashuvni amalga oshirishda quyidagi muhim jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin: o'qituvchilarning doimiy kasbiy rivojlanishi tizimida ta'lim tashkilotlari rivojlanishining umumiy maqsadi, ijtimoiy sheriklik asosida sub'ektlarning birgalikdagi faoliyati uchun huquqiy asosning mavjudligi. Integratsiyalashgan elektron axborot-ta'lim muhitida loyihalashtirish tarkibiy va funktsional modelini ishlab chiqishga imkon beradi.

Integrativ yondashuv (yagona, integratsiyalashgan o'quv ob'ektini yaratishni ta'minlaydi); kompetentsiyaga asoslangan yondashuv (bo'lajak muhandislarning asosiy va maxsus kompetentsiyalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun sharoitlarni, manbalarni, funktsional imkoniyatlarni kengaytirishga imkon beradi va yuqori sifatlil kasbiy rivojlanishni ta'minlaydi) asosida takomillashtirildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentsiyalarini shakllantirish va rivojlantirishda maqsadlarni, tarkibni, kasb-hunar ta'limi muhitini va uning faoliyat turini tanlash imkoniyatini hisobga olish kerak. Shu bilan birga, eng muhim belgi-bu ta'lim jarayonida kasbiy va shaxsiy rivojlanish haqida xabardorlik, ijodiy potentsialni ochib berish, kasbiy va pedagogik rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish uchun taklif qilinadigan variantlarning mavjudligi (kasbiy va pedagogik tayyorgarlik yo'nalishini tanlashda qayta yo'naltirish imkoniyati).

Fanlararo integratsiya keng va ko'p qirrali tushuncha bo'lib, XX asrning 30 yillaridan boshlab uni pedagogik amaliyotga joriy etishga qiziqish paydo bo'la boshlagan. Dastlab fanlararo integratsiya muammolarini hal etish yo'llarini qidirish ta'limni politexniklashtirish nuqtai nazaridan olib borilgan. Bu yo'nalish asosan turli sohalaridagi bilimlarni ularning hayot bilan aloqasini umumlashtirish orqali

o'lkashunoslik va sinfdan tashqari ishlarni rivojlantirishda o'z aksini topgan.

Fanlararo integratsiyaning ilmiy vazifasi eng avvalo borliqning moddiy birligi haqidagi falsafiy g'oyalarga aloqador bo'lib, dunyoni bilish, tabiat va jamiyatdagi hodisalarning o'zaro bog'liqligi va taraqqiyotini belgilab berishdan iborat. Bu esa, o'z navbatida tabiiy va ilmiy fanlarning tub qonunlariga asoslanadi.

Fanlararo integratsiya orqali bilim va ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni o'rganilayotgan materialning etakchi g'oya va bosh tushunchalarini aniqlash, ularning mazmunini bir fan doirasida chuqurlashtirish va boyitish imkonini berishi bilan bir qatorda tevarak-atrofta ro'y berayotgan jarayon va hodisalarning bir-biri bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatib, uning moddiy yaxlitligini ochib beradi hamda o'qitishning ilmiylik darajasini kuchaytiradi. Shu bilan bir qatorda, talabalarining mustaqil fikrlashini, turli fanlardan olgan bilimlarini bir fan doirasidan boshqa fan doirasiga ko'chirish va umumlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Fanlararo integratsiya ta'limda tizimlilikning gnoseologik shakli sifatida namoyon bo'ladi va u yoki bu ob'ektlarni o'rganishda yagona hisoblanadi. Fanlarning o'zaro aloqalari har tomonlama bo'lishi esa talabalarda metodologik kategoriyalar nuqtai nazaridan umumlashtirilgan aniq bilimlarni shakllantiradi, gnoseologik muammolarni ochib beradi. Shuning uchun fanlararo integratsiyaning o'quv jarayonidagi metodologik funktsiyasi turli xil fanlarda o'rganiladigan xilma-xil jarayon va hodisalarning birligini ta'minlashdan iboratdir.

Fanlararo integratsiya talabalarga turli o'quv fanlarini o'rganish va ishlab chiqarish ta'limini tashkil etishda o'z bilimlaridan unumli foydalanishga imkoniyat yaratadi, ularda hodisalar va jarayonlar haqida yaxlit tasavvurlarni shakllantirishga yordam beradi.

Pedagog olim N.A. Muslimov bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisida pedagogik sifatlarni shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini tadqiq etib, mutaxassislarining yangi avlodini shakllantirish, ma'naviy-axloqiy jihatdan etuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlovchi, umuminsoniy va milliy qadriyatlariga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalab voyaga etkazish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [6].

S.T.Aliqulovning ta'kidlashicha fanlararo integratsiya vositasida kasb-hunar kollejlari o'quvchilarida umumtexnik bilimlarni shakllantirish deganda ularga moddiy, ma'naviy va ijtimoiy ishlab chiqarish asoslarini chuqur o'rgatish, umumta'lim fanlarini ob'ektiv qonuniyatlarining o'zaro aloqadorligi asosida anglatish tushuniladi [3].

A.V.Usova ta'kidlashicha, hozirgi paytda fanlar integratsiyasi jarayoni dialektik deb nomlanuvchi fikrlashning alohida metodini, fan turli sohalaridagi bilimlarni majmuaviy qo'llay olish malakasini talab qiladi. Aynan mana shu masala mutaxassisni kasbiy tayyorlash davrida – o'quvchilarda kasbiy faoliyat jarayonida turli fanlardan yangi bilimlarni mustaqil holda o'zlashtirish uchun materiallarni tahlil qila olish, tizimlashtirish, umumlashtirish va tasniflash malakasini ochishga yordam beruvchi fikrlashning dialektik metodini va ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda - fanlararo integratsiyani hal qilishi zarur [7].

Fanlararo integratsiya bilishning yangi maxsus ob'ekti sifatida turli fanlardagi bilimlarning ayrim belgilari o'rtasidagi aloqalarni ajratib ko'rsatadi, chunki bu aloqalar materiya harakati shakllarining umumiy o'zaro aloqasini ifodalovchi ilmiy bilishni tashkil etish va sintezlashtirish yo'llarini ko'rsatib beradi. Ushbu qayta ishlash natijasida hosil bo'ladigan o'quv materialini **fanlararo o'quv material** deb ataymiz, chunki u o'quv jarayonida talabalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning yaxlit jarayoni esa ta'limdagi uzviylik va fanlararo integratsiya yordamida ta'minlanadi. Fanlararo integratsiyani amalga oshirish esa ayni bir holatga turli nuqtai-nazardan qarash va bu holat to'g'risida yaxlit tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi.

Fanlararo integratsiyani amalga oshirish masalasi ta'lim metodikasini takomillashtirishning umumiy jihatlaridan biri bo'lganligi sababli biz o'z tadqiqotimiz davomida **“Aniq”** va **“Ixtisoslik”** fanlarining **integratsiyasini** amalga oshirishdagi asosiy qiyinchiliklar sifatida quyidagilarni aniqladik: o'quv fanlari

mazmunida o'zaro muvofiqlashtirilmagan tushuncha va iboralarning qo'llanilishi; o'quv materialidan asosiy g'oya, nazariya va tushunchalarning ajratib olinmaganligi; ilmiy bilimlarning ichki aloqadorligi, ya'ni bilimlarning mantiqan tugallanmaganligi e'tiborga olinmaganligi; o'quv fanlarining tarqoqligi, ularning mazmunan uzviy bog'lanmaganligi va izchil o'rganilmaganligi.

Abduqodusov O. A.ga ko'ra, fanlararo integratsiya nafaqat didaktik jihatdan muhim bo'lib qolmay, u metodik jihatdan ham muvaffaqiyatli amalga oshiriladi va turli o'quv fanlarini o'qitadigan o'qituvchilar o'z amaliy faoliyatida quyidagi bosqichlarga amal qilsa, yuqori samara beradi [1]:

1. Mo'ljalga olish bosqichi: u o'z ichiga umumiy maqsadga ko'ra fanlararo integratsiyani aniqlash metodlari: mavzular va kichik mavzular bo'yicha o'quv materialini taxlil qilish metodlari; belgilab qo'yish (grafik, sxema va jadval) shakllarida, maqsad, shakl, metod va vositalarni tanlab olishni qamrab oladi. Uning maqsadi o'zaro mazmunan aloqador fanlar mazmunidan muhim g'oya, masala, muammoni ajratib olish va ular asosida bilimlar tizimini tarkib toptirish shakl, metod va vositalarini aniqlashdan iborat.

2. Amalga oshirish bosqichi. Bunda oldindan belgilab olingan integratsiyaning bevosita ta'lim-tarbiya jarayonida kechishi kuzatiladi.

3. Nazorat qilish bosqichi. Bunda ko'zda tutilgan maqsad bilan olingan natijalarni taqqoslab, xulosa chiqariladi va unga mos ish ko'rish talab etiladi.

Bu bosqichlar turlicha murakkablik va hajmdagi mehnatni taqozo etishiga qaramay, ularning barchasi birgalikda uyg'un bo'lishi shart, chunki ularning birortasi ishtirokisiz talabning va umuman insonning ongli faoliyatini tashkil etib bo'lmaydi.

Fanlararo integratsiya eng avvalo, o'z tuzilmasiga ko'ra tavsiflanadi, chunki predmetning ichki tuzilishi uning shaklini belgilaydi, shunga ko'ra biz integratsiyaning quyidagi shakllarini ajratib ko'rsatamiz (1.1-jadval):

1.1-jadval:

Fanlararo integratsiya shakli va turlari bo'yicha tasnifi:

Fanlararo integratsiya shakllari	Fanlararo integratsiya turlari	Fanlararo integratsiya turlarini tashkil etuvchi o'quv materiallar mazmuni	
Tarkibi bo'yicha	1. Mazmuni bo'yicha	Dahillar, tushunchalar, qonunlar, nazariyalar bo'yicha	
	2. Bajariladigan operatsiyalari bo'yicha	Shakllantiriladigan ko'nikmalar, malaka va fikrlash operatsiyalari bo'yicha	
	3. Metodik qo'llanilishi	Pedagogik metodlardan foydalanish bo'yicha	
	4. Tashkil etilishi bo'yicha	O'quv-tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etish shakllari va metodlari bo'yicha	
Integratsiyaning yo'nalishlari bo'yicha	Bir tomonlama; Ikki tomonlama; Ko'p tomonlama.	To'g'ri; Teskari (qaytar) yoki tiklanuvchi.	
Integratsiyani tashkil etuvchi elementlarining o'zaro ta'siri bo'yicha	Vaqt omiliga ko'ra	Xronologik	Izchillikdagi; Sinxron; Istiqboldagi.
		Xronometrik	Lokal; O'rtacha vaqt davomidagi; Uzoq vaqt davomidagi.

Birinchi shaklda fanlararo integratsiyalar turlarini tarkibi bo'yicha ajratamiz. Fanlararo integratsiya tarkibi bo'yicha aniq mavzuni o'rganishda boshqa o'quv fanlaridan nimalar olinishini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, fanlararo integratsiya tarkibi ko'nikma, malaka va fikrlash operatsiyalari bilan shakllanadigan o'quv mavzusining mazmuni bilan belgilangani uchun ularning birinchi shaklida fanlararo integratsiyalarning quyidagi xillarini ajratish mumkin: Mazmuni bo'yicha – o'rganilayotgan mavzu mazmuni bo'yicha turli o'quv fanlarida o'rganiladigan tushunchalar, hodisalar, jarayonlarni talqin qilish birligi bo'yicha;

1. Bajariladigan operatsiyalari bo'yicha – fanlararo xususiyatda shakllanadigan ko'nikmalar, malakalar va fikrlash operatsiyalari bo'yicha;

2. Metodik qo'llanilishi – turli o'quv fanlari bo'yicha o'quv ishlari metodlarini kelishtirish, turli o'quv fanlari mavzularini o'rganishda bir xil metodlarni qo'llash (grafik, tahliliy);

3. Tashkil etilishi bo'yicha – orasida integratsiya o'rnatiladigan o'quv fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish shakllari va tuzilmasini mos kelishi.

Fanlararo integratsiyani nafaqat alohida o'quv fanlarining, balki o'qituvchi va talabalarning uyg'un xatti-harakatlari, o'quv jarayoni barcha elementlarining tizimidir, o'quv jarayonida fanlararo integratsiyaning ahamiyati va o'rni belgilash uchun ularni tasniflash zarur, chunki, tizimli yondashuv bu integratsiyaning nafaqat ko'p qirraliligini va foydalanish metodlarini ham aniqlashga imkon beradi (1.1-rasm).



1.1-rasm. Fanlararo integratsiyaning qo'llanish sohasi bo'yicha tasnifi

B.Abdullaevaning ta'kidlashicha fanlararo integratsiya ni ta'lim maqsadlari va o'zlashtirish darajasi bo'yicha quyidagi sinflarga ajratish tavsiya etilgan [2].

O'zlashtirish darajasiga ko'ra: empirik (ta'minlovchi fanlarda o'rganilayotgan umumiy ob'ektlarning boshqa xususiyatlari haqidagi bilimlarni ajratish va ifoda etish); nazariy (umumiy o'rganilayotgan ob'ektlarning bir qator fanlarda ochib ko'rsatib beriladigan aloqasida alohida xususiyatlarini yagona yaxlitlashdagi nisbatlari); dunyoqarashlik (tabiat va jamiyatni dialektik tushunishga yordam beruvchi).


V.N.Maksimova [5] fanlararo integratsiyani "ma'lum bir tarkibiy, tuzilmaga, funktsiyalarga va butun pedagogik jarayonda

amalg oshirish yo'llariga ega bo'lgan tizimli didaktik fenomen" sifatida ta'riflaydi.

A.V.Usova [7] esa "fanlararo integratsiya gnoseologik nuqtai-nazardan o'qitish mazmuni va metodlarida ob'ektiv mavjud bo'lgan ilm-fan yo'nalishlararo aloqalar va ilm-fanning ishlab chiqarish bilan integratsiyaining aksi hisoblanishi" deb biladi.

Yu.K.Babanskiy [4] ko'rsatishicha, "fanlararo integratsiya ... ilm-fan yo'nalishlararo o'zaro xatti-harakatlarning didaktik ekvivalenti bo'lib hisoblanadi".

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida fanlararo integratsiyaning ishchi ta'rifini ishlab chiqdik.



Fanlararo integratsiyani asosiy maqsadi o'quv jarayonida quyidagi talablarning bajarilishini ta'minlashdir:

- turli hil fanlarni o'rganishda takrorlanishlarning oldini olish;

- alohida mavzularni o'rganish vaqtini muvofiqlashtirish imkoniyati;

- talabalarning ilmiy tushuncha va tasavvurlarni shakllantirishda, ularga amaliy malaka va ko'nikmalarni shakllantirishda turli fan o'qituvchilari salohiyatining birlashtirilishi;

- ilmiy tushunchalarni ta'riflash-tavsiflashda o'xshashlik va ularning qarama-qarshi emasligi;

- talabalarning turli hil fanlardan o'zlashtirgan bilimlardan o'qituvchilar tomonidan o'zaro foydalanilishi;

- o'quv fanlarining o'ziga xosligi va ular orasidagi aloqalarning xususiyatlari bilan boshqa pedagogik vazifalarning bajarilishi.

O'quv jarayonida talabalarning bilish faoliyatini mazmunan boyitishga fanlararo integratsiya quyidagi hollarda ko'maklashadi:

- o'rganilayotgan fan tushunchalarini kengaytirish orqali bilimlarning muayyan tizimini shakllantirish;

- talabalarda ijodiy hamda mustaqil fikrlashni rivojlantirish, ularda mustaqillik va faollik kabi xislatlarni tarkib toptirish;

- talabalarda kasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

Fanlararo integratsiyada amalga oshiriladigan mustaqil ishlar talabalarning bilish faoliyatini kuchaytirishda keng imkoniyatlar ochib beradi. Bunday ishlarni bajarish chog'ida talabalar bir yo'la bir necha fanlar bo'yicha bilim va malakalarni qo'llay oladilar. Mazkur ishlarning mavzulari o'z ichiga rejalar ishlab chiqishni, adabiyotlarni o'rganishni, tajribalarni ishga solishni, sxemalar va chizmalar tayyorlashni talab qiluvchi turli-tuman materiallarni qamrab oladi. Fanlararo integratsiyani amalga oshirishning metodik usullari xilma-xilligi tufayli ulardan darslar tizimidagi o'quv vazifalarining o'zgarishi va murakkablashib borishiga muvofiq ravishda foydalanilsa yaxshi samara beradi.

ADABIYOTLAR

1. Abduqudusov O. A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashga integrativ yondashuv. -T.: «Fan», 2005. -B. 160.
2. Abdullaeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari. Monografiya. – T.: Fan-2005. -25b.
3. Aliqulov S.T. O'quvchilarning umumtexnik bilim va ko'nikmalarini fanlararo aloqadorlik vositasida rivojlantirishning uslubiy asoslari Ped.fan.nom. ...dis. -T.: O'MKHTTKMO va UQTI. 2008.-145b.
4. Бабанский Ю.К. Проблемное обучение как средство повышения эффективности учения школьников / Ю.К. Бабанский. - Ростов-н/Д., 2004.- 125 с.
5. В.Н.Максимова Межпредметные связи в процессе обучения. М.: Просвещение, 1998 г. 192 с.
6. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarining bilim, ko'nikmalarini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish metodikasi // Monog. – T.: TDPU Rizografi, 2014. 7,5 b.t
7. 129. Усова А.В. Проблемы теории и практики обучения в современной школе: Избранное. - Челябинск: Издательство ЧПТУ, 2000. - 221 с.



UDK:336.763.53

Muhammadjon AHMADJONOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: mziyo2024@mail.ru

PhD R. Omonov taqrizi ostida

IMPORTANCE OF PUBLIC FINANCIAL LITERACY IN MODERN SOCIETY

Annotation

This article talks about the scientific-theoretical interpretation of the importance of state financial literacy in modern society. In particular, the importance of financial literacy in the global trend and the role of mass media in increasing it will be analyzed. Also, the article analyzes the research works of a number of foreign and local scientists and gives relevant suggestions and recommendations regarding the existing controversial theoretical views.

Key words: Financial literacy, media space, internet journalism.

ЗНАЧЕНИЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация

В данной статье говорится о научно-теоретической интерпретации значения государственной финансовой грамотности в современном обществе. В частности, будет проанализировано значение финансовой грамотности в мировом тренде и роль средств массовой информации в ее повышении. Также в статье анализируются исследовательские работы ряда зарубежных и отечественных ученых и даются соответствующие предложения и рекомендации относительно существующих противоречивых теоретических взглядов.

Ключевые слова: Финансовая грамотность, медиапространство, интернет-журналистика.

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA MOLIVAVIY SAVODXONLIK VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA OAVLARNING TA'SIRI

Аннотация

Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyatda molivaviy savodxonlik va madaniyatni shakllantirishda OAVlarning ta'siri, ilmiy-nazariy talqini haqida so'z boradi. Xususan, mavzuga oid bugungi kunda molivaviy savodxonlikning jahon tendensiyasidagi ahamiyati, uni oshirishda OAVning yetakchilik roli xususida tahlillar olib boriladi. Shuningdek, maqolada bir qator xorijlik va mahaliy olimlarning tadqiqot ishlari tahlil qilinib, mavjud bahsli nazariy qarashlar xususida tegishli taklif va tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Molivaviy savodxonlik, media-makon, internet jurnalistika.

Kirish. Ma'lumki, fuqarolarning molivaviy savodxonligi, iqtisodiy bilimlari yuksakligi darajasi nafaqat o'zlarining moddiy farovonligiga ta'sir qiladi, balki ayni vaqtda mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning obyektiv "barometri" bo'lib hisoblanadi ham. Binobarin, iqtisodiy qarorlarni ongli ravishda qabul qilish va ular uchun mustaqil ravishda javobgar bo'lish qobiliyati aholini kelajakka, davlat uchun esa iqtisodiyotdagi o'zgarishlarni idrok etadigan fuqarolarning ko'payishini ta'minlaydi. Asosiy molivaviy bilimlarning yetishmasligi, aksincha, hayot darajasini pasaytiribgina qolmay, mamlakat iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishiga ham jiddiy to'siq sifatida xizmat qiladi. Ushbu maqolada "Axborotlashgan jamiyatda molivaviy savodxonlik va madaniyatni shakllantirishda OAVlarning ta'siri" xususida atroflicha so'z boradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Axborotlashgan jamiyatda molivaviy savodxonlik va madaniyatni shakllantirishda OAVlarning ta'siri muammosi nisbatan yangi, ammo bu hodisani o'rganishga katta hissa qo'shgan tadqiqotchilar ham bor. Ular orasidan biz chet ellik olimlarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin — A. Atkinson, F. A. Messi, A. Lusardi, P. Tufano, A. A. Hang, A. M. Parker, J. Young, E. Kempson, V. Petrotti, K. Scott, D. Remandz va rus tili tadqiqotchilar — O. V. Kuzin, M. Yu Shevyakov, M. I. Podbolotov, N. V. Demin, M. E. Paatov, M. Sh. Daurov, D. A. Shevchenko va boshqalar.

Axborotlashgan jamiyatda "molivaviy savodxonlik va madaniyatni shakllantirish" fenomenini o'rganish nazariyasi va metodologiyasi hozirda boshlang'ich bosqichda. Molivaviy savodxonlikka bag'ishlangan keng ko'lamli asarlar mavjudligiga qaramay, uning mintaqaviy xususiyatlariga (ayniqsa) yetarlicha e'tibor berilmayapti.

Tadqiqot metodologiyasi. "Molivaviy savodxonlik" - bu to'g'ri molivaviy qarorlar qabul qilish va shaxsiy molivaviy farovonlikka erishish uchun zarur bo'lgan xabardorlik, bilim, ko'nikma, munosabat va xatti-harakatlarning kombinatsiyasidir [1]. Molivaviy savodxonlik ta'lim darajasi bilan chambarchas bog'liq: minimal savodxonlik orasida 32% umumiy o'rta ma'lumotga ega. Shu bilan birga, turli darajadagi molivaviy savodxonlikka ega bo'lganlarning molivaviy ahvolidagi sezilarli farqqa ega emas. Molivaviy savodxonlik darajasi minimal bo'lgan guruh bundan

mustasno — uning moddiy ahvoli ko'rsatkichlari boshqa guruhlariga qaraganda pastroqdir[3].

So'nggi 10 ichida molivaviy ta'limning ahamiyati, jumladan, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va molivaviy barqarorlik va fuqarolar farovonligini saqlash uchun molivaviy xizmatlardan foydalanishni ta'minlashning qo'shimcha elementi sifatida o'sdi. Molivaviy savodxonlik molivaviy bozorlarning rivojlanishi, shuningdek, demografik, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar natijasida hayotiy ko'nikmaga aylangani bugungi kunda keng e'tirof etilgan. Shu bilan birga, molivaviy bozorlar murakkablashib, individual iste'molchilarga tobora ko'proq yangi mahsulotlar taklif qilinmoqda. Molivaviy bozorlarni tartibga solishning bekor qilinishi va axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasidagi yutuqlar tufayli xarajatlarning qisqarishi bozor ehtiyojlariga moslashtirilgan yangi molivaviy mahsulotlarning ko'payishiga olib keldi. Omonat hisobvaraqlari kabi oddiy mahsulotlar ham endi turli formatlarda va turli xil variantlarda taklif etilmoqda[4].

Jahon amaliyotining ko'rsatishicha, aholi o'z mablag'laridan to'g'ri foydalanish, o'z xarajatlari va jamg'armalarni rejalashtirish, investitsiyalashning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, favquloddagi vaziyatlar uchun zarur bo'lgan mablag' jamg'arish borasida yetarli darajada bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmaganliklari sababli samarasiz qarorlar qabul qilishda va o'zlarining moddiy farovonligini oshirish uchun salohiyatlaridan, imkoniyatlaridan to'liq foydalana olmaydilar. Kishilarni qabul qilayotgan molivaviy qarorlarini samaradorligini oshirish uchun aholining molivaviy savodxonligini oshirishimiz zarur. Davlat uchun aholi savodxonligining past darajasi, to'lov qobiliyatini rivojlantirish borasidagi to'siqlarning mavjudligi molivaviy bozorlari imkoniyatini va tartibga solish samaradorligini pasaytiradi, iste'molchilar huquqini cheklaydi, shaxsiy qatnashuvga asoslangan jamg'ariladigan pensiya tizimiga o'tishga yo'l qo'ymaydi. Iqtisodiy nuqta nazardan molivaviy xizmatlar borasidagi bilim darajasining yetarli emasligi aholining keng qatlamlarini, jumladan, o'rta sinfni iste'mol qilishga past darajada jalb etilganligini bildiradi hamda barqaror iqtisodiy o'sish salohiyatini belgilovchi jamg'arish, investitsiyalar darajasi va sifatini cheklaydi.[5] Zamonaviy bozor iqtisodiyotining rivojlanishi aholini pensiya jamg'arish, sug'urta va

ipoteka tizimlarida faol ishtirok etishini talab qiladi. Chunki aholining ushbu tizimlardagi ishtiroki pensiya jamg'arish, ijtimoiy va tibbiy sug'urta, uy-joy bilan ta'minlash va ta'lim sifatini oshirish kabi masalalarni hal qilishga yordam beradi. O'rta sinf uchun xos bo'lgan jamg'arishni kengaytirish va uni samarali ishlatish mamlakatdagi ijtimoiy- iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, makroiqtisodiy muvozanatga erishish va moliya tizimining mustahkamlanishiga asos bo'ladi. Moliyaviy savodxonlik rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda yanada shaffof, sog'lom va barqaror iqtisodiyotga intilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan masaladir.

Tahlil va natijalar . "Moliyaviy savodxonlik" shaxsiy moliyaviy boshqaruv, byudjetlashtirish (kirim-chiqim) va investitsiyalarni o'z ichiga olgan turli xil moliyaviy ko'nikmalarni tushunish va samarali ishlatish qobiliyatidir. Istalgan moliyaviy maqsadlarga erishish uchun aholining daromad topish, sarflash, tejash, qarz va investitsiyalar bo'yicha savodxonlik darajasi yuqori bo'lishi muhim hisoblanadi. Insonlarning moliyaviy savodxonlik darajasi past bo'lishi natijasida tadbirkorlikda omadsizlikka uchrashi, o'z moliyaviy resurslarini to'g'ri joylashtira olmasligi mumkin. Mavjud moliyaviy bozor instrumentlaridan maqsadli foydalana olmasligi oqibatida esa kambag'allik yoki o'rta hol turmush darajasidan yuqori pog'onalarga chiqishi murakkablashadi. Insonlarda moliyaviy savodxonlikning yuqori darajada bo'lishi to'g'ri investitsiya qilishi, doimiy daromad manbaini shakllantirishda hamda keksalikda o'zining moddiy ehtiyojlarini qoplashi uchun aql bilan tadbirli ish tutushini ta'minlaydi. Aholi moliyaviy savodxonligining ijtimoiy ahamiyati ham bor.

Xo'sh, axborotlashgan jamiyatda moliyaviy savodxonlik va madaniyatni shakllantirishda OAVlarning ta'siri qanday?

Mamlakatimizda iqtisod mavzusida yozayotgan jurnalistlar ko'p emasligi, bu boradagi bosma va elektron nashrlar ham kamligi ta'kidlanadi. Ko'rinishidan, bu iqtisodiy mavzu faqat tor doiradagi odamlarni qiziqtiradi, degan yuzaki qarashning natijasidir. Moliyaviy savodxonlik va madaniyat nima? Nima uchun bu mavzu butun dunyoda dolzarb? Boylar boyib boradi, kambag'allar qashshoqlashadi. Nega butun dunyoda boy va kambag'al o'rtasidagi tafovut o'sib bormoqda? Bunday savollar bizga mashhur iborani eslatadi: "Boylar moliyaviy savodxonlik uchun to'laydi, kambag'allar moliyaviy savodsizlik uchun to'laydi".[6] Moliyaviy savodxonlik, ekspertlarning fikriga ko'ra, moliyaviy bozorlar, ularning faoliyati va tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari, professional ishtirokchilar va ular

taklif etayotgan moliyaviy vositalari, mahsulot va xizmatlari, ulardan to'liq xabardorlik bilan foydalanish qobiliyati haqidagi bilimlar to'plamidir. O'z harakatlarining oqibatlari va qabul qilingan qarorlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishga tayyorligi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida muvaffaqiyatga moliyaviy menejment bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lganlar erishadi. Moliyaviy savodxonlik va madaniyat ham o'z moliyaviy ahvolini boshqarish va uni oshirish qobiliyatidir. Bunday bilim hammaga kerak. Zero, iqtisod mavzusidagi jurnalistik faoliyat mutaxassisdan ma'lum bilim va tayyorgarlikni talab qiladi, chunki u murakkab mavzularni aholiga tushunarli tilda yetkazishi kerak. Binobarin, ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilmasdan turib, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va muayyan faoliyat samaradorligini ta'minlash mumkin emas. Iqtisodiy mavzularni yoritishga ixtisoslashgan jurnalistlarning har bir so'zi o'quvchi va tinglovchilarning moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan chaqiriqdir.

Xulosa va takliflar . Moliyaviy savodxonlikni oshirishda OAV (ommaviy axborot vositalari)ning muhim roli bor. OAV moliyaviy bilimlarni ommaviylashtirish, odamlarni moliyaviy savodxonlik, byudjetlash, investitsiya qilish va boshqa moliyaviy malakalarga urg'u berishda asosiy rolni o'ynaydi.

OAV quyidagi yo'nalishda faoliyat ko'rsatishi mumkin: Moliyaviy masalalarni ommaviy tushuntirish va targ'ibot qilish.

Moliyaviy savodxonlik bo'yicha maqolalar, teleko'rsatuv va radioprogrammalarini tayyorlash.

Moliyaviy tushuntirish videolari, audiokitoblari, maslahatlar va boshqa multimedia resurslarini yaratish.

Yangi moliyaviy mahsulotlar, xizmatlar va texnologiyalar haqida ma'lumot tarqatish.

Moliyaviy savod bo'yicha maslahatlar berishga bag'ishlangan alohida rubrikalar/sahifalar ochish.

Moliyaviy xatolarni aniqlash va bunday xatolarni qanday oldini olish borasida ma'lumot berish.

Ommaviy moliyaviy savodxonlikni oshirish kampaniyalarini tashkil etish.

OAV shu bilan birga siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tahdidlardan xabardor qilish, omma ongini shakllantirish va odamlarda moliyaviy savodxonlik madaniyatini rivojlantirish kabi vazifalarni ham bajarishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. What is a Payday loan? // US Consumer Protection Financial Bureau. 2017. June 2. Режим доступа: <http://www.consumerfinance.gov/askcfpb/1567/what-payday-loan.html> (дата обращения: 09.05.2017).
2. Латиф А.В. Особенности значения и употребления экономических терминов в текстах СМИ // Вестн. РУДН. Сер.: Теория языка. Семиотика. Семантика. 2014. № 4. С. 65-71.
3. Демина И.Н. (а) Сущность экономической журналистики // Известия ИГЭА. 2011. № 1. С. 217.
4. Кузина О. Е. Финансовая компетентность россиян: результаты международного сравнительного исследования // Деньги и кредит. - 2015. - № 5. - С. 64.
5. Кузина О. Е. Финансовая грамотность и финансовая компетентность: определение, методики измерения и результаты анализа в России // Вопросы экономики. - 2015. - № 8. - С. 129.
6. <https://uzreport.news/finance/predstaviteli-smi-povyishayut-znaniya-v-finansovoy-sfere>



Dilrabo ASHUROVA,
TerDU doktoranti
E-mail: dilraboashurova2791@gmail.com

DSc, professor V.Ashurov taqrizi asosida

THE ROLE OF ABDUQADIR SHAKURI'S PEDAGOGICAL VIEWS IN RAISING A PERFECT GENERATION.

Annotation

Raising a perfect generation is one of the important tasks for the future of every society. Abduqadir Shakuri's pedagogical views are of particular importance in the spiritual and cultural development of Uzbekistan, as well as in the education of the young generation. Through his scientific and practical activities, he strove to organize the educational process more effectively and purposefully. This article analyzes the pedagogical views of Abduqadir Shakuri and their role in raising a mature generation.

Key words: Mature generation, education, moral values, pedagogical approaches, creative thinking, traditions, new method schools, modernism.

РОЛЬ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЗГЛЯДОВ АБДУКАДИРА ШАКУРИ В ВОСПИТАНИИ СОВЕРШЕННОГО ПОКОЛЕНИЯ

Аннотация

Воспитание совершенного поколения – одна из важных задач будущего каждого общества. Педагогические взгляды Абдукадира Шакури имеют особое значение в духовном и культурном развитии Узбекистана, а также в воспитании молодого поколения. Своей научной и практической деятельностью он стремился более эффективно и целенаправленно организовать учебный процесс. В данной статье анализируются педагогические взгляды Абдукадира Шакури и их роль в воспитании зрелого поколения.

Ключевые слова: Зрелое поколение, образование, нравственные ценности, педагогические подходы, творческое мышление, традиции, школы нового метода, модернизм.

BARKAMOL AVLODNI TARBİYALASHDA ABDUQODIR SHAKURIYNING PEDAGOGIK QARASHLARINING O'RNI

Annotatsiya

Barkamol avlodni tarbiyalash, har bir jamiyatning kelajagi uchun muhim vazifalardan biridir. O'zbekistonning ma'naviy va madaniy rivojlanishida, shuningdek, yosh avlodni tarbiyalashda Abduqodir Shakuriyning pedagogik qarashlari alohida ahamiyatga ega. U o'zining ilmiy va amaliy faoliyati orqali tarbiya jarayonini yanada samarali va maqsadga muvofiq tashkil etishga intilgan. Ushbu maqolada Abduqodir Shakuriyning pedagogik qarashlari va ularning barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Barkamol avlod, tarbiya, ma'naviy qadriyatlar, pedagogik yondashuvlar, ijodiy fikrlash, an'analar, yangi usul maktablari, jadidchilik.

Kirish. Abduqodir Shakuriyning pedagogik qarashlari, avvalo, insonning ma'naviy va axloqiy tarbiyasiga qaratilgan. U tarbiyaning asosiy maqsadi sifatida yosh avlodni mustaqil fikrlovchi, ijodkor va ma'naviy jihatdan barkamol shaxslar sifatida tarbiyalashni belgilaydi. Shakuriyning fikricha, tarbiya jarayoni faqat bilim berishdan iborat emas, balki yoshlarning ruhiy, axloqiy va jismoniy rivojlanishini ham o'z ichiga olishi kerak. Shakuriyning pedagogik yondashuvi insonni markazga qo'yadi. U tarbiyada insonparvarlik, mehr-muruvvat va samimiyatni asosiy qadriyat sifatida ko'radi. Yoshlarni ijodkorlikka rag'batlantirish, ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va yangi g'oyalarni yaratishga undash Shakuriyning pedagogik faoliyatining muhim jihatlaridan biridir.

Abduqodir Shakuriyning pedagogik qarashlarida milliy qadriyatlar va an'analar muhim o'rin tutadi. U yosh avlodni o'z milliy madaniyatiga, tarixiga va an'alariga hurmat bilan qarashga o'rgatadi. Shakuriyning fikricha, tarbiya jarayoni uzluksiz bo'lishi kerak. Bu, o'z navbatida, oiladan boshlanib, maktab va jamiyatda davom etishi zarurligini anglatadi[4].

Abduqodir Shakuriyning pedagogik qarashlari va uning ta'lim sohasidagi hissi o'z davrida va hozirgi kunda ham o'ta muhimdir. U o'z xalqining madaniy va ilmiy saviyasini oshirish, millatni yangilanish sari yetaklashni maqsad qilgan jadidchilik harakatining yirik vakillaridan biri bo'lgan. Uning ta'lim va tarbiya tizimidagi g'oyalari barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etgan.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Abduqodir Shakuriyning pedagogik qarashlari barkamol avlodni tarbiyalashda bir qator ijobiy natijalarga olib keladi. Yoshlar o'zlarining ma'naviy qadriyatlarini anglab, axloqiy jihatdan barkamol shaxslar sifatida shakllanadilar. Ijodkorlikka qaratilgan yondashuv, yoshlarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va ularni yangi g'oyalarni yaratishga undaydi. Milliy qadriyatlar va an'analarni o'zlashtirish, yoshlarning o'zligini anglashiga va o'z madaniyatiga hurmat bilan qarashga yordam beradi. Tarbiyaning uzluksizligi, yoshlarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi va ularni jamiyatga foydali shaxslar sifatida tayyorlaydi. Abduqodir Shakuriyning barkamol

avlodni tarbiyalashdagi yondashuvi bir qator ijobiy natijalarga olib keladi[5].

Abduqodir Shakuriy (1875–1943) XIX asming oxiri va XX asr boshlarida faoliyat olib borgan jadid pedagogi, olim va ma'rifatparvar edi. Shakuriy yoshligidan ilmga bo'lgan qiziqishi tufayli turli madrasalarda ta'lim oldi va islom ilmlari bilan birga dunyoviy bilimlarga ham chuqur e'tibor qaratdi.

Shakuriy eski madrasalardagi ta'lim tizimini isloh qilish zaruratini ko'rsatib, yangi usuldagi maktablarni ochish tashabbusi bilan chiqqan. U 1903-yilda Samarqandda yangi usuldagi birinchi maktablarni ochgan va bu maktablarda zamonaviy fanlar o'qitilishini yo'lga qo'ygan. Ushbu maktablarda dars berishning interaktiv va zamonaviy usulbarini joriy qilgan.

Yoshlar o'z qobiliyatlarini, iste'dodlarini va individual xususiyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Shakuriyning ijodkorlikka qaratilgan yondashuvi yoshlarni yangi g'oyalarni yaratishga va muammolarni innovatsion usullar bilan hal qilishga undaydi. Milliy qadriyatlar va an'analarni o'zlashtirish orqali yoshlar o'z millatiga bo'lgan hurmatini oshiradi va o'zligini anglaydi. Tarbiya jarayonida ijtimoiy mas'uliyat va faollikni rivojlantirish, yoshlarni jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorlaydi. Insonparvarlik tamoyillari asosida o'zaro hurmat va hamkorlik muhitini yaratadi, bu esa ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashga yordam beradi. Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim orqali yoshlar hayotda muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallaydi. Tarbiyaning uzluksizligi tamoyili yoshlarni o'qish va o'rganishga doimiy ravishda tayyorlaydi, bu esa ularning bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab turishga yordam beradi.

Muhokama va natijalar. Abduqodir Shakuriyning pedagogik qarashlari yoshlarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda bir qator muhim tamoyillarni o'z ichiga oladi. Shakuriyning ta'lim jarayonida ijodiy muammolarni hal qilishga qaratilgan yondashuvi, yoshlarni o'z fikrlarini erkin ifoda etishga va yangi g'oyalarni ishlab chiqishga undaydi. Bu, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim jarayonida ochiq mulqot va

fikr almashish muhitini yaratish, yoshlarning o'z fikrlarini erkin ifoda etishiga yordam beradi. Bu, ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi va yangi g'oyalari paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Amaliy mashg'ulotlar va loyihalar orqali yoshlar o'z ijodiy qobiliyatlarini sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish orqali ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Shakuriyning pedagogik yondashuvi tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan. Yoshlarni o'z-o'zini o'rganishga va mustaqil fikrlashga undash, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu, o'z navbatida, o'z fikrlarini mustaqil ravishda shakllantirishga yordam beradi. Yoshlarni ijodiy faoliyatga rag'batlantirish va ularning muvaffaqiyatlarini e'tirof etish, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini yanada rivojlantirishga yordam beradi. Turli fanlar va sohalar o'rtasida bog'lanishlarni o'rganish, yoshlarning ijodiy fikrlashini kengaytiradi va ularni yangi g'oyalari yaratishga undaydi. Abduqodir Shakuriyning pedagogik qarashlari bir qator asosiy tamoyillarga asoslanadi. Ta'lim jarayonida insonning shaxsiyati, qobiliyatlari va ehtiyojlarini inobatga olish. Har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hurmat qilish va ularni rivojlantirishga qaratilgan yondashuv.

Abduqodir Shakuriy asarlarida uning ta'lim-tarbiya, millat va o'zlik haqida chuqur mulohazalari aks etgan. Shakuriy o'z fikrlarini asosan maqolalar, risolalar va ma'ruzalar shaklida ifoda etgan. Uning asarlarida yangi ta'lim usullari, ilm-fan rivoji va millatni madaniy jihatdan yuksaltirish masalalari keng yoritilgan. Yoshlarni ijodiy fikrlashga, yangi g'oyalari yaratishga va muammolarni innovatsion usulda hal qilishga undash. Bu tamoyil ta'lim jarayonida ijodiy muammolarni hal qilishga qaratilgan faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Ta'lim jarayonida nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish. O'quvchilarni amaliy mashg'ulotlar orqali o'z bilimlarini mustahkamlash va rivojlantirishga undash. Ta'lim jarayonida ochiq muloqot va fikr almashish muhitini yaratish. O'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda etishlari va bir-birlaridan o'rganishlari uchun sharoit yaratish. O'quvchilarni tanqidiy fikrlashga, o'z fikrlarini baholash va tahlil qilishga o'rgatish. Bu tamoyil yoshlarni mustaqil fikrlashga va o'z qarorlarini qabul qilishga tayyorlaydi. Turli fanlar va sohalar o'rtasida bog'lanishlarni o'rganish. Bu tamoyil o'quvchilarga keng qamrovli fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilarni ta'lim jarayonida faol ishtirok etishga va o'z qobiliyatlarini rivojlantirishga rag'batlantirish. Bu tamoyil o'quvchilarning muvaffaqiyatlarini e'tirof etish va ularni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi. Shakuriyning pedagogik qarashlari, o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Bu tamoyillar ta'lim jarayonini yanada samarali va mazmunli qilishga yordam beradi.

Shakuriy yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish jarayonida, urf-odat va an'analarni himoya qilish bahonasida milliy biquqlik va cheklanishlarga berilmaslik kerakligini ta'kidlab, yoshlarning davr

mezonlari asosida kiyinishi, hayot yangiliklariga intilishini ta'qiqlamaslik, balki qo'llab-quvvatlash lozim, deb hisobladi"[6].

Bundan ayon bo'lmoqdakim, Shakuriy har bir juz'iy narsa haqida bahs yuritib, xalqni kofiru musulmonga ajratib tashlash yoshlarning ma'naviy dunyosiga va barkamol shaxslar bo'lib voyaga yetishiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Bu o'rinda Mahmudxo'ja Shakuriyning islom dini asoslarini yaxshi bilganligi, ayniqsa, o'z qarashlarida hanafiylik mazhabi tarafdori bo'lganligini ta'kidlash zarur. Shakuriy o'zi yashagan davr ibtidosi nuqtai nazaridan real fikr yuritadi. Shakuriy ma'naviy merosi haqida gap ketganda, uning hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini saqlab qolayotgani, hatto juda dolzarb ahamiyat kasb etib borayotganini qayd qilish zarur.

Abduqodir Shakuriyning ma'rifatparvarlik g'oyalari ham kelajak jamiyati rivojlanishining tub manfaatlari bilan bog'liqdir. Uning asarlari, maqolalari o'quvchi-yoshlar tarbiyasi, mutaxassislarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya jarayoni uzviyligi masalalariga qaratilgan. Abduqodir Shakuriyning tarbiya to'g'risidagi fikrlari O'zbekiston ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixida muhim ahamiyatga egadir. Gaspiralinining ma'rifatparvarlik g'oyalari ergashgan Abduqodir Shakuriyning ma'rifatning jamiyat shakllanishi va rivojlanishidagi rolini yuksak baholadi. U aholi o'rtasida ma'rifat tarqatish yo'li bilan millatni sivilizatsiyaga olib chiqish mumkin, deb hisoblaydi. Shuning uchun o'qituvchi va muharriri millatning ikki qo'li deb biladi. Abduqodir Shakuriy johillik va diniy mutaassiblikni tanqid qiladi. Uning davlat va din o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, vijdon erkinligi to'g'risidagi fikrlari katta ahamiyatga egadir. Ma'rifatparvar o'z asarlarda xalqning ahvolini vatanparvarlar va fuqarolarni tarbiyalash orqali o'zgartirish mumkin, g'oya mujassamdur. Ta'lim va tarbiya shaxs rivojlanishi hamda ijtimoiy taraqqiyotning tezlashuvida hal qiluvchi rol o'ynaydi, deb hisoblaydi. Vatanparvarlik uning ko'p qirrali faoliyatining xarakterli xususiyatidir.

Xulosa. Abduqodir Shakuriyning pedagogik qarashlari barkamol avlodni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Uning insonparvarlik, ijodkorlik, milliy qadriyatlar va tarbiyaning uzluksizligi kabi tamoyillari, yoshlarni har tomonlama rivojlanishiga va jamiyatga foydali shaxslar sifatida tayyorlashga xizmat qiladi. Shakuriyning pedagogik yondashuvlari, kelajak avlodni tarbiyalashda zamonaviy pedagogik uslublar va metodlarni qo'llashda ham o'z ahamiyatini saqlab qoladi.

Abduqodir Shakuriyning pedagogik qarashlari nafaqat o'z davri, balki bugungi kunda ham ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega. Uning milliy tarbiya va zamonaviy ta'limni uyg'unlashtirishga bo'lgan yondashuvi barkamol avlodni tarbiyalashning muhim sharti sifatida qaraladi. Shakuriyning ilgari surgan g'oyalari bugungi kunda yosh avlodni milliy va madaniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularni zamonaviy ilm-fan yutuqlariga yo'naltirish uchun asosiy manba bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Абдуқодир Шакурӣ — Национальная энциклопедия Узбекистана (узб.). — Ташкент, 2000—2005.
2. Абдуқодир Шакурӣ (1875-1943) (узб.). ziyouz.uz. Дата обращения: 19 мая 2019.
3. Абдуқодир Шакурӣ (узб.). IRIB Uzbek Radio. Дата обращения: 19 мая 2019. (недоступная ссылка)
4. Абдуқодир Шакурӣ (тадж.). kitobam.com. Дата обращения: 19 мая 2019.
5. Adeb Khalid: The Politics of Muslim Cultural Reform. Jadidism in Central Asia. University of California Press, Berkeley & Los Angeles, 1998. ISBN 0-520-21356-4
6. Edward Allworth: The modern Uzbeks: from the fourteenth century to the present; a cultural history. Hoover Press, 1992. ISBN 0-817-98732-0



Gulmira BERDIYEVA,
Toshkent ijtimoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, PhD
E-mail: sharopovr@bk.ru

Qarshi davlat universiteti dotsenti, p.f.d L.Beknazarova taqrizi asosida

PEDAGOGIK JAMOADAGI BULLING: IJTIMOY-PSIXOLOGIK TAHLIL

Аннотация

Pedagogik jamoadagi bulling (masxara qilish) ta'lim muassasalaridagi muhitga va pedagoglarning kasbiy faoliyatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadigan keng tarqalgan muammo hisoblanadi. Ushbu tadqiqot pedagoglar o'rtasidagi bullingning mohiyati, shakllari va oqibatlarini tahlil qilish hamda uning yuzaga kelishiga olib keluvchi omillarni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot doirasida pedagoglar o'rtasida so'rovnoma va jabrlanuvchilar bilan chuqur intervyular o'tkazildi, bu esa muammoni yanada batafsil o'rganish va uning oldini olish bo'yicha amaliy choralarini taklif qilish imkonini berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim muhitida bullingga samarali qarshi kurashish uchun nol tolerantlik siyosatini ishlab chiqish va pedagoglar uchun qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish zarur.

Kalit so'zlar: bulling, pedagogik jamoa, ish joyidagi masxara qilish, ijtimoiy-psixologik tahlil, ta'lim muhiti, kasbiy yonish, jamoadagi mojaro, nol tolerantlik, xodimlarni qo'llab-quvvatlash.

ИЗДЕВАТЕЛЬСТВА В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ КОЛЛЕКТИВЕ: СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

Издевательства в педагогическом коллективе, также известные как буллинг, представляют собой распространенную проблему, которая оказывает значительное негативное влияние на атмосферу в образовательных учреждениях и на профессиональную деятельность педагогов. Данное исследование направлено на анализ природы, форм и последствий издевательства среди педагогов, а также на выявление факторов, способствующих их возникновению. В рамках работы проведен опрос педагогов, а также глубокие интервью с пострадавшими, что позволило более детально рассмотреть проблему и предложить практические меры по её предотвращению. Результаты исследования показывают, что для эффективного противодействия буллингу в образовательной среде необходимо разработать и внедрить политику нулевой терпимости, а также создать систему поддержки педагогов.

Ключевые слова: буллинг, педагогический коллектив, издевательства на работе, социально-психологический анализ, образовательная среда, профессиональное выгорание, конфликт в коллективе, нулевая терпимость, поддержка работников.

BULLYING IN THE PEDAGOGICAL TEAM: A SOCIO-PSYCHOLOGICAL ANALYSIS

Annotation

Bullying in the pedagogical team, also known as workplace harassment, is a widespread problem that has a significant negative impact on the atmosphere in educational institutions and on the professional activities of educators. This study aims to analyze the nature, forms, and consequences of bullying among teachers, as well as identify the factors contributing to its occurrence. The research includes a survey of teachers and in-depth interviews with affected individuals, which allowed for a more detailed examination of the issue and the proposal of practical measures for its prevention. The results indicate that effective counteraction to bullying in the educational environment requires the development and implementation of a zero-tolerance policy, as well as the creation of a support system for teachers.

Key words: bullying, pedagogical team, workplace harassment, socio-psychological analysis, educational environment, professional burnout, team conflict, zero tolerance, employee support.

Kirish. Pedagogik jamoadagi masxara qilish (bullying) tizimli haqoratlardan iborat bo'lib, u xodimlarning ischi muhitini yomonlashtirishga, ularning sha'nini pastlashtirishga va obro'sini to'kishga qaratilgan. Maktabdagi bullingdan farqli o'laroq, pedagoglar o'rtasidagi masxara qilish ko'pincha nazarga tushmay qoladi yoki e'tiborsiz qoldiriladi, chunki kasbiy intizom va obro'-e'tiborga doir xavotirlar mavjud. Ammo uning oqibatlari nafaqat ayrim xodimlar, balki butun ta'lim muhiti uchun ham halokatli bo'lishi mumkin. Ushbu maqsad maqolaning asosiy maqsadi — pedagogik jamoalardagi bullingning tabiati, uning asosiy sabablari va rivojlanishiga yordam beradigan omillarni aniqlash, shuningdek, bu hodisani oldini olish va minimallashtirish usullarini taklif qilishdir.

Metodlar. Pedagogik jamoadagi bullingning tabiati va ko'lamini tadqiq qilish uchun ham sifatli, ham miqdoriy usullar qo'llanildi. Miqdoriy tahlil doirasida turli ta'lim muassasalari pedagoglari orasida so'rov o'tkazildi, bu esa masxara qilish holatlari, turlari va oqibatlarini aniqlashga qaratildi. Sifatli tahlil jabrlanuvchi pedagoglar bilan chuqur suhbatlar va jamoadagi nizolar va stressli vaziyatlar haqidagi hujjatlar va hisobotlarni tahlil qilishni o'z ichiga oldi. Tanlangan ishtirokchilar turli ish staji va malakaga ega bo'lgan pedagoglardan iborat bo'lib, bu kengroq fikr va tajribalarni qamrab olishga imkon berdi [1].

Pedagogik jamoadagi bullingni tadqiq qilish uchun miqdoriy va sifatli tahlil usullari qo'llanildi. Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi:

Miqdoriy tadqiqot: So'rovnoma. Anonim so'rovnoma ishlab chiqildi, unda ish muhitidagi masxara qilishning turli jihatlarini aniqlashga qaratilgan 25 ta savol bor edi. Savollar quyidagi jihatlarini qamrab olgan:

- Bulling holatlari qanchalik tez-tez uchraydi?
- Masxara qilish turlari (psixologik bosim, ijtimoiy izolyatsiya, mikroagressiyalar).
- Masxara qilishning psixologik holat va ish natijalariga ta'siri.

– Pedagoglarning bullingga qarshi kurash choralarini va yordam tizimi haqida xabardorlik darajasi.

So'rovnoma maktab va kollejlardagi pedagoglar o'rtasida o'tkazildi, u bir yoki bir nechta javob variantlarini tanlash va Laykert shkalasidan («hech qachon»dan «juda tez-tez»gacha) iborat bo'lgan savollarni o'z ichiga oldi. Taklif etilgan savollar quyidagilarni o'z ichiga oldi:

- Siz qanchalik tez-tez hamkasblaringiz tomonidan haqoratlarga duch kelgansiz?
- Nizolar yuzaga kelganda rahbariyat tomonidan qo'llab-quvvatlanganmisiz?
- Masxara qilish sizning emotsional holatingiz va ishda davom etish istagingizga qanchalik ta'sir qildi?

Umuman olganda, tadqiqotda 150 pedagog ishtirok etdi, bu esa statistik tahlil uchun yetarli ma'lumotlarni yig'ish imkonini berdi.

Sifatli tadqiqot: Chuqur suhbatlar
So'rovdan tashqari, oldin ishda masxara qilishga duch kelgan 15 pedagog bilan chuqur suhbatlar o'tkazildi. Intervyular 30 dan 60 daqiqagacha davom etdi va yarim tuzilgan shaklda bo'lib o'tdi, bu ishtirokchilarga o'z his-tuyg'ularini va fikrlarini erkin ifodalashga imkon berdi. Asosiy mavzularga shaxsiy masxara qilish tajribasi, nizolar bilan bog'liq muammolarni hal qilish strategiyalari, shuningdek, ta'lim muassasasidagi yordam tizimini idrok qilish kirar edi. Bu intervyular bullingning emotsional jihatlarini va uning

pedagoglarning kasbiy va shaxsiy intilishlariga ta'sirini chuqurroq tushinishga yordam berdi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish. So'rovnoma ma'lumotlari tasviriy statistika usullari bilan tahlil qilindi, bullingning turli shakllarining tarqalish darajasini baholash uchun tez-tezlik tahlili va o'rtacha qiymatlarni hisoblash usullari qo'llanildi. Sifatli tahlil uchun esa mavzuiy tahlil usuli ishlatildi, bu ishtirokchilarning tajribasidagi asosiy mavzular va patternlarni aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni berdi:

– So'rovda ishtirok etgan pedagoglarning yarmidan ko'pi masxara qilishning turli shakllariga duch kelgan.

– Ijtimoiy izolyatsiya va psixologik bosim bullingning eng ko'p tarqalgan shakllari bo'lgan.

– Yordam tizimining yo'qligi va mavjud choralar haqidagi yetarlicha xabardor emaslik bullingning pedagoglarga nisbatan salbiy ta'sirini kuchaytiradi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, so'rovda ishtirok etgan pedagoglarning 60% dan ortig'i hamkasblari yoki ma'muriyat tomonidan turli shakllarda masxara qilingan. Eng keng tarqalgan bulling shakllari quyidagilar:

Psixologik bosim - muntazam kamsitishlar, haqoratlar, e'tiborsiz qoldirish va kasbiy obro'ni to'kish.

Ijtimoiy izolyatsiya - ishchi guruhlardan ajratish, kasbiy masalalarni hal qilishda yordam bermaslik.

Mikroagressiyalar - kamsitishli gaplar va kosviy ishoralar, bu esa o'z-o'zini baholash va ishonchni pastlatishga olib keladi.

Ma'lumotlarning tahlili bulling asosan nizolarni boshqarish va xodimlarni qo'llab-quvvatlash tizimi mavjud bo'lmagan jamoalarda ko'proq uchrashini ko'rsatdi. Masxara qilishga duch kelgan pedagoglar yuqori darajadagi xavotirlik, doimiy charchoq va kasbiy motivatsiyaning pasayishiga ega ekanini bildirgan. Ular orasida ishdan bo'shshga qaror qilganlar ham ko'p bo'lgan, bu esa umumiy ta'lim tizimi uchun jiddiy oqibatlarini mavjudligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi - pedagogik jamoada masxara qilish (bulling) ko'lamini va tabiatini o'rganish, shuningdek, ushbu muammoning rivojlanishiga yordam beradigan asosiy omillarni aniqlash va ularning pedagoglarning emotsional holatiga ta'sirini baholash.

Masxara qilish turlari:

– Psixologik bosim (tanqidlar, kamsitishlar) - 58% respondentlar bu turdagi masxara qilishga duch kelganini ko'rsatdi.

– Ijtimoiy izolyatsiya (ishchi guruhlardan ajratish, e'tiborsiz qoldirish) - 40%.

– Mikroagressiyalar (ironiyali tanqidlar, salbiy harakatlar) - 47%.

Emotsional holatga ta'sir: 70% dan ortiq respondentlar ish joyidagi masxara qilish ularda xavotir va stress darajasini oshirganini ma'lum qildi. Takriban 45% bullingning ularning motivatsiyasi va ish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatganini, 15% esa bu vaziyat tufayli ishdan ketish haqida o'ylaganini ta'kidledi.

Yordam choralarini haqida xabardorlik: Faqat 30% respondentlar qandaydir rasmiy nizolarni hal qilish mexanizmlari yoki

jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash tizimi mavjudligini bilgan. So'rovda qatnashganlarning aksariyati (65%) rahbariyat bulling muammolarini hal qilishga yetarlicha jalb qilinmagan deb hisobladi.

Chuqur intervyular

– Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hissining yo'qligi: Intervyuda qatnashganlarning deyarli barchasi hamkasblari yoki rahbariyat tomonidan qo'llab-quvvatlanmaganini ta'kidledi. Ko'plab respondentlar «sukut» muhitini tasvirladilar, bu yerda nizo yoki shikoyatlarni muhokama qilish odat emas edi.

– Emotsional yonish: Ishtirokchilarning aytishicha, masxara qilish ularni emotsional tuganishga, kasbiy rivojlanishga qiziqishning pasayishiga va o'zlariga ishonch yo'qotilishiga olib kelgan. Ayrımlar yordam olish uchun yetarli resurslarning yo'qligi (masalan, psixologik qo'llab-quvvatlash) vaziyatni yomonlashtirganini aytishdi.

Muhokama. Olingan ma'lumotlar pedagogik jamoada bulling keng tarqalgan hodisa ekanini va pedagoglarning kasbiy hamda shaxsiy holatiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Bullingning rivojlanishidagi asosiy sabablar quyidagilardan iborat:

Iyerarxik tuzilma va notenglik. Rahbariyat ko'pincha avtoritar boshqaruv usullarini qo'llaydi, bu esa nizolar va masxara qilish uchun sharoit yaratadi.

Sukut madaniyati. Pedagoglar ko'pincha yordam so'rashdan qo'rqadilar, chunki bu hamkasblar bilan munosabatlarni yomonlashtirishi yoki ishdan ayrilishi mumkin, bu esa muammoni kuchaytiradi.

Yordam mexanizmlarining yo'qligi. Rasmiy yordam va jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining yetishmasligi bulling bilan kurashish imkoniyatini pasaytiradi va ijobiy ma'naviy muhitni tiklashga to'sqinlik qiladi.

Bullingga qarshi kurash choralarini

Ta'lim va xabardorlikni oshirish. Pedagoglar va rahbariyat uchun masxara qilishni aniqlash va uni oldini olish bo'yicha treninglar o'tkazish kerak. Bu ochiq va qo'llab-quvvatlovchi ish muhitini yaratishga yordam beradi.

Nol tolerantlik siyosati. Ta'lim muassasalarida bullingga nisbatan aniq qoidalar va jazo choralarini belgilanishi kerak. Pedagoglar har qanday holat ko'rib chiqilishi va jazolanishini bilishi kerak.

Yordam tizimi. Masxara qilish haqida xabar berish uchun maxfiy kanallar yaratish, shuningdek, psixologlar va mediatorlarning yordami jabrlanuvchilarga zarur qo'llab-quvvatlashni olishga yordam beradi.

Xulosa. Pedagogik jamoadagi bulling nafaqat ayrim pedagoglarga, balki ta'lim muassasalaridagi umumiy muhitga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadigan muammo hisoblanadi. Bu hodisa bilan kurashish tizimli yondashuvni talab qiladi, uning tarkibida ta'lim, nol tolerantlik siyosati va jabrlanuvchilar uchun yordam tizimini yaratish bo'lishi kerak. Faqat ishonchli va hurmatga asoslangan ish muhiti sharoitida pedagoglar o'z salohiyatini amalga oshirishlari va o'quvchilar uchun qulay ta'lim va tarbiya muhitini yaratishlari mumkin.

ADABIYOTLAR

- Einarsen, S., Hoel, H., Zapf, D., & Cooper, C. L. (2020). *Bullying and Harassment in the Workplace*. CRC Press.
- Leymann, H. (1996). The Content and Development of Mobbing at Work. *European Journal of Work and Organizational Psychology*, 5(2), 165-184.
- Vartia, M. (2001). Consequences of Workplace Bullying with Respect to the Well-being of Its Targets and the Observers of Bullying. *Scandinavian Journal of Work, Environment & Health*, 27(1), 63-69.
- Hoel, H., & Cooper, C. L. (2000). Destructive Conflict and Bullying at Work. *Manchester School of Management*.
- Zapf, D., & Gross, C. (2001). Conflict Escalation and Coping with Workplace Bullying: A Replication and Extension. *European Journal of Work and Organizational Psychology*, 10(4), 497-522.
- Matthiesen, S. B., & Einarsen, S. (2007). Perpetrators and Targets of Bullying at Work: Role Stress and Individual Differences. *Violence and Victims*, 22(6), 735-753.
- Branch, S., Ramsay, S., & Barker, M. (2013). Workplace Bullying, Mobbing, and General Harassment: A Review. *International Journal of Management Reviews*, 15(3), 280-299.
- Lutgen-Sandvik, P., & Tracy, S. J. (2012). Answering Five Key Questions about Workplace Bullying: How Communication Scholarship Provides Thought Leadership for Transforming Abuse at Work. *Management Communication Quarterly*, 26(1), 3-47.
- Cowie, H., & Myers, C. A. (2017). Bullying Amongst Teachers: An Examination of Empirical Research. *British Journal of Educational Psychology*, 87(4), 698-716.
- Namie, G. (2003). Workplace Bullying: Escalated Incivility. *Ivey Business Journal*, 68(2), 1-6.
- Бердиева Г.Дж. “Социально-психологические особенности возникновения конфликтных ситуаций у студентов” // Проблемы современного образования, №5, 2020 год.
- Berdieva G. J. “Relationships between conflict behavior and conflict situations in the student community”. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 10, 412-415. Retrieved from <http://www.ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/389>
- Berdieva Gulmira Juraevna. “Psychological basis of the concept of conflict behavior”. *Archive of Conferences*, 2021 yil.



Iroda BOBOJONOVA,
A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti
E-mail: gavhar.salomova@mail.ru

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti v.b., PhD G.Salomova taqrizi asosida

MAKTABDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA BLUM TAKSONOMIYASIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Аннотация

Maqolada Blum taksonomiyasining maktabda ingliz tilini o'qitishda qanday qo'llanilishi va bu uslubning o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Taksonomiyaning bosqichlari orqali o'quvchilarning bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Ingliz tili, Blum taksonomiyasi, maktabda o'qitish, bilim bosqichlari, dars rejalashtirish, kognitiv rivojlanish, ta'lim metodikasi, O'zbekiston ta'limi, interaktiv usullar.

ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТАКСОНОМИИ БЛУМА ПРИ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ В ШКОЛАХ

Аннотация

В статье рассматривается применение таксономии Блума при обучении английскому языку в школе и её особенности. Описаны подходы, направленные на развитие знаний учащихся через этапы таксономии.

Ключевые слова: Английский язык, таксономия Блума, школьное обучение, этапы знаний, планирование уроков, когнитивное развитие, методика обучения, образование Узбекистана, интерактивные методы.

THE SPECIFIC FEATURES OF USING BLOOM'S TAXONOMY IN TEACHING ENGLISH AT SCHOOLS

Annotation

The article examines the use of Bloom's taxonomy in teaching English at school and its distinctive features. Approaches aimed at developing students' knowledge through the stages of the taxonomy are outlined.

Keywords: English language, Bloom's taxonomy, school teaching, knowledge stages, lesson planning, cognitive development, teaching methodology, Uzbekistan education, interactive methods.

Kirish. Blum taksonomiyasi o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishda o'qituvchilarga dars jarayonini aniq, samarali va izchil tarzda tashkil qilish imkonini beradi. Bu taksonomiya nafaqat o'qituvchilar uchun ta'lim maqsadlarini belgilashda, balki ularni amaliyotga tatbiq etishda ham ko'mak beradi. Ingliz tilini o'qitishda Blum taksonomiyasi o'quvchilar uchun bilimlarni eslab qolishdan tortib, ularni tahlil qilish va ijodiy qo'llashgacha bo'lgan bosqichlarni izchil rivojlantirishga imkon beradi.

Tahlil va natijalar. Blum taksonomiyasi amaliyotda qo'llanganda, o'qituvchi dars mazmunini taksonomiyaning olti bosqichiga moslab tuzadi. Bu bosqichlar — eslab qolish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, baholash va yaratish — o'quvchilarning bilim olish jarayonini izchil rivojlantirish uchun mo'ljallangan. Har bir bosqichda o'quvchilar o'z bilimlarini chuqurlashtirish va ularni qo'llash orqali keyingi bosqichga tayyorlanadilar.

Masalan, eslab qolish bosqichida o'quvchilar ingliz tilidagi yangi so'zlarni yodlashlari yoki grammatik qoidalarni o'zlashtirishlari kerak. Bu bosqichda o'qituvchilar o'quvchilarga yangi materiallarni o'rgatish va ularni mustahkamlash uchun turli mashqlar va topshiriqlar beradilar. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, eslab qolish darajasi ta'lim jarayonida boshlang'ich nuqta bo'lib, o'quvchilar bilimlarni yanada chuqurroq o'zlashtirishlari uchun zarur asosdir (Krathwohl, 2002).

Keyingi bosqichlarda o'quvchilar bilimlarni tushunish va qo'llashga o'tadilar. Tushunish bosqichi o'quvchilarning o'z bilimlarini amaliy vaziyatlarda ishlatishiga tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan. Bu bosqichda o'quvchilar grammatik qoidalarni tushunib, ularni qanday qo'llash kerakligini o'rganadilar. Masalan, ular gap tuzishda to'g'ri grammatik strukturalarni qo'llashni o'rganadilar, bu esa kelajakdagi muloqotlarda samarali foydalana olish uchun zarur qadam hisoblanadi.

Tahlil qilish bosqichi o'quvchilarning o'z bilimlarini murakkabroq shakllarda o'rganish imkonini beradi. Bu bosqichda o'quvchilar matnlarni tahlil qilib, ularning grammatik tuzilmasini tushunadilar, ularning ma'nosini chuqurroq anglaydilar va fikrlarni o'zaro bog'laydilar. Masalan, o'quvchilar ingliz tilida yozilgan matnlarning mantiqiy tuzilishini tahlil qilib, ular orasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunishadi.

Blum taksonomiyasi amaliyotda qo'llanilganda, o'qituvchi o'quvchilarga nafaqat bilimlarni yodlash va tushunishga yordam

beradi, balki ulardan ijodiy yondashish, yangi bilimlar yaratish, turli muloqot holatlarida o'z fikrlarini mustaqil ifodalash imkoniyatini ham beradi. Yaratish bosqichi, taksonomiyaning eng yuqori darajasi bo'lib, o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan. Bu bosqichda o'quvchilar o'z bilimlarini amalda mustaqil qo'llash orqali yangi g'oyalarni ishlab chiqadilar.

O'qituvchilarning dars jarayonini tashkil etishi

Blum taksonomiyasini amaliyotda qo'llagan holda o'qituvchilar dars jarayonini aniq rejalashtirib, har bir bosqichga mos faoliyat va topshiriqlarni yaratadilar. O'quvchilarning qaysi bilim bosqichida ekanligini aniqlash va ularni keyingi bosqichga olib chiqish uchun o'qituvchilar turli xil o'quv materiallari va mashg'ulotlardan foydalanadilar.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar Blum taksonomiyasidan foydalanganda dars samaradorligi ortadi, chunki o'quvchilar o'z bilimlarini izchil ravishda rivojlantirib boradilar. O'qituvchilar dars davomida bilimlarni o'rgatish bilan birga, o'quvchilarga bilimlarni qanday qo'llash va chuqurroq o'rganishni o'rgatadilar (Anderson & Krathwohl, 2001).

Amaliy misol: Ingliz tili darsi

Ingliz tilini o'qitishda Blum taksonomiyasining amaliyotda qo'llanilishi o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirishda juda samarali bo'ladi. Misol uchun, o'qituvchi yangi mavzu bo'yicha darsni rejalashtirayotgan bo'lsa, dastlab, o'quvchilarga so'zlarni yodlash va ularning ma'nolarini tushunishga yordam beradi. So'ngra, bu so'zlarni turli gaplarda yoki matnlarda ishlatish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Tahlil qilish bosqichida o'quvchilar ushbu so'zlarning turli kontekstlarda qanday ishlatilishini o'rganadilar.

Yaratish bosqichida o'quvchilar ijodiy faoliyat orqali o'rganilgan so'zlar va qoidalarni ishlatib, insho yoki nutq tuzishadi. Bu jarayon o'quvchilarning bilimlarni izchil rivojlantirishiga va amaliyotda qo'llash qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

Blum taksonomiyasi o'qituvchilar uchun dars jarayonini amaliyotda samarali tashkil qilish vositasi hisoblanadi. Ingliz tilini o'qitishda bu yondashuv o'quvchilarning bilimlarini izchil rivojlantirib, ularni bilimlarni tahlil qilish va yangi bilimlar yaratish darajasiga olib chiqadi. O'qituvchilar taksonomiya yordamida har bir o'quvchining bilim olish jarayonini chuqurroq tahlil qilib, ularga mos faoliyatlarini taqdim etish orqali ularning bilish qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Blum taksonomiyasi o'quvchilarning bilish (kognitiv) qobiliyatlarini izchil ravishda rivojlantirishga qaratilgan eng samarali yondashuvlardan biridir. Ingliz tilini o'qitishda bu taksonomiya o'quvchilarni bilim olish jarayonining har bir bosqichida rivojlantirishni ko'zda tutadi. O'quvchilar bilimni yodlashdan boshlab, uni chuqur tahlil qilish, tanqidiy baholash va yangi bilimlar yaratish darajasiga yetkaziladi. Bu jarayon o'quvchilarning bilim olish faoliyatini tizimli shakllantirib, ularni yuqori darajadagi kognitiv qobiliyatlarga ega bo'lishlariga yordam beradi.

Eslab qolish bosqichi: Bilimlar poydevorini yaratish

Eslab qolish bosqichi — bilim olish jarayonining birinchi va eng asosiy bosqichi hisoblanadi. Bu bosqichda o'quvchilar yangi ma'lumotlarni eslab qolish va keyinchalik ularni kerakli vaqtda qayta ishlatish uchun xotirada saqlashni o'rganadilar. Ingliz tilini o'rganishda bu bosqichda o'quvchilar so'zlar, grammatik qoidalar yoki talaffuz qoidalarini yodlashadi.

Misol uchun, o'quvchilar yangi lug'atni eslab qolishga harakat qiladilar: yangi so'zlar va ularning ma'nolarini eslab qolish orqali ular keyingi bosqichlarda ushbu so'zlarni qo'llashga tayyorlanadilar. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, eslab qolish darajasi ta'lim jarayonida muhim poydevor bo'lib, o'quvchilarning bilish faoliyatini yanada murakkablashtiruvchi keyingi bosqichlarga asos bo'ladi (Krathwohl, 2002). Bu bosqichda o'quvchilar bilimlarni yodlab, kelajakdagi darslarda ularni samarali qo'llashga tayyor bo'ladilar.

Tushunish bosqichi: Bilimlarni anglash va qo'llashga tayyorlanish

Eslab qolishdan keyingi bosqich — tushunish, o'quvchilarning bilimlarni chuqurroq anglash va ularni mantiqiy tarzda qayta ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ingliz tilini o'qitishda bu bosqich o'quvchilarning eslab qolgan bilimlarini tahlil qilib, ularning mantiqiy asoslarini tushunishga yo'naltirilgan. Bu jarayon o'quvchilarning bilimlarni to'g'ri tushunib, ularni turli sharoitlarda qo'llashga tayyor bo'lishlariga yordam beradi.

Misol uchun, o'quvchilar nafaqat grammatika qoidalarini yodlaydilar, balki ularni gap tuzishda qanday qo'llash kerakligini tushunadilar. Ular so'zlarning mantiqiy bog'liqligini tushunib, murakkab gaplar tuzishni boshlaydilar. Ilmiy tadqiqotlar ko'rsatadiki, tushunish bosqichi o'quvchilarning bilish qobiliyatlarini chuqurlashtirish va ularni amaliy qo'llashga tayyorlashda asosiy rol o'ynaydi (Anderson & Krathwohl, 2001). Ushbu bosqichda bilimlarni nafaqat yodlash, balki ular ustida fikrlash ham o'quvchilarning tafakkurini boyitadi.

Qo'llash bosqichi: Amaliy bilim olish

Qo'llash bosqichi o'quvchilarning oldin o'rganilgan bilimlarini amaliyotda ishlatish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ingliz tilini o'rganishda bu bosqichda o'quvchilar grammatik qoidalarini, yangi so'zlarni yoki gap tuzish qoidalarini turli vaziyatlarda ishlatishga kirishadilar. Qo'llash bosqichi orqali o'quvchilar nazariy bilimlarini amaliy faoliyatda sinovdan o'tkazadilar va bilimlarini hayotiy vaziyatlarga moslashtiradilar.

Misol uchun, o'quvchilar eslab qolgan yangi so'zlarni kundalik suhbatda ishlatish orqali ularning muloqotda qanday qo'llanilishini o'rganadilar. Bu jarayon o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirib, ularni tilni erkinroq ishlatishga o'rgatadi. Ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, qo'llash bosqichi o'quvchilarni bilimlarni nazariyadan amaliyotga o'tkazishda asosiy o'rin tutadi (Bloom, 1956). Bu bosqich o'quvchilar bilimlarini real vaziyatlarda qanday foydalanishni o'rganishlariga yordam beradi.

Tahlil qilish bosqichi: Bilimlarni murakkab tahlil qilish

Tahlil qilish bosqichi o'quvchilarning bilimlarni chuqurroq tushunish va ularni turli qismlarga ajratib tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu bosqichda o'quvchilar o'z bilimlarini mustaqil tahlil qiladilar va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunadilar. Ingliz

tilini o'rganishda bu bosqich o'quvchilarning matnlarni grammatik va leksik jihatdan tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Masalan, o'quvchilar matnning tahlil qilib, ularning grammatik tuzilishini, murakkab gaplarni va ularning mantiqiy bog'liqligini aniqlaydilar. Bu bosqichda o'quvchilar bilimlarni mustaqil tahlil qilib, yangi xulosalar chiqaradilar. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tahlil qilish bosqichi o'quvchilarning bilimlarini chuqurroq tahlil qilish va ularni turli kontekstlarda qo'llash qobiliyatlarini kuchaytiradi (Anderson & Krathwohl, 2001).

Baholash va yaratish bosqichlari: Mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyat

Baholash bosqichi o'quvchilarga turli qarashlar, bilimlar yoki dalillarni tanqidiy baholash va ularni tahlil qilish imkonini beradi. Bu bosqichda o'quvchilar muqobil yechimlar orasidan to'g'ri qaror qabul qilishni o'rganadilar. Ingliz tilini o'rganishda bu bosqich o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, chunki ular turli fikrlarni baholab, qaysi biri mantiqan to'g'ri ekanligini aniqlashlari kerak bo'ladi.

Yaratish bosqichi esa o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi va ularga yangi bilimlar, g'oyalar yaratish imkonini beradi. Bu bosqichda o'quvchilar bilimlarini yangi muammolarni hal qilish uchun ishlatadilar va ijodiy faoliyat bilan shug'ullanadilar. Masalan, o'quvchilar ingliz tilida ijodiy insho yozish yoki yangi gaplar tuzish orqali bilimlarini amaliyotda qo'llaydilar va yangi bilimlar yaratadilar. Bloom (1956) tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, bu bosqich o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Blum taksonomiyasining har bir bosqichi o'quvchilarning bilish qobiliyatlarini izchil rivojlantirishga yordam beradi. Eslab qolishdan tortib, yaratishgacha bo'lgan jarayon o'quvchilarning bilimlarni chuqur o'zlashtirishlariga va ulardan samarali foydalanishlariga ko'maklashadi. Bu yondashuv nafaqat o'quvchilarning bilim olish qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki ularni turli kontekstlarda mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishga tayyorlaydi.

Ingliz tilidagi ko'nikmalarni shakllantirish

Blum taksonomiyasi asosida ingliz tilini o'qitishda o'quvchilarning to'rt asosiy til ko'nikmalarini (tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish) izchil va samarali tarzda shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Taksonomiya yordamida har bir bosqichda o'quvchilarning bilish qobiliyatlari rivojlantirilgani kabi, ularning til o'rganish ko'nikmalari ham izchil rivojlantiriladi. Har bir bosqich o'quvchilarning tilni o'zlashtirish darajasiga ko'ra mos keladi va ko'nikmalarni asta-sekin rivojlantirishga yordam beradi.

Tinglab tushunish (Listening comprehension)

Blum taksonomiyasi yordamida tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirish darsning boshlang'ich bosqichlarida, ya'ni eslab qolish va tushunish darajalarida katta ahamiyat kasb etadi. Bu bosqichlarda o'quvchilar eshitish orqali o'zlashtirgan ma'lumotlarni xotirada saqlab qolish va ularning ma'nosini tushunishga qaratilgan faoliyatlarini bajaradilar. O'quvchilar tinglab tushunish uchun matnlar, suhbatlar yoki audiomateriallar taqdim etadi va o'quvchilar ushbu materiallar asosida kerakli bilimlarni eslab qolishadi.

Xulosa. Blum taksonomiyasi asosida baholash o'quvchilarning bilish qobiliyatlarini tizimli ravishda kuzatish va ularning bilimlarini amaliyotda qanday qo'llashini baholash imkonini beradi. Har bir bosqichda mos baholash metodlarini qo'llash orqali o'quvchilarning bilim olish darajalari aniqlanadi va ularni yanada rivojlantirish uchun zarur chora-tadbirlar belgilanadi. Bu yondashuv orqali o'quvchilarning bilimlari izchil ravishda rivojlanib, ularning ijodiy tafakkuri va mustaqil fikrlash qobiliyatlari ham baholanadi. Blum taksonomiyasi o'quvchilarning intellektual rivojlanishini kuzatishda va ularning bilim olish samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

ADABIYOTLAR

1. Bloom, B. S. (1956). *Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals*. McKay.
2. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives*. Allyn & Bacon.
3. Harmer, J. (2007). *The Practice of English Language Teaching* (4th ed.). Pearson Longman.
4. Scrivener, J. (2011). *Learning Teaching: The Essential Guide to English Language Teaching* (3rd ed.). Macmillan.
5. Nation, I. S. P., & Newton, J. (2009). *Teaching ESL/EFL Listening and Speaking*. Routledge.
6. Richards, J. C. (2006). *Communicative Language Teaching Today*. Cambridge University Press.



UDK:182.2

Xurshida BOBOQULOVA,
SamDChTI "Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari" kafedrası dotsenti
E-mail: xurshida@mail.ru

JTSBMQTMOI Samarqand filiali dotsenti A.Abdumannotov taqrizi asosida

FUQAROLIK JAMIYATI QURISH TARIXINI MANBASHUNOSLIK ASOSLARI

Annotatsiya

Insoniyat taraqqiyot tarixining barcha davrlarida fuqarolik jamiyatini qurish jarayoni eng dolzarb masala bo'lib kelgan. Har bir taraqqiyotning tarixiy davr bosqichlarida turli darajadagi nazariy qarashlar ilgari surilgan. Bu nazariya va g'oyalar bugungi fuqarolik jamiyatini qurish tarixini manbashunosligi bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek ushbu manbalaridagi surilgan g'oya va qarashlar bugungi fuqarolik jamiyatini qurish uchun poydevor bo'lib, quyida buni tahlillar asosida buni izohlab o'tamiz.

Key words: Civil society, history of development, historical source, medieval source studies, "Avesta", "City of Virtuous People", "Politics", Timur's Constitution, historical conditions.

ОСНОВЫ ЗАРОЖДЕНИЯ ИСТОРИИ СТРОИТЕЛЬСТВА ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация

Во все периоды истории развития человечества процесс построения гражданского общества был наиболее актуальным вопросом. На каждом этапе исторического периода развития выдвигались различные уровни теоретических воззрений. Эти теории и идеи служат первоисточником истории построения современного гражданского общества. Также идеи и взгляды, изложенные в этих источниках, являются фундаментом построения сегодняшнего гражданского общества, и на основе анализа мы объясним это ниже.

Ключевые слова: Гражданское общество, история развития, исторический источник, средневековое источниковедение, «Авеста», «Город добродетельных людей», «Политика», Конституция Тимура, исторические условия.

FUNDAMENTALS OF ORIGINATION OF THE HISTORY OF BUILDING CIVIL SOCIETY

Annotation

In all periods of the history of human development, the process of building a civil society has been the most urgent issue. At each stage of the historical period of development, different levels of theoretical views have been put forward. These theories and ideas serve as the source science of the history of the construction of today's civil society. Also, the ideas and views put forward in these sources are the foundation for the construction of today's civil society, and we will explain it below based on the analysis.

Kalit so'zlar: Fuqarolik jamiyati, taraqqiyot tarixi, tarixiy manba, o'rta asrlar manbashunosligi, "Avesto", "Fozil odamlar shahri", "Siyosatnoma", Temur Tuzuklari, tarixiy sharoit.

Kirish. Fuqarolik jamiyatini qurish jarayon tarixi Sharq mamlakatalari mutafakkirlari ijodida ham o'ziga xos tarzda kengroq izohlanganini guvohi bo'lamiz. Bu masalaga oqilona yondashuv uchun ming yil ilgari shakllanganligini asoslar bilan keltirib o'tilgan. Ma'lumki, ijtimoiy taraqqiyot tarixining ma'lum davrlarida sharq mamlakatlari yetakchilik mavqeini egallagan. Har qanday fan, o'z mohiyatiga ko'ra umumbashariydir. Dunyo xalqlari katta-kichikligidan qat'iy nazar uning rivojiga hissalarini qo'shgan. Shu nuqtai nazardan fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish tarixi to'g'risidagi g'oyalar, bilimlarni bir yoqlama bo'rttirish yoki kamsitish noto'g'ri yondoshuvlardan biridir.

Adabiyotlar tahlili. Fuqarolik jamiyatini qurish tarixi va uning tushunchalari Markaziy Osiyo ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotining tarixiy namunasi – "Avesto" kitobida keltirilgan. 2001 yilda millat ma'naviy madaniyatining eng qadimgi tarixiy manbasi – "Avesto"ning 2700 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov: "... bu noyob asar bebaho tarixiy xujjat bo'lib, u biz yashagan bu qadim yurtida, bu zaminda o'zining madaniyati va boy ma'naviyatiga ega bo'lgan buyuk davlat bo'lganligidan, ajdodlarimizga, asrlar davomida bitmas tuganmas quch vaqudrat va tayanch sifatida xizmat qilganligidan dalolat beradi [1] deb alohida e'tirof etgan. Darhaqiqat, "Avesto"ning bosh g'oyasi – "ezgu fikr, ezgu maqsad, ezgu amal" har qanday jamiyat tarixida va insonlararo munosabatlarning ma'naviy asosi ekanligidan dalolatdir.

Avestoda ilgari surilgan qarashlarda fuqarolik jamiyati tarixini qurishning birlamchi omili erkak va ayolning teng huquqliligi, oilaning barqarorligini ta'minlash g'oyasi bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa me'yoriy hujjatlarida ham ayollarning teng imkoniyati va keng huquqlari ta'minlanganligi haqidagi ma'lumot tarixiy faktidir. XXI asrda ba'zi mamlakatlarda ayollarning saylash va saylanish huquqi umuman inkor qilinayotgan bir davrda, O'zbekiston tarixiy sharoitida muhim bo'lgan qoninlar yaratildi. Oliy majlis qonunchilik palatasiga ayollarning saylanishi uchun 30% kvotaning ajratilishi, 1995 yilda "Oila" kodeksining qabul qilinishi, 2019 yil 2 sentyabrda xotin-qizlar

va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligining O'RBQ – 562 sonli qarori kabi tarixiy jarayonlar yurtimiz tarixida bo'layotgan ayollarga munosabat va oilaviy qadriyatlar qadimiy ildizlarga egaligini ifodalasa, ikkinchi tomondan fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidagi kabi oqilona tarixiy jarayonlar shular jumlasidandir.

Tahlil va natijalar. Xususan, bugungi kunda yanada mamalakatimizning yangi taraqqiyot tarixida gender tenglik bo'yicha institutsional asoslar kengaytirilmoqda. Ayni paytda, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tarkibida ayollar huquqlarini ta'minlash va kamsitishning har qanday shakliga barham berish bo'yicha milliy qonunchilikda xalqaro standartlarni uyg'unlashtirish bilan shug'ullanuvchi yangi Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil qilindi. Mamlakatimizning 49 foizini xotin-qizlar, ularning qariyb 64 foizini 30 yoshgacha bo'lgai xotin-qizlar tashkil etar ekan, albatta bu yo'nalishda alohida davlat siyosati olib borilishi zaruriyatidir. Gender tenglikni ta'minlash va ayollarning ijtimoiy turmush sharoitlarini yaxshilash, oila institutini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, ayollar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish bo'yicha umumiy e'tirof etilgan xalqaro normalarni milliy qonun hujjatlariga implementatsiya qilish, shuningdek, ayollar huquqiy madaniyatini oshirish kabi yo'nalishlarda qator amaliy ishlar olib borilishi tarixiy ahamiyatga molik jarayondir.

Fuqarolik jamiyatini qurish tarixiga doir masalalar Markaziy Osiyo mutafakkirlari ijodida o'rganilganligi madaniy taraqqiyot borasidagi boy tarixiy tajriba va an'analarni mezon hisoblanadi. 2014 yilda Samarqandda o'tkazilgan "O'rta asr Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosi zamonaviy sivilizatsiyada o'rni va ahamiyati" mavzusida o'tkazilgan xalqaro konferentsiyada o'zbek xalqining asrlar davomida qo'lga kiritgan davlat qurilishi sohasidagi yutuqlar natijasida bu tarixiy manbalarning o'rni beqiyosdir. Darhaqiqat, Markaziy Osiyo uyg'onish davri IX-XV asrlarda davlatni boshqarish va adolatli jamiyat qurish, davlat rahbari va xizmatchilarining faoliyat darajalari tasniflari, ijtimoiy mas'uliyati mezonlarining nazariy jihatlarida haqidagi g'oyalar Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib,

Nizomulmulk, Amir Temur, Alisher Navoiy va boshqalar ijodida keng tahlil qilingan.

Tadqiq etilayotgan davrni kengroq yoritish uchun yana bir nechta o'rtta asrlar tarixiga doir manbalar bugungi fuqarolik jamiyati tarixini qurushda xizmat qilib kelyotganini asoslab o'tamiz. Xususan, Abu Nasr al-Farobiy (870–950) ning –“Fozil odamlar shahri” nomli tarixiy va falsafiy janrda yozilgan asarida sharqona siyosiy-huquqiy va ijtimoiy fikr tarixida ijtimoiy tizim, siyosat, davlat va hukumat haqidagi qarashlari nazariy asoslangan. Ushbu asar fuqarolik jamiyatining kelib chiqishi, maqsadi va vazifalariga haqida yozilgan o'rtta asrlar tarixiga doir qimmatli manba hisoblanib, bugungi kunda ham ijtimoiy hayotning ko'p masalalari - davlatni boshqarish, ta'lim-tarbiya, axloq, ma'rifat, diniy e'tiqod, urush va yarash, mehnat va boshqa qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan mavzular fuqarolik jamiyati qurish jarayoni tarixiga xizmat qilib kelmoqda.

Abu Nasr Farobiy fikricha adolatli jamiyat qurish uchun uni mudofaa qilish va oqilona boshqarish usulini bilish, odamlarga yovuzlikdan saqlanish ezigulikka intilish yo'llarini ko'rsatish lozim. U davlat rahbarining boshqaruv mahorati umumiy baxtga erishish yo'lidir deb hisoblaydi. Adolatli davlatni ma'rifatli hukmdor boshqaradi, u ma'naviyat, adolat yetakchisi bo'lishi, o'z fazilatlarini bilan qat'iy talablarga javob berishi lozim. Bu borada Abu Nosir Farobiy - Ularning o'zlaridan saylangan rahbar yoki boshliqlar hokimi mutloq bo'lmaydi. Ular odamlar ichidan ko'tarilgan, sinalgan eng oliyjanob, rahbarlikka loyiq kishilar bo'ladilar. Shuning uchun bunday rahbarlar o'z saylovchilarini to'la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqirdushmandan muhofaza qiladilar [2], deb davlat boshqaruvida demokratik tamoyillarni ta'minlash bilan bog'liq axloqiy va madaniy qadriyatlarini tizimlashtiradi.

Navbatdagi manbalar muallifi Abu Rayhon Beruniyning –“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston” asarlarida ham adolatli jamiyat va uning amal qilishi asoslarini shakllantirish haqidagi g'oyalar tarixini tadqiq etamiz. Uning fikricha jamiyatning paydo bo'lishiga odamlarning o'zaro hamkorligi, birga yashashga ehtiyoji va intilishlari sabab bo'ladi. Adolatli jamiyatni qurish axloqiy qadriyatlarga tayanishi va rivojlantirishi lozim. Davlat rahbarining asosiy vazifasi aholining turli qatlamlari, kuchlilar va kuchsizlar o'rtasidagi siyosiy va huquqiy adolat mezonlarini o'rnatishdadir.

Abu Ali ibn Sino (980–1037) ning manbalarida ham o'z davrining ijtimoiy munosabatlari odamlar o'rtasidagi tafovut va tengsizlik natijasida kelib chiqishini asoslab o'tgan. Xususan, Ibn Sino tarixiy muhitining mezonini bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy hamda shaxsiy xususiyatlar tengsizlik ya'ni inson ijtimoiy faolligi sabab vujudga keladi [3] deb ta'kidlaydi. Shuningdek, ideal davlat qurish jamiyat aholisining ma'naviy-axloqiy ravnaqi bilan bog'liq. Uning fikricha, ma'naviy axloqiy qadriyatlarning yuksak qadrlanishi nafaqat har tomonlama farovonlikni, balki jamiyatda adolat va barqarorlikni ham ta'minlaydi.

Bu davr ijtimoiy tarixida Sharq adolat, ma'rifat va tenglik nafaqat nazariy me'yor, balki amaliy hayot me'yor, ijtimoiy- siyosiy muammolar yechimini topish va jamoa bo'lib yashashning asosi sifatida tushunilgan. Shuningdek, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning ma'rifat yo'li tanlangan bo'lib, Yevropa ijtimoiy-siyosiy tafakkurida esa nasroniylarning diniy dogmatikasi hukmronlik qilib, diniy va dunyoviy manfaatlar o'rtasida kurashlar tarixi rivoj olgan.

Fuqarolik jamiyatini qurish tarixida XI asr tarixiga oid Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” dostoni davlatni boshqarish amallari, qoidalari va siyosiy - axloqiy munosabatlarni jamiyatda qaror toptirishga e'tibor qaratgan jarayonlari bilan asosiy manba ekanligi bilan ahamiyatlidir. U davlat boshqaruvi va xizmatini tashkil etish turlarini hamda shu darajalarga muvofiq sifatlarini tasniflaydi. Jumladan, «Shohlikka da'vogarlar onadan ajib bir iste'dod bilan tug'iladilar va ular darhol yaxshi-yomonni ajratish fitratiga ega bo'ladilar. Bundaylarga Xudo idrok, farosat va yumshoq bir ko'ngil ato etadi, qolaversa yaxshi ish yuritish o'quvi bilan ham siylaydi» [4] deb ta'kidlagan.

XI asrga tarixiga oid yana bir manba Saljuqiylar davlat arbobi Nizomulmulkning Siyosatnoma asari bo'lib, ushbu manba bugungi fuqarolik jamiyatini qurish tarixida adolatli davlat boshqaruvi, uning mukammal nazariy asoslarini yaratish borasida ulkan ilmiy meros hisoblanadi. Bu manbadamuallif amaldorlarni axloqiy fazilatlariga qarab tanlash, adolat va insofni oyoq osti qiladigan kishilarni davlat ishlariga aralastirmaslikni, davlatni boshqarishda kengash bilan olib borish, faoliyatlarini muntazam nazorat qilish, itoat, ijro va sifatleri to'g'risidagi qarashlari bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, Nizomulmulkning «Ko'pchilik bo'lib qabul qilingan tadbir eng savobli bo'ladi va shunday yo'l tutish kerak» [5,98]

degan fikrlari ajdodlarimizning davlat qurilish tarixining adolatli tartibotlarigakatta e'tibor berganligidan dalolatdir.

Ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot tarixining ma'naviy asoslarini o'rganishda O'rtta Osiyoda vujudga kelgan tasavvufchilik oqimining ahamiyati ham alohida muhim o'rin tutadi. Tasavvuf garchi islom dini tarixida shakllanib, Qur'on va hadislar hikmatidan oziqlangan, ko'p hollarda shariat ahkomiga suyangan bo'lsada, lekin u rasmiy diniy aqidaparastlik va mutaassiblikka hamda hokim tabaqalarning ayshu-ishratlarga g'arb turmush tarzi, talonchilik va manfaatparastlikka zid o'laroq, mehnatkash xalq noroziligini ifodalab jamiyat tarixida katta tarbiyaviy yetakchilik qilgan. Tasavvuf ta'limoti davlatimizning fuqarolik jamiyati tarixini qurish yo'lida adolat, haqiqat, to'g'rilik, mehr-shafqat, insof, iymon, e'tiqod, ilm, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi umuminsoniy g'oyalarni targ'ibot qiluvchi va futuvvatga asoslangan bir qancha diniy, siyosiy oqimlar paydo bo'lish kabi jarayonlariga qarshi turuvchi mukammal tarixiy tariqat yo'lidir.

Fuqarolik jamiyati tarixining asosiy sharti bo'lgan qonun ustuvorligini o'rnatish tamoyilining amaliyotda qo'llash tajribasi sifatida Sharqning buyuk davlat arbobi va sarkardasi Amir Temur (1336–1405) ning boy ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy merosi asosida ko'rish mumkin. XIV asrga oid manba hisoblangan Amir Temur tuzuklarida davlat tizimi, uni idora qilish uslublari va vositalari, undagi turli lavozim-vazifalar darajasi, tabaqalarning toifalanishi, harbiy qo'shinlarning tashkil etilishi, jang olib borish mahoratlari, davlat xizmatchilari rag'batini tashkil etish omillari, adolatli soliq turlarining joriy etilishi, mamlakatni obodonlashtirish tadbirlari milliy davlatchilikning yuksak madaniy va huquqiy darajada shakllantirishga erishganligidan dalolat beradi. Uning - har mamlakatning yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim, nafsi yomonlar, buzuqlar va axloqsiz odamlarni mamlakatimdan qurib chiqardim. Pastkash va razil odamlarga o'zlariga loyiq ishlar topshirdim hamda haddilaridan oshishlariga yo'l qo'ymadim. Ulug'larini va sharaf-e'tiborli kishilarni hurmatlab, martabalarini oshirdim. Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo'lini to'sdimgi» [6] kabi dadil fikrlari adolatli jamiyat qurish tarixiga xizmat qilib kelmoqda.

Ma'lumki, fuqarolik jamiyati rivojlanish tarixining-hayotiyligini va samaradorligini ta'minlovchi - huquqiy davlat doirasidan tashqarida tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu ma'noda, Sohibqiron Amir Temurning quyidagi so'zlari hozirgi zamon bilan hamnafas jaranglaydi: -Tajriba- deb yozadi u, menga shuni ko'rsatdiki, din va qonunga tayanmagan hukumat, o'zining buyuk qudratini uzoq vaqt saqlab tura olmaydi. Uni har qanday yovuz kishi kirishi mumkin bo'lgan na tomi, na eshigi, na panjaralari bor uyga o'xshatish mumkin. Shuning uchun men o'z saltanatimni islom arkonlari va boshqaruvda o'zim qat'iy amal qiluvchi qonunlar asosida qurdim.

Shu nuqtai nazardan, muvaffaqiyatli boshqaruv tarixi qonuniyatiga ko'ra, Amir Temur rahbarning adolatga tayanishini lozim topgan. Uning fikriga ko'ra: - Rahbar uchun barcha ishlarda adolatga amal qilishi kerak: u sotilmaydigan va fazilat egasi bo'lgan odamni vazirlikka tayinlashi lozim, chunki adolatli vazir o'zi mahdud-rahbar adolatsizliklarni to'g'irlashi mumkin, ammo vazirning o'zi shunday bo'lsa, halokat yaqindir. Sohibqiron fikricha, davlat boshqaruvida bir muhim qonuniyat - qonun ustuvorligi. Qat'iy tartib va qonunlarga amal qilish baxt-saodatim kaliti bo'ldi. Bosh qonunlar sifatida diniy ahkamlarni va ular asosida yozilgan fikrlarni bilgan. Buning barchasi tarixiy ob'ekt asosida buyuk Temurning adolatli boshqaruvga alohida e'tibor qaratganligini ko'rsatib turibdi.

Aytish mumkinki, XV asrda komil insonlar jamiyati haqidagi g'oyalar tarixiga Alisher Navoiy (1441–1501) ning siyosiy va adabiy faoliyati asos bo'lib xizmat qilgan. A.Navoiy o'z davrining ideal ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar tarixihaqidagi qarashlarini-“Saddi Iskandariy”,-“Mahbub ul qulub”, “Payg'ambarlar va donolar tarixi” va boshqa asarlarida yoritgan. Xuroson va Movarannahrning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumiga oid muammolarni faqat adolatli hukmdor boshqaruvi va qonun ustuvor bo'lgan mamlakatda amalga oshishi mumkinligini bu asarlar orqali yaqqol guvohi bo'lamiz. Shunday qilib, A.Navoiy uchun adolat va qonun ijtimoiy taraqqiyotning asosi hisoblanadi. Uning kontsepiyasida hukmdor shaxsi alohida ahamiyat kasb etadi. Fazilatli va ideal shaxs haqida mulohaza yuritar ekan Navoiy o'ziga xos insonparvar nazariyani yaratadi. O'z nazariyasida mutafakkir, bir tomondan hukmdor va bog'bonni, boshqa tomondan davlat va bog'ni solishtiradi. Unga ko'ra, agar bog'bon aqlli va mehnatsevar bo'lsa, uning bog'i gullab-yashnaydi. Huddi shunday agar mamlakatning aqlli, dono, adolatli, xalqi uchun qayg'uradigan va uni sevadigan hukmdori bo'lsa, u rivojlanib farovonlashadi.

Uning nazariyotchi va amaliyotchi sifatidagi fikrlari bugungi fuqarolik jamiyati qurish tarixida davlat siyosatining adolatli asoslari va uning ma'naviy mezonlarini rivojlantirishga katta hissa qo'shib

kelmoqda. Ayniqsa, adolatsizlik va zulm davlatni tanazzulga, jamiyatni jaholatga olib kelishi to'g'risidagi qarashlarida o'z ifodasini topadi: «...davlat ishi bilan mashg'ul bo'lgan amaldorlik chog'larimda ko'ngil mulkini turli odamlarning hujumi bulg'aladi. Goh amirlik o'rnida o'tirdim va hukumat mahkamasida xalqning arz-dodini so'rdim va goh podshoh yonida vazirlik qildim va menga umidvor nazar bilan qarab turgan elga muruvvat ko'rsatdim» deydi. Adolatli jamiyat shakllanish tarixining asosiy omili sifatida Navoiy insoniy fazilatlar: adolatlilik, rahmdillik, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, vatanparvarlik, vijdonlilik, insonparvarlik va jasoratni keltirib o'tadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda fuqarolik jamiyati qurish tarixini tadqiq qilishda o'rta asr Sharq allomalarining va fuqarolik jamiyatigi oid kontseptual merosi va nazariy ishlanmalari amaliyotdagi – davlat va jamiyatda hukmron me'yorlarga to'liq mos kelmasada, biroq ular fuqarolik jamiyati tamoyillarining ob'ektivlashuvi va uning insoniyat sotsiumining tarixiy taraqqiyotining tarkibiy qismi sifatida tushunilishi uchun mustahkam asos sifatida qo'llanilmoqda. Sababi ushbu manbalar demokratik-fuqarolik jamiyati qurish, yangi O'zbekistonni shakllantirish tarixida ison ongi va tafakkuri masalasida yetakchi o'rin tutib kelmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Abu Nosir Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: A.Qodiriy nashriyoti. 1993, 190-b.
2. Abu Ali Ibn Sino. "Al-ishoratva at-tanbihot" (Nasriddin at-Tusiysarhi) Qohira 1365
3. Alisher Navoiy. Mahbul-Qulub. –T.: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1983, B-12.
4. Amir Temur tuzuklari. - T.:G'ofur G'ulom nashriyoti,1996, 24-bet
5. Yusuf XosXojibQutadg'ubilig.-T.: Fan, 1971, 329-b.
6. Karimov I.A. O'rta asr Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosi zamonaviy sivilizatsiyada o'rni va ahamiyati. // Halq so'zi. 2014 yil 24 may.



Shavkat BOYXONOV,

O'R QK Bosh shtabi boshqarma boshlig'i, PhD, fan doirasida mustaqil izlanuvchi

O'zMU dotsenti U.Maxkamov taqrizi ostida

THE IMPORTANCE OF PARLIAMENTARY CONTROL (DEPUTY INQUIRY) IN ENSURING SECURITY IN THE STATE GOVERNMENT SYSTEM (IN THE EXAMPLE OF THE PARLIAMENT OF THE RUSSIAN FEDERATION)

Annotation

It is noted that modern democratic reforms are focused on the role and importance of the parliament in the state political process. President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to improve the effectiveness of parliamentary control and emphasized the importance of reforms in the field of law-making. The text describes the state of parliamentary control in Russia, its role in ensuring national security and legal order. International experience also shows the importance of this institute. In Russia, the need to improve legislation was emphasized in order to improve the development of parliamentary control and its efficiency.

Key words: Democratic reforms, parliamentary control, security, legislation, Federation Council, State Dumas, constitutional rights, national security, international experience.

ЗНАЧЕНИЕ ПАРЛАМЕНТСКОГО КОНТРОЛЯ (ДЕПУТАТСКОГО ЗАПРОСА) В ОБЕСПЕЧЕНИИ БЕЗОПАСНОСТИ И СИСТЕМЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ ПАРЛАМЕНТА РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИИ)

Аннотация

Отмечается, что современные демократические реформы ориентированы на роль и значение парламента в государственном политическом процессе. Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев повысит эффективность парламентского контроля и подчеркнул важность реформ в сфере законотворчества. В тексте описывается состояние парламентского контроля в России, его роль в обеспечении национальной безопасности и правопорядка. Международный опыт также показывает важность этого института. В России была подчеркнута необходимость совершенствования законодательства в целях улучшения развития парламентского контроля и его эффективности.

Ключевые слова: Демократические реформы, парламентский контроль, безопасность, законодательство, Совет Федерации, Госдумы, конституционные права, национальная безопасность, международный опыт.

DAVLAT HOKIMYATI TIZIMIDA XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENT NAZORATI (DEPUTATLIK SO'ROVI)NING AHAMIYATI (ROSSIYA FEDERATSIYASINING PARLAMENTI MISOLIDA)

Аннотация

Zamonaviy demokratik islohotlarning parlamentning davlat siyosiy jarayonidagi roli va ahamiyatiga qaratilganligi qayd etilgan. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev parlament nazoratining samaradorligini oshirish va qonun ijodkorligi sohasidagi islohotlarning ahamiyatini ta'kidlagan. Matnda Rossiyaning parlament nazoratining holati, uning milliy xavfsizlik va huquqiy tartibni ta'minlashdagi o'rni yoritilgan. Xalqaro tajriba ham ushbu institutning ahamiyatini ko'rsatadi. Rossiyada parlament nazoratining rivojlanishi va uning samaradorligini oshirish uchun qonunchilikni yaxshilash zarurligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Demokratik islohotlar, parlament nazorati, xavfsizlik, qonunchilik, federatsiya kengashi, davlat dumasi, konstitutsion huquqlar, milliy xavfsizlik, xalqaro tajriba.

Kirish. Bugungi kundagi demokratik islohotlar parlamentning davlat siyosiy hayotida tutgan o'rini yanada mustahkamlash va jamiyat hayotining barcha sohalarida uning ahamiyatini oshirishga qaratilgan. Xususan, mamlakat Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Hozirgi kunda – O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida oldimizda o'ta dolzarb va murakkab vazifalar turibdi. Ularni muvaffaqiyatli hal etish uchun, avvalo, qonun ijodkorligi sohasida ishini butunlay yangicha tashkil etishimiz va samarali parlament nazoratini amalga oshirish kerak" [1].

Shu sababli ham parlamentning davlat siyosiy hayotidagi mavqei va ta'sirini, hokimiyatlar bo'linishi tizimida tutgan o'rnini o'rganib, tahlil etish muhimdir. Qayd etish lozimki, siyosiy xavfsizlik hokimiyat institutlarining barqarorligi va samaradorligi, hokimiyat tuzilmalarining siyosiy jarayonlarni nazorat qilish qobiliyati hisoblanadi.

Rossiya Federatsiyasida xavfsizlikni ta'minlashda parlament nazoratining ahamiyati ortib bormoqda, chunki, mamlakat Federal Majlisi Federatsiya Kengashi vakolatiga kiruvchi barcha sohalarida (nafaqat byudjet va moliyaviy sohalarida) parlament nazoratining kompleksligi va samaradorligi uchun davlat organlarining mas'uliyati ortib bormoqda. Federatsiya Kengashining tartibga solish funksiyalari kuchaytirildi. Federal Majlisning ikkala palatasida faoliyat yurituvchi va palatalarning asosiy qo'mitalaridan biri bo'lgan parlament faoliyatini tartibga solish va tashkil etish bo'yicha qo'mitalarning vazifalari bu borada dolzarb etib belgilandi. Hozirda mazkur tizim parlament faoliyatini texnik ta'minlash uchun javobgardir bo'lish bilan birga, qonunlarni qabul qilish tartib-taomillari, ularning huquqiy talablarga muvofiqligini nazorat qilish hamda boshqa qo'mitalar

o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni muvofiqlashtirish vazifasini ham bajaradi.

Parlament nazorati konstitutsiyaviy huquq instituti bo'lib, parlament tomonidan davlat xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlarini rag'batlantirishning eng muhim yo'nalishi sifatida davlat huquqni muhofaza qilish organlari funksiyalarini hamda xavfsizlik organlarining nazorat-operativ funksiyalarini amalga oshirib kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov asarlari, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi hamda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarorlari asosida tadqiqotlar olib borildi.

Aytish joizki, bugungi kunda parlament mamlakatning qonun chiqaruvchi oliy vakillik organini ifodalovchi atama sifatida dunyoning aksar davlatlari tomonidan qonunchilikda qabul qilingan yoki amaliyotda qo'llaniladi. Hokimiyatlar bo'linishi va parlamentarizm o'zaro aloqador hamda bog'liq huquqiy hodisa hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Davlat Dumasida xavfsizlikni ta'minlash maqsadida o'tkaziladigan Parlament nazorati ancha cheklangan. 2005- yil 27-dekabrda (2013- yil 7- maydagi tahrirda) "Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisining parlament tekshiruv to'g'risida" Federal qonuni parlament tergovining subyektlari konstitutsiyaviy huquqlarning qo'pol yoki ommaviy ravishda buzilishi faktlari ekanligini belgilaydi.

Rossiyada inson va fuqaroning erkinliklari; texnogen favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi holatlari va ular bilan

bog'liq salbiy oqibatlar hamda federatsiya va uning ta'sis subyektlarining byudjet vakolatlarini buzish bilan bog'liq moliyaviy intizomning qo'pol buzilishi, federal mulkni boshqarish va tasarruf etish sohasidagi huquqbuzarliklarning organligi parlament nazoratining zaifligini anglatadi [2].

Xavfsizlik sohasidagi parlament nazorati o'tgan asrda Yevropa va boshqa mamlakatlarda konstitutsiya bilan o'rnatilgan. Xavfsizlik sohasidagi parlament nazoratining xususiyatlari, ko'pgina davlatlar amaliyoti ko'rsatganidek, davlat suvereniteti, fuqarolarning suveren huquqlari va milliy xavfsizlikni ta'minlash choralari himoya qilishni tashkil etishning konstitutsiyaviy asoslaridan kelib chiqadi. Parlamentlarning xalqaro siyosatdagi roli ortib borayotgani va davlatlararo hamkorlikning eng muhim yo'nalishlari tartibga solinishi munosabati bilan global, mintaqaviy va milliy xavfsizlikni ta'minlash jarayonlari parlament nazoratining ta'sirini kuchaytirish zarurati ayniqsa keskin bo'lmoqda.

Parlament va ijro hokimiyati o'rtasidagi munosabatlar – hokimiyatlar bo'linishi prinsipida vujudga keluvchi, o'zaro cheklovlar va muvozanat tizimi hamda nazorat tamoyillariga asoslangan, davlatning maqsad va vazifalarini bajarishga qaratilgan, mamlakat hayotidagi eng muhim munosabatlarni tartibga soluvchi doimiy tashkiliy-huquqiy vositalar yig'indisidir. Izlanuvchi tomonidan parlament va hukumat o'rtasidagi munosabatlarning zamonaviy modellari hokimiyatlar bo'linishi prinsipi hamda o'zaro muvozanat va bir-birini tiyib turish tamoyiliga qarab prezidentlik, parlamentar va aralash turlarga ajratiladi.

Davlatning xalqaro va milliy iqtisodiy, harbiy, ijtimoiy, axborot va boshqa xavfsizlikni ta'minlash maqsadida parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha faoliyati fuqarolarning ommaviy irodasi va davlatning milliy xavfsizlik majmuini ta'minlash bo'yicha suveren irodasi ifodasidir.

Tahlil va natijalar. Rossiya Federatsiyasida parlament nazorati milliy xavfsizlik va tashqi siyosat strategiyalarini amalga oshirishga, Rossiya Federatsiyasi Federatsiya Kengashining qonun chiqaruvchi vakolatlariga muvofiq xavfsizlikni ta'minlashga hissa qo'shishi kerak, ammo, qonunchilikni to'sib qo'yadigan mustaqil monitoring vositasiga aylanmasligi kerak [3].

Shu maqsadda Parlament Prezident va hukumatining strategik tashabbuslarini tartibga soluvchi qonunni qabul qildi. Shuningdek, Federatsiyasi Federal Majlisi va Federatsiya Kengashining 2002- yil 30- yanvardagi 33-SF-sonli "Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Federatsiya Kengashining qonun to'g'risida" gi qarori (2018- yil 17- yanvardagi o'zgartirish va qo'shimchalar bilan) (bundan buyon matnda Rossiya Federatsiyasi SFFS Nizomi deb yuritiladi) Federatsiya Kengashi Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi, federal konstitutsiyaviy qonunlar, "Parlament nazorati to'g'risida" Federal qonuni va boshqalar asosida parlament nazoratini amalga oshiradi [4].

Shu bilan birga, 2013- yil 5- iyuldagi 77-FZ-sonli "Parlament nazorati to'g'risida" gi Federal qonunining 4- moddasi (28.03.2017- yilda yangi tahrirda)ga asosan parlament nazorati subyektlari quyidagilar:

Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisining palatalari (RF FA);
 Federatsiya Kengashi va Davlat Dumasi;
 Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisining qo'mitalari va komissiyalari palatalari;
 deputatlik tekshiruvini o'tkazish uchun asos bo'lgan faktlar va holatlarni tekshirish bo'yicha deputatlik komissiyasi;

Federatsiya Kengashi a'zolari;
 Davlat Dumasi deputatlari.

Rossiya Federatsiyasi Hisob palatasi tashqi davlat auditining (nazoratning) eng yuqori organi bo'lib, Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisiga bo'ysunuvchi, 2013- yil 05- iyuldagi 5-FZ-sonli "Rossiya Federatsiyasi Hisob palatasi to'g'risida" gi Federal qonuniga muvofiq parlament nazoratini amalga oshirishda ishtirok etadi [5].

Rossiya Federatsiyasida parlament nazorati institutining rivojlanishi mintaqaviy miqyosda hokimiyat tarmoqlari muvozanatiga erishish

va fuqarolarning manfaatlari va ehtiyojlarini qondirish uchun konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmning samaradorligini oshirish maqsadida huquqiy tartibga solishni takomillashtirish masalalarini dolzarblashtiradi.

Xulosa va takliflar. Hulosa qilib aytganda dunyoda barcha huquqiy demokratik davlatlar tomonidan hokimiyatlar bo'linishi prinsipi davlat hokimiyatini tashkil qilishning asosiy prinsipi sifatida e'tirof etilib, parlament va hukumat o'rtasidagi o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatini saqlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. BMTning jahon mamlakatlarida demokratik boshqaruvni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri " milliy parlamentlarga hokimiyatlar bo'linishi va nazorat tizimini takomillashtirishda ko'maklashish " hisoblanadi, shuningdek, 2030 yilgacha erishilishi lozim bo'lgan barqaror rivojlanish maqsadlarini bajarishning asosiy tashabbuskori – parlament hamda ijrochisi – hukumatdir. Ayniqsa, dunyoda ro'y berayotgan rangli inqiloblar, dunyo tartibotining o'zgarish vaqtida jamiyatda to'planib qolgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni o'z vaqtida va samarali hal qilishda parlament, hukumat hamda jamiyat o'rtasidagi o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatini saqlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahonda parlamentarizm konstitutsiyaviy amaliyotining rivojlanishi natijasida hukumatni shakllantirish, unda parlamentning ishtirokini kuchaytirish, parlament nazoratining yangi shakl va uslublarini ishlab chiqish orqali hukumat faoliyati ustidan samarali nazoratni o'rnatish, parlament oldida hukumatning javobgarligi ortib borishi bilan parlament va hukumat munosabatlarning huquqiy tabiati o'zgarishi, bu jarayonlarga "aqli boshqaruv" konsepsiyalarini joriy qilish masalalariga muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadigan tadqiqot yo'nalishi sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu holatlardan kelib chiqib, Rossiyada parlament nazoratini huquqiy tartibga solishning xilma-xil shakllari mavjud bo'lib, uni qonunchilik bilan tartibga solishning ma'lum afzalliklari va kamchiliklari bilan ajralib turadigan turli huquqiy modellari qo'llanilmoqda. Bu mazkur institutning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi kontseptual va terminologik apparatini unifikatsiya qilish, shuningdek, hududiy parlament nazorati subyektlarining parlament nazorati subyektlariga kiritilishini ta'minlaydigan asosiy parametrlar, ichki ta'sis prinsiplari va tartiblarni qonunchilikda mustahkamlash zarurligini belgilaydi.

Rossiya Federatsiyasining parlament nazorati tizimi Mintaqaviy parlamentlar tomonidan parlament nazoratining turli shakllarini amalga oshirishning protsessual masalalarini qonunchilikda birlashtirish tahlili tegishli huquqiy meyorlarning ixchamligini, nazorat tartib-qoidalarining rejalashtirilgan xususiyatini, federal qonun chiqaruvchi hokimiyat vakolatlarining mintaqaviy darajada takrorlanishini ko'rsatadi. Bunda imkoniyatlarni biroz kengaytirish bilan tekshirish faoliyati kuchaytirish talab etiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi meyoriy huquqiy hujjatlar to'plami./ Elektron hukumatni shakllantirish konsepsiya – T.: O'zbekiston, 2020. – B. 26-29.
2. Xakimov R.R. Davlat hokimiyati tizimida parlament: nazariya va amaliyot muammolari. Yurid. fanlar nomzodi dis. avtoref. –Toshkent, 2009. –B. 22.
3. Bu yo'nalishdagi birinchi qadamlardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 15 iyuldagi "Qonunlarning havolaki normalarini amalga oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish rejaralarini tasdiqlash to'g'risida" gi Qarorining qabul qilinishi bo'ldi.
4. https://www.researchgate.net/publication/368909679_Parliamentary_control_in_the_subjects_of_the_Russian_Federation_Problems_of_legal_regulation_and_implementation_practice, 01.07. 2024 y.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 15 iyuldagi "Qonunlarning havolaki normalarini amalga oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish rejaralarini tasdiqlash to'g'risida" gi Qarori. PQ. № 2003.



UDK: 30 428

Zebo BOTIROVA,

PhD, Docent Namangan State University,

E-mail: ziziko_90@mail.ru

NamSFLI docent, PhD I.Umrzokov reviewer

PROFESSIONAL COMPETENCE OF ENGLISH TEACHERS: AN IN-DEPTH ANALYSIS

Annotation

This article examines the professional competence of English teachers, focusing on key skills, pedagogical strategies, and the role of continuous professional development. The study highlights the necessity for English teachers to adapt to evolving educational contexts and student needs. Through a comprehensive literature review, it identifies critical competencies required for effective teaching and discusses methodologies for assessing and enhancing these skills. The findings underscore the importance of integrating innovative teaching practices and technology in English language education. Ultimately, this research contributes to the ongoing discourse on teacher professionalization and provides practical recommendations for educational institutions.

Key words: English teachers, professional competence, pedagogy, continuous professional development, assessment, innovative practices, technology integration, educational contexts, teaching strategies, skill enhancement, teacher training, language education.

INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASI: TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi, asosiy ko‘nikmalar, pedagogik strategiyalar va doimiy kasbiy rivojlanishning roli ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot ingliz tili o‘qituvchilari uchun o‘zgarayotgan ta‘lim sharoitlari va talaba ehtiyojlariga moslashish zarurligini ta‘kidlaydi. Keng qamrovli adabiyotlarni ko‘rib chiqish orqali u samarali o‘qitish uchun zarur bo‘lgan muhim ko‘nikmalarni aniqlaydi va ushbu ko‘nikmalarni baholash va oshirish metodikalarini muhokama qiladi. Natijalar ingliz tili ta‘limida innovatsion o‘qitish amaliyotlari va texnologiyalarini integratsiya qilish muhimligini ta‘kidlaydi. Oxir-oqibat, ushbu tadqiqot o‘qituvchilarning kasbiylashtirilishi bo‘yicha davom etayotgan munozaraga hissa qo‘shadi va ta‘lim muassasalari uchun amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: Ingliz tili o‘qituvchilari, kasbiy malaka, pedagogika, doimiy kasbiy rivojlanish, baholash, innovatsion amaliyotlar, texnologiya integratsiyasi, ta‘lim kontekstlari, o‘qitish strategiyalari, malaka oshirish, o‘qituvchilarni tayyorlash, til ta‘limi.

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА: ГЛУБОКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В этой статье рассматривается профессиональная компетентность преподавателей английского языка, с акцентом на ключевые навыки, педагогические стратегии и роль непрерывного профессионального развития. Исследование подчеркивает необходимость адаптации учителей английского языка к изменяющимся образовательным условиям и потребностям учащихся. С помощью всеобъемлющего обзора литературы в нем определяются критические компетенции, необходимые для эффективного преподавания, и обсуждаются методологии оценки и повышения этих навыков. Результаты подчеркивают важность интеграции инновационных методов преподавания и технологий в обучении английскому языку. В конечном счете, это исследование способствует продолжающемуся дискуссии о профессионализации учителей и дает практические рекомендации для образовательных учреждений.

Ключевые слова: Учителя английского языка, профессиональная компетентность, педагогика, непрерывное профессиональное развитие, оценка, инновационные практики, интеграция технологий, образовательные контексты, стратегии преподавания, повышение квалификации, подготовка учителей, языковое образование.

Introduction. The role of English teachers in today’s globalized world extends beyond mere language instruction; they are pivotal in fostering critical thinking, cultural awareness, and communication skills among students. Professional competence encompasses a range of skills and attributes that enable teachers to effectively engage and educate their learners. This article aims to analyze the dimensions of professional competence among English teachers, investigating how these competencies can be developed and assessed in a rapidly changing educational landscape.

The importance of professional competence. Professional competence in English language teaching (ELT) is multifaceted, encompassing not only linguistic proficiency but also pedagogical skills, emotional intelligence, and an understanding of the socio-cultural contexts in which language is used. This competence is vital for fostering an engaging and inclusive classroom environment that caters to the diverse needs of students. In today’s educational landscape, teachers must navigate a myriad of challenges, including the integration of technology, varying student backgrounds, and the demands of curriculum standards.

Moreover, the professional development of English teachers is crucial for the continuous improvement of educational practices. As educational paradigms shift—driven by advancements in technology and changes in societal expectations—the competencies required of teachers also evolve. Teachers must be equipped with the skills to adapt their teaching methods, incorporate innovative tools, and remain responsive to the needs of their learners.

The dimensions of professional competence can be categorized into several key areas:

Linguistic Proficiency: A deep understanding of the English language, including its nuances and variations, is essential for effective teaching. This includes knowledge of phonetics, grammar, syntax, and semantics, as well as an awareness of regional dialects and variations in usage.

Pedagogical Skills: Effective teaching strategies are grounded in an understanding of how students learn. This includes the ability to design engaging lesson plans, utilize diverse instructional techniques, and assess student understanding through formative and summative evaluations. Pedagogical competence also involves creating a supportive learning environment where students feel safe to express themselves and take risks.

Cultural Awareness: Language is deeply intertwined with culture. English teachers must possess cultural competence to help students navigate the socio-cultural dynamics of English-speaking communities. This involves integrating multicultural perspectives into the curriculum and fostering discussions around cultural differences and similarities.

Technological Integration: In the digital age, technological proficiency is paramount. English teachers must be adept at incorporating digital tools and resources into their instruction, enhancing student engagement and facilitating collaborative learning experiences.

Emotional Intelligence: Understanding and responding to the emotional needs of students is a crucial aspect of teaching. English

teachers should cultivate strong interpersonal relationships, demonstrate empathy, and foster a positive classroom atmosphere that encourages student participation and motivation.

The development of these competencies requires ongoing professional development and self-reflection. Educators must engage in continuous learning through workshops, seminars, and peer collaboration. Additionally, schools and educational institutions must provide supportive frameworks that promote professional growth, allowing teachers to share best practices and learn from one another.

Assessment of professional competence can take various forms, from self-assessments and peer reviews to student feedback and formal evaluations. By utilizing a comprehensive approach to assessment, educators can gain valuable insights into their strengths and areas for improvement, ultimately enhancing their teaching practice.

Literature review. A significant body of literature addresses the competencies necessary for effective language teaching. According to Richards (2011), these competencies include pedagogical knowledge, linguistic proficiency, and the ability to utilize diverse teaching methodologies. Moreover, research by Tsui (2003) emphasizes the importance of reflective practice and adaptability in teaching. Recent studies have highlighted the impact of technology on English language teaching, advocating for the integration of digital tools to enhance pedagogical effectiveness (Kern, 2014). This literature review identifies gaps in current practices and underscores the need for ongoing professional development to meet the evolving demands of the educational environment.

Methods. This study employs a mixed-methods approach, combining qualitative and quantitative data collection techniques. Surveys were administered to 150 future English teachers across various educational institutions to assess their perceived competencies and professional development needs.[9] In-depth interviews with 20 educators were conducted to gather qualitative insights into their experiences and challenges. The data were analyzed using statistical software for quantitative results and thematic analysis for qualitative data.

Results. The survey results indicated that 78% of participants felt inadequately prepared to integrate technology into their teaching. Furthermore, qualitative interviews revealed a consensus on the importance of continuous professional development, with many

educators expressing a desire for more training in innovative pedagogical strategies.[10] The findings suggest that while teachers possess basic language proficiency, there is a significant need for enhanced pedagogical skills and technological competence.

Discussion. The results align with existing literature emphasizing the necessity for ongoing professional development. The lack of confidence in technology integration suggests a critical area for intervention. Institutions must prioritize training programs that focus on innovative teaching methods and the use of digital resources. Furthermore, the study highlights the importance of fostering a culture of reflection and collaboration among teachers, enabling them to share best practices and support one another's growth.

Conclusion. The professional competence of English teachers is not merely a desirable trait; it is a fundamental necessity for effective language instruction and meaningful student engagement in today's dynamic educational landscape. As we have explored throughout this article, the multifaceted nature of professional competence encompasses linguistic proficiency, pedagogical skills, cultural awareness, technological integration, and emotional intelligence. Each of these dimensions plays a crucial role in shaping the learning experiences of students and preparing them for the demands of a globalized world.

As the educational environment continues to evolve, so too must the competencies of English teachers. The challenges posed by diverse classrooms, rapidly changing technology, and varying student needs necessitate a commitment to lifelong learning. Educational institutions bear the responsibility of fostering a culture that prioritizes professional development, creating robust opportunities for teachers to enhance their skills and knowledge.

Professional development should not be viewed as a one-time event but as an ongoing process that encourages reflective practice and collaborative learning. Workshops, mentorship programs, and peer observations can provide teachers with valuable insights and strategies that directly impact their instructional practices. Furthermore, institutions should invest in creating professional learning communities where teachers can share resources, discuss challenges, and collaboratively develop solutions. This collective approach not only empowers educators but also fosters a sense of camaraderie and support within the teaching profession.

REFERENCES

1. Kern, R. (2014). Technology and Language Learning. *Language Teaching*, 47(4), 505-526.
2. Richards, J.C. (2011). *Competence and Performance in Language Teaching*. New York: Cambridge University Press.
3. Tsui, A.B.M. (2003). *Understanding Expertise in Teaching*. Cambridge University Press.
4. Botirova, Z., & Aljonova, G. (2022). Digital educational technologies. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 2(13), 146-148.
5. Ulugbekova, S., & Botirova, Z. (2023). The professional competence of teachers. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(1 Part 1), 45-48.
6. Kizi, B. Z. X. (2023). Role of digital technologies in education. *Строительство и образование*, 3(5), 28-34.
7. Kizi, B. Z. X., & Kizi, A. G. A. (2023). On training of pedagogical staff in conditions of digitalization of education.
8. кизи Ботирова, З. X. (2020). Principles of taking into consideration language skill of students in teaching vocabulary of English. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(3), 351-355.
9. Botirova, Z. (2023). Bo'lajak chet til o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini raqamli ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirish. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (11), 597-606.



Zilola BOTIROVA,
Xalqaro Innovatsion Universiteti o'qituvchisi

Qarshi davlat universiteti dotsenti F.Choriyeva taqrizi asosida

KONTEKSTLI YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING O'QUV-IJODIY FAOLIYATINI MODELLASHTIRISH MAZMUNI
Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida kontekstli yondashuv asosida talabalarda paradoks bilimlarni shakllantirishni tashkil etishning didaktik imkoniyatlari xususida ma'lumotlar aks ettirilgan va bundan professor-o'qituvchilar fan mazmunini yoritishda nazariy va amaliy jihatdan keng qo'llab kelayotganligi asoslangan. Shuningdek, ta'limning zamonaviy didaktik ta'minotlari talabalarga keng ko'lamdagi imkoniyatlarni yaratish bilan birga ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillar, o'quv faoliyatini modellashtirish – o'rganilayotgan mavzuning asosiy xususiyatlari, o'quv faoliyatini modellashtirish jarayonida o'ziga xos tamoyillari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Kontekstli yondashuv, adekvatlik, fizibilite, paradigma, konstruktiv, differensiallashtirilgan ta'lim, barqarorlik, kompetensiya, didaktik, kreativ, protsess, usul, paradoks, yo'nalish, interaktiv.

**СОДЕРЖАНИЕ МОДЕЛИРОВАНИЯ УЧЕБНО-ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ
КОНТЕКСТНОГО ПОДХОДА**

Аннотация

В данной статье отражена информация о дидактических возможностях организации формирования парадоксальных знаний у студентов на основе контекстного подхода в высших учебных заведениях, и из этого следует, что преподаватели оказывают широкую теоретическую и практическую поддержку в освещении содержания предмета. Также проанализированы современные дидактические средства обучения, факторы, способствующие повышению эффективности обучения при создании широкого спектра возможностей для учащихся, моделирование учебной деятельности – основные особенности изучаемого предмета, специфические принципы в процессе моделирования учебной деятельности.

Ключевые слова: Контекстный подход, адекватность, жизнеспособность, парадигма, конструктивный, дифференцированное обучение, устойчивость, композиция, дидактический, творческий, процесс, метод, парадокс, направление, интерактивность.

**CONTENT OF MODELING EDUCATIONAL AND CREATIVE ACTIVITIES OF STUDENTS ON THE BASIS OF A
CONTEXTUAL APPROACH**

Annotation

This article reflects information on the didactic possibilities of organizing the formation of paradoxical knowledge in students on the basis of a contextual approach in higher education institutions, and from this it is based on the fact that professors widely use theoretical and practical in highlighting the content of science. Also, modern didactic provisions of education are analyzed factors that serve to increase the effectiveness of Education, modeling educational activities – the main features of the topic under study, specific principles in the process of modeling educational activities, while creating a wide range of opportunities for students.

Key words: Contextual approach, adequacy, feasibility, paradigm, constructive, differentiated education, sustainability, competence, didactic, creative, process, method, paradox, orientation, interactive.

Kirish. Zamonaviy oliy ta'lim muassasalari o'quv-tarbiyaviy jarayonida o'qitishning turli xil yondoshuvlari, ta'lim texnologiyalarini joriy etish uchun keng imkoniyatlar taqdim etuvchi yangi o'qitish metodologiyasi kirib kelmoqda va ulardan samarali foydalanilmoqda.

Bundan professor-o'qituvchilar fan mazmunini yoritishda nazariy va amaliy jihatdan keng qo'llab kelmoqda. "Ta'limning zamonaviy didaktik ta'minotlari talabalarga keng ko'lamdagi imkoniyatlarni yaratish bilan birga ta'lim samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi:

o'quv faoliyatga qiziqishni kuchaytiradi va rag'batlantiradi, fikrlash faoliyatni interfaolliги hisobiga shaxsning u yoki bu sifatlarini samarali tarbiyalashni faollashtiradi;

axborot madaniyatini shakllantirish va zamonaviy axborot makonida moslashuvchanliga imkoniyat yaratadi".

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv-ijodiy faoliyatni tashkil etish samaradorligini oshirish uchun o'qitish metodlari, vositalari va shakllariga innovatsiya kiritish, ya'ni, turli xil gipermatnli, ovozli ma'ruzalar, virtual laboratoriyalar, vebvestlar, bulutli texnologiyalar, talabalar bilimni nazorat qilishning elektron dasturlarini taklif etilayotgani ta'limni tashkil etish va fanga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun muhim vosita hisoblanadi[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zamonaviy ta'lim paradigmasida talabalarining o'qitishga muhim didaktik maqsad berishga imkon beruvchi kompetensiyaga asoslangan yondashuvni shakllantirishning asosiy tamoyillari O.E.Lebedev.

Ushbu tamoyillarga ko'ra, ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvning asosiy ma'nolaridan biri mustaqil ijodiy ishlash qobiliyatini shakllantirish, qo'shimcha ravishda ta'limning tashkiliy asosidir.

O'quv faoliyatini modellashtirish – o'rganilayotgan mavzuning asosiy xususiyatlarini boshqa tizim – moddiy ob'ekt, tenglamalar to'plami, kompyuter dasturi yordamida tasvirlash bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Shuningdek, o'quv faoliyatini modellashtirish jarayonida o'ziga xos tamoyillarga tayaniladi.

1. Adekvatlik printsiplari: Model o'rganilayotgan muammoni eng muhim tomonlarini hisobga olishi va uning xususiyatlarini maqbul aniqlik bilan aks ettirishi kerak. Faqat bu holatda simulyatsiya natijalarini o'rganish obyektiga kengaytirish mumkin.

2. Oddiylik va tejamkorlik printsiplari: Model samarali va tejamkor foydalanish uchun yetarlicha sodda bo'lishi kerak. Bu tadqiqotchi talab qilganidan murakkabroq bo'lmaligi kerak.

3. Axborotning yetarlilik printsiplari: Obyekt haqida ma'lumot to'liq yo'q bo'lganda, modelni qurish mumkin emas. To'liq ma'lumot mavjud bo'lganda, modellashtirish ma'nosizdir. Axborot yetarlilik darajasi mavjud bo'lib, unga erishilganda tizimning modelini yaratish mumkin.

4. Fizibilite tamoyili: Yaratilgan model tadqiqot maqsadiga cheklangan vaqt ichida erishishni ta'minlashi kerak.

5. Modellarining ko'pligi va birligi printsiplari: Har qanday o'ziga xos model real tizimning faqat ba'zi jihatlarini aks ettiradi. To'liq o'rganish uchun o'rganilayotgan jarayonning eng muhim tomonlarini aks ettiruvchi va umumiy ko'rinishga ega bo'lgan bir qator modellarni qurish kerak. Har bir keyingi model avvalgisini to'ldirishi va takomillashtirishi kerak.

6. Barqarorlik tamoyili. O'rganilayotgan tizim standart matematik usullar bilan modellashtirilgan, bir-biri bilan o'zaro ta'sir qiluvchi quyi tizimlar to'plami sifatida ifodalanishi mumkin. Shu bilan birga, tizimning xususiyatlari uning elementlarining xususiyatlarining yig'indisi emas

7. Parametrlashtirish prinsipi. Simulyatsiya qilingan tizimning ayrim quyi tizimlari bitta parametrlar (vektor, matritsa, grafik, formula) bilan tavsiflanishi mumkin[2].

Tahlil va natijalar. Yuqorida ko'rsatilgan tamoyillar asosida o'quv-ijodiy faoliyatni modellashtirishda quyidagi talablarga javob berishi kerak: 1) adekvat bo'lishi, ya'ni o'rganilayotgan muammoni eng muhim tomonlarini kerakli aniqlik bilan aks ettirishi; 2) muayyan toifadagi muammolarni hal qilishga hissa qo'shishi; 3) taxminlar va taxminlarning minimal soniga asoslangan

O'quv-ijodiy faoliyatni modellashtirishning aspektlari



Yuqoridagi aspektlarni quyidagicha tahlil qilamiz:

Xavfsizlik – odamga yoki atrof-muhitga zarar bermasdan sinab ko'rish yoki tajriba o'tkazish.

Prototip – yakuniy mahsulot ishlab chiqarilishidan avval yangi mahsulotlarni loyihalash va sinash uchun modellardan foydalanishdan iqtisodiy tejash.

Bashorat qilish – kelajakka boqib, ehtimoliy ta'sirlarni yoki yo'qotishlarni ta'kidlab, muammolar paydo bo'lishidan oldin ularga yechim topish.

Vizualizatsiya – tizimdagi munosabatlarni ko'rish, tushunish va tahlil qilish. Jarayonni vaqt bo'yicha tezlashtirish yoki sekinlashtirish.

Taqrorlash – model sistemani turli xil senariylar asosida parametrlarni o'zgartirib qayta taqrorlash.

O'quv-ijodiy faoliyatni modellashtirishda ikkita asosiy tendensiyaning ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi tendensiya shundaki, ta'lim darajasidan qat'iy nazar, ommaviy xarakterda bo'lib, u qulay ekanligi bilan ahamiyat kasb etmoqda.

Ikkinchi tendensiya - ta'limni individuallashtirish bo'lib, ta'lim jarayonida barcha ishtirokchilarning xususiyatlarini va mavjud imkoniyatlarini baholashni hisobga oladigan tarzda tashkil etishni nazarda tutadi.

Demak, bizningcha, o'quv faoliyatini modellashtirish tajriba qilmasdan avval ma'lum bir tizimlar uchun eng qulay modelni tuzib 1-jadval.

Talabalarning o'quv-ijodiy faoliyatni faollashtirishning o'ziga xos aspektlari

Qiziqish va ichki motivatsiyani rivojlantirish	Qiziqish uyg'otish: tegishli mavzular tarkibini talabalarning qiziqishini uyg'otadigan va o'rganish istagini uyg'otadigan qiziqarli mashg'ulotlar, real dunyo munosabatlarini o'zida mujassam etgan vazifalarni kiritish. Qiyinchilik va izlanishlarni rag'batlantirish: talabalar o'z qiziqishlarini o'rganish, savollar berish va ularni qiziqtiradigan mavzularni chuqurroq o'rganish imkoniyatini yaratish. Faol tafakkurini rivojlantirish: o'rganish, sa'y-harakatlarni taqdirash va talabalarni o'sish imkoniyatlari sifatida qiyinchiliklarni qabul qilishga undash jarayoniga urg'u berish.
Qo'llab-quvvatlovchi va qiziqarli o'quv muhitini yaratish:	Hamkorlikda o'rganish: ijodkorlik va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun jamoaviy ishlashni, tengdoshlaridan o'rganishni va guruh muhokamalarini rag'batlantirish. Faol ishtirok: talabalarning faol ishtirok etishi, tajriba o'tkazishi va o'quv jarayoniga hissa qo'shishini talab qiluvchi faoliyatni loyihalash. Differensiallashtirilgan ta'lim: individual talabalarning turli ehtiyojlari va o'rganish uslublarini qondirish uchun o'quv faoliyatida o'zaro yordamni yo'lga qo'yish. Ijodiy fikr-mulohaza va e'tirof: konstruktiv fikr-mulohazalarni taqdim etish, muvaffaqiyatlarni rag'batlantirish va o'ziga ishonch va motivatsiyani oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni kuchaytirish.
Innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish	Loyihaga asoslangan ta'lim: talabalarni bilimlarni qo'llash va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beruvchi amaliy faoliyatga asoslangan loyihalarga jalb qilish. Muammoga asoslangan ta'lim: talabalarni ijodiy fikrlashga, hamkorlik qilishga va yechim topishga undaydigan real muammolar yoki ssenariylarni taqdim etish. Imitatsion o'yning asoslangan ta'lim: bunday o'yin orqali qiziqish, motivatsiya va o'rganishni kuchaytirish uchun o'yin simulyatsiyalardan foydalanish. Texnologiya integratsiyasi: tadqiqot, muloqot va ijodiy ifodani osonlashtirish uchun texnologiya vositalari va resurslaridan foydalanish.
Ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish:	G'oyalarga asoslanish: O'quvchilarni hukm va cheklovlarisiz erkin g'oyalar yaratishga undash. Vizual xarita: Aloqalarni tasavvur qilish va turli nuqtai nazarlarni o'rganish uchun hayolida vizualashtirish hamda tasvirlashda turli xarita, chizma, diagrammalardan foydalanish. Tanqidiy fikrlash: talabalarni axborotni tahlil qilish, baholash va sintez qilishga undash. Ijodiy muammolarni hal qilish: talabalarni qobiqdan tashqarida o'ylashini va innovatsion yechimlarni ishlab chiqishni talab qiladigan topshiriqlar tizimini ishlab chikishga undash.
Izoh va qo'llash imkoniyatlarini ta'minlash:	Ijodiy yozish: talabalarni ijodiy yozish mashqlari orqali o'z fikr va qarashlarini ifoda etishga undash. Tasviriy san'at: talabalarga rasm chizish, maket yasash, model taklif etish orqali o'zlarini o'quv faoliyatini ifoda etish imkoniyatini yaratish. Ijro san'ati: Talabalarga o'zlarini ijodiy ifodalash uchun drama, musiqa yoki raqsda qatnashish imkoniyatlarini taklif etish. Haqiqiy dunyo ilovalari: o'rganishni real dunyo konteksti bilan bog'lash va talabalarni bilimlarini amaliy sharoitlarda qo'llashga undash.

Mazkur aspektlarni e'tiborga olish orqali pedagoglar o'quv faoliyatida ijodkorlikni rivojlantiradigan, o'rganishga bo'lgan muhabbatni uyg'otadigan va talabalarning o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishga imkon beruvchi dinamik va boyituvchi o'quv muhitini yaratishi mumkin. Buning uchun pedagog zamonaviy ta'limning samarali yondashuvlari va uning mazmunini bilishi, faoliyatda qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim[3].

Kontekstli yondashuv asosida o'quv-ijodiy faoliyatni faollashtirish talabalarning izlanishda faolligi va tashabbuskorligini

sodda va tushunarli bo'lishi; 4) shaxsni va sohani rivojlantirishga xizmat qilishi; 5) foydalanish uchun qulay bo'lishi.

Paradoks tafakkur uzluksiz fikrlash bo'lib, bir fikrdan ikkinchisiga sakrab o'tish, yangi istiqbol va ma'nolarni kashf etish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Bunday fikrlash noaniqlikka intilmaydi, balki ko'plab turli talqinlar va nuqtai nazarlarga imkon beradi.

O'quv-ijodiy faoliyatni modellashtirishning o'ziga xos jihatlari bo'lib, u quyidagilarda namoyon bo'ladi:

chiqish va sinab olish tajriba uchun ketadigan xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Modellar yordamida tajriba uchun sarflanadigan xarajatlarni tejash o'z navbatida katta iqtisodiy samaradorlikka ham olib keladi. Shuningdek, o'quv faoliyatini modellashtirish yetarlicha murakkab jarayon. Uni yaxshi o'zlashtirish uchun integrativ bilimlar talab qilinadi.

O'quv-ijodiy faoliyatni kontekstli yondashuv asosida modellashtirish quyidagilarga imkon yaratadi: 1) talabalar faoliyati faollashtirish, ilmiy adabiyotlarni izlash va o'rganish bo'yicha mustaqil ish (asosan maqolalar) tayyorlashga imkon yaratadi; 2) ilmiy loyihalarni amalga oshirishning barcha bosqichlarida mustaqil ishlash va jamoada ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi; 3) ilmiy natijalarni ilmiy maqolalar, og'zaki va poster taqdimotlari ko'rinishida tarqatish, shu jumladan, virtual, interaktiv vizualizatsiyadan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

O'quv - ijodiy faoliyatni faollashtirishning yondashuvlari, usullari va vositalarini tashkiliy-pedagogik qo'llab-quvvatlash variantlarini tahlil qilish, aniqlangan izlanish yo'nalishlariga muvofiq yo'naltirilgan holda kontekstli yondashuv tamoyillarini moslashtirish g'oyasini keltirib chiqaradi[5].

Kontekstli yondashuv asosida talabalarning o'quv-ijodiy faoliyatni faollashtirishning o'ziga xos aspektlari bo'lib, ular bir-biri bilan bog'liq hamda aloqador (1-jadval).

oshirish uchun mutaxassisning ijodkor shaxsini shakllantirishga qaratilgan kasbiy ta'lim subyektlarining o'zaro va ta'lim muhiti obyektlari o'rtasidagi munosabatlarning intensivligini oshirish jarayoni tushuniladi. Bunda o'quv va ijodiy muammolarni hal qilish, talabalar uchun muammoga taklif qilinadigan yangi turdagi vaziyatni tushunish darajasini va shaxsiy ahamiyatini oshirish, keyin uning o'zgarishi yoki talabalarning ushbu vaziyatga munosabatini o'zgartirish e'tiborga olinadi[4].

Xulosa va takliflar. Talabalarning o'quv-ijodiy faoliyatini faollashtirish, uni samarali tashkil etish bilish faolligining ijodiy darajasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, u nafaqat predmetlar va hodisalar o'rtasidagi aloqalarni o'zlashtirishda, balki buning uchun

talabalarni yangi yo'l topishga harakat qiladigan ijodiy izlanishlar, mustaqil harakat, o'qish-izlashishiga imkon beradi. Shu boisdan mazkur faoliyatni faollashtirish texnologiyalarini jarayonga kiritish ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Abduqodirov A.A. "Pedagogika" va "Psixologiya" fanlaridan keyslar va ulardan foydalanish uslubiyoti. –Toshkent: "Fan va texnologiyalar". 2015. – B.161.
2. Abduqodirov A.A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. –Toshkent: "Iste'dod". 2008. – B. 180.
3. Abduqodirov A., Pardayev A. Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarning izohli lug'ati. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2012. – 44 b.
4. Abdinazarova Z.X. Pedagogik texnologiyalarning talabalar aqliy taraqqiyotiga psixologik ta'siri. Psix.fan.nomz...diss.- Toshkent, 2012. – 144 b.
5. Avliyoqulov N.X.. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari.- Buxoro. Matbaa, 2001.- 68 b.



УДК 63.3 Б 92

Ilyosxon BURXONOV,

O'рта Osiyo tibbiyot universiteti o'qituvchisi

E-mail: burhonovilyosxon78@gmail.com

TATU Farg'ona filiali dotsenti Z.Xatamova taqrizi asosida

A.O'RINBOEV HAYOTI VA ILMIIY IJODIGA NAZAR

Аннотация

Maqolada A.O'rinboevning O'zbekiston tarixi rivojiga qo'shgan hissasi olimning ilmiy tadqiqot metodlarini qiyosiy tahlili bilan izohlanadi. A.O'rinboevning xayoti va ilmiy merosining sarmazmun ekanligi dalillanadi.

Kalit so'zlar: Tarix, olim, qo'lyozma, ilm, shogird

ВЗГЛЯД НА ЖИЗНЬ И НАУЧНУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ А. УРИНБОВЕВА

Аннотация

В статье раскрывается вклад А.Уринбоева в развитие истории Узбекистана с сопоставительным анализом методов научных исследований ученого. Доказано, что жизнь и научное наследие А.Уринбоева богаты.

Ключевые слова: История, ученый, рукопись, наука, студент.

A VIEW ON THE LIFE AND SCIENTIFIC ACTIVITY OF A. URINBOEV

Annotation

The article reveals A. Urinboev's contribution to the development of the history of Uzbekistan with a comparative analysis of the scientist's scientific research methods. It has been proven that the life and scientific heritage of A. Urinboev is rich.

Key words: History, scientist, manuscript, science, student.

Kirish. Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o'rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur, – degan edi Shavkat Mirziyoyev 2021 yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektordagi [1]. Sovet mafkurasi sabab, O'zbekiston tarixini xolis, milliy ruh bilan yoritishga bo'lgan to'siqlar avj olgan, haqiqiy tarixchi olimlar uchun og'ir vaqtlar bo'lishiga qaramay akademik Yaxyo G'ulomov, I.Mo'minov, B.Axmedov, A.O'rinboev va boshqa zabardast tarixchi olimlar o'zlarining maqsadlari sari olg'a borishlik bilan ma'naviy jasorat ko'rsatib bugungi yoshlarga namuna bo'lib qoldilar. Maqolada yuqorida sanalgan olimlardan biri A.O'rinboev hayoti va ilmiy ijodiga nazar solinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqot metodologiyasi. Asomiddin O'rinboev ilmiy ijodi to'g'risida yozilgan maqola va kitoblar S.Miliband[1.1.], M.Bulatov[2.1.], D.Yusupova[3.1.], D.Valieva[4.1.], M.Abdusamatov[5.1.], G.Karimov[6.1.], O.Bo'riev[7.1.], B.Valixov[8.1.], M.Hasaniy [9.1.], U.Uvatov[10.1.], A.Ahmedov[11.1.], M.Raximova[12.1.], A.Hasanov[13.1.], H.Nuriddinov[14.1.], I. Burxonov[15.1.] hamda xorijlik olimlardan esa John S. Schoebean Engel[16.1.] lar Asomiddin O'rinboev ilmiy merosiga yuqori baho bergan holda o'z maqola va kitoblarini nashr qilgan.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston tarixini o'rganishda katta hissa qo'shgan har bir olimning xayoti va ilmiy merosi doimo insonda qiziqish uyg'otadi. Ayniqsa, A.O'rinboev bir vaqtning o'zida o'zbek, rus, arab, fors tillarini mukammal biluvchi yetuk tarixchi olim, sharqshunos, fidoiy pedagog, jamoat arbobi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Davlat mukofoti sohibi, oliyanob inson sifatida bugungi kunda O'zbekiston tarixi fanida yoshlar xavas qilsa arziydigan shaxs sifatida yodga olinadi va olimning ilmiy merosini o'rganish zaruratini tug'diradi.

A.O'rinboev 1929 yilning 15-mayida Toshkentda oddiy ishchi oilasida tavallud topgan bo'lsada, u ta'lim-tarbiya muhitining ta'siri natijasi o'laroq hayotining asosiy qismini ilm-fan bilan bog'ladi. Bolaligidan kitob bilan oshno bo'lib ulg'aydi. 1944 yilda O'рта Osiyo Davlat universitetida tayyorlov kursida o'qidi. 1945 yil shu oliygohning sharqshunoslik fakultetiga o'qishga qabul qilindi. 1950 yilda esa o'qishni tamomladi. Shu yili xarbiy tarjimon sifatida mehnat faoliyatini boshladi.

A.O'rinboev 1953 yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik qo'lyozmalar inmtitutida mehnat faoliyatini boshladi

va umrining so'nggi kunlarigacha, ya'ni 2009 yilgacha sharq qo'lyozmalarini ilmiy muomalaga kiritish, tarjima qilish, fehristlash va katalog tuzish ishlari bilan shug'illandi.

A. O'rinboev haqida O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: Asomiddin O'rinboev 1953 yildan 1960 yilgacha institutning kichik ilmiy xodimi lavozimida faoliyat olib bordi. 1960 yildan boshlab to'qqiz yil katta ilmiy xodim lavozimida ishladi. 1969 yildan 1987 yilgacha bo'lim boshlig'i vazifasini bajargan. 1987-1993 yillarda Sharqshunoslik instituti direktori vazifasini bajargan. 1993-1994 yilda bo'lim boshlig'i lavozimida mehnat faoliyatini davom ettirgan. Ushbu kitobga ma'lumotlar qisqartirib kiritilgan bo'lishi mumkin. Chunki, olimning mehnat faoliyatiga oid arxivni ko'rib chiqilganda yuqoridagi ma'lumotlardan biroz farqli ravishda quyidagilar aniqlandi:

-1953 yilda O'zRFA Sharqshunoslik instituti kichik ilmiy xodimi;

-1957 yil dekabr oyidan O'zRFA Sharqshunoslik instituti katta ilmiy hodimi vazifasini bajaruvchi;

-1961 yil iyuldan O'zRFA Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi;

-1961 yil tarix fanlari nomzodini olish uchun dissertatsiyasi himoyasi;

-1969 yil iyundan XIV-XV asr qo'lyozmalarini o'rganish va nashr etish bo'limi boshlig'i;

- 1970 yilda mehnat jasorati medali bilan taqdirlangan;

-1974 yil yanvardan 1987 yil noyabrgacha Sharq qo'lyozmalarining ilmiy tasnifi nomli bo'lim boshlig'i (bu bo'lim nomlanishi 1986 yilda "Tarixshunoslik va kataloglashtirish" ga o'zgartirilgan);

-1984 yilda tarix fanlari doktori ilmiy unvonini olish uchun dissertatsiya himoya qildi;

-1987 yil noyabr oyidan 1993 yil sentabrgacha O'zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti direktori;

-1989 yil "Mehnat fahriysi" medali hamda Adu Rayhon Beruniy davlat mukofoti sohibi;

-1992 yil "Mustaqillik" ko'krak nishini bilan taqdirlangan;

-1993 yil iyundan 1994 yilgacha O'zRFA Sharqshunoslik institutining Tarixshunoslik va kataloglashtirish bo'limi boshlig'i;

-1993 yil O'zbekiston Respublikasi fahriy yorligi bilan taqdirlangan;

-1994-1996 yillar O'zRFA Sharqshunoslik institutining yetakchi ilmiy xodimi;

-1999 yil sentabr oyidan -2000 yil avgustigacha O'zRFA Sharqshunoslik institutining bosh ilmiy xodimi;

-1998 yilda halqaro "Oltin meros" jamg'armasining fahriy yorlig'i bilan taqdirlangan;

-2001 yilda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" fahriy unvoni bilan mukofotlangan.

A. O'rinboev oilali, ikki nafar farzandning otasi bo'lib, turmush o'rtog'i L.M.Yepifanova ham O'zRFAda ilmiy xodim bo'lib xizmat qilgan.

A. O'rinboev 1993 yildan 2009 gacha mahalliy va halqaro grantlar rahbari sifatida tarix, manbashunoslik, sharqshunoslik sohalariga xizmat qiluvchi loyihalarni amalga oshirgan. Natijada Eron, Afg'oniston, BAA, Germaniya, Yaponiya va AQSH kabi davlatlardagi tarixchi olimlar bilan halqaro ilmiy hamkorlik doirasida bir qator kitoblar nashr etilgan.

A. O'rinboev ilmiy faoliyati to'g'risida ma'lumotlar beruvchi kitob va ensiklopediyalarda olimni Amir Temur va temuriylar davri tarixini o'rganuvchi shaxs sifatida e'tirof etilsada, tadqiqot mobaynida Qo'qon xonligi tarixini o'rganishga ham katta xizmat qilganligi ma'lum bo'ldi. Bu haqida dissertasiyaning uchinchi bobida batafsil bayon qilindi.

A.O'rinboevning shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlarni oila a'zolaridan olish maqsadida murojat qilindi va og'zaki yig'ilgan manbalar dissertasiyaning ilova qismida keltirilmoqda. A. O'rinboevning xayoti haqida ukalari Salohiddin O'rinboev, kelinoyilari Saltanatxon O'rinboeva, jiyanalari Shamsiddin aka va Mo'tabar opalar bilan suhbatlashildi. A.O'rinboevning farzandlari xorijiy davlatda yashayotganligi sababli ular bilan suhbatlashishni imkoni bo'lmadi. Oilaviy va shahsiy xayotlariga oid ma'lumotlardan olimni ta'lim-tarbiyasi oila zamirida shakllanganligiga xulosa qilish mumkin.

A.O'rinboev uzoq yillar mobaynida Oliy ta'lim muassasalarida ham talabalarga sharqshunoslik, tarix kabi fanlardan bilim bergan. Toshkent Davlat Sharqshunoslik institutida o'tkaziladigan Davlat atestasiya imtihonlarida rais bo'lgan. Toshkentdagi Milliy universitetda tarixshunoslik fanidan maxsus kurs ma'ruzalarini o'tish bilan birga magistr va doktorantlarga ilmiy rahbarlik qilgan[3.2.b.14.]. Olim tomonidan to'rt yuzdan ortiq monografiya, to'plam, ilmiy maqola va qo'lyozmalarning tavsiflari turli tillarda nashr etilgan. A.O'rinboev tomonidan yaratilgan ushbu ilmiy meros haqida dissertasiyaning birinchi bobida batafsil to'xtab o'tildi.

Bundan tashqari, A.O'rinboev yirik ilmiy-tashkiliy faoliyat ham olib borganligi aniqlandi. 1973-1988 yillarda O'zR FA Sharqshunoslik institutining maxsus kengashining ilmiy kotibi, 1988-1995 yillarda shu kengashning raisi, 1995 yillarda esa rais o'rinbosari bo'lgan. Shu bilan birga Toshkent Islom Universitetining nomzodlik va doktorlik unvonini beruvchi ilmiy kengashning a'zosi sifatida faoliyat olib borgan (2004).

1988 yildan boshlab A.O'rinboev "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar" nomli ilmiy jurnalning tahrir xay'ati a'zosi bo'lib ishlagan. 1990 yildan "Sharqshunoslik" almanax jurnalining bosh redaktori vazifasini bajargan.

1996 yil Amir Temurning 660 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan halqaro Amir Temur hayriya jamg'armasining boshqaruv a'zosi sifatida faoliyat olib borgan. Jamg'armaning asosiy maqsadi Amir Temurning siyosiy, ijtimoiy va davlat boshqaruviga oid tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, mavzuga oid tarixiy qo'lyozma manbalarni o'rganish, ilmiy jamoatchilikka tanishtirish uchun nashr etish, Amir Temur va temuriylar davrida barpo etilgan tarixiy obidalarni ta'mirlash, yoshlarni vatanparvarlik tuyg'ularini oshirishga xizmat qiluvchi faoliyatlarni olib borishdan iborat edi. Davlatimizdagi ko'plab ziyolilar qatorida A.O'rinboev ham Amir Temur va temuriylar davri tarixini rivojlantirish, xalqaro aloqalarni kengaytirishga o'z hissasini qo'shdi.

A.O'rinboevning faoliyatida keng omma orasida ham sharqshunoslik, tarix sohasini chuqur o'rgatish, targ'ib etish katta ahamiyat kasb etgan. Qo'lyozma asarlar tarjimasini amalga oshirish bilan birga uzoq yillar ilmiy salohiyatli soha mutaxassislarini yetishtirish va ularni chinakkam olim sifatida shakllantirishga ham katta kuch sarfladi.

A.O'rinboevning 75 yoshga to'lishi munosabati bilan o'tkazilgan tantana uchun maxsus tayyorlangan kitobda "D.Yusupova, U.Uvatov, O.Bo'riev, J.Djappasbaeva, Yaiy, N.Toshev, O'.Sultonov, G'.Karimov, S.G'ulomovlar A.O'rinboev ilmiy rahbarligida himoya qilgan va qilishga tayyorlanayotgan olimlar" deb sanab o'tilgan[3].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilish mumkinki, A.O'rinboev ilmiy merosi jahon miqyosida bo'lganligi o'zbek tarixi va manbashunosligini xozirgacha xalqaro ilmiy jamoatchilik e'tiborida bo'lib kelmoqda.

ADABIYOTLAR

1. <https://aniq.uz/yangiliklar/shavkat-mirziyoyev-milliy-tarixni-milliy-ruh-bilan-yaratish-kerak-aks-holda-uning-tarbiyaviy-tasiri-bulmaydi>
2. Милибанд С.Д. Библиографический словарь советских востоковедов. – Москва, 1977. – С.567; Ўша муаллиф. Уринбаев Асам // Библиографический словарь отечественных востоковедов. – Москва: Наука, 1995. – 734 с.
3. Булатов М. Улугбек расадхонаси // Совет Ўзбекистони газетаси. – Тошкент, 1982. – Б. 4.
4. Юсупова Д.Ю. Письма-автографы Абдурахмана Джами из «Альбома Навои» // UNESCO.Международная ассоциация по изуч. культур Центр.Азии.Информационный бюллетень. Выпуск 5. Гл.ред.изданий для зарубежных стран. Изд-во «Наука». М.1983. – С. 83-84;Ўша муаллиф. К 60-летию А.Уринбаева // Общественные науки в Узбекистане. 1989. № 5. – Ташкент, 1989. – С. 47- 49; Ўша муаллиф. О прошлом с пользой для настоящего (о лауреатах на Госуд. Премии им. Абу Райхана Беруни) // Газета «Правда Востока». 1989. – С.3.; Юсупова Д., Уватов У. Амир Темур-гордость народов Туркестана // Газета «Новый день». – Ташкент,1997. – С. 1-4.
5. Валиева Д. Ўзбекистонда эроншунослик // Шарқшунослик (альманах). – Тошкент,1992. – № 3. – Б. 124-135; Ўша муаллиф. Ўзбекистонда эроншунослик // - Тошкент: Сино, 2003. – № 11. – Б. 40-45.
6. Абдусаматов М. Ўринбоев Асам // Ўзбекистон шарқшунослари. Библиографик очерк. – Тошкент, 1996. – Б. 154-155.
7. Фулом Карим. Мактублар жаҳон кезади // Газета "Миллий тикланиш". – Тошкент, 1998. - № 163. – Б. 3-5; Ўша муаллиф. Ўзбек манбашунослиги дарғаси // – Тошкент: Сино, 2001. – № 3. – Б. 35-37.
8. Бўриев О. Ёзма меросимизнинг йирик тадқиқотчиси // Шарқшунослик. – № 10. – Тошкент: "Мишқоқ" саҳоват нашриёти, 2000. – Б. 169-180.
9. Валихўжаев Б.Н. Илмий алоқалар кўлами кенгаймоқда // Илмий тадқиқотлар ахборотномаси. Илмий-назарий услубий журнал. – Тошкент, 2002. – № 2. – Б. 223-226.
10. Махмуд Ҳасаний. Муборак мактублар нашри // Имом ал-Бухорий сабоқлари. – Тошкент, 2002. – № 4. – Б. 294-295.
11. Уватов У. Табаррук мактублар инглиз тилида // Халқ сўзи. – Тошкент, 2004. – Б. 4.
12. Аҳмедов А. "Тиёншонга тенгдош тарих бу..." (Тарихчи олим Ашраф Аҳмедов билан суҳбат) // Хуршид даврон кутубхонаси. Манба: «Тафаккур» журналі, 2013. Ижтимоий тармоққа қўйилган санаси 2015 йил 21-апрел.. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/amir-temur-ashraf-ahmedov.html>.
13. Раҳимова М.С. ЎзРФА Шарқшунослик институтининг шарқшунос ва манбашунос олимлари хақида // Фан ва таълимни ривожлантиришда ёшларнинг ўрни. – Тошкент, 2018. – Б. 141.
14. Ҳасанов А. Убайдулла Уватовнинг табаррук ёши муносабати билан шингил сўз // Илму маърифатга баҳшида умр. – Тошкент, 2020. – Б. 24-30.
15. Нуриддинов Ҳ. Штабнинг тошкентлик аъзоси // Илму маърифатга баҳшида умр. – Тошкент, 2020. – Б.123-130.
16. Burkhonov, I. (2021, June). The importance of the scientific heritage of asomiddin urinboev in the study of the history of the Kokand khatat. In Конференция.; Бурханов, И. (2023). Научное наследие Шарафиддина Али Язди в интерпретации Асомиддина Оринбоева. Актуальные проблемы истории Узбекистана, 1(1), 165–171.; John S. Schoebeen Engel. Orunbaev A. // Guide to Scholars of the history and Culture of Central Asia. – Cambridge, 1995. – P. 199.



UDK:792.9

Ravshanbek DEHQONOV,

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali dotsenti v.b

E-mail: dexkonov8282@mail.ru

O'zbekiston xalq artisti Sh. Rahmatullayeva taqrizi asosida

PUPPET THEATER IN THE EDUCATION OF THE MATURE GENERATION PLACE

Annotation

In this article, the role and importance of the theater, including the puppet theater, in the upbringing of the young generation and its correct implementation, puppet theater in instilling the ideas of patriotism, humanitarianism, and hard work into the psyche of children. The advantages of art, as well as its problems and solutions are discussed.

Key words: Art of puppet theater, character, education, human values, performance, character, stage, scenography, puppeteer, scene.

КУКОЛЬНЫЙ ТЕАТР В ВОСПИТАНИИ ЗРЕЛОГО ПОКОЛЕНИЯ МЕСТО

Аннотация

В данной статье раскрываются роль и значение театра, в том числе театра кукол, в воспитании молодого поколения и его правильная реализация, театра кукол в привитии в психике детей идей патриотизма, гуманизма, трудолюбия. Искусства, а также его проблемы и пути решения.

Ключевые слова: Искусство кукольного театра, персонаж, воспитание, общечеловеческие ценности, спектакль, персонаж, сцена, сценография, кукольник, сцена.

BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA QO'G'IRCHOQ TEATRINING O'RNI

Annotatsiya

Mazkur maqolada yosh avlod tarbiyasi va uni to'g'ri yo'lga qo'yishda teatrning, jumladan, qo'g'irchoq teatrining roli va ahamiyati kattaligi, bolalar ruhiyatiga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik g'oyalari singdirishda qo'g'irchoq teart san'atining afzalliklari, shuningdek, uning muammo va yechimlari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Qo'g'irchoq teart san'ati, personaj, tarbiya, insoniy qadriyatlar, spektakl, obraz, shirma, ssenografiya, qo'g'irchoqboz, sahna.

Kirish. Jamiyatning taraqqiyoti va asosi bu yoshlar hisoblanadi. Yoshlarning jamiyatdagi o'rnini topishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bevosita yoshlar tarbiyasida san'atning, jumladan, teatrning o'rnini katta hisoblanadi. Шу ўrinда Мухтарам Президентимиз, “Ayni vaqtda, madaniyat sohasida jaholatga qarshi ma'rifati bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy san'atni anglashga o'rgatish, ularning estetik olamini sog'lom asosda shakllantirish bo'yicha oldimizda juda muhim vazifalar turibdi,” deb bejiz aytgan.

“Yoshlarning tarbiyasi haqida so'z ketganida, har bir san'at turining ahamiyati katta ekanligini, bu esa biz san'atshunos va teatrshunoslarga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Shu o'rinda teatrning o'rnini alohida ta'kidlab o'tish lozim”, deydi teatrshunos olim M.S. Muxtorova va “Teatrga muhabbat uyg'otish ishini bolalardan boshlash katta ahamiyatga ega” deya teatrshunos olim H. Ikromovning so'zlarini misol tariqasida keltiriladi [1].

Teatr – shunday qudratli kuchki, uning ulkan imkoniyatlari bilan qanchadan-qancha g'oyalarni odamlarga singdirish, ta'sir o'tkazish, o'z navbatida aynan shu g'oyalar bilan ongni zaharlash yoki tuzatish ham mumkin. Chunki teatr sahnasidagi har bir ijodiy jarayonda namoyon bo'layotgan turli obrazlar o'z chizgilar orqali histuyg'umizni harakatga soladi va boshqaradi. Президентимиз Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек, “Jahondagi eng ommaviy va ta'sirchan san'at turlaridan biri bo'lgan teatr asrlar davomida odamlarni insoniylik va ezigulikka chorlab, ularning qalbida olijanob fazilatlar, go'zal his-tuyg'ularni kamol toptirishga, jamiyat hayotida tinchlik, do'stlik va hamjihatlik, yuksak axloq va adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda.”[2] Aytish joizki, qo'g'irchoq teatri ham shunday kuchga ega maskanlardan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qo'g'irchoq teatri – bolajonlar uchun doimo mo'jizalar olami sifatida namoyon bo'lib kelgan. Bu teatrdan qo'yilayotgan spektakllar, unda ishtirok etayotgan personajlarning quvonch va tashvishlari, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi azaliy kurash aks etgan sahna ko'rinishlari murg'ak qalb egalari sira befarq qoldirmagan. Shu bois, bolajonlar spektakl qahramonlari bilan birga kuladi, yig'laydi, ular uchun tashvishlanadi, qayg'uradi, quvonadi.

Vatanga muhabbat, rostgo'ylik, mardlik, do'stlik, oqillarni qo'llash, sevgiga sadoqat kabi mazmundagi teatrlar uchun

yoziyotgan pesalar, ayniqsa, muhim hisoblanadi. Afsuski, aynan qo'g'irchoq teatrlariga pesa yozish hamma vaqt ham o'z-o'zidan hal bo'lavermaydi. Buning uchun qo'g'irchoq teatri san'ati, uning o'ziga xos professional imkoniyat va talablarini bilish, tendensiyalaridan xabardor bo'lish, eng muhimi bu san'at turini sevish kerak bo'ladi.

Inson san'atsiz yashay olmaydi. San'atga ilk yoshlik chog'imizdanoq intilamiz. Sababi, insonning hayotga qo'ya boshlagan ilk qadamlari san'at bilan uzviy bog'liqligidir. Onaning alla qo'shig'i, uning birinchi muloim so'zlari, tabassumidagi qalb mehri, insoniy muhabbatning kuchi, barchasi birgina allada mujassamlashgandir. Darhaqiqat, alla xalq she'riyati va musiqasi uyg'unlashgan san'at turidir.

Bolalikda yoshlarni sirk, mutfilmlar, ertaklar, sarguzashtlar, yumoristik teatr sahna asarlari qiziqtiradi. O'smir yoshdagilar esa harbiy sarguzashtlar, detektiv, ya'ni maxfiy agentlar hayotiga oid, ilmiy fantastika, birinchi muhabbat haqidagi povestlarni qiziqib, ishtiyok bilan o'qiydilar. 14-15 yoshga qadam qo'yganda esa yoshlarning san'atga bo'lgan intilishi rang-barang ma'no kasb eta boshlaydi.

“Bolalar go'zallik, o'yinlar, ertaklar, muziqa, rasmlar, hayolot, ijod olamida yashashi kerak. Biz bolaga yozishni o'rgatishni xohlaganimizda ham u ana shu olam qurshovida bo'lishi kerak. Darhaqiqat, bilim shotisining birinchi pog'onasiga ko'tarila turib, bola o'zini qanday sezadi, qanchalik hayajonlanadi-bilim sari bundan keyin boriladigan butun yo'l shunga bog'liq bo'ladi”[3], - degan edi V.Suxomlinskiy.

Haqiqatdan badiiy madaniyat jamiyatda katta ta'lim va tarbiyaning katta vazifalarini hal etishga yordam beradi. Badiiy tarbiya bugungi kunda umumjamiyat darajasidagi dolzarb va muhim vazifadandir. Chinakam badiiy tarbiya jamiyat bilan maktabning vazifasi, oila esa bu sohada ikkilamchi o'rinda turadi, deb o'ylaydigan ota-onalar katta xato qiladilar. “Bolaning ovqatiga, kiyimiga, o'yiniga ko'p e'tibor beradigan va ayni vaqtda, bola maktabga borguncha ko'p e'tibor beradigan va ayni vaqtda, bola maktabga borguncha o'ynab olsin, kuchga to'lsin, sog'lom o'ssin, madaniyatni esa maktabga borganda o'rganar, deb o'ylaydigan oilalar ham bo'ladi”[4].

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 7 iyulidagi 4-sonli Hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan “Ilk qadam” maktabgacha ta'lim muassasasining o'quv dasturida “Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy

yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan, axloqiy me'yor va qadriyatlarini o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, "Men" obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko'zda tutishi belgilab berilgan. Jumladan, "Ijodkorlik" sohasidagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so'ng 6-7 yoshli bola quyidagi layoqatlarga ega bo'lishi ko'rsatib o'tilgan: san'at va madaniyatga qiziqishini namoyon qiladi: milliy an'analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida idrok etadi; san'atning muayyan turini afzal ko'rinishi mustaqil ravishda ifodalaydi; olingan bilim va ko'nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o'z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi; insonning dunyoni o'zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi.

Qo'g'irchoq teatri tomoshalari asosan yosh bolalar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda qo'g'irchoq yordamida jonsiz qo'g'irchoqlar vositasida turli ertak qahramonlari obrazlari yaratiladi. "Qo'g'irchoq bamisoli mo'jizakordir", - deb yozadi M.Qodirov. – "Boshqa paytda oddiy bolalar o'yinchog'idan farq qilmaydigan qo'g'irchoq san'atkor qo'lga qo'ndirilgach, jonlanadi, nafas ola boshlaydi, tafakkur hosil qiladi, jamiyat va hayot jumboqlari ustida bosh qotiradi, sevgi, do'stlik, adolat va halollik haqida hikoya qiladi, ya'ni rasman insoniy hayot bilan yashay boshlaydi"[5].

Tadqiqot metodologiyasi. Qo'g'irchoq teatri sahna qahramonining barcha harakati, uning eng murakkab tashqi hissiyotlarining namoyon bo'lishi, tomoshabinga, qirg'ochqo'z qo'llari, panjalarining byrilishidagi o'zgarishlari, bilaklarning egilishi, yelka harakatlari, ya'ni aktyorning boshqaruvchi va vujudga keltiruvchi qo'l harakatlari orqali namoyish etiladi.

Qo'g'irchoq teatri milliy va umuminsoniy qadriyatlarini targ'ib qiladigan "Ur to'qmoq" (E. Aripova), "Bahrom va Dilorom" (Sh. Yusupov), "Aldar ko'sa" (D.Yuldashva), "O'tkir shohli buqacha" (F. Xo'jayev) va boshqa spektakllar sahnalashtirilgan. Bolalar qo'g'irchoq teatriga kirganidan so'ng teatrdagi muhit sehirli ertaklar va yaxshiliklar olamidani zavqlanishi va yana ijobiy qahramonlarga o'xshashga harakat qilishi uchun bolalarda ichki hissiyot uyg'onadi. Qo'g'irchoq teatri haqiqiy ma'noda tarbiya o'chog'i yoki tarbiya maskaniga aylanib boradi. Hozirda qo'g'irchoq teatri jamoalarining birinchi galdagi vazifalaridan biri bu spektakl namoyishi oldidan bolalarni teatr muhitiga olib kirish uchun xizmat qiladigan "qo'g'irchoqlar muzeyi", madaniy hordiq maydonchalari, milliy va jahon qo'g'irchoqlari bilan bezatilgan ko'rgazmalar namoyish qilish lozim. Ayniqsa, bolalar uchun sevimli bo'lgan ertak qahramonlari, Kachal Polvon, Bichaxon, Nasriddin Afandi, tarixiy va milliy qahramonlar Shiroq, To'maris, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur va boshqa qahramonlar siymosini aks ettirgan qo'g'irchoqlar bilan birga, jahon ertaklari qahramonlari Petrushka, Buratino, Elvira va boshqalar bolalarda mehr va san'atga qiziqishni yanada orttiradi. Eng muhimi, qo'g'irchoq teatri bolalar va kattalar o'rtasidagi o'zaro mehrli muhitni, ishonchni hamda tengqurlarga bo'lgan do'stona munosabatlarni uyg'ota olishi lozim.

"Qo'g'irchoq teatrlarining an'anaviy ssenografiya zaboni olamni o'ziga xos anglashga yordam beradi, shakllanib borayotgan

yosh avlodda insoniy qadriyatlarini hurmat qilish, tabiat va olam haqidagi tasavvurlarni shakllantirishga turki beradi. Teatrdagi ma'naviy muhit orqali yosh avlodni milliy istiqlol ruhida tarbiya qilish ijodkorlar uchun muhim vazifa hisoblanadi"[6].

Tahlil va natijalar. Yosh tomoshabinlar ongida umuminsoniy g'oyalar shakllanishida, milliy g'oya, o'zlikni anglash kabi muhim tarbiyaviy jihatdan ushbu san'at turi bemirolin egallab kelmoqda. Shu sababli teatrdagi "Dangasaning holi voy" (G'ayratiy), "Tilla tarvuz", "Buxoroi sharif hangomalari", "Shumtaka mushukcha", "Dovyurak Manuk", "Fotimaning sarguzashtlari", "G'ozcha" kabi ko'plab tarbiyaviy spektakllar sahnalashtirilgan.

Biroq bugungi kunda teatr sahnalashtirayotgan va chekka tumanlarga gastrol safarlari bilan olib borilayotgan spektakllar saviyasi, obrazlarning mavjud kinofilm va animatsiya qahramonlaridan ko'chirilishi, dekoratsiyalarda qo'llash mumkin bo'lgan ko'plab metodlardan ko'ra soddas senografiyaga murojaat etish teatri namunalari repertuar masalasida, tomoshabinlarni har bir spektakl yordamida tarbiyalash mezonidan uzoqlashtirmoqda. Barcha mamlakat qo'g'irchoq teatri arxivlarida saqlanib, ehtiyoq qilib kelinayotgan dekoratsiya va qo'g'irchoq turlari bazasi ko'plab hududlarimiz qo'g'irchoq teatrlarida shakllantirilmagan, shu vaqtgacha xizmat qilgan ko'plab spektakl qahramonlari restavratsiyaga uchrab, asl, birlamchi ko'rinishini yo'qotgani ham bu sohada katta qiyinchiliklarga olib kelmoqda.

Bugungi kunga kelib, prezidentimiz tomonidan teatrlar, xususan, qo'g'irchoq teatrlariga bo'lgan katta e'tibor va yaratilayotgan sharoitlar natijasida yuqoridagi yuzaga kelayotgan muammolar asta – sekin bartaraf qilib borilmoqda. Bu esa qo'g'irchoq teatri aktyor, rejissyor va boshqa ijodiy jamoalarini sidqidildan, mas'uliyat bilan ishlashga, bolajonlarimiz uchun faqat tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan asarlarni sahnalashtirishga undamoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy qo'g'irchoq teatri bolalarni ma'naviy kamol topishida beqiyos o'ringa ega. Qo'g'irchoq teatri – bu shunchaki tomosha yoki shunchaki ermak, o'yin emas, balki bir butun xalqning falsafasi, dini, adabiyoti, folklori, tasviriy san'ati, qadriyati va albatta, tillari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan muhim tarixiy maskan sanaladi.

Har bir san'atshunos, qo'g'irchoq teatriga mas'ul bo'lgan mutaxassis hamkorligida yaratilgan sahna asari o'zining zamonaviyligi, yosh tomoshabinni o'ziga jalb qila oladigan darajada mukammal bo'lishi qo'g'irchoq teatrlarining yanada rivojlanishida katta xizmat qiladi, deb hisoblaymiz. Tarbiya va ma'naviyat o'chog'i bo'lgan – teatr har bir insonga hayotiy saboqlar beruvchi jonli vositadir. Teatr madaniy hordiq chiqarish uchungina foydali emas, balki, undagi namoyish etiladigan spektakllarni tomosha qilib, inson jamiyatdagi voqealiklarni, kechinmalarni teran anglashi uchun ham foydali hisoblanadi.

Teatrlarda, xususan, qo'g'irchoq teatrlarida yosh tomoshabinlar uchun ibratli, tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan, milliy qadriyatlarimiz aks etgan asarlarni sahnalashtirilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

ADABIYOTLAR

1. Yusupov D. Folklor va qo'g'irchoq teatri, Teatr jurnali. № 1. 2015. – B. 25.
2. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 27-mart – Xalqaro teatr kuni munosabati bilan soha xodimlariga yo'llagan tabrigidan.
3. Suxomlinskiy V.A.Serdse otdayu detyam. –Kiev: «Radyanska shkola». 1969. –S.66
4. Makarenko A.S. Bolalar tarbiyasi haqida leksiya. –T.: "O'qituvchi". 1967, 87-b
5. Qodirov M.X. O'zbek xalq tomosha san'ati. T., O'qituvchi, 1981, 58-bet
6. Qobilova F.N. Mustaqillik davrida O'zbekiston qo'g'irchoq teatri ssenografiyasi. San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – Toshkent., 2023. – B.25.
7. Turdiyeva I. Qo'g'irchoq boshqarish asoslari, Toshkent, "LESSON PRESS", 2015.
8. O'taganov R. Qo'g'irchoq boshqarish asoslari, T., "Innovatsion-Ziyo", 2020.
9. Ashurova M. Qo'g'irchoq teatr san'atining aktyorlik maktabi. Darslik. –Toshkent: M.Uyg'ur nom.TDSI. 2007.



Sultonmurod DONAYEV,
“O‘zagroinspeksiya”ning Qashqadaryo viloyati boshqarmasi

Qarshi davlat universiteti professori, PhD O.Aslanova taqrizi asosida

TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHNING DAVLAT-JAMOAT MODELII

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim sifatini boshqarishning davlat-jamoat modelini ishlab chiqish tahlil qilingan. Shuningdek, chuqur ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan xarakterlanadigan jamiyat hayotining turli sohalarida bozor munosabatlarning rivojlanishi va demokratlashtirish jarayonlari ta'lim tizimining rivojlanishiga hamda ushbu sohadagi eng muhim yangiliklar berilgan.

Bundan tashqari, zamonaviy muammolarni manbalarni aniqlamasdan muvaffaqiyatli hal qilib bo'lmashligi, ijtimoiy kelishuv, ijro hokimiyatining real va asosli rejalari asosida uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan yangi davlat ta'lim siyosatini shakllantirish bosqichlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim sifatini boshqarish, ta'lim sifati, davlat-jamoat modeli, ta'limni boshqarish, ijtimoiy pedagogika, bolalarni tarbiyalash, ijtimoiy-pedagogik tadqiqot va boshqalar.

ГОСУДАРСТВЕННО-ОБЩЕСТВЕННАЯ МОДЕЛЬ УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье анализируется разработка государственно-общественной модели управления качеством образования. Также для него характерны глубокие социально-экономические изменения, обусловленные развитием рыночных отношений в различных сферах жизни общества и процессах демократизации системы образования, а также важнейшие нововведения в этой области. Кроме того, перечислены этапы формирования новой государственной образовательной политики на долгосрочную перспективу на основе общественного согласия, реальных и обоснованных планов исполнительной власти, которые не могут быть успешно решены без выявления источников.

Ключевые слова: Управление качеством образования, качество образования, государственно-общественная модель, управление образованием, Социальная педагогика, воспитание детей, социально-педагогические исследования и др.

PUBLIC-PUBLIC MODEL OF QUALITY MANAGEMENT OF EDUCATION

Annotation

This article analyzes the development of a public-public model of Educational Quality Management. Also characterized by profound socio-economic changes, the development of market relations and democratization processes in various areas of the life of society are given to the development of the educational system, as well as the most important innovations in this area. In addition, the stages of the inability to successfully solve modern problems without identifying sources are presented, the formation of a new state educational policy, which is designed for a long-term perspective on the basis of a social agreement, realistic and well-founded plans of the executive branch.

Key words: Quality management of education, quality of Education, State-Public Model, Education Management, Social Pedagogy, child education, socio-pedagogical research, etc.

Kirish. Yigirmanchi asming so'nggi o'n yilligi O'zbekistonda chuqur ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan xarakterlanadi. Jamiyat hayotining turli sohalarida bozor munosabatlarning rivojlanishi va demokratlashtirish jarayonlari ta'lim tizimining rivojlanishiga ham tubdan ta'sir ko'rsatdi. Ushbu sohadagi eng muhim yangiliklarga quyidagilar kiradi: "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi; Davlat ta'lim standartlarini joriy etilishi; ko'p bosqichli oliy ta'lim tizimini joriy etilishi; nodavlat ta'lim sektorining shakllantirilishi; ta'lim tizimida bozor munosabatlari elementlarini shakllantirilishi; oliy kasbiy ta'lim tizimini strukturalashtirilishi; professional ta'lim tizimida mutaxassislar tayyorlash tuzilmasining o'zgariishi - hajmlarni "bozor" mutaxassisliklari yo'nalishi bo'yicha qayta taqsimlanishi; ta'lim muassasalarining davlat litsenziyalash, attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilish tizimini shakllantirilishi; ta'lim sohasida texnologiyalarning rivojlanishi; ochiq ta'lim tizimining paydo bo'lishi; qo'shimcha kasbiy ta'lim tizimi roli va ahamiyatining kuchaytirilishi.

Bugungi kunga kelib nodavlat ta'lim muassasalarining o'ziga xos xususiyatlari ancha aniq nomoyon bo'ldi: mavjud resurslardan samarali foydalanish; bozor tamoyillarini ta'lim sohasiga integratsiyalash; jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda dinamik rivojlanish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Rivojlangan mamlakatlarda sifat falsafasi, shuningdek, sifat metodologi-yasi va boshqaruvini tashkil etish sohasida ham chuqur an'analari yuzaga kelgan. V.V.Krayevskiy, I.Y. Lerner, M.I.Maxmutov, M.N.Skatkin va boshqalarning ilmiy ishlarida bilim va ta'lim jarayonini sifati tizimi shakllantirish asoslari keltirilgan. Ijtimoiy amaliyotda har qanday obyekt va jarayonlarning sifati haqida fan - kvalitologiya va sifati o'lchash va baholash fani - kvalimetriya shakllantirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqoridagilarni ta'lim sohasidagi ijibiy tendensiyalar sifatida tasniflash mumkin, ammo salbiy

tomonlari ham mavjud: davlat ta'lim muassasalarining sezilarli darajada moliyalashtirilmaganligi va bu bilan bog'liq moddiy-texnik bazaning ma'naviy va jismoniy eskirishi, texnologik qoloqlik; ta'lim iqtisodiyotning ijtimoiy jihatdan jozibador bo'lmagan tarmog'iga aylandi, buning natijasida ta'lim muassasalari xodimlarining eng qobiliyatli qismi chiqib ketdi; ta'lim sohasida mintaqaviy izolyatsiya; ichki hududda ta'lim olayotgan yoshlar soni ortib bormoqda; boshqa hududlardan mutaxassislarning sezilarli oqimi kuzatilmayapti; ta'lim muassasalarining filiallari va vakolatxonalari hududlarda jadal sur'atlar bilan o'smoqda.

Tahlil va natijalar. Ta'limdagi yuqorida keltirilgan salbiy ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar uning sifatining bosqichma-bosqich pasayishiga olib keladi. So'nggi yillarda iqtisodiyot va jamiyatning jadal rivojlanishi, mamlakatimiz ta'lim kompleksida ro'y berayotgan voqealar ta'limni adekvat *(maqbul darajada) boshqarish tizimini taqozo etmoqda.

Bugungi kunda paydo bo'lgan davlat vertikal boshqaruv tizimi o'ziga xos zaif tomonlarga ega, ular orasida quyidagilarni ta'kidlash kerak:

- ta'lim tizimlarining tashqi muhit "chaqiriqlari" ga o'z vaqtda va adekvat javob berishini ta'minlash imkoniyatlarining cheklanganligi;

- zamonaviy ta'lim kompleksini samarali boshqarish uchun real resurslarning yetishmasligi;

- ta'lim muassasalarini boshqarishning aksariyat subyektlari ta'lim natijalariga erishishga emas, balki ta'lim jarayoniga yo'naltirilgan;

- ta'limning davlat sektorida kuzatilayotgan budjet moliyaviy va moddiy resurslarning tanqisligi ko'pincha ta'lim tashkiloti rahbari va xodimlarining kasbiy mahoratining yetishmasligi uchun bahona sifatida ilgari suriladi.

Ijtimoiy kelishuv, turli siyosiy kuchlarning roziligi, ijro hokimiyatining real va asosli rejalari asosida uzoq muddatli istiqbolga

mo'ljallangan yangi davlat ta'lim siyosatini shakllantirish bosqichi bo'ladi.

Shu bilan birga, "Ta'lim to'g'risida" gi qonunda belgilangan ta'limni davlat-jamoat boshqarish tamoyili turli obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra asosan rasmiy ravishda amalga oshirilayotganini alohida ta'kidlash lozim. Davlat-jamoatchilik munosabatlarining rivojlanmaganligi, tizimsizligi va ta'limni boshqarish masalalarida real o'zaro munosabatlarining amalda yo'qligi davlat tuzilmalariga boshqaruvning yopiq xususiyatini, uning ma'muriy xarakterini saqlab qolishda davom etish va asosan mavjud tizimning faoliyatini ta'minlash bo'yicha ishlash imkonini beradi.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor ahamiyatini anglagan holda, ta'limni boshqarishning davlat-jamoat xarakterining alohida ahamiyatini ta'kidlash zarur. Shubhasiz, ta'lim va uni boshqarishda ijtimoiy komponentning shakllanishi va rivojlanishi jamoatchilikning davlatning haqiqiy teng huquqli ijtimoiy hamkoriga aylanishini ta'minlaydi. Shuni hisobga olish kerakki, zamonaviy sharoitda ushbu tamoyillarni faqat boshqaruvning davlat-idoraviy komponentining faol tashabbuskor va rag'batlantiruvchi roli va qo'llab-quvvatlashi bilan amalga oshirish mumkin, uning subyektlari ta'lim sohasida davlat-jamoat hamkorligini faollashtirish va demokratlashtirishning muqarrarlari va zarurligini anglaydilar. Ta'lim tizimini rivojlantirish istiqbollari belgilovchi hujjatlar tahlili bu shart-sharoitlar hozir shakllangan, deyishga asos beradi.

Ta'lim sohasidagi davlat-jamoat munosabatlari, bizningcha, ta'lim xizmatlarini yaratish, taqsimlash va iste'mol qilishda ishtirok etuvchi kishilar guruhlar va ularning vakili bo'lgan tashkilotlar (davlat va jamoat) o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni anglatadi. Bu davlat-jamoat munosabatlarining shakli bo'lib, unda har bir shirik tomonlarning harakatlari amalga oshiriladi. Ta'limni davlat-jamoat boshqaruv - bu boshqaruvning alohida turi bo'lib, u birgalikda harakat qiladigan davlat (idora) va jamoat birlashmalarining boshqaruv qarorlarini ilgari surish, tayyorlash, muhokama qilish, qabul qilish va amalga oshirishda ishtirok etishni nazarda tutadi. Bu harakatlarning natijalari jamiyat ehtiyojlariga mos keladi va davlat manfaatlariga zid kelmaydi. Bunday o'zaro harakat ta'limni boshqarishning davlat tarkibiy qismini ichki korporativ manfaatlardan tashqariga chiqishga va uning faoliyatini, birinchi navbatda, ta'lim tizimini rivojlantirish va jamiyat taraqqiyoti talablariga javob beradigan tarzda qayta qurishga majbur qiladi.

Boshqaruvning turli darajalarida ta'limni boshqarish tizimining jamoat komponenti quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: professional hamjamiyat; ta'lim xizmatlari iste'molchilari va o'quv jarayoni natijalari; jamoat tashkilotlari, partiyalar va harakatlar.

Ta'limni boshqarishning "ijtimoiy komponenti"ga ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyat vakillarini kiritish maqsadga muvofiq ko'rinadi.

Regionda ta'limni boshqarishning yangi tamoyillarini shakllantirishning uzoq muddatli amaliyoti shuni ko'rsatdiki, ta'limni boshqarish tizimining ijtimoiy tarkibiy qismi samarali bo'lishi uchun quyidagilar zarur: professional hamjamiyatni ta'lim jarayonlari va natijalari to'g'risida xabardor qilish tizimini yaratish; kasbiy hamjamiyat va jamoatchilikni faollashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish; barcha darajadagi (ta'lim muassasasining hududiy darajasi) davlat-jamoat boshqaruv tizimining hayoti va o'zaro hamkorligi uchun zarur qonunchilik va meyoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish.

Agar ta'lim tizimining yaxlitligi haqida gapiradigan bo'lsak, boshqaruvning davlat-jamoat xarakteri ham ta'limning barcha bosqichlariga taalluqli bo'lishi kerak. Barcha darajadagi ta'limni boshqarishning davlat organlari shakllantirilgan (biz ular faoliyatining sifat tomoniga to'xtalmaymiz), ta'limni boshqarishda jamoat institutlarini shakllantirish zarur hisoblanadi.

Ta'limni boshqarishning shakllanayotgan amaliyotini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, ta'limni boshqarishning mintaqaviy darajasida quyidagilarni jamoat tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish mumkin: muvofiqlashtiruvchi kengash, hududiy ta'lim boshqaruv organi hay'ati, hududiy oliy o'quv yurtlari rektorlari kengashi; hududiy vasiylik kengashi, ta'lim muassasalari vakillarining birlashmalari va boshqalar.

Ta'lim muassasasi darajasidagi jamoat tuzilmalari alohida ahamiyatga ega: ta'lim muassasasi kengashi; vasiylik kengashi; talabalar huquqlarini himoyalash bo'yicha kengash; ta'lim sifati

kengashi; talabalarini yakuniy attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha kuzatuvchilar kengashi va boshqalar.

Ta'limning davlat-jamoat boshqaruv tizimining samarali faoliyat ko'rsatishi davlat ta'lim organlari bilan jamoat tashkilotlari yoki mahalliy hamjamiyat vakillari o'rtasida yangi kelishuv munosabatlari shakllangan taqdirdagina mumkin bo'ladi.

Regionda ta'lim muammolarini tizimli hal etish ta'lim kompleksini mutanosib rivojlantirish, uning barcha darajalari va tarmoqlari uchun qulaylik, sifat va samaradorlikni ta'minlashga qaratilgan.

Ta'lim sifati deganda ta'lim natijalarining davlat talablariga, jamiyat va shaxsning kutishlariga muvofiqligi tushuniladi. Ta'lim samaradorligi deganda ta'lim natijalarining xarajatlarga mosligi tushuniladi.

Regional ta'lim tizimining holati tahlili shuni ko'rsatdiki, hududiy ta'lim tizimini har tomonlama rivojlantirish sharti qator muammolari hal etishdan iborat bo'lib, ularning eng muhimlari, bizningcha, quyidagilardan iborat: ta'limni boshqarishning turli darajalarida funksiyalarning aniq taqsimlanmaganligi tufayli region ta'lim tizimining past darajada nazorat qilinishi; real (haqiqiy) ta'lim natijalari bilan davlat, jamiyat va shaxs tomonidan ma'lum bir vaqtda talab qilinadigan natijalar o'rtasidagi nomuvofiqlik, bunda nafaqat talabalar bilimining sifati, balki shaxsiy fazilatlarining shakllanishi ham hisobga olinadi; region ta'lim kompleksining alohida tarmoqlarini rivojlantirishning bir xil taqsimlanmaganligi va turliligi; regionda joylashgan ta'lim resurslaridan foydalanish samaradorligining pastligi.

Ta'limni modernizatsiya qilish va yangi ta'lim modellarini yaratish mintaqaviy tajriba va ta'limni rivojlantirishning mahalliy sharoitlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Shu nuqtai nazardan, ta'limni rivojlantirish dasturlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir tamoyillari va tizimini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu muammoni hal qilish uchun, bizning fikrimizcha, tizimni ikki yo'l bilan modifikatsiya qilish mumkin: ma'muriy boshqaruv tuzilmalarini ishlab chiqish, yanada rivojlangan qat'iy aloqalar tizimini joriy etish yoki boshqaruv tizimida ijtimoiy komponentni mustahkamlash orqali qat'iy bo'lmagan aloqalar to'plamining ishonchligini oshirish.

Birinchi usul juda aniq va ishonchli tarzda amalga oshirilishi mumkin, ammo muammo shundaki, ma'muriy va boshqaruv resurslarini oshirish *(ko'paytirish), qoidaga ko'ra, kerakli natijalarni bermaydi, chunki murakkab tuzilmalarda qat'iy ulanishlar tizimi kutulmagan holatlarga (tashqi yoki ichki omillar ta'sirida tizim elementlarining holatining keskin o'zgarishi) dinamik ravishda javob berishga qodir emas va shuning uchun ko'pincha boshqaruv *(nazorat) harakatlari kutilgan natijalarga olib kelmaydi.

Amaliyot shuni ko'rsatdiki, vaqt o'tishi bilan ma'muriy-boshqaruv tizimi o'z-o'zini rivojlantirish muammolari bilan ko'proq shug'ullanadi (boshqaruvdagi muvaffaqiyatsizliklar boshqaruv tuzilmasi sonini ko'paytirish uning ishonchligini oshiradi degan noto'g'ri fikrni keltirib chiqaradi). Shunday qilib, aniqroq va soddarroq usulni afzal deb hisoblash mumkin emas.

Tizimni modifikatsiya qilishning ikkinchi usuli o'zgarishlarga adekvat va o'z vaqtida javob berishga qodir bo'lgan ishonchli o'zaro aloqa tuzilmasi bilan o'zini o'zi rivojlantiruvchi tizimni yaratishni nazarda tutadi.

Muvofiqlashtiruvchi kengash subyekt ma'muriyat rahbarining qarori bilan tuziladi, bu unga alohida maqom beradi va hududiy miqyosda ta'limni rivojlantirish bo'yicha strategik qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Ta'lim sifati boshqarishda maktab va mahalliy hamjamiyat o'rtasida paydo bo'layotgan o'zaro hamkorlik, aslida, davlat va jamiyatning kelajakdagi konstruktiv o'zaro hamkorligi uchun namunadir. Bu holat ta'lim muassasalari faoliyatini jamiyat, mijozlar va iste'molchilar uchun ochiq qilish imkonini beradi. Ammo xuddi shu holat ta'lim jarayonining barcha subyektlari - o'qituvchilar, ma'muriyat, o'quvchilar, ota-onalar, jamoatchilik va ishbirolmon doiralar vakillariga ham yangi talablar qo'yadi, chunki bu ularning mas'uliyatli tanlovini (dasturlar, ta'lim muassasalari, o'rganishning qiyinchilik darajasi va boshqalar) qilishlari uchun sharoit yaratadi. Aynan mana shu mas'uliyatli tanlov amaliyoti ta'lim faoliyatining barcha ishtirokchilarining subyektligini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biridir. Shunday qilib, "ochiq ta'limdan ochiq jamiyat sari" rivojlanish holati yaratiladi.

ADABIYOTLAR

1. Абдеев Р.Ф. Механизм управления, его генезис и системоорганизующая роль / Р.Ф.Абдеев // Философские науки. - 1990. - № 4. - С. 105-113.

2. Анисимов О.С. Методологическая культура педагогической деятельности и мышления / О.С.Анисимов. -М.: Экономика, 1991. 415 с.
3. Блауберг И.В. Становление и сущность системного подхода / И.В.Блауберг, Э.Г.Юдин. -М.: Наука, 1973. 270 с.
4. Боулдинг К. Общая теория систем скелет науки (исследование по общей теории систем) / К.Боулдинг. - М.: Прогресс, 1969. - С. 106-124.
5. Волков Г.Н. Этнопедагогические концепции национальной школы / Г.Н. Волков // Народное образование Якутии. 1993. - № 2. - 13-15.
6. Ганелин Ш.И. Очерки по истории средней школы в России второй половины XIX в. / Ш.И.Ганелин. М.: Учпедгиз, 1954. - 304 с.



Muxiddin DONIYOROV,
TDPU o'qituvchisi
E-mail: doniyorovmuxiddin1987@gmail.com

TerDPI dotsenti, PhD S.Raxmatova taqrizi asosida

PISA, PIRLS, TIMSS INTERNATIONAL ASSESSMENT RESEARCH AND ITS SPECIFIC ASPECTS

Annotation

Анализ и результаты. Одним из факторов, усложняющих приобретение социолингвистической компетенции, является большое разнообразие культурных правил речи; другими словами, то, что уместно говорить в одной культуре, может быть совершенно неуместно в другой культуре, даже если ситуация, в которой это говорится, одинакова. Учащийся часто не осознает этих различий и при общении на иностранном языке использует правила разговорной речи своей родной культуры. Этот процесс, называемый прагматическим переносом, приводит к недопониманию между участниками речи и может вызвать серьезные сбои в общении.

Эти правила речи могут постепенно усваиваться изучающим язык по мере того, как он или она погружается в культуру целевого языка; однако изучение этих правил посредством погружения — это трудоёмкий процесс, при этом многие правила остаются незамеченными в течение многих лет или, что ещё хуже, вообще никогда не усваиваются. Обучение навыкам социолингвистической компетенции в классе второго языка в качестве дополнения к процессу погружения может быть хорошим способом помочь учащимся освоить эти навыки более эффективно и за меньшее время. Чтобы научиться уместности речи в культуре изучаемого языка, учащимся необходимо изучить культуру и межкультурные различия, чтобы они могли видеть, чем их родная культура отличается от культуры изучаемого языка. Однако преподавание культуры на уроках довольно проблематично. Культура — сложное понятие, которое трудно определить, особенно для учащихся с ограниченным владением языком, используемым в классе. Это также очень деликатная тема, и учитель должен быть осторожен, чтобы избежать стереотипов и непреднамеренно обидеть учащихся, особенно на уроках английского как второго языка (ESL), где в одном классе учатся учащиеся из разных культур.

Культура также настолько укоренилась в людях, что они даже не осознают многих особенностей своей собственной культуры. Давайте посмотрим на пример.

Таблица 1

Часть определения	Описание	Пример
Биологический рост	Культура как биологическая адаптация и выживание, связанная с развитием человека.	В разных климатических условиях люди развивают разные способы питания и одежды, например, народы северных регионов используют меховую одежду для защиты от холода.
Личное совершенствование	Культура как процесс развития личности, саморазвитие и обогащение внутреннего мира.	Человек читает книги, учится новым навыкам, занимается спортом и совершенствует свои способности на протяжении жизни.
Литература и изобразительное искусство	Культура как выражение человеческой души через искусство, литературу, музыку и другие формы творчества.	Классическая музыка Бетховена или романы Льва Толстого — это примеры культурного наследия, передающего ценности и идеалы через искусство.
Модели жизни	Культура как социальные нормы, традиции и модели поведения, принятые в обществе.	В некоторых странах принято здороваться рукопожатием, а в других — поклоном. Также различаются нормы этикета за столом или способы празднования праздников.
Суммарный образ жизни	Культура как общий стиль жизни, включающий все аспекты существования общества — от бытовых до моральных.	Культура американцев включает быструю еду (fast food), культ индивидуализма, предпринимательства и высокие ценности личной свободы.

Затем Брукс разработал десять пунктов, которые должны послужить основой для культурологического исследования:

Таблица 2

Пункт	Пример
1. Символизм	Флаг символизирует суверенитет страны.
2. Ценность	В Восточных культурах ценятся семейные традиции.
3. Авторитет	Религиозные лидеры обладают авторитетом в некоторых обществах.
4. Порядок	В Японии строгий порядок уважения к старшим.
5. Церемония	Каракалпакская свадьба — важный ритуал.
6. Любовь	Празднование Дня святого Валентина в западных странах.
7. Честь	Честь самураев (бусидо) в японской культуре.
8. Юмор	Британский сарказм и ирония в юморе.
9. Красота	Французская мода и искусство.
10. Дух	Буддизм и вера в перерождение в Азии.

Оба они сосредоточены на очень широких понятиях, которые может быть трудно определить для данной культуры,

Сценарий: Каракалпакский студент учится в англоязычном университете. В Каракалпакской культуре принято избегать прямого отказа, чтобы не обидеть собеседника. Вместо прямого «нет», люди часто используют уклончивые фразы, такие как «ойлап көрейин» (подумаю) или «уакытка карап көремен» (посмотрим по времени), чтобы смягчить отказ.

Ситуация: Студента приглашают на мероприятие, но он не может пойти. Следуя привычной манере общения, он говорит: «I'll think about it» (я подумаю об этом) или «I'll see if I have time» (посмотрю, будет ли у меня время), хотя на самом деле уже решил не идти.

Недопонимание: В англоязычной культуре такие фразы могут восприниматься буквально, как возможность того, что студент может согласиться. Организатор мероприятия будет думать, что студент ещё рассматривает приглашение, и может продолжать напоминать ему. Между тем, студент думает, что он уже дал вежливый отказ.

Причина: Это недопонимание возникает из-за различий в культурных нормах. В англоязычных странах часто ожидается более прямой ответ, в то время как в Каракалпакской культуре принятие уклончивых формул считается проявлением вежливости.

Таким образом, студент сталкивается с проблемой, так как его не прямой ответ вызывает путаницу в другой культуре, где прямое общение считается нормой. Приведенный выше пример показывает, что происходит, когда человек обладает высокой лингвистической компетенцией, но низкой социолингвистической компетенцией.

Учащиеся могут предотвратить такие проблемы, повысив уровень своей социолингвистической компетентности. Для студентов, живущих в культуре изучаемого языка, можно предположить, что они приобретут социолингвистическую компетенцию просто путем погружения. Тем не менее, краткое изложение Кингом и Сильвером исследований, посвященных влиянию погружения на социолингвистическую компетентность, привело их к заключению, что продолжительность пребывания во втором языковом окружении полезна для приобретения социолингвистической компетентности, но недостаточна и требует много времени. Так что, возможно, обучение в классе необходимо в дополнение к погружению, чтобы помочь учащимся достичь социолингвистической компетентности лучше и быстрее.

Несколько исследований были сосредоточены на методах обучения культуре. Брукс разработал определение культуры, состоящее из пяти частей:

особенно в условиях ограничения культурной близорукости. Ключевые вопросы Брукса, которые состоят из двух наборов

вопросов: первый сосредотачивается на отдельные аспекты своей культуры (например, «Что вы думаете и чувствуете о своей семье?»), а второй набор касается институциональных аспектов культуры (например, «В какие школы и колледжи вы можете пойти»). Общая цель — помочь учащимся понять свою собственную культуру, чтобы позже они могли сравнить его с культурой целевого языка. Однако учащемуся потребуется помощь от носителя целевой культуры, чтобы определить эти различия. Учащиеся также могут воспринимать это задание на уровне лица как набор фактов вместо того, чтобы стремиться к более широкому пониманию культуры.

Модель Тейлора и Соренсона основана на мексиканской культуре и использовании культурных капсул, которые анализируют определённые аспекты культуры, такие как кров и жилище. Предоставляется список категорий, который включает исторические, биологические, географические и исторические элементы.

В последние годы разработаны и применяются несколько современных методик, направленных на развитие социолингвистической компетенции у школьников. Одним из таких подходов является метод проектного обучения, при котором учащиеся работают над проектами, требующими использования английского языка в реальных социальных контекстах. Это может включать ролевые игры, симуляции общения в различных ситуациях (например, диалоги с разной

степенью формальности), что помогает учащимся адаптировать язык в зависимости от собеседника и обстоятельств. Интеграция культурных и языковых аспектов является ключевым компонентом эффективного обучения. Например, как отмечает Байрам [6] в своей работе "Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence", комплексный подход к обучению включает и языковые, и культурные аспекты, что играет важную роль в формировании социолингвистической компетенции. Аналогично, Крамш [7] в своём исследовании "Context and Culture in Language Teaching" подчёркивает важность интеграции культурных аспектов, чтобы учащиеся могли лучше понимать социокультурные контексты и адаптировать своё общение в различных ситуациях. Следовательно, интегрированный подход, включающий культурные, языковые и технологические аспекты, позволяет учащимся развивать гибкость в общении и лучше ориентироваться в социокультурной среде целевого языка, что способствует их успешной адаптации в межкультурной коммуникации.

Заключение. Таким образом, анализ роли социолингвистической компетенции на уроках английского как иностранного дали нам понять о его важности преподавания вместе с другими аспектами языка. А также, рассмотренные выше несколько методов учёных и их другие работы могут помочь учителям правильно подойти к этой теме во время занятия.

ЛИТЕРАТУРА

1. Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития страны в 2017-2021 годах. – Приложение № 1 к Указу Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № УП-4947.
2. Hymes, D. (1972). "On Communicative Competence". книга "Sociolinguistics: Selected Readings", ed. J.B. Pride и J. Holmes, издательство Penguin Books, страницы 269-293.
3. Brooks, N. (1968). "Language and Language Learning: Theory and Practice". Harcourt, Brace & World.
4. Taylor, H. M., & Sorenson, J. S. (1961). "Cultural Capsules and Clusters in Foreign Language Teaching".
5. King & Silver. (1993). "Sticking points": effects of instruction on NNS refusal strategies. Working papers in educational linguistics , 2 (1), 47-82.
6. Byram, M. (1997). "Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence". Published by Multilingual Matters.
7. Kramsch, C. (1993). "Context and Culture in Language Teaching". Published by Oxford University Press.



UDK:94:7(091)

Jaxongir INAYATOV,

O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlar Akademiyasi katta o'qituvchisi, PhD

E-mail: InayatovJaxongir@gmail.com

O'zMU professori, t.f.d O'.Movlonov taqrizi asosida

THE ROLE OF PHOTOGRAPHIC SOURCES IN RAISING YOUTH SPIRITUALITY THE ROLE OF PHOTOGRAPHIC SOURCES IN RAISING YOUTH SPIRITUALITY

Annotation

In this article, the role of photographic resources in raising the spirituality of young people is covered in detail. It has been analyzed that photography is one of the effective means of conveying historical, cultural and religious heritage to the minds of young people. In the article, the process of formation of patriotism, humanitarianism and spiritual values among young people through photographic sources is considered.

Key words: Photography, youth, national and world culture, aesthetic taste, photographic sources, historical photographs and monuments.

РОЛЬ ФОТОГРАФИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКОВ В ПОДГОТОВКЕ ДУХОВНОСТИ МОЛОДЕЖИ РОЛЬ ФОТОГРАФИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКОВ В ПОДГОТОВКЕ ДУХОВНОСТИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В данной статье подробно рассматривается роль фоторесурсов в повышении духовности молодежи. Проанализировано что фотография является одним из эффективных средств донесения исторического, культурного и религиозного наследия до сознания молодежи. В статье рассматривается процесс формирования патриотизма, гуманизма и духовных ценностей у молодежи через фотисточники.

Ключевые слова: Фотография, молодежь, национальная и мировая культура, эстетический вкус, фотисточники, исторические фотографии и памятники.

YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA FOTOGRAFIK MANBALARNING

Annotatsiya

Mazkur maqolada yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda fotografik manbalarning o'rni atroficha yoritib o'tilgan. Fotografiya yoshlar ongiga tarixiy, madaniy va diniy merosni yetkazishning samarali vositalaridan ekanligi tahlil qilingan. Maqolada fotografik manbalar orqali yoshlar orasida vatanparvarlik, insonparvarlik va ma'naviy qadriyatlarini shakllantirish jarayoni ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Fotografiya, yoshlar, milliy va jahon madaniyati, estetik did, fotografik manbalar, tarixiy fotografiyalar va yodgorliklar.

Kirish. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasi va ularning ma'naviy olamini shakllantirish masalasi dolzarb bo'lib, bu jarayonda madaniy vositalarning roli beqiyosdir. Zero Abdulla Avloniy aytganidek "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir". Fotografiya yoshlar ongiga tarixiy, madaniy va diniy merosni yetkazishning samarali vositalaridan biridir. Tasvirlar orqali milliy yodgorliklar, madaniy an'analar va diniy marosimlar haqidagi ma'lumotlar vizual ravishda taqdim etilganda, yoshlar orasida bu qadriyatlarga nisbatan qiziqish ortadi. Fotografiya o'zida nafaqat axborotni, balki hissiyotni ham aks ettirgani sababli u ko'rilgan narsani chuqurroq anglashga yordam beradi va yoshlarni shu qadriyatlarini o'rganishga undaydi[1]. Masalan, tarixiy obidalar yoki milliy kiyimlar sur'atlari yoshlarni o'z ajdodlari madaniyati bilan yaqindan tanishtiradi, o'tmishga hurmatni oshiradi va ularda milliy merosga qiziqish uyg'otadi. Shu bilan birga, diniy va madaniy marosimlarning fotografiyalari ma'naviy merosni chuqurroq anglash uchun kuchli vosita hisoblanadi. Bunday tasvirlar orqali yoshlar nafaqat tarixiy va madaniy bilimlarga ega bo'ladilar, balki ularni his qiladilar va tushunadilar. Marosimlarning vizual tasviri ular uchun madaniy va diniy qadriyatlarining ahamiyatini ochib beradi, bu esa yosh avlodni qadimiy an'ana va urf-odatlariga hurmat bilan qarashga undaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Fotografiyalar orqali qadimiy an'analarning tirikligini his qilgan yoshlar ma'naviy merosni saqlash va davom ettirish mas'uliyatini chuqurroq tushunadilar. Bu ayniqsa, bugungi globalizatsiya davrida muhimdir, chunki bu jarayon yoshlar ongiga milliy va diniy qadriyatlarining mustahkamlanishiga, ular tomonidan qadrlanishiga va kelajak avlodga yetkazilishiga katta turki beradi. Shu yo'l bilan fotografiya nafaqat madaniy o'zlikni saqlab qolish, balki ma'naviy tarbiyaning tarkibiy qismi sifatida xizmat qiladi[2].

Milliy va jahon madaniyatini vizual tasavvur orqali yoshlar ongiga singdirish ularning ma'naviy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Milliy an'ana, urf-odatlar, bayramlar va tarixiy voqealar fotografiyalari orqali yoshlar o'z millatlarining boy madaniyatini yaqindan ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Masalan, Navro'z bayramining sur'atlari, milliy kiyimlarning rang-barangligi yoki tarixiy joylarning go'zalligi yoshlar orasida milliy iftixor hissini

kuchaytiradi. Bu esa ularni o'z yurtlariga va madaniyatlariga nisbatan mehr va hurmat bilan qarashga undaydi. Fotografiya orqali milliy va jahon madaniyatlarini o'rganish yoshlarga o'zligini anglashga yordam beradi[4]. O'zligini anglagan va mustahkam qadriyatlarga ega bo'lgan yoshlar jamiyatda ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirishga intilib, yanada ongli va mas'uliyatli fuqarolar sifatida shakllanadi. Fotografiya va boshqa vizual san'at shakllari orqali milliy va xalqaro madaniyatning boyligi va xilma-xilligini ko'rish imkoniyati yoshlar ongida vatanparvarlik, mehr-oqibat va o'zlikni anglash kabi fazilatlarini shakllantiradi. Milliy madaniyat bilan tanishish orqali yoshlar o'z tarixini, urf-odatlarini va merosini anglaydi. Bunday vizual tasvirlar ularning o'z millatiga bo'lgan hurmatini oshiradi va milliy qadriyatlarini qadrlashga undaydi. Shu bilan birga, jahon madaniyati haqida tasavvur olish yoshlarni kengroq dunyoqarashga ega qiladi, ularning boshqa xalqlar va millatlarga nisbatan hurmat, bag'rikenglik, va mehr-oqibat tuyg'ularini rivojlantiradi. Bu ikki yo'nalish o'zaro bog'langan holda, yoshlarning madaniy xilma-xillikni qadrlash, o'zlikni anglash, va shu orqali global fuqarolik hamda milliy g'urur tuyg'ularini uyg'otishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Jahon madaniyatlariga oid fotografiyalar yoshlarning keng dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi. Turli mamlakatlarning urf-odatlarini, me'moriy yodgorliklari va kundalik hayot sur'atlari orqali yoshlar boshqa xalqlarning madaniyatini anglay boshlaydilar. Bu esa ularning mehr-oqibat va hamdardlik kabi fazilatlarini rivojlantiradi, chunki ular boshqalar hayoti va madaniyatiga hurmat bilan qaray boshlaydilar.

Turli madaniyatlarining hayoti va marosimlarining sur'atlari orqali yoshlar boshqa insonlarning his-tuyg'ularini tushunishga o'rganadilar. Bu esa ularning empatiya va hamdardlik kabi insoniy fazilatlarini rivojlantiradi. Boshqalar hayotini va madaniyatini ko'rish orqali, yoshlar o'zaro hurmat va mehr-oqibat hissini kuchaytiradilar.

Fotografiya san'ati orqali yoshlar estetik didni rivojlantirib, go'zallikni anglash va qadrlashni o'rganadilar. Go'zal tabiat manzaralari, me'moriy yodgorliklar va san'at asarlari sur'atlari yoshlarning estetik va ma'naviy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bunday tasvirlar ularning hissiy tafakkurini boyitadi, go'zallikka bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi va ularda nozik his-tuyg'ularini

uyg'otadi. Yoshlar go'zal manzaralarni ko'rganlarida, ular nafaqat ko'zlarini, balki qalbini ham ovutadi. Bunday tajribalar ularda tabiatga, madaniy merosga va san'atga bo'lgan hurmatni oshiradi. Me'moriy yodgorliklar va san'at asarlarini ko'rish esa, ularning tarixiy va madaniy kontekstga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, shu orqali ularni o'zliklarini anglashga va zamonaviy dunyoda o'z o'rnini topishga undaydi[5].

Tabiatning rang-barangligi, me'moriy obidalar o'zining noyoblighi va san'at asarlari chuqur ma'no-mazmuni bilan tanishish orqali yoshlar atrof-muhitni go'zallik va san'at asari sifatida qabul qila boshlaydilar. Bu jarayon ularning ichki hissiyotlarini shakllantirib, hayotga va san'atga bo'lgan qarashlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, fotografiya orqali estetik va go'zallikka bo'lgan qiziqish yoshlarning ijodiy tafakkuri va o'zini ifoda qilish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Bu vizual tajribalar yoshlarning ichki dunyosini boyitish bilan birga, ularning hayotga va atrof-muhitga bo'lgan ijobiy munosabatlarini rivojlantiradi. Fotografiya orqali ko'rilgan go'zallik va estetik tajribalar yoshlarni mehr-oqibat, sabr-toqat va muqaddaslik kabi qadriyatlarini qadrlashga undaydi. Ushbu vizual tajribalar yoshlar ongida estetik didni shakllantirib, ularning san'at va tabiatga nisbatan qiziqishini oshiradi. Bu jarayon, o'z navbatida, yoshlarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, ularda o'z hayotini go'zallik va estetik ideal bilan bog'lashni o'rgatadi.

Albatta, fotografiya va boshqa vizual san'at shakllari yoshlarni o'z ichki hissiyotlarini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Bunday san'at turlari orqali yoshlar o'z fikr va his-tuyg'ularini ko'rinarli tarzda ifodalashni o'rganadilar, bu esa ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Go'zallikka bo'lgan qiziqishni kuchaytirish orqali yoshlar atrof-muhitga va hayotga yangicha nazar bilan qarashni o'rganadilar. Ular shuningdek, hayotning har bir lahzasini qadrlashga, muhim voqealarni va hissiyotlarni sur'atga olish orqali esda saqlashga intilishadi. Bu jarayon ularda his-tuyg'ularni chuqurroq anglash va boshqalar bilan baham ko'rish imkoniyatini beradi.

Bularning barchasi yoshlarning shaxsiy va ma'naviy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Fotografiya va san'at orqali yoshlar o'zlarini ifoda etish imkoniyatiga ega bo'lishadi, bu esa ularda o'zligini anglash va o'ziga ishonchni oshirishga xizmat qiladi. Ushbu san'at turlari yordamida yoshlar hayotdagi go'zalliklarni ko'rish, ularni his qilish va qadrlashni o'rganadilar. Bu jarayon, shuningdek, ijobiy munosabatlarni rivojlantiradi, ular atrof-dagi dunyo bilan bog'lanish imkoniyatini beradi va o'z fikrlarini ifodalashda o'zlarini erkin his qilishlariga yordam beradi.

Yoshlar bunday tajribalar orqali yangi imkoniyatlar yaratadilar, o'zlarini ijodiy shaklda ifoda etish, san'at orqali hissiyotlarini boshqalar bilan baham ko'rish va o'zlarida mavjud ijodkorlik qobiliyatini kashf etish imkoniyatini olishadi. Natijada, ular nafaqat o'z shaxsiy rivojlanishlarini, balki jamiyatga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishlari mumkin, bu esa ularni yanada ma'noli va mazmunli hayot kechirishga undaydi.

Fotografik manbalar tarixiy voqealar va buyuk shaxslar xotirasi bilan tanishish imkonini berish orqali yoshlar o'z tarixini o'rganishga va ulardan ibrat olishga yordam beradi. Bu tasvirlar orqali tarixiy hodisalarni, muhim shaxslarni va ularning hayotidagi ahamiyatli voqealarni ko'rish yoshlarning bilim doirasini kengaytiradi va ularni o'z o'tmishi bilan bog'laydi.

Tarixiy fotografiyalari, yodgorliklar va tarixiy shaxslarning suratlari yoshlar uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Ular buyuk insonlarning mashaqqatli yo'llaridan ibrat olib, o'z maqsadlariga erishish uchun ko'proq ishtiyok bilan harakat qilishga undaladi. Albatta, bunday tasvirlar yoshlar o'z millati va tarixiga bo'lgan hurmatini oshiradi, bu esa vatanparvarlik hissini kuchaytiradi. Fotografik manbalar orqali tarixiy voqealar, buyuk shaxslar, va milliy madaniyatning o'ziga xos jihatlari ko'rsatilganda, yoshlar o'z o'tmishini chuqurroq anglash imkoniyatiga ega bo'lalilar.

Bunday vizual tasvirlar, tarixni faqat kitoblardan o'rganish bilan cheklanmasdan, uni ko'rish va his qilish imkonini beradi. Yoshlar tarixiy yodgorliklar, an'anaviy marosimlar va buyuk ajdodlarning izlari orqali milliy merosga bo'lgan hurmatlarini oshiradilar. Bu jarayon vatanparvarlik hissini kuchaytirish bilan birga, ularni o'z xalqining g'urur va iftihori bilan to'ldiradi.

Shuningdek, milliy qadriyatlar va madaniyatni o'rganish, yoshlarni jamiyatga faollik bilan qatnashishga undaydi. Ular o'z tarixini anglab, kelajakda o'z millatiga xizmat qilish maqsadida harakat qilishni istaydilar. Shu tariqa, bunday tasvirlar nafaqat tarixiy bilimlarni oshiradi, balki vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirib, yoshlarning ichki dunyosini boyitadi.

Tahlil va natijalar. Kelajakka ishonch bilan qadam qo'yish, o'z tarixidan ibrat olish va bugungi kunda mavjud imkoniyatlardan foydalanish yoshlar uchun juda muhimdir. Fotografik manbalar, nafaqat tarixiy voqealar va shaxslarni tasvirlash orqali, balki yoshlarning fikr va hissiyotlarini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega[7]. Bu manbalar orqali olingan tajribalar va bilimlar yoshlar ongida mustahkam poydevor yaratadi. Tarixiy kontekstni tushunish, buyuk shaxslarning hayoti va ulardan olingan ibratlar orqali yoshlar o'z kelajaklariga umid va ishonch bilan qarashga o'rganadilar. Ular o'zlarining shaxsiy maqsadlariga erishishda, muammolarni hal qilishda va o'zlarini rivojlantirishda yanada kuchliroq bo'lishadi. Bundan tashqari, bunday tajribalar yoshlarning ma'naviy yetuk shaxslar sifatida shakllanishini ta'minlaydi. Ular o'z merosini hurmat qilish, o'z tarixini bilish va zamonaviy dunyoda o'z o'rnini topish imkoniyatiga ega bo'lalilar. Shu tariqa, fotografik manbalar yoshlar uchun ilmiy va ma'naviy taraqqiyotda muhim rol o'ynaydi, bu esa ularni yanada kuchli va mustaqil shaxslar sifatida shakllantiradi.

Fotografiya shaxsiy rivojlanish uchun ham katta ahamiyatga ega. Yoshlar o'z hayotidagi muhim lahzalarni sur'atga olish orqali o'zligini anglaydi va kelajakda yanada yuksak maqsadlarga intilish uchun motivatsiya oladi. Fotografiya orqali o'z hayotidagi qimmatli onlarni saqlash, ularni o'rganish va tahlil qilish imkoniyatini beradi, bu esa shaxsiy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi[8].

Sur'atga olish jarayoni, yoshlarning o'z his-tuyg'ularini ifoda etish va o'z hayotidagi voqealarni yodda saqlash uchun samarali vosita hisoblanadi. Ular o'z hayotidagi muhim voqealar, do'stlik, oila, yutuqlar va hatto qiyinchiliklarni suratga olish orqali o'zlarining shaxsiy tarixlarini yaratadilar. Bu jarayon, o'z-o'zini anglash va shaxsiy identifikatsiyani rivojlantirishga yordam beradi.

Shuningdek, olingan suratlar kelajakda yuksak maqsadlarga intilish uchun motivatsiya manbai bo'lishi mumkin. Har bir surat, yoshlar uchun o'z orzulariga erishish, yangi imkoniyatlarini kashf etish va muvaffaqiyatga erishish yo'lida ilhomlantiruvchi bir ko'rsatma bo'lib xizmat qiladi. Bu motivatsiya, ularni qiyinchiliklarga dosh berishga va o'z maqsadlarini amalga oshirishga undaydi.

Natijada, muhim lahzalarni suratga olish yoshlarning hayotida o'zligini anglash, motivatsiya olish va kelajakdagi yutuqlarini rejalashtirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon, ularni yanada ma'noli va mazmunli hayot kechirishga undaydi. O'z hayotidagi muhim voqealarni hujjatlashtirish, yoshlarni nafaqat o'z hissiyotlarini ifodalashga, balki o'z orzulari va maqsadlari haqida chuqurroq o'ylashga ham rag'batlantiradi[9].

Sur'atlar, shaxsiy tarixni yaratish bilan birga, har bir odamning o'z yo'lini belgilashda ham yordam beradi. Har bir muhim lahza, muvaffaqiyat, yutuq yoki hatto qiyinchilik, yoshlarni kelajakda qaysi yo'nalishda harakat qilishlari kerakligini tushinishga yordam beradi. Bu esa ularni o'z orzularini amalga oshirishga, yangi maqsadlar belgilashga va ularni erishish uchun harakat qilishga undaydi.

Bundan tashqari, muhim lahzalarni suratga olish jarayoni, yoshlarning ijtimoiy va hissiy bog'lanishlarini kuchaytiradi. Ular do'stlari va yaqinlari bilan birgalikda olingan suratlarini baham ko'rish orqali o'zaro munosabatlarini mustahkamlashadi. Bu, o'z navbatida, ularni jamoatchilik bilan bog'lash va ijtimoiy faollikni rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Shu tariqa, muhim lahzalarni suratga olish jarayoni, yoshlarni shaxsiy va ijtimoiy jihatdan rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Bu, ularga o'z hayotlarini yanada mazmunli va ma'noli tarzda kechirishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, fotografik manbalar yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda kuchli vosita bo'lib, ularga o'z madaniy merosi, estetik qadriyatlarini va tarixiy xotiralarini vizual tarzda yetkazishda katta ahamiyatga ega. To'g'ri yo'naltirilgan fotografik manbalar orqali yoshlar qalbidagi go'zallikni sevish, vatanparvarlik va odob-axloqiy qadriyatlarini shakllantirish mumkin. Bunday manbalar, nafaqat ma'naviy qiymatlarni oshirish, balki yoshlarni o'z tarixini va madaniyatini anglashga, ularni saqlashga va kelajak avlodlarga yetkazishga rag'batlantiradi.

Shuningdek, fotografik manbalar yoshlarni ijtimoiy va madaniy muhitda faol bo'lishga, o'z fikrlarini ifoda etishga va o'zaro aloqalarini kuchaytirishga yordam beradi. Ular uchun, ma'naviy va estetik qadriyatlarini o'z ichiga olgan suratlar, hayotlarining har bir momentini qadrlash va go'zallikka bo'lgan munosabatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Natijada, fotografiya nafaqat san'at, balki yoshlarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan kuchli vositadir. U yoshlarning o'z his-tuyg'ularini ifoda etish, hayotdagi muhim lahzalarni yodda saqlash va ularni o'rganish jarayonida muhim rol o'ynaydi.

Sur'atlar orqali yoshlar o'z tarixini, madaniyatini va qadriyatlarini anglashadi, shuningdek, bunday vizual materiallar ularda ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Fotografiya yoshlarni o'zaro muloqot qilish, ijtimoiy aloqalarni kuchaytirish va bir-birlariga yordam berishga undaydi. Ushbu jarayon, nafaqat shaxsiy o'sishga, balki jamoat ruhiyatining mustahkamlanishiga ham hissa qo'shadi. Go'zal suratlar va ijobiy vizual tasvirlar yoshlarning estetik didini oshiradi, ularda go'zallikni sevish va madaniy merosga hurmatni shakllantiradi.

Shunday qilib, fotografiya yoshlarning ma'naviy, estetik va ijtimoiy rivojlanishida kuchli vosita sifatida ularning hayotida muhim

o'rin tutadi. Fotografiya orqali yoshlar dunyoni chuqurroq anglaydilar, go'zallik va uyg'unlikni his qilishadi, shuningdek, ular axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni chuqurroq tushunib borishadi. Estetik go'zallik va badiiy ifoda orqali ular jamiyatdagi ijtimoiy muammolar va insoniy qadriyatlarga e'tibor qaratib, yanada boy va mazmunli hayot kechirishga rag'batlantiriladi.

Bundan tashqari, fotografiya san'ati orqali yoshlar o'zini va atrof-muhitni tanish imkoniyatiga ega bo'lib, bu jarayon ularning ijtimoiy ongini oshiradi. Shu tarzda fotografiya nafaqat ijodiy ifoda vositasi, balki tarbiyaviy, estetik va ma'naviy yuksalishga hissa qo'shuvchi kuchli omil sifatida xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Баркамол авлод орзуси. –Т.; “Шарк”, 2019, 39-бет
2. Туркестанский альбом. 1871-1872. В 4-х частях. По распоряжению Туркестанского Генерал-Губернатора К. П. Фон
3. Кауфмана I-го. Точное воспроизведение издания: Спб. 1873 г. 16 с.
4. <https://lcsr.hse.ru/news/44341947.html>
5. Императорский фарфоровый завод 1744-1904. СПб., издание управления Императорскими заводами, 1906.. 460 с.
6. <https://www.loc.gov/exhibits/empire/ethnic-ru.html>
7. Jahongir G'opurjonovich Inoyatov "Fotografiya san'atini vujudga kelishi va uning tarixiy ahamiyati" ilmiy maqolasidan.
8. Сыров А. Первые русские фотоаппараты... - С. 5.
9. Беньямин В. Краткая история фотографии / Сергей Ромашко. - М.: «Ад Маргинем Пресс», 2015. - С. 168.



UO'K: 159.936-053.(086.3)

Zarif IRGASHEV,
Andijon shahri 14014- harbiy qism komandirining o'rinbosari, podpolkovnik
E-mail: Irgashevzarif@mail.ru

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent, B.Parmonov taqrizi asosida

STRESS PSYCHODIAGNOSTICS AND PSYCHOCORRECTION IN MILITARY SERVANTS

Annotation

Based on the study of the psychological characteristics of military personnel, the analysis of the factors that provoke stress manifested in them makes it possible to research methods of their prevention, and methods and means of revealing the socio-psychological characteristics of the manifestation of stress in the person of military personnel are researched and effective recommendations are presented.

Key words: Social situation, determination of the manifestation of the level of tolerance, psychological knowledge, military service, stress, military personnel, social environment and stress factors.

ПСИХОДИАГНОСТИКА И ПСИХОКОРРЕКЦИЯ СТРЕССА У ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Аннотация

В статье на основе изучения психологических особенностей военнослужащих проведен анализ стрессообразующих факторов, проявляющихся у них, что позволяет исследовать способы их профилактики, а также исследованы методы и средства выявления социально-психологических особенностей проявления стресса в личности военнослужащих и даны эффективные рекомендации.

Ключевые слова: Социальная ситуация, определение проявления уровня толерантности, психологические знания, военная служба, стресс, военнослужащий, социальная среда и факторы стресса.

HARBIY XIZMATCHILARDA STRESS PSIXODIAGNOSTIKASI VA PSIXOKORREKSIYASI

Annotatsiya

Maqolada harbiy xizmatchilarning psixologik xususiyatlarini o'rganish asosida ularda namoyon bo'luvchi stressni paydo qiluvchi omillarni tahlil qilish ulami oldini olish usullarini tadqiq etishga imkon yaratadi hamda harbiy xizmatchilar shaxsida stressni namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ochib berishda usul va vositalari tadqiq qilingan va samarali tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy vaziyat, bardoshlilik darajasining namoyon bo'lishini aniqlash, psixologik bilim, harbiy xizmat, stress, harbiy xizmatchi, ijtimoiy muhit va stress omillari.

Kirish. Jahonda psixologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlarda shaxslarning psixologik salomatligi ijtimoiy munosabatlar ya'ni shaxslararo munosabatlar bilan chambarchas bo'liq. Olim I.I.Brexman shaxs salomatligini saqlash kasalliklarning yo'qligi emas, balki insonning jismoniy, ijtimoiy va psixologik uyg'unligi, boshqa odamlar tabiat va o'zi bilan do'stona munosabatlar ekanligini alohida ta'kidlab: "inson salomatligi bu sezgi, og'zaki va tarkibiy ma'lumotlarning uch mabaini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarining keskin o'zgarishi sharoitida yoshga mos keladigan barqarorlikni saqlash qobiliyatidir"-deya e'tirof etadi[1]. Shaxs salomatligini muvozanat holati sifatida tushunish, shaxsning moslashish qobiliyati (sog'liq potentsiali) va doimiy o'zgaruvchan turli hayotiy sharoitlar o'rtasidagi muvozanatni akademik V.P.Petlenko (1997) o'z takliflari orqali asoslaydi. Olima I.I.Dubrovinaning "ruhiy salomatlik" va "ruhiy sog'lomlik" hodisalari o'rtasidagi munosabatni izohlaydi, ruhiy salomatlik darajalarini hisobga olsak, an'anaviy yondoshuv – biologiya va tibbiyot sohaslaridan tashqariga chiqmaydi, shuningdek, shaxsning moslashuvini o'rganishda psixologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi[2]. So'nggi yillarda ijtimoiy guruhlardagi shaxslarning o'zaro munosabatlarini o'rganuvchi tadqiqotchi psixologlar hamda tibbiyot xodimlari o'rtasidagi o'zaro samarali faoliyat olib borilmoqda. Tibbiyot psixologiyasining alohida tarmog'i "Salomatlik psixologiyasi"da, shaxsning turli hayotiy sharoitlarda ruhiy holatlarga duch kelganda, yolg'iz va serxavotir odamlarning ruhiy holatlari, kutishlari munosabatlari o'rganilmoqda. Kuzatishlar davomida o'zida depressiya – tanglik holatini boshidan kechirayotgan shaxsning aynan o'zi haqidagi fikrlari negativ bo'larkan[3]. O'z faoliyatlarida normal kundalik funksiyalarni bajarayotgan odamlarga qaraganda, bu turdagi shaxslar o'zlarini yomon baholashib, bo'lib o'tgan vaziyat va voqea va vaziyatlardan faqat yomonlarini eslab, kelajakka ishonchsizlik bilan qarashadi. Bunday toifadagi shaxslarning fikrlash darajalari odatda depressiv tafakkur deb ataladi.

Bugungi kun harbiy xizmatchilarining ham jismoniy, ham ruhiy salomatligi jiddiy ta'sir ko'rsatadigan stress holatlarining mavjudligi va unga nisbatan barqaror munosabat bildirish uning uchun nafaqat salomatligini asrash kaliti, balki olib borayotgan faoliyatining samarasiga ham ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil ekanligini hisobga olgan holda bugun harbiy xizmatchilarning stressga barqarorligini

tadqiqot predmeti sifatida o'rganish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Harbiy xizmatchilar shaxsida stressni ifodalanihi muammosini o'rganish, harbiy xizmatchida namoyon bo'lgan xulqning shakllanishida uning qaysi xususiyatlari yetakchilik qilganligi, u yoki bu hatti-harakatlarni sodir etishida nimalarga asoslanganligini aniqlash muhim ahamiyat kasb etib, empirik jihatdan o'z tasdig'ini topishi lozim bo'lgan xulosalar bilan asoslanishi hamda harbiy xizmatchi o'tmishi va hozirgi mavjudligini tushuntirish bilan cheklanib qolmasdan, uning xulqida kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni ham bashorat qila olishi lozim. Ushbu jarayonda harbiy xizmatchi shaxs xususiyatlari, xatti-harakatlarining motivi, rivojlanishi va asosiysi nima uchun ba'zi harbiy xizmatchilar harbiy jamoaga, harbiy faoliyat jarayoniga osonlik bilan moslashishi, ba'zilarning esa atrofda (xizmatdoshlari, boshliq va bo'yinuvchilari) bilan o'zaro muloqotda qiyinchilikka uchrashi masalasini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday, hattoki, normal faoliyat ham zo'riqishni keltirib chiqarishi mumkin va komandir buni nazardan qochirishi kerak emas[4].

Harbiy xizmatchilarda kasbiy stressning vujudga kelishiga quyidagi omillar sabab bo'ladi:

- harbiy xizmat shart-sharoitlariga ko'nikishda qiyinchiliklar sezish;
- taxqirlanish, xizmatdoshlari yoki boshliq tomonidan uning shaxsiyati daxl qilinishi, harbiy jamoalarda sog'lom ma'naviy-psixologik muhitning yo'qligi;
- davomli somatik kasallikni boshdan kechirish, jismoniy zaiflik, ruhiy kasalikka chalinish; - sodir etgan jinoyatidan javobgarlikka tortilishdan hadiksirashi;
- harbiy jamoada egallab turgan ijtimoiy maqomi barham topishi, o'z jamoasidan surib chiqarilib, yakkalanib qolishi; - yaqin kishisining o'limi;
- hayoti uchun muhim ahamiyat kasb etgan oilaviy munosabatlardagi muammolar va boshqalar.

Stressni klassifikatsiyalashda turli xil prinsiplarga asoslangan holda yondashiladi:

- 1) stressga olib keluvchi sharoit va faktorlar tahlili asosida: bular – tirik organizm butunligi va gomeostazning buzilishiga olib keluvchi stimullar; individning faoliyatini buzuvchi stimullar

(maqsadning yo'qolishi, e'tiborning chalg'ishi); ijtimoiy ta'sir etuvchi stimullar (ijtimoiy konfliktlar, turmush tarzi);

2) ta'sir etuvchi kuch qanday intensivlikda ta'sir etishini hisobga olish asosida: bunda yuqori darajada ta'sir etuvchi salbiy ta'sir ruhiy emotsional jarohat chaqiradi, kam intensivlikdagi salbiy ta'sir esa frustratsiyaga olib keladi;

3) stress holatida javob reaksiyasining baholash orqali. Tug,ma shartsiz salbiy reflekslar ma'lum bir darajada stress holatini keltirib chaqiradi, shartli o'z hayotiy tajribasi davomida orttirilgan reflekslar esa boshqacha darajadagi stress holatini namoyon qiladi.

4) zo'riqish holatidagi emotsional omilning rolini tahlil qilish asosida ham stress holati yuz berishi mumkin. Ko'rinadiki, emotsional holatlarning ichida boshqalariga nisbatan stress inson hayotida juda ko'p sodir bo'ladigan kechinmalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham tadqiqotlarning aksariyatida shaxs emotsional holatini o'rganishda stress muammosiga alohida dolzarb masala sifatida qaraladi.


Adabiyotlar tahlili. "Stress" tushunchasi V.I.Petrushinning ma'lumotiga ko'ra, mazkur atama ilk marotaba 1303-yilda shoir R.Man tomonidan qo'llanilgan bo'lib, u bu atamani o'z she'rida ishlatgan. SHE'rdagi ushbu atama "Bu uqubat olloh tomonidan qirq yil qishni sahroda o'tagan va katta stressni boshidan kechirayotgan odamlarga yuborilgan" tarzida ifodalangan.

Mazkur muammo doirasida xorij olimlaridan G.Sele, D.Richardson, F.Milman, R.Lazarus, S.Folkman, V.S.Merlin, Dj.V.Rotter, R.Mak-Kray, Dj.D.Parker, B.X.Vardanyan, P.B.Zilberman, rus psixologiyasida L.M.Abolin, A.Y.Malenova, L.V.Kulikov, A.V.Libina, Y.G.Chirkov, Dj.Vyatkin, L.A.Kitaev-Smik, L.I.Bojovich, V.V.Suvorova, Y.M.Gubcheva, A.A.Rean, S.V.Subbotin kabi juda ko'plab tadqiqotchilar ish olib borganlar, shuningdek o'zbek ilmiy jamoatchiligi ham ushbu muammoga yaqin masalalar ustida M.G.Davletshin, G.B.Shumarov, E.G.Goziyev, V.M.Karimova, N.Z.Ismoilova, D.S.Qarshiyeva, Z.T.Nishonova J.SH.Ostonov, D.U.Mamadiyarova, F.T.SHerमतov, G.D.Teshabayeva kabi yetuk olimlar va ularning shogirdlari bir qancha ishlarni amalga oshirganlar. Agar bugun psixologik adabiyotlar tahliliga nazar tashlansa, "stress" va "stressga

bardoshlilik" tushunchalarining juda ko'p va turli xil izohlari uchraydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Metodologiyani ishlab chiqishda mualliflar stress holatlarini o'rganishning an'anaviy usullarining mavjud kamchiliklarini bartaraf etishga intilgan, asosan stress omillari yoki tashvish, depressiya, umidsizlik va boshqalarning patologik ko'rinishlari orqali psixologik stressni bilvosita o'lchashga qaratilgan. Stressni ruhiy zo'riqishning tabiiy holati sifatida o'lchang. Ushbu uslubiy nomuvofiqliklarni bartaraf etish uchun Lemour Tessier Fillion stressni boshdan kechirayotgan odamning holatini tavsiflovchi so'rovnomani ishlab chiqdi, buning natijasida stress omillari yoki patologiyalar kabi o'zgaruvchilarni aniqlashga hojat qolmadi. Savollar 18 yoshdan 65 yoshgacha bo'lgan oddiy insonlar uchun turli kasbiy guruhlarga nisbatan tuzilgan. Bularning barchasi oddiy populyatsiyada turli yoshdagi va kasbiy namunalariga qo'llash uchun usulni universal deb hisoblash imkonini beradi. Texnik mualliflar tomonidan Kanada, Angliya, AQSH, Puerto-Riko, Kolumbiya, Argentina va Yaponiyada 5 mingdan ortiq odam namunasi sinovdan o'tkazildi. Ushbu uslubni Ottava universitetida Klement va Young, universitetda Larsi va Monreal kasalxonasida, shuningdek, Tessier va uning Sankt-Peterburgdagi hamkasblari ham qo'llashgan. Frensis Assizi va St.Justine Monrealda. Rossiyada metodologiya N. E.Vodopyanova tomonidan o'qituvchilar, talabalar va tijorat xodimlarining 500 kishilik namunasi sinovdan o'tkazildi. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, PSM etarli psixometrik xususiyatlarga ega. PSM integral indeksi va Spielberger Anksiyete shkalasi (r=0.73) va Beck Depressiya inventarizatsiyasi (r=0.75) o'rtasida korrelyatsiya aniqlandi. Ushbu o'zaro bog'liqliklarning kattaligi hissiy tanglik yoki depressiyaning umumiy tajribasi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, divergent haqiqiylik tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, PSM kontseptual jihatdan tashvish va depressiyaning o'rganish usullaridan farq qiladi.

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, ko'pchilik odamlar har kuni stress omillarining ta'siriga uchrab turadi. Ayniqsa, jamoa ichida shaxslararo kelishmovchiliklar, o'zaro janjal, uyushqoqlikning yo'qligi, jamoadan ajralib qolish, o'zaro qo'llab-quvvatlashning sustligi yoki butunlay bo'lmasligi tez-tez stress holatlariga olib keladi. Qayt qilingan holatlar baxtga qarshi juda ko'pchilik jamoalarda uchrab turadi.



1-rasm. Sinaluvchilarda stressga barqarorlik va o'z-o'ziga baho o'rtasidagi foiz ko'rsatkichlarda namoyon bo'lishi (hududlar Chilonzor tumani bo'yicha tahlili).

Tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki Chilonzor tumaniidagi o'smir yoshdagi 30 nafar qizlarda o'ziga nisbatan adekvat baho berish va stressga barqarorlik darajasining o'zaro bog'liqligi asosida quyidagi natija olindi ya'ni 60% o'smir qizlar stress vaqtida o'ziga ishonadi, har qanday kuchli zarbalarni hayot darsi sifatida qabul qila oladi va ruhiy holatini tezda tiklay oladilar.

O'ziga nisbatan noadekvat baho ya'ni yuqori baho beruvchi ya'ni yuqori baho beruvchi bo'lgan o'smir qizlar 72.7% ni tashkil etdi. Bu shuni anglatadiki sinaluvchi o'smirlarning shaxs shakllanishida ayrim og'ishlar borligini ko'rsatadi. O'z-o'ziga ortiqcha baho berish shaxsning etuk emasligini, o'z faoliyatini to'g'ri baholashni va o'zini boshqalar bilan solishtirishni kabi holatlar mavjudligini ko'rsatadi.

1-jadval


Sinaluvchilarda stressga barqarorlik va o'z-o'ziga baho o'rtasidagi foiz ko'rsatkichlarda namoyon bo'lishi (hududlar Olmaliq shahar bo'yicha tahlili).

		Stressga barqarorlik darajasi			
		Yuqori (6 ta)	O'rta darajadan yuqori (4 ta)	O'rta (8 ta)	O'rta darajadan past (5 ta)
O'z-o'ziga baho	Yuqori	66.7% (4 ta)	25% (1 ta)	25% (2 ta)	0
	O'rta	33.3% (2 ta)	75% (3 ta)	62.5% (5 ta)	60% (3 ta)
	Past	0	0	12.5% (1 ta)	40% (2 ta)
	Foiz	100%	100%	100%	100%

Olmalıq shaharda o'tkazilgan tadqiqot natijalari jadvalda ko'rsatilgan ma'lumotlardan ko'rib turibdiki, sinaluvchi sifatida tanlab olingan o'smirlarning 62,5%ida stressga barqarorlik va o'ziga bahoning o'rta darajasi ekanligi namoyon bo'ldi. Stressga barqarorlikning past darajasi bo'yicha 71,4% natija qayd etildi. Bundan tashqari, o'smirlarning 66,7%ida stressga barqarorlikning yuqori darajasi kuzatildi.

Olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, Chilonzor tumanida o'ziga nisbatan adekvat baho beruvchi va stressga nisbatan barqarorligi o'rta darajada bo'lgan o'smir qizlar 60%ini tashkil etsa, Olmalıq shaharda 62,5%ini bu ko'rsatkich Chilonzor tumaniga qaraganda yuqoriroq ko'rsatkichga ega ekanligini ko'rdik.

Ikki hududda o'tkazilgan natijalari solishtirib ko'radigan bo'lsak uni quyidagi jadval asosida ko'rib chiqishimiz mumkin.



2-rasm. Sinaluvchilarda stressga barqarorlik va o'z-o'ziga baho o'rtasidagi foiz ko'rsatkichlarda namoyon bo'lishi. (Chilonzor va Olmalıq shahar bo'yicha)

Tadqiqot natijalaridan ko'rinib turibdiki qizlarda stress yuzaga kelishini asoslash uchun faqatgina tashqi omillarning sababi bilan cheklanishning o'zi yetarli emas, bu borada sinaluvchilarning ichki ruhiy holati, uning shaxs xususiyatlari ham muhim rol o'ynashiga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Nazariy tahlillarga ko'ra, bunday xususiyatlardan biri shaxsning o'z-o'ziga beradigan bahosi ham hisoblanadi. O'ziga adekvat baho beradigan o'smir yoshdagi qizlarda stressga barqarorlik ko'rsatkichi ham yuqori bo'ladi. Bu borada olingan natijalarimizdan ko'rishimiz mumkinki, o'smir yoshidagi qizlarning 61,5%ida o'zini baholash darajasi adekvat baho ekanligi aniqlandi. Ular stress vaziyatlarida o'z-o'ziga bo'lgan bahosining adekvatligi va o'ziga bo'lgan ishonchining yuqoriligi bois stressli vaziyatlardan chiqib keta olish yo'llarini to'g'ri tanlaydilar va buning uddasidan chiqadilar. Aksincha o'z-o'ziga noadekvat baho beruvchi (bahosi past yoki yuqori bo'lgan) o'smir yoshdagi qizlarda stressga barqarorlik darajasi ham pastligi kuzatiladi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, o'ziga yuqori baho beruvchi va stressga barqarorligi ham yuqori bo'lgan o'smir yoshidagi qizlar 61,1%ni, o'ziga past baho beruvchi va stressga barqarorligi ham past bo'lgan qizlar esa 77,8%ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Buning boisi o'ziga noadekvat yuqori yoki past baho beruvchi talabalar stressli vaziyatlarda ya'ni bu holatdan chiqib keta olmaydilar, sababi

ular bu vaziyatni yechish uchun o'zlariga ishonmaydilar va hatto ayrim o'smir yoshdagi qizlar yuzaga kelgan stressogen voqea yoki muammoni yechishga harakat ham qilmaydilar.

Xulosa va takliflar. O'rganilgan adabiyotlar va o'tkazilgan tadqiqot natijalariga muvofiq quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

Harbiy xizmatchilarda kasbiy stressning vujudga kelishiga quyidagi omillar sabab bo'ladi:

harbiy xizmat shart-sharoitlariga ko'nikishda qiyinchiliklar sezish;

taxqirlanish, xizmatdoshlari yoki boshliq tomonidan uning shaxsiyati daxl qilinishi, harbiy jamoalarda sog'lom ma'naviy-psixologik muhitning yo'qligi;

davomli somatik kasallikni boshdan kechirish, jismoniy zaiflik, ruhiy kasallikka chalinish; - sodir etgan jinoyatidan javobgarlikka tortilishdan hadiksirashi;

harbiy jamoada egallab turgan ijtimoiy maqomi barham topishi, o'z jamoasidan surib chiqarilib, yakkalanib qolishi; - yaqin kishisining o'limi;

hayoti uchun muhim ahamiyat kasb etgan oilaviy munosabatlardagi muammolar va boshqalar.

ADABIYOTLAR

1. Serbyakova T.A. Psixologiya stressa: Uchebnoe posobie. - Novgorod, 2009
2. Voinskiy trud: nauka, iskusstvo prizvanie /Lapteva L.G, dotsent Markitan R.V : Sovershenstvo, 1998. - s.71
3. Boboyev X.Y " Harbiy xizmatchilar shaxsida stressni namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" Toshkent 2022.
4. Kaxarova, M., & Akbarova, M. (2022). Guruhlar ishlarini tashkillashning frontal darslardan avzalliklari. ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2(10), 165-169.



UDK:304.44 (304.444)

Indira IXLASOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: indira.ikhlasova@gmail.com

O'zDJTSU dotsenti, p.f.d L.Sobirova taqrizi asosida

ANALYSIS OF THE RESULTS OF A SURVEY ON READING CULTURE AND BOOK AMONG CHILDREN (PERSONS) WITH DISABILITIES

Annotation

This article is dedicated to the results of a survey on reading culture and books among children (persons) with disabilities. It outlines the priorities of the state and society in the social sphere, in particular the legal framework for the social protection and comprehensive support of persons with disabilities. The author also analyzed the results of the survey conducted, drawing conclusions and providing necessary recommendations.

Key words: Children (persons) with disabilities, respondent, reading culture, book reading, library, social adaptation, integration in society.

АНАЛИЗ РЕЗУЛЬТАТОВ АНКЕТИРОВАНИЯ ПО КУЛЬТУРЕ ЧТЕНИЯ КНИГ СРЕДИ ДЕТЕЙ (ЛИЦ) С ИНВАЛИДНОСТЬЮ

Аннотация

Данная статья посвящена результатам анкетного опроса по вопросам культуры чтения книг среди детей (лиц) с инвалидностью, приведены выводы и необходимые рекомендации. В ней также изложены приоритетные направления государства и общества в социальной сфере, в частности правовые основы социальной защиты и всесторонней поддержки лиц с инвалидностью.

Ключевые слова: Дети (лиц) с инвалидностью, респондент, культура чтения, чтение книг, библиотека, социальная адаптация, интеграция в обществе.

NOGIRONLIGI BO'LGAN BOLALAR (SHAXSLAR)DA KITOBXONLIK MADANIYATI VA KITOB MUTOLAASI BO'YICHA O'TKAZILGAN ANKETA SO'ROVNOMA NATIJALARI TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqola nogironligi bo'lgan bolalar (shaxslar)da kitobxonlik madaniyati va kitob mutolaasi yuzasidan o'tkazilgan anketa so'rovnoma natijalariga bag'ishlangan bo'lib, unda davlat va jamiyatning ijtimoiy sohadagi ustuvor yo'nalishlari, xususan nogironligi bo'lgan bolalar (shaxslar)ni ijtimoiy himoya qilish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashning huquqiy asoslari bayon etilgan. Shuningdek, muallif tomonidan o'tkazilgan anketa so'rovnoma natijalari tahlili etilib, xulosa va zarur tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Nogironligi bo'lgan bolalar (shaxslar), respondent, kitobxonlik madaniyati, kitob mutolaasi, kutubxona, jamiyatda ijtimoiy moslashuv, integratsiya.

Kirish. Mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish, tibbiy-ijtimoiy va kasb bo'yicha reabilitatsiya samaradorligini oshirish va ularning jamiyatga integratsiyalashuvini kengaytirish borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nogironligi bo'lgan shaxslarning qadr-qimmatini, ularning mustaqilligini, tanlash erkinligini hurmat qilish nogironligi bo'lgan shaxslarning va ular oilalarining huquq va erkinliklarini boshqa fuqarolar bilan teng ravishda himoya qilish hamda amalga oshirish kafolatlarini belgilash orqali ta'minlanishi belgilab qo'yilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bu borada 2020-yil 15-oktabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'RQ-641-son O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilingan. Mazkur qonunning maqsadi nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Unga ko'ra nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashning asosiy prinsiplari:

nogironligi bo'lgan shaxslarning qadr-qimmatini, ularning mustaqilligini, tanlash erkinligini hurmat qilish;
nogironlik belgisiga ko'ra kamsitilishga yo'l qo'ymaslik;
insonning huquq va erkinliklarini amalga oshirishdagi imkoniyatlar tengligi;

nogironligi bo'lgan bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatini va o'z individualligini saqlab qolish huquqini hurmat qilish;

ob'ektlar va xizmatlarning qulayligi;

nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyat va davlatning hayotiga jalb etishdan iboratligi qayd etilgan.

Mazkur qonunning 3-moddasiga asosan nogironligi bo'lgan bolalar hamda nogironligi bo'lgan shaxslar tushunchalar alohida sifatida belgilangan. Unga ko'ra ushbu tushunchalar:

nogironligi bo'lgan bolalar (bola) — barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari tufayli hayotiy faoliyati cheklanganligi munosabati bilan davlat va jamiyat tomonidan ijtimoiy yordam ko'rsatilishiga hamda o'z huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishiga muhtoj o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslar;

nogironligi bo'lgan shaxs — ijtimoiy yordam va himoyaga, jamiyat va davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida boshqalar bilan birga teng to'liq va samarali ishtirok etish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga muhtoj barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxs deb talqin qilingan. Shuni munosabat bilan, ushbu maqolada ikkala atamani umumlashtirgan holda "Nogironligi bo'lgan bolalar (shaxslar)" iboralari qo'llanilgan [1].

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 7-dekabrda O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 29-yilligiga bag'ishlangan tabrigida «...hozirgi kunda O'zbekiston ijtimoiy davlat va adolati jamiyat qurish sari dadil bormoqda. Shu sababli «Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat», degan tamoyilni konstitutsiyaviy qoida sifatida muhrlashning vaqti-soati yetdi»... «Ijtimoiy davlat muhtojlarga uy-joy, yashash uchun zarur bo'lgan iste'mol tovarlarining eng kam miqdori belgilab qo'yilishini nazarda tutadi. U shaxs va uning oilasi munosib hayot kechirishi uchun yetadigan ish haqi, bandlikni ta'minlash, xavfsiz mehnat sharoitini yaratish, kambag'allikni qisqartirishni talab qiladi. Shu bilan birga, ishsizlikdan himoyalani, kafolatlangan sifatli ta'lim, malakali tibbiy yordam, barcha uchun teng imkoniyatlar, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash ham ijtimoiy davlatning asosiy vazifasidir. Bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy davlatda hech kim e'tibordan chetda qolmaydi, o'z muammolari bilan yolg'iz tashlab qo'yilmaydi», deb bayon etilgan [2].

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 1-moddasiga "ijtimoiy davlat" tushunchasi kiritildi. Ijtimoiy davlat – bu har bir fuqaroning munosib turmush sifati va darajasiga erishish, ijtimoiy tafovutlarni yumshatish va muhtojlarga yordam berish uchun ijtimoiy adolat tamoyillariga muvofiq moddiy boyliklarni adolati taqsimlashga qaratilgan davlat modelidir [3]. Davlat va jamiyat boshqaruv organlarini bu yo'nalishga mos ravishda modernizatsiya qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi faoliyatining yo'lga qo'yilishi shular jumlasidandir. Nogironligi bo'lgan shaxslar

bilan ishlash tizimini takomillashtirish masalalari ham agentlik asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi. Jumladan:

nogironlikni baholash va aniqlashning tibbiy modelidan ijtimoiy modeliga bosqichma-bosqich o'tishni ta'minlash;
nogironligi bo'lgan shaxslarni yuqori sifatli protez-ortopediya mahsulotlari va reabilitatsiyaning texnik vositalari bilan ta'minlash;
nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya va abilitatsiya qilish sohasini rivojlantirish va sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish;

jamiyatda ijtimoiy moslashuv va integratsiya uchun sharoit yaratish, nogironligi bo'lgan shaxslarni bandligini ta'minlashga ko'maklashish, inklyuzivlikni ta'minlanishini muvofiqlashtirish hamda ularga qulay muhit shakllantirilganligini nazorat qilish;

ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan jamiyat ongida sog'lom fikrni shakllantirish;

nogironligi bo'lgan shaxslarning mustaqil hayot kechirishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, ularga uy sharoitida ijtimoiy xizmatlarini tashkil qilish;

nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ishlaydigan ixtisoslashtirilgan internet, ta'lim muassasalari va reabilitatsiya markazlari faoliyatini takomillashtirish ishlari bosqichma-bosqich olib borilmoqda [4].

Yuqoridagi ustuvor vazifalardan kelib chiqib, mazkur yo'nalishda malakali kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish, yosh olimlarni ilmiy tadqiqot ishlariga keng jalb etish, zamonaviy o'quv adabiyotlarini nashrga tayyorlash va chop etish kabi ishlarini olib borish talab etiladi. Shularni inobatga olib, nogironligi bo'lgan bolalar (shaxslar) o'rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir targ'ibot ishlarini tizimli va samarali tashkil etish, ijtimoiylashuv jarayonida talab etiladigan yoshiga mos shaxsiy fazilatlarini shakllantirish, ijtimoiy faollik, bilishga intilish va o'zini namoyon qilish motivlarining rivojlanishi, mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy kompetensiyani va fazilatlarini odatlarga aylantirish, shuningdek, real holatni o'rganish va shu asosida ilmiy-metodik ta'minotni yo'lga qo'yish maqsadida nogironligi bo'lgan bolalar (shaxslar) o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi.

Tahlil va natijalar. Ushbu so'rovnomada jami 263 nafar nogironligi bo'lgan bolalar (shaxslar) ishtirok etgan bo'lsa, ularning 68,8% ni erkaklar, 31,2% esa ayollar tashkil qildi. Jami qantashchilarning 46,4% tayanch-harakat tizimida, 9,9% ko'rishda, 4,9% eshitishda nuqsoni bo'lgan, 38,8% boshqa nogironlik turlarida bo'lgan nogironligi bo'lgan bolalar (shaxslar)ni tashkil etdi. O'tkazilgan anketa so'rovnomasi natijalari quyidagicha ko'rinishga ega bo'ldi.

Qanday shakldagi kitoblarni o'qishni afzal ko'rasiz (1-savol)? – deb berilgan savolga respondentlarning 151 nafari (yoki 54,1%) “nashr qilingan, qog'oz variantidagi kitob”, 43 nafari (yoki 15,4%) “elektron kitob”, 46 nafari (yoki 16,5%) “audio kitob”, 17 nafari (yoki 6,1%) esa “boshqa” degan javobni tanlagan bo'lsa, 22 nafari (yoki 7,9%) nogironligi bo'lgan nogironligi bo'lgan bolalar (shaxslar) nu savorolga javob berishga qiynalaman deb izoh qoldirgan. Ushbu javob natijalaridan ko'rinib turibdiki, nogironligi bo'lgan nogironligi bo'lgan bolalar (shaxslar)ning aksariyat qismi an'anaviy kitobdan foydalanishni, ya'ni qog'oz variantidagi kitob o'qishni afzal ko'rishni, undan keyingi o'rinda esa audio shakldagi kitoblar eshitishni ma'qul ko'rishni ma'lum bo'ldi. Shuning uchun kitoblarni innovatsion texnologiyalar vositasida mutolaa qilish imkoniyatlari mavjudligi to'g'risida kitobxonlarga axborot berish va ularning bu boradagi bilim va ko'nikmalarini oshirish zarur.

Kitob o'qish uchun bir kunda tahminan qancha vaqt sarflaysiz (fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlaridan tashqari) (2-savol)? – deb berilgan savolga respondentlarning 90 nafari (yoki 34,2%) “30 daqiqagacha, 69 nafari (yoki 26,2%) “bir soatgacha”, 28 nafari (yoki 10,6 foizi) “bir yarim soatgacha”, 14 nafari (yoki 5,3%) “ikki soatgacha” va 24 nafari (yoki 9,1%) “2 soatdan ortiq” deb javob bergan. Ishtirokchilardan 23 nafari (yoki 8,7%) esa umuman kitob o'qimasligini bildirgan bo'lsa, qolgan 15 nafari (yoki 5,7%) mazkur savolga javob berishga qiynalishini ma'lum qilgan. Ushbu savol orqali yosh kitobxonlar kitob mutolaasi uchun har kuni 30 daqiqagacha vaqt ajratishini bilish mumkin va bu ko'rsatkichlarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida turli metod va vositalarni qo'llash orqali oshirib borish tavsiya etiladi.

Kitob o'qishni o'zingiz uchun yoqimli mashg'ulot deb hisoblaysizmi (3-savol)? – deb berilgan savolga respondentlarning 201 nafari (yoki 76,4%) “Ha”, 35 nafari (yoki 13,3%) “Yo'q”, qolgan 27 nafari (yoki 10,3%) esa ushbu savolga javob berishga qiynalishini bildirgan.

Siz kitob o'qishdan zavqlanasizmi (4-savol)? – deb berilgan savolga respondentlarning 147 nafari (yoki 55,9%) “Ha”, 26 nafari (yoki 9,9%) “Yo'q”, 66 nafari (yoki 25,1%) “Ba'zan, yo'ni kitob janriga qarab” degan savolga javob bergan. Qatnashchilardan 10 nafari (yoki 3,8%) ushbu savolga javob berishga qiynalishini bildirgan bo'lsa, qolgan 14 nafari (yoki 5,3%) esa bilmayman degan izohni qoldirgan.

Yuqoridagi ikkita savolga berilgan natijalar turli metod va vositalar yordamida hamda innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali kitob o'qish ko'nikmasini oshirish, uni yoqimli mashg'ulotga aylantirish va kitob mutolaasidan zavqlanish hissini paydo qilish imkoniyati yaratiladi.

Uyingizda shaxsiy kutubxonangiz (yoki maxsus kitob javoningiz) bormi (5-savol)? – deb berilgan savolga respondentlarning 91 nafari (yoki 34,6%) “Ha”, 152 nafari (yoki 57,8%) “Yo'q” degan javob variantini belgilagan bo'lsa, qolgan 20 nafari (yoki 7,6%) esa ushbu savolga javob berishga qiynalishini bildirgan.

Odatda kitobni qayerda mutolaa qilasisiz (6-savol)? – deb berilgan savolga respondentlarning 77 nafari (yoki 26,4%) “Maktabda/maktab kutubxonasida”, 138 nafari (yoki 47,3%) “Uyda”, 20 nafari (yoki 6,8%) “Kutubxonada/tuman (shahar) markaziy kutubxonasida”, 16 nafari (yoki 5,5%), “Istirohat bog'larida” deb javob bergan. Ishtirokchilardan 21 nafari (yoki 7,2%) boshqa joylarda kitob o'qishini bildirgan bo'lsa, qolgan 20 nafari (yoki 6,8%) mazkur savolga javob berishga qiynalishini ma'lum qilgan.

Ta'lim muassasasi (maktab-internet, texnikum, universitet va h.z.) kutubxonasidan tashqari boshqa kutubxonalar xizmatidan ham foydalanasizmi (masalan, ommaviy kutubxona) (7-savol)? – deb berilgan savolga respondentlarning 98 nafari (yoki 37,3%) “Ha”, 148 nafari (yoki 56,3%) “Yo'q”, qolgan 17 nafari (yoki 6,5%) ushbu savolga javob berishga qiynalishini bildirgan.

Agar ommaviy kutubxonalardan foydalansangiz, Siz boradigan kutubxonada nogironligi bo'lgan shaxs uchun zarur shart-sharoitlar yaratilganmi (8-savol)? – deb berilgan savolga respondentlarning 105 nafari (yoki 39,9%) “Ha, foydalanaman (kutubxonada qulay sharoitlar yaratilgan)”, 31 nafari (yoki 11,8%) “Yo'q, foydalanmayman (chunki kutubxonada qulay sharoit yaratilmagan)”, 72 nafari (yoki 27,4%) “Yo'q, foydalanmayman (shu sababli ommaviy kutubxonalarda yaratilgan sharoitlarni bilmayman)” degan javobni tanlagan. Qolgan 55 nafari (yoki 20,9%) yuqoridagi savolga javob berishni istamaganligi ma'lum bo'ldi.

Qaysi janrdagi kitoblarni o'qishni yaxshi ko'rasiz (bir nechtasini tanlash mumkin) (9-savol)? – deb berilgan savolga respondentlarning 131 nafari (yoki 36,2%) “Badiiy adabiyot”, 53 nafari (yoki 14,6%) “Fantaziya”, 49 nafari (yoki 13,5%) “Komediya”, 64 nafari (yoki 17,7%) “Tarixiy” va 18 nafari (yoki 5,0%) “Biografik” degan javobni belgilagan. Qolgan 47 nafari (yoki 13,0%) boshqa janrlardagi kitoblarni o'qishni ma'qul ko'rishini bildirgan.

Yuqoridagi savollar alohida yo'nalish bo'lganligi bois, bu masalalarni yuqori turuvchi davlat organlari vakolatlari doirasida ko'rib chiqilishi hamda bu bo'yicha alohida davlat dasturi ishlab chiqilib, tegishli qarorlar qabul qilinishi maqsadga muvofiq.

Kitobni qanday holatda o'qishni afzal ko'rasiz (10-savol)? – deb berilgan savolga respondentlarning 199 nafari (yoki 72,6%) “yolg'iz ozov chiqarmasdan o'qish”, 16 nafari (yoki 5,8%) “jamoa bilan mutolaa qilishni”, 37 nafari (yoki 13,5%) “yolg'iz holda ozov chiqarib o'qish” degan javobni tanlagan. Qolgan 22 nafari (yoki 8,0%) mazkur savolga javob berishga qiynalishini bildirgan. Ushbu natijalarni inobatga olib, nogironligi bo'lgan nogironligi bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun kitob o'qish bo'yicha tavsiya va yo'riqnomalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Hozirgi kunda kitob o'qiyapsizmi yoki o'qib tugatdingizmi (11-savol)? – deb berilgan savolga respondentlarning 102 nafari (yoki 38,8%) “Hozirgi kunda o'qiyapman”, 48 nafari (yoki 18,2%) “Yaqinda o'qib tugatdim”, 82 nafari (yoki 31,2%) “Anchadan buyon kitob o'qimadim” degan javobni belgilagan. Qolgan 31 nafari (yoki 11,8%) ushbu savolga javob bermaslikni ma'qul deb topgan.

Odatda kimning tavsiyasiga ko'ra kitob tanlaysiz (12-savol)? – deb berilgan savolga respondentlarning 170 nafari (yoki 57,6%) “O'zim tanlayman”, 46 nafari (yoki 15,6%) “Ota-onamning tavsiyasiga ko'ra”, 31 nafari (yoki 10,5%) “O'qituvchi (ustozim)ning tavsiyasiga asosan” va 24 nafari (yoki 8,1%) “Do'stlarimning tavsiyasi bilan” degan javobni tanlagan. Qolgan 24 nafari (yoki 8,1%) bu savolga javob bermaslikni bildirgan.

Odatda qancha vaqt oraliqida kitob xarid qilasisiz (13-savol)? – deb berilgan savolga respondentlarning 35 nafari (yoki 13,3%) “Har haftada bir marta”, 81 nafari (yoki 30,8%) “Har oyda bir marta”, 27 nafari (yoki 10,3%) “Har olti oyda bir marta”, 23 nafari (yoki 8,8%)

“Yilda bir marta” deb javob bergan. Shuningdek, 69 nafari (yoki 26,2%) “O‘zim sotib olmayman” degan javobni belgilagan bo‘lsa, qolgan 28 nafari (yoki 10,6%) ushbu savolga javob berishni ma‘qul ko‘rmagan.

Kitob xarid qilishga bir oyda taxminan qancha pul sarflaysiz (14-savol)? – deb berilgan savolga respondentlarning 48 nafari (yoki 18,2%) “15 000 so‘mgacha”, 73 nafari (yoki 27,8%) “15 000-50 000 so‘mgacha”, 23 nafari (yoki 8,7%) “51 000-100 000 so‘mgacha”, 16 nafari (yoki 6,1%) “100 000 so‘mdan ortiq” degan javobni tanlagan. Bundan tashqari ishtirokchilarning 74 nafari (yoki 28,1%) kitob sotib olish uchun pul sarflamasligini bildirgan bo‘lsa, qolgan 29 nafari (yoki 11,0%) bu savolga javob berishga qiynalishini aytgan.

Xulosa va takliflar. Nogironligi bo‘lgan nogironligi bo‘lgan bolalar (shaxslar)da kitobxonlik madaniyati va kitob mutolaasi

bo‘yicha o‘tkazilgan anketa so‘rovnoma natijalarini tahlil qilish orqali bugungi kunda nogironligi bo‘lgan bolalar (shaxslar)da kitob mutolaasiga bo‘lgan qiziqishning yuqoriligi ma‘lum bo‘ldi. Ammo, ularda kitob tanlash, mutolaa uchun vaqtni rejalashtish, tez o‘qish va uqish san‘ati bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarini oshirib borish, shuningdek, kitob o‘qishning ruhiy va jismoniy foydalari, ijtimoiy hayotimizda tutgan roli va ahamiyati to‘g‘risida zarur tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

Shu munosabat bilan, istiqbolda nogironligi bo‘lgan nogironligi bo‘lgan bolalar (shaxslar)ning kitobxonlik madaniyati oshirish va kitob mutolaasini doimiy odatga aylantirish, ularning jamiyatda ijtimoiylashuvida kitobxonlik vositasidan foydalanish masalalarini ilmiy tadqiq qilish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktabr “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-641-son qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 7-dekabrda O‘zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 29-yilligiga bag‘ishlangan tabrigi (<https://www.gazeta.uz/oz/2021/12/07/constitution/>)
3. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi (Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son).
4. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 30-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzuridagi Ijtimoiy himoyani rivojlantirish instituti va Ijtimoiy himoya tizimi xodimlarining malakasini oshirish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 518-son qarori.
5. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrda “2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 781-son qarori.



UDK: 37;377,11

Mirzobek YO‘LDOSHEV,

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti tayanch doktoranti

E-mail: mirzobek1196@mail.ru

BuxMTI professori p.f.d. F.R.Muradova taqrizi asosida

TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASASI BITIRUVCHILARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISHDA OLIY TA'LIM STANDARTLARRINIG O'RNI

Аннотация

Maqolada texnika oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilarining raqobatbardoshligini shakllantirishda oliy ta'lim standartlarining o'rniga alohida urg'u berilgan. Pedagogik tadqiqotlarda oliy ta'lim standartlarining samaradorligi mazmuni yoritilgan. Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalari oliy ta'lim standartlar orqali kasbiy moslashuviga tayyorgarlikni shakllantirish uslubiyoti haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Texnika, bakalavr, kasbiy, pedagogik, oliy ta'lim, standart, tahlil, tayyorlik, ta'lim, talaba.

РОЛЬ СТАНДАРТОВ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ВЫПУСКНИКОВ ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗОВ

Аннотация

В статье акцентировано внимание на роли стандартов высшего образования в формировании конкурентоспособности выпускников технических вузов. Освещено содержание эффективности стандартов высшего образования в педагогических исследованиях. Представлена методология подготовки студентов технических вузов к профессиональной адаптации через стандарты высшего образования.

Ключевые слова: Технический, бакалавр, профессиональный, педагогический, высшее образование, стандарт, анализ, готовность, образование, студент.

THE ROLE OF HIGHER EDUCATION STANDARDS IN SHAPING THE COMPETITIVENESS OF GRADUATES FROM TECHNICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Annotation

The article highlights the role of higher education standards in shaping the competitiveness of graduates from technical higher education institutions. The effectiveness of higher education standards in pedagogical research is discussed. The methodology of preparing students at technical higher education institutions for professional adaptation through these standards is also provided.

Key words: Technical, bachelor, professional, pedagogical, higher education, standards, analysis, readiness, education, student.

Kirish. Oliy ta'lim standarti deganda ta'lim darajasi, mutaxassisligi, o'qitish yo'nalishi, kasbi bo'yicha o'qitish uchun majburiy bo'lgan, ta'lim sohasidagi siyosatni tartibga soluvchi, nazorat qiluvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan tasdiqlangan talablar majmui tushuniladi [1]. Bu ta'lim dasturi o'zlashtirish natijalari, tuzilishi va amalga oshirish shartlarini belgilaydigan me'yoriy hujjat hisoblanadi.

O'z navbatida oliy ta'lim standartini ishlab chiqish ish beruvchilarning raqobatbardosh mutaxassislariga, shu jumladan texnika oliy ta'lim muassasasining bitiruvchilariga bo'lgan ehtiyojni to'liq qondirishga imkon beradi.

Bizning tadqiqotimizda, oliy ta'lim standarti mutaxassisning kompetentsiya darajasida raqobatbardoshligi uchun asos yaratadi talabani o'zlashtirishda egallashi kerak bo'lgan vakolatlarni tartibga soladi. O'quv jarayonini tashkil etish uchun ushbu materiallardan foydalanish mintaqaviy sanoat-iqtisodiy tuzilmalar tomonidan o'quv jarayoni natijalariga qo'yiladigan talablarni hisobga olgan holda ta'limni amalga oshirishga yordam beradi. Misol tariqasida mutaxassislikning asosiy ta'lim dasturlari uchun «Mashinasozlik texnologiyasi asoslari», «RDB dastgohlar va ular asosidagi moslanuvchan ishlab chiqarish tizimlari» va «Mashinasozlik texnologiyasi (maxsus kurs)» kabi ixtisoslik fanlarni o'rganish taklif etiladi. Ushbu fanlarning ishchi dasturlarini o'rganish, talabalarni shaxsiy rivojlanishi (masalan, o'zini o'zi baholash texnologiyalarini o'zlashtirish), kompetentsiyalari (umumiy madaniy va kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish) va amaliy raqobatbardoshligini rivojlantirishga yordam beradi, deb xulosa qilishimiz mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Begimqulov U.Sh., Muslimov N.A., Ismailova Z.K., Oliy ta'lim standartlari haqida ilmiy tadqiqot ishlarida bir qancha ma'lumotlar keltirganlar. Kasbiy malaka talablarni muhandislik ta'lim yo'nalishlari bo'yicha talabalarining egallashi kerak bo'lgan kasbiy kompetentsiyalarni sanab berganlar. Yana shu bilan bir qatorda talabalarga qo'yilgan kasbiy talablar haqida ta'riflar keltirganlar [2].

Asosiy ta'lim dasturlari tarkibida ta'lim munosabatlari ishtirokchilarining faoliyati natijasida shakllanadigan asosiy va

o'zgaruvchan qism deb ataladigan majburiy qism ajralib turadi, bu esa bakalavrlar tayyorlashning turli profillari, mutaxassislarining turli ixtisosliklari bo'yicha o'qitishni amalga oshirish, shuningdek, mehnat bozori talablariga javob beradigan raqobatbardosh bitiruvchini tayyorlashni kengaytirish va chuqurlashtirishga imkon beradi. Dasturga ikkita blok – Majburiy fanlar va Tanlov fanlaridan iborat bo'lib, malakaviy amaliyotlar va Davlat attestatsiyasi (DA) ham dasturga kiritilgan.

Talabalar tomonidan dasturlarni o'zlashtirish sifatini baholash Davlat yakuniy attestatsiyasi, shuningdek joriy va oraliq nazorat orqali amalga oshiriladi, ularning shakllari, va xususiyatlari ta'lim tashkilotining vakolatidir. Ish beruvchilar, tashkilotlar rahbarlari va boshqalar orasidan mutaxassislar o'z-o'zini nazorat qilish va baholash tartib-qoidalariga jalb qilinadi.

Oliy ta'lim standartining asosiy xususiyati ta'lim mazmuniga emas, balki o'qitish natijasida mutaxassislarining vakolatlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, vakolatlar ma'lum bir sohada muvaffaqiyatli faoliyat olib borish uchun bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlarini (masalan, javobgarlik, tashabbuskorlik, qat'iyatlilik va boshqalar) qo'llash qobiliyatini anglatadi. Bu, odatda, pedagogikada kompetentsion yondashuv deb ataladigan, o'qitish natijalariga asoslangan yondashuvni qo'llashga bo'lgan global tendensiyani aks ettiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Oliy ta'lim standartiga muvofiq, kompetentsiya "mutaxassisning ma'lum bir sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlarini qo'llash qobiliyati" deb tushuniladi. Asosiy fanlar, xususan, «Mashinasozlik texnologiyasi asoslari», «RDB dastgohlar va ular asosidagi moslanuvchan ishlab chiqarish tizimlari» va «Mashinasozlik texnologiyasi (maxsus kurs)» bizning fikrimizcha, kompetentsiyalarni shakllantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Shunday qilib, 60720800 – Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jihozlash va avtomatlashtirish bakalavriat ta'lim yo'nalishi uchun biz asosiy fanlarni o'qitishda quyidagi umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish imkoniyatini ta'kidlaymiz:

Umumiy kompetentsiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

Sog'lom turmush tarsi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

Kasbiy kompetensiyalar:

- meyoriy huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatda foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- namunaviy va nostandart texnologik jarayonlarni va texnologik jihozlarni hamda ularning elementlarini, moslama, kesish va o'lchash asboblari, qismlar va detallarni, mashinasozlik ishlab chiqarishda avtomatik boshqarish va rostlash tizimlarini loyihalash;

- bajarilayotgan tajriba-konstruktorlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, information va imitatsion modelari ishlab chiqish va tadqiqot qilish;

- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- mashinasozlik ishlab chiqarishining texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;

- mashinasozlik ishlab chiqarishining texnologik jarayonlarni ish bajarish maromiga yetkazish va o'zlashtirish;

- amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy paradigm va metodologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llashni o'zlashtirish;

- mashinasozlik ishlab chiqarishda usta, katta usta, sex operatori, avtomatik liniya markazi operatori, texnolog, ishlab chiqarish mexanigi faoliyatlarini olib boorish;

- kasbiy etika kodeksiga rioya qilish, qobiliyatlarga ega bo'lish;

- ishlab chiqarish jarayonlarini modellashtirish va ishlab chiqarish jarayonlarini tashkilotlarining amaliy faoliyatida qayta tashkil etish usullaridan foydalanish;

- ishlab chiqarish qarorlarini qabul qilishda, shu jumladan innovatsion texnologiyalar to'g'risida qaror qabul qilishda o'ziga xos xatarlarni tahlil qilish qobiliyati;

- ishlab chiqarish korxonalarini va ilmiy tadqiqot institutlarining rolini hisobga olgan holda innovatsion loyihalarni baholash, rejalashtirish va prognozlash ko'nikmalari;

- konstruktorlik, yig'ish, sinash va boshqa yo'nalishga mos ishlab chiqarish faoliyatini sifatini boshqarish;

- ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish tadqiqot qilish;

- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

- mashinasozlik ishlab chiqarishi texnologik jarayonlari va texnologik jihozlarni tayyorlash texnik hujjatlar (ishlarni bajarish grafigi, yo'riqnomalar, rejalar, smetalar, material va jihozlarga buyurtmalar) ishlab chiqish;

- mashinasozlik ishlab chiqarishdagi texnologik jihozlarni, jumladan avtomatlashtirilgan, raqamli dasturda boshqariladigan, moslanuvchan ishlab chiqarish va nostandart jihozlar va boshqalarni montaj qilish hamda sozlash bo'yicha ishlarni rejalashtirish va bajarish qobiliyatlariga ega bo'lishi;

- ishlab chiqarish korxonasining ichki hujjat aylanish tizimining ishlashi to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish, turli ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish va tashkiliy loyihalar ishtirokchilariga axborot ta'minotini yaratish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- ishlab chiqarish korxonasini rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihalarni amalga oshirishda (korxonada, davlat yoki mahalliy boshqaruv idorasi) tashqi aloqalarni kengaytirish va tajriba almashish uchun zarur ma'lumot to'plash tizimlaridan foydalangan holda ishlab chiqaruvchi sheriklar bilan munosabatlarni tashkil etish va qo'llab-quvvatlash;

- ishlab chiqarish jarayonlarini modellashtirish va ishlab chiqarish jarayonlarini tashkilotlarning amaliy faoliyatida qayta tashkil etish usullaridan foydalanish qobiliyati.

60720800 – Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jihozlash va avtomatlashtirish mutaxassisligi bo'yicha oliy ta'lim standartida ko'rsatilgan asosiy fanlarni o'rganish jarayonida quyidagi ko'nikmalarni shakllantirish mumkin:

- ijodiy fikrlash, tahlil qilish, sintez qilish qobiliyati;

- nostandart vaziyatlarda yechim topa olish, qabul qilingan qarorlar uchun umumiy javobgarlikni o'z zimmasiga olish;

- o'z-o'zini rivojlantirish, o'zi-o'zini anglash, ijodiy salohiyatdan foydalanish[61].

Tahlil va natijalar. Oliy ta'lim standartida ajratilgan keyingi vakolatlar guruhi umumiy kasbiy vakolatlar bo'lib, ular asosiy fanlarni o'qitish jarayonida ham shakllanishi mumkin. Ushbu vakolatlar raqobatbardosh mutaxassisni tayyorlashda ham muhim rol o'ynaydi, chunki ular universal xususiyatga ega va talabalarda fanlararo muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi[5]. Texnika oliy ta'lim muassasasi talabalarini asosiy fanlarga, shu jumladan «Mashinasozlik texnologiyasi asoslari», «RDB dastgohlar va ular asosidagi moslanuvchan ishlab chiqarish tizimlari» va «Mashinasozlik texnologiyasi (maxsus kurs)» fanlariga o'qitish jarayonida bakalavrlar uchun shakllanadigan umumiy kompetensiyaga quyidagilar kiradi:

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish.

Texnika oliy ta'lim muassasasi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bitiruvchilarda mavjud bo'lishi kerak bo'lgan kompetensiyalar, kasbga yo'naltirilgan faoliyat turlari: ilmiy-tadqiqot, loyiha, ishlab-chiqarish, texnologik, tashkiliy-boshqaruv faoliyati bilan belgilanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Buxoro muhandislik-texnologiya institutida tahsil olayotgan talabalar malaka talablariga muvofiq kasbiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorlanmoqdalar. Biroq, bitiruvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma va ishga joylashtirish boshqarmasi ma'lumotlari shuni ko'rsatdiki, bitiruvchilarning 31 foizi ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-boshqaruv kasbiy faoliyati bilan shug'ullanadi, 69 foizi esa loyiha-konstruktorlik va ishlab chiqarish-texnologik faoliyat bilan shug'ullanadi. Asosiy fanlarni, shu jumladan «Mashinasozlik texnologiyasi asoslari», «RDB dastgohlar va ular asosidagi moslanuvchan ishlab chiqarish tizimlari» va «Mashinasozlik texnologiyasi (maxsus kurs)» fanlarini o'qitish jarayonida 60720800 – Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jihozlash va avtomatlashtirish bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarini, bizning fikrimizcha, quyidagi kasbiy kompetensiyalarni muvaffaqiyatli shakllantirishlari mumkin:

- mashinasozlik ishlab chiqarishining texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;

- mashinasozlik ishlab chiqarishining texnologik jarayonlarni ish bajarish maromiga yetkazish va o'zlashtirish;

- amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy paradigm va metodologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llashni o'zlashtirish;

- mashinasozlik ishlab chiqarishda usta, katta usta, sex operatori, avtomatik liniya markazi operatori, texnolog, ishlab chiqarish mexanigi faoliyatlarini olib boorish;

- mashinasozlik ishlab chiqarishdagi texnologik jihozlarni, jumladan avtomatlashtirilgan, raqamli dasturda boshqariladigan, moslanuvchan ishlab chiqarish va nostandart jihozlar va boshqalarni montaj qilish hamda sozlash bo'yicha ishlarni rejalashtirish va bajarish qobiliyatlariga ega bo'ladi.

Kompetensiyalarni o'qitishda kompetensiyali yondashuvni amalga oshirish jarayonida, kompetensiyalar tuzilmasini turli usullar bilan tasvirlash mumkin. Ba'zi hollarda kompetensiyalar tuzilmasini aniqlash uchun B. Blum taksonomiyasi qo'llaniladi [1]. Masalan, "Mashinasozlik texnologiyasi asoslari" fanlarining asosiy qonunlarini professional faoliyatda qo'llay olish kabi kompetensiya quyidagi komponentlar shaklida taqdim etilishi mumkin:

- mashinasozlik detallari ishlab chiqarishda nuqsanli mahsulotlar kelib chiqish sabablarini aniqlanadi, metall va nometall mahsulotlari texnologiyasi uskuna va jihozlari nazoratni bilgan holda ishlab chiqarish sanoatida qator muhim masalalarni yecha oladi,

metall qotishmalari va nometal mahsulotlarining sifatiga baho bera oladi, tayyorlanma va detal tayyorlashda uskunaning vazifasi muhim ekanligini bila oladi, mexanik ishlov berish texnologik jarayonlarini bajaradi; detallarning yuzalariga ishlov berish tartibini bilib oladi, Yig'ish texnologiyasi jarayonlarini bajaradi [126]. Biz har bir kompetensiyaning asosida bitta yoki bir nechta o'quv faoliyati yotadi deb hisoblaymiz. Talabani ushbu o'quv faoliyatlarini bajarishga o'rgatish orqali, biz shu tariqa talabani oliy ta'lim standarti talablariga muvofiq kompetensiyalarni egallashiga ko'maklashamiz. Masalan, umumiy kompetensiyani egallash uchun asosiy fanlarni o'rganishda talabalar quyidagi o'quv faoliyatlarini o'zlashtirishlari kerak:

o'quv va kasbiy mazmundagi ma'lumotlarni olish va qayta ishlash uchun chet tilini bilish, o'qituvchi bilan ta'lim platformalari orqali yozishmalarini olib borish, darslarni tayyorlash, darsda og'zaki muloqot qilish; fanlar bo'yicha silabylarda ko'rsatilgan hajmda texnik atamalarni tushuntirish; amaliy va laboratoriya darslari bo'yicha hisobotlarni tayyorlash ishlar, tezislar, ma'ruzalar; ilmiy maqolalar, dars va darsdan tashqari ishlarda ishlatiladigan o'quv va ilmiy matnlarning mazmunini tushunish;

og'zaki va yozma shaklda ma'lumot olish va uzatishni bilish; o'quv va ilmiy maqolalardan konspektlar tuzish; belgilangan mavzu bo'yicha adabiyot manbalarini izlash; boshqa talabalarning javoblarini

(og'zaki va yozma shaklda) tahlil qilish; ilmiy konferensiyalarda chiqish qilish; munozara olib borish va o'z nuqtai nazarini himoya qilish.

matndagi asosiy fikrlarni ta'kidlash, ma'lumotni og'zaki va yozma ravishda taqdim etish, o'quv mavzusini muhokama qilish, o'quv matni bo'yicha savollar tuzish, berilgan o'quv mavzusida o'z fikrini yozish ko'nikmalariga ega bo'lish.

Xulosa va takliflar. Mutaxassislik va bakalavriatning asosiy ta'lim dasturlarini o'zlashtirish natijasi sifatida kompetensiyalarni tahlil qilgan holda, xulosa qilish mumkinki, kompetensiyalar ko'pgina hollarda murakkab xususiyatlar bo'lib, ularni faqat bitta fanni o'rganish orqali shakllantirish deyarli imkonsizdir.

Bu bitiruvchining mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlaydigan vakolatlarini shakllantirish uchun barcha o'qituvchilarning sa'y-harakatlarini birlashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, bu esa intizomiy yondashuvga xos bo'lgan bilimlarning bo'linishi va parchalanishini yengishga imkon beradi. Bundan tashqari, turli xil fanlarni o'rganish jarayonida turli xil vazifalarni qo'llashda bir xil vakolatlar shakllantirilishi mumkin, bu esa asosiy va maxsus fanlarning fanlararo aloqalariga asoslangan o'quv texnologiyalarini doimiy ravishda modernizatsiya qilishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti.: Ped.fan.dokt. ... diss. avtoref. - T.: 2007. - 37 b.
2. Джураев Р.Х. Организационно - педагогические основы интенсификации системы профессионального подготровки в учебных заведениях профессионального образования: Автореф. дисс ... док.пед.наук.-Т.: 1995. - 43с.
3. Muslimov N.A. Pedagogik faoliyatga tizimli yondashuv muammolari // Kasb-hunar ta'limi. – 2004. - № 3. – B.24.
4. Ismailova Z.K. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental-metodik asoslari: Diss. ... ped. fan. dok. – T.: 2006. – 345 b.
5. O'rinov U.A. Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda masofaviy ta'limning afzalliklari. "O'zMU xabarлари". Ilmiy jurnal. Toshkent, 2020. №1/2, 148-151 b.



Diyora KAMOLDINOVA,
Andijon davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi
E-mail: Kamoldinovadiyora@mail.ru

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent, B.Parmonov taqrizi asosida

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE ACTIVITY OF A PSYCHOLOGIST OF A PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION IN THE PROCESS OF CREATING A DEVELOPING GAME ENVIRONMENT

Annotation

The article explores the peculiarities of the psychological aspects of the activity of a psychologist of a preschool educational organization in the process of creating a developing game environment. methods and tools that can be used in the process of psychological support for the process of creating a developing game environment of a psychologist of a preschool educational organization have been researched and effective recommendations are presented.

Key words: Social situation, game environment, determination of the manifestation of the level of tolerance, specifics of the age period, parent and preschool organization.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПСИХОЛОГА ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В ПРОЦЕССЕ СОЗДАНИЯ РАЗВИВАЮЩЕЙ ИГРОВОЙ СРЕДЫ

Аннотация

В статье рассмотрены особенности психологических аспектов деятельности психолога ДООУ в процессе создания развивающей игровой среды. исследованы методы и средства психолога дошкольной образовательной организации, которые могут быть использованы в процессе психологического сопровождения процесса создания развивающей игровой среды, приведены эффективные рекомендации.

Ключевые слова: Социальная ситуация, игровая среда, определение проявления уровня толерантности, особенности возрастного периода, родительская и дошкольная организация.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI PSIXOLOGINING RIVOJLANTIRUVCHI O'YIN MUHITINI YARATISH JARAYONIDAGI FAOLIYATINI PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologining rivojlantiruvchi o'yin muhitini yaratish jarayonidagi faoliyatining psixologik jihatlarining o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologining rivojlantiruvchi o'yin muhitini yaratish jarayonini psixologik qo'llab-quvvatlash jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan usul va vositalari tadqiq qilingan va samarali tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy vaziyat, o'yin muhiti, bardoshlilik darajasining namoyon bo'lishini aniqlash, yosh davrining o'ziga xos xususiyatlari, o'ta-ona va maktabgacha ta'lim tashkiloti.

Kirish. Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim sohasida ham o'ziga xos islohotlar olib borilmoqda. Yangi O'zbekistonning (2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan) taraqqiyot strategiyasi[1] hamda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasining 38-maqsadi "Maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini bosqichma-bosqich oshirish", 39-maqsadi "Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish"ga oid belgilangan vazifalar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning har tomonlama intellektual salohiyati, emotsional holatlarining rivojlanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni tubdan yaxshilashga alohida e'tibor qaratilganligi, jamiyatimiz a'zolari bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarga oid masalalarni ilmiy o'rganishga zarur asos bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasining 201- yil 16-dekabrda O'RQ-595-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni va boshqa me'yoriy hujjatlar doirasida belgilangan keng ko'lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Maktabgacha yosh davri psixik xususiyatlarining o'ziga xos shakllanish muammosiga doir respublikamiz psixolog olimlaridan F.A.Akramova, Sh.Bekova, Sh.A.Do'stmuxammedova, Z.T.Nishanova, M.Norbosheva, A.R.Rasulova, I.Raximova, M.Taydjanova va boshqalar o'z ilmiy tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari, bilish jarayonlari, psixologik muammolarining psixodiagnostikasi, korreksiyasi va korreksion rivojlantiruvchi ishlarni samarali tashkil etishning psixologik jihatlarining nazariy va amaliy tomondan ilmiy tadqiq etishgan.

Mustaqil davlat hamdo'stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan B.G.Ananyev, Yu.M.Antanyan, L.S.Vigotskiy, P.Ya.Galperin, V.I.Garbuzov, I.V.Dubrovina, A.I.Zaxarov, A.N.Leontev, M.I.Lisina, G.M.Kodjaspirova, R.S.Nemov, L.F.Obuxova, A.M.Prixojan, A.S.Spivakovskaya, D.B.Elkonin va boshqalar ilmiy tadqiqotlarida shaxsning yoshga doir psixologik xususiyatlarini aniqlash, ruhiy o'zgarishlar sabab va oqibatlarini borasida ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Xorij tadqiqotchilaridan V.Amen, L.A.Venger, Jo.Godfrua, M.Dorki, G.Eberleyn, J.A.Kelli, K.Levin, K.Rojers, B.Skinner, G.Sallivan, Ch.D.Spil'berger, S.S.Tomkins, R.Tamml, Z.Freyd, E.Fromm, Yu.L.Xanina va boshqalar tomonidan bolaning psixologik rivojlanishi asoslari ilmiy tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining har biri o'z faoliyatini ota-onalarning ijtimoiy buyurtmasiga tobora ko'proq bo'sundirib, muayyan ta'lim va tarbiyaviy vazifalarni hal qiladi. Bolalarning umumiy rivojlanish darajasini oshirish, ularda ma'lum qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni muayyan maktabda o'qishga tayyorlash istegi. Kelajakda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xilma-xillik tidentsiyasi kuchayadi, deb hisoblash uchun asos bor. Bu, shuningdek, hozirgi davrga xos bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash sharoitlarining o'zgarishi bilan bog'liq. L.S. Vigotskiy maktabgacha yosh davridagi bola ruhiy rivojlanishi psixologiyasi, bola shaxsi xususiyatlari, psixologik xizmat, xususan maktabgacha ta'lim tizimida psixolog faoliyatida bolalar bilan ishlashda psixodiagnostika va psixokorreksiya faoliyatini olib borish borasida qator ilmiy g'oyalarni ilgari surgan. U yoshga bog'liq xususiyatlarni eng tipik deb belgilagan va u bir yoki boshqa yoshdagi bolalar rivojlanishining umumiy yo'nalishini ko'rsatib o'tgan [2]. SHuningdek, bola shaxsiyatining shakllanishi uning faol faoliyatida sodir bo'ladigan holatlar va unda yetakchi faoliyatning ahamiyati boshqa bir qator olimlar isklarida ham ko'rsatilgan. Har bir yosh bosqichida yetakchi faoliyat - bu

shaxsiyatdagi asosiy o'zgarishlarni belgilaydigan ma'lum bir faoliyat turidir. Bular muloqot, o'yin, o'qish, mehnat.

Yetakchi faoliyat tushunchasida nazariy qoidalarga ko'ra A. A. Bodalev, B. F. Lovomov, A. M. Matyushkinlar ontogenetik rivojlanish davrlari mavjud, bu davrda tana atrofdagi voqealarning ba'zi ta'sirlariga sezgir bo'ladi va bunday davrlar sezgindir deb atalishini ta'kidlab o'tganlar [3].

Bu borada, I.V.Dubrovina, X.Y. Liymets, YU.L.Sierdlarning ko'p yillik tadqiqotlari natijasi o'laroq, ta'lim tizimida psixologik xizmatning joriy etilishi bu boradagi mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida qo'yilgan ilk qadam ekanligini alohida qayd etish mumkin.

G.G.Kravsov va E.E.Kravsovalar bolalarning maktab ta'limiga psixologik tayyorgarligi o'quv faoliyatining asosiy shartlari va asoslarini shakllantirish holatidan ko'rib chiqqanlar. Ular bu jarayonning murakkab mohiyatini ta'kidlash [4], bilan birga, bunday tayyorgarlikning tuzilishi bolalarning umumiy psixik rivojlanishini emotsional va intellektual sohalarga ajratishdan iborat emasligini ta'kidlaydilar. Tadqiqotchilar bola va atrofdagi olam o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan maktabga psixologik tayyorlik ko'rsatkichlarini ta'kidlab, turli xil munosabatlar turlarini ko'rib chiqqanlar. Bu yerda psixologik tayyorgarlikning asosiy jihatlari 3 yo'nalishda, ya'ni: kattalarga, tengdoshlariga va o'ziga nisbatan munosabatda ifodalanadi.

Bolalar va kattalar, bolani maktabga tayyorgarligining boshlanishini tavsiflovchi eng muhim o'zgarishlarga muvofiq muloqot qiladilar. Bu ma'lum darajada erkinlikning rivojlanishini anglatishi ham mumkin. Biroq, ularning o'ziga xos xususiyatlari bolalarning xulq-atvori va harakatlarini mavjud vaziyatga emas, balki butun tarkibga, shu jumladan kontekstga asoslangan holda ma'lum qoidalar va me'yorlarga bo'ysundirish, kattalar o'rni va savollarning an'anaviy ma'nosini tushinishda deb biladilar. Bunday xususiyatlar umumlashtirilib, bolalardan o'quv vazifasini qabul qilish talab qilinadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi o'z ishida psixodiagnostikadan foydalanar ekan, bola shaxsi haqida, shaxslararo munosabatlar haqida xulosaga kelish va tavsiyalar ishlab chiqishda hozirgi zamon psixologiyasi, psixodiagnostikasi ilg'or yutuqlaridan o'rinni foydalanishi lozim.

Psixologiya fanlari doktori, akademik A.A.Rean psixodiagnostika haqida yozar ekan: "Hayotda odamlar boshqa shaxsni baholashda, uni, u haqda o'zi "oldindan tayyorlab qo'yg'an" "eskiz"ig

SHahar xududlaridagi MTT tarbiyalanuvchilari n=94		Qishloq hududlaridagi MTT tarbiyalanuvchilari n=86	
To'la shakl-langan (% da)	Sust shakl-langan (% da)	To'la shakl-langan (% da)	Sust shakl-langan (% da)
64,9	35,1	55,8	44,2

1-jadval

Vengerning metodikasi bo'yicha maktabga motivatsion tayyorgarlik ko'rsatkichlari (n=180)

Test natijalari ko'ra guruhlarda mos ravishda 64,9% (shahar) va 55,8% (qishloq) tarbiyalanuvchilarda motivatsiya to'la shakllanganligi aniqlandi. Bunda tarbiyalanuvchilar savolnomada keltirilgan savollardan 5tadan ko'piga to'g'ri javob bergan. Motivatsiya sust shakllanganlar ko'rsatkichi mos ravishda respondentlarning 35,1(shahar) % va 44,2 % (qishloq) miqdorida maktab haqidagi fikrlarida noaniqliklar namoyon bo'lgan. Bu esa, ular 2 - jadval

Kern-Yirasek testi bo'yicha maktabga yetuklik darajasi ko'rsatkichlari (%larda) (n=180)

Topshiriq-lar t/r	Tajriba guruhi						Nazorat guruhi						Statis-tik ahamiyat
	SHahar xu-dudlaridagi MTT tarbiya-lanuvchilari n=52			Qishloq hu-dudlaridagi MTT tarbiya-lanuvchilari n=46			SHahar xu-dudlaridagi MTT tarbiya-lanuvchilari n=42			Qishloq hu-dudlaridagi MTT tarbiya-lanuvchilari n=40			
	Yuqor	O'rt	Past	Yuqor	O'rt	Past	Yuqor	O'rt	Past	Yuqor	O'rt	Past	
1-topshiriq	38,1	59,5	2,4	37,5	62,5	-	36,5	59,6	3,9	30,4	63,1	6,5	-0,18**
2-topshiriq	35,7	61,9	2,4	35,0	62,5	2,5	30,8	63,5	5,8	26,1	67,4	6,5	0,02
3-topshiriq	40,5	59,5	-	42,5	55,0	2,5	40,4	59,6	-	41,3	54,3	3,4	-0,04
Jami o'rtacha	38,1	60,3	1,6	38,3	60,0	1,7	35,9	60,9	3,2	32,6	61,6	5,5	

Izoh: Ko'rsatkichlar, Kern-Yirasekning "Bolani maktabga yetuklik darajasini aniqlash" metodikasi orqali olindi.

Tajriba guruhida bo'lgan tarbiyalanuvchilarda yuqori ko'rsatkich 38,1% (shahar), 38,3% (qishloq) ya'ni bu sinuuvchilar testning rasmlig qismiga qo'yilgan barcha talablarni bajardi, ularning

a moslashtiradi, psixodiagnostika esa shu eskizlarga aniqlik kiritadi [5], - deb ta'kidlaganidek, MTT amaliyotchi psixologi o'z faoliyatida aniqlikka ko'proq rioya qilishi, shaxsni baholashda "eskiz" larning, stereotiplarning ustuvor bo'lishiga yo'l qo'ymasligi kerak.

Maktabgacha yosh davridagi bolalarning individual-psixologik xususiyatlari, bu yosh davridagi bolalarning shaxsiy ehtiyojlari psixologiyasi borasida M.YU. Burikina [6], maktabgacha ta'lim muassasalaridagi psixologik xizmatning nazariy asoslari bo'yicha T.I.Chirkova [7], maktabgacha yosh davri bolasida tolerantlik xissini shakllantirishda psixologning kasbiy faoliyatiga oid, A.S.Sirotyuk [8], o'yin muhitini korreksion - rivojlantirish borasida maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologining faoliyati mavzusida S.V.Mixaylova [9] va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Tahlil va natijalar. Maktabgacha ta'lim muassasasi psixologining diagnostik va korreksion faoliyati va bolalarni maktabga tayyorlik darajasini chuqurroq, ob'ektiv ravishda tadqiq etish uchun izchillik bilan quyidagi psixologik metodlardan foydalanishni maqsadga muvofiq deb bildik.

1.L.A.Vengerning "Bolalarni maktabga motivatsion tayyorgarligini aniqlash" testi.

2. Kern - Yirasekning "Bolani maktabga tayyorlik darajasini aniqlashga mo'ljallangan" testi va savolnomasi

3. Oilada ota - onalarning ota - onalik roliga nisbatan ustanovkasi va munosabatlarini o'rganishga mo'ljallangan psixodiagnostik vositalardan biri PARI (Parental attitude research instrument) metodikasi

4. Onalarning farzandi bilan bo'ladigan munosabatlaridagi ijtimoiy roli munosabatlarini o'rganishga mo'ljallangan "Siz va farzandlaringiz" testi

Tadqiqot uchun avval psixologning diagnostik faoliyatini ko'rib chiqish uchun bolalarning maktabga motivatsion tayyorlik darajasini aniqlash maqsadida maktabgacha ta'lim muassasasi psixologi tomonidan tarbiyalanuvchilarda A.L.Vengerning "Motivatsion tayyorgarlik" testi o'tkazildi. Psixolog diagnostik faoliyati davomida bolalarning maktabga motivatsion tayyorgarlik darajasini aniqladi va quyidagi natijaga erishdi. (1-jadval).

bilan maktabga motivatsion tayyorgarlikni shakllantirish bo'yicha ish olib borish lozimligini bildiradi.

Kern-Yirasek testi orqali bolalarni maktabga tayyorlik darajalari aniqlandi. Bu metodika, bola rivojlanishining intellektual darajasini aniqlash, maktabda o'qishga tayyorligini baholash imkonini ham beradi.

yosh meyoridan bir oz past ekanligini bildiradi. Rivojlanganlik darajasi past bo'lgan sinaluvchilar – 1,6% (shahar) va 1,7% (qishloq)ni tashkil etgan. Bu sinaluvchilar rasmni tushunarsiz holatda chizganlar. Nazorat guruhida esa tarbiyalanuvchilarning 35,9% (shahar) va 32,6% (qishloq) i yuqori ko'rsatkich, 60,9% (shahar) va 61,6% (qishloq) i o'rta ko'rsatkich, 3,2% (shahar) va 5,5 % (qishloq) past ko'rsatkichni tashkil etdi.

3 – jadval

Kern – Yirasekning savolnomasi bo'yicha bolalarni maktabga psixologik tayyorlik ko'rsatkichlari (n=180)

Intellekt darajasi ko'rsatkichlari	SHahar xududlaridagi MTT tarbiyalanuvchilari n=94	Qishloq hududlaridagi MTT tarbiyalanuvchilari n=86
Yuqori ko'rsatkich	36,5	34,8
O'rtachadan yuqori ko'rsatkich	25,5	24,1
O'rtacha ko'rsatkich	36,5	34,8
O'rtachadan past ko'rsatkich	3,5	4,4
Past ko'rsatkich	-	-

Dissertatsiya ishining ushbu bobi va paragraflarida sharhlab o'tilgan psixolog olimlar g'oyalari, taklif mulohazalari asosida taklif etilgan materialarning ilmiy asoslanganlik jihatlari ko'rsatib berilgan. Unga ko'ra olib borilgan tajriba ishlari yoritib o'tilgan.

Xulosa va takliflar. 1. Aytilganlarni umumlashtirib, shuni ta'kidlaymizki, bola psixikasining mukammal rivojlanishini amalga oshirish, bir tomondan, umumiy ijtimoiy farovonlikka, atrofdagi kattalarning uning rivojlanishiga e'tiboriga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan pedagogik jihatdan mos ta'sirni tashkil etishga bog'liq hisoblanadi.

2. Psixokorreksion va rivojlanish jarayonida yetakchi rol bolalar bilan muloqot qilish uslubiga, bolalarning muloqot qobiliyatlarini va to'g'ri xulq-atvor g'oyalarini shakllantirishga tegishli hisoblanadi. Do'stona muloqot uslubi, kattalar tomonidan bolaning har qanday yutug'ini ijobiy hissiy jihatdan baholash, muloqot qobiliyatlarini va xulq-atvor qoidalari to'g'risida g'oyalarni shakllantirish xulq-atvorlardagi istalmagan og'ishlar bolaning rivojlanishidagi noqulay ijtimoiy vaziyatni oldini olishga qaratilgan

Shundan so'ng Kern - Yirasek testining ikkinchi bosqichi, savolnoma bosqichi o'tkazildi. Ushbu bosqichda bolalar tafakkurining umumiy darajasini, dunyoqarashini, ijtimoiylashuv sifatlarining rivojlanishini ochib beradi. Unga ko'ra quyidagi ko'rsatkichlar yuzaga kelgan.

ijtimoiy-pedagogik profilaktikaning boshlang'ich elementlari hisoblanadi.

3. Psixokorreksion va rivojlantirish dasturlari bo'yicha mashg'ulotlar bolalarga dastlabki bilim va ko'nikmalarni egallashni ta'minlaydi. Fikrlash, xotira va boshqa kognitiv jarayonlarni maxsus tuzatish ishlari bilan qamrab olinmagan bolalarga qaraganda yuqori darajaga ko'tarilish kuzatiladi. Maxsus sharoitlarda bo'lish bolalarning o'yin faoliyatida, ularning shaxsiyati, qiziqishlari, o'rganish motivatsiyasi, munosabatlari, muloqoti va boshqalarni rivojlantirishga, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotining muhim tarkibiy qismi bo'lgan o'yin muhitini tashkil etishga foydali ta'sir ko'rsatadi.

4. Har qanday turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yinga asoslangan tuzatish va rivojlanish muhitini yaratishning ajralmas sharti bolalarning rivojlanishiga tizimli-aksiologik yondashuvga asoslangan odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning shaxsga yo'naltirilgan modeliga tayanishdir.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni.
2. Вигоцкий, Л. С. Педагогическая психология //Л.С. Вигоцкий. – М.: Педагогика-Пресс, 1999. - 536 с
3. Обухова Л.Ф. Децкая психология: теории, факты, проблемы. – М., 1993. - 128 с.
4. Кравсов, Г. Г. Психология и педагогика обучения дошкольников / Г. Г. Кравсов, Е. Е. Кравсова. – М.: Мозаика-Синтез, 2013. – 261 с.
5. Реан А.А. Психология и психодиагностика личности. Теория, методы исследования, практикум. – СПб., 2008. - 255 с.
6. Бурлачук Л.Ф. Психодиагностика: Учебник для вузов. 2-е изд. – СПб.: Питер, 2008. - 384 с
7. Светков Э. Одам психикасининг яширин катламлари: ёхуд таъсир этиш доирасини қандай кенгайтириш мумкин. (Психонетика) //Э.Светковнинг шу номли рисоласи таржимаси. /Таржимон, психол. фан. номз., доц. Н.А.Соғинов. – Тошкент, 2015. -74 б.
8. Самоукина Н.В. Симбиотические аспекты отношений между матерью и ребенком //Вопросы психологии. –М.,2000. - №3.– С. 67-81.
9. Михайлова С.В. Дифференциальная диагностика наследственных нейрометаболических заболеваний у детей. – М., 2010. – 242



UDK: 745/749:371.3

Ифтихор КАМОЛОВ,
Qarshi davlat universiteti professori, p.f.d
E-mail: iftixor.kamolov@inbox.ru

Pedagogika fanlari doktori R.D.Shodiyev taqrizi asosida

CONCEPT OF DEVELOPMENT THROUGH ACTIVATION OF CREATIVE DESIGN

Annotation

This article examines in detail the theoretical and conceptual foundations for enhancing creative design in teaching students applied arts

Key words: Creative, creativity, design, concept, master-student of applied arts.

КОНЦЕПЦИЯ РАЗВИТИЯ ЧЕРЕЗ АКТИВАЦИЮ КРЕАТИВНОГО ДИЗАЙНА

Аннотация

В данной статье подробно рассмотрены теоретические и концептуальные основы активизации творческого проектирования в обучении студентов прикладному искусству.

Ключевые слова: Креатив, творчество, дизайн, концепция, мастер-ученик прикладного искусства.

KREATIV LOYIHALASHNI FAOLLASHTIRISH ORQALI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada talarbalarga amaliy san'atni o'qitishda kreativ loyihalashni faollashtirishning nazariy hamda konseptual asoslari haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Kreativ, ijodkorlik, layihalash, konsepsiya, ustoz-shogird amaliy san'at.

Kirish. XX-asrning oxirgi XXI-asrning boshlari o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash va haqiqiy ijodkor qilib kamol toptirishda xalq amaliy san'ati va amaliy san'atining ijodiy va fazoviy muhitini tashkil etish va uning pedagogik salohiyatini anglashdagi rolning ortib borishi bilan tavsiflanadi.

Ushbu ijod turlariga qiziqishni ortib borishi, amaliy san'at to'garaklar, muzeylar, ko'rik tanlovlar, o'quv adabiyotlar, maqolalar, anjuman materiallari nashrlari, ilmiy ishlanmalar, ustoz-shogird davra suhbatlari tashkil etish va boshqalar sonining ko'payishida namoyon bo'ldi. Badiiy didaktikaning asoschisi N. N. Rostovsev bo'lib, u hayotdan real tasvirlashni o'rgatishning ilmiy-nazariy qoidalarini ishlab chiqdi va shu bilan birga "O'rganishga kreativ munosabatda bo'lishga chaqirdi" [1]. N. N. Rostovsevning konseptual ilmiy g'oyalari va u bilan hamfikir olimlarning ijodlarida yanada shakllantirildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. A. E. Terentiev, N. K. Shabanov va boshqalar amaliy kompozitsiyasini - E. V. Shabanov, G. V. Beda va boshqalar tasviriy san'at kompozitsiyasini o'rganishgan.

V. S. Kuzinning ilmiy va ijodiy maktabining asosi real hayotdan tasviriy va amaliy san'atni o'rganish va bu bo'yicha akademik darajasiga ega bo'lish edi. Tadqiqotchi olimlarning asarlariga asoslab berilgan amaliy san'at ta'limning asosiy ilmiy yo'nalishlari, o'rganilayotgan muammolar bog'lanishida amaliy san'atda o'z-o'zini kreativ rivojlantirishning turli imkoniyatlarini aniqlab olish imkonini beradi.


Aytib o'tish lozimki, bu tarixiy davr tasviriy va amaliy san'atni o'qitishda yangi tushuncha va texnologiyalarning paydo bo'lishi, shu bilan birga xalq amaliy san'atni barcha turlarining rivojlanishi, har xil asoslar va yondashuvlar bilan tavsiflanadi. B. M. Nemenskiy shunday yozgan edi: "Umumta'lim maktablarida tasviriy va amaliy san'atni o'qitish, ta'limning asosiy maqsadiga aylanmasligi, balki shaxsni insonparvar qilib tarbiyalash va kamol topishi uchun muhim vosita sifatida qaralishi zarur. Xalqqa nafaqat ustoz

san'atkorlar, balki badiiy ilmiy, estetik jihatdan kamol topgan yetuk kadrler kerak" [2].

Shuning uchun bolalarni ruhiy va hissiy idrok, axloqiy va ma'naviy rivojlanishga hissa qo'shadigan jahon va milliy badiiy madaniyati va san'atining qadriyatli fazilatlarini bilan tanishtirish eng muhim vazifa bo'lishi kerak. "Bu muammoni hal etishning eng samarali vositasi esa tasviriy va amaliy san'atni o'qitish hamda o'rgatishdir.

B.P. Yusovning fikricha, estetikaning eng samarali vositasi bolalar shaxsini tarbiyalash va rivojlantirish - bu san'atning (adabiyot, musiqa, raqs, tasviriy va amaliy san'at), integratsiyalashgan yagona ta'lim jarayonidir" [5]. Integratsiya jarayonlari san'atning barcha turlarini birlashtirgan ko'p tizimli va shaxsning ko'p madaniyatli rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ko'p ovoqli (polifonik) idrok, plastika, ritm, belgi, ramz, tovush va ranglar yordamida "badiiy tasviriy tushunish, boshdan kechirish va amalga oshirish mumkin bo'lganlarni yaratish olish" yoshlikdan boshlab turli xil badiiy faoliyat turlarining asoslarini anglash va idrok etishga imkon beradi. Shuningdek, san'atning turli sohalarida boshlang'ich ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Y.A.Poluyanovning konsepsiyasi ham tasviriy va amaliy san'at va badiiy asarni "go'zallikni yaratish universal tamoyillari: o'lchov, ritm, simmetriya, nisbatlar, kompozitsion va konstruktiv muvozanat, o'lchamlarning mutanosibligi, shakllarning izchilligi va go'zalligi" orqali birlashtirgan integratsiyaga asoslanadi. ranglar, turli materiallarning mosligi va hokazo." [3]. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, o'qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyati orqaligina loyihalashtirish faoliyatini rivojlantirish, kreativ loyihalash faoliyatini rivojlantirish amalga oshadi. Badiiy asarlarni birgalikda(jamoad) muhokama qilish, tahlil qilish asosida tasviriy va amaliy san'at kompozitsiyalarni o'rganish va chuqur o'zlashtirish imkonini beradi, bu esa talabalarning o'z faoliyati natijasini mustaqil baholash ko'nikmalarini egallashga yordam beradi.



2.1.1-rasm. Badiiy faoliyat turlari

S. E. Ignatievning tadqiqotida asosiy e'tibor tasviriy va amaliy san'atni o'qitish jarayonida talabalarning obrazli tafakkuri va tasavvurini rivojlantirishga qaratilgan eng samarali vositasi, o'quv va ijodiy vazifalarning o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirish imkonini beruvchi mavzuli va badiiy ijodiy kompozitsiyalarni bajarishdir

"T.Y. Shpikalovning amaliy san'atni o'qitish muammosini o'rganish natijasi amaliy san'at vositasi orqali talabalar uchun badiiy va estetik tarbiya dasturini ishlab chiqish bo'ldi. Ushbu dasturning asosiy tarkibiy qismi o'zaro bog'liq bo'limlar shaklida ifodalangan xalq madaniyatining turli shakllarini birlashtirishdir." [5] badiiy asarlar, tasviriy san'at, xalq san'ati. Olimning fikricha, vazifalarning xilma-xilligi, material va ishlash texnikasini erkin tanlash bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishni faollashtiradi va ularning milliy o'ziga xosligini tushunish va shakllantirishga yordam beradi. R. Xasanov, S.S. Bulatov va boshqalarning tadqiqotlarida umumiy maktab ta'limi tizimida tasviriy va amaliy san'atni o'qitish muammolari keng o'rganilib, ular darslarning mazmunini asoslab berdi va o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uslub va usullarini aniqladi. N.A. Muslimov tadqiqotlarida talabalarning badiiy va ijodiy qobiliyatlarini. Qo'ysinov, Sh. Sharipov "dunyogarash va bir xil o'zlikni anglashning eng muhim omili bo'lgan amaliy san'atni o'qitish nazariyasi va metodikasiga e'tibor qaratadi. Olimlarning ta'kidlashicha, tasvirlar, ramzlar, belgilar bilan ifodalangan xalq ijodiyoti bolalar uchun atrofda dunyo va uni o'zgartirish imkoniyatlari haqida bilish usullaridan biridir. Obyektiv-fazoviy muhit yordamida maktab o'quvchilarining shaxsini rivojlantirish va tarbiyalash muammosi S. S. Bulatov tomonidan o'rganilgan. Uning fikricha, xalq dekorativ san'ati estetik va badiiy rivojlanishning asosiy elementi bo'lib, atrof-muhitda tashkiliy rol o'ynaydi. Shunday qilib, ilmiy-nazariy yordam olgandan so'ng, xalq dekorativ san'ati umumiy maktab ta'limida" [5] faol qo'llanila boshlandi. Bundan tashqari, 1990 yilgacha xalq dekorativ san'ati bo'yicha oliy o'quv kurslari kam edi. Ishlab chiqarish va hunarmandchilik bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash turli xil o'rta maxsus o'quv yurtlarida olib borildi, ularning aksariyati hanuzgacha maktab deb nomlandi.

Tadqiqot metodologiyasi. XX asr oxirida Oliy ta'lim muassasalarida San'atshunoslik fakultetlarida "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" yo'nalishi bo'yicha o'qituvchilar tayyorlash boshlandi. Oliy ta'lim tizimida tasviriy san'atni o'qitish kontseptual asoslariga tayangan izchil metodik tizim ishlab chiqildi yetakchi rassom-pedagoglarning ilmiy g'oyalari va nazariy-metodik ta'minlanishlari, turli ta'lim tashkilotlarida badiiy hunarmandchilikni o'qitish mazmuni, shakl va uslublari yagonaligiga erishildi. Xususan, amaliy san'atning keng tarqalmagan turlari, masalan, yog'och o'yimkorligi, kandakorlik, kulolchilik, zardo'zlik, bo'rtma o'yimkorlik, oliy ta'limning o'quv rejalariga fan sifatida kiritilib o'qitila boshlandi. O'quv jarayonida asosan kompozitsion masalalarni yechishga qaratilgan hunarmandchilik malakalarini shakllantirish vazifalari belgilandi. Shu bilan birga, shaxsning ijodiy o'zini-o'zi rivojlantirish masalalariga yetarlicha e'tibor berila boshlandi. Shu tariqa oliy ta'lim tizimiga boshlang'ich va o'rta kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun an'anaviy amaliy san'at ustalari tayyorlash yo'lga qo'yildi.

5110800 "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" yo'nalishining avvalgi davlat ta'lim standartlarida faqat maktablar va kasb-hunar maktablari uchun tasviriy san'at va chizmachilik mutaxassislarini tayyorlashga qaratilgan edi. Hozirgi davrga kelib ushbu standartlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib amaliy san'atga oid fanlariga ham katta miqdorda soatlar ajratilgan. "Darhaqiqat, ushbu standartning paydo bo'lishi xalq amaliy san'ati sohasida oliy kasbiy ta'limni shakllantirishdagi birinchi qadam edi. Mutaxassisning bilim va ko'nikma darajasiga qo'yiladigan talablarni aniqlash majburiyat va o'zgaruvchanlik tamoyillariga asoslanib, oliy ta'lim va kasb-hunar ta'limining fundamental xususiyatini saqlab qolish imkonini berdi. Yangi ixtisoslik doirasida oliy ta'lim muassasalarida Xalq amaliy bezak san'atining turli turlarini (yog'och o'yimkorligi)" [5], kulolchilik, zardo'zlik, ganchkorlik va boshqalar bo'yicha ixtisoslashtirilgan ustaxonalar ochildi. Shu bilan birga, xalq amaliy san'ati turlari bir-biriga qarama-qarshi emas, balki yagona ta'lim tizimini qabul qilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 16 iyuldagi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti" da 60210800-Amaliy san'at (turlar bo'yicha) bakalavr bosqichi 4 yil va 70210801-Tasviriy va amaliy bezak san'ati magistratura bosqichi 2 yil qilib belgilangan.

Ehtimol, ushbu o'ziga xos ijod turlarini tanlash rivojlanayotgan ishlab chiqarish talablari bilan bog'liq, Oliy ta'limning umumiy talablariga javob beradigan standart uyushma va milliy-mintaqaviy komponentlarni, shuningdek, talaba tanlagan fanlar

va ixtiyoriy fanlarni o'z ichiga olgan blokli tarkibga ega edi. Uyushma komponent standartning o'zgartmas yadrosi bo'lib xizmat qildi va talabalarning asosiy umumiy madaniy, shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan. O'zgaruvchan qism tanlagan ta'lim yo'nalishi bo'yicha bilim, ko'nikma va ko'nikmalarni egallashni o'z ichiga oladi. Garchi ushbu standart pedagogik faoliyat turini o'z ichiga olmasa ham, tasviriy va amaliy bezak san'ati o'qituvchilarini tayyorlashni nazarda tutadi. Ammo bazaviy ta'lim dasturiga qo'yiladigan yangi talablar munosabati bilan oliy ta'limning davlat ta'lim standartiga muvofiq amaliy san'atni o'qitish bo'yicha o'quv jarayonini va ta'lim mazmunini tashkil etish bo'yicha uslubiy ishlanmalar mavjud.

Binobarin, S.S. Bulatovning O'zbek xalq amaliy bezak san'ati nomli asarlari, talaba yoshlarni amaliy san'at kompozitsiyalarini tayyorlash muammosini hal etishga bag'ishlangan yuksak ilmiy ahamiyatga ega edi. B.Boymetov o'z tadqiqotlari tasvirini yaratishda qalamtasvir va rangtasvir vazifalarining o'zaro ta'siridan iborat bo'lgan tasviriy savodxonlikni o'rgatish metodologiyasiga yondashuvlarning o'zgaruvchanligi alohida qiziqish uyg'otadi. "O'qitishning maqsad, vazifalari, mazmuni, shakllari va usullarini asoslab, A. Sulaymonov tomonidan shakllantirilgan "Rang munosabatlari nazariyasi" sezilarli darajada kengaytirdi, maktab, professional ta'lim va oliy ta'lim uchun rangshunoslik, rangtasvir va amaliy bezak kompozitsiyasi bo'yicha o'quv vazifalari tizimini ishlab chiqdi.

Umumta'lim maktablarida tasviriy va amaliy san'atni o'qitish mazmunida milliy komponentni asoslash muammosi bir vaqtning o'zida ikkita tadqiqotning mavzusi bo'ldi" [6]. (R. Xasanov, A. Sulaymonov). Mualliflar milliy-mintaqaviy komponentni aniqlash uchun o'zlarining formulalarini taklif qilishdi va alohida hududlarda maxsus ishlab chiqilgan o'qitish modellarini sinab ko'rishdi. Milliy komponentning mazmunini tanlash bo'yicha universitet metodologiyasi S.S. Bulatovning tadqiqot ishlarida o'rganilgan. Olim milliy komponentdagi fanlarning mazmunini jihatiga e'tibor qaratdi, ularning rivojlanishida tarixiylik, murakkablik va integratsiya tamoyillariga amal qilish lozim.

"O'qitishning yakuniy natijasini tushunishdan kelib chiqqan holda, o'quv dasturi aniq amaliy muammolarni hal qilishga qaratilgan ma'lum fanlar bilan to'yingan bo'lishi yoki ma'lum bir bosqich dasturiga tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan bo'lishi kerak. Kasbiy faoliyat turlarini tanlash muammosi rivojlanayotgan mehnat bozorida bitiruvchiga qachon va qayerda talab bo'lishi" [5], shuningdek Davlat ta'lim standarti tomonidan taklif qilingan faoliyat turlaridan qaysi biri noma'lumligi bilan bog'liq.

Tahlil va natijalar. Bizning tadqiqotimiz uchun shuni ta'kidlash kerakki, Amaliy san'at mutaxassislarini va tasviriy san'at o'qituvchilarini hozirgi kunda nafaqat ixtisoslashtirilgan san'at maktablari va oliy ta'lim muassasalarida, balki madaniyat boshqarmalari va professional ta'lim muassasalarida ham faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, tayyorgarlik asosiy standart doirasida ham amalga oshiriladi.

"Bakalavriat tizimida amaliy san'atni o'qitish jarayonida o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash uchun biz oliy san'at maktabida mavjud o'qitish usullarini ko'rib chiqamiz. 1997 yilgi Davlat ta'lim standartida ko'rsatilgan fanlar ro'yxati bilan bog'liq holda shuni ta'kidlash joizki, pedagogik muhit bo'lajak amaliy san'at ustalariga qalamtasvir, rasm va haykaltaroshlikni o'rgatish muammolarini o'rganish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini faollashtirdi.

Amaliy san'at yo'nalishi bo'yicha talabalarni kasbiy tayyorlash jarayonida rasm o'qitishning" [5] xususiyatlari R. Xasanov, B. Boymetovlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'rganilgan. Mualliflar tarixiy shakllangan rasm usullarini amaliy san'atning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirish, tabiiy obyektlarni ijodiy uslublash va talqin qilish usullarini o'zlashtirish orqali o'rganish zarurligiga e'tibor qaratmoqdalar. Tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan ijodiy vazifalar tabiatni to'g'ridan-to'g'ri takrorlashdan tortib, mustaqil badiiy ijodgacha bo'lgan kognitiv faoliyat darajasini bosqichma-bosqich oshirish talablariga javob beradi. Ular noyob badiiy tasvirni yaratishda o'zlarining vizual qarashlarini aks ettiradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, talabalarda ma'lum bir hunar va amaliy san'at (rasm chizish, zardo'zlik, kulolchilik, kashtado'zlik va zargarlik san'ati va boshqalar) bo'yicha ma'lum bir ixtisoslik fanlari katta qiziqish uyg'otadi. "Mualliflar xalq amaliy bezak san'atni o'qitishning ko'p qirrali muammosining turli tomonlarini ochib beradilar, asosiy e'tiborni muayyan muammolarning yechimini topishga qaratadilar. Ijodiy qobiliyatlarini, fazoviy fikrlashni, amaliy san'atning muayyan turlari bo'yicha maxsus ko'nikmalarni

rivojlantirish muammolari yuqorida sanab o'tilgan tadqiqotlar oliy o'quv yurtida o'quv jarayonini tashkil etishda yuqori ilmiy, pedagogik va uslubiy ahamiyatga ega ekanligi shubhasiz"[5]. Shu bilan birga, bu usullar faqat alohida didaktik muammolarni hal qiladi. Bundan tashqari, maxsus fanlari bo'yicha o'qitish va darslar, mavzular va vazifalarning yangi shakllarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Universitetda to'rt yillik o'qish davomida talabalar ijtimoiy va g'oyaviy munosabatlarni rivojlantirishlari, ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyatda tajriba orttirishlari kerak. Bu esa birgalikda keyingi kasbiy o'z-o'zini belgilashni ta'minlaydi. Talaba bakalavr bosqichini tugatgandan so'ng magistraturaga, qo'shimcha ta'lim tizimiga o'tishi yoki ba'zan boshqa kasbiy sohada ish topishi mumkin buladi.

“Shuning uchun oliy ta'limning zamonaviy ta'lim standartlarida o'qish vaqtining kamida 40% fakultativ fanlarga va asosiy o'quv dasturini o'zlashtirishning umumiy vaqtining 60% mustaqil ishlarga ajratilgan. Ma'ruza shakli bilan taqqoslaganda, talabalarning mustaqil ishlash vaqti ko'pincha ta'lim sifatini oshirish va mutaxassislarni tayyorlash uchun eng samarali hisoblanadi. Aynan mustaqil ishni tashkil etish hozirgi vaqtda uslubiy yordamni talab qiladigan eng murakkab muammo hisoblanadi. Mustaqil ish muammosi yangilik emas"[5]. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda o'qituvchining rolini aniqlash V. P. Bepalko, N. A. Moreva, N. F. Talizina va boshqalarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Olimlarning asarlarida “mustaqil ish” tushunchasi muallifning uning asosiy tarkibiy qismlari – o'quvchilar va

o'qituvchilar faoliyati to'g'risidagi tushunchasiga qarab turlicha talqin qilinadi. Masalan, V. I. Zagvyazinskiy ta'rifiga ko'ra; "mustaqil ish talabalarning bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish, o'qituvchining bevosita rahbarligisiz davom etishi" [1]. B.P.Esipovning fikricha, mustaqil ish o'qituvchining bevosita ishtiroki talab qilmaydigan o'quv faoliyatidir, lekin aniq belgilangan vazifaga muvofiq amalga oshiriladi. N.V.Chekaleva asarlarida mustaqil ish o'qituvchi tomonidan rejalashtirilgan, tashkiliy va uslubiy jihatdan tushuniladi.

Amaliy jarayon uni badiiy ijodning boshqa turlaridan ajralib turishi, bu amaliy bezak san'ati kompozitsiyasini yaratish jarayonining ko'p bosqichli va hajmliligida namoyon bo'lib turadi. O'quv va ijodiy ishlarning yuqori samaradorligi va davomiyligi bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan holda amaliy bezak ishlarni yaratish jarayoni talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etishda o'ziga xos yondashuv, shakl va uslublarni talab qiladi. O'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalarini shakllantirish uchun talabning mustaqil ishlashi ta'limning barcha bosqichlarida zarur. Amaliy va badiiy bezak san'ati ustalarini tayyorlashda amaliyot yetakchi rol o'ynashi bejiz emas, bu talabalarning amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga, ularni ijtimoiy moslashishi jamoada ishlash qobiliyatini egallashga yordam beradi. Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, davlat ta'lim standartlarida belgilangan amaliyotlarning davomiyligi amaliy san'atning barcha xususiyatlarini tushunish uchun etarli deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR

1. Markova, A.K. Psixologiya professionalizma [Tekst] /A.K. Markova. M., 1996. – 306 s.
2. Rozenvasser, V.B. Besedi ob iskusstve [Tekst]: posobiye dlya uchi- teley nach. klassov / V.B. Rozenvasser. – M.: Prosvesheniye, 1979. – 183 s.
3. Smolkin, A.M. Metodi aktivnogo obucheniya [Tekst]: nauch.-metod. posobiye / A.M. Smolkin. – M.: Viss. shk., 1991. – 176 s.
4. Sovetskiy ensiklopedicheskiy slovar [Tekst] : 4-ye izd., ispr. I dop/ gl. red. A.M. Proxorov. - 4-ye izd., ispr. i dop. – Moskva : Sov. ensiklo- pediya, 1989. – 1630 s.
5. Shokorova, L.V. Aktivizatsiya tvorcheskogo samorazvitiya studentov-bakalavrov dekorativno-prikladnogo iskusstva:dissertatsiya...doktora pedagogicheskix nauk : 13.00.02 / Omsk, 2020. – 384 s.
6. <https://base.garant.ru/58084938/> [01],



Nabira KERIMBAYEVA,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti 2 bosqich doktoranti
E-mail: nabirakarjaubovna@mail.ru

DSc, dotsent E.Vohidov taqrizi asosida

THE CONTENT AND ESSENCE OF DIDACTIC OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS

Annotation

This study explores didactic opportunities to promote the professional development of prospective teachers. The study uses mixed methods combining surveys, interviews, focus group discussions, classroom observations, and pre- and post-tests to collect comprehensive data. The results show that collaborative learning, reflective practice and hands-on teaching experience play a crucial role in improving the pedagogical, social and reflective skills of future teachers. However, challenges such as technology integration, time constraints, and balancing theory with practice were identified. The study emphasizes the importance of combining didactic strategies with practical experiences and offers recommendations for optimizing teacher education programs.

Key words: Professional competence, Didactic strategies, Teacher education, Collaborative learning, Reflective practices.

СОДЕРЖАНИЕ И СУТЬ ДИДАКТИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация

В этом исследовании изучаются дидактические возможности для содействия профессиональному развитию будущих учителей. В исследовании используются смешанные методы, сочетающие опросы, интервью, обсуждения в фокус-группах, наблюдения в классе, а также предварительные и последующие тесты для сбора комплексных данных. Результаты показывают, что совместное обучение, рефлексивная практика и практический опыт преподавания играют решающую роль в улучшении педагогических, социальных и рефлексивных навыков будущих учителей. Однако были выявлены такие проблемы, как интеграция технологий, временные ограничения и баланс теории с практикой. В исследовании подчеркивается важность сочетания дидактических стратегий с практическим опытом и предлагаются рекомендации по оптимизации программ подготовки учителей.

Ключевые слова: Профессиональная компетентность, дидактические стратегии, педагогическое образование, совместное обучение, рефлексивные практики.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI MAZMUNI VA MOHIYATI

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy malakasini rivojlantirishga yordam beradigan didaktik imkoniyatlarni o'rganadi. Tadqiqot keng qamrovli ma'lumotlarni to'plash uchun so'rovlar, intervyyular, fokus-guruh muhokamalari, sinfdagi kuzatuvlar va oldingi va keyingi testlarni birlashtirgan aralash usullardan foydalanadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, hamkorlikda o'rganish, aks ettirish amaliyoti va amaliy o'qitish tajribasi bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik, ijtimoiy va reflektiv qobiliyatlarini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Biroq, texnologiya integratsiyasi, vaqt cheklovlari va nazariy amaliyot bilan muvozanatlash kabi muammolar aniqlandi. Tadqiqot didaktik strategiyalarni amaliy tajribalar bilan uyg'unlashtirish muhimligini ta'kidlaydi va o'qituvchilarning ta'lim dasturlarini optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar taklif qiladi.

Kalit so'zlar: Professional kompetentsiya, Didaktik strategiyalar, O'qituvchi ta'limi, Hamkorlikda o'rganish, Reflektiv amaliyotlar

Kirish. Tez o'zgaruvchan ta'lim landshaftida o'qituvchilar nafaqat fanga oid bilimlar, balki keng ko'lami kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak. Pedagogik, uslubiy, ijtimoiy va fikrlash qobiliyatlari kabi bu kompetensiyalarni rivojlantirish 21-asr sinflari talablarini qondirish uchun juda muhimdir. Samarali o'qituvchilar ta'lim dasturlari bo'lajak o'qituvchilarga nazariya va amaliyotni bog'lash imkonini beruvchi didaktik strategiyalarni o'z ichiga olishi kerak, bu esa ularning talabalar uchun mazmunli ta'lim tajribasini rivojlantirishga tayyorligini ta'minlaydi.

Didaktika o'qitish fani va san'ati sifatida o'qituvchilarni tayyorlash dasturlarida o'rganishni tashkil etish, etkazib berish va baholash uchun qimmatli asoslarni taqdim etadi. U tuzilgan, mazmunli faoliyat orqali kasbiy kompetensiyani egallashga yordam beruvchi usullar, tamoyillar va strategiyalarni o'z ichiga oladi. Biroq, o'qituvchilikka nomzodlarga nazariy bilimlarni ochib berishning o'zi yetarli emas. Shuningdek, ularga chuqur tajriba, mulohaza yuritish imkoniyatlari va ularning o'rganishi va o'sishini yaxshilaydigan zamonaviy vositalar va texnologiyalardan foydalanish kerak.

Ushbu maqola bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradigan didaktik imkoniyatlarning mazmuni va mohiyatini o'rganishga qaratilgan. U faol ta'lim yondashuvlari, reflektiv amaliyotlar, fanlararo strategiyalar va texnologik yutuqlarni birlashtirishga qaratilgan. Bundan tashqari, maqola amaliy mashg'ulotlar, hamkorlikdagi o'quv muhiti va murabbiylik dasturlari o'qituvchilarning malakasini oshirishga va uzluksiz kasbiy rivojlanishni rag'batlantirishga qanday hissa qo'shishini o'rganadi.

Muammolarni hal qilish va ularni bartaraf etish strategiyalarini taklif qilish orqali ushbu tadqiqot o'qituvchilar, o'qituvchilar trenerlari va siyosatchilar uchun samarali o'qituvchilar ta'lim dasturlarini ishlab chiqish uchun tushuncha beradi. Didaktik tamoyillar va usullardan ataylab foydalanish orqali bo'lajak o'qituvchilar qiziqarli o'quv muhitini yaratish, o'quvchilarning muvaffaqiyatini qo'llab-quvvatlash va o'z faoliyati davomida kasbiy o'sishni saqlab qolishda ko'proq mahoratga ega bo'lishlari mumkin.

O'qituvchilarda kasbiy kompetensiyani rivojlantirish bir-biri bilan bog'liq bo'lgan ko'plab jihatlarini o'z ichiga oladi. Shulmanning (1987) pedagogik mazmundagi bilim (PK) kontsepsiyasi asos bo'lib, fanga oid bilimlarni samarali o'qitish strategiyalari bilan integratsiyalash muhimligini ta'kidlaydi. Darling-Hammond (2006) ga ko'ra, kasbiy kompetentsiya nafaqat o'qitish qobiliyatlarini, balki o'quvchilarning turli ehtiyojlariga javob berish, sinflarni samarali boshqarish va uzluksiz o'rganish bilan shug'ullanish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi.

Tadqiqotlar ushbu kontsepsiyani ijtimoiy va hissiy kompetensiyalarni o'z ichiga olgan holda yanada kengaytirdi. Zayxner va Liston (2013) aks ettirish qobiliyatining muhimligini ta'kidlab, o'qituvchilar o'z amaliyotlarini moslashtirish uchun tanqidiy fikrlash va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishlari kerakligini ta'kidlaydilar. Ushbu aks ettiruvchi jihat umrbod ta'lim olish va kasbiy o'sishni ta'minlash uchun muhim hisoblanadi.

Didaktika o'qituvchi ta'limida o'quv jarayonini tizimlashtirish uchun asos yaratadi. Faoliyatga asoslangan ta'lim, fanlararo o'qitish va o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim professional kompetensiyani rivojlantiruvchi asosiy didaktik usullardan biridir.

Korthagen (2001) amaliy tajribani nazariy ta'lim bilan birlashtirgan didaktik yondashuv bo'lgan realistik o'qituvchi ta'limini ta'kidlaydi. Ushbu modelda fikrlash nazariyani amaliyot bilan bog'lashda markaziy rol o'ynaydi.

Biggs va Tang (2011) fikriga ko'ra, o'quv maqsadlari baholash vazifalari va o'qitish faoliyati bilan mos keladigan konstruktiv moslashuv o'qituvchining malakasini rivojlantirishning hal qiluvchi didaktik tamoyilidir. Bu bo'lajak o'qituvchilarning nafaqat ta'lim nazariyalarini tushunishlarini, balki ularni o'qitish amaliyoti va hayotiy o'qitish holatlarida samarali qo'llashlarini ta'minlaydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hamkorlikda o'rganish jamoaviy ish, muloqot va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali professional kompetensiyani oshiradi. Vygotskiyning (1978) proksimal rivojlanish zonasi kontsepsiyasi shuni ko'rsatadiki, o'rganish ko'proq bilimdon tengdoshlar yoki murabbiylar bilan o'zaro aloqada bo'lganda samaraliroq bo'ladi. O'qituvchilar ta'limida hamkorlikda o'rganish bo'lajak o'qituvchilarga munozaralar va jamoaviy ish orqali tajriba almashish, muammolar haqida fikr yuritish va bilimlarni birgalikda qurish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu bo'lim bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini o'rganish uchun qo'llaniladigan tadqiqot dizayni, usullari, ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish usullarini belgilaydi. Mavzuni har tomonlama tushunishni ta'minlash uchun sifat va miqdoriy yondashuvlar kombinatsiyasidan foydalanildi.

Tadqiqotda o'qituvchi ta'limidagi didaktik imkoniyatlarning mazmuni va mohiyatini o'rganish uchun aralash metodli tadqiqot loyihasi qabul qilindi. Ushbu yondashuv sifat va miqdoriy tadqiqotlarning kuchli tomonlarini birlashtirib, tendentsiyalar va naqshlarning statistik tahlili bilan bir qatorda ishtirokchilar tajribasini chuqurroq o'rganish imkonini beradi.

Sifat komponenti: Suhbatlar, fokus-guruh muhokamalari va sinfda o'tkazilgan kuzatuvlar o'qituvchilar va tinglovchilarning tajribalari va tasavvurlari haqida boy, batafsil tushunchalar berdi.

Miqdoriy komponent: Didaktik strategiyalar samaradorligini baholash va kasbiy kompetensiyani rivojlantirishni o'lchash uchun so'rovlar va oldingi va keyingi testlardan foydalanildi.

Tadqiqotda ikki guruh ishtirokchilar ishtirok etdi:

O'qituvchi stajyorlari: Tadqiqotda turli xil o'qituvchilar ta'lim dasturlari bo'yicha 150 nafar bo'lajak o'qituvchilar ishtirok etdilar. Ishtirokchilar xilma-xillikni ta'minlash uchun turli fanlardan tanlab olindi.

O'qituvchilar va murabbiylar: 30 nafar tajribali o'qituvchilar, jumladan universitet professorlari va o'qituvchilarni tayyorlash dasturlarida ishtirok etgan murabbiylar intervyu va sinfda kuzatishlar orqali o'z hissalari qo'shdilar.

Natijalar va tahlillar

Ushbu bo'lim so'rovlar, intervyular, fokus-guruh muhokamalari, sinfda kuzatishlar, oldingi va keyingi testlar orqali to'plangan ma'lumotlarga asoslangan tadqiqot natijalarini taqdim etadi. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda didaktik strategiyalarning samaradorligini baholash uchun ham miqdoriy, ham sifat natijalari tahlil qilinadi.

So'rov natijalari

150 nafar o'qituvchi stajyorlarining so'rovnomalari o'z dasturlarida qo'llaniladigan didaktik strategiyalar haqida ijobiy fikr bildirgan:

Ishtirokchilarning 78 foizi hamkorlikda o'rganish jamoaviy ish va muloqot ko'nikmalarini oshirishda samarali ekanligini aniqladi.

72% aks ettiruvchi amaliyotlar (masalan, jumallar va tengdoshlarning fikr-mulohazalari) ularga o'qitish usullarini tanqidiy tahlil qilish va takomillashtirishga yordam berganligini bildirdi.

68% o'qitish amaliyoti davomidagi amaliy tajribani sinfni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishning eng qimmatli komponenti sifatida aniqladi.

So'rovda raqamli vositalarning roli ham ko'rib chiqildi:

Talabalarning 65 foizi texnologiya takomillashtirilgan o'quv platformalari (masalan, LMS) kurs materiallarini yanada qulayroq qilishini ta'kidlaydi.

Pedagogik bilimlar

Sinfni boshqarish malakalari

Reflektiv fikrlash qobiliyatlari $60,85 < 0,05$

Imtihondan oldingi ball (%)	Testdan oldingi ball (%)	Testdan keyingi ball (%)	p-qiymati
Pedagogik bilimlar	65	82	< 0,05
Sinfni boshqarish malakalari	58	80	< 0,05

Biroq, 30% o'qitish amaliyoti davomida texnologiyani integratsiyalashda qiyinchiliklarni qayd etib, ko'proq o'qitish zarurligini ta'kidlaydi.

Pedagogik stajyorlarning malaka oshirish jarayonida ularning kasbiy kompetensiyasining rivojlanishini o'lchash uchun oldingi va keyingi testlar o'tkazildi. Natijalar asosiy vakolat sohalarida sezilarli yaxshilanishni ko'rsatdi:

Pedagogik bilimlar: O'rtacha ball 65% dan 82% gacha ko'tarildi.

Sinfni boshqarish ko'nikmalari: Ballar 58% dan 80% gacha yaxshilandi.

Reflektiv fikrlash: 60% dan 85% gacha sezilarli sakrash kuzatildi.

Juftlangan t-testi barcha sohalarda statistik jihatdan sezilarli yaxshilanishni ko'rsatdi ($p < 0,05$), bu amalga oshirilgan didaktik strategiyalarning samaradorligini ko'rsatadi.

O'qituvchilar va tinglovchilar fokus-guruh muhokamalarida hamkorlikda o'rganishning ahamiyatini ta'kidladilar. Stajyorlardan biri ta'kidlaydi: "Tengdoshlar bilan ishlash menga turli xil o'qitish nuqtai nazarini ko'rishga imkon berdi, bu esa samarali o'qitish amaliyotlari haqidagi tushunchamni kengaytirdi".

Mentorlar, shuningdek, jamoalarda dars rejalashtirish kabi hamkorlikdagi faoliyatlar, haqiqiy o'qitish muhitini aks ettirgan va tinglovchilarni hamkasblar bilan jamoaviy ishlashga tayyorlagani haqida xabar berishdi.

Fikrlash amaliyotlari samarali ekanligi aniqlangan bo'lsa-da, tinglovchilar ham, murabbiylar ham qiyinchiliklarni aniqladilar. Ba'zi ishtirokchilar vaqt cheklovlari va yo'l-yo'riq yo'qligi sababli doimiy ravishda o'z-o'zini mulohaza yuritishda qiynaldi. Bir ustoz shunday deb izoh berdi: "Reflektiv jurnalni yuritish foydalidir, lekin u haqiqatan ham samarali bo'lishi uchun tuzilma va fikr-mulohazalarni talab qiladi."

Suhbatlar texnologiyadan foydalanish bo'yicha turli xil fikrlarni aniqladi. Raqamli vositalar resurslarga kirishni osonlashtirgan bo'lsa-da, ba'zi tinglovchilar cheklangan infratuzilma va ba'zi vositalar bilan tanish bo'lmaganliklari sababli haqiqiy sinflarga texnologiyani integratsiyalash bilan kurashdilar. Bir stajyor shunday dedi: "Men raqamli platformalardan qanday foydalanishni bilaman, lekin texnologiyani boshqarish va haqiqiy sinfda dars berish ba'zida juda qiyin edi."

Sinfda kuzatish natijalari

Amaliy mashg'ulotlar davomida o'tkazilgan kuzatishlar tinglovchilarning nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashlari haqida tushuncha berdi. Asosiy topilmalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Sinfni boshqarish: tinglovchilar o'qituvchilarning xatti-harakatlarini boshqarish va sinf faoliyatini tashkil etishda yaxshilanishlarini ko'rsatdilar. Biroq, ba'zilar kutilmagan vaziyatlarga moslashishda qiynaldi.

Didaktik usullardan foydalanish: Ko'pgina tinglovchilar talabalarga yo'naltirilgan o'qitish usullaridan, jumladan, guruh faoliyati va muammoli o'qitish usullaridan samarali foydalanishlar.

Mulohaza va fikr-mulohazalar: Reflektor amaliyotlarida faol ishtirok etgan tinglovchilar vaqt o'tishi bilan yaxshilanishlarini ko'rsatdilar, chunki ular fikr-mulohazalar asosida o'z usullarini moslashtira oldilar.

Ma'lumotlardan bir nechta qiyinchiliklar paydo bo'ldi:

Cheklangan texnologik infratuzilma: Ba'zi tinglovchilar o'zlarining amaliy mashg'ulotlari davomida zarur texnologiyalarga kirishda qiyinchiliklarga duch kelishgan.

Vaqt cheklovlari: Talabalar ham, murabbiylar ham vaqt cheklovlari ularning mazmunli fikr yuritish qobiliyatiga ta'sir qilganini ta'kidladilar.

Nazariya va amaliyotni muvozanatlash: Ba'zi ishtirokchilar nazariy kurs ishlarini o'qitishning amaliy talablari bilan muvozanatlash qiyin deb topdilar.

Didaktik strategiyalarning samaradorligini miqdoriy baholash uchun juftlashtirilgan t-testlar yordamida oldingi va keyingi testlar natijalari tahlil qilindi. Natijalar barcha kompetensiya sohalarida sezilarli yaxshilanishlarni ko'rsatdi, bu esa qo'llaniladigan didaktik usullarning professional kompetensiyani rivojlantirishda samarali ekanligini tasdiqladi.

Reflektiv fikrlash qobiliyatlari	60	85	< 0,05
----------------------------------	----	----	--------

Natijalar shuni ko'rsatadiki, hamkorlikda o'rganish, aks ettirish amaliyoti va amaliy tajriba kabi didaktik strategiyalar bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishga sezilarli hissa qo'shadi. Biroq, o'qituvchilar ta'limi dasturlari samaradorligini optimallashtirish uchun texnologiya integratsiyasi va vaqt cheklovlari bilan bog'liq muammolarni hal qilish kerak.

Xulosa. Natijalar shuni ko'rsatadiki, didaktik strategiyalar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy malakasini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Birgalikda o'rganish, aks ettirish amaliyoti va amaliy o'qitish tajribasining kombinatsiyasi samarali o'qitish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantiradi. Belgilangan muammolarni, xususan, texnologiya va vaqtni boshqarish bilan bog'liq muammolarni hal qilish o'qituvchilarni tayyorlash dasturlari sifatini yanada oshiradi.

ADABIYOTLAR

1. Darling-Hammond, L. (2006). *Powerful Teacher Education: Lessons from Exemplary Programs*. San Francisco: Jossey-Bass.
2. Shulman, L. S. (1987). Knowledge and Teaching: Foundations of the New Reform. *Harvard Educational Review*, 57(1), 1-22.
3. Zeichner, K., & Liston, D. (2013). *Reflective Teaching: An Introduction*. New York: Routledge.
4. Korthagen, F. A. J. (2001). *Linking Practice and Theory: The Pedagogy of Realistic Teacher Education*. New Jersey: Lawrence Erlbaum Associates.



UDK: 1 (092).

Latifa KORAYEVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi PhD
E-mail: latifa@mail.ru.

Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi PhD L.Suvonova taqrizi asosida

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA O'QUV FAOLIYATIGA QIZIQISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv faoliyatiga qiziqishning pedagogik va psixologik xususiyatlari o'rganilgan. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarni o'qitish jarayoni, o'quv faoliyatining asosiy komponentlari: o'quv masalalari, o'quv vaziyatlari, o'quv harakatlari, nazorat qilish va baholash bilan tanishtirishdan boshlanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ta'limga moslashish sifatlarini baholash va to'plangan tadqiqot ishlari natijalarining psixologik tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf o'quvchilari, o'quv biluv, o'quv faoliyati, o'qitish jarayoni, o'quv faoliyatining asosiy komponentlari, ta'limga moslashish.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИНТЕРЕСА К УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация

В статье изучаются педагогические и психологические особенности интереса к учебной деятельности учащихся начальных классов. Процесс обучения детей младшего школьного возраста начинается с введения основных компонентов учебной деятельности: учебных вопросов, учебных ситуаций, учебной деятельности, контроля и оценки. Представлены оценка качеств адаптации учителей начальных классов к образованию и психологический анализ результатов собранной исследовательской работы.

Ключевые слова: Младшие школьники, учебные знания, учебная деятельность, учебный процесс, основные компоненты учебной деятельности, адаптация к образованию.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF INTEREST IN LEARNING ACTIVITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Annotation

In this article, the pedagogical and psychological features of interest in educational activities among primary school children are studied. The process of teaching children of primary school age begins with the introduction of the main components of educational activities: educational issues, educational situations, educational activities, control and evaluation. Assessment of the qualities of adaptation of primary school teachers to education and a psychological analysis of the results of the collected research work are presented.

Key words: Primary school students, educational knowledge, educational activity, teaching process, main components of educational activity, adaptation to education.

Kirish. Boshlang'ich sinflarda yuqori bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun o'quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar majmuasiga o'quvchilarning motivlari sohasini o'rganish masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni erkin fikrlovchi, yangilikka intiluvchi va barkamol inson qilib tarbiyalash boshlang'ich sinflardan olib boriladi, bu jarayon muhim vazifalardan biridir. Shu sababdan ham ta'lim mazmuni tubdan yangilanib borilmoqda. Kichik maktab yoshi davrida bolada mustaqil ta'lim olish motivlari yuzaga kelib, ular eng oddiy shaklda – bilimlarni olish bilan birgalikda qo'shimcha manbalarga va turli mavzulardagi kitoblarni o'qishga qiziqishi bilan yuzaga keladi. Ijtimoiy motivlar birinchi sinfga kelgan bolaning differensial bo'lmagan, umumiy tushunishdan o'qish va o'rganishning zarurligi sabablarini anglashda, "o'zi uchun" o'qish mazmunini anglab yetishda ijtimoiy motivlarni amaliy xarakter kasb etishiga sababchi bo'ladi. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning yetakchi faoliyati bo'lgan o'qish shu yoshdagi bolalar psixikasi rivojidadagi o'zgarishlarni belgilab beradi. Maktab ta'limi o'quvchining turmush tarzini, ijtimoiy mavqegini, sinf jamoasi va oila muhitidagi o'rni o'zgartiradi. Uning vazifasi o'qishdan, bilim olish, ko'nikma va malakalarni egallash, o'zlashtirishdan iborat bo'lib qoladi. Bunda bolalar muhitga moslashishi kerak bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'quv faoliyatlarini murakkab bo'lgan ko'p darajali motivlar tizimi bilan boshqariladi [1].

Adabiyotlar sharhi. D.A. Kiknadzening ta'kidlashicha, har qanday qiziqishlar shaxs ehtiyojlari va uni qoniqtirish shartlari asosida yuzaga keladi va shu bilan birga munosabat motivatsiyasining shakllanishiga ham ta'sir qiladi. A.V. Petrovskiyning fikricha, qiziqishlar shaxsni bilim va tushunchalardan qoniqishga bo'lgan faollikka undaydi. B.I. Dodonov esa qiziqishlarga shaxsni faoliyatga undovchi hissiy faollik sifatida qaraydi. [2].

Tadqiqot metodologiyasi. O'quvchi shaxsini ongli ravishda o'quv faoliyatiga yo'llashda birlamchi omil - bu shaxsning ichki

imkoniyatlari, qiziqishlari, iqtidori hamda ehtiyojlari hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan o'quv jarayonini tashkil etishda sub'ektning (o'quvchining) ichki pozitsiyasini (motivatsiyasini) va unga ta'sir etib turuvchi tashqi muhit bilan mutanosiblik jihatlari tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, o'quvchi o'quv-faolligiga yo'naltirish jarayonining ob'ekti bo'lsa-da, umumiy o'zlikni anglash, ongli munosabat jarayonining sub'ekti hisoblanadi. Munosabat tizimi shkalasida o'quvchilar faoliyatida shakllanayotgan o'quv faolligini tanlash jarayoniga bo'lgan «faol-ijobiy», «ijobiy», «indifferent» munosabatlar motivatsiyasining kichik maktab yoshidagi o'quvchilar xarakteriga mos o'rtacha umumiy, qiyosiy-tipik ko'rsatkichlari ko'lami kiritiladi va bu esa tadqiqot maqsadiga mos ijtimoiy psixologik mezonlarni tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. O'quv faoliyati motivlari o'quvchilar nima uchun o'qiyotganlarini ko'rsatib beradi. Maktabning birinchi sinfiga kelgan bolalarda ijtimoiy motivlar ustunlik qiladi. Bu motivlar atrofda gilar orasida yangi mavqeni egallash, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan va baholaniladigan faoliyat bilan bog'liq bo'lgan motivlardir. O'quvchilarning maktab faoliyatiga bo'lgan munosabatlari motivatsiyasi o'ziga xos harakterga ega bo'lib, ularni aksariyat hollarda "faol - ijobiy", "ijobiy" hamda "indifferent" mezonlar bo'yicha talqin qilish o'rinlidir. Shuningdek, o'quvchi shaxsini kichik maktab davri o'zining ichki ijtimoiy motivatsiya yo'nalishiga nisbatan, yosh, individual, xududiy va etnopsixologik imkoniyatlar va tafovutlar ko'lamining mavjudligi bilan baholanadi. Bu baholash o'quvchi shaxsi tomonidan maktab yoki o'quv faoliyatini qanday tushunish uning ichki hissiy kechinmalariga bog'lash, ayni paytda hissiy – irodaviy sifatlarining namoyon etilishi bilan ham bevosita bog'liq ekanligi yaqqol seziladi. Maktabga birinchi bor kelgan bola o'z faoliyatining tub mohiyati va vazifasini to'la tushunib yetmaydi, balki hamma maktabga borishi kerak deb biladi. Kattalarning ko'rsatmalariga amal qilib tirishqoqlik bilan mashg'ulotlarga kirishib ketadi. Maktab ta'limi esa ko'proq verballikka asoslangan. Professor B.R. Qodirov tadqiqotlarida

ta'kidlanishicha, o'g'il bolalarda aniq fanlarga nisbatan layoqatlar ko'proq rivojlangan bo'lib, ko'rish-fazoviy intellekt baland hisoblansa, qiz bolalarda nutq malakalari ko'proq rivojlangan bo'lib, tafakkur egluvchanligi baland bo'ladi. Birinchi sinfning oxirlariga borib ko'pchilik o'quvchilar o'z maktab majburiyatlariga ma'suliyatsizlik bilan qaray boshlaydilar. Bu bir qancha sabablar bilan bog'liq.

1) Bola endi o'quvchi bo'ldi, o'quvchi bo'lish istagi qondirildi. Bu maqomni ushlab turish uchun hech narsa qilmasa ham bo'ladi.

2) O'quvchining ijtimoiy mavqei maktabda ularga beriladigan o'quv faoliyati mazmuni bilan belgilanmaydi. Bu holat boshlang'ich sinf o'qituvchisidan ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha usullarda yondashish zaruriyatini taqazo etadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda ta'limning dastlabki davridan boshlab yangi imkoniyatlarning o'quv materialini muvaffaqiyatli o'zlashtirishiga emas, balki hayotiy muammolarni yechishga ham tayyorlaydi, o'quvchilarda o'rganish va ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Mazkur masalaga oid aniq vazifalar qo'yidagilarda o'z aksini topgan:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish, o'rganish, o'zlashtirgan bilimlarni qo'llash va ko'nikmalarni shakllantirish;

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yuqori darajada shakllangan bilish jarayoniga, bilish faoliyatiga intilishni kuchaytirish.

Demak, yuqoridagi vazifalardan shu narsa yaqqol namoyon bo'lmoqdaki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatiga qiziqish va moyilliklarini shakllantirish, shuningdek, intilishlarini oshirish muhim omillardan biri bo'lib, mazkur jarayonda o'quvchining individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olish uning asosi hisoblanadi, ya'ni boshlang'ich ta'limning mazmun mohiyatini kashf etadi. Bunday yondashuvsiz ta'limning boshlang'ich pog'onasini sifat-samaradorligini oshirishga erishish mushkuldir. Bu borada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatiga qiziqishlarini shakllantirish maqsadida, o'quv jarayoniga boshlang'ich ta'lim mazmunini integratsiyalashni targ'ib qilish, yangi innovatsiyalarni kiritish, axborot kommunikativ texnologiyalardan unumli foydalanish natijasida ta'lim sifatini oshishga erishiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'quv jarayoniga tayyorlashda o'quvchilarning shaxsiy individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish, o'quv jarayoniga jalb etishning pedagogik-psixologik asosini tashkil etib, ularda o'ziga ishonch hissini shakllantiradi.

O'quvchining o'quv faoliyatini o'zlashtirishi o'quv masalalari tizimini yechish jarayonida amalga oshiriladi O'qishning boshida boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilar mustaqil ravishda o'quv masalalarini qo'yish va yechishni bilmaydilar. Bu vazifani boshida o'qituvchi bajaradi. Asta-sekinlik bilan o'quvchilarning o'zlari ham o'quv masalalarini qo'yish va yechish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni egallay boshlaydilar. Bu mustaqil o'quv faoliyati shakllanishining muhim bosqichidir. O'quv masalalarini ajratib olish boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ma'lum bir qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shuning uchun ham har bir darsning so'ngida o'qituvchi o'quvchilari aniq bir topshiriqlarni bajarishning ma'nosini qanday tushunganliklarini aniqlash uchun vaqt ajratishi kerak. "Biz bugun darsda nimalarni o'rgandik?" tarzidagi savol bolalarga shunchaki daftarda chiziqchalarni chizib, doirachalarni bo'yashni emas, balki sanashni, qo'shishni yoki ayirishni o'rganganlarini tushunishlarida yordam beradi. Agar bola o'quv harakatlarini noto'g'ri bajarsa, bu uning o'quv harakatlarini nazorat va baholash bilan bog'liq harakatlarini bilmasligi yoki ularni yaxshi egallamaganligidan dalolat beradi.

Bolaning mustaqil ravishda bajargan harakatlari natijalarini o'z xatti-harakatlarining xususiyatlari bilan taqqoslay olishlari unda o'z-o'zini nazorat etish layoqati ma'lum darajada shakllanganidan dalolat beradi. Bolalar tafakkuri va nutqining rivojlanishida ovoz chiqarib mulohaza yuritishning va bu uslubdan o'quv jarayonida foydalanishning ahamiyati katta. Ovoz chiqarib mulohaza yuritish va o'z yechimini asoslab berish aqliy sifatlarini o'sishiga xizmat qilib, kishi o'z mulohazalari va xatti-harakatini tahlil etishi va anglashini rivojlantiradi. Boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarda aqliy va o'quv materialini o'zlashtirish imkoniyatlari ancha yuqori hisoblanadi. To'g'ri tashkil etilgan ta'limda bu yoshdagi bolalar o'rta maktab dasturiga ko'rsatilgan bilimlarga nisbatan ko'proq bilimlarni tushunishlari va o'zlashtirishlari mumkin.

Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar o'quv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, shu davrdan boshlab o'quv materialini o'zlashtirishning dastlabki belgilari ko'zga tashlanadi. Boshlang'ich sinf yoshida past o'zlashtirish sabablari va o'qishidagi qiyinchiliklar quyidagilar bilan bog'liqdir:

- 1) neyrofiziologik sabablar;
- 2) bilish jarayonlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- 3) erkin va mustaqil harakat qilish darajasining pastligi;
- 4) motivatsion sohalarning yetarli rivojlanmaganligi;
- 5) oila tarbiyasidagi, oilaviy munosabatlardagi kamchiliklar;
- 6) maktab ta'limi va tarbiyasidagi kamchiliklar;
- 7) o'zaro muloqot va munosabatdagi kamchiliklar;
- 8) shaxs xususiyatlaridagi og'ishishlar.

Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar o'qishidagi qiyinchiliklar bola shaxsining barcha shaxsiy, bilish, motivatsion, hissiy va irodaviy sohalarida aks etadi. Bu qiyinchiliklar o'zaro bir-biri bilan bog'liq. Bir qiyinchilikni bartaraf etilishi ikkinchi qiyinchilikni ham kamayishiga olib keladi. Bunda bolalarni ta'limga moslashishi qiyinlashadi. Noto'g'ri moslashish o'zini yorqin va kuchli namoyon qilishi mumkin bo'lgan birinchi davr - bu maktab (boshlang'ich sinf)da o'qishni boshlaganda.

Ikkinchi davr - boshlang'ich sinfdan o'rta sinfga o'tish. Katta yoshli odamning o'zgarishi, marshrutning o'zgarishi, garchi tanish maktabda bo'lsa ham, notanish o'qituvchilarga, sinflarga ko'nikish.

Uchinchi davr - o'smir 13-14 yoshda o'quv faoliyatining keskin pasayishi kuzatiladi. O'qituvchilar 7-8-sinflardagi darslar keskin ziddiyatli bo'ladi. Boshlang'ich sinf davrining oxirlariga kelib o'qishga nisbatan ijobiy munosabatning birmuncha pasayishi ko'zga tashlanadi. O'quv faoliyatiga qiziqish 1-2-sinflarda ko'tarilib, 3-4-sinflarda pasayadi. O'quv faoliyatiga qiziqishning pasayishida o'qituvchining tayyor materialni bayon etishi va o'quvchilarning yodlab olishlari ustanovkasi ustunlik qiladi va o'quvchilarning faolliklari taqlid qilish xarakterida bo'ladi. 3-4 sinf o'quvchilari odatda o'qilganlarni qayta hikoya qilib berishni, doskada yozilgan mashqni ko'chirib yozishni, qoidalar va she'rlarni yodlashni yoqtirmaydilar va aksincha, misol hamda masalalarni mustaqil ravishda yechishni, tabiat hodisalarini kuzatishni, rasm chizish, plastilin va loydan narsalar yasash ishlarini yaxshi ko'radilar. Boshqacha aytganda boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilar tashabbus va mustaqillik imkoniyati bor bo'lgan ishlarga ko'proq qiziqish bildiradilar [3].

Boshlang'ich sinf yoshida o'qishga qiziqishning pasayish sabablaridan biri sifatida V.A.Suxomlinskiy o'qituvchi tomonidan past bahoning ko'p qo'yilishi, bu esa bolaning o'qishga nisbatan qiziqishning pasayishi va o'z imkoniyatlariga nisbatan bo'lgan ishonchning pasayishida deb biladi. Shuningdek, bu yoshdagi bolalar faoliyatiga qo'yilgan bahoni shaxsiga qo'yilgan baho deb qabul qiladilar. O'qituvchi tomonidan qo'yilgan past baho "Demak men yomon bolaman. Ustoz meni yomon ko'radilar" qabilida qabul qilinadi. Bu esa bolaning o'qishga va ustoz bilan munosabatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv faoliyatining elementlari shakllantirilganligi va mustaqil bajara olinishi yetakchi faoliyat sifatidagi o'qish o'z vazifasini bajarganligini anglatadi. [4].

Jumladan, bu munosabatlar zamirida o'quv faolligining namoyon etilishi bilan bog'liq o'ziga xos qiziqishlar, o'quv komponentlari, shaxs umumiy yo'nalganligi, ustanovkalar hamda o'ziga xos hamkorlikka intilish tizimi mavjudligining ta'siri alohida o'rin tutadi. Bu esa shaxs va faollik o'rtasidagi ijtimoiy psixologik mutanosiblik ko'rsatkichlari ko'lamini ham ma'lum darajada tahlil qilish va tegishli ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida maktabga munosabat motivatsiyasi tahlillari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning maktab faoliyati bilan bog'liq har bir harakatlari zamirida o'quv faoligi va uni bevosita ta'minlashga xizmat qiluvchi omillar yotadi. Chunki, o'quv faolligining namoyon etilishi bir tomondan o'quv jarayonining muvaffaqiyatli tashkil etilishiga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan esa o'quvchi shaxsida tarkib topayotgan o'quv komponentlari - "kognitiv", "hissiy-irodaviy" hamda "baholash" mezonlariga ham ko'p jihatdan bog'liqdir. Zero, har bir o'quv komponentining o'quvchi shaxsida etarli darajada tarkib topishi o'quv faolligini ta'minlashga xizmat qiladi [6].

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quv faoliyatining asosiy vazifasi - bu o'quvchilarni "o'qish"ga, bilim olishga o'rgatishdir. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar psixik rivojlanishida ta'limning ta'sirida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Bu o'zgarishlar ularni hayotlarining ma'suliyatli davri bo'lmish o'smirlik davriga o'tish uchun tayyorlaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun xarakterli bo'lgan taqlidchanlik, muloqotmandlik, kattalar ko'rsatmasiga moyillik, hissiy ko'tarinkilik kabi hususiyatlar yordamida ularda o'quv faoligi motivlarini shakllantirish mumkin. Shuningdek ular bilan olib borilayotgan suhbat va muloqotlarda ushbu jarayonga jiddiy e'tiborni qaratish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Avlayev O.U. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tasavvurida o'qituvchi timsoli. "Maktab va hayot" jurnali. 2019, №2, 5-8 b.
2. Avlayev O.U. Talabalar kamolotida ijtimoiy intellektning gender farqlari. «Psixologiya» ilmiy jurnal.2021. № 1, 34-41 betlar.
3. G'oziyev E.G'. O'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish. – Toshkent, 1988. - 102 b.
4. Jabborov A.M. Pedagogik psixologiyaning etnik asoslari. –Toshkent: "Zarqalam", 2006. - 48 b
5. Mirzayeva S.R., Karimov, R. R O'quv faoliyatida o'qituvchi - o'quvchi munosabatining psixologik xususiyatlari. Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(2), (2022). 297-306. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-2-297-306>.



UDK 327(575+53) + 339.9(575+53) + 32-05:930.85.

Nigina KUSHAeva,
Political Sciences department, University of World Economy and Diplomacy
E-mail: niginakushaeva@gmail.com

Based of review PhD, associate professor D.Alibekov

CENTRAL ASIAN COUNTRIES AND THE GULF COOPERATION COUNCIL: SYNERGY OF STRATEGIC POTENTIALS

Annotation

This research article explores the potential synergy between the potential synergy between the strategic strengths of the Gulf Cooperation Council (GCC) states and the five Central Asian countries—Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Turkmenistan, and Uzbekistan. It examines the prospects for a deeper regional partnership by analyzing the political, economic, and social dimensions of their interactions to pinpoint crucial factors that enable robust and enduring cooperation. The study underscores the critical need to bolster political and strategic ties between these regions, highlighting the pivotal role of dialogue and partnership in unlocking transformative opportunities across various domains. Furthermore, the article accentuates the historical and symbolic importance of the GCC-Central Asia summit and the strategic significance of Uzbekistan as a central hub in this dialogue.

Key words: Gulf Cooperation Council (GCC), Central Asian countries: Uzbekistan, Turkmenistan, Tajikistan, Kyrgyzstan and Kazakhstan, Masdar, ACWA Power, W Solar Investment, TAQA company, Samarkand.

MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI VA FORS KO'RFASI HAMKORLIK KENGASHI: STRATEGIK POTENTIALLAR SINERGIYASI

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot maqolasi Ko'rfaz hamkorlik kengashi (GCC) davlatlari va Markaziy Osiyoning beshta davlati - Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekistonning strategik kuchli tomonlari o'rtasidagi potensial sinergiyani o'rganadi. U mustahkam va mustahkam hamkorlikni ta'minlaydigan muhim omillarni aniqlash uchun ularning o'zaro munosabatlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini tahlil qilish orqali chuqurroq mintaqaviy sheriklik istiqbollari o'rganadi. Tadqiqot ushbu mintaqalar o'rtasidagi siyosiy va strategik aloqalarni mustahkamlash zarurligini ta'kidlab, muloqot va hamkorlikning turli sohalarida transformatsion imkoniyatlarni ochishdagi muhim rolini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, maqolada GCC – Markaziy Osiyo sammitining tarixiy va ramziy ahamiyati hamda O'zbekistonning ushbu muloqotda markaziy markaz sifatidagi strategik ahamiyati ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Fors ko'rfazi hamkorlik kengashi (GCC), Markaziy Osiyo davlatlari: O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston va Qozog'iston, Masdar, ACWA Power, W Solar Investment, TAQA kompaniyasi, Samarqand.

СТРАНЫ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И СОВЕТ СОТРУДНИЧЕСТВА СТРАН ПЕРСИДСКОГО ЗАЛИВА: СИНЕРГИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ПОТЕНЦИАЛОВ

Аннотация

В этой исследовательской статье рассматривается потенциальная синергия между стратегическими преимуществами государств Совета сотрудничества стран Персидского залива (ССЗ) и пяти стран Центральной Азии — Казахстана, Кыргызстана, Таджикистана, Туркменистана и Узбекистана. В ней рассматриваются перспективы более глубокого регионального партнерства путем анализа политических, экономических и социальных аспектов их взаимодействия для выявления важнейших факторов, которые обеспечивают прочное и устойчивое сотрудничество. В исследовании подчеркивается острая необходимость укрепления политических и стратегических связей между этими регионами, подчеркивая ключевую роль диалога и партнерства в раскрытии возможностей для преобразований в различных областях. Кроме того, в статье подчеркивается историческое и символическое значение саммита ССЗ-Центральная Азия и стратегическое значение Узбекистана как центрального узла в этом диалоге.

Ключевые слова: Совет сотрудничества арабских государств Персидского залива (ССАГПЗ), страны Центральной Азии: Узбекистан, Туркменистан, Таджикистан, Кыргызстан и Казахстан, Masdar, ACWA Power, W Solar Investment, компания TAQA, Самарканд.

For centuries, an intangible connection has linked the Gulf monarchies and Central Asia. The history of bilateral ties between these regions is deep and multifaceted, tracing back to the Silk Road, which facilitated the exchange of goods, ideas, and culture. Central Asia, with its pivotal location at the crossroads of civilizations, has long been a hub where diverse ethnic and religious groups converged and thrived. Today, we are witnessing the resurgence of these once-vibrant ties, grounded in shared cultural heritage and mutual respect, ushering in a new era of cooperation and partnership.

In the contemporary era, the Arab monarchies are undergoing a significant transformation, moving away from traditional, conservative policies that are characterized by strict restrictions and radical interpretations of Islam. Instead, they are embracing a path of religious moderation, societal liberalization, and economic modernization. This transition represents a significant qualitative shift, moving from economies reliant on oil to modern, dynamic, and high-tech states oriented towards the future, while maintaining a strong connection to national traditions and a commitment to Islam. Furthermore, these nations are actively working to enhance their global image, pursue more assertive foreign policies, expand their regional strategies, and diversify international relations on the global stage. In this regard, the Arab monarchies are showing great interest in deepening their relations in the Central Asian region. Both regions are of strategic importance due to their location and resources, which are

of mutual benefit. Further expansion and deepening of the existing ties between the Gulf Cooperation Council countries and Central Asia could open up enormous opportunities for both regions in the very near future.

At the same time, the five Central Asian republics are increasingly eager to deepen their engagement with regional powers like the GCC, recognizing this as a strategic approach to safeguarding their national security. In the face of balancing the influence of major powers such as Russia and China, these nations view strengthened ties with the Gulf as an essential counterbalance. Central Asia has positioned itself as a viable alternative trading partner for the Gulf countries, emphasizing the potential for a more balanced and equitable economic partnership. By proactively fostering stronger connections with external actors like the GCC, the Central Asian republics aim not only to enhance their economic prospects but also to significantly bolster their security and long-term stability in an increasingly competitive geopolitical landscape. In this context, the GCC+C5 format provides a unique opportunity for both regions to strengthen existing co-operation frameworks.

The summit, which was held in Jeddah on July 19, 2023, reaffirmed the importance of strengthening political and strategic relations between the GCC countries and Central Asia, opening a new era of interregional cooperation between two geographically and geopolitically pivotal regions of the world. This summit opens new

opportunities for collaboration aimed at developing and strengthening bilateral ties. Given their shared interests and challenges, including security, economic development, counterterrorism, and climate change, these regions hold substantial potential for cooperation across various domains. Based on this, the following key factors can be highlighted:

1. One of the significant aspects of financial cooperation is the advancement of partnership-based financial services, such as Islamic banking and insurance. These areas are of growing interest to many countries. Notably, in 2021, Uzbekistan hosted the annual summit of the Islamic Development Bank, which, based in Jeddah, Saudi Arabia, invested approximately \$2 billion in the country. Additionally, shared Islamic values further promote economic collaboration through the development of Islamic finance.

2. The benefits of cooperation with Central Asia, which, due to its geographical location, borders major Asian and Eurasian powers such as Russia and China, and where its countries participate in alliances such as the Shanghai Cooperation Organization (SCO) and the Collective Security Treaty Organization (CSTO). Therefore, the joint nature of this summit, represents an advanced model of political engagement conducted by the Gulf Cooperation Council. The Trans-Afghan Railway project is also a strategically vital initiative designed to establish the shortest and most efficient connection between the Gulf states and Central Asia.

3. Another significant aspect concerns Central Asia's transit status and its role in transportation and logistics corridors from China to Europe. Notably, the promising "North-South" corridor, which is expected to connect India with Russia via Iran, is of particular interest. Given that this route will traverse the Caspian Sea, neighboring Central Asian countries are keenly interested in this project, as they aim to maximize their benefits from its successful implementation. Advancing the Trans-Caspian International Transport Route (TITR), commonly referred to as the Middle Corridor, can facilitate the seamless movement of goods between Central Asia, Europe, and the Gulf region.

4. The trade and economic synergy between the Gulf regional bloc and Central Asia could also be, as noted by some experts, one of the driving factors for the development of mutually beneficial trade and economic partnerships. The Gulf's prominent position in the global energy supply chain is complemented by Central Asia's rich natural resources, including oil and other minerals. This synergy extends to investment opportunities in agriculture, driven by the need for food security amid the Russian-Ukrainian conflict, as well as the republics have a surplus of personnel and labor force that could be in demand in the Gulf.

Notably, the trade volume between the Gulf Cooperation Council (GCC) countries and Central Asian countries reached \$3.1 billion in 2021, accounting for approximately 0.27% of the total trade volume of the GCC countries, which is around \$1,146.5 billion.

The Gulf countries and Central Asian nations place significant emphasis on energy, including renewable energy sources, in their growing relations. Masdar and ACWA Power, two leading state enterprises in the clean energy sector, exemplify the UAE's and Saudi Arabia's ambitions to expand their capabilities and market share in the international renewable energy sector. ACWA Power has secured a \$1.5 billion wind energy project in Kazakhstan, State-owned renewable energy company Masdar set to build a wind farm in Kazakhstan, also Masdar intends to build more than 2 GW of solar projects in Uzbekistan. It should be noted that last April, Masdar reached financial close on three solar projects in Jizzakh, Samarkand and Sherabad, which have a combined capacity of around 900mws. Once fully operational, the projects will generate electricity to power over one million homes and displace one million tonnes of carbon dioxide annually. Earlier in 2023 Acwa Power unveiled \$2.5 billion deals with the National Electric Grid of Uzbekistan and Uzbekistan's Ministry of Investment, Industry and Trade to include three solar projects. Acwa Power CEO Marco Arcelli, said Central Asia represents the company's second largest market in terms of investment. Masdar and Abu Dhabi-based W Solar Investment are also exploring hydropower projects in Tajikistan. Besides clean energy, Central Asian countries represent promising markets for gas and power, which is attracting investment from Gulf countries in the development of both new and existing power plants. For example, Qatar will participate in \$12bn worth of investment projects in Uzbekistan, including gas and chemicals, agriculture, infrastructure, logistics, tourism and other sectors. And UAE-based utility TAQA announced planned investments of \$3 billion in Uzbekistan's energy

sector. These opportunities include new and existing power plants and associated energy infrastructure.

Another significant area of focus is the study of ecology and climate change. The President of the Republic of Uzbekistan proposed the establishment of an international program for joint research at the recently inaugurated University for Environmental and Climate Change Studies in Central Asia, situated in Tashkent.

Finally, it is important to highlight the consistent mutual interest in cooperation with the Arab world expressed by Central Asian states. This interest is driven by their desire to leverage significant Arab investments to stimulate and support their own socio-economic development, especially in challenging circumstances.

On 15 April, a meeting of foreign ministers of the Central Asia-Gulf Cooperation Council Strategic Dialogue was held in Tashkent. Its participants - delegations from the Arab countries of the Persian Gulf: Bahrain, Kuwait, UAE, Oman, Qatar, Kuwait, Oman, Saudi Arabia and from Central Asian countries discussed the implementation of agreements reached within the framework of the first summit of the Heads of State of Central Asia and the Gulf Cooperation Council, which was held in July 2023 in Jeddah. They also considered the development of co-operation in the fields of politics, economy, investment, transport, culture, security and environmental protection.

It should be noted that holding this meeting in Tashkent is of strategic significance, reflecting Uzbekistan's particularly important position in the region. Uzbekistan is the largest and most influential country in Central Asia with significant economic and geopolitical weight. Uzbekistan plays a key role in ensuring stability and cooperation in the region, as well as serving as a platform for dialogue and alignment of interests among various actors. Tashkent is the center of diplomatic activity in Central Asia and has a well-developed infrastructure for such international meetings. In addition, Uzbekistan is actively seeking to deepen co-operation with the Arab Gulf States in various fields, including economy, trade, investment, transport and cultural ties. Therefore, the choice of Tashkent as the venue of the meeting underscores the importance of Uzbekistan's regional leadership and its desire to strengthen cooperation and dialogue with its Arab partners. Regarding tourism prospects, the President of the Republic of Uzbekistan proposed the creation of a unified visa-free tourism zone, "Gulf – Central Asia", the development of modern tourism clusters and joint products, and the organization of a forum for leading tour operators in Khiva, which has been designated the Tourist Capital of the Islamic World for 2024.

During the ministerial meeting special attention was paid to the issues of thorough preparation for the upcoming events, including the second summit of the Central Asia-Gulf Cooperation Council dialogue in 2025. It was decided to hold the next summit next year in the city of Samarkand in Uzbekistan. As is known, the connection between the Arab world and Samarkand goes back centuries. The origins of cultural ties between the Uzbek and Arab peoples date back to the middle of the 7th century. Strong ties were established between the peoples of Uzbekistan and Saudi Arabia by outstanding scholars of Maverannahr Imam al-Bukhari, Abu Mansur al-Maturidi, Burhanuddin al-Marginani, Mahmud Zamakhshari, who made a huge contribution to the development of universal and Muslim civilizations. When the famous Arab geographer and writer of the 10th century Ibn Haukal visited Samarkand, he wrote in 977 AD: «Wherever you look in the city, you see beautiful places and feel pleasant». The selection of Samarkand as the host city has historical and symbolic significance. Samarkand, as one of the key cities on the historic Silk Road, symbolizes the rich heritage of Central Asia and its potential for future development.

Conclusion. In view of recent internal political developments and the modernization process actively promoted by Uzbek President Shavkat Mirziyoyev, Uzbekistan can use Saudi and other Arab states' investments to support the country's economic development, as well as to ensure security and stability in Central Asia in the context of balancing more powerful states such as Russia and China.

The Gulf-Central Asia Summit holds significant importance in several respects. It represents the Arab Gulf's Pivot to Asia and marks a pivotal moment in the economic and geopolitical dynamics of both regions. Their strategic importance is underlined by their location and resources, which offer mutual benefits. However, further practical steps are necessary to advance and strengthen this relationship. This will enable both sides to maximize the opportunities created by this development, taking into account the changing geographical, political and economic context against the backdrop of international competition. With the right approach now, relations between the Gulf

and Central Asian countries can further develop and flourish in the future. Central Asian countries have the potential to grow and thrive in the future.

LITERATURE

1. Uzbekistan to host Islamic Development Bank's annual summit. URL: <https://www.thetribune.com/uzbekistan-to-host-islamic-development-banks-annual-summit/>
2. جديدة أفلاق .. الوسطى وأسيا الخليج لدول جدة قمة Jeddah Summit of Gulf States and Central Asia... New Horizons. URL: <https://elaph.com/Web/opinion/2023/07/1512230.html>
3. Эксперт из России Игорь Матвеев рассказал, какие цели преследует арабский мир в Центральной Азии. URL: https://halva.tj/articles/analytics/ekspert_iz_rossii_igor_matveev_rasskazal_kakie_tseli_presleduet_arabskiy_mir_v_tsentralnoy_azii/
4. GCC-Central Asia Summit: Assessments and Prospects. URL: <https://greatgameasia.bisr.by/sammit-ssagpz-cztralnaya-aziya-oczenki-i-perspektivy/>
5. Economic goals of the Jeddah summits. URL: <https://www.alriyadh.com/2024507>
6. Acwa Power agrees \$1.5bn Kazakh wind project. URL: <https://www.agbi.com/renewable-energy/2023/06/acwa-power-agrees-1-5bn-kazakh-wind-project/>
7. Masdar to develop wind farm in Kazakhstan. URL: <https://www.agbi.com/renewable-energy/2023/06/masdar-wind-farm-kazakhstan-central-asia/>
8. Masdar set to build over 2gw solar projects in Uzbekistan. URL: <https://www.agbi.com/energy/2023/05/masdar-set-to-build-over-2gw-solar-projects-in-uzbekistan/>
9. Clean energy set to power GCC-Central Asia trade growth. URL: <https://www.agbi.com/analysis/renewable-energy/2023/07/clean-energy-set-to-power-gcc-central-asia-trade-growth/>
10. The diplomatic surge between the GCC and Central Asian states. URL: <https://www.iiss.org/online-analysis/online-analysis/2023/11/the-diplomatic-surge-between-the-gcc-and-central-asian-states/>
11. Qatar to participate in implementation of investment projects worth \$12 billion in Uzbekistan. URL: <https://kun.uz/en/news/2023/06/06/qatar-to-participate-in-implementation-of-investment-projects-worth-12-billion-in-uzbekistan>
12. TAQA and the Government of Uzbekistan Announce Strategic Partnership to Explore Power Projects and Infrastructure Investment Opportunities. URL: <https://www.taqa.com/press-releases/taqa-and-the-government-of-uzbekistan-announce-strategic-partnership-to-explore-power-projects-and-infrastructure-investment-opportunities/>
13. The President of Uzbekistan underlined the importance of deepening cooperation with the Gulf Council of Arab States. URL: <https://president.uz/ru/lists/view/7167>
14. «Saudi Arabia and Qatar's interests in Uzbekistan's Economy and Investment Opportunities Geopolitical Report ISSN 2785-2598 Volume 36 Issue 4 Author: Giuliano Bifulchi URL: <https://www.specialeurasia.com/2023/11/27/saudi-arabia-and-qatar-uzbek/>



Dilorom QAMBAROVA,
Farg'ona davlat universiteti dotsenti
E-mai: kambarovad@gmail.com

Farg'ona davlat universiteti dotsenti S.Usmonova taqrizi asosida

XORIJIIY TIL O'QITUVCHILARIDA MEDIAMADANIYATGA OID BILIMLARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya

Mediamadaniyatni shakllantirish ayrim yoshlarning ba'zi kattalar, ota-onalar va tarbiyachilarning noto'g'ri xulqiga ko'r-ko'rona ergashishini ham oldini oladi. Bu borada shaxsning har qanday tashqi munosabatni ochiq, tahlilsiz qabul qilishi, maksimalizmi, haqqoniyatga nisbatan ishonchsizlik hissini tuyishi, xafaqonlik, o'ch olishga intilishi kabilar muqarrar ravishda hisobga olinadi. Bunday holatda mediata'limi talabani buzg'unchi g'oyalarga asoslangan ijtimoiy xavfli xulqdan asrash, ularni ijtimoiy foydali faoliyatga jalb etish – ezgu g'oyalarga sadoqat ruhini shakllantirish asosida yaxshi xulqni guruhiiy shaklda tashkil etishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Myediamadaniyat, myediata'lim, chet tili, pedagog, kiberjinoyat.

MECHANISMS FOR DEVELOPING MEDIA LITERACY KNOWLEDGE AMONG FOREIGN LANGUAGE TEACHERS

Annotation

The formation of media literacy also prevents some young people from blindly following the inappropriate behavior of certain adults, parents, and educators. In this regard, it is inevitable to consider factors such as a person's tendency to accept any external relationship openly without analysis, their maximalism, feelings of distrust towards justice, irritability, and inclination towards revenge. In this case, media education serves to protect the student from socially dangerous behavior based on destructive ideas, attracting them to socially useful activities - to organize good behavior in a group form based on the formation of a spirit of loyalty to noble ideas.

Key words: Media culture, media education, foreign language, teacher, cybercrime.

МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ЗНАНИЙ СМИ У УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Аннотация

Формирование медиаграмотности также препятствует некоторым молодым людям слепо следовать неуместному поведению определенных взрослых, родителей и педагогов. В связи с этим неизбежно учитываются такие факторы, как склонность человека к открытому принятию любого внешнего отношения без анализа, его максимализм, чувство недоверия к справедливости, раздражительность, склонность к мщению. При этом медиаобразование служит защите учащегося от общественно опасного поведения на основе деструктивных идей, привлечению его к общественно полезной деятельности - организации хорошего поведения в групповой форме на основе формирования духа преданности благородным идеям.

Ключевые слова: Медиакультура, медиаобразование, иностранный язык, учитель, киберпреступность.

Kirish. Bugungi kunda mediamadaniyatni zaruratga aylantirayotgan axborot sohasidagi kurashlar, xurujlar va tahdidlar yangicha yondashuv metodikasini ishlab chiqishni dolzarblashtirmoqda. Ayniqsa, XXI asrga kelib, axborot kommunikatsiyalari orqali turli yot g'oyalar va mafkuralarni tarqatish ma'naviy kurash quroli sifatida yanada takomillashdi. Bu usul ilgari ham mafkuraviy kurash quroli sifatida qo'llanilgan edi. Hozir ham jahon mafkuraviy kurash taktikasida turli yolg'onlarni tarqatish (dezinformatsiya) usuli radio, TV, gazeta-jurnallar orqali targ'ibot va tashviqot qilish bilan bir darajaga qo'yilishi bejiz emas. Bunday harakatlar natijasida jamiyatni ma'nan buzish, davlat siyosatini obro'sizlantirish, yoshlarimizda o'ziga, oilasiga, kelajakka ishonchsizlik, befarqlik tuyg'ularini uyg'otish, ularda o'z Vatani, millati himoyasiga nisbatan loqaydlikni tarbiyalashga erishishga harakat qilinmoqda. Buni xorijiy tillarni o'rgatishga qaratilgan platformalar, onlayn kurslar va boshqa media mahsulotlarida ham ko'rishimiz mumkin. Shu bois xorijiy tilni o'qitishda axborot xavfsizligiga e'tibor qaratish, o'rganuvchi talaba-yoshlarni turli tajovuzlardan asrashga doir ta'limiy- va qonuniy islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga pedagogik jarayonni yangicha yondashuv asosida tashkil etish, bo'lg'usi chet tili o'qituvchilarda mediamadaniyatni shakllantirish ham muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Materiallar va metodlar. Myediata'limni rivojlantirish va bu orqali jamiyatda mediamadaniyatni shakllantirish, axborot xavfsizligiga erishish, axborot iste'moli madaniyati, axboriy tahdidlar va tajovuzlarga, medianing salbiy ta'sirlariga qarshi kurashishning ilmiy-amaliy, falsafiy va pedagogik jihatlariga doir tadqiqotlar G. Atkinson, S. Davn, S. Mark, R. Kyubey, M. P. Tomero, T. Varis, P. Vandevurd, B. Duncan, M. Maklyuenlar tomonidan olib borilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida ham yoshlarda mediamadaniyatga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga doir ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, olimlaridan A. Jurin, A. V. Sharikov, K. E. Razlogov, N. B. Kirillova,

A. P. Korochenskiy, S. N. Penzin, A. V. Sharikov, V. Mixaylovskiy, A. Andreev, N. Nurmeeva, V. Soldatkin U. Butayev Ya. Mamatova kabilar axboriy tahdidlardan himoyalash va jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlariga oid ilmiy izlanishlarni olib boranlar.

Muhokama va natijalar. Bugungi media maydonda turli siyosiy, mafkuraviy, diniy kurashlar avj olmoqda va bu jarayonda xususiy faktlarni umumlashtirish (ekstropolyatsiya), yolg'onni haqiqatga o'xshatish, kichik muammodan katta yolg'on yasash, his-hayajon va tuyg'uni aqldan ustun qo'yish kabi usullar ham qo'llaniladi. Afsuski, targ'ibot-tashviqot ishlaridagi rasmiyatchilik, ma'naviyat va mafkura borasida qanchalik muhim ishlarni amalga oshirayotganimizga qaramay, ba'zi o'rinlarda, afsuski kech qolayotganimiz bu ishda pand bermoqda. Darhaqiqat, ko'p hollarda axborot sohasidagi tahdidlar, uning o'ziga xos sababi va manbalarining oldini olish o'rniga, aksincha oqibati bilan kurashishga to'g'ri kelmoqda. Ba'zida bu sohada ham nihoyatda zarur bo'lgan hushyorlik, tezkorlik, ogohlik yetishmaydi. Vaholanki, media ta'limi va tarbiyasi bizni bu boradagi yaqinlashib kelayotgan ichki va tashqi tahdidlardan ogohlantirishi, ularning asl sabablarini ko'rsatishi, g'oyasizlik va salbiy xatti-harakatlarga qarshi kurashishga o'rgatishi kerakligi bugungi davrning talabiga aylangani shubhasiz. Bu esa ta'lim muassasalarida talabalar orasida olib boriluvchi ma'rifiy ishlarning ularda mediamadaniyat bilan bog'liq tushuncha va tasavvurlarni shakllantirishga nisbatan o'ta dolzarb ijtimoiy buyurtmani ifodalaydi. Ayni paytda bu, talabalarda ommaviy axborot vositalari orqali olinayotgan xabarlar, bilimlar asosida jamiyatimizning siyosiy, ma'naviy-axloqiy muhitida yuz berayotgan yoqea-hodisalarga oqilona munosabatni qaror toptirish, ularda ilmiy mushohada, ma'rifiy tafakkurni shakllantirish mumkinligina anglatadi.

Xorijiy til o'qituvchilarida mediamadaniyatni shakllantirishda hisobga olish lozim bo'lgan va buzg'unchi g'oyalarga

moyillikni shakllantiruvchi xususiyatlarning quyidagi shakllari mavjud:

-boshqa kishilar bilan o'zaro muloqotda agressiv qilmishlarga moyillik; muammolarni zo'ravonlik yo'li bilan hal etishga intilish, o'zining kimligini ko'rsatib qo'yish maqsadida sherigini kamsitishga intilish;

-o'z-o'ziga zarar keltiruvchi buzg'unchi xulqqa moyillik, ya'ni o'z hayotining qadriini pastga urish, qaltis ishlarga moyillik, chegarasiz hislarga berilish va shu kabilar;

-adolat haqqoniylikdan chekinishga intilish, shaxsiy muammolarni xayoliy – kompensatorlik usuli bilan hal etishga moyillik, hayotning faqat hissiy tomoniga e'tibor berish, sensor turli gedonistik me'yor va qadriyatlarini ustivor bilish;

-jamoaviylikka zid xulqqa moyillik, ya'ni mahalla, qo'ni-qo'shni, kursdoshlar uchun xos bo'lgan hayot tarzi va axloqiy me'yorlar bilan kelishmaslik, bunga qarshi salbiy xulq orqali amaliy faoliyat olib borish.

Ana shularning barchasi talabalar orasidagi media ta'lim va tarbiyaning metodologik jihatdan muayyan yo'naltirilgan xususiyatga ega bo'lishini ta'minlaydi va talabalar bilan ishlashning ta'siri samarasini oshiradi. Xorijiy til o'qituvchilari bilan alohida media tarbiya ishlarini olib borish maxsus tarbiya yo'nalishi sifatida talqin etilishi ham mumkin. Bunda mediata'lim quyidagi asosiy vazifalarini belgilab olishi mumkin:

xorijiy til o'qituvchilari orasida irodasi bo'sh, huquqbuzarlikka moyillarini o'z vaqtida aniqlash;

xorijiy til o'qituvchilarining yot g'oyalarga berilishlariga sabab bo'ladigan sabab va muhitni bartaraf etish, ularni an'anaviy milliy qadriyatlardan uzoqlashishdan himoya qilinish;

bo'lg'usi pedagoglarni tarbiya qilish usulini mavjud shakllari va usullarini qo'llash samarasini hisobga olib, ularning muhitiga alohida axborot profilaktik ta'sir etish.

Xorijiy til o'qituvchilarining mediamadaniyatini shakllantirishda tarbiya subyektlarining tarbiyaviy-profilaktik ishlarining o'zaro aloqasi va uzviylikini ta'minlash, yomon xulqli talabalarning kundalik hayot faoliyatini kuzatish, axborot profilaktika tadbirlarini to'g'ri tanlash nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda har bir talabaga alohida profilaktik ta'sir ko'rsatish uning ongiga milliy axloq me'yorlariga doimiy rioya qilish zarurligini singdirish hamda ularga tarbiyaviy va nazoratli ta'sir o'tkazish metod va usullari, ijobiy xislatlarni shakllantirish va salbiy jihatlarni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratish lozim. Ayni paytda xorijiy til o'qituvchilariga salbiy ta'sir etadigan medianing ma'naviy buzg'unchi omillarni bartaraf etish va ularning munosabatini o'zgartirish tizimini o'rnatish maqsadida axborot muhitiga ta'sir etish shakllarini belgilash zarur bo'ladi. Bu esa har bir talabaga samarali ta'sir eta oladigan ijobiy axborotlarga tayanadigan ta'sir vositalarini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, xorijiy til o'qituvchilarda media ta'sirga qarshi ijobiy axborot muhitini yaratishning ustuvor vazifalari quyidagilardan iborat:

-mediata'lim jarayonining mazmunlilik, yo'naltirilganligi, uzviylik; bir tomondan talabalarga ma'naviy-ma'rifiy talablarni o'rgatish, boshqa tomondan ular shaxsining xususiy jihatlari va umumiy taraqqiyot qonuniyatlarini o'rganishga qaratilganligi;

-xorijiy til o'qituvchilarida mediata'lim asosida himoya imunitetini shakllantirishda majburlashga yo'l qo'ymaslik;

-xorijiy til o'qituvchilari faolligi, tashabbuskorligi va irodasini namoyon etishiga erishish.

Alohida mediata'lim orqali tarbiya berish profilaktik ta'sir dasturini ishlab chiqishda yetakchi maqsad qilib xorijiy til o'qituvchilarining barcha uchun qabul qilingan me'yor, qoida va boshqa ijtimoiy qadriyatlarga rioya qilishiga erishish belgilab olinadi. Qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib, vazifalar doirasi aniqlanadi. Ularning asosiy qadriyatlaridan iborat:

xorijiy til o'qituvchilarining axborot tarbiya asosidagi ijobiy ma'naviy jihatlarni mustahkamlash va rivojlantirish;

- xorijiy til o'qituvchilarida muloqot madaniyati, ijtimoiy mas'ullik va faollik hissiini uyg'otadigan axborot tarqatish.

Bugungi kunda xorijiy til o'qituvchilarida xalqaro terrorizm, yovuzlikni targ'ib qiluvchi filmlar, G'arb axloqsizlik falsafasi, prozelitizm, diniy ekstremizm kabi tahdidlar ta'siriga qarshi mediamadaniyatni shakllantirishning nazariy va uslubiy jihatlari, shakl va vositalarini ishlab chiqish va joriy etish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bu jihatdan, xorijiy til o'qituvchilariga jamiyat hayotida yuz beradigan o'zgarishlar insonlar hayoti va turmush tarziga ham o'zgarishlar kiritishi, bunday jarayonlarning stixiyali tarzda amalga oshmasligi, balki jamiyatning ma'naviy-axloqiy darajasi, umummilliy g'oyasi vositasida shakllanib borishini nazarda tutish lozim. O'z navbatida bu, yurtimizda umumiy tinchlik va barqarorlikning ta'minlanishi jarayonida barpo etilayotgan demokratik jamiyat rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi[1]. Aslida, mediata'lim keng ma'noda, muayyan hudud yoki ta'lim muassasasida shaxs, guruh, jamiyatdagi mavjud bunyodkor g'oyalarni saqlashga, buzg'unchi g'oyalar tarqalishining oldini olishga yo'naltirilgan, aholi, ayniqsa yoshlarni turli axborot xurujlardan himoya qilish manfaatlariga qaratilgan ma'rifiy va ta'limiy tadbirlar majmuini ko'zda tutadi. Bu ma'noda xorijiy til o'qituvchilari uchun media ta'lim va tarbiyaning ilmiy-pedagogik tahlili va zamonaviy jihatlarni o'rganish natijasida quyidagilarni amalga oshirish lozimligi haqida fikr yuritish joiz, deb hisoblaymiz:

-ota-onalar va jamoatchilik yordamida ota-bobolarimiz e'tiqod qilgan milliy ma'rifat tamoyillarini amalga oshirish, tarbiya jarayonining barcha qatnashchilari orasida milliy qadriyatlarga sodiqlik g'oyalarni targ'ib qilish, terrorchilik, aqidaparastlik va davlatimiz intilishiga zid buzg'unchi g'oyalarning kirib kelishiga qarshi murosasiz kurashish tuyg'ularini hosil qilishga intilish;

-ta'lim muassasalarida xorijiy til o'qituvchilari orasida zamonaviy bilimlarni targ'ib qilish, ularni dunyoviy bilimga bo'lgan intilishlarini shakllantirish, turli norasmiy axborot ta'limi olishini qat'iy an oldini olish choralarini ko'rish;

-har bir ta'lim muassasasida huquqiy, psixologik, ma'naviy va ma'rifiy bilim beruvchi ota-onalar universitetlari faoliyatini tashkil qilish;

-mediata'limda yaxshi natijalarga erishgan o'qituvchi, murabbiy va ota-onalarning tajribalarini ommalashtirish, bu borada medianing barcha yo'nalishlaridan unimli foydalanish;

-talabalarning darsdan bo'sh faoliyatining axborot bilan ta'minlanganlik samaradorligini oshirish va bunda turli to'garaklar, klublar, tadbirlar, tadbirlar, ijodiy uchrashuvlar tashkil qilishga e'tibor qaratish;

-talabalar ta'tili va kundalik bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish bo'yicha turli tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish jarayonida ota-onalar, professor-o'qituvchilarning taklif-mulohazalarini o'rganib harakat qilish, bu boradagi takliflarni hisobga olish kutilgan natijaga erishish imkonini yaratadi.

Xulosa. Xorijiy til o'qituvchilarining mediamadaniyatini shakllantirish va bu borada mediata'limga alohida e'tibor qaratishda ta'lim va tarbiya jarayonining uzviylikini ta'minlash zarurati, aslida ma'naviy barkamol yosh avlodni tarbiyalash, ushbu avlod qalbi va ongida demokratik tamoyillar, fuqarolik jamiyati g'oyalarni, yuksak axloqiylik va madaniyatlilik sifatlarini qaror toptirish bilan bog'liq harakatlarning dovomiylikini ta'minlashga xizmat qiladi[2]. Ushbu jarayon bilan bog'liq ishlarni samarali tashkil etishda ta'lim muassasalarining o'rni beqiyos. Oliy ta'lim xorijiy til o'qituvchilari uchun ma'naviy xususiyatlar, axloqiy madaniyat, milliy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirish bilan birga qarashlar tizimini, intilish, dunyoqarash va maqsadlar shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jihatdan, ta'bir joiz bo'lsa, ta'lim muassasasi talabalarga bilim berish bilan birga, axborot tarbiyasining o'chog'i, ularni axborot sohasidagi har xil tahdidlar va xurujlardan himoyalash maskani ham bo'lishi lozim. Ana shundaygina, yosh insonlar, har bir talabaning ma'naviy qiyofasida va axborot haqidagi tasavvurlari dunyosida komil insonga xos bo'lgan yuksak vatanparvarlik, fidoyilik, mehnatsevarlik xislatlari qaror topishi osonlashadi va bu sifatlar uning uchun doimiy qadriyatga aylanishi jarayoni optimallashtirib boradi.

ADABIYOTLAR

1. Butayev U. O'zbekistonda demokratik jamiyat rivojida tinchlik va barqarorlikning o'rni. Falsafa fan. dokt. (PhD)diss –Toshkent.: O'zMU, 2018
2. O'tamurodov A. Fuqarolik jamiyati g'oyalari evolyutsiyasi. –T.: Adabiyot uchqunlari, 2018
3. Quronov M. O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslari: Ped.fan.dok. ... diss. – T., 1998. – 316 b.
4. O'tamurodov A. Fuqarolik jamiyati g'oyalari evolyutsiyasi. –T.: Adabiyot uchqunlari, 2018
5. Erkin va farovon hayotni yuksak ma'naviyatsiz qurib bo'lmaydi. Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi. – T.: O'zbekiston, 2006. – B.45.



Alisher MADRAHIMOV,
Central Asian medical university o'qituvchisi sotsiologiya fanlari falsafa doktori
E-mail: alishermadrakhimov.85@gmail.com

O'zR Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti sotsiologiya fanlari nomzodi dotsent A.Yunusov taqrizi asosida

MAKTABLARDAGI ZO'RAVONLIK (BULLING) HODISASINING TUZILMAVIY TAHLILI

Anotatsiya

Insoniyat taraqqiyotining barcha davrlariga xos bo'lgan ijtimoiy hodisa sifatida zo'rvonlik ijtimoiy fanlarning aksariyatida u yoki bu nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. Xususan, insonlararo munosabatlarning ko'rinishlaridan biri sifatida sotsiologiya sohasi vakillarini ham, "zo'rvonlik" tushunchasi qiziqtirib keladi. Shu sababli so'nggi yillarda ushbu tushunchani ko'plab xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlarida tez-tez uchramoqda. Ushbu maqolada bugungi kunda ta'lim tizimida dolzarb masalalardan biri sifatida yuzaga kelgan zo'rvonlik masalalari yoritiladi. Maktab o'quvchilarining bir-birlariga nisbatan zo'rvonlik hodisasi tobora kuchayib borar ekan, uning sabablarini aniqlash va ulami oldini olishni tashkil qilish bo'yicha ishlarni kuchaytirish masalalariga e'tibor qaratish talab etiladi. Ayniqsa uning nazariy jihatlarini o'rganish orqali ushbu tushunchaga sotsiologik yondoshilib, ushbu hodisani mazmun mohiyatini ochib-berishga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: Zo'rvonlik, jamiyat, tuzilma, yoshlar, bulling, bullir, jabrlanish, o'smir, tajavuzkorlik, huquqbuzar, viktin xulq, konformistik ruh, tahdid, shantaj, haqorat, kamsitish.

СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ БУЛЛИНГА В ШКОЛАХ

Аннотация

Насилие как социальное явление, характерное для всех периодов человеческого развития, так или иначе изучается в большинстве социальных наук. В частности, понятие «насилие» представляет интерес для социологов как одно из проявлений человеческих отношений. По этой причине в последние годы данное понятие стало более распространенным в исследованиях многих зарубежных и отечественных ученых. В этой статье обсуждаются проблемы насилия, которые на сегодняшний день стали одной из самых острых проблем в системе образования. Поскольку феномен насилия школьников друг против друга усиливается, необходимо уделять внимание усилению работы по выявлению его причин и организации их предотвращения. В частности, путем изучения его теоретических аспектов, социологического подхода к этой концепции была предпринята попытка раскрыть сущность содержания этого явления.

Ключевые слова: Насилие, общества, структура, молодое поколения, буллинг, стрдание юноши, нападение, правонарушения, виктомная право, комфромистическая дух, угроза, шантаж, оскорбление, унижение.

STRUCTURAL ANALYSIS OF BULLING IN SCHOOLS

Annotation

Violence as a social phenomenon specific to all periods of human development has been studied in one way or another in most of the social sciences. In particular, the concept of "violence" is of interest to sociologists as one of the manifestations of human relations. Therefore, in recent years, this concept has become more common in the research of many foreign and domestic scientists. This article discusses the issues of violence that have emerged as one of the most pressing issues in the education system today. As the phenomenon of violence against each other by schoolchildren increases, attention needs to be paid to strengthening the work on identifying its causes and organizing their prevention. Especially through the study of its theoretical aspects, a sociological approach to this concept was attempted to reveal the essence of the content of this phenomenon.

Key words: Violence, society, youth, bullying, bullying, victimization, teenager, aggression, offender, victim behavior, conformist spirit, threat, blackmail, insult, discrimination.

Kirish. Bullyng hodisasi garchi zo'rvonlikning bir ko'rinishi bo'lsa-da, farqli jihatlari va o'ziga xosliklari mavjud. Aslida zo'rvonlik (bulling) tushunchalarini chuqurroq tadqiq etishda va ularning ichki murakkab tuzilmasini ijtimoiy hodisa sifatida tuzilmaviy tahlil qilib qiyosiy taqqoslash maqsadga muvofiq. Shu nuqtai nazardan sotsiologiyada "tuzilma" (lotincha "structura") deganda, obyektning yaxlitligi va o'ziga xosligi, uning har xil ichki va tashqi o'zgarishlar sharoitida asosiy xususiyatlarining saqlanib qolishini ta'minlovchi barqaror aloqalar majmui tushuniladi [1].

Ushbu tushunchani fanga garchi G.Spenser kiritgan bo'lsa-da, O.Kont, K.Marks, E.Dyurkgeymmlar asarlarida ham tadqiq etilgan. Biroq tuzilmaviy yondashuv XX asrda Klod Levi-Strauss, T.Parsons va R.Merton tomonidan alohida uslubiy yondashuv sifatida takomillashtirilgan. Xususan, R.Merton jamiyatni tuzilmaviy tahlil qilib, uning elementlarini qotib qolgan, ya'ni statik model sifatida emas, balki turli o'zgaruvchan munosabatlar – hamkorlikdan tortib, ziddiyatlargacha kuzatiladigan, elementlari turlicha o'rinlarni egallagan va mavqeidan kelib chiqqan holda mulqotga kirishadigan, bulaming barchasi esa madaniy omillar ta'siri ostida yuz beradigan murakkab ijtimoiy hodisa hisoblanadi [2].

Adabiyotlar tahlili. Zo'rvonlikning asosiy ko'rinishlari sifatida esa ilmiy adabiyotlarda amalga oshish shakliga ko'ra, jismoniy, ruhiy, jinsiy, iqtisodiy, foydalanish turlari ajratib ko'rsatilgan [3]. O'zbek sotsiologlari T. Narbayeva maishiy, ya'ni oilalardagi zo'rvonlikning jismoniy, jinsiy, ruhiy, psixologik va

iqtisodiy ko'rinishlarini farqlagan bo'lsa [4]. X.Ziyayeva esa shunga o'xshash klassifikatsiya o'z tadqiqotida ajratgan [5]. Rus olimlari E.Volkova va A.Grishinalar maktabdagi zo'rvonlikni institutsional zo'rvonlikning bir ko'rinishi, deb ta'riflashgan [6]. Zo'rvonlik bolaga nisbatan jismoniy, ruhiy, ma'naviy va ijtimoiy jihatdan tashkiliy ta'sir ko'rsatish bo'lib, uning ma'naviy, ruhiy (axloqiy, kommunikativ) va hayotiy (huquqiy va ijtimoiy) maqomini zaiflashtiradi. Natijada bolaning jismoniy, ruhiy va ma'naviy azoblanishiga sabab bo'ladi yoki azoblanish ehtimolini keltirib chiqaradi. Boshqa mutaxassisning fikricha, maktabdagi zo'rvonlik boshqalarda o'ziga nisbatan alohida qiziqish uyg'otadigan shaxsga nisbatan ham, butun guruhga nisbatan ham qarshi qaratilgan bo'lishi mumkin [7]. Bulling ko'rinishlarining ilmiy tahlillarida asosan shunday yondashuv mavjud. Bulling hodisasini ilmiy o'rganishni boshlab bergan, norvegijalik olim D.Olveus bullingni 9 ta turga ajratgan: 1) verbal bulling; 2) yakalab qo'yish yoki ijtimoiy izolyatsiya; 3) jismoniy bulling; 4) yolg'on yoki yolg'on mish-mishlar bilan bulling; 5) pul yoki boshqa narsalarni olib qo'yish; 6) biron-bir harakatni amalga oshirishga tahdid qilish yoki majburlash; 7) irqiy bulling; 8) jinsiy bulling; 9) kiberhujum [8]. Zo'rvonlik holatida uning asosiy ishtirokchisi bo'lgan bullirni aniqlash qiyin emas. Amerikalik mutaxassislar R.Beron va D.Richardsonlar bunday shaxslar umumiy tajavuzkorlikning yuqori potensialiga ega bo'lishini qayd etishgan. Zo'rvonning boshqalar ustidan hukmronlik qilishga yuqori intilishi va jabrlanuvchilarga nisbatan rahm-shafqatning

yetishmasligi namoyon bo'ladi. Bullirda o'zgalarni boshqarish va ularning bo'ysunuvidan lazzatlanish hissi nihoyatda kuchli hisoblanadi [9].

Bulling hodisasi esa – bu uyushgan yoki uyushmagan yoshlar hamjamiyatida mazah qilinadigan yoki zulm ko'radigan bolaga nisbatan zo'ravonlik hodisasi tizimidir. Ushbu tizim huquqbuzar (zolim)lar, jabrlanuvchi(lar) va tashqi kuzatuvchilar, ya'ni kattalar va bolalarni o'z ichiga oladi. Shu bois, bullingni o'rgangan mutaxassislarning deyarli barchasi bunda ko'proq zo'ravonlar va qurbonlar haqida to'xtalishgan. Ya'ni, har bir bulling holatida bir vaqtning o'zida 2 ta paradigma kuzatiladi: zo'ravonlik (zo'ravon taraf) va jabrlanish (jabrlanuvchi tomon). "Bunda, deviant xulq-atvorning barcha ko'rinishi o'smirlarda yaqqol namoyon bo'lib, birinchi navbatda, yoshlarning ruhiy va fiziologik xususiyatlari sabab bo'ladi" [10].

Jumladan, bulling hodisasi ham o'smirlik davrida paydo bo'lish ehtimoli yuqori bo'lib, ayni paytda og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. O'smirlar o'rtasida bulling paydo bo'lishining 2 ta asosiy guruhi mavjud:

1. Individual, ya'ni tajovuzkor, jabrlanuvchi va boshqalar ta'siriga beriluvchanlik.

2. Guruhli, ya'ni noijtimoiy guruh faoliyati, to'liq shakllanmagan guruh a'zolari guruh ichidagi o'z o'rnini aniq bilmasligi, guruhdagi noqulay ijtimoiy-ruhiy muhit.

Boshqacha aytganda, o'smirlarga xos bullingdagi deviant holatlarni aynan sinfxonada amalga oshirish imkoni paydo bo'ldi. Bunda o'smirlar bullingida deviantlikning tajovuzkorlik (agressiv), jabrlanish (viktin) va ergashish (konform) turlari namoyon bo'ladi. Ya'ni o'smir bullingda 3 ta maqomda tajovuzkor, jabrlanuvchi yoki guvoh sifatida ishtirok etadi. Bunda:

1) tajovuzkor bullirning maqsadi – guruhda yuqori mavqega erishish, jabrlanuvchining moddiy buyumlariga ega bo'lish, xizmatidan va shu bilan bog'liq imtiyozlaridan foydalanish, tajovuzkorona xulqini namoyish qilish orqali huquqbuzarlikni amalga oshirish;

2) jabrlanuvchi (bullir uchun tajovuzkorlik harakatlarining obyektining maqsadi zo'ravonlikdan qochish, o'smir shaxsi uchun 1-rasm

qulay bo'lgan ijtimoiy mavqeni saqlashga urinish. Bunda bullingdan jabrlangan xulqida namoyon bo'ladi);

3) guvoh (bullingni kuzatib turadi, o'quvchilar o'rtasida zo'ravonlik holatlari mavjudligini bilganing maqsadi tajovuzkorning xatti-harakatlarini to'g'ri yoki noto'g'ri deb hisoblashi. Ikkala holatda ham guvoh(lar) bullingga aralashmay, tomoshabin sifatida faqat o'zlarining ergashuvchi xulqlari bilan zo'ravonlik holatini kuzatib boradi).


Bullingda 3 xil tomoshabin sifatida – faol, passiv yoki befarqlik bilan ishtirok etayotgan individ "mavjud tartibotni shaxs tomonidan tanqisiz qabul qilishi, unga moslashishi, o'z mavqeni namoyon qilishdan bosh tortishi, fikrlash tarzi va xulq-atvor turiga, umumiy, ijtimoiy yoki guruh standartlari va stereotiplariga passiv rioya qilish orqali ifodalab, konform xulqni namoyon qilayotgan "guvoh o'quvchi" [11] lar xulqida keyinchalik salbiy o'zgarishlar kuzatish hech gap emas. Bunday passiv pozitsiya o'quvchilarni keyinchalik konform shaxs bo'lib shakllanishi, jamiyatda oxir-oqibat konformistik ruh kuchayishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, o'quvchi-yoshlar o'rtasidagi bulling holatini jamiyat rivojiga salbiy to'siq sifatida qarash muhim hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Bullingni sodir etuvchi kimsalar ko'pincha quyidagi muhitda shakllangan bo'ladi:

a) o'ta hissiyotli, jahldor va tez g'azablanadigan;
b) boshqalarni bo'ysundirish, ularni o'z maqsadlariga erishishda vosita sifatida ishlatish istagi kuchli bo'lgan;
v) ota-onalar, o'qituvchilar, kattalar va boshqalarga nisbatan raqobatchilik pozitsiyasi va dushmanona kayfiyatda harakatlanadigan;
g) oilasida o'zaro yordam, bir-birini qo'llab-quvvatlash, ijobiy muhit mavjud bo'lmagan;
d) agar ular o'g'il bolalar bo'lsa, o'zlarini boshqalardan hamma jabhada ustunroq, deb hisoblaydigan o'smirlar orasidan chiqadi.

Bullir o'zining tashqi belgilari: bo'yi, vazni, yurishi, sochi, terining rangi bilan boshqalardan farq qiluvchi jihatlarining o'rnini to'ldirish uchun ham boshqalarni kamsitishga harakat qiladi [12].

Maktablardagi zo'ravonlik (bulling) ishtirokchilari sxemasi



Demak, bulling hodisasini har tomonlama tushunishda, eng avvalo, uning namoyon bo'lish shakllari muhim ahamiyatga ega. Bullingning klassifikatsiyasi, uning turlari: ochiq va yopiq ko'rinish orqali farqlanadi [13]. Ochiq bulling – bevosita jismoniy, psixologik yoki jinsiy ko'rinishdagi zo'ravonliklarni o'z ichiga oladi. Bu, o'z navbatida, ochiq bulling 5 ta omilga bo'linadi:

1) verbal, ya'ni nutq vosita sifatida ishlatiladi, masalan, laqab, ismni buzib aytish, so'kish va boshqalar;

2) nonverbal, ya'ni imo-ishoralar turli xatti-harakatlar, masalan, tupurish, behayo belgilar va boshqalar;


3) qo'rqitish, ya'ni tajovuzkor tomonidan intonatsiya, keskin xatti-harakatlar, bunda so'zlar ishlatilgandan keyin jabrlanuvchi muayyan topshiriqlarni bajarishga majburlanadi;

4) tovlamachilik, ya'ni tajovuzkor har qanday narsani talab qilishi mumkin, masalan, oziq-ovqat, pul, turli buyumlar, narsalarni olib qo'yish hamda tajovuzkor buyurgan ishlarni bajarish;

5) mol-mulk bilan bog'liq harakatlar, ya'ni zarar yetkazish, o'g'irlik qilish, narsalarni yashirish va boshqalar.

Yashirin bulling ko'rinishlari sifatida – e'tiborsizlik, qarshi chiqmoq (boykot), qasddan mish-mishlar yaratish va ularni tarqatish, tuhmat kabilarni kiritish mumkin.

2-rasm



Aksariyat tadqiqotchilar esa bullingda guruhning boshqa a'zolarini ishtirokchi, deb hisoblashmaydi. Bunda bullir va jabrlanuvchi o'rtasidagi munosabatlarga jiddiy e'tibor berib, bulling bu bullirning jabrlanuvchiga nisbatan zo'rvonlik harakati sifatida talqin etishgan. Ko'pgina holatda, tashqi kuzatuvchilar prinsipial ravishda ko'rib chiqilmaydi yoki bilvosita ishtirokchilar sifatida qabul qilinadi. Biroq, bu talqin to'liq to'g'ri emas, aslida, ular ta'qib qiluvchining tajovuzkor xatti-harakatlarini bilvosita qurbonlari yoki uni yanada va kuchaytiruvchilari hisoblanadi. Buning sababi R.Beron va D.Richardsonlarning fikriga ko'ra, bezorining xatti-harakatlari atrofdagilar tomonidan munosib baholanmaydi va bullingni yanada kuchaytiradi, ya'ni tajovuzkorlik darajasini oshiradi [14]. Boshqacha aytganda, kuchaytirish tomoshabin-sinfdozlarning borligi bilan bog'liq bo'lib, ularning o'sha holatga ta'siri 2 xil bo'ladi: birinchidan, zo'rvon (bullir) oldin tomoshabinlarda uyg'otgan dahshatli taassurotni oshirishni xohlasa, ikkinchi tomondan esa boshqalarning jim qo'llab-quvvatlashiga erishishga intiladi.

Demak, bullir har doim o'zining noijtimoiy xatti-harakatlariga atrofdagilarni ham tortishga intiladi. Norvegiyalik olim D.Olveus bullingda 8 ta ishtirok etuvchilar doirasini qayd etgan [15]:

1) Masxara qilinarayotgan o'quvchi;

2) Masxara qiluvchi (bullir)lar – masxara qilishni boshlab beradi va o'zgalarni ham boshqaradi.

3) Bullirga ergashuvchilar – bullingga ijobiy munosabatda bo'lib, unda faol ishtirok etishadi, biroq odatda, uni boshlashmaydi, ya'ni yetakchi rol o'ynashmaydi.

4) Tarafdorlar yoki passiv ergashuvchilar – bullingni faol va ochiqchasiga qo'llab-quvvatlashadi, masalan, kulish yoki vaziyatga e'tibor qaratilishi mumkin, biroq o'zlari ishtirok etishmaydi.

5) Passiv tarafdorlar yoki bullingning ehtimoliy ishtirokchilari – ushbu o'quvchilar bezorilikdan zavqlanishsa-da, biroq, ular aniq qo'llab-quvvatlovchi harakatlarni amalga oshirishmaydi.

6) Befarq kuzatuvchilar – holatga aralashishmaydi va o'z pozitsiyasini namoyon qilishmaydi.

7) Potensial himoyachilar – zo'rvonlikni yoqtirishmaydi, jabrdiydalarga yordam berish kerak, deb hisoblashsa-da, biroq, hech narsa qilishmaydi.

8) Himoyachilar – bullingni yoqtirishmaydi va jabrlanuvchi(lar)ga yordam berishadi yoki yordam berishga harakat qilishadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, maktablarda yuz beradigan bulling hodisasi tuzilmasida 3 ta asosiy ishtirokchi, ya'ni elementlardan iborat ekanligi kuzatildi. Bular: tajovuzkor (bullir yoki agressiv), jabrlanuvchi hamda bulling guvohlarida namoyon bo'lgan. Bundan tashqari, bugungi kunda bullingning zamonaviy ko'rinishlari ham keng tarqalmoqda. Xususan, hozirda maktablarda kuzatilayotgan quyidagi 3 ta bulling ko'rinishini qayd etish mumkin:

1) kiberhujum (internet va ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy xabarlardan yoki jamoaviy kanallardan foydalangan holda haqorat, tahdid, ayblov va shantajni o'z ichiga olgan psixologik zo'rvonlik);

2) mobbing (jabrlanuvchini sinfdan, maktabdan chetlatish maqsadida uni ommaviy ta'qib qilish ko'rinishidagi psixologik zo'rvonlik);

3) trolling (har qanday provokatsion va gij-gijlovchi muloqot, tuhmat, aldash, janjal va nizolarni sun'iy qo'zg'atish, yetarli asosga ega bo'lmagan holda buzg'unchi harakatlar va muloqot uslubini qo'llashga undash).

ADABIYOTLAR

1. Большой толковый социологический словарь. https://gufo.me/дист/социал_дист/Структура
2. Мертон Р.К. Социальная теория и социальная структура / Пер. с англ. Э.Н. Эгоровой и др. – М.: АСТ, Хранитель, 2006. –С 873.
3. Афанасьева О. Понятие и содержание криминального насилия // Уголовное право. 2014, №5. –С.13-15;
4. Голубов И.И. Виды насилия в преступлениях против правосудия: классификация, понятие, квалификация // Российский следователь. 2012. №24, –С. 36-39.
5. Narbaeva T.K. O'zbekistonda xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishning innovatsion modeli (sotsiodiskursiv tahlil). Monografiya. – Toshkent: "Tasvir", 2020. –B. 115–116.
6. Ziyaeva X.O. Maishiy zo'rvonlikka uchragan xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish samaradorligini oshirish mexanizmlari. Sots. f.f.d. (PhD)..... diss. – Toshkent: 2021. –B. 23–24.
7. Волкова Э.Н., Гришина А.В. Отсценка распространенности насилия в образовательной среде школы // Психологическая наука и образование. 2013. № 6. –С. 19–27.
8. Быковская Э. Ф. Педагогическое насилие: теория и практика // Философия образования. 2006. №1. –С. 221–229.
9. Петросянц В.Р. Психологическая характеристика старшеклассников, участников буллинга в образовательной среде, и их жизнестойкость. Автореф. Дисс..... канд. псих.наук. – Санкт-Петербург: 2011. –С. 11.
10. Романова Э.Н. Опыт использования европейскими странами программ профилактики насилия в школах // Научные проблемы гуманитарных исследований. 2011. № 9. С. 212–218.
11. Мудрик А.В., Петрина М.Г. Социально-педагогическая виктимология как отрасль знания // Вестник ПСТГУ ИВ: Педагогика. Психология. 2016. – Вып.№1 (40). –С. 38–45.
12. Yunusov A.B. O'smir-yoshlarda ijtimoiy deviantlik holatlarining sotsiologik xususiyatlari. Sots.f.n. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. – T.: O'zMU, 2004.;
13. Tojibaev V. O'zbekiston o'quvchi-yoshlarida deviantlik profilaktik omillarining sotsiologik tahlili. Sots.f.f.d (PhD) ilm. darajasini olish uchun tay. diss. T., O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi DBA, 2019.
14. Ключкова О.А. Структурная организация виктимной личности. Дисс..... канд. псих.наук. – Санкт-Петербург: –С. 155.
15. Olweus D. Bullying at school: What we know what we can do. – New York: "Wiley-Black – well", 1993. –P....



Maxmud MAJITOV,

Termiz muhandislik-texnologiya instituti yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektori, PhD

E-mail: mazhitov1981@inbox.ru

Renaissance university kafedra mudiri, PhD, dotsent U.Ergashev taqrizi asosida

SHAXS VA IJTIMOY FANLAR DIALEKTIKASI

Annotatsiya

Maqolada shaxsni takomillashtirishda ijtimoiy fanlarni o'qitish eng muhim vositalardan biri ekanligi asoslangan. Maqolada xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy fanlarga bo'lgan e'tibor yil sayin oshib borayotgani ochib berilgan. O'zbekistonda ijtimoiy fanlarni o'qitish tajribasi va erishilgan yutuqlar umumlashtirilgan, mavjud muammolar tahlil qilingan va ularni bartaraf etish yo'llari ifodalangan.

Kalit so'zlar: Inson, shaxs, jamiyat, muammo, ijtimoiy fanlar, ijtimoiy fanlar funksiyalari, ijtimoiy fanlarni o'qitish muammolari, ijtimoiy fanlarni o'qitishni takomillashtirish yo'llari.

ДИАЛЕКТИКА ЛИЧНОСТИ И ОБЩЕСТВЕННЫЕ НАУКИ

Аннотация

Статья основана на том, что преподавание общественных наук является одним из важнейших инструментов совершенствования личности человека. В статье показано, что внимание к общественным наукам в зарубежных странах растет с каждым годом. Обобщены опыт и достижения преподавания общественных наук в Узбекистане, проанализированы существующие проблемы и описаны пути их преодоления.

Ключевые слова: Человек, личность, общество, проблема, общественные науки, функции общественных наук, проблемы преподавания общественных наук, пути совершенствования преподавания общественных наук.

DIALECTICS OF PERSONALITY AND SOCIAL SCIENCES

Annotation

The article is based on the fact that the teaching of social sciences is one of the most important tools for improving a person's personality.

The article shows that attention to the social sciences in foreign countries is growing every year. The experience and achievements of teaching social sciences in Uzbekistan are summarized, the existing problems are analyzed and ways to overcome them are described.

Key words: Person, personality, society, problem, social sciences, functions of social sciences, problems of teaching social sciences, ways to improve the teaching of social sciences.

Kirish. Shaxs – ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan hodisalarning individual ifodasi, ijtimoiy ahamiyatga molik xususiyatlar kombinatsiyasi, inson ijtimoiyligining shaklidir. Shaxs – inson ijtimoiy mohiyatining konkret ifodasidir. U insondagi insoniylik me'yorini karakterlaydi. Shaxs – inson va jamiyat kesishgan chorrahakim, uning turli faoliyatlaridan insoniyat tarixi tarkib topadi. Mazkur tushuncha, bir tomondan, inson ijtimoiy, ma'naviy, madaniy rivojining darajasini aks ettirsa, ikkinchi tomondan, uning ixtiyorini, o'ziga xosligini anglatadi. Shu boisdan ushbu tushuncha o'ziga xos nazariy asos vazifasini o'taydiki, uning yordamida yakka kishi rivojining darajasi, shu jarayon kamchiliklari aniqlanadi va baholanadi. Shaxsning falsafiy talqini - bu shaxs tushunchasi, uning mohiyati va inson hayoti va jamiyatdagi ahamiyatini falsafiy tadqiq etishdir. Faylasuflar shaxsni individuallik, o'z-o'zini anglash, iroda ekanligi, axloqiy va axloqiy tamoyillar, shuningdek, ijtimoiy va madaniy omillarni o'z ichiga olgan hodisa sifatida tadqiq qiladilar. Shaxsni tushuntirishda faylasuflarni o'ylantirayotgan asosiy savollardan biri - bu shaxsni o'ziga xos va takrorlanmaydigan qiladigan mohiyat. Faylasuflar, shuningdek, shaxsning qanday shakllanishi, qanday rivojlanishi va uning rivojlanishiga qanday omillar ta'sir qilishini o'rganadilar. Inson shaxsi mutlaqo o'zgarimas fenomen emas. Uning tarkibidan joy olgan elementlar insonning butun umri davomida shakllanib va takomillashib boradi. Ushbu jarayon o'z-o'zidan, stixiyali ravishda kechmaydi, albatta. Shaxs tarkibiy elementlari turli shart-sharoit, omil, voqea va hodisalar ta'sirida rivojlanadi. Inson shaxsi tabiatini mazkur shart-sharoit va omillar ta'siridan xoli holda talqin qilish biryoqlama, ilmiy asoslanmagan va ob'ektivlikdan yiroq xulosalarga olib keladi.

Zamonaviy falsafa, psixologiya va pedagogikada shaxsning shakllanishi va rivojlanishi jarayoni determinizm prinsipi nuqtai nazaridan tadqiq qilinmoqda. Bizga ma'lumki, determinizm - voqelik hodisalarning aloqadorligi va o'zaro shartlanganligi haqidagi ta'limotdir. U narsa va hodisalarni konseptual va tarkibiy tahlil qilish bilan cheklanmasdan, ularni voqelikdagi boshqa jarayonlar bilan aloqadorlikda o'rganish zarurligini uqdiradi. Determinizm haqidagi tasavvurlar ilmiy uslub tarkibiga kiradi – bu tasavvurlar tadqiqotni turli shart-sharoit, sabab va qonuniyatlar, ta-biat, jamiyat va tafakkurdagi har qanday o'zgarishlarni aniqlash hamda tahlil qilish

asosida amalga oshirishga undaydi. Determinizm asosini esa sababiyat va qonuniyatlar konsepsiyasi tashkil etadi [5].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Rivojlangan xorij mamlakatlarida ijtimoiy fanlarni o'rganish zamonaviy shart-sharoitlarda samarali hayot kechirish va faoliyat ko'rsatishning muhim omili sanaladi. Shu boisdan bu mamlakatlarda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishning o'ziga xos tizimi shakllangan. Masalan, AQShda Leyk okrugi Kolleji falsafa, sotsiologiya, ijtimoiy ish, antropologiya, tarix, siyosatshunoslik va psixologiyadan mutaxassislar tayyorlaydi. Salem davlat universitetida etika, ijtimoiy siyosat, menejment, huquqshunoslik va shu kabi ta'lim yo'nalishlari mavjud. Shimoliy Dakota davlat universiteti asosiy e'tiborni sotsiologiya va oilaviy terapiyaga qaratgan. Masalan, "QS World University Ranking by Subject 2015" jahon universitetlari reytingida Garvard universiteti, Kaliforniya universiteti, Viskonsin universiteti ijtimoiy fanlarni o'qitish bo'yicha yetakchilar sifatida qayd etilgan [6].

Ilg'or universitetlar huzurida ijtimoiy bilimlarni o'zlashtirishga moyil shaxslar, hatto xorij mamlakatlarining fuqarolariga mo'ljallangan o'nlab o'quv kurslari faoliyat ko'rsatadi. Masalan, birgina Yel universitetida "World Fellows" dasturi asosidagi o'quv kurslariga har yili 3 mingdan ortiq da'vogar hujjat topshiradi[2]. Bunday kurslar yordamida fuqarolar ijtimoiy bilimlarining oshirilishi AQShda fuqarolik jamiyatining misli ko'rilmagan darajada rivojlanishiga zamin yaratadi.

Aqliy markazlar – gumanitar fanlarning ijtimoiy missiyasini yorqin namoyish etadigan fenomenidir. CAP (Central Asia Program) loyihasi rahbari, fransiyalik olim Marlen Lyaruelda ko'ra, birgina Vashingtonning o'zida to'rt yuzdan ziyod aqliy markaz mavjud. AQSh poytaxti, jahon diplomatiyasining markazi bo'lmish Vashington bu jihatdan gumanitar soha vakillarini ohanrabo kabi o'ziga tortayotgan maskan hisoblanadi, chunki u yerda ilmiy karera qurish va katta daromad ko'rish imkoniyati mavjud. Bu aqliy markazlardan ko'zlangan pirovard maqsad esa Markaziy Osiyo davlatlari haqida bilimlar bazasini yaratib, bu bazani "monetizatsiya" qilish, ya'ni mintaqada ishlashni istagan tijoriy tashkilotlar, siyosiy tuzilmalarga sotish, qolaversa, Vashington elitasida mintaq haqida aniq tasavvur hosil qilishdan iborat edi[3].

Ijtimoiy-gumanitar fanlarga texnokratik yondashuvning oqibatlarini haqida professor Q.Nazarov quyidagicha fikr bildiradi: "Asosan, g'oyaviy ta'limga qaratilgan, ma'naviy kamolot manbai bo'lgan va pirovard natijada, davlat ishlariga moyil, siyosiy yetuk avlodni tarbiyalashga yordam beradigan ijtimoiy fanlarga ham ikkinchi darajali o'quv sohasi sifatida qaraladi. Ularga nisbatan texnokratik yondashuv ustuvor bo'la boshlaydi, bu fanlarning asl tarbiyaviy funksiyasi bir chetga qolib, dars yuklamalari va baholash tizimi texnik fanlar bilan tenglashtiriladi"[3].

Tadqiqot metodologiyasi. Shaxs va ijtimoiy fanlar o'rtasidagi dialektik munosabatlarni yoritib berisha bag'ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida qo'llaniladigan analiz, sintez, qiyosiy tahlil kabi metod va usullardan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Yevropaning qariyb barcha yetakchi oliy ta'lim muassasalari ijtimoiy fanlarni o'qitish tizimida asosiy e'tiborni globallashtirilgan dunyoda yuzaga kelayotgan ijtimoiy muammolarni ilm-fan pozitsiyasidan tadqiq qilishga qodir mutaxassislarini tayyorlashga qaratmoqda. Masalan, Germaniyaning yetakchi ta'lim muassasalaridan biri hisoblangan Vitten universitetida falsafa, siyosatshunoslik va iqtisodiyotning turli yo'nalishlari bo'yicha bakalavrlar va magistrlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan [4].

Bundan tashqari Gumbolt nomidagi Berlin universitetida to'rtta falsafa fakulteti faoliyat yuritib kelmoqda [5]. Shuningdek M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Falsafa fakultetida o'n olti xil falsafaga oid kafedralar va oltita ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyat olib borishmoqda [6].

Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy fanlarni o'qitish borasida, xususan, Berlinda bir necha yillardan buyon "Yevropada gumanitar va ijtimoiy fanlar: yutuqlari va istiqbollari" mavzuida xalqaro simpozium o'tkazish an'anaviy tus olgan [4].

Ko'rinib turibdiki, jahonning ijtimoiy taraqqiyotga yuz tutgan barcha mamlakatlarida ijtimoiy-gumanitar fanlarga bo'lgan e'tibor yil sayin yuksalib bormoqda, uning imkoniyatlari, bir tomondan, jamiyat oldida turgan muammolarni tadqiq qilishga, ikkinchi tomondan esa, insonni shaxs sifatida shakllantirishga safarbar qilinmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish masalasida mamlakatimizda qator masalalarni kun tartibiga qo'yish, ularni samarali va tizimli hal qilish zarur bo'ladi.

Birinchidan, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishning uzluksiz tizimini shakllantirish va rivojlantirish zarur. Afsuski, keyingi yillarda ijtimoiy-gumanitar fanlarni uzluksiz o'qitish tizimiga darz ketdi. Umumta'lim maktablarida berilayotgan tahsilning atigi 5 foizi ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish bilan bog'liq. Oliy ta'lim muassasalarida ham bu borada ahvol yaxshi emas. Ayni paytda mamlakatda hanuzga qadar oliy ta'limdan keyingi davrda fuqarolarni ijtimoiy-gumanitar bilimlar bilan qurollantirishga xizmat qiluvchi o'quv kurslari, markazlar qariyb mavjud emas. Buning ustiga ta'lim tizimining turli bosqichlarida tahsil berilishi nazarda tutilgan ijtimoiy-gumanitar fanlar o'rtasida uzviylik ko'rinmaydi.

Natijada:

a) ijtimoiy-gumanitar fanlarning shaxs dunyoqarashi va ma'naviy qiyofasini insonparvarlik g'oyalari asosida shakllantirish borasidagi qudratidan foydalanilmay qolinmoqda;

b) shaxs jahondagi eng zamonaviy ijtimoiy bilimlardan xabardor bo'lish imkoniyatlaridan bebahra qolmoqda;

v) shaxs e'tiqodini mustahkamlash, qadriyatlarini tizimini insonparvarlashtirish jarayoni zaiflashmoqda;

g) jamiyatda shaxsning ijtimoiy ahamiyatga molik fazilatlarining qaror topishi jarayoni susaymoqda, ularning shakllanishi jarayoniga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari kamaymoqda;

d) shaxsni ijtimoiy taraqqiyot maqsadlariga yo'naltirish, uni mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarga safarbar qilish vazifasi bajarilmay qolmoqda;

e) shaxsni postmodern jamiyatda ildiz otayotgan salbiy tendensiyalardan voqif qilish imkoniyatlari kamaymoqda;

j) shaxsning turli g'ayriinsoniy g'oyalar ta'siriga tushib qolishi xavfi kuchaymoqda.

Ikkinchidan, oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishni bitta kafedrada va aniq fanlarga xos pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirish tajribasidan voz kechish kerak. Ijtimoiy fanlarning har biri inson shaxsining shakllanishi jarayoniga o'ziga xos ta'sir ko'rsatishga qodir. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishning "bir nuqtadan" umumiy, standart talablar asosida amalga oshirilishi bu fanlar o'rtasidagi tafovutni yuvib yuboradi, ularning shaxsa ta'sirini kamaytiradi. Shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishga bunday yondashish deyarli uchramaydi.

Shu sababli ham bugungi kunda gumanitar bilimlarni dolzarblashtirish, soha vakillarini ijtimoiy muammolarni hal qilish jarayoniga jalb etish uchun avvalo munosabat o'zgarishi lozim: jamiyatda o'tkir akademik va ijtimoiy bahslar uyushtirilib, tarixchi, tilshunos, jamiyatshunos va boshqalarning faoliyati taftish etilishi, talablarga ko'ra ijtimoiy buyurtma shakllanishi lozim. To'g'ri qo'yilgan maqsad to'g'ri natijalarga olib borishi ma'lum [1].

Ijtimoiy-gumanitar fan o'qituvchilari o'quv yuklamasining haddan ziyod ko'payib borayotgani talabalarni mustaqil shaxs sifatida shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan munozara, disput, shukbat, konsultatsiya tarzida mashg'ulot o'tkazish imkoniyatlarini cheklab qo'yimoqda.

Uchinchidan, ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy-uslubiy markazlarni ko'paytirish kerak. Mamlakat ijtimoiy-gumanitar fanlari inson shaxsining kamol topishi jarayonini takomillashtiruvchi, uni zamonaviy tendensiyalarning salbiy ta'siridan himoya qiluvchi omilga aylanishi uchun jahondagi ilmiy jarayonlardan chetda qolib ketmasligi, yuz berayotgan ijtimoiy jarayonlarni muntazam tadqiq etish imkoniga ega bo'lmog'i dardkor.

To'rtinchidan, ijtimoiy-gumanitar fan mutaxassislari tayyorlash tizimini ham takomillashtirish zaruriyati mavjud. Jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarni ilmiy tahlil qilib berish, ijtimoiy taraqqiyot istiqbollari doir bashoratlar tayyorlash, fuqarolar dunyoqarashini insonparvarlik g'oyalari asosida shakllantirish uchun mamlakatda yetarli darajada faylasuflar, sotsiologlar, siyosatshunoslar faoliyat ko'rsatmog'i dardkor. Zero Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "...ijtimoiy fanlarga e'tibor bermaslik oqibatida dunyoqarashi bir tomonlama shakllangan, o'zidan boshqani o'ylamaydigan, xalq, davlat va jamiyat tushunchalaridan begona bo'lgan va bugungi kunda chet ellarda "Boy berilgan avlod" deya atalayotgan yoshlar avlodi bizda ham vujudga kelmaydimi?"[2].

Xulosa va takliflar. Xulosa qiladigan bo'lsak, bugungi kunda ijtimoiy-gumanitar fanlar postmodern jamiyat tendensiyalarining shaxs ma'naviy qiyofasiga salbiy ta'sirini kamaytirishga xizmat qiladigan eng muhim sub'ektiv omil vazifasini o'tamoqda. Shu boisdan ham jahonning barcha rivojlangan mamlakatlarida ularga bo'lgan e'tibor oshmoqda. O'zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlarni shaxsni takomillashtiruvchi qudratli omilga aylantirish uchun ularni o'qitishning uzluksiz tizimini shakllantirish va rivojlantirish, oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishni bitta kafedrada va aniq fanlarga xos pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirish tajribasidan voz kechish, ijtimoiy fanlar bo'yicha ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy-uslubiy markazlarni ko'paytirish, mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish zarur bo'ladi. Postmodern jamiyatdagi tendensiyalar bizdan ta'lim-tarbiya tizimiga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Avvalo ilmiy muammoni va tadqiqot ob'ektini, mavzularini aniq belgilab olish zarur. Shundan keyin gumanitar fanlararo o'ziga xos "mehnat taqsimoti" va kooperativ aloqalarni amalga oshirish zarur bo'lsa, turli mutaxassislar jalb etilgan holda ilmiy laboratoriyalar tashkil qilinishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Asanov E. Gumanitar fanlardan nima naf? // Tafakkur jurnali, 2021-yil 4-son.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
3. Nazarov Q. Yoshlarni g'oyasizlik balosi hurujlaridan asrash – ma'naviy tarbiya ehtiyoji // "Yangilanayotgan O'zbekistonda ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtirishning falsafiy muammolari" mavzusidagi vazirlik miqyosida ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Termiz, 2020.
4. VI Международный симпозиум «Гуманитарные и общественные науки в Европе: достижения и перспективы» // vsenauki.ru
5. Новая философская энциклопедия. В 4-томах. / Под ред. В.Степина и Г.Семгина. Том 2. – М: Мысль, 2010. – С. 631.
6. Стефанович М. Изучение общественных наук в США // www. hotcourses.ru.
7. Чему учили Навального в США?// Аргументы и факты, 2018, №30.



Davlatjon MAMATKULOV,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, Falsafa fanlari doktori (DSc)
E-mail: mamatqulovdavlatjon@gmail.com

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, pedagogika fanlari doktori R.Maxmudov taqrizi asosida

IDEOLOGICAL THREATS IN THE CHARACTER OF “SOFT POWER”: POPULAR CULTURE AND THE CONCEPT OF “OVERTON WINDOW”

Annotation

This article talks about "mass culture", which is one of the types of ideological threats in the modern conditions of accelerated globalization and information circulation, and the concept of "Overton window", which plays a special role in turning such threats into a large-scale influence. The article provides a socio-philosophical analysis of the concepts of "mass culture" and "Overton window" and their essence. Also, on the basis of a unique approach, the forms, types, stages of the disappearance of "mass culture" and "Overton's window" and their relationship were studied, proposals and recommendations were put forward to prevent these threats.

Key words: Pop culture, overtone hole, kitsch, vandalism, nihilism, starism, happy, emo, goth, beatnik, mod, taboo, idea, ideology.

ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ УГРОЗЫ В ХАРАКТЕРЕ «МЯГКОЙ СИЛЫ»: ПОПУЛЯРНАЯ КУЛЬТУРА И КОНСЕПЦИЯ «ОКНО ОВЕРТОНА»

Аннотация

В данной статье говорится о «массовой культуре», являющейся одним из видов идеологических угроз в современных условиях ускоренной глобализации и информационного обращения, и понятии «окно Овертона», которое играет особую роль в превращении таких угроз в масштабное влияние.

В статье проводится социально-философский анализ понятий «массовая культура» и «окно Овертона» и их сущность. Также на основе уникального подхода изучены формы, виды, этапы исчезновения «массовой культуры» и «окна Овертона» и их взаимосвязь, выдвинуты предложения и рекомендации по предотвращению этих угроз.

Ключевые слова: «Поп-культура», «овертоновая дыра», китч, вандализм, нигилизм, старизм, хеппи, эмо, гот, beatnik, мод, «табу», идея, идеология.

«YUMSHOQ KUCH» XARAKTERIDAGI MAFKURAVIY TAHIDDLAR: «OMMAVIY MADANIYAT» VA «OVERTON TUYNIGI» KONSEPSIYASI

Anontatsiya

Mazkur maqolada globallashuv va axborot aylanishi jadallashgan bugungi sharoitida mafkuraviy tahdid turlaridan biri bo‘lgan «omnaviy madaniyat» hamda mana shunday tahdidlarni keng ko‘lamli ta‘sir kuchiga aylanishida o‘ziga xos rol o‘ynovchi «overton tuynigi» konsepsiyasi haqida so‘z boradi.

Maqolada «omnaviy madaniyat» va «overton tuynigi» tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy tahlili va ularning mazmun-mohiyati tahlil etilgan. Shuningdek, «omnaviy madaniyat» va «overton tuynigi»ning nomoyon bo‘lish shakli, turlari, bosqichlari hamda ularning o‘zaro aloqadorligi masalasi o‘ziga xos yondashuv asosida o‘rganilib, mazkur tahdidlarni oldini olishga oid taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: «Ommaviy madaniyat», «overton tuynigi», kitch, vandalizm, nigilizm, starizm, heppining, emo, got, beatnik, mod, «tabu», g‘oya, mafkura.

Kirish. Mazkur maqolada globallashuv va axborot aylanishi jadallashgan bugungi sharoitida barqaror taraqqiyotimizga o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatayotgan «yumshoq kuch» xarakteridagi mafkuraviy tahdidlar tahlil etilgan.

Ma‘lumki, «yumshoq kuch – bu boshqalarni siz qo‘lga kiritmoqchi bo‘lgan natijalarni istashga majburlash» demakdir. Biroq bu ta‘sir ko‘rsatishning o‘zi emas... Yumshoq kuch – shunchaki ishonirish, ko‘ndirish yoki, garchi bular bari ushbu kuchning muhim elementlari bo‘lsa-da, dalil-isbotlar yordamida biron ishini qilishga undash qobiliyatidir. Yumshoq kuch, shuningdek, jalb etish qobiliyati hamdir, jalb etish esa, ko‘pincha o‘zaro tushinishga olib keladi. Oddiy qilib aytganda, xulq-atvor ma‘nosida yumshoq kuch – jozibador kuch» [7] hisoblanadi. Bunday tahdidlar bir qarashda tahdidligi ham anglanmasdan, beziyon ko‘rinsada aslida xavflilik darajasi bo‘yicha bevosita tahdidlardan ham yuqorida turadi. «Ommaviy madaniyat» aynan mana shunday xarakterdagi tahdidlardan biri hisoblanadi.

Ommaviy madaniyat haqida gap borganda ijtimoiy hayot va ilmiy jamoatchilikda bu xususida ikki xil yondashuv mavjudligini ta‘kidlash lozim. Ularning birinchisi «omnaviy madaniyat turli e‘tiqodlar va amaliy faoliyat turlarini, shuningdek, aholi keng qatlamlari tomonidan foydalaniladigan madaniy ob‘ektlarni o‘z ichiga oladi» [3] singari mazmunida bo‘lsa, ikkinchisi, muayyan millatni ming yillar davomida shakllangan milliy madaniyatiga zid keluvchi, unga muxolif bo‘lgan, aslida madaniyat mezonlariga tushmaydigan anti «madaniyat»ni nazarda tutuvchi yondashuvlar hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Rus olimi A.L.Dvorkin yondashuvga ko‘ra, «omnaviy madaniyat», tub mohiyatiga ko‘ra, milliy madaniyatning kushandasi bo‘lib, u madaniy plyuralizmi

xushlamaydi, uning asl maqsadi – bu olamni bir xil rangda ko‘rish» [4] hisoblanadi. Professor A.Erkaev fikricha «omnaviy madaniyat insonni barcha sohalarda, jumladan, madaniyat va dam olish, bo‘sh vaqtini tashkil qilish borasida ham individualligini yo‘qotgan iste‘molchiga aylantirib qo‘yadi. Uning iste‘mol qilayotgan ma‘naviy-madaniy mahsulotlari, san‘at asarlari esa standartlashgan, milliy qiyofasiz («pop-art») tovarga aylanadi. Musiqada va ashulachilikda rep, rok kabi janrlar, jangarilik, mistik-fantastik filmlar, trillerlar blokbusterlar fikrini tasdiqlaydi. Ommaviy madaniyat niqobi ostida vaqti-vaqti bilan paydo bo‘ladigan turli ijtimoiy harakatlar va guruhlar (xippilar, pranklar, rokerlar hamda geplar (besoqollar) harakati, antiglobalistlar va sh.k.), faxsh va zo‘rovonlikni, vampirlik va jodugarkilikni targ‘ib qiluvchi filmlar, ochiqchasiga pornografik sahnalardan iborat kassetalar, diskalar va boshqalar ta‘sir esa inson shaxsini yemirishga, jamiyatni degumanizatsiya qilishga olib keladi» [1] singari qarashlarni keltirish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqoladagi ilmiy tahlil, xulosa, taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishda mafkuraviy tahdidlar, jumladan, «omnaviy madaniyat» hamda shu kabi mafkuraviy tahdidlarning ta‘sir etish usullariga oid yurtimiz va xorij olimlarining asarlariga asoslandi.

Mazkur maqola metodologiyasi «omnaviy madaniyat» va «overton tuynigi» tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy kontekstdagi mazmuni tahlili, nomoyon bo‘lish shakllari, turlari, bosqichlari hamda ularning o‘zaro aloqadorligi masalalarini o‘rganishda falsafiy tafakkurning sababiyat va o‘zaro aloqadorlik, tizimli va qiyosiy tahlil, tarixiylik va mantiqiylik kabi ilmiy usullarga tayanadi.

Tahlil va natijalar. Bugungi axborot aylanishi jadallashgan va globalashuv sharoitida «ommaviy madaniyat - mafkuraviy urush quroli» [2] sifatida rol o'ynamoqda. Uning qaynoq urush qurollaridan farqi shundaki, u «yumshoq kuch» shaklida sekin astalik bilan, «madaniyat» niqobi ostida jamiyatimizga kirib kelmoqda.

Ta'kidlash kerakki, «ommaviy madaniyat» yakka tushuncha sifatida qo'llanilgani bilan u ko'pdan-ko'p shakllarda o'zini nomoyon etadi. Jumladan, uning shakllari sifatida:

kitch – badiiy-estetik qimmatga ega bo'lmagan narsa va buyumlarga yuksak andoza tusini berish;

vandalizm – madaniy yodgorliklarni, qadriyatlarini vahshiylarcha vayron, oyoq osti qilish, yo'qotish;

nigilizm – jamiyatning ma'naviy norma va ustunlari, umume'tirof etilgan tarixiy va madaniy qadriyatlarining inkor etish, shuningdek, ularga nisbatan mutlaqo salbiy, o'ta tanqidiy munosabatda bo'lish;

komiks – tagiga qisqa matn yoki luqmalar bitilgan behayo matbaa - rasm mahsulotlari;

starizm – sub'ektiv extirosarlarga berilgan holda, estrada artistlari, aktyor, sportchi va telediktorlarni ideallashtirish;

xepning – avvaldan rejalashtirilgan, nogahonda uyushtiriladigan keskin tomoshalar;

tatuirovka tushirish - teri ostiga rang yuborib, turli xil shakl va naqshlar chizish;

bir jinslilar nikohi – erkak va erkak yoki ayol va ayol o'rtasida oila qurush harakati kabilarni keltirish mumkin.

«Ommaviy madaniyat» amaliyotda yuqoridagi xarakat shakllaridan tashqari butun bir millatning milliy madaniyatiga qarama-qarshi bo'lgan submadaniyatlarni ham hosil qila oladi. Submadaniyat deganda, muayyan insonlar guruhining hayot tarziga ta'sir qiluvchi ijtimoiy psixologik va g'oyaviy belgilar (norma, qadriyat, stereotip, did) majmuasi tushuniladi. Submadaniyat – muayyan ijtimoiy guruhga xos bo'ladi va u jamiyatdagi hukmron madaniyatdan til, kiyinish, odatlar va boshqa jihatlar bilan farqlanadi [5].

Ilmiy izlanishlarimiz xulosalariga tayangan xolda, submadaniyatning turlariga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin:

Emolar – submadaniyat ko'rinishlaridan biri bo'lib, shu nomli musiqa yo'nalishi negizida yaralgan. Uning vakillari noodatiy bezak va kiyimlari bilan ajralib turishadi;

Gotlar – XX asrning 70-yillarida post-pank talqini ostida paydo bo'lgan. Gotlarning o'ziga xos xususiyatlari: maxsus imij, got musiqasiga qiziqish, kiyimlari asosan qora rangda, ko'proq erkaklarga xos odatlar, tishlari uchli vampirsimon ko'rinishda bo'lishi bilan xarakterlanadi;

Beatniklar – 1950 va 1960 yillarda amerikada shakllangan va dastlab ular amerikaliklarning mumtoz qadriyatlariga, giyohvand moddalar iste'moli, jinsiy erkinlik va anti-materializmga qarshi chiqishgan. Ularning odatiy kiyimi fransuz bereti, quyoshdan saqlovchi ko'zoynak va qora sviter hisoblanadi.

Modlar – 1960 yillarda amerikada shakllangan. Kiyinishda erkaklar o'ziga xos italiyan kostyumidan, ayollar esa mini yubka va etiklardan foydalanishadi. Shuningdek, ular dubulg'aga o'xshash sochlari va motosiklda yurishlari bilan ham ajralib turishadi;

Hippilar – 1970 yillarda paydo bo'lishgan. Ular boshqa submadaniyatlardan uzun sochlari va rang-barang kiyimlari, sandal kiyishlari hamda ongni kengaytirish usuli sifatida giyohvand moddalar bilan tajriba o'tkazishi bilan ajralib turadi. Ayni vaqtda ular jamoat hayoti, jinsiy inqilob va erkin sevgi g'oyalarini targ'ib qiladilar;

Punklar – 1970 yillarning o'rtalarida paydo bo'lishgan. Ular o'z mafkurasida anarxiya (hokimiyatsizlik, beboshlik)ni targ'ib qiladi. Ko'rinish jihatidan ular Mohican soch turmagi, charm kurtka va qulflangan yoqa bilan boshqalardan ajralib turadi.

Amaliyotda submadaniyatning yana rokchilar - rok-roll kabi musiqa fanatlari, metallistlar - metal nishonlarga ixlos qo'yanlar, geymerlar - video o'yin muxlislari, gotiklar - motam va o'limga talpinuvchi va targ'ib etuvchilar kabi turlari ham uchraydi.

Submadaniyatlar «ommaviy madaniyat»ning hayotdagi amaliy ko'rinishi hisoblanadi. Ularning paydo bo'lishiga jamiyatdagi ichki: mafkurasizlik, jamoaviy ta'sirning yo'qligi va qarshi kurashning ijtimoiy-huquqiy mexanizmlarini yaratilmagani sabab bo'lsa, tashqi tomondan «yumshoq kuch» ta'sir strategiyasiga asoslanuvchi konsepsiyalar sabab bo'ladi. Mana shunday konsepsiyalarga misol qilib «Overton tuynigi»ni keltirish mumkin.

Ma'lumki, «Overton tuynigi» konsepsiyasi amerikalik olim va psixolog Jozef Overton (01.04.1960 - 30.06.2003) nomi bilan bog'liq. U o'z vaqtda insonni noinsoniyashtirish usulini o'rgangan va qanday qilib qabul qilib bo'lmaydigan, jirkanch va sharmandali xolatni bosqichma-bosqich tarzda, oddiy, jamiyat va davlat tomonidan qabul qilingan xolatga olib kelish jarayonini tushuntirib bergan.

«Overton tuynigi» konsepsiyasida olitta bosqich mavjud.

Ular:

Birinchi bosqich – «Tabu» - jamiyatga butunlay yot bo'lgan, jamiyat a'zolariga taqiqlangan, o'ylab ham bo'lmaydigan narsa;

Ikkinchi bosqich – «Tabu»ni muhokamaga olib chiqish va vaziyatni radikal (radikal – lotincha «radix» ildiz so'zidan olingan bo'lib, qat'iy va keskin choralar, harakatlar tarafdori) shaklga keltirish;

Uchinchi bosqich – radikal vaziyatni maqbullashtirish, yumshatish. Masalan, an'anaviy atamalarning ma'nosini o'zgartirish. Misol uchun bir jinslilar «nikoh»ini - «ixtioriylik, erkinlik tantanasi» atamasiga o'zgartirish;


To'rtinchi bosqich – qabul qilingan yangi normani «oqilona ish»ga aylantirish. Masalan, bir jinslilar «nikoh»ini ilmiy, tabiiy, tarixiy, biologik yoki boshqa sabablarga asoslash;

Beshinchi bosqich – «oqilona ish»ni mashhur qilish. Ya'ni, o'tmish yoki hozirda ko'plab taniqli shaxslar ushbu me'yorning tarafdorlari bo'lganligini ko'rsatish;

Oltinchi bosqich – ijtimoiy darajada ommabop bo'lgan narsani qonuniy mustahkamlab qo'yish. Masalan, bir jinslilar «nikoh»ni tarafdorlarining huquqini himoyalash bo'yicha qonun qabul qilish kabilari (1-rasm).

Ko'rinib turibdiki, «Overton tuynigi» konsepsiyasida «tabu» - go'yo imkonsiz narsa – joizga, joiz – ma'qulga, ma'qul – mantiqiyga, mantiqiy – mashhurga, mashhur – inkor etib bo'lmaz haqiqat (qonuniy)ga aylanadi.

Mazkur konsepsiya tom ma'noda «ommaviy madaniyat» singari mafkuraviy tahdidlarning ishlash prinsipini ko'rsatib beradi.



1-rasm. Yoshlar ongidagi qadriyatlar transformatsiyasiga salbiy ta'sir etuvchi «Overton tuynigi» kontsepsiyasining ta'sir strategiyasi

Afsuski, jamiyatimizning bugungi g'oyaviy-mafkuraviy manzarasi yurtimizda ham «Overton tuynigi» konsepsiyasi ishlayotganini ko'rsatadi. Chunki hozirgi holat, ya'ni:

«O'zini ayollarga o'xshatib, to'yima-to'y yuradiganlarga «parodist san'atkor» nomi berilib, hatto TV ga olib chiqilishi, ularning jirkanch ishlariga «san'at» deb nom berilishi;

Ba'zi san'atkorlarning transgenderlar bilan iliq munosabatini ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoyish;

Ikki mashhur ayol qo'shiqchilarimizning bir-biri bilan o'pishgudek darajada bir-biriga qarata sevgi haqidagi qo'shig'iga ishlangan klip;

Turli shoumenlar tomonidan bachchavozlik haqidagi hazillarning nihoyatda ko'payib, xalqqa oddiy holdek ko'rsatilishi, natijada ko'pchilik bunday hazillarni nafrat bilan emas, kulgi bilan qabul qila boshlagani;

Ba'zi OAVlarning LGBTlarni himoyalovchi, ularga muxolif bo'lganlarni qoloqlikda, mutaassiblikda ayblovchi maqolalarni tez-tez e'lon qilib turishi;

Ba'zi populist blogerlar tomonidan LGBTlarni bevosita yoki bilvosita qo'llab-quvvatlash, ularga nisbatan tolerant bo'lishga da'vat qilishning avj olishi;

Shunday blogerlar jamoasi tomonidan geylikni biologik taqozo, pedofilikni ham normal holat deb baholaydigan kitobning tarjima qilinib, o'zbek kitobxonlariga taqdim etilishi»[8] kabilarning mavjudligi shundan dalolat beradi.

Bizningcha, yuqoridagi masalalar «Overton tuynigi» konsepsiyasi bo'yicha jamiyatimizga «ommaviy madaniyat» kabi mafkuraviy tahdidlar o'z ta'sirini o'tkazotganligining amaliy isboti hisoblanadi. Chunki, yuqorida misol keltirilgan g'oyaviy-mafkuraviy buzilishlar bundan ellik yoki yetimish yil avval ham jamiyatimiz uchun «tabu» (taqiqlangan, o'ylab ham bo'lmaydigan narsa) darajasida bo'lgan. Endilikda esa, bunday narsalarni o'zaro muhokama qilinayotgani, ba'zilar tomonidan ularning huquqlari haqida qayg'urilishi jamiyatimizni «Overton tuynigi»ning ayrim bosqichlarini bosib o'tganidan dalolat beradi.

Xulosa va takliflar. Maqoladagi tahlillar birinchi navbatda «ommaviy madaniyat» singari mafkuraviy tahdidlarni «Overton tuynigi»ning so'ngi bosqichigacha yetib borishlariga, ya'ni «mentalitetimizga zid bo'lgan narsani qonuniy mustahkamlab qo'yish»larigacha kutmasligimiz zarur, degan xulosaga kelishimizga undaydi.

Buning uchun, mafkura ob'ekti bo'lgan inson deb atalmish oliy mavjudotni har tomonlama chuqur o'rganishimiz lozim bo'ladi. Binobarin, «inson, uning miyasi, aqli shu darajada ko'p qirrali, xilmay-xil, anglash qiyin bo'lgan holat va bashorat qilish mumkin bo'lmagan xazina. O'zida mujassam etgan beqiyos imkoniyatlari bilan noyob mo'jiza. Bu muammo juda murakkab va balki, undan ham qiyin bo'lgan hodisaki, uni fan hali-beri hal eta olmaydi» [6]. Inson mohiyati va uning potensial kuchini yo'naltirish masalasida fan o'z bo'lsa, bu jarayon albatta mafkura tomonidan xal etilishi lozim bo'ladi. Buning uchun esa, jamiyat hayotiga har tomonlama mos keladigan, zamon va makon uchun munosib mafkuraviy mexanizmlarni yaratish dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Erkaev A. Ma'naviyat. – T.: Ma'naviyat, 2011. 215-216 betlar.
2. Fойибназаров Ш. Оммавий маданият. – T.: Ўзбекистон, 2012. –74 б.
3. Мукарджи Ч. Новый взгляд на поп-культуру. № 3. С. 101.
4. Дворкин А.Л. Сектоведение. - Нижний Новгород, 2002. С. 66.
5. Субкультура // Энциклопедия социологии / Сост. А.А.Грицанов, В.Л.Абушенко, Г.М.Евелькин, Г.Н.Соколова, О.В.Терещенко. Минск: Книжный Дом, 2003. с. 1312 .
6. Константинов Ф. Современные проблемы философии и задачи философской общественности. «Вопросы философии» 1972, №1 с. 35.
7. Най Дж. Гибкая власть. Как добиться успеха в мировой политике. Пер.с англ. – Новосибирск/Москва, 2006. – С. 30-32.
8. Muqimov Yo. Fitna nazariyasi chinga o'xshaydi... <https://azon.uz/content/views/fitna-nazariyasi-chinga-uhshaydi>.
9. Семирухин Л.В. Нанотехнологии и сознание // Философские науки. - 2022. - №2.
10. Маматкулов Д.М. Мafкурaвий жараёнлар трансформацияси // Монография – Тошкент: «Lesson press» нашриёти, 2023 – 224 б.



UDK: 796.052.2

Исломжон МАХСУМОВ,

Кафедра «Гуманитарных и естественных наук» Института «Международная школа финансовых технологий и науки» педагогических наук доктор философских наук (PhD), старший преподаватель
E-mail: mahsumovislomjon@gmail.com

По отзыву профессора Нуримова Рахмонберди Игамбердиева, кандидата педагогических наук УзДЖТСУ

РАЗВИТИЕ ОБЩЕЙ ЛОВКОСТИ ЮНЫХ ФУТБОЛИСТОВ НА ЭТАПЕ НАЧАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация

В статье, представлены важность и значение развития общей ловкости юных футболистов на этапе начальной подготовки. Описаны процентные соотношения общей и специальной физической подготовки и ловкости на различных этапах тренировок.

Ключевые слова: Многолетняя подготовка футболистов, общая и специальная ловкость, средства и методы развития, тесты и оценка ловкости, эффективность упражнений, информативность тестов.

YOSH FUTBOLCHILARNING BOSHLANG'ICH MASHG'ULOT BOSQICHIDA UMUMIY CHAQQONLIGINI RIVOJLANTIRISH

Аннотация

Maqolada muallif mashg'ulotning boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida yosh futbolchilarning umumiy chaqqonligini rivojlantirishning ahamiyati va zaruriyati keltirilgan. Murabbiyning turli bosqichlarida umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik va chaqqonlikning foiz nisbati keltirilgan.

Kalit so'zlar: Futbolchilarning ko'p yillik tayyorgarligi, umumiy va maxsus chaqqonlik, rivojlantirish vositalari va usullari, chaqqonlikni testlash va baholash, mashqlar samaradorligi, testlarning informativligi.

DEVELOPING THE GENERAL DEXTERITY OF YOUNG FOOTBALL PLAYERS AT THE INITIAL TRAINING STAGE

Annotation

The article presents the importance and significance of the development of general agility of young football players at the stage of initial training. The percentages of general and special physical fitness and agility at various stages of training are described.

Key words: Long-term training of football players, general and special agility, means and methods of development, tests and assessment of agility, effectiveness of exercises, informativeness of tests.

Введение. Основными задачами физической подготовки являются: укрепление здоровья юных футболистов, повышение морфофункциональных возможностей, воспитание и совершенствование двигательных качеств. Выделяют общую и специальную физическую подготовку. Общая физическая подготовка (ОФП) предусматривает разностороннее развитие физических способностей, специальная (СФП) развитие физических качеств и функциональных возможностей, специфических для избранного вида спорта. В качестве основных средств ОФП применяют различные виды спорта (плавание, гимнастика, легкая атлетика и спортивные игры). (4; 7).

В футболе специальная физическая подготовка строится с учетом характера игровой деятельности, способствует совершенствованию и эффективному использованию технического и тактического мастерства. Упражнения по СФП выполняют не только с мячом — ведение на максимальной скорости финты, обводка стоек удары по мячу и вбрасывание, отбор и перехват мяча в подкате и в прыжке, но и без мяча (3; 6).

Актуальность. В процессе многолетней тренировки соотношение объема и средств ОФП и СФП постепенно изменяется, причем из года в год увеличивается удельный вес СФП. Так, на начальном этапе объем по ОФП составляет 70-75%, упражнений по СФП составляет 25-30%. По мере повышения уровня общей физической подготовленности, создающей основу для воспитания специальных физических качеств, на этапе спортивной специализации удельный вес СФП увеличивается до 50-60%. На этапе спортивного совершенствования объем средств СФП составляет 70-80%. Только при рациональном соотношении средств общей и специальной физической подготовки возникают благоприятные предпосылки для постоянного повышения мастерства юных футболистов (1; 2, 8). Эти указанные положения в полной мере относятся к такому важному физическому качеству, как ловкость (4, 5, 6).

В процессе многолетней подготовки футболистов на ее начальном этапе (10-12 лет) упражнениям по общей физической подготовке уделяется до 75% времени. По мере повышения уровня общей физической подготовленности большое значение приобретает специальная физическая подготовка. На этапе спортивной специализации объем упражнений по СФП еще более увеличивается (1; 2; 5). В процессе физической подготовки важное место занимает индивидуализация тренировочной

нагрузки и по величине, и по направленности, так как юные футболисты одной возрастной группы по уровню физической подготовленности и развитию качеств весьма различны. Индивидуализация тренировочных нагрузок необходима также в связи с подготовкой футболистов разного игрового амплуа.

Анализ литературы. На начальном этапе наиболее эффективна разносторонняя тренировка. Чрезмерное увлечение узкоспециализированными упражнениями нередко приводит к задержке роста мастерства на последующих этапах. У детей 10-12 лет наблюдаются наиболее благоприятные возможности для развития ловкости и быстроты (2, 3, 5). Важное значение на этапе начальной подготовки имеет развитие ловкости, которая создает основу для успешного овладения сложными в координационном отношении действиями. Причем воспитание ловкости на данном этапе должно идти, прежде всего, по пути образования ее общей базы, вследствие чего на дальнейших этапах подготовки будет воспитываться специальная ловкость футболиста (4, 7, 8, 9). На этом этапе, футболистов обучают широкому кругу разнообразных двигательных действий. Наиболее распространенным методом воспитания ловкости на данном этапе будет игровой. При воспитании ловкости как способности овладеть новыми движениями, используемые упражнения постоянно должны включать элементы новизны. По мере автоматизации навыка значение данного упражнения с точки зрения воспитания ловкости снижается (1; 5; 8; 10).

В целях развития общей ловкости применяют подвижные игры, эстафеты с комплексом различных движений (бег, прыжки, повороты, броски и ловля мячей), упражнения из акробатики (кувырки вперед и назад, кувырки после прыжков, сочетание кувырков с поворотами), прыжковые упражнения (прыжки в длину, высоту, тройные, пятикратные, с поворотом на 90°, 180°, в приседе и т.п.), беговые упражнения (бег по «восьмерке», по дуге вправо и влево, скрестным и приставным шагом, бег по меткам и т.п.) (5; 6; 11). Упражнения, направленные на развитие ловкости, довольно быстро ведут к утомлению. Поэтому их целесообразно проводить в начале тренировочных занятий, а также после интервалов отдыха.

Целенаправленных занятий на воспитание скоростно-силовых качеств, общей и скоростной выносливости на этапе начальной подготовки, как правило, не проводится. Воспитание

этих качеств проходит в основном в занятиях с комплексной направленностью.

Для контроля общей ловкости футболиста как качества а также его динамики в педагогическом эксперименте, и спортивной подготовке вообще необходима объективная методика её оценки.

По нашему мнению, такое комплексное тестирование общей ловкости футболистов, а так же на взгляд ряд авторов (1;2;5;6). Должна отвечать следующим требованиям:

а) тест должен моделировать игровые ситуации возникшие в процессе соревновательной деятельности футболиста;

б) оценивать внимание, память, глазомер и пространственное воображение футболиста;

в) при выполнении тестового задания давать дифференцированную оценку разнообразным по характеру и нагрузкам на вестибулярный аппарат, беговым, акробатическим и ударным действиям испытуемых.

г) оценивать быстроту простой и сложной реакции на световой и слуховой сигнал, особенно важно определить точность и быстроту реакции на движущийся объект.

д) применяющийся тест должен обеспечить простоту и надёжность при организации и выполнении заданий всем молодым футболистам на этапе начального обучения.

Цель: Дальнейшей целью нашей работы явилось определение степени влияния предложенных средств и методов направленных на развитие общей ловкости юных футболистов на этапе начального обучения.

Педагогический эксперимент проводился на базе Чирчикский центр олимпийской и паралимпийской спортивной подготовки Ташкентской области г. Чирчика. В нем приняли участие 16 футболистов экспериментальной, и 16 контрольной групп 11 и 12 летнего возраста. Эксперимент проходил в течении 9 месяцев (с сентября 2023 по май 2024 годов).

В начале эксперимента все футболисты были протестированы на уровень развития двигательных качеств и общей ловкости. В каждое занятие, экспериментальной группы включались группы упражнений направленные на развитие общей ловкости. Им предлагались упражнения повышенной

координационной сложности и с элементами новизны. А именно, упражнения с предметами, игры с часто меняющейся обстановкой, упражнения с преимущественной направленностью на психофизиологические функции, упражнения по выработке чувства пространства и времени, а так же степени мышечных усилий, упражнения в равновесии и устойчивости статических поз.

Методы. В основу методики развития изучаемого качества были положены комплексный подход и принцип избирательного воздействия на ту или иную форму проявления общей ловкости, а так же игровой метод.

Развитие общей ловкости юных футболистов на этапе начального обучения, в каждом конкретном тренировочном занятии происходило, в основном, в конце подготовительного и вначале основной частях тренировки, когда организм занимающихся полностью готов к выполнению быстрых, точных и концентрированных движений и ещё нет признаков утомления. Упражнения направленные на развитие скоростно-силовых качеств, выносливости и гибкости вполне применялись в основной и заключительных частях урока.

Контрольная группа занималась с использованием традиционных средств и методов тренировки. Однако, следует отметить, что время тренировочных занятий и их объём в общих групп был одинаков.

Результаты. При сравнении полученных результатов тестирования в конце эксперимента с показателями, полученными в начале, обнаружены положительные сдвиги в динамике развития общей ловкости в обеих группах. Однако, степени улучшения показателей существенно различаются.

Так, при анализе выполнения двигательного теста на “Удержание равновесия на одной ноге” в контрольной группе прирост показателя составляет – 11,3% в экспериментальной, этот показатель равен- 20,6%. При изучении способности к согласованию движений с помощью теста: “серия кувырок, один куврок вперёд, один куврок назад из положения полупрседание” результат составляет: 9,6% и 18,1% соответственно. В тесте “Прыжок двумя ногами через скамейку” 10,4% контрольной и 21,4% в экспериментальной группах (рис.1).




Рис. 1. Динамика результатов тестирования общей ловкости в заданиях без мяча контрольной и экспериментальной.

Следующая группа тестов предусматривала выполнение сложнокоординированных действий в контакте с мячом. Это было связано с тем, что бы определить, как влияют на точность

выполнения простых технических приемов предворительно выполненные движения предъявляющие требования к устойчивости к психоэмоциональным свойствам юных футболистов (рис.2).




Рис. 2. Динамика результатов тестирования общей ловкости в заданиях с мячом контрольной и экспериментальной.

Так, в тесте “Прыжок в верх с поворотом на 180° вокруг своей оси после приземления с ударом по мячу на точность” в контрольной группе прирост составил 8,1%, а в экспериментальной 19,3%. В тесте “Ведение мяча на 30м. Собводкой 4х стоек, остоновкой мяча на финишной линии” результаты следующие 10,4% и 15,1 соответственно.

Особо остановимся на тестовом задании как “Жонглирование мячом”. В нашем случае, это задание является как средство развития и оценки общей ловкости 2,3,5,6,7. Жонглируя начинающий футболист тренирует вестибулярный аппарат, развивает “чувство равновесия”. Совершенствуют точность движений, улучшает быстроту всех видов реакций. На то, что жонглирование больше относится к общей ловкости показывает

тот факт, что специально обученные люди на все возможных шоу и представлениях могут подбивать мяч сотни и тысячу раз без остонок и быть совершенно неприспособленными к игре в футбол. В нашей работе улучшение в жонглирование мячом в контрольной группе составило 12,3, в экспериментальной 22,8%, что составляет разницу почти на 10%.

В целом, превосходство футболистов экспериментальной группы, над контрольной в тестах оценки общей ловкости без мяча составляет 18,8%. Однако, разница оценки этого же качества, в тестах выполняемых с мячом значительно выше 26,4%. Таким образом, выше приведенные материалы позволяют утверждать, что развивая общую ловкость юных футболистов 10-12 летнего возраста, мы готовим базу для эффективного развития

уже специальной ловкости. При этом, если в период 13-15 лет, целесообразнее делать упор на совершенствование техники то в период 16-18 лет видимо необходимо делать упор уже на технико-тактические действия.

Выводы. В процессе многолетней подготовки футболистов на её начальном этапе (10-12) лет, в разделе ОФП упражнениями по развитию общей ловкости уделяется до 70-75% времени, и 25-30% специальной ловкости. По мере увеличения возраста на последующих этапах подготовки, процентное соотношение средств развития общей и специальной ловкости возрастает в пользу специальной ловкости. При этом, целесообразен индивидуальный подход, при выборе координационной сложности упражнений, так как юные футболисты одной возрастной группы весьма различны по способностям.

При развитии оощей ловкости на этапе начальной подготовки наиболее эффективны упражнения повышенной координационной сложности, адекватные возрасту и подготовленности. Используемые средства должны носить элементы новизны. Упражнение подбираются с преимущественной направленностью на развитие психофизиологических функций. А, именно: задание по выработке чувство пространство и времени; а, так же степени мышечных

усилий; упражнений в удержание равновесий; устойчивости статических поз; быстроту всех видов реакций.

Основным методом развития общей ловкости, на этапе начальной подготовки является, комплексный подход и избирательное воздействие на различные составляющие этого качества. Так же, целесообразно соблюдение методических приёмов к числу которых относятся:

выполнение упражнений из необычных и неудобных положений;

варирование темпа или скорости движения;

“зеркальное” выполнение движений;

введение дополнительных помех (флочки, стойки, борьбы, мяч и т.д.)

внезапное появление предметов, изменяющих обстановку в которой проводится упражнение.

Использованные в работе тесты оценки общей ловкости оказались достаточно информативными и смогли выявить различия в уровне развития по изучаемому качеству, юных начинающих футболистов контрольных и экспериментальных групп. Превосходство экспериментальной группы в тестах без мяча составляет, 18,8%, а в тестах выполняемые с мячом значительно выше, 26%.

ЛИТЕРАТУРА

1. Варюшин В.В. Специализированные игровые упражнения в тренировке футболистов. – М.: ФОН, 2003 г.
2. Литвинов, Р.В. Игровой потенциал футболистов: понятие, оценка, развитие и совершенствование : матлы III Межрегион. Конф. «Актуальные вопросы развития детского и юношеского футбола», ноябрь, 2008, г. Омск / Р. В. Литвинов, О.П. Головченко. – Омск : Сиб ГУФК, 2008. – С. 51–57.
3. Nurimov R.I. Futbol nazariyasi va uslubiyati darslik 2015 Yil Toshkent 153-155- b.
4. Nurimov R.I., Davletmuratov S.R., Davletmuratov O.R., Maxsumov.I.A. (Futbol bo'yicha sport maktablarida yosh futbolchilarning tanlov tizimi va seleksiyasi) Uslubiy tavsiyanoma. -Toshkent 2020. 44 b.
5. Талипджанов А.И. Современная система подготовки высоко квалифицированных футболистов. Учебное пособие. Ташкент-2011-160 с.
6. Губа В.П. Комплексный контроль интегральной физической подготовленности футболистов: Монография В.П.Губа, А.А.Шамардин.-М.: Советский спорт, 2015-282 с.;
7. Губа, В. П. Теория и методика футбола : учебник / В. П. Губа, А. В. Лексаков, М. С. Полишкис, В. А. Выжгин, А. В. Антипов, В. И. Колосков, В. В. Варюшин, М. М. Полишкис; под общ. Ред. В. П. Губы, А. В. Лексакова - Москва : Спорт, 2018. - 624 с.
8. Исеев Ш.Т. Планирование подготовки футболистов в годичном цикле. Методическое пособие. Ташкент-2016 С. 24.
9. Kerimov F.A. Sportda Ilmiy tadqiqotlar darslik – Toshkent: Ilmiy texnika axboroti – press nashriyoti 2021. –380 b.
10. Maxsumov.I.A. Оценка объективности разных способов измерения ловкости юных футболистов.// European journal of science archives conferences series/ Konferenztreihe der europäischen Zeitschrift für Wissenschaftsarchive. – Aachener, Germany 2022. - Б. 88-90.
11. Maxsumov.I.A. Оценка тренировочных нагрузок по показателям специальной ловкости. // Fan-soprtga. – Chirchiq, 2020. №4. - Б. 58-60. [13.00.00 № 16].



UDK: 1.740

Abdurashid MIRZAXMEDOV,

Namangan muhandislik-texnologiya instituti professori, falsafa fanlari doktori

E-mail: Mirzahmedov@mail.ru

Odilbek O'RINOV,

O'zbekiston IIV Akademiyasi Tezkor-qidiruv faoliyati kafedrasining o'qituvchisi

E-mail: Sotsial.nauki@gmail.com

NamMQI professori, f.f.d. M. Ismoilov taqrizi asosida

THE FACTOR OF YOUTH RELIGIOSITY

Annotation

Further improvement of the legal framework of the state's attitude towards religion, believers, and religious organizations in Uzbekistan, along with freedom of conscience, the need to educate healthy religious faith among young people, is a specific social aspect of the problem. In this regard, a scientific analysis of social tolerance with healthy immunity of religiosity has been carried out to protect against religious extremist sentiments based on specific aspects and characteristics of youth religiosity.

Key words: Religious worldview, religious activity, youth religiosity, freedom of conscience.

ФАКТОР РЕЛИГИОЗНОСТИ МОЛОДЕЖИ

Annotatsiya

Дальнейшее совершенствование правовой базы отношения государства к религии, верующим, религиозным организациям в Узбекистане, наряду со свободой совести, необходимостью воспитания здоровой религиозной веры у молодежи, является специфическим социальным аспектом проблемы. В этой связи проведен научный анализ социальной толерантности при здоровом иммунитете религиозности для защиты от религиозно-экстремистских настроений на основе специфических аспектов и особенностей религиозности молодежи.

Ключевые слова: Религиозное мировоззрение, религиозная активность, религиозность молодежи, свобода совести.

YOSHLARDA DINDORLIK OMILI

Annotatsiya

O'zbekistonda davlatning dinga, dindorga, diniy tashkilotlarga munosabatining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish vijdon erkinligi bilan birga yoshlarning sog'lom diniy e'tiqodini tarbiyalashga ehtiyoj muammoning o'ziga xos ijtimoiy jihatidir. Shu ma'noda yoshlar dindorligining o'ziga xos jihat va xususiyatlari asosida diniy ekstremistik kayfiyatdan muhofaza qilishda sog'lom dindorlik immuniteti bilan ijtimoiy bag'rikenglikning ilmiy tahlillari amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: Diniy dunyoqarash, diniy faollik, yoshlarning dindorligi, vijdon erkinligi.

Kirish. O'zbekistonda dunyoviy, ijtimoiy, demokratik davlatning konstitutsion asoslarini mustahkamlanishi tarixan ijtimoiy davlat qurilishidagi muhim islohot hisoblanadi. O'zbekiston hukumatining jahon hamjamiyatidagi halqaro nufuzini ortib borishi har bir fuqaroga munosib turmush shart-sharoiti, inson huquq va erkinliklarining kafolatlari bilan bevosita bog'liqdir. Gap "Inson manfaatlari – oliy qadriyat", "xalqning roziligi" tamoyillarida islohotlar yoshlarning ma'naviy-axloqiy ma'rifati davlat siyosatining mazmun-mohiyatini ifodalaydi. Zamonaviy halqaro munosabatlarning jiddiy ziddiyati sharoitida harbiy muammolarni diniy tahdidlar bilan hal etishning qulayligi ham sog'lom e'tiqodni shakllantirishni taqozo etadi. Ijtimoiy fanlarda yoshlarning dindorligi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida eng kam ishlangan mavzulardan bo'lib, davlatning dinga, dindorlarga munosabatining huquqiy asoslari, vijdon erkinligi doirasida ilmiy tadqiqotlar bajarilgan[12].

Yoshlarning dindorligi borasida O'zbekiston hukumati islom diniga millatning muqaddas ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida e'tibor qaratishi bilan birga dindand nioqob sifatida g'arazli maqsadlar uchun foydalanishga qarshi murosasiz kurash olib borishi alohida yangi nazariy va amaliy ahamiyat kasb etuvchi tajriba shakllandi. Shu bilan birga erishilgan yutuqlar asosida davlatning dinga munosabatida "dialog" shaklidan "shiriklik" bosqichiga o'tish ijtimoiy davlatchilikdagi muhim siyosiy jihatdir. Darhaqiqat, tadqiqotlar O'zbekistonda davlatning din bilan hamkorligi kengayib, davlatning dindand "ajratilishi" nisbiy xususiyatga, ya'ni davlat va dindand umuminsoniy va milliy darajalarda hamkorligi faol darajaga o'tishida ijtimoiylashuvning yangi tipida o'z ifodasini topadi. Bu hol yoshlarning dinga, dindorlikka munosabatini tartibga solish, inson huquqi doirasida erkinliklarga sog'lom munosabatni hosil qilish vazifasini kun tartibiga qo'yadi. Shu ma'noda yoshlarning dindorligi musulmon davlatlarida islom dini bo'yicha ma'lumot olishga intilishi, diniy hujralar yoki alohida "domla"lardan ta'lim olishi tufayli diniy ekstremistik guruhlariga kirib qolish holatlari ham masalani dolzarbligini tasdiqlaydi.

O'zbekistonda islom dinining an'ana va qadriyatlariga gumanistik siyosat jahonning nufuzli siyosatchilari, ilmiy markazlari tomonidan ijobiy e'tirof etildi. Shu bilan birga davlatning islom diniga milliy-diniy ma'naviyat va ma'rifat sifatida ekstremistik destruktiv kuchlardan himoya qilishi ham mavzuning muhim praktsiologik jihatidir. Chunki, yoshlarning dinga munosabati va dindorlik holati, shahar sharoitida avj olishi, ayniqsa ta'lim tizimida yoshlarning dindorligi yuzasidan jamoatchilikning OAVdagi turlicha baxs-munozaralari ham masalaning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Ta'lim tizimida yoshlarning dindorligi masalasi davlat, jamiyat va shaxs munosabatlari bilan birga ma'naviy-axloqiy muhitni belgilab berishi, ta'limda yuksak professional darajada mutaxassis tayyorlashga ham ta'sir etadi. Shu bilan birga ta'lim tizimida dindorlikka oid konseptual muammolarda olimlar orasida yakdil fikrga kelinmaganligi ham mavzuni muhokama qilishni talab etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy-gumanitar fanlarda olimlar yoshlarning dindorligi yuzasidan muammoning tahlilida ikki toifaga ajralib qolgan. Birinchi guruh tadqiqotchilar oliy ta'lim tizimida dinshunoslikka oid fanlarni o'quv rejasiga kiritish asosida yoshlarning kasbiy jihatdan diniy kompetensiyasini yoqlab ovoz berganlar[2; 7; 9; 10]. Ular dunyoviy davlatda diniy ma'lumot va axborot inson huquqi bilan birga shaxsning kasbiy ijtimoiy maqomidagi muhim bir jihat sifatida yondashganlar. Chunki, mutaxassis o'z ma'rifati bilan ishlab chiqarish muhitida ma'naviy-axloqiy muhitni yaratib, kasbiy faoliyatini to'laqonli bajarish qobiliyatiga ega bo'lishi mumkinligini taxlil eta oladi, degan xulosaga kelgan.

Ikkinchi guruh ilmiy adabiyotlar ta'lim tizimining o'ziga xos shaxsning ijtimoiylashuvi sifatida kadrlar tayyorlash jarayoni dindand ma'naviy-axloqiy qadriyat va an'analardan shaxs axloqi doirasida samarali foydalanish metodologiyasining tadqiqiga bag'ishlangan[4]. Mazkur adabiyotlarda din yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan dunyoviy ta'limdagi ijtimoiy identifikatsiya omili, inson shaxsining

ijtimoiy-iqtisodiy tafakkurini shakllanishidagi ijtimoiy tarbiya vositasi sifatida e'tirof etilgan.

Uchinchi guruh tadqiqotchilarning ishlarida dinning ta'limdagi roli ijobiy va salbiy jihat va xususiyatlari, milliy va horijiy ta'lim tizimi kontekstida taxlil etilgan. Shaxsning dindorligi va axloqiy madaniyatining o'zaro inson ma'naviyatidagi o'zaro ta'lim tizimiga qiyosiy o'rganilgan[1]. Tadqiqotchilar diniy ta'limning zamonaviy sekulyarlashgan jamiyatdagi ijtimoiy mazmun mohiyati va o'zga hududlarga nisbatan farqli jihatlari yuzasidan sotsiologik taxlillar amalga oshirilgan.

Tadqiqotning metodologiyasi muammoga sotsiologik yondoshuv jihati kuzatish, analiz va sintez bilan birga falsafiy jihatdan umumiylik, alohidalik va xususiylik, mohiyat va hodisa ila mazmun va shakl kategoriyalaridan foydalanishni talab etadi. Mazkur refleksiv o'rganish jarayoni dinga an'anaviy yondashuv talaba yoshlar hayotida dindorlik omilini taxlil qilish ilmiy xulosalarni bir tomonlama bo'lib qolishiga olib kelishi bilan birga jamiyatning modernizatsiya jarayonida yoshlar dindorligining namoyon bo'lishining tub ildizlarini aniqlash imkonini bermaydi. Shu ma'noda, yoshlarning dindorligi bo'yicha ma'lumotlarni taxlil va talqinlarida diniy nuqtai nazaridan tadqiq etishni talab etadi. Chunki, ma'lumot va usullar yoshlarning kasbiylashuv va ijtimoiylashuv sharoitida diniy ma'rifatning nechog'li dolzarb ijtimoiy qiymatini aniqlash imkoniyatini beradi.

Tadqiqot natijalaridagi eng muhim masala ta'lim tizimidagi yoshlarning ma'naviy-axloqiy barkamolligi bilan birga, "Dinshunoslik asoslari" fanini ta'lim tizimi o'quv jarayonida qiskarishi, fanni qayta o'quv jarayonida yetarli darajada ta'lim sohasi yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda tiklash zaruratini tasdiqladi. Bu hol zamonaviy halqaro munosabatlari va g'oyaviy kurash maydonida diniy omilning faollashuvi bilan ham izohlanadi. Ayni vaqtda horijiy Yevropa davlatlarida islom diniga nisbatan turli-tuman tuxmat va ig'vo, provakatsiyalar amalga oshirilishi ham yoshlarning kasbiy professionaligida diniy kompetensiyasining yuksaltirishni qonuniy talabga aylantiradi. Dunyoviy ta'limda diniy saboqlarning ijtimoiy-ma'naviy ta'siri shaxsning ruhiyatida ijobiy o'zgarish va yangilanishga olib kelishini tadqiqotlar ko'rsatdi. Shu ma'noda an'anaviy jihatdan dinga xavotir bilan qarash, undan "sun'iy" muammolarni yasash o'zini oqlamaydigan metod ekanligi aniqlandi. Fikrimizni MDH davlatlari olimlarining ilmiy xulosalari bilan dalillaymiz[3].

Sotsiologik tadqiqotlarda yoshlarning dindorligida rasmiylik, namoyishkoronalik, shakliy dindorlik elementlari ustuvorligi aniqlandi. Bizning respublikada dindorlik vaziyati yuqori bo'lgan Namangan shahri ko'chalaridagi so'rovlarda 14-40 yoshlilar orasida 76 ishtirokchining barchasi soqol qo'ygan bo'lsa-da, lekin soqolning sunnatligini biladi, ammo ilm olish ilohiy farz ekanligini 52 o'g'il bolalar anglab yetolmagan. Shu bilan birga 24ta hijobdagi qizlardan 12 tasi islom farzlarini to'la bilmaydi, besh vaqt ibodat qilmaydi. Qizlarning 60 % dugonasining diniy "dreskoti"ga moda ma'nosida qaraydi. Shu ma'noda ta'lim tizimida diniy ilmlarning ma'rifati yoshlarning sog'lom dindorligida muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Sotsiologik kuzatishlarda diniy ulamolarning OAV, ayniqsa, internet ijtimoiy tarmoqlarida turli tuman bahs-munozaralari, diniy chiqishlari yoshlarning dindorligida ijobiydan ko'ra salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi ham aniqlandi. Chunki, internetning globaligi mahalla imomining ilmiy salohiyatini yuqori bo'lishini talab etadi. Boz ustiga ularning subyektiv munosabatlari amaldagi davlatning dinga, dindorlarga, diniy tashkilotlarga bo'lgan munosabati xususidagi me'yoriy normalarga mos bo'lishi darkor. Chunki turli tuman imom va mullalarning internet saytlarini to'ldirishi yoshlarni turli imomlarga

e'tiqod qilishi, ulardan o'ziga xos "pirlar"ni yaratishi diniy firqachilikka olib kelishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarning sog'lom e'tiqodi va dindorligini shakllantirishda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi huquqiy ma'rifatga ham ehtiyojning ortib borayotganligini kuzatish mumkin. Bu masalaning muhim jihati yoshlarni turli diniy guruhbozligi, ayniqsa shubhali diniy ma'rifatparvarlarning iqtisodiy tuzog'iga tushib qolmasligini oldini oladi. Biz keyingi yillarda viloyatlarning chekka tumanlarida prozelitizmning tarqalishi xatarini nazarda tutmoqdamiz. Bizning tadqiqotlarimizda Namangan viloyatining Pop va Mingbuloq tumanlarida xristianlikning sektariy missionerlar tomonidan tashkil etilganligini aniqlandi. Sektarga a'zolikka olishda asosan iqtisodiy-moliyaviy texnologiyalar qo'llanilganligi yoshlarni "Iso Masix" izdoshlariga aylantirishga erishgan. Shu ma'noda yoshlar bilan ishlashda diniy-huquqiy ma'rifatning zaruriyati, yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish muhim ish yuritish uslubi degan xulosaga kelish mumkin.

Yoshlarning dindorligi odatda shaxsning millatga daxldorlik bilan ham bog'lanib, diniy ijtimoiy faoliyatni namoyon etadi. Shu bois, yoshlarning dindorligi milliy an'ana va qadriyatlar bilan o'zligini anglash asosida yuz beradi. Shunday bo'lsa-da, yoshlarning dindorligi katta avlodning dinga bo'lgan qatilyigi, kuchli iymon-e'tiqod ostida ibodat va marosimlarning ijrosi bilan emas, balki dindorlik diniy marosim va ibodatning jiddiy modernizatsiyasida o'z ifodasini topmoqda. Chunki, biz tadqiqot obyektini sifatida olgan yoshlarning qatlami mustaqillik yillarida shakllangan avlod bo'lib, texnologiya sivilizatsiya ta'sirida sekulyarizatsiya gullab yashnagan davrdagi avlod hisoblanadi. Shu ma'noda Toshkent va Andijon shaharlarida dindorlikka maylli qizlarning asosiy qismi yoshlar orasida ma'naviy axloqiy degradatsiya tufayli o'zlarini axloqiylik immuniteti sifatida himoyalash maqsadida dinga murojaat qilganlar.

Xulosa va takliflar. Din kishilik jamiyati taraqqiyoti ta'sirida shaxsning tabiat, jamiyat va o'zining ruxiy olamini anglashga intilish tufayli vujudga kelib, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish maqsadida shakllangan ma'naviy omildir. Din ijtimoiy-madaniy ma'naviy qadriyat sifatida milliy ma'naviy boyliklarni avloddan avlodga meros qilishda ijtimoiy an'anaviy hodisadir.

Yoshlarning dindorligi ajdodlardan diniy ijtimoiy tajribani avlodlarga vorisiylik asosida qoldirilishi, diniy an'ana va qadriyatlar, marosim va ibodatning yoshlar tomonidan davom ettirilishini nazarda tutish mumkin. Shu bois, dindorlik yuksak axloqiylik, nafosatu ilmu-fan, siyosat huquqni o'zida mujassam etgan odamlarning hayotini tashkili, ezgulik tamoyillarida boshqaruvi ma'nosida tushunish mumkin. Yoshlarning dindorligida mazmundan ko'ra shaklning ustuvorligi, ibodatdan ko'ra o'zini dindorlikka moyil ekanligini namoyishkoronalik uchraydi/

Yoshlarning dindorligi shaxsning millatga daxldorlik bilan milliy an'ana va qadriyatlar orqali o'zligini anglash ma'nosida katta avlodning dinga bo'lgan merosini qabul qilish, halol-pok turmush kechirishga intilish ma'nosida diniy maroim va ibodatlarda faol ishtirok etadi. Zamonaviy global axborot texnologiyalari internet tobeligi yoshlarning dindorligini jiddiy susaytirgan. Din kishilik jamiyati an'ana va qadriyatlarining vorisiyiligida o'ta kuchli ijtimoiy yashovchan meros hisoblanadi.

Yoshlarning huquqiy madaniyati O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlarini bilish va amal qilish asosida qonunga itoatkorlik ruxiyati hisoblanadi. Shu bois, diniy madaniyat bilan uzviy chambarchas aloqadorlikda yoshlarning ijtimoiy madaniyatini hosil qilishi bilan sog'lom dindorlikka asos soladi. Sog'lom e'tiqod turli tuman begona g'oya va ta'sirlar, prozelitizmdan muhofaza qilishi bilan milliy ijtimoiy barqarorlikka xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Анника В. Степанова Е.А. Религия и школа: европейский опыт// Научный ежегодник УрРАН. -2011. № 11. –С. 361-376.
2. Барабанов В. В. Григоренко Ю. А. К вопросу о преподавании «Религиозных культур и светской этики» в школах// Универсум: Вестник Герценовского университета. — 2013. — № 2. — С. 91-100.
3. Бурдякова Л.С. Духовно-нравственное воспитание молодежи как педагогика //Научные труды МГУ. -2017. -№ 1. –С. 13-22.
4. Данилюк А.Я. Нравственное и гражданское воспитание. Взгляд компаративиста // Педагогика. – 2008. -№ 8. –С. 112-116.
5. Демидов Г. В. Светскость и религия: трансформация понятия «религиозное образование» в современности// Вестник РГГУ. — М.; 2016. — № 4 (6), — С. 43-60.
6. Козирев Ф. Н. Религиозный компонент духовно-нравственного воспитание. 2008. -№ 8. – С. 62- 71.
7. Левин В.И. Проблема преподавания религии в государственных школах РФ// Известия ПГПУ им. В. Белинского. -2012. -№ 28. – С. 833-836.
8. Михайлова Л. Б. Знание о религии в системе светского образования. Приглашение к дискуссии// Наука и школа – 2017. № 3. – С. 100-109
9. Пибаев И. А. Право на религиозное образование в светском государстве (На примере России и Италии)// Актуальные проблемы Российского права. — 2015. — № 9 (58). –С. 52-58.

10. Понкин И. В. Кузнецов М. Н. Правовые последствия решения Европейского суда по правам человека по делу «Лаутси против Италии» для системы образования России // Юрист вуза, -2010. -№ 11. –С. 12-16.
11. Степанова Е.А. Религия и образование в Европе: дебаты о взаимной совместимости. // Известия УрФГУ им. Б.Елсина. -2011. - № 292(3). - С. 6 – 15.
12. Ўзбекистон Республикаси «Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар ҳақида» (янги таҳрир) Қонуни // Фуқаролик жамияти. - 2021. № 2. –С. 3-5
13. Шахнович М. Религия в школе: современный европейский ландшафт // Государство. Религия. Серков. -2017. — № 4. – С. 30-45



Dilshod MUYYDINOV,
Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Xalqaro Islom Akademiyasi professori F.Karimov taqrizi asosida

IMPACT OF MIGRATION ON SECURITY AND POLITICAL PROCESSES OF THE EUROPEAN UNION

Annotation

In this article, analyzed the securitization of migration in the European Union (EU), studying the development stages of migration to Europe and the impact of migration on regional politics. Migration remains a very urgent and problematic issue for the EU. The result of many theoretical and practical studies shows that migration will be the main factor in the EU's internal and external policy in the near future.

Key words: Migration, securitization, European Union.

ВЛИЯНИЕ МИГРАЦИИ НА БЕЗОПАСНОСТЬ И ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ ЕВРОПЕЙСКОГО СОЮЗА

Аннотация

В этой статье анализируется секьюритизацию миграции в Европейском Союзе (ЕС), изучая этапы развития миграции в Европу и влияние миграции на региональную политику. Миграция остается очень актуальным и проблемным вопросом для ЕС. Результат многих теоретических и практических исследований показывает, что миграция станет основным фактором внутренней и внешней политики ЕС в ближайшем будущем.

Ключевые слова: Миграция, секьюритизация, Европейский Союз.

YEVROPA ITTIFOQI XAVFSIZLIGI VA SIYOSIY JARAYONLARIGA MIGRATSIYANING TA'SIRI

Аннотatsiya

Mazkur maqolada Yevropaga migratsiyaning rivojlanish bosqichlari va migratsiyaning mintaqaviy siyosatga ta'sirini o'rgangan holda Yevropa Ittifoqida (YI) migratsiyaning sekuryritizatsiyalashuvini tahlil qilamiz. Migratsiya YI uchun juda dolzarb va muammoli masala bo'lib qolmoqda. Nazariy va amaliy jihatdan ko'plab tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, migratsiya YIning ichki va tashqi siyosatida yaqin istiqbolda asosiy omil bo'lib qoladi.

Kalit so'zlar: Migratsiya, sekuryritizatsiya, Yevropa Ittifoqi.

Kirish. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining globallashuvi, turli hududlarda qurolli ziddiyatlar ko'lamining ortib borishi va global iqlim o'zgarishi migratsiya muammosini jahon iqtisodiy jarayonlari qatorida davlatlararo siyosiy munosabatlar va xalqaro xavfsizlikka ta'sir etuvchi muhim va dolzarb omilga aylantirdi. Bu, shubhasiz XXI asrni migratsiya asri bo'lishi xususidagi qarashlarni izchil kengayishiga katta turtki bo'lmoqda. Ayniqsa, Yevropa Ittifoqi (YI) eng ko'p migratsiya qabul qiladigan mintaqaviy sifatida ko'plab muammolarga duch kelmoqda. Yevropa Ittifoqi (YI) davlatlari migratsiya muammolarini hal qilishda paradoks holatida. Bir tomondan immigratsiya sekuryritizatsiya qilinmoqda, boshqa tomondan, immigratsiya muammolarini hal qilishning demokratik tamoyillari ishlab chiqilmoqda. Shu o'rinda aytish joizki, immigratsiyaning sekuryritizatsiyasida xavfsiz jamiyat va barqarorlikni ta'minlash maqsadlari yotar ekan, migratsiyani demokratlashtirishda inson huquqlarini ta'minlash va himoyalash maqsadlari yotadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bu yo'nalishda ko'plab olimlar tadqiqotlar olib borgan. Migratsiyaga salbiy qaraydigan olimlar Card, Dustmann va Preston, Caldwell Ch., ijobiy qaraydigan olimlar Boeri, Kaczmarczyk va boshqalar, migratsiyani siyosat va xavfsizlik omiliga aylanganini tahlil qilgan olimlar Huysmans va boshqalarni keltirishimiz mumkin. Williamson, Boyle, Halfacree va boshqa tadqiqotchilar Yevropaga migrantlar kirib kelishini uch davrga bo'ladi. Martiniello M.C., Garson J-P. and Loizillon A., Chou M-H., Caldwell C., Van Mol C., de Valk H., Ayse C., Tsoukala A. va boshqalar Yevropaga migratsiya, YIning immigratsiya siyosati, YI'da migratsiya va qochoqlar siyosatining keskinlashuvi, ularning Yevropa jamiyatiga, uning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlariga ta'siri, Yevropaga migratsiyaning ijobiy va salbiy jihatlari, Yevropada migratsiyaga qarshi nutq va harakatlarning kuchayishi, migratsiyaning irqchilik, ksenafobiya va sekuryritizatsiya shuningdek, terrorizm va radikalizm bilan bog'liq ilmiy ishlarni olib borgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, institutsional tahlil, qiyosiy tahlil, kontent analiz, siyosiy jarayonlarni modellashtirish, politologik o'rganish, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, statistik tahlil ma'lumotlari va boshqa tadqiqot usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, Yevropa hududlari boshqa mintaqalarga qaraganda eng ko'p migratsiya omilidan ta'sirlangan

mintaqasi hisoblanadi. Yevropadagi migratsiya jarayonlarini shartli ravishda to'rt davrga bo'lishimiz mumkin:

1) Urushdan keyingi "mehmoh ishchi" kuchi migratsiyasi. Bu urushdan keyin ijtimoiy-iqtisodiy tiklanishda kerak bo'lgan ishchi kuchi migratsiya siyosati asosan mehnatga bo'lgan talabni aks ettiruvchi davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama kelishuvlardan iborat edi[8].

2) Ishchi kuchi migratsiyasining to'xtatilishi: oilalarning birlashtirish va boshpana siyosatining kuchayishi. 1973-yilgi neft inqirozi tufayli Yevropa iqtisodiy o'sishning pasayishi ishchi kuchiga talabni ham tushurdi. Natijada Yevropa Hamjamiyati davlatlari mavjud xorijlik ishchilarni o'zlarida olib qolib, ularning oilalarini birlashtirishga qaror qiladi. Migratsiya borasidagi ushbu qaror tadqiqotchi Kolduvelning fikricha, katta xato edi, chunki Yevropaga ishchilarni oilalari bilan birga ularning madaniyati ham kirib kelgandi[2].

3) "Temir parda"ning yiqilishi, yangi migratsiya oqimi va migratsiyaning yagona mintaqaviy siyosatga aylanishi. Sotsialist blokning qulashi va Berlin devorining yiqilishi bilan g'arbiy Yevropaga sharqdan, ya'ni ilgari sotsialist bo'lgan davlatlardan migratsiyaning oqimi kuchayib ketdi. Masalan, birgina Germaniyaning sharqidan (eski GDRdan) g'arbga (GFRga) 4 mln. nemis ko'chib o'tadi[4]. Boshqa sharqiy Yevropa davlatlaridan (Polsha, Ruminya, Bolgariya va b.) ishchi kuchining kelishi, sobiq Yugoslaviyadagi ichki nizolar qochoqlarni paydo qilishi uchinchi migratsiya oqimini boshlab beradi. Shu bilan birga, bu davrda yagona Yevropa immigratsion siyosati institutsionallasha boshlaydi. Bunga 1992-yilda imzolangan va 1993-yil noyabr oyida kuchga kirgan Maastrix shartnomasi, tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solishga qaratilgan 1999-yilda kuchga kirgan Amsterdam shartnomasi, Yevropa Ittifoqi chegaralarini nazorat qiladigan va noqonuniy migratsiyani oldini oladigan EURODAC va FRONTEX agentliklari tashkil topishi va boshqalar misol bo'ladi.

4) 2008-yilda boshlangan moliyaviy inqiroz, 2011-yil oxirida boshlangan "Arab bahori" va uning ortidan kelgan 2014-2016 yillardagi qochqinlar inqirozi, oxirgisi 2022-yilda boshlangan Ukraina urushi migratsiyaning Yevropa Ittifoqida keskin yomonlashuviga olib keldi.

Yevropaga migratsiyaning yuqoriligi uning milliy va mintaqaviy siyosatga ta'sirini ham sezilarli ortirdi. Bu jamiyatda,

ilmiy doirada va davlat siyosatida immigratsiyaning ahamiyati, salbiy va ijobiy ta'siri borasidagi muhokamalarni rivojlantirdi. Ushbu munozaralar ishtirokchilari ko'pincha bu masala bo'yicha turli xil fikrlarga ega. Bir tomondan, immigratsiyaga nisbatan liberalroq munosabat tarafdorlari, jumladan, ko'plab iqtisodchilar Yevropa Ittifoqiga nima uchun ko'proq immigrantlar kerakligi haqida yaxshi dalillar keltirmoqda. Bunday dalillardan biri Yevropa aholisining qarishi bilan bog'liq, ya'ni pensiya tizimlarining barqarorligini ta'minlash masalasi. Shu nuqtayi nazardan, immigrantlar oqimi foydalidir, chunki u qarish tezligini sekinlashtirishi va pensiya tizimidagi qiyinchiliklarni yumshatishi mumkin. Immigratsiya foydasiga yana bir dalil Yevropa Ittifoqidagi yevropalik ishchilarning past geografik harakatchanligi bilan bog'liq. Buning ma'nosi shundaki, migrantlar assimetrik zarbalardan so'ng, ishchi kuchi tanqis bo'lgan hududlarga ko'chib o'tgandan keyin barqarorlashtiruvchi rol o'ynaydi. Boshqa holatlarda, yevropalik ishchilar harakatchan emasligi, tashqaridan immigrantlarga ehtiyojni ortirmoqda. Buning yana bir sababi "boy Shimol"da demografik pasayish kuzatilar ekan, "qoloq Janub"da demografik o'sish kuzatilmogda. Shimol o'z demografik balansini va ishchi kuchini Janub hisobiga to'ldirishi mumkin. Aks holda yuqorida aytganimizdek, aholining tez qarishi pensiya ta'minotida muammo chiqarishi bilan birga, xizmat ko'rsatish sektorida ishchi kuchi yetishmasligini paydo qiladi va qilmoqda. Qolaversa, migratsiya ham jo'natuvchi, ham qabul qiluvchi mamlakatlar iqtisodiyoti uchun muhim foyda keltirishi o'z isbotini topgan[9].

Boshqa tomondan, ko'plab Yevropa davlatlarida muhojirlarga qarshi fikr yuqori. Tadqiqotchilar Kard, Dustmann va Preston ta'kidlaganidek, Yevropa jamiyatida immigratsiyaga nisbatan qattiq siyosatni qo'llab-quvvatlovchi respondentlarning ulushi Shvetsiyada 17,9% dan Gretsiyada 86,1% gacha tashkil etadi[3]. Boshqa bir tadqiqotchi Boeri fikriga ko'ra, immigratsiya haqidagi salbiy fikrlar birinchi navbatda fiskal yukni tasavvur qilish bilan bog'liq. Ba'zi yevropaliklar immigrantlar ijtimoiy qoloqlikni oldini olish uchun Yevropada joriy etilgan sahiy ijtimoiy to'lovlarni oluvchilar sifatida davlat resurslarini quritayotganidan qo'rqishadi. Natijada, migratsiya siyosatini kuchaytirishdan tashqari, ayrim milliy hukumatlar muhojirlarning ijtimoiy ta'minotdan foydalanish imkoniyatlarini qisqartirmoqda. Boeri, bu paradoks ekanligini ta'kidlaydi. Chunki, Yevropa Ittifoqi ijtimoiy himoya va ijtimoiy inklyuziyani rag'batlantiradigan chora-tadbirlarga qat'iy ishonsa-da, bu choralar "ommaviy istisno quroliga" aylanmogda[1]. Oddiyroq qilib tushuntiradigan bo'lsak, Yevropa mamlakatlari hukumatlari aholining tez qarishi bilan pensiya ta'minotida jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmoqda va buning yechimi sifatida yosh ishchi kuchiga ehtiyoj sezmoqda, bu esa immigrantlar hisobiga qoplanishi mumkinligini o'ylashmogda. Ammo, mahalliy aholi odatda immigrantlarni ishlaymay ko'proq ijtimoiy yordam hisobiga yashayotganligi va bu aksincha davlat buyudjetiga ortiqcha yuk bo'layotganligini ilgari surishmogda[7].

Tadqiqotchi J.Huysmansga ko'ra, Yevropa Ittifoqida migratsiyaning sekyuritizatsiyalashuvini uchta o'zaro bog'liq omillar va jarayonlar: "ichki xavfsizlik", "madaniy xavfsizlik" va "farovon davlat inqirozi" asosida rivojlanganligini ko'rsatib o'tadi[5]. AQShda sodir bo'lgan 2001-yil 11-sentyabr teraktlari immigratsiya va boshpana siyosatining allaqachon sekyuritizatsiyalashgan xarakterini

kuchaytirdi. 2004-yil Madrid va 2005-yilda Londondagi teraktlar esa ichki va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash uchun terrorizmga qarshi kurash kuchayir ekan, terrorizm va immiratsiya hamda boshpana izlovchilar orasida aloqadorlik borligi tan olinadi. Shu bois, boshpana izlovchilar va qochoqlarni to'g'ridan to'g'ri Ylga kirib kelishini oldini olish uchun mintaqaviy xavfsizlik kamarlari yaratildi. Yevropa "devori" sifatida tan olinadigan bu kamar aslida oldinroq qabul qilingan bo'lsa-da, 11-sentyabr voqealaridan keyin bu jiddiy e'tibor qaralilib bu xavfsizlik kamari qoidalariga itoat qilmaydigan uchinchi davlat mamlakatlariga YIning bosimi ham kuchaytirildi.

2014-2016 yillar Yevropaga ommaviy qochqinlarning silsilasi yevropaliklarni oyoqqa turg'izdi. 2014-yilda Germaniyada Yevropada islomga qarshi "PEGIDA" deb nomlangan harakat tuzildi. Chunki, kelayotgan ommaviy qochqinlar asosan musulmonlar edi. Butun Yevropa bo'ylab millatchi va o'ta o'ng (far right) partiya va harakatlar hukumatga kela boshladi va/yoki parlamentda o'z saflarini kengaytirir boshladi. Ham milliy, hamda Yevropa parlamentida immigratsiyaga qarshi bloklar, siyosiy guruhlar paydo bo'ldi. Bu migratsiyani tom ma'noda siyosiy lashuvi va sekyuritizatsiyalashuvini kuchaytirdi. Yldagi migratsiya immigrantlarning "uchinchi dunyo" yevropaliklar ta'biri bilan aytganda "qoloq dunyo" yoki "yevropaliklarga o'xshamaydigan shaxslar/madaniyatlar" tashkil etganligi uchun siyosiy lashdi va sekyuritizatsiya (xavfsizlik) omiliga aylandi.

Xulosa va takliflar. Yevropaga migratsiya oqimi Ikkinchi jahon urushidan buyon shiddat bilan ortib bormogda. Buning sabablari ko'p. Dastlab ishchi kuchiga muhtojlikdan G'arbiy Yevropa davlatlari mehnat muhojirlarini jalb qilgan bo'lsa, keyinchalik kelgan va Yevropada qolib ketgan ishchilarning oilalarini birlashtirish siyosati bilan davom etdi. 90-yillardan "temir parda"ning qulashi natijasida ilgari sotsialist bo'lgan davlatlardan muhojirlar kela boshladi. Bu davrdan globallashuvning ortishi, inson haq-huquqlarining kuchayishi, turli migrant agentliklarining paydo bo'lishi, qochoqlar va boshpana so'rovchilarning ortishi Yevropaga migratsiyani yana kuchaytirib bordi. Yevropaliklar ham integratsiyalashuv jarayoniga kirishi natijasida ichki mehnat va xizmat almashinuvini ham tezlashib ketdi. Biroq, uchinchi davlatlardan keluvchi muhojirlar masalasi ancha vaqt ochiq qoldi. Bu 1999-yilgi Amsterdam shartnomasi va 2009-yil "Ko'k karta"ni qabul qilinishi bilan nisbatan hal qilindi va Ittifoq doirasida tizimlashtirildi.

Shu bilan birga, 90-yillardan sivilizatsiyalar to'qnashuvi haqidagi nazariyalari Yevropada immigratsiyaning siyosiy lashuvi va sekyuritizatsiyalashuviga sabab bo'ldi. Bu ayniqsa, 2001-yil 11-sentyabr Nyu-Yorkdagi teraktlar, 2004 va 2005-yildagi Madrid va Londondagi teraktlar immigratsiyani tahdid obyektiga aylantirdi va islomofobiyani kuchaytirdi. Immigratsiyaga qarshi harakatlar 2008-yil boshlangan moliyaviy inqiroz va 2011-yil boshlangan "Arab bahori" ta'siridagi 2014-2016 yillardagi qochqinlar inqirozi Yevropada immigratsiyaga qarshilik siyosati va harakatlarini olovlantirdi. Bu bilan vaziyat tinchimadi, 2022-yil yevropaliklar yana bir qochoqlar oqimiga duch keldi. Albatta, bu galgi qochoqlar ukrainaliklar yoki o'ta o'ng siyosatchilar ta'biri bilan aytganda, yevropaliklar va/yoki "oq tanli xristianlar" bo'lganligi uchun ukrainaliklar Yevropa hamjamiyatida antimigrant va/yoki antiqochoq kayfiyatini paydo qilmadi. Biroq, qochqinlar muammosidan (ya'ni, ukrainaliklarni ijtimoiy-iqtisodiy himoyalash, qo'llab-quvvatlashdan) xalos bo'lmadi.

ADABIYOTLAR

1. Boeri T. "Immigration to the land of redistribution". IZA Discussion Paper No. 4273, 2009.
2. Caldwell Ch., Reflections on the Revolution in Europe: Immigration, Islam and the West, Anchor Books. 2010.
3. Card D., Dustmann C. and Preston I., "Understanding attitudes to immigration: the migration and minority module of the first European Social Survey". CReAM Discussion Paper No. 0503, 2005.
4. Dietz B., East west migration patterns in an enlarging Europe: The German case, Global Review of Ethnopolitics, 2:1, 2002, pp. 29-43.
5. Huysmans J. "The European Union and the Securitization of Migration", Journal of Common Market Studies, 2000, Vol. 38, No. 5, pp. 751-777.
6. Giovanni Peri, Immigrant Swan Song, March 2020, <https://www.imf.org/en/Publications/fandd/issues/2020/03/can-immigration-solve-the-demographic-dilemma-peri>
7. Kaczmarczyk P. "Are immigrants a burden for the state budget?": Review paper, EUI RSCAS, 2013/79, Migration Policy Centre, 2013 <https://hdl.handle.net/1814/28637>
8. Martiniello M. The new migratory Europe: Towards a proactive immigration policy? In Parsons C. A. & Smeeding T. M. (eds.). Immigration and the Transformation of Europe, Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
9. Immigratsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati bo'yicha qarag: Giovanni Peri, Immigrant Swan Song, March 2020, <https://www.imf.org/en/Publications/fandd/issues/2020/03/can-immigration-solve-the-demographic-dilemma-peri>



UDK: 1/14.3.378

Muhammadbobur MUMINOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti tadqiqotchisi

Renessans ta'lim universiteti dotsenti, PhD J.Jo'raqulov taqrizi asosida

GLOBALLASHUV SHAROITIDA O‘ZBEKISTONDA MILLIY KONTENTNING O‘RNI

Аннотация

Ushbu maqolada O‘zbekistonda shaxsiy ma‘lumotlar xavfsizligini taminlashda milliy kontentni yaratish bilan bog‘liq muammolar va yechimlar ko‘rib chiqiladi. Globallashuv sharoitida axborot tizimlarining o‘zaro bog‘liqligi shaxsiy ma‘lumotlar xavfsizligi uchun ko‘p imkoniyatlar hamda bir qancha muammolarni keltirib chiqarmoqda. Jamiyatda kiberxavfsizlikdan xabardorlikni oshirish, kiberxavfsizlik infratuzilmasini yaxshilash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali mamlakatimizda shaxsiy ma‘lumotlar xavfsizligini oshirishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Milliy kontent, shaxsiy axborot xavfsizligi, O‘zbekiston, globallashuv, ma‘lumotlarni himoya qilish qonunlari, kiberxavfsizlikdan xabardorlik.

РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНОГО КОНТЕНТА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются проблемы и пути решения, связанные с созданием национального контента при обеспечении безопасности персональных данных в Узбекистане. В условиях глобализации взаимосвязь информационных систем создает множество возможностей и ряд проблем для безопасности персональных данных. Это может повысить безопасность персональных данных в нашей стране за счет повышения осведомленности общества о кибербезопасности, улучшения инфраструктуры кибербезопасности и развития международного сотрудничества.

Ключевые слова: Национальный контент, безопасность личной информации, Узбекистан, глобализация, законы о защите данных, осведомленность о кибербезопасности.

THE ROLE OF NATIONAL CONTENT IN UZBEKISTAN IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Annotation

This article discusses the problems and solutions associated with the creation of national content while ensuring the security of personal data in Uzbekistan. In the context of globalization, the interconnection of information systems creates many opportunities and a number of problems for the security of personal data. This can improve the security of personal data in our country by raising public awareness of cybersecurity, improving cybersecurity infrastructure and developing international cooperation.

Key words: National content, personal information security, Uzbekistan, globalization, data protection laws, cybersecurity awareness.

Kirish. XXI asrda axborot xurujlari eng katta tahdidlardan biriga aylandi. Axborot xavfsizligini ta'minlash milliy xavfsizlik sohasidagi muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Shunday vaziyatda, davlat suvereniteti va milliy manfaatlar himoyasi uchun erkin ommaviy axborot vositalari maydonga chiqadi. Globallashuv butun dunyo bo'ylab ma'lumot almashish va ulardan foydalanishda sezilarli o'zgarishlarni keltirib chiqardi. O'zbekistonda bu hodisa shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligiga jiddiy ta'sir ko'rsatib, muammolar va imkoniyatlarni taqdim etdi. Shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi deganda jismoniy shaxslarning moliyaviy ma'lumotlar, tibbiy ma'lumotlar va shaxsiy identifikatorlar kabi maxfiy ma'lumotlarini ruxsatsiz olish, foydalanish yoki oshkor qilishdan himoya qilish tushuniladi. Raqamli texnologiyalar asrida, axborot tobora ko'proq elektron shaklda saqlanadi va uzatiladi, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash shaxslarning hayotini himoya qilish va shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash va boshqa kiber jinoyatlarning oldini olish uchun juda muhimdir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2024-yilning 13-yanvar kuni Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida axborot xavfsizligi masalalariga to'xtalib, O'zbekiston axborot makonida milliy kontent yaratishdagi tashabbusni saqlab qolishi kerakligi haqida gapirdi. Xo'sh, davlati rahbari tomonidan tilga olingan milliy kontent tushunchasi o'zi nima? U qanday bo'lishi kerak? Savollar hozirgi kunning muhim savollaridan biridir.

Har bir davlatning jo'g'rofiyasi – alohida. O'zbekistonning bugungi aholisi boshqa bir davlatning ommaviy axborot vositalari ta'sirida yashay olmaydi. Bu noto'g'ri. Chunki ular o'zining faoliyatini yoritadi. Bugun biz tushunishimiz kerakki, O'zbekiston juda katta tarixga, madaniyatga, san'atga, bilimlar va ilmlarga boy mamlakat. Televideniya, internetda berilayotgan kontent ham shunga mos bo'lishi kerak. Ya'ni bizning bugungi milliy media nashrlarimiz xolislik, obyektivlik bilan birga tariximizdan kelib chiqadigan, millatimizga ma'qul bo'ladigan kontentlarni ishlab chiqishi kerak. Millatimizning o'z geografik joylashuviga ko'ra iste'mol qiladigan milliy taomlari bor, milliy liboslarimiz bor, xuddi shunday milliy kontent ham bo'lishi kerak[1].

Uzoq yillar davomida xalqimiz chet davlatlarning telekanallarini ko'rdi. Axborot, asosan, boshqa bir mamlakat propagandasi bilan shug'ullanuvchi manbalardan kirib keldi. Agar katta avlod vakillari bilan gaplashsangiz, ularning amaldorlarining (masalan, Rossiyalik amaldorlar) ism-familiyasi bilan tanishadi. Ularning jurnalistlari gapirgan gapni haq deb bilishadi yoki haqiqatni so'zlaydi deb tushunishadi. Bu propagandaning kuchi va ta'siridir. Milliy manfaatlarimiz nuqtai nazaridan ham bizda kuchli, mustaqil ommaviy axborot vositalari bo'lishi kerak. Milliy mediamakonda har qanday tahdidga munosib javob bera oladigan tahliliy materiallar – kontentlar yaratilishi shart. Buning uchun yaxshi kadrlar, haq gapni gapirishdan qo'rqmaydigan jurnalistlar maktabi shakllanishi zarur[2].

O'zbekiston axborot makoni degan tushunchani mamlakatimizga bugungi kunda ta'sir ko'rsatayotgan, katta axborot bosimi va yuklamasini berayotgan, davlatlar yoki axborot subyektlaridan himoyalangan (ya'ni himoyalangan deganimizda davlatning yopilishi nuqtai nazaridan emas, balki davlat ichidagi axborot aylanishi erkinligi nuqtai nazaridan), tahlillarning kuchliligi asosida yaratilgan axborot maydoni sifatida tavsiflasak bo'ladi. Aynan Prezidentimiz tomonidan Xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan majlisida bu narsaga e'tibor qaratilgani juda ham muhim hisoblanadi. Davlat rahbari mazkur masalani boshqa yig'ilishlarda ham aytishi mumkin edi. Lekin ushbu mavzu harbiylar ichida tilga olindi. Bugungi kunda davlat harbiy xavfsizligi asosining teng yarmini axborot xavfsizligi tashkil etadi. Axborot xavfsizligi bevosita tahliliy ma'lumotlar bilan bog'liq bo'lishi va xalqqa real voqealarni yetkazish muhimligini Prezidentning aynan shu nutqidan bilishimiz mumkin.

Demak, axborot maydonining eng muhim xususiyati shundan iboratki, bu yerda propaganda bo'lmasligi kerak, bu yerda milliy manfaatni ko'zlagan holda dunyoda yuz berayotgan geosiyosiy voqealarga baho berish masalasi ko'rilyapti.

Milliylikka urg'u berish, alohida bo'lish – konservativizm sifatida baholanar edi. Bugungi globalizm davrida ko'ryapmizki, hozirda haqiqatdan har bir davlatning o'ziga xos jihatlarini, hamma narsasi o'zini ko'rsatishi kerak. Birovga bog'liqlikni maksimal

darajada kamaytirish lozim. Agar bu bevosita xavfsizlikka ta'sir etadigan bo'lsa, mutlaqo cheklash masalasini ko'rib chiqish zarur.

Axborot so'zi bilan birga doim xavfsizlik masalasi keladi, chunki bu insonni boshqaradi. Inson esa jamiyatning bir a'zosi sifatida boshqaruvda ishtirok etadi. Shuning uchun axborot xavfsizligi masalasiga jiddiy qaralayapti. Milliy kontent terminini axborotlashtirish, axborot sohasidagi ma'lumotlarni milliyalashtirish deb tushunish mumkin. Bir so'z bilan aytganda, milliy kontent yaratish – milliy axborot maydonini tashkil etish va uni to'ldirish desak xato bo'lmaydi.

Milliy kontent deyilganda, O'zbekistonning tarixi, madaniyati, milliy urf-odatlarini, yillar davomida shakllangan an'analarimizni qaysidir ma'noda sodda va qiziqarli qilib yetkazib berish tushuniladi. Chunki, avvallari ma'lumotning tushunariligi birinchi o'rinda turgan bo'lsa, hozirda uning qiziqarlik darajasi muhim rol o'ynayapti. Nima uchun? Odamlar shu darajada "erinchok" bo'lib qoldiki, hatto Instagram ijtimoiy tarmog'iga joylangan bir daqiqalik videoni ham oxirigacha ko'rmayotganlar bor. Bunday sharoitda auditoriya e'tiborini ushlab turish uchun tayyorlangan kontentlarning dastlabki o'n soniyasidan odamlarni qiziqitira olish kerak.

Qo'pol qilib aytadigan bo'lsak, bugun ijtimoiy tarmoqlarda blogerlikka da'vo qilayotganlarning aksariyati tuturug'i yo'q gaplar, raqs ham deb bo'lmaydigan harakatlarni amalga oshirmoqda. Shuning ortidan o'ziga obunachi yig'gan va natijada o'zini kontentmeyker yoki bloger, vayner deb e'lon qilgan. Kuzatuvchilar soniga qaraydigan bo'lsak, alam qillar darajada. Sababi professional yondashadigan, tomoshabinga ma'naviy ozuqa bera oladigan, fikrlashga chorlaydigan insonlarning ijtimoiy tarmog'ini kuzatsangiz, obunachilari soni juda kam. Lekin turli xil g'alati gaplarni gapirib chiqadiganlarni bugun ko'pchilik kuzatyapti. Agar mana shu narsa davom etadigan bo'lsa, bir necha o'n yillikdan keyingi saviyani tasavvur qilgan odam qo'rqi, havotirga tushishi kerak.

Shu o'rinda milliy kontent o'zi nima? degan savol tug'ilishi turgan gap. Kontent o'z-o'zini ifoda etish, tarqatish, marketing va yoki nashr etish uchun nutq, yozuv yoki har xil san'at turlari kabi biror-bir vosita orqali ifodalanishi kerak bo'lgan axborot vositasi[3]. Kontent siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy, ta'limga oid yoki ko'ngilochar mavzularda bo'lishi mumkin.

Xorijiy ommaviy axborot vositalari orqali berilayotgan tajovuzkor g'oyalarga milliy manfaatlar inobatga olingan asarlar va axborotlar bilan javob qaytarish - milliy kontent yaratish degani. Ya'ni, milliy kontent bu – O'zbekiston ichidagi sifatli mediamakon.

O'zbekiston milliy kontentni yaratish va rivojlantirish masalasiga katta e'tibor qaratyapti. Prezident Shavkat Mirziyoyev joriy yil 13-yanvar kuni o'tkazilgan Xavfsizlik kengashi yig'ilishida milliy kontent masalasiga alohida to'xtalib, shunday degan edi, "Agar biz O'zbekiston axborot makonida milliy kontent yaratishni o'z qo'limizga olmas ekanmiz, dunyodagi voqealarga milliy manfaatlarimiz nuqtayi nazaridan baho bermas ekanmiz, bu ishlar xorijdan turib amalga oshirilishiga imkon yaratib bergan bo'lamiz. Chunki odamlardagi yangilik, tahliliy ma'lumotlar, real voqealarga bo'lgan ehtiyojni biz to'ldirmas ekanmiz, buni boshqalar qiladi. Bunga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi"[4].

"Shuningdek, yurtimizdan yetishib chiqqan 100 nafar buyuk alloma va mutafakkirlarning Internetdagi ma'lumotlar bazasini yaratish, ularning asarlarini ommalashtirish choralarini ko'ramiz. Wikipedia'da o'zbek tilidagi maqolalar sonini 100 mingga yetkazish va xorijiy tillarda ham O'zbekiston haqidagi ma'lumotlarni joylashtirish yaxshi samara berishi, shubhasiz. Ushbu maqsadlar uchun, 10 milliard so'm mablag' yo'naltiriladi"[5], - dedi davlat rahbari.

Tahlillarga qaraydigan bo'lsak, so'z va axborot erkinligini ta'minlash maqsadida 10 dan ziyod qonun, 150 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilinib, sohada huquqiy baza yaratilgan.

"UZ"domenidagi veb-saytlarda 2023-yil va 2024-yilning olti oyi mobaynida Internetdagi 1049 ta veb-sayt monitoring qilinib, 6241 ta huquqbuzarlik holati aniqlangan. Shuningdek, diniy adovat qo'zg'atuvchi, ekstremistik mazmunda kontent tarqatuvchi 19130 ta resurs mavjudligi aniqlanib, ularga nisbatan tegishli choralar ko'rilgan. "O'zkomnazorat" davlat inspeksiyasi tomonidan provayder, domen registrarlari va domen ma'murlariga amaldagi qonunchilik hujjatlari buzilganligi bo'yicha bajarilishi majburiy bo'lgan 330 ta ko'rsatma yuborilgan. Shu bilan birga, o'rganishlar va tahlillar milliy kontent yaratishda o'z yechimini kutayotgan masalalar hamda muayyan kamchiliklar borligini ko'rsatmoqda, jumladan:

Internet va ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan asoslanmagan ma'lumotlar, noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish uchun vakolatli davlat idoralari tomonidan axborot sohasidagi qonunchilikka zid ravishda ta'sirchan choralar ko'rish uchun yetarli imkoniyatlar mavjud emasligi, ayrim ijtimoiy tarmoqlar ma'murlari faoliyati xorijda joylashgan bo'lib, yuborilayotgan so'rovlarga ular tomonidan o'z vaqtida javob berilmayapti. Oqibatda amaldagi qonunchilikka zid ravishda media makonda urush va zo'rvonlik, shafqsizlikni targ'ib qilishni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovat uyg'otishga qaratilgan terrorizm va diniy ekstremizm g'oyalarni yoyishni o'z ichiga olgan, fuqarolar ruhiyatiga salbiy ta'sir etadigan axborotlar Internet va ijtimoiy tarmoqlarda hech qanday cheklovlarisiz tarqatilmogda;

teleradiokanallarni sifatli milliy media kontent (rolklar, dasturlar, teleserial, telenovella, multfilm, animatsion seriallar, dramatik filmlar, tarixiy dramalar, intervyular va boshqalar) bilan ta'minlash orqali yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, madaniy merosni hamda ma'rifatparvar ajdodlarimizning ibratli faoliyatini, boy merosini targ'ib etish ishlari talab darajasida tashkil etilmayotganligi;

Internet jahon axborot tarmog'ida ayrim axborot resurslari orqali fuqarolarni tashvishga soladigan yolg'on ma'lumotlar hamda odob-axloqqa zid keladigan materiallar tarqatilishi holati ortgan. Xususan, ijtimoiy tarmoqlarning o'zbek segmentida ma'naviy buzulqlikni targ'ib qiluvchi 218 mingdan ortiq guruh, sahifa va kanallarni mavjudligi aniqlangan bo'lib, ularda 2 646 ta material (foto, video, matnli va boshqalar) tarqatilganligi;

davlat va nodavlat telekanallar tomonidan auditoriyaning xohish-istaklari, axborot manbalariga munosabatini aniqlash uchun ommaviy axborot vositalari orqali foydali kontentlarni tarqatish bo'yicha fuqarolar fikrlarini o'rganishga qaratilgan ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazilmaganligi. Natijada ommaviy axborot vositalari o'z kamchiliklari haqida xolis ma'lumotlarga ega emas. Mahalliy telekanallar o'z auditoriyasi bilan yetarlicha ish olib bormaganligi sababli Internet jahon axborot tarmog'ida milliy kontentlarni targ'ib qilishning zamonaviy usullaridan foydalanmasdan kelmoqda[6].

Telekanallarda badiiy kengashlar faoliyati qonuniy tartibga solinmagani oqibatida, mazmunsiz kontentlar (kinofilm, reklama, mualliflik ko'rsatuvlari) efriga uzatilayotgan holatlar kuzatilyotganligi;

aholi o'rtasida axborot manipulyatsiyasi, mediasavodxonlik, Internetda shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi to'g'risida tushunchalar berish, zamonaviy axborot muhitiga to'g'ri yondashuvni shakllantirish bo'yicha aniq metodik qo'llanmalar ishlab chiqilmagan, ayrim ta'lim muassasalarida ushbu yo'nalishdagi ishlarga yetarli e'tibor qaratilmaganligini ko'rsatishimiz mumkin.

Vaholanki, yuqoridagi holatlarni olini olish ayniqsa yoshlarni himoya qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunida axborot mahsulotining yoshga oid tasnifini belgilash axborot mahsulotini ishlab chiqaruvchilar yoki tarqatuvchilar tomonidan, shu jumladan ekspertlarni jalb etgan holda, O'zbekiston Respublikasi hududida tarqatish boshlanguniga qadar amalga oshirilishi belgilangan[7].

Albatta, har bir jurnalist vatan himoyachisi. Bugun ushbu soha faollarning har birida nafaqat professional bilim, balki faol fuqarolik pozitsiyasi ham bo'lishi kerak. Aslida mamlakat ichida yuz berayotgan ma'lum ijtimoiy hodisalar, muhim jarayonlarda kasbining ustasi bo'lgan jurnalist o'zining faol fuqarolik pozitsiyasini ko'rsatadi. Buni boshqa davlatlar misolida ham ko'rishimiz mumkin. Yana bir jihati, mamlakatning har tomonlama rivojlanishiga ma'lum bir subyektiv omillar xalaqit beradi. Masalan, korrupsiya, ba'zi bir tashabbuslarga nisbatan negativ harakatlar. Prezidentimiz ta'bir bilan aytganda, "Ommaviy axborot vositalari, jurnalistlar davlat rahbarining yordamchilari hisoblanadi. Qaysi hududda qanday jarayonlar kechyapti, ayniqsa, chekka tumanlarda nimalar bo'lyapti, jamiyatimizning rivojlanishi, uning yanada kuchli bo'lishiga to'siq bo'layotgan qanday muammolar bor, mana shu kabi savollarning barchasini ochib beruvchi, ma'lum qiluvchi kuch bu – jurnalist"[8].

E'tibor qaratadigan bo'lsak, milliy mediadagi kontentlarning katta qismi maqtovchi, pozitiv lavhalar. Keling, tahliliy jurnalistikani ham rivojlantiraylik. Nima uchun tahliliy jurnalistika kerak? Buni bir misol yordamida tushuntirib beraman. Xitoy davlatining 1,5 mlrd aholisiga yiliga 8 mln odam tug'ilyapti, Hindistonning 1,5 mlrd aholisiga 13 mln odam dunyoga kelyapti. O'zbekistonning 40 mlnga yetmagani 37 mln aholisiga yiliga 1 mln odam qo'shilyapti. Bitta o'rtacha 5-6 nafargacha odam soni ortyapti. Lekin ota-onalar bolalarining salomatligini to'liq ta'minlayaptimi, yaxshi yediryaptimi, unga sifatli

ta'lim beryaptimi, kasb-hunarga o'rgatyaptimi? Bolani dunyoga keltirib, uni tarbiyalash ishlarini "davlat qilsin" deb bee'tibor qoldirish – mutlaqo noto'g'ri.

O'zbekiston iqtisodiyoti hammani birdek ish bilan ta'minlashga ulgurmayapti. Chet davlatlarga ketayotgan farzandlarimiz qora ishchi emas, intellekt bilan shug'ullanadigan kasblarda faoliyat yuritishi uchun tilni bilishi kerak, kompyuter texnologiyalarini tushunishi kerak.

Xulosa. Globallashuv sharoitida O'zbekistonda shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shaxsiy ma'lumotlar tobora ko'proq almashilmoqda va ular ruxsatsiz kirish va noto'g'ri foydalanishga qarshi himoyasiz holga keltirmoqda.

Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish nafaqat shaxslarning shaxsiy hayoti, balki milliy xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlik uchun ham muhimdir.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun manfaatdor tomonlar, jumladan, hukumat, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati hamkorlikda ishlashi zarur. Hamkorlik va hamkorlik muammolarni hal qilish va maqolada taklif qilingan yechimlarni amalga oshirish uchun kalit hisoblanadi. Birgalikda ishlash orqali O'zbekiston o'z ma'lumotlarini himoya qilish tizimini yaxshilashi, shaxslarning shaxsiy daxlsizligini himoya qilishi va o'zaro bog'langan dunyoda shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Sherzodxon Quadratxo'ja – O'zbekiston Milliy media birlashmasi raisi nutqidan.
2. Gulnoza Husanova – "Uzreport tv" muharriri nutqidan.
3. Prezident Sh.Mirziyoyevning 2024-yil 13-yanvardagi nutqidan.
4. Prezident Sh.Mirziyoyevning 2024-yil 13-yanvardagi nutqidan.
5. Prezident Sh.Mirziyoyevning 2024-yil 13-yanvardagi nutqidan.
6. Axmedova, M. (2019). O'zbekistonda ma'lumotlarni himoya qilish: hozirgi holat va muammolar. Raqamli sud ekspertizasi, xavfsizlik va huquq jurnali, 14(2), 63-78.
7. "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi qonuni
8. O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh.Mirziyoyevning 2024-yil 13-yanvardagi nutqidan.



UDK: 37.091.33

*Shomurod MUSTAFAYEV,
Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali, pedagogika fanlari doktori, dotsent*

DSc, dotsent B.Qurbonova taqrizi asosida

OBJECTIVE CONTENT AND OBJECTIVE DIRECTIONS OF THE CONCEPT OF ARTPEDAGOGY

Аннотация

This scientific article discusses the scope of pedagogical tasks that can be addressed through the integration of art into the educational process, the reasons for the sharp demand for art in an increasingly technocratic age, the leading function of art, the objective content and essence of the concept of art pedagogy, the subject field, and its main directions.

Key words: Art, subject, component, technocratization, globalization, art pedagogy, art therapy, art pedagogical activity, art-pedagogical essence, context, semantic.

ОБЪЕКТИВНОЕ СОДЕРЖАНИЕ И ОБЪЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПОНЯТИЯ АРТПЕДАГОГИКИ

Аннотация

В данной научной статье обсуждается круг педагогических задач, которые могут быть решены с помощью внедрения искусства в образовательный процесс, причины столь острой потребности в искусстве в условиях все более технократизирующегося времени, ведущая функция искусства, объективное содержание и сущность понятия артпедагогика, предметная область и основные направления.

Ключевые слова: Искусство, предмет, компонент, технократизация, глобализация, артпедагогика, арт-терапия, арт-педагогическая деятельность, арт-педагогическая сущность, контекст, семантический.

ARTPEDAGOGIKA TUSHUNCHASINING OBYEKTIV MAZMUN-MOHİYATI VA MAQSADLI YO'NALISHLARI

Аннотация

Ushbu ilmiy maqolada bugungi kunda san'atning ta'lim jarayoniga joriy qilinishi bilan hal qilish mumkin bo'lgan pedagogik vazifalar doirasi, tobora texnokratizatsiyalashayotgan zamonda san'atga bo'lgan bunday keskin talabning sabablari, san'atning etakchi funksiyasi, artpedagogika tushunchasining obyektiv mazmun-mohiyati, predmet maydoni va asosiy yo'nalishlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: San'at, predmet, komponent, texnokratizatsiya, globallashuv, artpedagogika, art-terapiya, art pedagogik faoliyat, art-pedagogik mohiyat, kontekst, semantik.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmonining qabul qilinishi mamlakat ta'lim tizimida tarixiy voqea bo'ldi. Farmonning 1-ilovasi bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasining 4-bandi "Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish"ga bag'ishlandi. Unda oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish bo'yicha talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshita tashabbusni amaliyotga tatbiq etish, jumladan talaba-yoshlarni madaniyat va san'at, jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish, ularning kompyuter va internet texnologiyalaridan foydalanish savodxonligini oshirish, kitobxonlikni keng targ'ib qilish, talaba-qizlarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish konseptual vazifa sifatida belgilab berildi [1].

Globalashuvning jadal sur'atlari va shaxsning individualligini yo'qotuvchi cheksiz axborotlar oqimiga ega bo'lgan axborot jamiyatida odamlarga har tomonlama ta'sir ko'rsatish va ularni yo'naltirish qobiliyatiga ega ta'sirlar tobora dolzarblasha bormoqda. San'atning ta'lim jarayoniga joriy qilinishi bilan hal qilish mumkin bo'lgan pedagogik vazifalar doirasi nihoyatda keng. Shu sababli bugungi kunda "shaxs - shaxs" tizimida ishlaydigan ko'plab mutaxassislar san'at imkoniyatlariga tobora ko'proq murojaat qilmoqdalar. Bunga ishonch hosil qilish uchun Internet sahifalariga nazar solish kifoya qiladi.

Besh muhim tashabbus doirasida talaba yoshlarni badiiy faoliyatda tarbiyalash samaradorligini oshirish bu borada rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o'rganishni taqozo qiladi. Shu nuqtai nazardan Amerika fanni rivojlantirish assotsiatsiyasi (American Association for Advancement of Science -AAAS)ning har yili o'tkazib boriladigan "Ilmiy raqs" (Science Dance Contest) tanlovi tajribasi diqqatga sazovor, deb hisoblaymiz. Bunda ishtirokchi tadqiqotchilarga o'z tadqiqot natijalarini faqat plastikada, musiqa, rangli nurlar yordamida ifodalash taklif etiladi. Xorijlik mutaxassislar san'at va ijodga boshlang'ich maktabda o'qitiladigan har bir predmetning asosiy komponenti sifatida qarashadi. Bu yondashuvni Yevropada ham kuzatish mumkin. Chunki Yevropa Ittifoqi tomonidan

moliylashtiriluvchi yangi ta'lim-tarbiya loyihasi «ARTinED» san'at vositasida o'qitish va tarbiyalash metodikasini ishlab chiqishga qaratilgan.

Asosiy qism. Bugungi tobora texnokratizatsiyalashayotgan zamonda san'atga bo'lgan bunday keskin talabning sababi nimada? Psixologiya bo'yicha o'tkazilgan fundamental tadqiqotlar bergan javobga ko'ra san'at "ma'noning yo'qolishiga qarshi kurashadi. Uning vazifasi insonni narsalar dunyosida adashib qolishining oldini olishdir. San'at odamdagi insoniylikni va dunyoni bilish uchun zarur"[2]. Xuddi shu fikr faylasuf, san'atshunos Y.Borevning asarlarida ham uchraydi: "... san'at odamdan insonni etishtiradi"[3]. Gumanistik psixologiyaning asoschisi va etakchisi A.Maslou san'at vositasida o'qitish va tarbiyalash "tuzukroq odamlarning paydo bo'lishi uchun" zarurligiga ishongan. A.Maslou fikriga ko'ra, bunday ta'lim, qolgan butun ta'lim sohasi uchun paradigma bo'lishi kerak va aynan shu ta'lim "to'g'ri ta'lim"[4].

Shunday qilib, san'atning etakchi funksiyasi - odamni "insoniyashtirish"dir. Shuningdek, san'at odamlarning murakkab tanruhi tabiatiga jismu-taniga har tomonlama ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega va shu sababli ta'limning samarali vositasi bo'lib, inson uchun umri davomida o'zini o'zi rivojlantirish, o'zini o'zi tarbiyalash va o'zini o'zi o'qitish uchun kuchli rag'batlantiruvchi omil bo'lib qoladi.

Keyingi yillarda dunyoda artpedagogikaning mohiyati, samaralari o'rganilishi barobarida ushbu atamaning ma'nosini, artpedagogikaning mazmun va funksiyalarini turli xil talqin qilish holatlari uchramoqda. Bu borada "art-terapiya pedagogikasi", "san'at psixopedagogiyasi", "estetik pedagogika" kabi iboralar ishlatilganligini aytish kifoya. Zamonaviy mualliflarning ba'zi asarlarida "art pedagogika" va "art terapiya" tushunchalari bir ma'noda qo'llanilishi kuzatiladi. Biz artpedagogika tushunchasining obyektiv mazmun-mohiyatini, predmet maydonini aniqlashtirish uchun quyidagi konseptual aniqliklar kiritilishi lozim, deb hisoblaymiz.

1. Maxsus kasbga yo'naltirilgan, musiqa, xoreografiya, rassomlik, ashula, raqs va hokazo yo'nalishlarda professional kasbiy ko'nikmalarini o'rgatish, ma'lum bir amaliy mahorat natijalariga erishib, ko'rgazma, konsert tomoshalarini ko'rsatish artpedagogik faoliyatning bevosita vazifalariga kirmaydi. YA'ni talabalarning doira, raqs to'garaklarida ishtirok etishlari ularning hammasini professional doirachi, raqqos qilib etishtirishni ko'zda tutmaydi.

2. Estetik tarbiya. Nafaqat san'at, balki mehnat, sport, tabiat, turli xil o'yinlar va boshqalar ham estetik tarbiya vositasi bo'la oladi. Pirovard maqsad nuqta nazardan, estetik ta'lim artpedagogik faoliyatning vazifalariga kirmaydi.

3. Art-terapiya (musiqqa, raqs bilan davolash). Pedagogika tibbiyot, psixoterapiya va psixologiyaga xos bo'lgan funksiyalarni bevosita bajara olmaydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, artpedagogikada hal qilinishi kerak bo'lgan kasbiy vazifalarning xilma-xilligi davolash bilan bevosita bog'liq emas, biroq badiiy ijod ko'pincha bilvosita terapevtik natijalarni beradi.

Art pedagogikaning salohiyati san'at, pedagogika, psixologiyaning barcha yoshdagi odamlarni tarbiyalash, o'qitish, rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash jarayonlarini ekologik toza, insoniy lashtirishga qarata integratsiyalashda namoyon bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, artpedagogikaning o'ziga xos tushunchalar maydonini quyidagicha belgilash mumkin:

- art pedagogik faoliyat bu - kasbiy maqsadlarni san'at vositasida amalga oshirish uchun tartibga solingan pedagogik xatti-harakatlar yig'indisini ifodalovchi kasbiy pedagogik faoliyatning mustaqil turi;

- artpedagogik o'zaro ta'sir - "professor-o'qituvchi (o'qituvchi, ustoz) - ta'lim mazmuni - san'at turi - talaba (talaba, shogird)" maqsadli rivojlanayotgan tizimda yuzaga keladigan samimiy munosabatlar va aloqalar majmui;

- artpedagogik jarayon - pedagogik muammolarni hal qilish va pedagogik g'oyalarni amalga oshirish uchun san'at vositalaridan foydalanish;

- artpedagogik qo'llab-quvvatlash - badiiy-pedagogik faoliyatni uni muvaffaqiyatli amalga oshirish va shaxsni tarbiyalash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadiga moslashuvchan harakatlar tizimi;

- artpedagogik faoliyat tamoyillari - o'quv jarayoni ishtirokchilari o'zaro munosabatlarining badiiy-pedagogik xususiyatini ta'minlaydigan umumiy qoidalar;

- artpedagogik dars - pedagogik hamkorlik tizimiga asoslangan, o'zida badiiy va ta'lim-tarbiya mazmunini mujassam qilgan faoliyatni tashkil qilish shakli. Bunda dars jarayoni artpedagogik faoliyat tamoyillariga bo'ysunadi;

- artpedagogik vaziyat - muayyan pedagogik vazifani san'at yordamida hal qilishga qaratilgan, o'qish vaqtining mazmunan ajralmas qismi. Artpedagogik vaziyat ma'ruza, seminar, dars materiallari tarkibiga kiritiladi, biroq, o'quv munosabatlarining umumiy tuzilishini to'liq belgilay olmaydi, o'quv jarayonining an'anaviy qoidalariga rioya qilmaydi.

San'at turlarining xususiyatlarini va ularning shaxs ta'sir qilish mexanizmlarini, an'anaviy va zamonaviy o'quv amaliyotini tahlil qilish artpedagogikaning maqsadli uchta asosiy yo'nalishini ajratib olishga imkon beradi.

1. Ta'lim jarayoniga san'at va pedagogika imkoniyatlarining integratsiyasi hamda ta'lim mazmunini boshqa, sifat jihatidan yangicha idrok qilish, ifodalash, tushunish uchun qulay shart-sharoit yaratish. Bunda badiiy-pedagogik vositalar:

- ta'limiy axborotning teng manbai bo'lib, o'quv materiallari ichida o'ziga xos "ovoz", subyektiv holatlar, hissiy harakatning nozik nuanslari, boshqa insonning his-tuyg'ulari, hissiy tajribasi haqida hikoya qilish;

- ta'lim mazmunining shaxsiy-subyektiv tajribasi lahzalarini yaratish, shaxs uchun ahamiyatli jihatlarini aniqlash;

- o'rganiladigan o'quv materialining tarixiy va madaniy kontekstini his qilishning ma'lumot manbai bo'lishi;

- turli xil assotsiatsiyalar, hissiyotlar, fikrlar, taasurotlar maydonini axborot bilan to'ldirish yaratish orqali ta'lim mazmunini ishtirokchilarning individual tajribasi bilan boyitish;

- munosabat, pozitsiyalarni idrok etish va baholashning an'anaviy yondoshuvlarini o'zgartirishga yordam berish;

- "Men" tushunchasining o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini ifodalashga qaratilgan qiymat-semantik boyitish manbai bo'lish.

2. Art pedagogik vositalar pedagogik hamkorlik sharoitlarini optimallashtirishga qodir, chunki ular:

- talabalarni psixofiziologik qo'llab-quvvatlash manbai bo'lish, aqliy ishlarning miqdori va sifatini oshirish, ixtiyoriy e'tiborni kuchaytirish, neyro-emotsional stresslarni engillatish, charchoqning oldini olish, bir faoliyatdan ikkinchisiga qulay o'tish va hk.;

- ma'lumotni mantiqiy-og'zaki shakldan emotsional-majoziy modallikka kodlash hisobiga o'quv materialini tushunish, o'zlashtirish va yodlashni osonlashtirish;

- o'quv materialini idrok etishga motivatsion, hissiy, kommunikativ tayyorlikni ta'minlash;

- o'quv jarayoni ishtirokchilarida umumiy harakatga daxldorlik, birlashib hamkorlik qilishga ijobiy hissiyotlarni shakllantirish;

- yangilik, qiziqish, paradoks, hayrat va boshqa mexanizmlar orqali talabalarda nazariy materialning murakkabligiga nisbatan "qarshilik" ni kamaytirishga yordam berish;

- ishtirokchilar uchun qulay o'quv sharoitlarini yaratish (dam olish, ijobiy kayfiyat, shaxslararo munosabatlarni yaxshilash va boshqalar);

- umumiy hayotiy jo'shqinlikni, shaxsiy ijodkorlikni, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish.

3. Artpedagogik vositalar o'quv jarayonida diagnostik manba bo'lishi mumkin, bunda:

- talabalarning kutilayotgan faoliyatga munosabatlari xususiyatlarini, talabalar bilimining sifatini ochib berish;

- o'quv materialini tushunish dinamikasini (yashirin, nazokatli shaklda) ko'rsatish;

- ishtirokchilarning shaxsiy munosabatlarini, ularning ta'lim mazmunidagi muammolarga munosabatini aniqlash;

- o'quv-tarbiyaviy tarkibni o'zlashtirish sifatiga ta'sir qiluvchi ongsiz munosabat, qatag'on qilingan tajriba, hissiyotlar, xotiralarni aniqlash;

- o'z-o'zini bilishni amalga oshirish (o'ziga "tashqi tomondan" qarash imkoniyati tufayli);

- guruhning umumiy hissiy holatini, shaxslararo munosabatlar xususiyatlari va individual xulq-atvor strategiyalarini idrok etishga tayyorlik darajasini aniqlash.

Har qanday faoliyatni tartibga soluvchi tamoyillari bo'ladi. Ular xatti-harakatni meyorlashtiradi va ma'lum bir doiradagi xulqni belgilab boradi. Artpedagogik faoliyat o'quv jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini xususiyatlarining o'ziga xos xususiyatlarini ta'minlaydigan maxsus prinsiplar asosida amalga oshiriladi.

Art pedagogik faoliyat tamoyillarining mohiyati quyidagilardan iborat:

1. Pedagogik va badiiy salohiyatni integratsiyalash prinsipi. Ushbu tamoyil o'quv jarayonining pedagogik va badiiy qismlari orasida o'zaro bog'liqlikni hamda pedagogika va san'at birligining chuqur shakllarini kiritish orqali mutlaqo yangi tarzda anglash imkoniyatini ta'minlaydi. Bunda integral o'zaro ta'sirni kimyoviy reaksiyaga o'xshab, ma'nolarning kombinatsiyasi tamoman yangi ma'noni paydo qiladi.

2. Pedagogik mazmuni badiiy-obrazda taqdim etish prinsipi. Madaniyatda voqelikni o'ziga xos tarzda tasvirlashga qodir bo'lgan ko'plab tillar mavjud. Pedagogik mazmuni nafaqat verbal (og'zaki), balki noverbal (imo-ishora, tovush, rang, shakl va boshqalar orqali), nafaqat sof ratsional-mantiqiy shaklda, balki hissiy-obrazli kanallar orqali ham obyektiv ravishda taqdim etish mumkin. Bu bir qator tadqiqotlarda (YE.T.Ardashirova, O.S.Bulatova, O.Y.Ovchenkov, A.S.Robotova, N.G.To'xtamanov) tasdiqlangan. Ta'kidlash joizki, badiiy obrazni o'quv kontekstiga kiritish shunchaki oddiy namoyish qilish yoki ta'lim materiali mazmunining takroriga aylanib qolmasligi kerak. Materialni xayoliy idrok etish talabaga hissiyot, tuyg'ular tili orqali talqin qilish uchun o'ziga xos "ko'priklar" yaratib, o'quv materialini yuqori darajaga tushunishga yordam beradi.

3. San'at orqali o'z-o'zini ifodalashning ilhomda namoyon bo'lish prinsipi. Spontanlik - art-pedagogik hamkorlikdagi badiiy to'garaklar a'zolarining fikrlari, his-tuyg'ulari, munosabatlarini, reaksiyalarini faol va erkin ifoda etish, ilhomga berilish qobiliyati sifatida qaraladi. Ilhom subyektning o'zidan tashqaridan emas, balki "ichidan quyulib keluvchi" boshlang'ich nuqtani izlash va topish uchun tanqidiylikdan xoli bo'lgan birlamchi kreativlikni namoyon qiladi (J. Moreno).

Professor F.YE.Vasilyukning fikricha ilhom, "iroda erkinligi"ni hayotning o'zi shaxs ma'naviyatining eng chuqur manbalaridan olib chiqadi [5]. Hayotga bo'lgan bunday to'g'ridan-to'g'ri aloqani yo'qotish odamning o'zini erkin his qilishiga to'sqinlik qiladi, shaxsning ichki ziddiyatlarini paydo qiladi, fikrlarini xiralashtiradi.

4. Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining ijodiy hamkorlik voqelik prinsipi. Ushbu qoida nuqta nazardan "ijodiy hamkorlik", ijod olamida birga bo'lish tushunchasi ikki pozitsiyadan namoyon bo'ladi. Birinchidan, professor-o'qituvchi va talaba (ustoz-shogird)ning ichki dunyolarining "uchrashuvi" sifatida namoyon bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, biz "ijodiy hamkorlik", deganda "professor-o'qituvchi - talaba", "ustoz-shogirdlik" "maqom"lari haqida emas, balki ijodkor shaxslar hamkorligini tushunamiz. Bunda professor-o'qituvchi, ustoz san'at vositalaridan foydalangan holda,

talaba uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlarga, ma'nolarga to'yingan sharoitni yaratadi.

5. Artpedagogik hamkorlikda ratsional va irratsionallikning birlik prinsipi. Ratsionallik va irratsionallik artpedagogik hamkorlikda o'zaro uyg'un, bir-birlarini to'ldirib turadi. Uzoq yillar davomida ratsionallik etakchilik qilib, irratsionallik fan, ta'lim sohalaridan siqib chiqarilgan edi. Bu bo'shliqni ta'limda san'at vositalaridan foydalanish to'ldiradi. San'at asarlari har doim ko'p ma'no anglatishi, sirliligi, ishoraviyligi, kutilmagan talqinlarga egaligi bilan ajralib turadi. Bu ularni yaratgan ijodkorning badiiy intuitsiyasi, ilhomi, tasavvurlariga bog'liq bo'ladi. Darhaqiqat, faqat san'atgina insoniyat tajribasidagi ratsionallik va irratsionallik elementlarini kelishtirib, "yarashtirib" qo'yishga va bu bilan aql bilan instinktlar, tuyg'ularning o'zaro aloqasini mo'tadillashtirishga qodir.

San'atning irratsional hodisalar bilan uzluksiz aloqada ekanligi e'tirof etilgan. Shu sababli san'atning insonga qanday ta'sir qilishini, odamda san'at tufayli qanday hayajon, kechinmalar kechishini aniq qayd qilish, ta'riflash qiyindir. Badiiy to'garak rahbari, Ustoz, professor-o'qituvchi ham talabalarning hozir namoyish qilinadigan san'at asariga qanday ta'sirlanishlarini oldindan aytib bera olishlarini qisman tasavvur qilishlari mumkin, xolos.

6. Artpedagogik hamkorlikda badiiy asarni talqin qilish erkinligi prinsipi. San'at asarining xususiyatlari va uni idrok qilish muallif – ijrochi – tomoshabin, tinglovchi ishtirokida kechadi. Bu esa san'at asarining ma'nosini tushunish, talqin qilishda turlicha qarashlar bo'lishining tabiiyligini bildiradi. Artpedagogik jarayonda san'at asarini tushunish, talqin qilishda cheklovlar bo'lmaydi. Chunki talqin doimo shaxsning hayotiy tajribasi, shaxsning o'sha paytdagi tafakkur tarzi, stereotiplari, qadriyatlari, ma'naviy boyligiga bog'liq bo'ladi. Artpedagogik mashg'ulotlarda badiiy asarni talqin qilishda ularni yaxshi-yomonga ajratishga, baholashda raqobatlashishga yo'l qo'yilmaydi, balki har bir qatnashchining o'z fikriga egaligi rag'batlantiriladi.

Boshqalarning fikridan, pedagogik bosimdan, etakchi stereotiplardan, subyektiv hukmlarni baholashdan xoilikni ta'minlovchi ushbu tamoyil artpedagogik hamkorlik doirasida shaxsiy fikrni namoyon qilish uchun maqbul sharoitlarni yaratish zarurligini belgilaydi. Agar ma'lum bir syujet yoki asarga bo'lgan munosabat o'qituvchi tomonidan ham, o'zaro munosabatdagi boshqa ishtirokchilar tomonidan ham baholanmaydigan xususiyatga ega bo'lsa, (bu nafaqat baholashning salbiy xususiyati, balki ijobiy tomoni bo'lsa ham) mumkin. Shu asnoda asta-sekin fikrlar, g'oyalara va fikrlarni ochiq ayriboshlash tajribasi shakllanadi.

7. Kasbiy harakatlar darsning art-pedagogik mohiyatiga mosligi prinsipi. Badiiy jarayon ishtirokchilari san'at asarlari yoki jamoaviy chiqishlar, konsertlar, ekspozitsiyalar, ularning natijalari to'g'risida fikrlarni to'playdilar. Artpedagogikaga o'quv jarayonidagi ma'lum bir kommunikativ vaziyatda foydalanilayotgan san'at asarining pedagogik ma'nosi, mavzusini badiiy mahorat bilan to'ldiradigan o'ziga xos kasbiy to'ldirish sifatida qaraladi.

Kasbiy harakatlar mashg'ulotning art-pedagogik mohiyatiga mosligi prinsipi quyidagilarni nazarda tutadi:

- badiiy-obrazli shaklni pedagogik ovoz bilan to'ldira oladigan san'at asarlari, vazifalar turlari, mashqlarni topa olish qobiliyati;

- art-pedagogik munozarada o'quv jarayoni qatnashchilarining o'zaro ta'sirini art-pedagogik muhitda saqlab tura olish qobiliyati;

- art-pedagogik hamkorlik muhitini saqlab turish, san'at asarining guruh ishtirokchilariga ta'sirini kuzatish, badiiy mahsulotga, madaniy va shaxsiy ma'nolarni tushunish va ifodalash tarzlariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni namoyish etish qobiliyati shular jumlasidandir [6].

Xulosa. Yuqorida keltirilgan fikr va xulosalar artpedagogikani oliy ta'limni insonparvarlashtirishning muhim manbai ekanligini tasdiqlab, talabalar tarbiyasida artpedagogikadan samarali foydalanishning boy imkoniyatlarni ko'rsatib beradi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni.
2. Леонтьев А. Н. Некоторые проблемы психологии искусства // Леонтев А. Н. Избранные психологические произведения: В 2 т. Т. 2. М.: Педагогика, 1983
3. Боров И. Б. Эстетика. Ростов н/Д.: Феникс, 2004.
4. Маслоу А. Новые рубежи человеческой природы. М.: Смысл: Алпина нон-фикшн, 2011
5. Василюк Ф. ИЕ. Психология переживания (анализ преодоления критических ситуаций). — М.: Изд-во Моск. ун-та, 1984. С.354.
6. Сергеева Н. И. Основы арtpedagogической деятельности. Чебоксари: Чуваш. гос. пед. ун-т, 2009. С.67.



Xadicha MUXAMMADIYEVA,
TDPU dotsenti, PhD
E-mail: xadicha20182020@gmail.com

Qashqadaryo viloyati PYMO/MM pedagogika fanlari doktori M.Shodiyeva taqrizi asosida

DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGICAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS

Annotation

In this article, the possibilities of the following pedagogical and psychological sciences in the development of conflictological competence in future teachers: Pedagogical conflictology, Social psychology, Family psychology, Basics of psychological training, Pedagogical technology, Pedagogical skill, Methodology of teaching pedagogical sciences, Psychodiagnostics and experimental psychology, Behavior analyzed the psychology of deviant children.

Key words: Future teachers, competence, competence, psychological competence, ability, educational process, tools, methods.

РАЗВИТИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация

В данной статье рассматриваются возможности следующих педагогических и психологических наук в развитии конфликтологической компетентности у будущих учителей: Педагогическая конфликтология, Социальная психология, Семейная психология, Основы психологической подготовки, Педагогическая технология, Педагогическое мастерство, Методика преподавания педагогических наук, Психодиагностика. и экспериментальная психология, Поведенческий анализ психологии девиантных детей.

Ключевые слова: Будущие учителя, компетентность, психологическая компетентность, способности, образовательный процесс, инструменты, методы.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA PSIXOLOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda konfliktologik kompetensiyani rivojlantirishda quyidagi pedagogik-psixologik fanlarning imkoniyatlari: Pedagogik konfliktologiya, Ijtimoiy psixologiya, Oila psixologiyasi, Psixologik tayyorgarlik asoslari, Pedagogik texnologiya, Pedagogik mahorat, Pedagogika fanlarini o'qitish metodikasi, Psixodiagnostika. va eksperimental psixologiya, Behavior deviant bolalar psixologiyasini tahlil qildi.

Kalit so'zlar: Bo'lajak o'qituvchilar, kompetensiya, kompetentlik, psixologik kompetentlik, qobiliyat, ta'lim jarayoni, vositalar, usullar.

Kirish. Bugungi kunda yoshlarni jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishga tayyorlash, ularni o'z-o'zini yanada takomillashtirish uchun barcha zarur vositalar bilan jihozlash ta'limning eng muhim vazifalaridan biridir.

Pedagogik jarayonning e'tiborini o'quvchi shaxsining ko'p qirrali intellektual va ma'naviy rivojlanishiga o'tkazish, bilimga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasidan kompetensiyaga asoslangan yondashuvga o'tish hayotiy muammolarni hal qilishda, asosiy funktsiyalarni bajarishda yaxlit tajribani ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar kutilmagan holatlarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda kompetentlik bu insonning mavjud bilim va hayotiy tajribalarga tayangan holda ma'lum bir muammoni hal etishga doir iqtidori degan xulosaga kelish mumkin.

Psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog'lom psixologik muhitni yarata olish, ta'lim oluvchilar va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv o'tgan asrning 70-yillarida tashkilotlarda va ta'lim sohasida inson resurslarini boshqarish sohasida paydo bo'lgan. Chet elda kompetensiyaga asoslangan yondashuvda "kompetentlik" va "kompetensiya" atamaları qo'llaniladi. Bespalov so'zlariga ko'ra, ular "taxminan bir xil narsani anglatadi", ya'ni, muallif tomonidan sinonimlar sifatida ko'rib chiqiladi, chunki ikkalasi ham insonning ish uchun zarur bo'lgan maxsus qobiliyatlari, bilimlari, ko'nikmalari va dunyoga bo'lgan turli munosabatlari (motivatsion, shaxsiy, hissiy va boshqalar) bilan bog'liqdir.

Kompetensiyaga asoslangan ta'lim 70-yillarda Amerikada 1965 yilda N.Xomskiy tomonidan til nazariyasiga nisbatan taklif qilingan "kompetentlik" tushunchasining umumiy kontekstida shakllangan. Shu vaqtdan boshlab, til o'qitish nazariyasiga muvofiq, til kompetensiyasining har xil turlarini o'rganish boshlandi, "kommunikativ kompetensiya" tushunchasi kiritildi.

Keyinchalik "kompetentlik" tushunchasining ta'lim natijasiga ta'sir etuvchi omillar (psixofiziologik, psixologik, bilim, faoliyat va h.k.) majmui sifatida kengayishi ushbu konsepsiyaga shaxsning haqiqiy shaxsiy fazilatlarini bilan bir qatorda kirishga imkon berdi.

Zamonaviy o'qituvchining kasbiy mahoratining eng muhim ko'rsatkichi uning psixologik kompetensiyasidir. O'qituvchi o'quv jarayonining loyihachisi, konstruktori, tashkilotchisi sifatida o'zining ichki dunyosini o'rganish va takomillashtirishda, ta'lim mazmunini qurishda, ishning eng samarali usullari va shakllarini, rivojlantirish vositalari va usullarini tanlashda ilmiy psixologik bilimlardan faol foydalanishi kerak.

O'qituvchining psixologik kompetensiyasining eng yuqori darajasiga bo'lgan ehtiyoj yosh avlodning ma'naviy tajribasi va butun millatning ma'naviy salomatligi ko'p jihatdan o'qituvchining bilim va mahoratiga bog'liqligi bilan ham belgilanadi.

Pedagogik kasbiy mahoratning ushbu komponenti O'zbekiston ta'limining hozirgi holatiga xos bo'lgan rivojlanayotgan, isloh qilingan tizimlarda alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchilarning psixologik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining boshlang'ich nuqtasi ularning psixologik bilimlarga bo'lgan qiymat-semantik munosabatini shakllantirish bo'lishi kerak.

Biz bu munosabatni o'quvchilarning kasbiy yo'naltirilgan psixologik bilimlarni va psixologik nuqtai nazardan pedagogik faoliyatning muhim modellari o'zlashtirishlari va bu bilim va modellarni individual tajribaga aylantirish, shu jumladan hissiy, motivatsion, kognitiv va operatsion faoliyatni o'z ichiga olgan maxsus shaxsiy ta'lim deb bilamiz.

Hozirgi kunda biz psixologik kompetensiyaga ega bo'lmagan o'qituvchi tomonidan samarali o'qitish faoliyatini amalga oshirish mumkin emasligini tobora ko'proq anglay yotmoqdamiz. Pedagog kadrlarning psixologik tayyorgarligi faqat psixologik "ma'rifat" bilan cheklanmasligi kerakligi allaqachon ayon bo'lmoqda.

O'qituvchining psixologiya sohasidagi savodxonligi, shubhasiz, uning mutaxassis sifatidagi muhim xususiyatidir, ammo mavjud psixologik bilimlarni amalda qo'llay olmaslik o'qituvchining ishini samarasiz qiladi.

Shu munosabat bilan pedagogik mutaxassislar o'rtasida ilmiy psixologik tafakkurni rivojlantirish va ularda psixologik malakalar majmuini shakllantirish zarurati tug'iladi. Psixologik voqelikning hodisalari va qonuniyatlari haqidagi bilimlar bilan bir qatorda psixologik fikrlash va amaliy ko'nikmalar o'qituvchining psixologik kompetensiyasining "o'zagini" - o'qitish va tarbiya jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin bo'lgan o'ziga xos shaxsiy vositani tashkil qiladi.

O'qituvchi psixologik kompetentligini takomillashtirish asosida hayotiy vaziyatlarga moslashish talablarini bajarishda pedagogik bilim, malaka va shaxsiy sifatlarining ayni paytdagi mavjud darajasi va bu kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan istiqbol vazifalar keltirilgan bo'lishi tavsiya etiladi.

Bu o'z navbatida o'qituvchilarning kasbiy jihatdan rivojlanish dinamikasini turli darajalarda doimiy monitoring qilib borishda samarali faoliyat maxsuli bo'lib, buning natijasida pedagog kasbiy kompetentligiga katta e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan kompetentlik qismlari yaqqol ko'rinadi va bu uni rivojlantirishga turki beradi.

Hozirgi sharoitda jamiyatning o'qituvchilik kasbiga va uning kompetentlik xususiyatlariga nisbatan qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarni amalda to'g'ri tashkil qilish vazifasi o'qituvchiga bog'liq.

Zamonaviy maktab o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi avvalo sinfdagi o'quv jarayonining tashkilotchisidir. Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishning maqsadi, vazifalari, mazmuni, uslubiy talablariga ko'ra fan, texnika va texnologiya yutuqlaridan unumli foydalanish bugungi ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Ta'limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol strategiyalarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy jarayonlari tashkil etilgan.

Bo'lajak o'qituvchilarning psixologik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining boshlang'ich nuqtasi ularning psixologik bilimlarga bo'lgan qiymat-semantik munosabatini shakllantirish bo'lishi kerak. Biz bu munosabatni o'quvchilarning kasbiy yo'naltirilgan psixologik bilimlarni va psixologik nuqta nazardan pedagogik faoliyatning muhim modellari o'zlashtirishlari va bu bilim va modellarni individual tajribaga aylantirish, shu jumladan hissiy, motivatsion, kognitiv va operatsion faoliyatni o'z ichiga olgan maxsus shaxsiy ta'lim deb bilamiz.

Hozirgi kunda biz psixologik kompetensiyaga ega bo'lmagan o'qituvchi tomonidan samarali o'qitish faoliyatini amalga oshirish mumkin emasligini tobora ko'proq anglab yetmoqdamiz. Pedagog kadrlarning psixologik tayyorgarligi faqat psixologik "ma'rifat" bilan cheklanmasligi kerakligi allaqachon ayon bo'lmoqda. O'qituvchining psixologiya sohasidagi savodxonligi, shubhasiz, uning mutaxassis

sifatidagi muhim xususiyatidir, ammo mavjud psixologik bilimlarni amalda qo'llay olmaslik o'qituvchining ishini samarasiz qiladi.

Shu munosabat bilan pedagogik mutaxassislar o'rtasida ilmiy psixologik tafakkurni rivojlantirish va ularda psixologik malakalar majmuini shakllantirish zarurati tug'iladi. Psixologik voqelikning hodisalari va qonuniyatlari haqidagi bilimlar bilan bir qatorda psixologik fikrlash va amaliy ko'nikmalar o'qituvchining psixologik kompetensiyasining "o'zagini" - o'qitish va tarbiya jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin bo'lgan o'ziga xos shaxsiy vositani tashkil qiladi.

O'qituvchi psixologik kompetentligini takomillashtirish asosida hayotiy vaziyatlarga moslashish talablarini bajarishda pedagogik bilim, malaka va shaxsiy sifatlarining ayni paytdagi mavjud darajasi va bu kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan istiqbol vazifalar keltirilgan bo'lishi tavsiya etiladi. Bu o'z navbatida o'qituvchilarning kasbiy jihatdan rivojlanish dinamikasini turli darajalarda doimiy monitoring qilib borishda samarali faoliyat maxsuli bo'lib, buning natijasida pedagog kasbiy kompetentligiga katta e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan kompetentlik qismlari yaqqol ko'rinadi va bu uni rivojlantirishga turki beradi. Hozirgi sharoitda jamiyatning o'qituvchilik kasbiga va uning kompetentlik xususiyatlariga nisbatan qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarni amalda to'g'ri tashkil qilish vazifasi o'qituvchiga bog'liq.

Zamonaviy maktab o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi avvalo sinfdagi o'quv jarayonining tashkilotchisidir. Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishning maqsadi, vazifalari, mazmuni, uslubiy talablariga ko'ra fan, texnika va texnologiya yutuqlaridan unumli foydalanish bugungi ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan hisoblanadi. Ta'limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol strategiyalarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan mutaxassis o'qituvchilar kerak.

Ta'lim oluvchilarning bilimlarini ularning kasbiy psixologik kompetentligini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati-psixologik pedagogik jihatdan o'qitish va tarbiyalash mahorati bilan uzviy bog'liqdir.

Pedagog ta'lim oluvchilarning bilimlari va mahoratlarini xolisona baholash prinsiplari, metodlari va mexanizmlarini bilishi, standartlashtirilgan testlarni ishlab chiqish, ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishini nazorat qilishning turli shakllarini samarali qo'llash mahoratiga ega bo'lishi kerak.

Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'qituvchilik kasbini tanlagan har bir pedagog o'ziga shu kasbni sevishi yoki sevmasligi to'g'risida savol beradi. Zero masalaning yana bir muhim tomoni borki, bu bo'lajak o'qituvchi pedagogik qobiliyatga egami yoki yo'qmi degan muammo paydo bo'ladi.

Vaholanki har bir kasb, qobiliyat orqali egallanadi va mukammal o'rganiladi.

ADABIYOTLAR

1. Zeer E.F., Shaxmatova N. Личностно ориентированные технологии профессионального развития специалиста. – Екатеринбург, 2019. 35-b.
2. Axmadjonov, D.B. (2021). Bo'lajak o'qituvchilar kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish shakl va usullari. *Academic research in educational sciences*, 2(4), 815-825.
3. Kuznetsova N.P. — O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi DTSlari talablarini amalga oshirish sharti sifatida. M. 2003.
4. Хуторской А.В. Компетентностный подход в обучении. Научнометодическое пособие. –М., Издательство «Эйдос», 2013.
5. Ismailovich S. A. Socio-Psychological Problems of Educating an Independent-Minded, Creative Person in the Educational Process //Central Asian journal of literature, philosophy and culture. –2021. –T. 2. –No. 12. –C.
6. Muhammadiyeva, X. K., & Ergasheva, G. Z. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini shakllantirish metodikasi. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(2), 10-14.
7. Muxammadeva, X. K., Nurmuratova, I., Tulaganova, S., & Jumaniyazova, M. (2022). O'quvchilardagi kitobxonlik madaniyati orqali altruistik motivlarni rivojlantirish. *Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 1284-1288.
8. Мухаммадиева, X. K., & Исматуллаева, Ф. P. (2022). Бошлангич синфларда дидактик жараёнда боланинг ривожланишини таъминловчи технологияларни такомиллаштиришнинг илмий-педагогик таҳлили. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(2), 77-82.
9. Muhammediyeva, K. (2020, June). The Idea "Personal Interests and the Priority of Education" in the Education as One of the Key Factors in Reforming School Education for Upbringing Perfect Individual. In *Proceedings of International Multidisciplinary Scientific-Remote Online Conference on Innovative Solutions and Advanced Experiments* (p. 22).
10. Абдуллаева, Ш. А., & Мухаммадиева, X. K. (2016). Девиант хулқи илк ўспирин ёшидагиларни ижтимоийлаштириш ва профилактика ишларини олиб бориш. *Современное образование (Узбекистан)*, (11), 48-53.
11. Мухаммадиева, X. K. (2014). Начальные сведения о развитии арифметики в трудах учёных математиков Востока. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, (3-2), 230-231.

12. Tuxtayevna, H. M., Mahkambayevna, E. G. Z., & Karamatovna, M. X. Methodological bases of development of socially active competencies of future primary school teachers in students and improvement of its methodology. *International Journal of Health Sciences*, (II), 10646-10654.
13. Эргашева, Г. М., Мухаммадиева, Х. К., & Артикбаева, Н. Н. (2021). Синфдан ташқари машгулотлар орқали ўқувчиларни ижодий фаолиятга йўналтириш методлари. *Science and Education*, 2(5), 578-582.



Asolat NASRULLAYEVA,
"Oila va gender" ilmiy-tadqiqot insituti tayanch doktoranti
E-mail: asolat.nasrullayeva@icloud.com

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor X.U.Abdusamatov taqrizi asosida

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE FORMATION OF SOCIAL PHOBIAS IN YOUNG PEOPLE TO PREVENT MARRIAGE AND THEIR DEGREE OF CONFIDENCE

Annotation

Due to the fact that the social and technological changes taking place in the world lead to significant changes in the transformation of the family, the formation of social phobia from marriage and the realization of the life motives of young people become of special relevance and practical importance. In the article, the results of the research on the psychological effect of the level of subjective control in the formation of social phobia in relation to marriage in young people are approved.

Key words: Family, values, motive of marriage, interpersonal relations, phobia, ustanovka, family life, social phobia.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОФОБИЙ У МОЛОДЫХ ЛЮДЕЙ НА ПРЕДУПРЕЖДЕНИИ БРАКА И СТЕПЕНИ ИХ УВЕРЕННОСТИ

Аннотация

В связи с тем, что происходящие в мире социальные и технологические изменения приводят к существенным изменениям в трансформации семьи, формирование социофобии от брака и реализации жизненных мотивов молодежи приобретают особую актуальность и актуальность. В статье подтверждаются результаты исследования психологического влияния уровня субъективного контроля на формирование социофобии в отношении брака у молодежи.

Ключевые слова: Семья, ценности, мотив брака, межличностные отношения, фобия, установка, семейная жизнь, социальная фобия.

TURMUSH QURISH ARAFASIDAGI YOSHLARDA IJTIMOY FOBIYA SHAKLLANISHI VA ULARNI ANIQLILIK DARAJASINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Annotatsiya

Dunyoda sodir bo'layotgan ijtimoiy va texnologik o'zgarishlar oila transformatsiyasida sezilarli o'zgarishlarga olib kelishi natijasida turmush qurishdan ijtimoiy fobiya shakllanishini va yoshlarning turmush motivlarini ro'yobga chiqarish alohida dolzarblilik va amaliy ahamiyatga ega bo'ladi. Maqolada yoshlarda turmush qurishga nisbatan ijtimoiy fobiya shakllanishida subyektiv nazorat darajasining psixologik ta'siriga bag'ishlangan tadqiqot natijalari aprobatyasi amalga oshiriladi.

Kalit so'zlar: Oila, qadriyatlar, turmush qurish motivi, shaxslararo munosabatlar, fobiya, ustanovka, oilaviy hayot, ijtimoiy fobiya.

Kirish. Oilaning rol tuzilmasi haqidagi tasavvurdagi o'zgarishlar yoshlarning nikoh haqidagi ijtimoiy g'oyalari shakllantirishda muhim rol o'ynaydi [3]. Yosh oilalarni o'rganishda tadqiqotchilar ijtimoiy-rol blokiga e'tibor berishadi, sheriklar uchun oilaviy hayotning muayyan sohalarini: jinsiy, ota-onalik va tarbiyaviy, maishiy, ijtimoiy faollik, hissiy va psixoterapevtik, umumiy manfaatlar muhimligini aniqlaydilar. Xususan, 18-25 yoshdagi o'quvchi qizlar turmush o'rtog'i bilan hissiy aloqaga ko'proq e'tibor qaratgan bo'lsa, o'sha yoshdagi erkak talabalar ijtimoiy faollikka, oilani moddiy qo'llab-quvvatlashga, ota-onalik va tarbiyaviy funksiyalarni amalga oshirishga ko'proq e'tibor qaratayotgani aniqlandi [8].

Nikoh munosabatlari sohasi zamonaviy jamiyatning o'zgarish jarayonlari tomonidan sezilarli bosim ostida bo'lgani uchun ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Turli mamlakatlardan kelgan psixologlar va sotsiologlar ro'yxatga olinmagan nikoh va nikohdan tashqari tug'ilishning tobora ommalashib borayotganini, bir jinsli nikohlar va yolg'iz yashash madaniyatining tarqalishini, gender rollarining yemirilishi va tug'ilish darajasining pasayishini o'rganishmoqda [2]. Ta'lim darajasi oshgani sayin turmush qurish istagining kamayish tendensiyasi ko'proq ayollarda kuzatilmoqda [1]. Tadqiqotlarga ko'ra, 18 yoshdan 34 yoshgacha bo'lgan yoshlarning 12,5 foizi hayotlari davomida romantik sherik bo'lmaganligini tan olishadi [8]. Nikoh va ishqi munosabatlar muammolari mahalliy va xorijiy fanlarda juda chuqur o'rganilgan, ammo ko'pgina tadqiqotlar obyekt talabalaridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Erkaklik va ayollik o'zgarishi tendensiyalari o'rganilib, erkak va ayol jinsi rollarining qutblanishini zaiflashtirish tendensiyasi aniqlandi. Ideal ayol an'anaviy "ayollik" fazilatlaridan (g'amxo'rlik, tejamkorlik, kamtarlik) tashqari, jamoat ongida "erkak" fazilatlarini egallashni boshlaydi: energiya, tadbirkorlik, mustaqillik, muvaffaqiyatga erishish qobiliyati [9]. Shu bilan birga, nikohni va bolalar tug'ilishini kechiktirish tendensiyasi talabalikdan keyingi yoshlarga bo'lgan qiziqishni belgilaydi, chunki aynan shu yoshda sherik tanlash, oilaning shakllanishi va turmush o'rtog'i haqidagi o'zlarining ijtimoiy

g'oyalari va haqiqat o'rtasidagi ziddiyatga yoshlar duch kelishi mumkin.

J.K.Abrikning fikricha, ijtimoiy vakilliklarning o'zagi asosiy me'yorlar va qadriyatlar bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy vakillikning semantik mohiyatini, shuningdek, guruhning jamoaviy xotirasini belgilovchi yetarlicha barqaror shakllanishdir. Tadqiqotning nazariy asosi S.Moskovichining ijtimoiy tasvirlar nazariyasi bo'lib, V.Shtaus va N.Xou tomonidan ishlab chiqilgan avlodlarning davrlanishi va E.Shamis va E.Nikonov tomonidan rus madaniy-tarixiy voqeligiga moslashtirilgan. Bir avlodga mansublik umumiyliги bilan belgilanadi: a) tarixiy davr; b) e'tiqod va xulq-atvor shakllari; v) avlod vakilliklarining tengdoshlari bilan o'rtoqlashgan tajribalari asosida shakllangan avlodga mansublik hissi. Ijtimoiy psixologiya doirasidagi avlodlar nazariyasi munozaralarni keltirib chiqaradi. Ba'zi mualliflar undan foydalanishni yetarli darajada to'g'ri deb hisoblamaydilar, boshqalari alohida hodisalarni avlodlar nuqtayi nazaridan katta ijtimoiy guruhlar sifatida o'rganish maqsadga muvofiqligini tan olib, "avlodlar keyingi avlodlarga sifat jihatidan ta'sir ko'rsatadigan jamoaviy subyekt sifatida harakat qilishlari mumkin" deb ta'kidlaydilar [13].

Tadqiqot metodologiyasi. Oilaviy an'analar davomiyligini buzish, o'tmishdagi avlodlar tajribasini o'tkazishdagi qiyinchiliklar, yangi rol stereotiplarini joriy etish va moda nikoh tendensiyalarini targ'ib qilish oila tizimining yaxlitligini, shu jumladan uning modelini qurish darajasida asta-sekin buzmoqda. Bu jarayonda ayniqsa yosh avlod ishtirok etadi, chunki u har qanday ijtimoiy o'zgarishlarga eng sezgir. Nikoh-oila munosabatlari sohasidagi yangi o'zgarishlarni ushbu bosqichda baholash qiyin bo'lganligi sababli, oqibatlarini keyinroq paydo bo'ladi, ammo baribir jamiyat a'zolarining oilaviy farovonligiga jiddiy tahdid mavjudligini taxmin qilish mumkin. zamonaviy yoshlarning qadriyatlar tizimida ushbu munosabatlar sohasining ustuvorligini yo'qotish tendensiyalari shakllangan munosabatlar nikoh va oila haqidagi an'anaviy g'oyalarni, ularning har bir inson hayotidagi rolini qadrsizlantiradigan tegishli xatti-harakatlar shakllarini tabiiy ravishda qo'zg'atadi. Yoshlarda turmush qurishga nisbatan ijtimoiy fobiya shakllanishiga shaxsning subyektiv

nazorat darajasi ham ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli tadqiqotimizda shaxsning subyektiv darajasi diagnostikasini ham tahlil qilishni lozim topdik.

Shaxsning hissiy-irodaviy sohasi masalalariga qiziqishning paydo bo'lishi ijtimoiy o'zaro ta'sirda va kasbiy faoliyatda intellektual jarayonlarni takomillashtirish amaliyotiga shoshilinch ehtiyoj bilan belgilanadi. Hozirgi vaqtda zamonaviy mutaxassisga yuqori talablar qo'yilmoqda, u shunday fazilatlariga ega bo'lishi kerakki, faoliyat jarayonining samaradorligida shaxsiy-individual xislatlardan: faollik, maqsadlilik, maqsadlarga erishishga to'sqinlik qiladigan tashqi va shaxsiy to'siqlarni yengishga tayyor bo'lishlik, shuningdek, irodaviylik kabilar mujassam bo'lishi zamon talabiga aylanishga ulgurib bo'lgan.

1-jadval

Dj.Rotterning subyektiv nazorat diagnostikasi metodikasining tavsiflovchi qiymatlari (N=350)


Internallik turlari	Min	Max	O'rtacha qiymat	Std. Og'ish	Z	p
Umumiy internallik	-6,00	87,00	27,06	22,79	2,301	0,000**
Muvaffaqiyatda	-4,00	28,00	7,88	8,71	4,137	0,000**
Muvaffaqiyatsizlikda	-6,00	27,00	6,67	7,17	2,210	0,000**
Oilaviy munosabatlarda	-8,00	20,00	4,09	6,04	2,186	0,000**
Ishlab chiqarish munosabatlarida	-7,00	21,00	3,97	5,53	1,711	0,006**
Shaxslararo munosabatlarda	-9,00	18,00	3,57	4,52	2,583	0,000**
Salomatlik bo'yicha	-4,00	21,00	3,42	4,50	2,077	0,000**

Izoh: p<0,01

Subyektiv nazorat darajasining normal taqsimlanish hamda o'rtacha qiymat ko'rsatkichlariga ko'ra, umumiy internallik shkalasi bo'yicha (Z=2,301; p<0,01), muvaffaqiyatda internallik shkalasi bo'yicha (Z=4,137; p<0,01), muvaffaqiyatsizlikda internallik shkalasi bo'yicha (Z=2,210; p<0,01), oilaviy munosabatlarda internallik

Har bir inson tug'ilgandanoq katta potensial qobiliyatlarga ega bo'lib, ular yordamida u muayyan qiyin hayotiy vaziyatlarni hal qiladi. Bu qobiliyatlar hissiy yuksalish bilan, g'ayrioddiy vaziyatda o'zini namoyon qiladi va insonning psixologik tayyorgarligini rivojlantirishda ayniqsa muhim ahamiyat kas etadi. Ushbu tayyorgarliklarni shaxsda shakllantirish jarayonida irodaviy fazilatlar alohida o'rin tutadi. Aynan ular tufayli shaxs har xil qiyinchiliklarni yengib, xarakter, mustaqillik va irodasi mustahkamligini namoyon etadi. Irodaviy sifatlar - irodaviy regulyatsiyaning shaxsiy xususiyatlariga aylangan va yengib o'tiladigan qiyinchilikning tabiati tufayli aniq o'ziga xos vaziyatlarda namoyon bo'ladigan xususiyatlar hisoblanadi.

shkalasi bo'yicha (Z=2,186; p<0,01), ishlab chiqarish munosabatlarida internallik shkalasi bo'yicha (Z=1,711; p<0,01), shaxslararo munosabatlarda internallik shkalasi bo'yicha (Z=2,583; p<0,01), salomatlik bo'yicha internallik shkalasi bo'yicha (Z=2,077; p<0,01) natijalar qayd etildi.



1-rasm. Internallik turlari namoyon bo'lishining o'rtacha qiymat ko'rsatkichlari

Muvaffaqiyatda internallik ko'rsatkich bo'yicha natijalarning boshqa shkalalarga qaraganda baland ko'rsatkich olishi, yoshlarda aynan biri faoliyat yuzasidan harakatlanish jarayonida irodaviy hislatlarini, o'zini tutish qobiliyatlari bo'yicha maxsus ko'nikmalarni shakllantirish ehtiyoji mavjud, shuningdek, muvaffaqiyat qozonish, hayotda o'z o'rniga ega bo'lish uchun oilaviy hayotni ikki darajaga surish lozim degan xulosalarga olib keladi. Mazkur olving natijalarning 100% i normal taqsimlanish qonuniga muvofiq noparametrik mezonlarga mos kelishi aniqlandi. Shuningdek, umumiy

internallik (22,79), muvaffaqiyatda internallik (8,71), muvaffaqiyatsizlikda internallik (7,17), oilaviy munosabatlarda internallik (6,04), ishlab chiqarish munosabatlarida internallik (5,53), shaxslararo munosabatlarda internallik (4,52) hamda salomatlik bo'yicha internallik (4,50) ko'rsatkichlaridan umumiy internallik darajasi balandligi ma'lum bo'ldi. Bu hozirgi kun yoshlarida o'zini bosish, irodaviy regulyatsiya mexanizmlarining algoritmi uzviy ketma-ketlik asnosida ishlashi oydinlashadi.

2-jadval

Dj.Rotterning subyektiv nazorat diagnostikasi metodikasining jins bo'yicha farqlari (N=350)

Internallik turlari	O'rtacha ranglar		Statistik ko'rsatkich	
	Yigitlar (N=207)	Qizlar (N=143)	U	p
Umumiy internallik	174,59	176,82	14612	0,839
Muvaffaqiyatda	174,10	177,53	14510	0,754
Muvaffaqiyatsizlikda	181,20	167,25	13620,5	0,204
Oilaviy munosabatlarda	175,41	175,63	14781,5	0,984
Ishlab chiqarish munosabatlarida	174,78	176,55	14651	0,872
Shaxslararo munosabatlarda	173,95	177,74	14479,5	0,729
Salomatlik bo'yicha	180,95	167,62	13673	0,224

Izoh: p>0,05

Dj.Rotterning "Subyektiv nazorat darajasi" metodikasining jins tafovuti bo'yicha tahlili qilinganda barcha shkalalar ko'rsatkichlari bo'yicha yigit va qizlarimizning natijalari o'rtasida ishonch darajasidagi ahamiyatli farqlar kuzatilmaganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu jihatni esa, ulardag faoliyatning bir xilligi ya'ni, o'qish va talabalik davridagi o'zgarishlar, o'quv bosimi va darslarga ulgurish jarayonida deyarli o'xshash irodaviy regulyatsiyani namoyon etayotganliklari natijasi deb baholashimiz mumkin. Shaxsning yetukligi, uning axloqiy rivojlanish darajasi va muvaffaqiyatining ko'rsatkichlaridan biri internallik va motivatsiyadir. Ular insonning o'z hayotidagi voqealar uchun javobgarlik darajasini belgilaydi. Internallik deganda insonning asosan o'zini hayotida sodir

bo'layotgan voqealarning sabablari: o'z qobiliyatlari, harakatlari, xarakter xususiyatlari va boshqalar sifatida ko'rishga moyilligi tushuniladi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha ahamiyatli farqlar kuzatilmagan (U=14612, p>0,05), yigitlarda qizlarga nisbatan biroz farq borligi aniqlandi. Bundan yigitlarda qizlarga qaraganda oilaviy mas'uliyat hissining yuqori bo'lishi natijasida, ularning o'zini subyektiv nazorat qilishida javobgarlik darajasi yuqori bo'ladi, degan xulosaga kelish mumkin.

Muvaffaqiyatda internallik ko'rsatkichida ham (U=14510, p>0,05), yigitlar biroz ustunlik qayd etib, qizlarga qaraganda bir harakat ustida uzoq o'tirishlari, muvaffaqiyat qozonishga bo'lgan motivlari aynan talabalik davridagi kasb tanlash va karyera qurish

kabi istaklarning kombinatsiyalashuvi asosida kechganligi sababli ham ularda o'z kuchiga ishonish, harakatlarini yuqori baholash va o'z ichki potensial darajalarini rela vaziyatda ishga solishni ta'minlab beruvchi muvaffaqiyatga internallik baland ko'rinish olgan, deya izohlashimizga zamin yaratdi.

Muvaffaqiyatsizlikda internallik ko'rsatkichida ($U=13620,5$, $p>0,05$) ham xuddi yuqorida bo'lgani kabi, yigitlarda biroz ustunlik qayd etilib, ularning tabiatiga xos bo'lgan barcha mas'uliyatlarni "o'z bo'yniga olish" sifatlarining yuqori bo'lishi, amaliy faoliyatga bevosita tatbiq etilishi yuzasidan ham ularda ko'proq barcha "ko'rguliklarning" asl sababchilari sifatida o'zlarini ko'rish namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham ushbu muvaffaqiyatsiz onlarda ham ular aybni atrofda qilardan emas, ko'proq o'zlaridan qidirishadi va yechim topishda ham o'z kuchlariga ishonishadi. Internal shaxslar nafaqat tashqi ta'sirlarga qarshilik ko'rsatishadi, balki imkon berilsa, boshqalarning xatti-harakatlarini boshqarishga harakat qilishadi. Internallik yuqori bo'lganlarda, shuningdek, manipulyatsiya qila oladigan odamlarni yoqtirish va ular ta'sir qila olmaydiganlarni yoqtirmaslik ham kuzatiladi. Internallik ko'rsatkichi baland bo'lganlar boshqalarga qaraganda muammolarni hal qilish qobiliyatiga ko'proq ishonadilar va shuning uchun boshqalarning fikridan mustaqildirlar.

Oilaviy munosabatlarda internallik ($U=14781,5$, $p>0,05$) ko'rsatkichida ham yigitlar qizlarga nisbatan oilaviy burch, oilaviy sadoqat hamda oiladagi barcha ro'zg'or ishlariga mas'uliyatni tubdan his qilish bajarilganligi uchun ham ularda nisbatan baland natijalar qayd etigan. Ishlab chiqarish munosabatlari ($U=14651$, $p>0,05$) bo'yicha internallik ko'rsatkichida tabiiy ravishda yigitlarda yaqqol ustunlik kuzatilib, ularning ontogenezdagi faoliyatlarida bevosita ishlab chiqarish jarayonlariga hamohang kechganligi uchun ham ish jarayonida stressli vaziyatlarni yengib o'tish, ishdagi barcha topshiriqlarni bajarishda o'zini nazorat qilish hamda mas'uliyatlilikni obdon his qilish kabilar yuqori bo'ladi.

Shaxslararo munosabatlarda internallik ($U=14479,5$, $p>0,05$) ko'rsatkichlarida vaziyat aksincha tus olgan deyish mumkin. Ushbu ko'rsatkichda talaba-qizlarimizda biroz ustunlik qayd etildi. Ma'lumkin, qizlar emotsional kechinmalarga tez beriluvchan tabiatda bo'lib, biror kimsa bila tortishib yoki janjallashib qolgudek bo'lsa, ko'proq o'sha inson bilan qayta "til topishishga" urinishadi, garchi bu

holat yashirin tusda kechsa ham. Shu bois, qizlarda shaxslararo munosabatlara ko'proq o'zini barcha bilan yaxshi munosabatda bo'lishga majbur kabi prinsiplar ustunlik qiladi. Natijada ularda muloqot jarayonida hissiy kechinmalarni anglash, empatiya, simpatiya kabi hissiy belgilar bilan ishlash ko'nikmasi rivojlanib boraveradi.

Salomatlik bo'yicha internallik ($U=13673$, $p>0,05$) ko'rsatkichida ham qizlarda ustunlik qayd etildi. Bundan qizlarda sog'lik bilan bo'ladigan ishlarda o'ziga ancha e'tiborli bo'lish yuqori degan xulosalarga kelinadi. Qizlarda sog'dliklari uchun majburiyatni his qilish yigitlarga qaraganda biroz balandligi, barchaning, shu qatorida, o'zining ham sog'ligi uchun faqat o'zi javob berishi haqidagi tasavvurlarning ijtimoiy ustanovka tarzida singib ketganligi bilan ham xarakterlidir. Oila bekasi bo'lishni real idrok qilgan talaba-qizlarda oiladagi mehribon, parvarishgo'y ona timsoli yaqqol yetakchilik qiladi, shu sababli ham ularda sog'lik, salomatlik bo'yicha munosabatlar mas'uliyatni his qilish darajasi yuqoriroq bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, insonning o'z maqsadlariga erishishdagi faollik darajasi, uning xatti-harakatlarining mustaqilligi o'lchovi insonning eng muhim psixologik xususiyatlaridan biridir. Insonda sodir bo'layotgan voqealar uchun shaxsiy javobgarlik tuyg'usining rivojlanish darajasi turli xil hayotiy vaziyatlarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi: shaxslararo munosabatlarni shakllantirish, oilaviy va ishlab chiqarish xarakteridagi ziddiyatli vaziyatlarni hal qilish usuli. Insonda vaziyatni o'zgartirishga, o'zgaruvchan dunyo sharoitlariga tez moslashishga qodir emasligi hissi stressni, surunkali charchoq sindromini, depressiyani keltirib chiqaradi, o'zlik va samarasizlik tuyg'usini shakllantiradi. Nazorat qilish qobiliyati, aksincha, samarali qarorlar qabul qilish va maqsadlarga erishish, salbiy oqibatlarini bartaraf etish imkoniyatlarini topish bilan bog'liq. Umuman olganda, yoshlar sherikning androgen xususiyatlarini afzal ko'rishlariga qaramay, qizlar hali ham o'z turmush o'rtog'ida erkaklik xususiyatlarining ustunligiga intilishadi, o'g'il bolalar esa turmush o'rtog'ida ham erkak, ham ayollik xususiyatlarini namoyon etishga tayyor. O'z navbatida, erkaklik elementlariga ega bo'lgan bunday androgen yo'nalishi yoshlar uchun nikoh va oilaviy munosabatlarning hozirgi paytda mashhur bo'lgan tenglik modelini amalga oshirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Краткий психологический словарь / Сост. Л.А. Карпенко; под общ. ред. А.В. Петровского, М.Г. Ярошевского. М.: Политиздат, 1985. 431 с.
2. Юнг К.Г. Сознание и бессознательное / Пер. с нем. В. Бакусева. 2-е изд. М.: Академический Проект, 2009. 188 с.
3. Шнейдер Л.Б. Семейная психология. М.: Академический проект; Екатеринбург: Деловая книга, 2006. 768 с.
4. Шапиро Б.Ю. Половое воспитание, сексуальное образование и подготовка к семейной жизни // Российская энциклопедия социальной работы. В 2-х т. / Под ред. А.М. Панова, Е.И. Холостовой. М.: Институт социальной работы, 1997. Т. 2. 436 с.
5. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. СПб.: Питер, 2002. 512 с.
6. Юркевич Н.Г. Советская семья. Функции и условия стабильности. Мн.: Изд-во БГУ, 1970. 208 с.
7. Курбанова Д. Келинлар оилага мослашувнинг этнопсихологик хусусиятлари. Автореф.дис. ... психология фан. номзоди: 19.00.05. – Тошкент, 2012. – 24 б.
8. Самаров Р.С. Социальные и этнопсихологические особенности супружеских конфликтов в таджикской семье. Автореф. дисс.канд. психол. наук. – Ташкент, 1997 – 19 с.
9. Ковалев С.В. Психология современной семьи. М.: Просвещение, 1988. 208 с.
10. Эйдемиллер Э.Г., Юстицкис В.В. Психология и психотерапия семьи. СПб.: Питер, 2008. 656 с.
11. Черняк Е.М. Социология семьи. М.: Дашков и Ко, 2004. 238 с.
12. Вишневский Ю.Р. и др. Комплексная поддержка молодой семьи: Курс лекций. В II ч. Ч. 1: Молодая семья: сущность и типы, проблемы, тенденции и перспективы. Екатеринбург: УрФУ, 2011. 220 с.
13. Ярыгина Н.Ю. Мотивационно-смысловая готовность к семейной жизни: Дис. ... канд. псих. наук. М.: Психолог. ин-т Рос. акад. образования, 2007. 139 с.
14. Камнева Н.А. Мотивация вступления в брак и ее влияние на конфликтные ситуации будущей молодой семьи // Вестник ТГУ. 2009. Вып. 2 (70). С. 271-276.
15. Бушкова-Шиклина Э.В., Митягина Е.В., Шу-майлова С.В. Студенчество Вятки: особенности ценностей и социальной активности: результаты социологического исследования. Киров: Изд-во ВятГГУ, 2010. 99 с.



Xurshid NEKBOYEV,

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti mudiri p.f.f.d., dotsent,

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti professori N. Ergashev taqrizi asosida

BO'LAJAK MUHANDISLARNI KASBGA TAYYORLASHDA MEDIA TA'LIMNING KOMMUNIKATIV KOMPLEMENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIYASI VA METODIKASI

Аннотация

Ushbu maqolada medianing falsafasi va nazariyasi, bo'lajak muhandislarni kasbga tayyorlashda mediata'limning kommunikativ komplementligini rivojlantirishning nazariyasi va metodikasi, ommaviy kommunikatsiya vositalari (media) axborotni yaratish, yozib olish, undan nusxa olish, tirajlash, saqlash, tarqatish, idrok qilish, muallif va ommaviy auditoriya o'rtasida axborot almashish vositasi hisoblanishi, mediata'lim, maktab o'quvchilari va talabalar tomonidan ommaviy axborot vositalari qonuniyatlarini o'rganishlarini yoqlydigan pedagogika fani doirasidagi maxsus yo'nalish sifatida, o'quvchi va talabalarga media dunyosi hamda mediamadaniyat asarlariga moslashishi ommaviy axborot vositalari tilini o'zlashtirish mediamadaniyat asarlarini tahlil qilish fikr mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Medianing falsafasi va nazariyasi, bo'lajak muhandislarni kasbga tayyorlash, didaktik ta'minot, raqamli ta'lim, innovatsion faoliyat, raqamli ta'lim muhiti va boshqalar.

ТЕОРИЯ И МЕТОДОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ СОСТАВЛЯЮЩЕЙ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ ПРИ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ К ПРОФЕССИИ

Аннотация

В данной статье рассматриваются философия и теория медиа, теория и методика развития коммуникативной составляющей медиаобразования при подготовке будущих инженеров к профессии создания, записи, копирования, распространения, хранения, распространения, восприятия, передачи информации средствами массовой коммуникации (СМИ), автором и рассматривается как средство обмена информацией между массовой аудиторией, медиаобразование, как особое направление в педагогической науке, пропагандирующее изучение законов медиа школьниками и студентами, представлены адаптация студентов и студентов к медиамундиру и произведениям медиакультуры, освоение языка средств массовой информации, анализ произведений медиакультуры, мнения и комментарии.

Ключевые слова: Философия и теория медиа, профессиональная подготовка будущих инженеров, дидактическое обеспечение, цифровое образование, инновационная деятельность, цифровая среда обучения и др.

THEORY AND METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF THE COMMUNICATIVE COMPONENT OF MEDIA EDUCATION IN PREPARING FUTURE ENGINEERS FOR THE PROFESSION

Annotation

This article discusses the philosophy and theory of media, the theory and methodology of developing the communicative component of media education in preparing future engineers for the profession of creating, recording, copying, distributing, storing, distributing, and perceiving, transmission of information by means of mass communication (mass media), by the author and is considered as a means of exchanging information between a mass audience, media education, as a special direction in pedagogical science, promoting the study of media laws by schoolchildren and students, the adaptation of students to the media world and works of media culture, mastering the language of the media, analysis of works of media culture, opinions and comments are presented.

Key words: Philosophy and media theory, professional training of future engineers, didactic support, digital education, innovative activity, digital learning environment, etc.

Kirish. Ilmiy taraqqiyot konsepsiyasining asosiy qoidasi – media darajasining u yoki bu nazariyani qanchalik taraqqiy etganligiga bog'liqligidir. Media nazariyasi bir shakli sifatida qaraladi, ammo bo'lajak muhandislarni kasbga tayyorlashda mediata'limning ahamiyati masalasi ochiqlicha qolmoqda.

Dunyoning zamonaviy ko'rinishi ko'p jihatdan fan-texnika taraqqiyoti natijalaridan foydalanuvchilarning kundalik hayotiga tadbiiq etilayotgan raqamli axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan belgilanadi. Raqamli texnologiyalarga asoslangan axborot vositalaridan foydalanish hozirgi vaqtda ko'p qirrali va xilma-xildir. Ommaviy axborot vositalarining nazariyasi va amaliyotida – foydalanuvchilarni aloqa vositalaridan anglagan holda foydalanishga o'rgatish asosiy muammolardan sanaladi.

Jahonda raqamli texnologiyalar va kompyuter qurilmalarining shiddat bilan rivojlanishi - raqamli media makonni anglangan holda tushunishni talab qilmoqda. Ma'lumki, raqamli texnologiyalar kundalik hayotda keng qo'llanilishi natijasida turli ijobiy va salbiy holatlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu esa o'z navbatida yuzaga kelayotgan ijtimoiy hamda mafkuraviy o'zgarishlar bilan belgilanadi.

Mamlakatimizda intellektual fikrning vizual burilishiga ta'sir ko'rsatgan raqamli texnologiyalar bilan bevosita bog'liq turli holatlar hamda tarjima qilish tizimlarining mavjudligi - ularni tahlil qilishga o'tkazish bilan tavsiflanadi. Shunga ko'ra, ushbu dissertatsiyada biz raqamli kodning umumiy media nuqtai nazaridan tahlil qilish uchun tadqiqot asosi sifatida vizual burilish xususiyatini hisobga oldik. Unga ko'ra nazariy va uslubiy asoslari - ommaviy axborot vositalari

nazariyasi hamda hozirgi zamon fanlararo nazariy nutq bilan belgilanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mediata'lim muammosi va ulardan ta'lim jarayonida foydalanish ustida respublikamizda A.A.Abdugodirov, U.Begimqulov, R.H.Djurayev, D.D.Sharipova, U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, A.R.Xodjaboyev, M.Mirsoatova, H.O.Jo'rayev hamdo'stlik mamlakatlaridan YE.A.Bondarenko, L.S.Zaznobina, A.A.Jurin, A.V.Spichkin, Y.N.Usov, A.V.Sharikov kabi qator tadqiqotchilar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Ommaviy kommunikatsiya vositalari, boshqacha aytadigan bo'lsak media - axborotni yaratish, yozib olish, undan nusxa ko'chirish, ko'paytirish, saqlash, tarqatish, idrok qilish, muallif va ommaviy auditoriya o'rtasida axborot almashinish vositasi hisoblanadi. Vizual – ko'rgazmalilik, audio (tovushli) – tovushni yozib olish, audiovizual ya'ni tovushli ko'rgazmalilik (kinematograf, tevideniye, video, Internet) kabilar orqali medialar farqlanadi. Media auditoriga turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xususan, shaxsni tarbiyalash va rivojlantirishda medianing ijobiy imkoniyatlariga uning keng qamrovliligi, ommaviyligi, ma'lumot berish imkoniyati, dunyoda sodir bo'layotgan hodisalarga tezda javob berish qobiliyati va shu kabilar kiradi. Medianing salbiy ta'sirini o'zgaralar fikriga qaramlikni shakllantiruvchi manipulyatsiya qilish xususiyatiga ega usullari, ekrandagi zo'ravonlikning ta'siri kabilar kiradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Zamonaviy adabiyotlarda mediata'lim muammolari quyidagicha:

asosiy vosita - matbuot, radio, kino, televideniye, video, kompyuter tarmoqdari va shu kabilar;

idrok qilinishiga ko'ra - audio, video, audiovizual, belgimatlil, grafikali;

foydalanishligiga ko'ra - yakka tartibda, guruhda, ommaviy, uyda, ishda, transportda va shu kabilar;

ma'lumotlar mazmuniga ko'ra;

ijtimoiylashtirish yo'nalishiga ko'ra - mafkuraviy, siyosiy, axloqiy-tarbiyaviy, o'quv-bilish, estetik, ekologik, iqtisodiy;

funksiyalari va foydalanish maqsadlariga ko'ra - ma'lumot olish, ta'lim, muloqot, muammolarni hal qilish, ijtimoiy boshqaruv va shu kabilar;

shaxsga ta'sir ko'rsatishiga ko'ra - saviyani oshirish, bilimlarni rivojlantirish, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini tarbiyalash, mustaqil ta'lim olish, o'zligini namoyon etish, o'z mavqei belgilab olish, holatni tartibga solish, ijtimoiylashtirish kabilar orqali tasniflash qabul qilingan [1] Fedorov, Novikova, Chelischeva, Karuna, 2005, 12-b.]

Tahlil va natijalar. Mediata'lim ta'lim oluvchilari tomonidan ommaviy axborot vositalari qonuniyatlarini o'rganish – pedagogika fani doirasidagi maxsus yo'nalish sifatida amalga oshiriladi. Bu esa o'z o'rnida ta'lim oluvchilarga media dunyo va media madaniyat haqida tasavvurlarga ega bo'lishga, ularga moslashish hamda ommaviy axborot vositalari tilini o'zlashtirish, media madaniyat mavzularini tahlil qilish kabilar yordam beradi. Mediata'limning asosiy vazifasi: yosh avlodni globallashtirish sharoitlarida axborotlarni ongli ravishda qabul qilib, undan o'rinli foydalanib yashashga tayyorlash, turli ma'lumotlarni idrok qilish, insonni uni tushunishga o'rgatish, uning ruhiyatga ta'siri oqibatlarini tushunib yetish, kommunikatsiyaning noverbal shakllari asosida, texnik vositalar va zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida muloqot usullarini o'zlashtirishdan iborat[2].

Turli yillarda mediata'limi muammolari ustida olib borilgan tadqiqotlar taxlili va tadqiqotchilar asarlarini o'rganish hozirgi davrda mediata'lim turli talqin qilinishi ko'rsatdi. "Mediata'lim - o'quvchilar individualligini rivojlantirishda ommaviy kommunikatsiya vositalari va axborotdan (matbuot, radio, kino, televideniye, video, kompyuter texnikasi, fotografiya) foydalanish tizimi sifatida ko'rilib, bilim to'playdigan ana'anviy o'quv fanlaridan farqli o'laroq rivojlantirish tizimining o'zi, birinchi navbatda, maktab o'quvchisi emotsional-intellektual rivojlanishi jarayoni va uning imkoniyatlarini modellashtiradigan badiiy-ijodiy faoliyat amaliyotini ko'zda tutadi"[3].

"Mediata'lim – media bilan muloqot qilish, ijodiy, kommunikativ qobiliyatlarini, tanqidiy tafakkurni, talqin qilish, mediamatnlarni tahlil qilish va baholash ko'nikmasini shakllantirish, mediatexnika yordamida o'z-o'zini ifodalashning turli shakllariga o'rgatish maqsadida ommaviy axborot vositalari yordamida va uning materialida shaxsning ta'lim olishi va rivojlanishi jarayonidir"[4].

"Pedagogik nazariya va amaliyotida o'ziga xos, mustaqil soha sifatida ko'riladigan ommaviy kommunikatsiyaning zamonaviy vositalarini o'zlashtirish uchun nazariyani o'rganish va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish; uni bilimning boshqa, masalan, matematika, fizika, geografiya kabi sohalarni o'qitishda foydalaniladigan yordamchi vositalardan farqlash lozim"[2].

"Ta'lim oluvchilarni turli o'quv fanlarni o'rganishda mediata'lim jihatlarni kuchaytirish yo'li bilan axborot makonida yashashga tayyorlash amalga oshiriladi"[5].

Yetakchi mutaxassislari o'rtasida so'rovnoma o'tkazilganida, ushbu so'rovnomada mutaxassislarning aksariyati quyidagi YUNESKO ta'rifini ma'qullashini ko'rsatgan: "Mediata'lim medianing barcha turlari (bosma va grafika, tovushli, ekranli va shu kabilar) va turli texnologiyalar bilan bog'liq; u insonlarga ommaviy kommunikatsiyadan ularning sotsiumida qanday foydalanilishini tushunish, boshqa insonlar bilan muloqot qilishda medianing foydalanish qobiyaliyatlarini egallash; insonga quyidagilarni bilish imkonini beradi: 1) mediamatnlarni tahlil qilish, tanqidiy o'zlashtirish

va yaratish; 2) mediamatnlarning manbalarini aniqlash, ularning siyosiy, ijtimoiy, tijoratga oid yoki madaniy ma'nolari, ularning kontekstini aniqlash; 3) media tarqatadigan mediamatnlarni va qadriyatlarini talqin qilish; 4) shaxsiy mediamatnlarni yaratish, tarqatish va undan manfaatdor auditoriyaga ega bo'lish uchun tegishli mediamatnlarni tanlash; 5) idrok qilish uchun ham, uni ishlab chiqarish uchun ham mediaga erkin kirish imkoniyatiga ega bo'lish.

Mediata'lim har qanday mamlakat fuqarosining o'z-o'zini erkin ifodalash bo'yicha asosiy huquqlari va ahborotga huquqining bir qismi bo'lib, demokratiyani qo'llab-quvvatlash vositasi hisoblanadi. Mediata'limni barcha mamlakatlar o'quv rejalariga, qo'shimcha, norasmiy va "butun hayot davomida" ta'lim tizimiga joriy qilish tavsiya etiladi[6].

Ayni vaqtda zamonaviy madaniy vaziyatda mediata'lim pedagogik yo'nalish sifatida badiiy ta'lim, san'atshunoslik, madaniyatshunoslik, madaniyat va san'at tarixi, psixologiya kabilar ajralmas komponentlari sifatida namoyon bo'ladi.

Mediamadaniyat mahsuloti – mediamatn – ma'lumotga ega, medianing har qanday ko'rinishi va janrida bayon qilingan habar (gazeta maqolasi, teleko'rsatuv, videoklip, film va shu kabilar) sifatida ifodalanadi. Mediamatnlarni quyidagi turli ko'rsatkichlar bo'yicha tabaqallashtirilgan auditoriya uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin: ommaviy va elitar, global va lokal, ko'p millatli yoki etnosli, shahar va qishloq aholisi, erkaklar va ayollar, bolalar-o'smir-yoshlar, ateistik va diniy va shu kabilar.

Mediata'lim mazmuniga media sohada san'atshunoslik asoslari (media turlari va janrlari, medianing sotsiumdagi vazifalari, media til, media tarixi va shu kabilar), nazariy bilimlar qo'llanilishining asosiy sohalari (ommaviy axborotning professional vositalari, havaskorlar media sohasi, mediani tarqatish kanallari, media sohada klublar, to'garaklar harakatlari, ta'limiy, hordiq chiqarish muassasalari va shu kabilar) haqida ma'lumotlar, media material asosida mashg'ulotlar o'tkazish kabilar kiradi.

Media madaniyat asarlarini o'rganish media ta'limning quyidagi asosiy tushunchalariga tayanadi – "media agentligi" ("axborot manbasi"), "mediamatn toifasi", "mediamatn tili", "media texnologiyasi", "media toifasi", "medianing auditoriyasi" va shu kabilar.

Media agentligi (media matn taqdim etuvchisi, media ma'lumot manbasi, media industriyasi) – qoidaga ko'ra, ommaviy auditoriya uchun mo'ljallangan mediamatnlarni yaratadigan va tarqatadigan telekanal, nashriyot, kinostudiya kabilar ishlaydigan tashkilotlar, shaxslar guruhi va texnik vositalar majmui.

Media toifasi – mediamatnlarning har xil turlari (matbuot, televideniye, kinematograf va shu kabilar.), shakllari (reklamaga oid, hujjatli, ta'limiy va shu kabilar) va janrlari (maqola, intervyu, reportaj, drama, komediya va shu kabilar).

Media ta'lim auditoriyasi (ta'lim oluvchisi) – media matn mo'ljallangan insonlar guruhi.

Media texnologiyasi – 1) media matnni ishlab chiqarish uchun zarur apparatura, asboblari va materiallar; 2) aniq texnik vositalar, kompozitsiya, janrlar va shu kabilaridan foydalanish nuqtai nazaridan mediamatnlarni yaratish usullari.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, Media til – aniq mediamatnlarni yaratishda foydalaniladigan ifodalilik vosita va usullari majmuasidir. Mediamatn o'quvchi, foydalanuvchi va tinglovchilar bilan verbal, tasviriy yoki audiovizual tillarda "muloqot" qilish qobiliyatiga egadir. Aniq media matnlarni yaratishda vosita va usullar majmuasi (kodlar va shartlar to'plami, ular yordamida voqelik qayta anglanadi va taqdim qilinadi) qo'llanilishi mumkin.

Kino va televideniye ham ko'rish, ham tovushli vositalarini o'z ichiga olgan audiovizual tildan foydalanadi, matbuot tili verbal (bosmadan chiqarilgan matn) va grafik (illyustratsiya, fotosuratlar) obrazlarni birga qo'shib qo'llaydi. Mediani taqdim qilish (reprezentatsiyasi) – mediamatnda insonlar sotsiumi (odamlar, voqealar, g'oyalari va shu kabilar) hayotini aks ettirish (reprezentatsiyasi) jarayoni.

ADABIYOTLAR

1. Федоров А.В. Медиаобразование: социологические опросы. Таганрог: Изд-во Кучма, 2007. 228 с. Федоров, 2007, 250-б.
2. Педагогическая энциклопедия : В 2 т. / Гл. ред. В. Г. Панов. — Москва : Большая Рос. энцикл., 1993-1999. Педагогическая энциклопедия, 1993, 555-б
3. Усов Ю.Н. Кинообразование как средство эстетического воспитания и художественного развития школьников. Дисс. ... д-ра пед. наук. – М., 1989. – 356 с.
4. Федоров А.В. Анализ персонажей медиатекстов на занятиях: творческие задания // Перемена. 2007. № 3. С. 15-21. Федоров, 2001, 38-б
5. Зазнобина, Л.С. Проект стандарта медиаобразования, интегрированного в гуманитарные и естественнонаучные дисциплины начального и среднего общего образования [Текст] / Л. С.Зазнобина. - М. : Просвещение, 1999. – 40 с.Зазнобина, 1998, 32-б.
6. Федоров А.В. Медиаобразование будущих педагогов. Таганрог: Изд-во Кучма, 2005. 314 с. Федоров, 2005, с. 331



UDK 378.147:004 + 616.72-002:37.091.2

Jasur NORMATOV,
Kimyo xalqaro universiteti tadqiqotchisi
E-mail: jasurnormatov443@mail.com

Toshkent Amaliy Fanlar universiteti, Pedagogika fanlari doktori M.E. Axmedova taqrizi ostida

MECHANISMS FOR IMPROVING METHODOLOGICAL PREPARATION OF STUDENTS IN TEACHING RHEUMATOLOGICAL DISEASE FROM CLINICAL SCIENCES IN DIGITAL MEDICAL EDUCATION.

Annotation

The article discusses the mechanisms for improving the methodological training of students when teaching rheumatism in clinical pediatrics in digital medical education. Acute rheumatic diseases, etiopathogenesis, classification, clinical symptoms, diagnostic criteria, comparative diagnosis, treatment methods, prevention and spread of rheumatism, modern treatment methods, etiology and pathogenesis of the disease, infectious factors are discussed. The causes of rheumatism, the solution of therapeutic and methodological problems necessary in medical educational institutions, classes, based on the medical and didactic approach are outlined.

Key words: Medical education, clinical symptoms, treatment methods, diagnosis, disease phases, rheumatism, infectious factors.

МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ РЕВМАТОЛОГИЧЕСКИХ ЗАБОЛЕВАНИЙ ИЗ КЛИНИЧЕСКИХ НАУК В ЦИФРОВОМ МЕДИЦИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В статье рассмотрены механизмы совершенствования методической подготовки студентов при преподавании ревматизма клинической педиатрии в цифровом медицинском образовании. Обсуждаются острые ревматические заболевания, этиопатогенез, классификация, клинические симптомы, критерии диагностики, сравнительный диагноз, методы лечения, профилактика и распространение ревматизма, современные методы лечения, этиология и патогенез заболевания, инфекционные факторы. Изложены причины возникновения ревматизма, решение лечебно-методических задач, необходимых в медицинских образовательных учреждениях, занятиях, на основе медико-дидактического подхода.

Ключевые слова: Медицинское образование, клинические симптомы, методы лечения, диагностика, фазы заболевания, ревматизм, инфекционные факторы.

RAQAMLI TIBBIY TA'LIMDA KLINIK FANLARIDAN REVMAZIM KASALLIGINI O'QITISHDA TALABALARNING METODIK TAYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MEKANIZMLARI.

Аннотация

Maqolada raqamli tibbiy ta'limda klinik Pediatriya fanlaridan revmatizm kasalligini o'qitishda talabalarning metodik tayorgarligini takomillashtirish mexanizmlari. O'tkir revmatik isitma, etiopatogenezi, tasnifi, klinik belgilari, tashxis mezonlari, qiyosiy tashxis, davolash usullari, profilaktikasi hamda revmatizmning tarqalishi, hozirgi vaqtda kasallinishning davolash yo'llari, kasallanish etiologiya va patogenezini, infeksiyon faktorlar bilan bog'liqligi haqida fikr yuritilgan. Revmatizm bilan kasallanishning sabablari, tibbiy ta'lim muassasalarida, dars mashg'ulotlarida, tibbiy-didaktik yondashuv asosida zarur bo'lgan tibbiy –metodik vazifalarni hal etish haqida fikr ifodalangan.

Kalit so'zlar: Tibbiy ta'lim, klinik belgilari, davolash usullari, tashxis, kasallik fazalari, revmatizm, infeksiyon faktorlar.

Kirish. Dunyodagi globallashuv va texnologik taraqqiyot natijasida tibbiy ta'limning raqamli transformatsiyasiga asoslangan innovatsion strategiyalar tibbiy amaliyotga keng joriy etilmoqda. Tibbiy ta'lim jarayonini klinik fanlar bilan ehtiyojlarga asoslangan individual tibbiy ta'lim traektoriyalarini takomillashtirish orqali bo'lajak bolalar tibbiyot mutaxassislarida o'rganish va ishlash uchun zarur bo'lgan universal kompetensiyalarni, kreativ va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi infratuzilma va texnologik resurslar qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu o'z navbatida, klinik fanlarni kollektiv va o'qitish modellarini tatbiq etishning tibbiy-metodik imkoniyatlaridan amaliyotda foydalanish bo'yicha samarali ishlarni olib borishga imkon beradi.

Mamlakatimizda 2020-2030 yillarda tibbiyot sohasini tubdan rivojlantirish, tibbiyot sohasida xalqaro standartlarni joriy etish, kredit-modul tizimini joriy etish orqali tibbiyot sohasida kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlarini takomillashtirish, tibbiyot ta'lim, fan, amaliyot va innovatsiyalar sohasidagi ijobiy xalqaro tajribalarni implementatsiya qilish borasida samarali ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, tibbiyot ta'limida ta'lim xizmatlarini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim berish imkoniyatlarini kengaytirish, tibbiyot tashkilotlari ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash, amaliyot va tibbiy ta'limga asoslangan dual ta'lim modelini joriy etish, bu borada tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining akademik va innovatsion salohiyatini oshirish borasida ustuvor vazifalar belgilangan. O'z navbatida bu uzluksiz tibbiy ta'lim imkoniyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi

O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmonlari, 2019 yil 6 maydagi PQ-4310-son "Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilmfani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021 yil 25 maydagi PQ-5124-son "Sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda usbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

O'tkir revmatik istima. Etiopatogenezi, tasnifi, klinik belgilari, tashxisot mezonlari, qiyosiy tashxis. Davosi, profilaktikasi. Revmatizmning tarqalishi. Hozirgi vaqtda kasallanishning susayganligi qayd qilingan va uning O'zbekistonda tarqalishi 1000 ta bolalar ichida 0,79 ta to'g'ri keladi. Maksimal kasallanish asosan 10-14 yoshlarga to'g'ri keladi. Etiologiya va patogenezini. Infeksiyon faktorlar bilan bog'liq (A guruhiga mansub beta-gemolitik streptokokk yoki uning L formasini, virus-streptokokkli assotsiatsiya). Revmatik jarayonning shakllanishida streptokokkning antigen moddasi bilan yurak to'qimasi o'xshashligiga asoslangan immunologik mexanizmlar muxim rol o'ynaydi. Revmatizm bilan kasallanishda irsiy moyillik ham katta ahamiyatga ega (irsiylanishning multifaktorial tipi).

Patomorfologik nuqtai nazardan qaraganda revmatizmga biriktiruvchi to'qima tuzilmalarining dezorganizatsiyasiga olib keluvchi sistemali vaskulit sifatida qarash mumkin. Ko'pchilik mualliflar A guruhiga mansub beta-gemolitik streptokokkning revmatizmning etiologiyasida ahamiyati katta deb hisoblaydilar. Revmatizmning o'tkazilgan streptokokkli infeksiyasidan so'ng 2-3 haftadan keyin ko'proq yuzaga kelishi, faol fazasidagi bemorlar qonida streptokokka nisbatan antitelalarning yuqori tirda bo'lishi, 60-75% bemorlar qonida streptokokkli antigen topilishi, bitsillin

profilaktikasida kasallanish va qaytalanishning birdaniga susayishi streptokokkli nazariya to'g'irligini tasdiqlaydi.

Revmatizmning qaytalanishi surunkali tonzilliti bor bo'lgan bemorlarda, hatar guruhida: qarindoshlarida, naslda mavjudligi hamda qonda B-xujayrali D8\17 markerning topilishi nisbatan 2,5 marta ko'proq kuzatiladi. Hozirgi vaqtda revmatizmning latent va surunkali shakllari streptokokkning ko'p yillik bitsillin profilaktikasidan keyin aniqlangan, organ va to'qimalarda persistirlovchi, fagotsitozga uchramaydigan va antibiotiklar ta'siriga chidamli qobiqsiz L - shakliga o'tishi bilan tushuntiriladi. Anginani boshidan o'tqazgan faqat 0,2-0,3% shaxslariga revmatizm bilan kasallanadi, ya'ni u streptokokk infeksiyasiga sezgir organizmlarda rivojlanadi. Kasallik asosan ota-ona va boshqa bolalari kasallangan oilalarda ko'p uchraydi. Bu esa «oilaviy revmatizm» tushunchasi hosil bo'lishiga olib keladi. Revmatizm streptokokka nisbatan genetik immun etishmuvchiligi bor shaxslarda rivojlanadi, ya'ni bu kasallik irsiy moyillikka ega, lekin shu bilan bir qatorda kasallik rivojlanishida tashqi muhit omillari ham muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi vaqtgacha streptokokkning «revmatogen» shtammlari borligi to'g'risidagi masala tahlil qilinadi. Stellerman ko'rsatishi bo'yicha «revmatogen» shtammlarga lilo proteinazasini yo'qotgan (xiralashish omili) streptokokklar qiradi. U kardit, artrit, xoreya va revmatizmning boshqa ko'rinishlari rivojlanishi turli «revmatogen» streptokokk shtammlariga bog'liqligini aytib o'tgan. Bu nuqtai nazarga boshqa mualliflar revmatizm bilan kasallangan bemorlar tomog'ida kasallikning faol fazasida 15-20 xil streptokokk serotipi aniqlanishini va ular klinik sog'lom shaxslar, boshqa streptokokk infeksiyasi bemorlarda ham uchrashi haqidagi ma'lumotlarni qarshi qo'yadilar. Genetik markerlarni tekshirish shuni ko'rsatadiki, revmatizm bilan kasallangan bemorlar ichida. A va V qon guruhli shaxslar ko'pchilikni tashkil etadi. V guruh qoniga ega bo'lgan, revmatizm bilan kasallangan bemorlarda antistreptolizin - O ning yuqori titri aniqlangan, bu esa bu guruh qoniga ega bo'lgan shaxslarning streptokokka nisbatan yuqori sezuvchanligidan dalolat beradi.

Streptokokk etiologik omil hisoblandsada, u klassik infeksiyon patologiya nuqtai nazaridan revmatizm ko'zg'atuvchisi emas. Immun gomeostazning buzilishi ham ahamiyatli emas, e'ni revmatizm-bu klinik immun kasallik. Streptokokk organizmga o'zining antigen xususiyatlariga ega bo'lgan toksinlari (streptolizin O, DNK polimeraza, proteinaza, gialuronidaza, streptokinaza) bilan ta'sir qiladi, bunga javoban organizmda antitanalar (antistreptolizin - O, antistreptogialuronidaza va boshqalar) ishlab chiqariladi. Antigen xususiyatiga streptokokkning tsitoplazma va membrana tuzilmalari ham ega bo'lib, ularga ham antitanalar aniqlanadi. Surunkali tonzillit bilan kasallangan, sensibillashgan bolalarda streptokokk infeksiyaning qayta avj olishi organizmda ko'p miqdorda immun komplekslar (streptokokk, antigen+antitana+komplement) to'planishiga olib keladi. Ular qon tomir tizimida aylanib, mikrosirkulyator qon tomir devorlariga yopishadi va uning shikastlanishiga olib keladi. Bu esa antigen va oqsillarning biriktiruvchi to'qimaga o'tishini osonlashtirib, uning destruksiyasiga olib keladi (tezroq tipdagi allergik reaksiya). Revmatizm patogenezida allergiyaning ahamiyati qo'zishning boshlang'ich davriga, angina vaqtiga emas, balki undan 10-14 va ko'proq kundan keyingi vaqtga to'g'ri keladi. Streptokokk antigenining tuzilishi bilan yurak biriktiruvchi to'qimasi o'xshashligi patologik jarayon birinchi

navbatda yurak qavatlarini qamrab olib, keyinchalik yuqori maxsus faollik va shikastlovchi ta'sirga ega bo'lgan autoantigenlar hosil bo'lishiga olib keladi. Bunga javoban vazifasi va ahamiyati to'liq o'rganilmagan autoantitanalar - AKA (antikardial antitanalar) ishlab chiqariladi. Ko'pchilik mualliflar fiqricha ular dastlab himoya vazifasini o'taydi (tozalovchilar), lekin yuqori titrda shikastlovchi ta'sirga ega bo'ladi. AKA tarkibi bo'yicha turli xil: bittasi faqat yurak AGga sezgir boshqalar esa streptokokk membranasi ham ta'sirchan. Yurak to'qimasi AKA bilan bir qatorda antistreptokokk antitanani ham biriktiradi. Immunokompleks reaksiya yurakda surunkali yallig'lanish jarayoniga olib keladi. Revmatizmga gumoral immunitet bilan bir qatorda xujayraviy immunitet ham zararlanadi, ya'ni gumoral va xujayraviy immunitet orasida muvozanat buziladi. Bunda shikastlovchi ta'sirga ega bo'lgan, o'zida yurak qavatlariga nisbatan fiksatsiyalangan antitanalar saqlovchi sensibillashgan killer-limfotsitlar kloni hosil bo'ladi (sust tipdagi allergik reaksiya), ya'ni birlamchi revmatizm asosiy patogenetik omil streptokokk infeksiya va TTAR. Birinchi revmatik atakani yallig'lanishga qarshi doiralarda bilan davolash yaxshi samara beradi. Surunkali revmatizmga sensibillashgan limfotsitlarning yurak to'qimasi bilan ta'sirlashuvchi antikardial antitanalar, muhim rol o'ynab, bunda immunodepressiv davo maqsadga muvofiq.

A.I.Strukov biriktiruvchi to'qima dezorganizatsiyasining 4 bosqichini farqlagan:

1. Mukoid bo'kish.
2. Fibrinoid bo'kish.
3. Granulematoz bosqich.
4. Chandiqlanish bosqichi.

Klinitsistlar uchun mukoid bo'kish bosqichini ajratish muxim bo'lib, bunda davolash qancha erta boshlansa, patologik jarayonni shuncha tez ortga qaytarish mumkin. Fibronoid bo'kish bosqichida biriktiruvchi to'qimaning chuqurroq destruksiyasi kuzatiladi. Davolash olib borilganda jarayonni orqaga qaytarish extimolliga kamroq. Ikkala bosqich revmatik jarayon borligidan dalolat beradi va morfologik jihatdan bola organizmiga kuproq xos bo'lgan eksudativ komponent sifatida namoyon bo'ladi. Nospetsifik eksudativ komponentning rivojlanish darajasi revmatizmning klinik o'zgarishlari og'irligi bilan bog'liq (miokardit, xoreya, poliserozitlar). Ashoff-Talalayev granulyomalari yurak devori va klapani, endokarda, fibroz xalqada, perikarda, qon tomirlar devorida va boshqa a'zolar biriktiruvchi to'qimasida uchraydi. Ular xujayraviy elementlar to'plami bo'lib, biriktiruvchi to'qima dezorganizatsiyasi maxsulotlarini yo'qotishga qaratilgan sustkor tipdagi xujayraviy immun reaksiyani belgilaydi, markazida proliferatsiyalanuvchi va gipertrofiyalangan gistotsitlar saqlaydi. Bu granulyomada fiksatsiyalangan immun komplekslar topilishi bilan tasdiqlanadi (turga hoslik). Granulyomaning «turga hosligi» yurak biriktiruvchi to'qimasi tarkibidagi nordon glikozaminoglikanlarga bog'lik. Granulaning rivojlanish sikli 3-4 oy.

Muhokama. Revmatizm tasnifi. Revmatizm klinik ko'rinishi polimorfdir. Revmatizm tashxisini to'g'ri qo'yish uchun klassifikatsiya qabul qilingan. Kasallikning faol va nofaol fazalari farq qilinadi. Faol faza jarayonning faollik darajasi bilan tushuntiriladi. Nofaol faza haqida 6 oydan keyingina gapirish mumkin, chunki faollikning klinik va laborator belgilari yo'qolganidan keyin ham morfologik o'zgarishlar uzoq saqlanib qoladi. (2003 yilgi tahlil natijasi)

Revmatik istma klassifikatsiyasi Rossiya revmatologlari Assotsiatsiyasi

Klinik variantlari	Klinik namoyon bulishi		Natija	KAB Stadiya KSV. NUNA
	Asosiy	Kushimcha		
Utkir revmatik istma	Kardit Artrit Xoreya Xalqasi mon eritema	Istma Artralgiya Abdomin. sindrom Serozitlar	Tuzalish Surunkali revmatik kasallik Yurak kasalligi Poroksiz Porok bilan	0 0 1 1 11A 11 11B 111 111 IU
Qaytalama revmatik istma				

KSV- N.D.Strajesko V.X.Vasilenko.

NUNA- Nyu-york kardiologlari assotsiatsiyasi.

FK-Funksional klass.

Klinicheskix diaqnozlar namunalari

1. Utkir revmatik istma, Kardit (mitral valvulit), migratsiyalanuvchi poliartit, KAB-1. (FK -1).
2. Utkir revmatik istma, Xoreya, KAB-0, (FK-0)
3. Kaytalama revmatik istma, Xoreya, KAB-0, (FK-0)
4. Yurakning surunkali revmatik kasalligi. Mitral klapan kopkokklarining yallig'lanishdan keyingi fibrozi. KAB-0(FK-0)

5. Yurakning surunkali revmatik kasalligi, kombinirlangan mitral-aortal nuksun, KAB-II B (FK-III)

Maksimal faollikdagi revmatizm (3-daraja) - kasallikning klinik va laborator ko'rinishlari aniq ifodalangan turidir.

1.Klinik sindrom: pankardit; o'tkir yoki o'tkir osti diffuz miokardit; yurak ishi etishmuvchiligi bilan kechuvchi o'tkir osti yoki surunkali revmokardit; o'tkir yoki o'tkir osti poliartit, plevrit, revmatizm bilan birga nefrit, gepatit, anulyar toshmalar bilan birga keluvchi o'tkir osti yoki surunkali revmokardit; faollikka ega bo'lgan xoreya. P.Rentgenologik tekshiruvlar yurak chegaralarining o'sib boruvchi kattalanishishi va miokard qisqarish funksiyasining susayishi,

faol antirevmatik terapiya ta'sirida orqaga qaytuvchi plevroperikardial o'zgarishlarni ko'rsatadi.

III.EKG: P-R intervalning uzayishi, ritm va o'tkazuvchanlikning buzilishi koronarit belgilari.FKG: tonlar o'zgarishi, shovqinlar, davolash ta'sirida orqaga rivojlanuvchi aksentlar.

IV-Qondagi o'zgarishlar: 8x10 10x10 oralig'idagi neytrofilli leykotsitoz. EChTning 20-30 mm/s gacha oshishi. S-refaol oqsil 1-3 musbat; alfa - 2 globulinlar 11.5-16% ni u-globulinlar 23-25%, seromukoid o,6 YeD dan, DFA 0,35-0,5 YeD. dan yuqori.

U. Serologik testlar: streptokokk antitanalar titirlari, asosan antistreptolizin-O va antistreptogialuronidazaning normadan 1.5-2 marta oshishi.

VI-Kapilyar o'tkazuvchanligining II darajagacha oshishi.

O'rta faollilikdagi revmatizm (2-daraja).

I.Klinik sindrom:

a) davolash bilan birga kelgan o'tkir osti revmocardit;

b) o'tkir osti poliartrit, fibrinoz plevrit, nefropatiya, revmatik xoreya, teri osti revmatik tugunchalar yoki xalqasimon eritema bilan birga keluvchi o'tkir osti yoki uzluksiz - retsidivlanuvchi revmocardit.

P.Rentgenologik tekshiruvlar natijalari: yurak kattalashuvi, (perikardial bitishmalar), antirevmatik terapiya natijasida orqaga qaytuvchi plevroperikardial bitishmalar.

III. EKG: P-R intervalning uzayishi, ritm va o'tkazuvchanlikning buzilishi, koronarit belgilari. FKГ: tonlar o'zgarishi, shovqinlar, davolash ta'sirida orqaga qaytuvchi aksentlar.

IU.Qondagi o'zgarishlar: 8x10³ - YuxYu3 oralig'idagi neytrofil leykotsitoz. EChTning 20-30 mm/s gacha oshishi. S-refaol oqsil 1-3 musbat, alfa-2-globulinlar 11,5-16% ni u-globulinlar taxminan 21-23% ni tashkil etadi, seromukoid 0,3-0,6 YeD, DFA-reaksiya 0,25-0,3 YeD oraliqlarida.

U.Serologik testlar: streptokokka qarshi antitana titrlari, asosan antistreptolizin - O va antistreptogialuronidazaning normadan 1,5-2 marta oshishi.

VI-Kapilyar o'tkazuvchanligining II darajasigacha oshishi.

Kam faollilikdagi revmatizm (1 daraja).

I-Klinik samarasi yomon kechuvchi, vaskulit, teri osti revmatik tugunchalar, xalqasimon eritema, turg'un arteriyalar bilan birga kechuvchi cho'zilgan yoki latent revmocardit.

P.Rentgen tekshiruv natijalari kasallikning klinik anatomik

tavsifiga binoan turlicha bo'lib (birlamchi yoki qaytalama revmocardit, yurak nuksoni bor yoki yuq), antirevmatik terapiya ta'sirida aniq o'zgarish kuzatiladi.

III.EKG va FKГ kam ma'lumot beradi

IU.qondagi o'zgarishlar noaniq, davolash jarayonidagi ularning o'zgarishlari katta axamiyatli, ECHT biroz oshgan yoki me'yorda.

S-refaol oqsil bo'lmaydi yoki ko'p emas (1 musbat), alfa 2-u-globulinlar miqdori me'yorda yoki biroz ortgan, DFA - reaksiya ko'rsatkichlari normaning yuqori chegarasida, seromukoid normal yoki pasaygan.

V. Serologik ko'rsatkichlar normaning yuqori chegarasida yoki biroz oshgan. Ko'rsatkichlarning davolash jarayonida va interkurrent infeksiyasidan tashqarida o'zgarishi muhim ahamiyatga ega. Streptokokkli antitanalarning past titrlarida immun refaollikning susayishi bilan bog'liq bo'lib, bemorning haqiqiy holatini aks ettirmaydi. Titrlarning davriy oshishi hamda asta-sekin ko'tarilishi (infitsirlanmasdan) revmatik jarayonning faolligi haqida qiyosiy tasdiqlovchi mezon bo'lib xizmat qiladi.

VI. Kapilyarlar o'tkazuvchanligi, boshqa sabablarni chiqarib tashlagandi, I-II darajasi oralig'ida, kasallikning kechishi, uning boshlanishi va kechish xususiyatlarini hisobga olgan holda bemor refaolligiga bog'liq.

Natija. O'tkir - yorqin, keskin klinik ko'rinimli, polisindromli, laborator ko'rsatkichlar jarayonning yuqori faolligini bildiradi, kasallikning dinamikasi 2-3 oy davom etadi, yurak nuqsoni kam shakllanadi, bunday kechish ko'prok revmatizmida uchraydi.

Xulosa o'rinda shuni aytish lozimki o'tkir osti klinik simptomlar rivojlanishi asta-sekin, polisindromlik kamroq xos, kasallik davomiyligi 2-6 oy, ko'pincha yurak nuqsoni shakllanadi. Antirevmatik terapiya samarasi kamroq ifodalangan. Cho'zilga-sust-torpid kechish, kasallik 4-6 oy davom etadi, yaqqol xurujlarsiz, lekin remissiyasiz, bunda revmocardit kam yoki o'rta faollikka ega bo'lib, yurak nuqsoni davolanishga qaramasdan ko'proq shakllanadi. Uzliksiz-qaytalanuvchi juda og'ir kechadi, ko'pincha katta yoshdagi bolalarda uchraydi va polisindromik, yaqqol avj olish bilan tavsiflanib, davolash natijasida avxolining yomonlashuvi bilan to'liqsiz remissiyaga o'tadi. Yashirin-faol faza yo'q, oldin ham bo'lmagan, revmatik anamnezi yo'k, yurak nuqsoni tezda aniqlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. 2017 y, 104 bet, O'zbekiston matbuot va axborot agentligining - O'zbekiston nashriyot matbaa ijodiy uyi.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizning mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017 y, 488 bet, O'zbekiston matbuot va axborot agentligining -O'zbekiston nashriyot matbaa ijodiy uyi.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. 2016 y, 56 bet, O'zbekiston matbuot va axborot agentligining - O'zbekiston nashriyot matbaa ijodiy uyi.
4. Ashurova D.T., Tursunova O.A., Axrarova N.A., Mambetkarimov G.A Bolalar kasalliklari propedevtikasi. ToshPTI. Darslik .T.: 2018 yil.
5. Kliniko-funksionalnye osobennosti novorojdenных: uchebnoe posobie dlya studentov meditsinskix vuzov / sost.: Lejnina Podlevskix I. V., Tokarev T. S... - Kirov A. N: Kirovskaya gosudarstvennaya meditsinskaya akademiya, 2010. - 82 s.
6. Propedevtika detskix bolezney: uchebnik dlya studentov pediatricheskix fakultetov meditsinskix vuzov/V.A.Kelsev — Rostov n/D: Feniks, 2011. — 573 s
7. Propedevtika detskix bolezney s uxodom za detmi / T.V.Kapitan — 3- ye izdanie, dop. — M.: MEDpress-inform, 2006. — 704 s. 8.
8. Propedevtika detskix bolezney. Mazurin A.V., Voronov I.M., 2 oe izdanie Sankt. P. 2009.
9. Pitanie detey grudnogo i rannego vozrasta: uchebnoe posobie/Axmedova D.I., Shamansurova E.A., Maxkamova G.G., Ishniyazova N.D./ - Tashkent - 2014. - 270 s.
10. Rost i razvitie detey (usulicheskoe rukovodstvo), Ministersvo Zdravooxraneniya Respubliki Uzbekitsan. TashPMI, Tashkent, 2006 434
11. Propedevtika detskix bolezney/Pod red. Geppe N.A., Podchernyaevoy N.S.: uchebnik dlya studentov meditsinskix vuzov. — M.: GEOTAR-Media, 2008. — 464 s.
12. T.A.Daminov, B.T.Xalmatova U. R. Boboeyva. Bolalar kasalliklari. Darslik T.: Tafakkur bostoni nashriyoti. 2012 yil. 334 bet
13. <http://www.pediatr-russia.ru>
14. <http://med-study.ru>
15. <http://www.pediatrics-nmo.com>
16. <http://medline.ru>
17. <http://www.medicalstud.ru/med-ge>



Elyor ORIPOV,

Kokand State Pedagogical Institute, Uzbekistan

E-mail: oripoveyor1982@gmail.com

Based on the review by Z. Boytemirova associate professor of KSPI, candidate of philosophy

AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY QADRIYATLAR DIALEKTIKASI: IJTIMOYIY VA MADANIY O'ZGARISHLARNING O'ZARO TA'SIRI

Аннотация

Ushbu maqola an'anaviy va zamonaviy qadriyatlar dialektikasini o'rganishga qaratilgan. Qadriyatlar jamiyatdagi o'zgaruvchan madaniy, ijtimoiy va axloqiy mezonlarni aks ettiradi. Maqolada an'anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy qadriyatlar bilan o'zaro ta'siri va ular o'rtasidagi ziddiyatlarning ijtimoiy barqarorlik va rivojlanishga ta'siri muhokama qilinadi. Tadqiqot qadriyatlardagi o'zgarishlarning sabablari va oqibatlarini va ularning jamiyatdagi rolini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: An'anaviy qadriyatlar, zamonaviy qadriyatlar, dialektika, ijtimoiy o'zgarish, madaniy o'ziga xoslik.

ДИАЛЕКТИКА ТРАДИЦИОННЫХ И СОВРЕМЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ СОЦИАЛЬНЫХ И КУЛЬТУРНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ

Аннотация

Целью данной статьи является исследование диалектики традиционных и современных ценностей. Ценности отражают меняющиеся культурные, социальные и моральные критерии в обществе. В статье рассматривается взаимодействие традиционных ценностей с современными ценностями и влияние конфликтов между ними на социальную стабильность и развитие. В исследовании анализируются причины и последствия изменения ценностей и их роль в обществе.

Ключевые слова: Традиционные ценности, современные ценности, диалектика, социальные изменения, культурная идентичность.

THE DIALECTIC OF TRADITIONAL AND MODERN VALUES: THE INTERACTION BETWEEN SOCIAL AND CULTURAL CHANGE

Annotation

This article aims to study the dialectic of traditional and modern values. Values reflect the changing cultural, social and moral criteria in society. The article discusses the interaction of traditional values with modern values and the impact of conflicts between them on social stability and development. The research analyzes the causes and consequences of changes in values and their role in society.

Kew words: Traditional values, modern values, dialectic, social change, cultural identity.

Introduction. In the 21st century, the emergence of institutions with a new form and content makes an axiological approach to the processes in reality a necessity. In world social thinking, the formation of a polyfunctional axiological attitude is considered as the main factor in the development of rationalistic and praxeological aspects of reality. Today, the emergence of destructive phenomena such as spiritual poverty, the washing away of national borders, the universalization of local traditions and values, shows the urgency of studying the dialectic of traditional and modern values from a socio-philosophical point of view. Traditional values are the main spiritual and moral principles of the society formed over a long period of time and passed down from generation to generation. Modern values are formed on the basis of the rapid development of society, globalization and innovations that have appeared under the influence of technology. In this article, the dialectic of values is analyzed from a socio-philosophical point of view, the relationship between traditional and modern values and the impact of these values on changes in society are studied. This issue is scientifically and socially important, and the role of values in stability and development is analyzed.

Literature review. In the study, the dialectical relationship between traditional and modern values was analyzed in a comparative-philosophical way. For example, the founder of traditionalism, René Guénon, sharply criticized the moral and spiritual crisis of modern Western culture in his work entitled "The Crisis of the Modern World". Along with the materialistic and technological progress of the South West, he emphasizes its spiritual decline. According to Guénon, the West's disconnection from its spiritual roots has led society to a social, cultural and moral crisis.

Guénon suggests a return to traditional values to understand the challenges of the modern world. He emphasizes the spiritual riches of Eastern and traditional societies and sees them as an alternative to the empty and superficial approaches of modernism. He also criticizes modernism and emphasizes that the man of the modern world strives only for materialistic and technological progress, but is far from spirituality and high moral values. He evaluates tradition as a deeply metaphysical and spiritual knowledge system, and points to Hindu and

Islamic philosophies as examples of traditional worldviews. Guénon believes that traditions are the path that leads humanity to higher knowledge, because they allow us to understand the spiritual meaning of life. Again, according to Guénon, traditions do not merely represent cultural heritage or customs, but are based on deep spiritual teachings and concepts. Their continuity and succession show that man is connected not only with the material world, but also with the spiritual world. Through traditional values, man realizes his place in the universe and experiences his spiritual growth. One of Guénon's most important conclusions is that tradition represents a cosmic and divine order. This order is necessary to understand the true nature of the universe and to understand the place of humanity in it. By maintaining this order, traditional societies organized human life according to divine orders. Statistics have also been used to examine cultural and social contexts in the development of values. Historical and sociological approaches were used in the research, and the dialectic of values was studied in depth.

The dialectical relationship between traditional and modern values has been analyzed in a comparative-philosophical way in several important philosophical works. In particular, Alasdair MacIntyre's "After Virtue" His work is famous on this topic. In his work, MacIntyre analyzes the conflicts and contradictions between traditional moral values and the modern worldview from a philosophical point of view [1].

MacIntyre evaluates the value system based on Aristotle's virtue ethics and explains how moral norms are formed in modern society. It shows the conflicts between traditional values (virtues, moral rules) and values in modern capitalist society. He argues that the modern world has moved away from ethical norms and developed values based on instrumental rationalism and individualism.

This work is known for its comparative-philosophical analysis of the dialectical relationship between values and provides an in-depth philosophical analysis of changing moral values.

Ronald Inglehart's "Modernization and Postmodernization: Cultural, Economic, and Political Change in 43 Societies" provides an in-depth analysis of the relationship between traditional and modern values. The work explores theories about how societies change their

values in the process of modernization and how they can be reshaped during the transition to postmodernization [2]. It also explores the dialectic between traditional and modern values. According to him, the conflict between values causes dynamic changes in society. Although traditional values still exist in the society, they are reshaped according to modern requirements. For example, in some societies religious values are preserved while modern rational and scientific approaches are accepted. Through these confrontations and interactions, the spiritual development of society occurs.

Peter L. Berger and Thomas Luckmann written by Although The Social Construction of Reality: A Treatise in the Sociology of Knowledge does not directly focus on the question of traditional and modern values, his sociological approach is concerned with how these values are formed and how they are shaped in society. helps to understand how it is received [3]. This work reflects on how values and norms in society are formed and changed through social processes. Berger and Luckmann analyze the dialectical relationship between social constructions. Modern values can often challenge or reshape traditional values. However, these values can co-exist in the process of continuous reconstruction of social reality. For example, although religious values are preserved as traditionalism in the society, modern democratic values are also accepted. This dialectical process leads to the emergence of new values and the reshaping of social structures in society.

Anthony Giddens "Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age" In his work, traditional and modern values are considered as factors affecting how a person perceives himself and how he shapes his place in society in the process of modernity. This work is based on Giddens's ideas about modern societies, identity, security and changing spiritual values, and deeply analyzes the dialectical relationship between traditional and modern values [4]. According to Giddens, in the process of modernity, the ways of self-realization of the individual change radically. In traditional societies, a person's sense of identity and social values were stable because they were based on rigid social structures, religious beliefs, and traditional rules. However, in the period of modernity and later modernity (late modernity), this stability weakens. Traditional values collide with modern demands, technologies and globalization, and the individual is forced to constantly re-understand himself.

Giddens highlights reflexivity as one of the important processes that characterize modern society. Reflexivity causes a person to regularly rethink and question his life and values in modern society. Traditional values are not automatically accepted, but people try to give them new meanings in the modern context.

According to Hegel, reality does not exist as a whole, but appears as a changing and conflicting process. In this process, any idea or concept (thesis) collides with another idea (antithesis) that is opposite to it, and through the solution of this contradiction, a new, higher-level truth (synthesis) is formed. As a result, human values and concepts also change and develop during this process [5].

Research methodology. The dialectic of traditional and modern values lead to several important conclusions. By studying the contradictions between values and their interaction, it allows to understand the development process of society and to think more broadly about its spiritual and cultural development. Below are the key findings of this study:

a) Values are a changing and dynamic process :

The dialectic of traditional and modern values shows that the value system is not immutable. Values are constantly evolving along with society and culture. Modern values often arise as new interpretations of traditional values or as counter-concepts to them. Through this dynamic process, values are constantly updated and adapted to the changing needs of society.

b) Contradictions are necessary for development :

On the basis of dialectics, the collision of any value with its opposite value is the main factor of development. For example, while traditional values often maintain societal stability, modern values encourage innovation and change. Through the resolution of these contradictions, society develops spiritually and culturally. Due to conflicts, new values emerge and old values are reinterpreted.

s) Importance of balance between values :

Studying the dialectic between traditional and modern values shows that a balance between these values is necessary for the successful development of society. When a society is based on only one-sided - only traditional or only modern values - it can lead to social tensions. Finding a balance, that is, preserving the positive aspects of traditional values and accepting the new demands of modern values, is the key to progress.

d) The need for dialectics for spiritual development :

The spiritual development of society occurs through the dialectic between values. In dialectical processes, contradictions are necessary not only to resolve conflicts, but also to create new concepts and values. Through this process, society is not limited to existing values, but constantly enriches itself and opens new directions.

In conclusion, the results of the study of the dialectic of traditional and modern values show that it is a process that constantly affects the development of society and culture. Through conflicting values, new insights and opportunities for spiritual development are created. This dialectical process encourages the society to renew itself and revise its values, as a result of which the society constantly enriches its cultural and moral system.

Conclusion. Several important steps are required to form the dialectic of traditional and modern values. This process includes the analysis of conflicts between values in society, their coordination and creation of opportunities for development . Here are some suggestions on what to do to create this dialectic:

a) Analysis and respect for traditional values.

The process of dialectics requires a thorough understanding of and respect for traditional values. Traditional values are often formed in the historical, religious and cultural foundations of a society, so they are a strong part of culture. These values should be carefully analyzed to understand how they can change over time and how they can affect society.

What to do?

Study the roots, meaning and functions of traditional values.

Analysis of the role these values play in society and how they benefit.

Consider what methods can be used to adapt traditional values to the needs of the times.

b) Modern values understand the need.

Modern values are often formed as a result of changing conditions, global processes and technological progress. These values usually include ideas such as human rights, gender equality, personal freedom and democracy. It is necessary to understand modern values and analyze how the innovations in them develop society.

What to do?

Understanding where modern values came from and why they became necessary.

Exploring how they relate to traditional values and what conflicts may arise.

Determining the useful aspects of modern values for society and explaining them to the wider public.

s) Analysis and coordination of conflicts between values

Dialectic arises from conflicts, so it is necessary to correctly analyze and reconcile the contradictions between traditional and modern values. In this process, instead of completely rejecting traditional values or forcibly accepting modern values, it is desirable to create a balance between the two value systems.

What to do?

Rather than pitting opposing values against each other, analyzing how they can complement or harmonize each other.

through discussion and debate.

Identify how each value system's strengths can benefit society.

Based on Zygmunt Bauman's work "Liquid Modernity", in liquid modernity social relations also become liquid, that is, they become short-term, changeable and quickly interrupted. This process is contrary to long-term and stable relations formed on the basis of traditional values. Modernity creates new values through personal freedom and choices, but these values are not stable and constantly updated. At the same time, the need for traditional values also persists in the process of modernity, as people seek to return to these values in search of security and stability [6].

REFERENCES

1. MacIntyre, Alasdair. "After Virtue: A Study in Moral Theory." 3rd edition, University of Notre Dame Press, 2007. P.340
2. Inglehart, R. (1997). Modernization and Postmodernization: Cultural, Economic, and Political Change in 43 Societies . Princeton University Press. P.256.
3. Berger, P., & Luckmann, T. (1966). The Social Construction of Reality: A Treatise in the Sociology of Knowledge . Anchor Books. P.26

4. Giddens, A. (1991). *Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age* . Stanford University Press. P.18.
5. Georg Wilhelm Friedrich Hegel, (1807) *Phenomenologie des Geistes* . Stanford University Press. P.128.
6. Bauman, Z. (2000). *Liquid Modernity* . Polity Press.P.256.



UDK:101.100.1

Azimjon OCHILOV,
Qashqadaryo viloyati IIB xodimi
E-mail: ochilov87@mail.ru

NavDPI professori f.f.d.Safarova N.O taqrizi asosida

KORRUPSIYA MADANIY-MA'NAVIY ISLOHOTLAR SIFATIDA

Аннотация

Ushbu maqolada korrupsiyaviy omillarni ana shu hodisa yashab turgan jamiyatning o'zi yaratgan nosog'lom muhitida namoyon bo'ladi. Yuqorida keltirilgan omillar bilan kurashishda eng birinchi navbatda aholining huquqiy bilimi va madaniyatini oshirish sezilarli darajada rol o'ynaydi. Maqolada korrupsiya madaniy-ma'naviy islohotlarining mohiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Falsafiy antropologik yondashuv, V.V.Zenkovskiy F.M.Dostoyevskiyning falsafasi, korrupsiyaga qarshi kuch usullari, korrupsiya, iqtisodiy ko'rinishlari, faylasufi L.Stevenson falsafasi, korrupsiya darajasi, mezonlari, aksiologik paeadigma, tinchlikka undaydigan imkoniyatlar, antropologik rasm, korrupsiyaning antropologik xususiyati, davlat kapitali.

KORРУПЦИЯ КАК КУЛЬТУРНЫЙ И МЕНТАЛЬНЫЙ ФЕНОМЕН

Аннотация

В данной статье коррупционные факторы проявляются в нездоровой среде, создаваемой обществом, в котором живет это явление. Кроме того, в Минюсте создана специальная телефонная линия для граждан на случай коррупции, которая эффективно работает уже несколько лет. В статье раскрывается сущность культурно-интеллектуального феномена коррупции.

Ключевые слова: Философско-антропологический подход, философия В. В. Зенковского, Ф. М. Достоевского, методы борьбы с коррупцией власти, коррупция, экономические проявления, философия философа Л. Стивенсона, уровень коррупции, критерии, аксиологическая падигма, возможности мира, антропологический образ, антропологическая природа коррупция, государственный капитал.

CORRUPTION AS A CULTURAL AND MENTAL PHENOMENON

Annotation

In this article, the corrupt factors are manifested in the unhealthy environment created by the society in which this phenomenon lives. In addition, a special telephone line has been created for citizens in case of corruption in the Ministry of Justice, which has been operating effectively for several years. The article reveals the essence of the cultural and intellectual phenomenon of corruption.

Key words: Philosophical anthropological approach, philosophy of V. V. Zenkovskii, F. M. Dostoevsky, methods of anti-corruption power, corruption, economic manifestations, philosophy of philosopher L. Stevenson, level of corruption, criteria, axiological paedigm, opportunities for peace, anthropological image, anthropological nature of corruption, state capital.

Kirish. Falsafiy tadqiqotlar ma'lum bir hodisaning asosiy sabablarini izlashdan boshlanadi. Asosiy sabab nafaqat biron bir hodisani genetik tushunishga imkon beradi, balki uning ishlash mexanizmlarini ochishga ham yordam beradi. Agar korrupsiya sabablari haqida gapiradigan bo'lsak, unda tadqiqotchilar, qoida tariqasida, asosan ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy xarakterdagi omillarni chaqirishadi.[6] Bu mutlaqo asosli pozitsiyadir, chunki korrupsiya birinchi navbatda ijtimoiy jihatdan ekspluatatsiya qilinadi va muayyan ijtimoiy munosabatlar tizimiga kiritiladi. Korrupsiya keltiradigan zarar barcha davlatlar uchun teng sanalib, mazkur illat davlatning turli sohalariga, xususan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarga hamda mamlakatning xalqaro maydondagi imidji va investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ushbu turdagi jinoyatlarni sodir etilishini oldini olishga qaratilgan kompleks choratadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiya omillarini keltirib chiqarayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliy hayotga tatbiq etilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. V.V.Zenkovskiy, L.Stevenson, A. I.Kirpichnikov, O.S.Pugachev va N.P.Kozlova, A.E.Binetskiy, Platon, Aristotel, Makiavelli, T.A.Kuzmina, F. M. Dostoevskiy, methods of anti-corruption power, corruption, asarlarida korrupsiya madaniy va aqliy hodisa mohiyatini ochib bergan.

Tadqiqot metodologiyasi. Falsafiy va antropologik yondashuvning ichki mazmuni shundan iboratki, o'rganilayotgan "mavzu" (bu holda "korrupsiya odami") ma'lum bir statik miqdor sifatida emas, balki axloqiy, psixologik va diniy omillarning murakkab majmuasi bilan o'zining ichki dunyosiga ega bo'lgan tirik shaxs sifatida qabul qilinadi. Asosiysi, "qotib qolgan" korrupsioner sifatida qabul qilingan odam o'zgarish va axloqiy yaxshilanishga qodir bo'lgan ochiq, harakatchan, tugallanmagan tuzilmani taqdim etadi.

Tahlil va natijalar. Axloqiy falsafasining qarashlari-riga va birinchi navbatda F.M.Dostoyevskiyning g'oyalari-ga mos keladi, u insonning "qorong'u" tomonini bilib, uning ma'naviy o'zgarishi mumkinligiga ishongan.

Mashhur rus faylasufi V.V.Zenkovskiy F.M.Dostoyevskiyning dunyoqarashini tavsiflab, yozuvchi butun umri davomida "inson tabiatining yashirin, oshkor etilmagan, ammo chinakam "mukammalligiga" ishonishdan uzoqlashmaganligini aytdi. U yana shunday yozadi: "Dostoyevskiyda nafaqat gunoh, buzuqlik, xudbinlik, umuman olganda, odamdagi "iblis" elementlari misli ko'rilmagan kuch bilan ochilgan, balki inson qalbidagi haqiqat va ezigulik harakatlari, undagi "farishta" tamoyili ham chuqur ochib berilgan. "Bular axloqiy falsafa va falsafiy antropologiyaning eng muhim qoidalari bo'lib, inson harakatlari elementidagi korrupsiya hodisasini ko'rib chiqishga imkon beradi[5].

Biz o'z ishimizda ham tayanadigan falsafiy antropologiyaning asosiy tamoyillari zamonaviy faylasuflar tomonidan ta'kidlangan. Faylasuf antropologik ochiqlik va inson tabiatining to'liqsizligi haqida gapiradi. "Insonning yaxlitligi muammosi" kitobida u "inson ochiq imkoniyatdir... inson tabiati noaniq. Biz odamni bitta elementga ham kamaytira olmaymiz, chunki u biron bitta ixtisoslikka tegishli bo'lmaydi. Inson biron bir tur toifasiga kirmaydi; tabiatda bunday boshqa tur mavjud emas. Aniqlangan, ya'ni har qanday toifaga kiritilgan odam o'zining asl yaxlitligini yo'qotadi. Har qanday hayotiy vaziyatda odam orqaga chekinish, chetga chiqish, "eksperiment"ni davom ettirishdan bosh tortish qobiliyatiga ega bo'lgan o'ziga xos eksperimentator vazifasini bajaradi[7].

Inson tabiatini ochib berish uchun uni fojiali ziddiyatli shaxs sifatida anglash, inson mavjudligining beqiyos chuqurligini ochib berish muhimdir. Oldindan aytib o'tilgan "inson tabiati" yo'q. Har birimiz o'z hayotini faol va mazmunli yashash jarayonida nima bo'lishi mumkinligi belgilanadi.

Xuddi shu tarzda ingliz faylasufi L.Stevenson shunday deydi: "Ha, bizda tug'ma biologik motivlar bor, lekin bizning o'ziga xosligimiz xulq-atvorimizning biz o'sadigan o'ziga xos insoniyat

madaniyatiga va qisman individual tanlovga bog'liqligidir." [9] Bu inson tabiatining ochiqchiligi va determinizmi foydasiga ishlaydigan dalildir.

Ammo inson mikrokosm deb tushuniladi. U borliqning ijodiy tamoyilini meros qilib oladi va Ioshosgeapv hisoblanadi. Ushbu muhim xususiyat inson haqidagi ko'plab hukmlarga ta'sir qiladi, shu jumladan u tirik odamni yakuniy baholashni taqiqlovchi imperativni shakllantirishda ishtirok etadi... bizda tirik odamning ruhini aniq "hisoblash" imkoniyati yo'q. Ruhning to'liq, keng qamrovli ta'rifini berish bu odamni o'ldirishni anglatadi. Inson ruhi yashashi uchun ham unga yakuniy ta'riflar berish kerak emas.

Umuman olganda, bu fikrlar F.M.Dostoyevskiy va rus falsafasining boshqa vakillarining ma'naviy va axloqiy qarashlariga mos keladi hamda bu o'zlarining uslubiy e'tiqodlarini aniqlash uchun qifoya bo'lib korrupsiyaga yengilmas narsa sifatida qarashga imkon bermasligi va korrupsiyaga-to'liq axloqsiz tur sifatida qarashlarni tasdiqlash uchun qo'llanilmasligi kerak.

Korrupsiyaga qarshi kompayens nazorati – davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etuvchi, korrupsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va chek qo'yish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berishni o'zida mujassam etgan profilaktik tizimdir.

Korrupsiyaning iqtisodiy jihati korrupsiyaning ijtimoiy hodisa sifatida eng aniq amaliy jihati hisoblanadi. Tadqiqotchilar ko'pincha korrupsiyani faqat iqtisodiy omillar bilan izohlashga moyildirlar. Shunday qilib, F.E.Sheregi shunday yozadi: "Bozor

munosabatlariga o'tish bilan korrupsiya ilgari ko'rilmagan miqyosga ega bo'ldi. Buning sababi kapitalning dastlabki to'planishining jinoiy tabiati bo'lib, u bugungi kungacha ham biznesga intilayotganlar, ham davlat hokimiyati bilan shug'ullanadiganlarning ongini egallab kelmoqda. Ushbu ikki sudlanuvchining kombinatsiyasi tushunarli, chunki davlat mulki qayta taqsimlanadi. Korrupsiyani rag'batlantiruvchi asosiy omil iqtisodiy omil bo'lib, u bir necha asrlar oldin Angliyada kapitalizm shakllanishining boshida ingliz siyosiy iqtisodchilari tomonidan ochilgan o'rtacha daromadlilik qonunida yotadi [10]. Bundan tashqari, bu nafaqat iqtisodiy omil, balki jinoiy-iqtisodiy: "Ijtimoiy-iqtisodiy shakllanishning o'zgarishi, xususiy mulk munosabatlarini tiklash, xususiylashtirish bosqichida uni egallab olish uchun kurash, mulkni qayta taqsimlash, shu jumladan reyderlarni egallab olish hozirgi vaqtda korrupsiyaning aktivizatsiya omillariga aylandi".

Xulosa va takliflar. Shuni ta'kidlash kerakki, "davlat" va "byurokratiya" ijtimoiy, ya'ni shaxslararo, sub'ektlardir. Korrupsiyani iqtisodiy, siyosiy va huquqiy jihatlarni o'z ichiga olgan ijtimoiy hodisa sifatida tushunishning barcha ahamiyati uchun ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy amaliyotlarning ikkilamchi ekanligini ko'rish muhimdir. Bu ijtimoiy munosabatlarni imkon beradigan chuqur antropologik asosni anglatadi. Bu yerda biz ijtimoiy antropologiya sohasiga kiramiz, uning doirasida inson mavjudligining birlamchi individual shakllari o'rganiladi, bu yerda sotsializm matrisalari namoyon bo'lib "ijtimoiy antropologiyani asosiy toifalari insonning ichki ma'naviy dunyosi (uning tuzilishi va funksiyalari), erkinlik, hayotning ma'nosi, vijdon, mas'uliyat, insonning ma'naviy dunyosi mahsulotlarini obyektivlashtirish, antropologik ekspertiza orqali yuzaga keladi".

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi.–Toshkent: O'zbekiston. 2018.-B.52.
2. O'zbekiston Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2003-yil. 1-son.1-modda. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 19.04.2018 y. 03/18/476/1087-son.
3. O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati» to'g'risidagi Qonuni.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik -har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. -Toshkent: «O'zbekiston», 2017. -B. 104
5. Василевич Г. А. Активная позиция государственных служащих и граждан - основной фактор предупреждения коррупции / Г. А. Василевич // Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения. - 2015. - № 2. - С. 188-192.
6. Васильев Д. В. Административная этика как средство противо-действия коррупции / Д. В. Васильев, П. Ю. Дробышев, А. В. Конов. - М. : Фонд Карнеги, 2003. - 45 с.
7. Вигуру К. Деонтология государственной службы = Deontologie des fonctions publiques : пер. с фр. / Кристиан Вигуру. - М. : Гнозис : Логос, 2003. - 279 с.
8. В Институте философии РАН обсудили этический аспект борьбы с коррупцией / Информационное агентство REGNUM. - Режим доступа: <http://www.regnum.ru/news/polit/1464890.html> (дата обращения: 15.03.2015).
9. Волков А. Д. Скелет наступающего. Источник и две составные части бюрократического капитализма в России / Александр Волков, Алек-сандр Привалов. - СПб. [и др.] : Питер, 2008. - 271 с.
10. Воронин А. А. Совершенствование человека / А. А. Воронин // Вопросы философии. - 2015. - № 8. - С. 203-208.
11. Шереги Ф. Э. Социология девиации : прикладные исследования. М., 2004. С. 283.



Xoldor PATIYEV,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
E-mail: pxoldor@gmail.com

DSc, professor T.Ismoilov taqrizi asosida

SOCIO-PHILOSOPHICAL CLASSIFICATION OF CHILD EDUCATION IN THE VIEWS OF JADID ENLIGHTENERS

Annotiation

This article discusses the trends put forward by modern enlighteners regarding the processes of child education. Child education has always been considered as an important and integral part of society.

Key words: Family, child, physical education, moral education, thought education, intellectual education, inclination, conclusion, judgment.

JADID MA'RIFATPARVARLARI QARASHLARIDA FARZAND TARBIYASINING IJTIMOY-FALSAFIY TASNIFI.

Annotatsiya

Ushbu maqolada farzand tarbiyasida amalga oshiriladigan jarayonlar xususida jadid ma'rifatparvarlari tomonidan ilgari surilgan tendensiyalar haqida fikr yuritiladi. Farzand tarbiyasi barcha davrlarda jamiyat hayotining muhim va ajralmas qismi sifatida qaralgan.

Kalit so'z: Oila, farzand, badan tarbiyasi, axloqiy tarbiya, fikr tarbiyasi, aqliy tarbiya, mayl, xulosa, hukm.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ДЕТСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ВЗГЛЯДАХ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ

ДЖАДИД.

Аннотация

В данной статье рассматриваются тенденции, выдвигаемые современными просветителями относительно процессов детского образования. Образование детей всегда считалось важной и неотъемлемой частью жизни общества.

Ключевые слова: Семья, ребенок, физическое воспитание, нравственное воспитание, воспитание мысли, интеллектуальное воспитание, склонность, умозаключение, суждение.

Kirish. Jadid ma'rifatparvarlari butun faoliyati davomida kelajak avlod o'zlariga nisbatan har tamonlama barkamol va yetuk shaxs bo'lishlari uchun jon kuydirganlar. Ular o'z faoliyatida farzandlar tarbiyasi va ta'limi orqali butun jamiyatni yangi bosqichga olib chiqishni asosiy masala sifatida bilganlar. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Shakuriy, Ajziy, Munavvarqori, Avloniy, Fitrat, Hamza, Is'hoqxon Ibrat va boshqa jadidlar ijodini kuzatadigan bo'lsak, asosan urg'uni bolalar tarbiyasiga qaratishgan. Jadid bobolarimiz tarbiya borasidagi qarashlari bugungi kunda ham ahamiyati farzandlarimiz tarbiyasi uchun qimmatli va bebaho merosdir. Bu merosdan foydalanish har bir ota-ona va murabbiy uchun konseptual ahamiyat kasb etmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Jadid ma'rifatparvarlarining oilaviy munosabatlari va farzand tarbiyasi haqidagi fikr-mulohazalari Yangi O'zbekiston yoshlarini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yohud axloq", Abdurauf Fitratning "Oila yoki oilani boshqarish tartibi" asarlarida hamda Hoji Muinning "Oila tarbiyasi", "Yoshlarimiz va qizlar tarbiyasi" kabi maqolalarida farzand tarbiyasiga alohida to'xtalib o'tganlar. D.Rajabova "Turkiston jadidlarining qarashlarida yoshlar va xotin-qizlar masalasi"[7] mavzusidagi tarix fanlari nomzodligi uchun yozilgan dissertatsiyasida yoshlar va bolalar tarbiyasi va unda xotin qizlarning tutgan o'rni haqida atroflicha to'xtalib o'tgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada jadidchilarning farzand tarbiyasi haqidagi qarashlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil etilgan. Jadidchilarning bola parvarishidagi fikrlari jahon va o'rta asrlar qomusiy allomalari fikrlari bilan qiyosiy usulda ko'rib chiqilgan.

Tahlil va natijalar. Oilaning asosiy ijtimoiy vazifalaridan hisoblangan, farzand zotini davom etirishda ayolning homiladorlik davri asosiy bosqich sanaladi. Ayol homiladorlik vaqtigacha er-xotin bir-birlari oldida vazifalar asosida yashasalar, bundan keyin uchinchi shaxs hisoblanmish farzanda oldida, u yorug' olamga kelguncha bo'lgan oraliqda har qachongidan ham na'suliyat kuchli bo'ladi.

Farzand tarbiyasi haqida ko'plab fikr-mulohazalar, qarashlar mavjud. Farzand tarbiyasi har qanday jamiyatda ham asosiy bahs mavzusi bo'lib kelgan. Tarbiyani qachon va qanday boshlash lozim? Qanday usul va vositalardan foydalanish darkor? Diniy-dunyoviy ilm namoyondalari ko'pchiligi homiladorlik davridan tarbiyani boshlash haqida fikr bildirganlar. Bu borada davlatimiz ham "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da bu davrni eng maqbul davr sifatida mamlakat ahamiyatidagi masala sifatida kiritadi. Homiladorlik davrida ayollar jismoniy, ruhiy, ma'naviy jihatdan qiyin ahvolga solinmasligi kerak.

Farzand tarbiyasi haqida "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"[10]da quyidagi bosqichlarga bo'ladi.

1-bosqich. Homilador ayollar bilan olib boriladigan ijtimoiy, ma'naviy, ma'rifiy, tarbiyaviy konsalting ishlarini tizimli tashkil qilish. Ota-onani bola tarbiyasiga tayyorlash.

2-bosqich. Bola tug'ilganidan 3 yoshgacha bo'lgan davri uchun amaliy ishlar metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq qilish.

3-bosqich. 3-7 yosh bolalar bilan maktabgacha ta'lim muassasasi va oilada olib boriladigan tarbiyaviy hamkorlikni yo'lga qo'yish.

4-bosqich. 8-10 yoshli davrda boshlang'ich ta'lim o'quvchilari bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish.

5-bosqich. 11-18 yoshli yuqori sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar.

Avlodlarimiz ota-bobolarimizdan qolgan moddiy madaniyat bilan bir qatorda ezgu fazilatlar, urf-odatlar, an'analarni taraqqiy qilishlari uchun ham yuqoridagi tarbiya bosqichlarini xalqimiz orasiga olib kirishimiz va amalga oshirish uchun ularning motivatsiyasini oshirmog'imiz shart. Farzandlarni ota-onasidan alohida tarbiyalash yosh avlod kamolotining shakllanishiga katta zarba bo'lishi bilan birga ota-onalik tuyg'ularini zaiflashtiradi, nikohning axloqiy asoslariga putur etkazadi. Bolalarning bog'chada uzoq vaqt bo'lishi ularning kamoloti, ehtiyojlari, qiziqishlari va xatti-harakatlariga salbiy ta'sir qiladi. Bir yoshdan etti yoshgacha bo'lgan davr bolaning shaxsiyatini shakllantirishda juda muhim davr hisoblanadi. Buyuk rus yozuvchisi va pedagogi Lev Tolstoy o'zining so'nggi asarlaridan birida "Mendan yetti yoshli bolagacha bo'lgan masofa bir qadam, bir yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan davr esa katta masofa", deb ta'kidlagan edi. Demak, bolaning maktabga borishigacha bo'lgan davrni bolaning shaxsiyati shakllanishining poydevori deb atash mumkin.

Farzand tarbiyasi davlat va jamiyat oldida turgan eng muhim va birlamchi vazifalar qatoriga kiradi. Bu haqida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston Strategiyasi" deb nomlangan asarida o'z mulohazalarini bildirib: "Tarbiyada tanaffus bo'lmaydi degan chuqur ma'noli gapni ko'p takrorlaymiz. Lekin, afsuski, joylarda Ma'naviyat va ma'rifat ishlarni tashkil etishda ana shu qoidaga amal qilinmayapti. Bu borada bog'cha, maktab, oliy ta'lim, mahalla tizimining har biri alohida ish olib borayotgani, ya'ni, o'zaro hamkorlik va uyg'unlikning yo'qligi ishimizning samarasiga salbiy ta'sir qilmoqda"[2] - deb ta'kidlaydilar. Demak, davlatimiz va jamiyatimiz oldida, ota-onalar va murabbiylar oldida - kelajak

bunyodkorlarini tarbiyalash va kamolga yetkazishda misli ko'rilmagan ma'suliyat va majburiyat mavjud. Barcha zamon va makonda kelajak avlod oldidagi burch va ma'suliyat jamiyat taqdirini belgilab beradi.

Farzand tarbiyasi bu ikki so'zdan iborat birikmaga bog'liq. Bu hisoblanadi. Lekin, uning natijasi jamiyat faravonligi yo'lida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bu haqida Fitrat shunday fikr bildirib o'tadi: "Bani Odanning siyosiy, diniy, ijtimoiy inqiloblarining asosi ana shu ikki so'z — "bola tarbiyasi"dan iborat birikmaga bog'liq. Bu xalqning xarakter qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi, zaif bo'lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e'tibordan qolishi, o'zgalarga tobe, qul va asir bo'lishi, bolalikdan o'z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog'liq"[6].

Yuqorida ta'kidlangan fikrlarni inobatga olgan holda, ushbu tushuncha borasida fikr va mulohazalarni quyidagicha izohlaymiz.

Farzand tarbiyasi – insoniyat, jamiyat va davlat taqdirini belgilab beradigan tushunchadir. Kelajagi istiqbollarni belgilab beradigan, jamiyat faravonligi uchun asos bo'ladigan, davlat o'z taraqqiyot rejalarning yo'nalishlarini unga qarab oladigan eng muhim jarayondir.

Xalqimiz bola tarbiyasini hamma vaqtlarda ham nozik masala sifatida bilganlar. Shuning uchun ham ko'plab odob-axloq haqidagi tushunchalar, iboralar, qarashlar ajdodlardan avlodlarga asrlar oshib yetib kelmoqda. Abdurauf Fitrat farzand tarbiyasi haqida yana shunday fikr bildiradi: "Biz turkistonliklar bolalarimizdan ko'ra mollarimizga yaxshiroq qaraymiz. Eshak va qo'ylarimizni farzandlarimizdan ham ko'proq yaxshi ko'ramiz deb aytmayapman. Yo'q-yo'q, bolalarimiz jonimizdan ham aziz. Ular nazarimizda hammadan suyuqli va aziz. Lekin baxtimizga qarshi shuni e'tirof qilish lozimki, shuncha muhabbat va mehrga qaramasdan, eshak va qo'ylarimizdan kamroq tarbiyalaymiz! ... Faraz qiling, qo'zi yoki xo'tik sotib olib uyga keltirasiz. Diqqat bilan ularga qarab, bir muddatdan keyin qo'yni semirtirib, eshakni baquvvat va yurg'a qilasiz, ya'ni ularni tarbiyalab, kamolga yetishtirasiz. Ammo aziz farzandingizga shunday diqqat bilan e'tibor bermaysiz"[6:56]. Bugungi kunda ham ishlar va yumushlar bilan bo'lib farzandlar tarbiyasiga e'tibor berilmasligi aniq voqeadir. Mehnat natijasida yaratilgan barcha moddiy narsalar va ashyolarni farzandlar uchun qilayapman degan fikr bilan insonlar o'zlarini xotirjam qiladi. Lekin shu bilan birga farzandlarga e'tibor berish, ular uchun vaqt ajratib, qiziqishlari va intilishlari haqida suhbat qurib, moddiy tomoni bilan bir qatorda ma'naviy-axloqiy tomoniga sezilarli ta'sir o'tkazish lozim. Oila a'zolari orasidagi, ayniqsa ota-ona va farzandlar o'rtasidagi muomalaning yaxshi bo'lishligi, eng avvalo, ularning ba'zi qusur va kamchiliklariga ko'z yumishlikka bog'liqdir.

Agar oila a'zolari hisoblangan farzandlarning birortasida yomonroq odati bo'lsa, buni unga chiroyli qilib, yumshoqlik bilan tushuntirish lozim. Bu chiroyli so'zni misollar yoki ibratli hikoyalar bilan tushuntirilsa yanada yaxshi bo'ladi. Bu jarayondagi, ya'ni oila a'zolariga tarbiya berishdagi eng muhim jihat, so'zdan boshqa ortiqcha harakatlarga ehtiyoj qoldirmaslikdan iboratdir. Demak, aytilishi bilan xato va kamchiliklar bartaraf etiladigan bo'lsa, ortiqcha gap-so'zlariga o'rin qolmaydi va bu tarbiyaning yaxshi ta'siridan darak beradi.

Ota-ona tomonidan buyurilgan ishlar farzand tomonidan qarshilik bilan qabul qilinsa, ijrosi kechiktirilsa yoki bajarilmaydigan bo'lsa, bunday buyruqlarni bergandan ko'ra bermaslik ma'qul, deyilgan tarbiya kitobarimizda. Chunki aynan mana shu zarurat bolani ota-onaning amriga isyon qilib, Allohning azobiga giriftor bo'lib qolmasligi uchun ham kerakdir. Zero hadisi sharifda:

"Farzandining itoatiga yordam bergan otaga, Alloh rahmat qiladi", deb marhamat qilingan. (Sahoviy, "Maqosidul-Hasana", 516). Ota-ona farzandni itoatda saqlashi majburiy bo'lmagan, uning ko'ngliga yaxshi ibratlar bilan yo'l topishi, ularga hurmat bilan birga savob ham olib keladi. Abdurauf Fitrat "Oila yoki oilani boshqarish tartibi" kitobida 2-qismi Farzand tarbiyasi deb nomlangan. Bu qismda farzand tarbiyasini uch xili ustida fikr yuritiladi: 1) Badan tarbiyasi; 2) Aqliy tarbiya; 3) Axloqiy tarbiya

Badan tarbiyasi nega birinchi bo'lib e'tirof etilmoqda. Chunki bu omil qolgan tarbiyalar uchun zamin hozirlaydi. Xalqimiz dunyoga kelgan go'dakni niholga qiyoslaydi. Shuning uchun bolani birinchi cho'miltirish, to'g'ri ovqatlanirish, normal uyqu, poklik, harakat kabi faoliyatlarini risoladagidek amalga osirish zarur. Bolaga bu davrda axloqiy va aqliy jarayonlardan ko'ra yuqoridagi qadriyatlar avzildir. Bola ma'lum yoshga yetgach uning harakatlari kuchayadi. Ko'proq o'yinga, yugurishga moyilligi oshadi. Shunday paytda ota-ona undan xavotir olib uning qiziqishlariga qarshi chiqib uyda saqlashi xatodir. Chunki bola aynan shu davrda hayotga nisbatan harakat

qobiliyati shakllanadi. Uyda qolgan bola itoatkor bo'lsada, keyinchalik boshqa odamlar bilan birgalikda harakat qilishga qiyinaladi. Harakatsizlik insonni zaiflashtiradi. Chunonchi tog'da yashagan inson tepalikka, oroldagi odam suvda, sahradagi esa qumlikda bizdan yaxshiroq harakat qiladi. Chunki ularning faoliyati doimiy harakatda bo'lishni taqozo etadi. "Harakat vaqtida tanada qon yuguradi, ishtaha ochiladi, badanga quvvat kirib qalb ochiladi"[6]. Bolaga harakati uning zehniga ham kuchli ta'sir qiladi.

Badan tarbiyasi haqida sharq va g'arb olimlari ko'plab fikrlar bildirib o'tganlar. Jumladan, Ibn Sino: "O'z vaqtda, me'yori bilan badan tarbiya qilgan odamga dard yaqin yo'lamaydi"-degan bo'lsa, fransuz yozuvchisi A.Myusse "Badan tarbiya ko'plab dori-darmonning o'rmini bosishi mumkin, lekin birorta dori ham badan tarbiyaning o'rmini bosolmaydi"- deb yozadi. Nemis faylasufi I. Gyote esa "Yurganimda tafakkurim tiniqlashib, fikrni ifoda etishning yana yaxshi usullarini topaman"- deya ta'kidlasa, fransuz ma'rifatparvari J.J.Russo "Harakat va piyoda yurish miyaga turki berib, fikrni ishga soladi", deb yozgan. Tibbiyot ilmining otasi deb ta'kidlanadigan yunon olimi Gippokrat esa "Yomg'ir daraxt g'uborini yuvganiday, gimnastika ham badan g'uborini tozalaydi"- degan fikrni bildirib o'tadi.

Yuqorida bildirib o'tilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, badan tarbiyasi ya'ni jismoniy harakat inson faoliyatining eng asosiy va boshlang'ich asosi hisoblanadi. Aqliy va axloqiy tarbiya bo'ladimi, diniy va fikriy tarbiya bo'ladimi barchasining me'yorda rivojlanishi uchun jismoniy harakat, badan tarbiyasi yaxshi bo'lmog'i dardkor. Jadidchilarimiz badan tarbiyasi inson salomatligining asosiy mezonini deb bilganalar. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy: "Inson uchun eng ziyoda aziz va muhtaram nimarsa sihhati badandur"[4] - degan bo'lsa, Abdulla Avloniy esa "Sog' badanga eng bo'lmagan insonlar amallarida, ishlarida, ibodatlarida kamchilik qilurlar"[3] - deb mulohaza yuritadilar.

Inson aqlini tarbiyalash orqali zehni va aql-idroki kamol topadi. Biror ishni amalga oshirish uchun inson oldin o'ylaydi, fikr yuritadi va kiyin xulosa chiqaradi yoki qaror qabul qiladi. Bu jarayonlar ijobiy bo'lishi uchun aqliy tarbiya ham ijobiy hislatlar bilan to'ldirilgan bo'lishi kerak. Aqliy tarbiya bilimlarni to'plash, biror narsani tahlil va sintez qilish, narsa va hodisalarni taqqoslash hamda tasniflash, umumlashtirish, mavhumlashtirish, ulami bir tizimga solishni nazarda tutadi. Aqliy tarbiya vazifasi intellektual ko'nikmalar, ya'ni har qanday fanni o'rganishda qo'llaniladigan umumiy o'quv ko'nikmalari - o'qish, tinglash, o'z fikrini og'zaki bayon etish, yozish, manbaa bilan ishlash, mustaqil ishlash malakalarini shuningdek biror fanni egallash bo'yicha zarur bo'lgan maxsus ko'nikmalar(chizma, xaritalarni o'qiy olish, ularning natijalarini chiqara olish)ni egallashdan iborat. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ya'ni bolalarga olam ilmiy manzarasi, tabiat va jamiyat taraqqiyotining asosiy qonunlarini tushuntirish ham aqliy tarbiyaning muhim vazifasidan biridir.

Fitrat aqliy tarbiyani shakllantirish quyidagi holatlarga bog'liq deb hisoblaydi: tashqi ma'lumot manbalari, Ichki ma'lumotlar manbalari, esda saqlash va xotira hamda muhokama.

Tashqi ma'lumot manbalariga ko'z, quloq, til, burun, tana orqali oladigan ma'lumotlar, ichki ma'lumotlarga idrok, zehni, tasavvur, tushuncha, e'tiqod kabi hislatlar kiradi. Tashqi va ichki ma'lumotlar birlashib aqliy qobiliyatni shakllantiradi. To'plangan ma'lumotlardan samarali foydalanish uchun ulami yodda saqlash lozim. Yodda saqlash bevosita xotiraga bog'liqdir. Xotiraning susayishiga inson o'zi sabachi, chunki uni ko'p ishlatmay yulqov holatga keltiradi. Keyingi sabachi tashqi omillar: kashandalik, ichkilik, giyohvandlik singari illatlardir. Fitratning fikricha, tashqi va ichki ma'lumotlarni yig'ib yodda saqlash orqali inson yangi voqea-hodisalar haqida hukm chiqaradi. Bu hukm ijobiy va salbiy holatlarga qarab chiqarilsa yangi hukm hisoblanadi. Har qanday yangi hukm esa muhokama deyiladi. Muhokama bexato va benuqson bo'lishi uchun uchta shart bajarilishi lozim. Bular: isbot, muhokama va qaror[6]. Aqliy tarbiya insonni ko'pincha o'z foydasiga ish ko'rishga undaydi.

Yuqoridagi aqliy tarbiyani shakllantirish omillari sifatida qabul qilingan qoidalardan shunday fikr chiqarsak bo'ladi, Abdurauf Fitrat aqliy tarbiyani bevosita mantiq fanining asosini tashkil qiluvchi - to'g'ri tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi Formal mantiq asosida ochib berishga harakat qilgan. Falsafada tafakkur shakllari va qonunlari bevosita mantiq sohasida o'rganiladi. Tafakkur esa bevosita insonning aqliy imkoniyatlari bilan bog'langan. Tafakkurning asosiy shakllari tushuncha, hukm va xulosadan foydalanilgan holda aqliy tarbiya kategoriyasi isbotlab berilgan.

Badan va aql tomondan qanchalik mukammal bo'lmasin, axloqiy tarbiyada nuqson bo'lsa - ikki tarbiyani ham susaytirib

yuboradi. Axloqiy tarbiya tug'ilishdan boshlanadi, va bola uchun axloqiy namuna nima bo'lishidan qat'iy nazar, har doim ota-ona bo'ladi. Axloqiy tarbiya kundalik munosabatlar jarayonida taraqqiy etib boradi. Bu atama jamiyatda "axloqiy" deb ataladigan axloqiy tamoyillar, sifatlar, shuningdek, xulq-atvorni shakllantirishga qaratilgan shaxsga ta'sir o'tkaza oluvchi tizimlar majmui sifatida tushuniladi. Axloq tushunchasi xalq madaniyatiga, qadriyatlariga, dinga va ma'lum bir davrga bog'liq (agar uni ma'lum bir davr ichida ko'rib chiqsak) bo'ladi. Axloqiy tarbiya shaxsni rivojlantirishning asosidir. Ushbu tushunchaga har bir davrda o'qituvchilar, psixologlar, din arboblari e'tibor qaratdi. Axloq normalari sivilizatsiyaning, jamiyatning asosi bo'lgan va bo'ladi. Bu insondagi aqliy va ma'naviyatning birligi, uning jamiyatdagi xatti-harakatlarini, dunyo bilan munosabatlarini ta'minlaydi.

Bulardan ba'zilariga to'xtalib o'tishni lozim topdik. Izzat-nafs mayli bu hamma inson o'zini juda yaxshi ko'radi. Har kim o'z manfaatini o'ylaydi. Nafs har bir insonda bo'ladi. Agar kimdagi bu tushunchalar bo'lmasa o'z-o'ziga ishonch pasayadi. Izzat-nafsi talabida bo'lmaydi. Bu holatlar insonni hayotga nisbatan zavqining kamayishiga olib keladi. Shu bilan bir qatorda izzat-nafsdan haddan ziyod ko'tarilish, boshqa insonlarni mensimaslikka olib keladi. Shuning uchun farzandga xasislik, baxillik, kibr-u g'urur zarar ekanligi haqida tushuntirish lozim. Bolalar katta yoshli odamlar birlariga yaxshi munosabatda bo'lsa, bir-birlarini hurmat qilsa, bir-

Экологические конфликты: Экологические конфликты становятся все более значимыми в условиях глобального потепления и истощения природных ресурсов. Эти конфликты могут возникать между государствами, социальными группами или корпорациями по поводу доступа к воде, земле, энергоресурсам. Социальные философы подчеркивают необходимость этического подхода к решению этих конфликтов, где баланс между экономическими интересами и заботой о природе становится основополагающим.

Миграционные кризисы и этнические конфликты: Миграционные процессы часто вызывают конфликты в принимающих странах, так как они приводят к изменениям в этническом и культурном составе населения. Этнические

конфликты возникают на почве конкуренции за рабочие места, жилье, ресурсы, а также культурных разногласий. Социальная философия предлагает искать решения через инклюзивную политику и межкультурный диалог.

Глобальные пандемии и социальное неравенство. Пандемии, такие как COVID-19, усиливают существующие социальные неравенства и создают новые формы конфликтов. Экономические и социальные последствия пандемий в первую очередь ударяют по уязвимым слоям населения, что приводит к обострению социальных противоречий. Философы и социологи рассматривают, как

глобальные пандемии влияют на социальную справедливость и как можно смягчить конфликты через меры социальной поддержки.

Заключение. Социальные конфликты — это неизбежная и важная часть общественной жизни. Социально-философские подходы к анализу конфликтов предоставляют широкий спектр инструментов для их понимания и разрешения. Включение различных подходов — от марксистского и функционалистского до конструктивистского и психоаналитического — позволяет лучше осознать сложность и многослойность социальных конфликтов.

ЛИТЕРАТУРА

1. Parsons, Talcott. *Essays in Sociological Theory*. Free Press, 1949.
2. Дарендорф, Р. *Конфликт и власть в обществе*. – Москва: Прогресс, 2019.
3. Гегель Г. В. Ф. *Энциклопедия философских наук*. М.: Мысль, 1987.



Ulfat RAHMONOV,

Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi fizika va astronomiya fani metodisti, mustaqil tadqiqotchi

E-mail: ulfatrahmonov775@gmail.com

Navoiy innovatsiyalari universiteti dotsenti, PhD L.Korayeva taqrizi asosida

METHODOLOGY OF TEACHING NATURAL SCIENCES TO STUDENTS OF GENERAL SECONDARY SCHOOL BASED ON PROJECT WORK

Annotation

In this article, the method of teaching natural sciences to general secondary school students on the basis of project work is considered. The project method is aimed at developing students' independent research skills and applying practical knowledge. Project-based teaching in natural sciences allows students to solve real problems, conduct scientific research, and develop teamwork skills. The article analyzes the main principles of the project method, its application in natural sciences and its role in increasing the active participation of students in the educational process.

Key words: Project-based teaching, natural sciences, general secondary education, methodology, independent thinking, practical research, student motivation, group work, research activities, practice-oriented teaching, creative approach, innovations in the world.

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК УЧАЩИМСЯ ОБЩЕЙ СРЕДНЕЙ ШКОЛЫ НА ОСНОВЕ ПРОЕКТНОЙ РАБОТЫ

Аннотация

В данной статье рассматривается метод преподавания естественных наук учащимся общеобразовательных школ на основе проектной работы. Метод проектов направлен на развитие у студентов навыков самостоятельного исследования и применения практических знаний. Проектное обучение естественным наукам позволяет студентам решать реальные задачи, проводить научные исследования, развивать навыки командной работы. В статье анализируются основные принципы метода проектов, его применение в естественных науках и роль в повышении активного участия студентов в образовательном процессе.

Ключевые слова: Проектное обучение, естественные науки, общее среднее образование, методология, самостоятельное мышление, практические исследования, мотивация учащихся, групповая работа, исследовательская деятельность, практико-ориентированное обучение, творческий подход, инновации в образовании.

MAKTAB O'QUVCHILARIGA TABIIY FANLARNI LOYIHA ISHLARI ASOSIDA O'QITISH METODIKASI

Аннотация

Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilariga tabiiy fanlarni loyiha ishlari asosida o'qitish metodikasi ko'rib chiqiladi. Loyiha metodi o'quvchilarning mustaqil tadqiqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirish va amaliy bilimlarni qo'llashga yo'naltirilgan. Tabiiy fanlarda loyiha asosida o'qitish o'quvchilarga real muammolarni hal qilish, ilmiy izlanishlar olib borish va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Maqolada loyiha metodining asosiy tamoyillari, uning tabiiy fanlar doirasida qo'llanilishi va o'quvchilarning o'quv jarayonida faol ishtirokini oshirishdagi roli tahlil etiladi.

Key words: Loyiha asosida o'qitish, tabiiy fanlar, umumiy o'rta ta'lim, metodika, mustaqil fikrlash, amaliy tadqiqot, o'quvchilar motivatsiyasi, guruhda ishlash, ilmiy-tadqiqot faoliyati, amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish, ijodiy yondashuv, ta'limda innovatsiyalar.

Kirish. Loyiha metodi — bu o'quvchilarning mustaqil faoliyati, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitish shakli bo'lib, unda ular aniq masalalar yoki muammolarni hal qilishda ishtirok etadi. O'quvchilar o'rganayotgan tabiiy fanlarni real hayotdagi muammolar bilan bog'lashga yordam beradi. O'qitish loyihasi bir nechta bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Muammo qo'yilishi: o'qituvchi darsning maqsadlariga mos muammoni tanlaydi va uni o'quvchilarga tushuntiradi.

Loyiha rejasini tuzish: o'quvchilar maqsad va yo'nalishni belgilab olishadi, reja tuzishadi.

Ma'lumot yig'ish va tahlil qilish: o'quvchilar eksperimentlar o'tkazish, tadqiqotlar qilish orqali muammoni hal qilish usullarini o'rganishadi.

Natijalar taqdimoti: o'quvchilar o'z tadqiqot natijalarini ommaviy ravishda taqdim etadilar (hisobot, poster, taqdimot va h.k.).

Tabiiy fanlarni o'qitishda loyiha metodidan foydalanish o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatini beradi. Misol uchun:

Kimyo: ekologik tozalovchi vositalar yaratish yoki yangi kimyoviy birikmalarni tadqiq qilish.

Fizika: oddiy fizik tajribalar orqali energiya manbalarini o'rganish.

Biologiya: ekologik muammolar, hayvonlar yoki o'simliklar hayotini kuzatish orqali o'rganish.

Loyihalash metodikasi ko'p hollarda guruhda ishlashni talab qiladi, bu esa o'quvchilarning jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Loyihalash jarayonida o'quvchilarning bilimlari, loyihaga qo'shgan hissalari, ijodiy yondashuvlari va taqdimot qobiliyatleri baholanadi. Shu bilan birga, loyiha davomida o'z-o'zini baholash va tengdoshlar baholash tizimi ham qo'llanilishi mumkin. O'quvchilar

loyiha jarayonida o'zlari tanlagan mavzu bo'yicha ishlashlari sababli darsga qiziqishi oshadi, shuningdek, natijaga erishish uchun amaliy faoliyatga jalb etiladi. Tabiiy fanlarni loyihalash asosida o'qitish o'quvchilarga nafaqat mavzuni chuqur o'zlashtirish, balki o'z mustaqil fikrlash qobiliyatini, ilmiy izlanish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tabiiy fanlarni loyiha metodi asosida o'qitish metodikasi bo'yicha ilmiy manbalar va tadqiqotlarni chuqur o'rganishga asoslanadi. Bu tahlil o'quvchilarni tabiiy fanlarga qiziqitirish, ilmiy tadqiqot olib borish qobiliyatlarini rivojlantirish va amaliy bilimlarni qo'llash masalalariga qaratilgan.

Ta'lim nazariyasiga asoslangan loyiha metodi bugungi ta'lim jarayonlarida keng qo'llaniladi. Ta'lim amaliy hayotiy tajribalar bilan bog'langan holda o'qitilishi kerak, bu esa o'quvchilarda mustaqil fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu nazariya tabiiy fanlarni loyihalash asosida o'qitishda muhim ahamiyatga ega [1].

Loyiha asosidagi o'qitishning ta'lim jarayonida o'quvchilarni chuqur bilim olishga, tanqidiy fikrlash va ijodiy faoliyatni rivojlantirishga yordam berishini aniqlagan. Loyiha metodining tabiiy fanlar, xususan, biologiya va kimyo fanlari o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishlarini oshirishdagi roli ko'rsatilgan [2].

Loyiha asosidagi o'qitish tabiiy fanlarda ko'proq amaliyotga yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Ularning tadqiqotlari kimyo, fizika va biologiya kabi fanlarda tajribaviy loyihalar orqali o'quvchilarning muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishi va nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash imkoniyatini yaratishini tasdiqlaydi [3].

Barron va Darling-Hammond o'z tadqiqotlarida loyiha asosida o'qitishning motivatsion jihatlarni o'rganib chiqishdi. Ular

loyiha metodining o'quvchilarni o'z ustida ishlash, o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash va ilmiy izlanishlarga qiziqishini oshirishda muhim ekanligini ko'rsatgan [4].

O'zbekiston ta'lim tizimida ham loyiha metodi rivojlanayotgan sohalaridan biri bo'lib, unga oid ilmiy-tadqiqot ishlari davom etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonuni va ta'limda amaliy tadqiqotlar o'tkazishga qaratilgan Davlat dasturlari loyiha asosidagi o'qitishni kuchaytirishni maqsad qilgan.[5] Yuqoridagi tahlil tabiiy fanlarni loyiha ishlari asosida o'qitishning nazariy va amaliy asoslarini tushuntiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'quvchilarning loyiha faoliyatini tashkil qilish usullaridan biri quyidagicha: darsdan taxminan 2 hafta oldin o'quvchilar guruhlarini tuziladi;

har bir guruh uchun bir vaqtning o'zida loyihalarni tuziladi; loyihani amalga oshirish va himoya qilish bo'yicha mas'uliyat guruh ichida taqsimlanadi; o'qituvchi mavzuni to'liq ochib bermagan holda o'quvchilarga o'quv materialini mazmunining asosiy fikrlarini qisqacha tushuntiradi.

O'quvchilar har qanday manbalardan foydalanib, mustaqil ravishda topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni tanlaydilar, olingan ma'lumotlarni qayta ishlab xulosalar chiqarishadi. O'quvchilar dars davomida barcha natijalarni yozma matn, hisobot yoki poster ko'rinishida taqdim etadilar.

O'quvchilarning loyiha faoliyatini bunday tashkil etilishi tabiiy fanlarni o'rganishga qiziqishni oshiradi, zarur faktlarni aniqlaydi va ularni tushunish uchun turli xil ma'lumotlar manbalari bilan ishlash usullarini o'rgatadi. Bu faoliyat yangi amaliy ahamiyatga ega mahsulotni yaratish bilan bog'liq ko'nikmalarni shakllantiradi.

O'quvchilarni loyiha faoliyatiga tayyorlash muammosini hal qilish zarurligini hisobga olib, biz quyidagilarni aniqladik:

o'quvchilar qanday loyiha ishlarni amalga oshirishga qiziqadi;

o'quvchilar loyiha faoliyatini rejalashtirish ko'nikmalariga egami yoki yo'qmi.

Tahlil va natijalar. Loyiha metodi asosida tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida bir nechta omillarni inobatga olish kerak:

Muammoli vaziyatlar yaratish: Loyiha metodi asosida o'quvchilarga real hayotdagi muammolar beriladi. Bu, bir tomondan, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantiradi, boshqa tomondan, o'quvchilarni ijodiy va tanqidiy fikrlashga undaydi. [6]

O'quvchilarning faolligi va qiziqishi: Loyihalash jarayoni o'quvchilarning ta'lim jarayonida faol ishtirokini ta'minlaydi. Blumenfeld va boshqalar (1991) tadqiqotlarida loyiha asosidagi o'qitishning o'quvchilar qiziqishini oshirishga, bilim olish jarayonida faol ishtirok etishga yordam berishi aniqlangan. O'quvchilar loyiha ustida ishlash davomida ma'lumot izlash, tadqiqot qilish, tahlil qilish va natijalarni taqdim etishda faol bo'lalilar[3].

Amaliyotga yo'naltirilganlik: Kimyo, biologiya va fizika kabi tabiiy fanlarni loyiha ishlari orqali o'qitish o'quvchilarni nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lashga o'rgatadi. Dewey (1938) tajribaviy ta'lim nazariyasiga ko'ra, o'quvchilar muayyan mavzuni chuqurroq anglab olishlari uchun uni real hayotiy holatlar bilan bog'lab o'rganishlari kerak. Bu metod o'quvchilarning muammoli vaziyatlarda o'z bilimlarini qo'llashga va ijodiy yechimlar topishga o'rgatadi.[1]

6-sinf tabiiy fanlarni loyiha ishlari metodikasi asosida o'qitishni samarali tashkil etish bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov nazoratlari quyidagi natijani berdi.(1-jadval)

1-jadval. Tajriba sinov natijalari

Loyiha ishi mavzulari	Tajriba guruhi		Nazorat guruhi	
	O'quvchilar soni	Natija	O'quvchilar soni	Natija
Novvot tayyorlash texnologiyasi	450	95	450	62
Oy holatini kuzatish	450	94	450	61
Energiyani tejash	450	96	450	63
Toza ichimlik suvi olish	450	94	450	62
Diffuziya hodisasini o'rganish	450	95	450	61

$$Z = \sum_{i=1}^N K_i / N$$

O'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov natijalari quyidagi matematik-statistik formuladan foydalanib tahlil qilindi:

bu yerda, N – o'quvchilar soni, Ki – i-chi o'quvchining loyiha ishlarni bajarish davomida to'plagan bali, i=1,2,...,N, Z – o'quvchilarning loyiha ishlarni bajarish davomida to'plagan o'rtacha ball.

Natijalardan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhlarida o'zlashtirish o'rtacha 94,8 foizni, nazorat guruhlarida o'zlashtirish o'rtacha 61,8 foizni tashkil qilib, tinglovchilarning malaka oshirish davomida o'zlashtirishi 33 foizgacha o'sishiga olib keldi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, loyiha metodi asosida tabiiy fanlarni o'qitish, tabiiy fanlarni loyihalash asosida o'qitish o'quvchilarga fanlarni yanada chuqurroq o'rganish imkonini beradi. O'quvchilar mavzuni nazariy jihatdan emas, balki amaliy jihatdan ham o'rganadi, bu esa ularning bilimlarining mustahkamligini ta'minlaydi.

O'quvchilar o'zlari mustaqil ravishda loyiha ustida ishlash davomida ma'lumot yig'adi, tadqiqot o'tkazadi va natijalarni tahlil qiladi. Bu ularning ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Loyiha metodida o'quvchilar o'z qiziqishlari va ehtiyojlariga ko'ra mavzularni o'rganadilar, bu esa ularda tabiiy fanlarga bo'lgan motivatsiyani oshiradi. Loyiha metodi tabiiy fanlarni o'qitishda samarali vosita bo'lib, o'quvchilarning chuqur bilim olishiga, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga hamda real hayotiy muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi[8].

Xulosa va takliflar. Ushbu metodika o'quvchilarning nazariy bilimlarini chuqurroq anglab olishlariga, ularni real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lashiga va amaliy tadqiqotlar o'tkazish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Natijada, o'quvchilar mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv orqali bilim olish imkoniyatiga ega bo'lalilar.

Loyiha ishlari tabiiy fanlarni faqatgina nazariy bilimlar bilan cheklab qolmay, balki tajriba va eksperimentlarga asoslangan o'qitishni qo'llab-quvvatlaydi. Bu o'quvchilarning ilmiy izlanish qobiliyatlarini mustahkamlaydi va ularga muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Loyihalash jarayoni o'quvchilarda darslarga bo'lgan qiziqishni oshiradi. O'quvchilar o'zlari mustaqil ravishda muammolarni hal qilish va tadqiqot o'tkazishga jalb qilinadi, bu esa ularning ta'limga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi.

O'quvchilar guruhlarida ishlash, ma'lumot izlash, tahlil qilish, taqdimot qilish kabi ko'nikmalarni egallaydilar. Bu esa ularga nafaqat tabiiy fanlar doirasida, balki umuman kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida ham foydali bo'ladi.

Loyiha asosidagi o'qitish metodikasidan samarali foydalanish uchun o'qituvchilarni maxsus tayyorlash va ularga tegishli malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur. O'qituvchilar yangi pedagogik texnologiyalar va loyihalash metodikasini chuqur bilishlari kerak.

Loyihalash asosida o'qitish jarayonida baholashning samarali tizimini ishlab chiqish zarur. Baholash nafaqat yakuniy natijaga, balki loyiha jarayonida o'quvchining faol ishtirokiga, jamoada ishlash qobiliyatiga va ijodiy yondashuviga asoslanishi kerak.

Loyihalar jarayonida raqamli texnologiyalar va onlayn platformalarni qo'llash o'quvchilarning bilimlarini boyitishga va ularga keng ko'lami manbalar bilan ishlash imkoniyatini yaratishga yordam beradi.

Tabiiy fanlar bo'yicha loyiha ishlari ilmiy muassasalar va universitetlar bilan hamkorlikda olib borilishi kerak. Bu o'quvchilarga ilmiy laboratoriyalar va haqiqiy ilmiy tadqiqotlarga yaqinlashish imkonini beradi.

Yuqoridagi takliflar tabiiy fanlarni loyiha ishlari asosida o'qitishni yanada samarali qilishga, o'quvchilarning ta'lim sifatini

o'shinishga va ularni kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun tayyorlashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Dewey, J. (1938). *Experience and education*. New York: Macmillan.
2. Thomas, J. W. (2000). *A review of research on project-based learning*. California: The autodesk foundation.
3. Blumenfeld, P. C., Soloway, E., Marx, R. W., Krajcik, J. S., Guzdial, M., & Palincsar, A. (1991). Motivating project-based learning: sustaining the doing, supporting the learning. *educational psychologist*, 26(3-4), 369-398.
4. Barron, B., & Darling-Hammond, L. (2008). Teaching for meaningful learning: a review of research on inquiry-based and cooperative learning. in Darling-Hammond, L. (ed.), *Powerful learning: what we know about teaching for understanding*. San Francisco: Jossey-Bass.
5. O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risidagi qonuni (2020). O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 3-son.
6. Krajcik, J. S., & shin, n. (2014). Project-based learning. in R. K. Sawyer (ed.), *The Cambridge handbook of the learning sciences* (2nd ed.). Cambridge: Cambridge university press.
7. Savery, J. R. (2006). Overview of problem-based learning: definitions and distinctions. *the interdisciplinary journal of problem-based learning*, 1(1), 9-20.
8. Bransford, J. D., Brown, A. L., & Cocking, R. R. (2000). *how people learn: brain, mind, experience, and school*. washington, dc: national academy press.



UDK:1.008.27

Sanoat RAHMONOVA,
Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktoranti
E-mail: sanoatrahmonova1211@gmail.com

TDTTrU professori, f.f.d J.Ramatov taqrizi asosida

THE PATH OF DEVELOPMENT OF SPIRITUAL AND CULTURAL REFORMS IN UZBEKISTAN AND ITS SOCIO- PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Annotation

This article finds practical confirmation that the path of development of spiritual and cultural reforms in Uzbekistan and its socio-philosophical analysis and the path of development of spiritual and cultural reforms are chosen as the right path today as the main factor in ensuring the development of New Uzbekistan. Reforms based on ensuring the stability of socio-political and economic reforms in society as a result of spiritual and cultural updates. the mention is scientifically revealed.

Key words: New Uzbekistan, spiritual and cultural reforms, the third Renaissance, the perspective of the country, the perfection of personality, the prosperity of the motherland, the tranquility of the land, the welfare of the people, culture, literature and art.

ПУТЬ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-КУЛЬТУРНОЙ РЕФОРМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЕЕ СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В данной статье находит свое практическое подтверждение то, что путь развития духовно-культурных реформ в Узбекистане и его социально-философский анализ, а также то, что путь развития духовно-культурных реформ на сегодняшний день выбран как правильный, как основной фактор обеспечения развития нового Узбекистана. Реформы, основанные на обеспечении устойчивости социально-политических и экономических реформ в обществе в результате духовно-культурного обновления. остановившись на научно раскрыто.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, духовно-культурные реформы, третье возрождение, перспективы страны, совершенствование личности, процветание Родины, мир в стране, благосостояние народа, культура, литература и искусство.

O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY-MADANIY ISLOHOTLARNING RIVOJLANISH YO'LI VA UNING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI

Аннотация

Ushbu maqolada O'zbekistonda ma'naviy-madaniy islohotlarning rivojlanish yo'li va uning ijtimoiy-falsafiy tahlili hamda Yangi O'zbekiston taraqqiyotini ta'minlashning asosiy omili sifatida bugungi kunda, ma'naviy-madaniy islohotlarning rivojlanish yo'li to'g'ri yo'l sifatida tanlanganligi o'zining amaliy tasdig'ini topmoqda. Ma'naviy-madaniy yangilanishlar natijasida jamiyatda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlar barqarorligini taminlash asosidagi islohotlar. Haqida to'xtalib, ilmiy jihatdan ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, ma'naviy-madaniy islohotlar, Uchinchi Renessans, mamlakat istiqboli, shaxs kamoli, vatan ravnaqi, yurt osoyishtaligi, xalq farovonligi, madaniyat, adabiyot va san'at.

Kirish. Bugun biz Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish yo'lidan borar ekanmiz, o'tgan yillar tarix uchun va mamlakatimiz uchun butun bir tarixiy davr bo'ldi. Hozirgi islohotlar yillarida o'z o'tmishimizni, o'z madaniyatimizni xolisona bilib olish, jahon hamjamiyati, tarix oldidagi vazifamizni anglab olish davri bo'ldi: "Biz bugun xalqimizning xohish-irodasi bilan tanlab olgan, istiqloq yillarida bosib o'tgan og'ir va mashaqqatli, shu bilan birga, g'oyat sharaflil yo'limizni sarhisob qilar ekanmiz, tarixan qisqa bir davrda o'z taqdirimizni o'zimiz hal etish, jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallash, milliy davlatchiligimizni, azaliy qadriyat va urf-odatlarimizni, muqaddas dinimizni tiklash, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash borasida ulkan yutuq va marralarni qo'lga kiritganimizni faxr bilan tilga olamiz".

Yangi O'zbekiston taraqqiyotini ta'minlashning asosiy omili sifatida bugungi kunda, ma'naviy-madaniy islohotlarning rivojlanish yo'li to'g'ri yo'l sifatida tanlanganligi o'zining amaliy tasdig'ini topmoqda. Ma'naviy-madaniy islohotlar mamlakat istiqboli, shaxs kamoli, vatan ravnaqi, yurt osoyishtaligi, xalq farovonligi yo'lida fuqarolarni jipslashtiruvchi kuch deya baholanildi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki ma'naviy-madaniy yangilanishlar natijasida jamiyatda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlar barqarorligini taminlash mumkin. Shundaygina, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar mamlakat taraqqiyotida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonlaridan mamlakatimizda Uchinchi renessans poydevorining nazariy konsepsiyasini ishlab chiqar ekanlar, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan har bir sohada islohotlar ma'naviy-madaniy islohotlar bilan uyg'un holatda olib borilishi kerakligini ilmiy asoslab berdilar. Bu boradagi qarashlarni biz Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li" nomli asarlarida ilmiy-nazariy asoslarini aks ettirilganini ko'rishimiz mumkin. Bu asar hajmi jihatdan kichik bo'lsada, ammo

mamlakatimizda yangi jamiyat qurishning ilmiy- fundamental asoslari keltirilgan bo'lib bu yo'lda ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning o'rniga alohida to'xtalib o'tilgan. Umuman olganda ushbu asar mamlakatimizda ilmiy asoslangan yangi jamiyat qurishning dasturi bo'lib xizmat qildi. Nega deganda, undagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotni qayta qurish sohasida ilgari surilgan barcha fikrlar o'tgan davrda o'zining amaliy isbotini topdi va jamiyatimiz tubdan yangi bosqichga ko'tarilishini ta'minlab berdi. "Biz, - degan edi Shavkat Mirziyoyev, - Barchamizga ayonki, O'zbekiston boy qazilma va tabiiy resurslarga, qudratli iqtisodiy va insoniy salohiyatga ega. Biroq bizning eng katta boyligimiz – bu xalqimizning ulkan intellektual va ma'naviy salohiyatidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-komparativistik tahlil kabi ilmiy pedagogik tamoyillardan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, uning xulosalaridan ma'naviy tafakkurni kengaytirishda, mustaqil fikrni shakllantirishda, ma'naviyat fanida, ruhiy tahlilga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirishda foydalanish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bu salohiyatni yaratish va yanada ko'paytirishda hurmatli ziyolilarimiz – ilm-fan va texnika namoyandalari, birinchi navbatda qadrlil va hurmatli akademiklarimiz, madaniyat, adabiyot va san'at, sport sohalarining vakillari butun vujudini berib, fidokorona mehnat qilayotganlarini biz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz". Bu haq gap. Chunki xalq ma'naviyatini uning ma'naviy tafakkur shaklini o'nglanmaguncha, biror bir sohada u ijtimoiy, siyosiy, yoki iqtisodiy soha bo'ladimi qaysi sohada bo'lishidan qat'iy nazar jiddiy o'zgarishlar bo'lishi dargumon. O'tgan asrlar mobaynida olib borilgan ma'naviyat va madaniyat sohasidagi islohotlar yo'lini tahlil qilar ekanmiz, ma'naviyat va iqtisod bir-birini inkor etmasligini, balki bir-birini quvvatlab, o'zaro ta'sirlanib rivojlanib borishini guvohi bo'lamiz. Shu o'rinda ma'naviyat va

iqtidos taraqqiyotimizning ikkita mustahkam qanotiga aylandi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Dastlab, mamlakatimizni ma'naviy-madaniy islohotlarning o'ziga xos to'rtta asosiy negizi asoslandi. Quyda bu negizlarni ko'rib o'tamiz:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik".

Biz yuqorida keltirilgan ushbu to'rt asosiy negizning har biriga to'xtalib o'tsak, jamiyatning milliy-ma'naviy yangilanishi, deganda nimani tushunish kerak? Uning jamiyat taraqqiyotidagi ta'siri nimada? degan savollarga javob topgan bo'lamiz. Zero, ushbu konsepsiyada mustaqil jamiyatgina yuksak ma'naviyatga, axloqiy qadriyatlarga, faol fuqaro pozitsiyasiga erishishi mumkinligi, xalqning ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy siyosiy, bilim darajasi ushbu sohalarining barchasi bilan chambarchas bog'liqligi nazarda tutilgan. Har bir xalq, o'zining boy tarixi, ma'naviy kamoloti, ma'daniyatini o'rganish jarayonida va milliy va tarixiy qadriyatlarni tiklash masalalariga doimiy diqqat-e'tibor qaratishi natijasida mamlakatda demokratik islohotlarni amalga oshirishi mumkin.

Birinchidan, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik. Umuminsoniy qadriyatlar – jahondagi barcha odamlar, xalqlar va davlatlar uchun umumiy qadrlash mezoni hisoblanadi va umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar tizimini o'zida ifoda etadi. Umumbashariy qadriyatlar negizida har bir xalqning milliy qadriyatlarini shakllanadi. Qadriyatlar esa ajdodlar va avlodlar o'rtasidagi madaniy ko'priklar bo'lib har bir xalqning urf-odat, ananalarini o'zligini o'zida mujassam etadi. Umumbashariy qadriyatlar har bir millat har bir xalq uchun birdek qadrlanib bo'lib xalqlarni yakdil bir g'oya atrofida birlashishini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, xalqimizning boy ma'naviy merosini o'rganish va uni rivojlantirish masalasidir. Avvalambor, ma'naviy meros tushunchasiga to'xtalib o'tsak, ushbu masalaga oydinlik kiritgan bo'lamiz. "Ma'naviy meros – ma'naviy taraqqiyot mahsuli, inson aql-zakovati bilan yaratilgan, kelajak avlodni ezgu taraqqiyot sari yetaklash xususiyatiga ega bo'lgan, kishilarning ongi va dunyoqarashining o'sishi, olamni bilish va o'zlashtirish borasidagi sa'y-harakatlariga kuch-quvvat beradigan ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan azaliy qadriyatlar majmui", deb ta'riflanadi.

Bizningcha, har bir xalqning ma'naviy va madaniy saviyasi asosan ma'naviy boyligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar yig'indisidan tashkil topadi. Ma'naviy meros – o'tmish ajdodlarimizning yutuqlaridir. Uni to'la egallash va rivojlantirish esa yosh avlodning vazifasidir. O'z madaniy merosi, qadriyatlarini bilmaslik yoki mensimaslik – madaniyatsizlik belgisi. Ularni boyitib, yuksak darajaga ko'tarishga intilmaslik esa millat va uning istiqboli uchun katta ziyon yetkazadi.

Xullas, ma'navi-ma'rifiy sohalaridagi islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad asrlar davomida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy moddiy-ma'naviy yodgorliklar, tarixiy qadamjolar, diniy qadriyatlar, milliy urf-odat va ananalarni asrab avaylash kelajak avlodga munosib shaklda yetkazishdir. Zero o'z tarixini o'z o'tmishini bilmagan insonning yoqalikka real yondashishi dargumon. Bu boradagi yangilanishlarni bosqichma-bosqich tizimli shaklda amalga oshirish, qadimiy va zamonaviy xalq qadriyatlarini, adabiyoti va san'atini bilish va rivojlantirish, o'zbek tilini taraqqiy ettirishni maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab ta'limning barcha bosqichlarida amalga qo'llash, ta'lim va tarbiya tizimini yaxlit bir tizim sifatida umumlantirib amaliy hayotga tadbiiq etish – bularning barchasi, mening fikrimcha aynan xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va uni rivojlantirish konsepsiyasining asosiy jihatlaridir. Bu masala yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida: "Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qiladi". Bu g'amxo'rlikka javoban, "O'zini O'zbekiston fuqarosi hisoblagan har bir inson xalqining ma'naviy, tarixiy, madaniy, ilmiy va tabiiy

merosini asrab-avaylashi shart. Tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi". deb qonuniy yo'l bilan ham mustahkamlanib qo'yilgan.

Uchinchidan, insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish masalasi. Ma'naviyat insonni kamolotga yetaklaydigan botiniy va zohiriy kuch bo'lib, shaxs kelajakda kim bo'lib ulg'ayishini, uning qalbida vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, kasbga layoqat, kabi ezgulik urug'larini qadaydigan, inson ruhiy olamining asosiy mezoni ekanligini yuzaga chiqaruvchi konseptual g'oya ekanligini ilmiy asoslaganligi so'zimiz isbotidir.

Bugungi kunda insonning o'z ichki imkoniyatlarini erkin namoyon qilish masalasi hamon dolzarbligicha qolmoqda chunki bu imkoniyatni yuzaga chiqarib berib erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasini yechishning imkoni yo'q. shu o'rinda takidlash joizki, insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish negizi boshqa negizlar bilan o'zaro chuqur uyg'unlikka ega. Mamlakatimizda har bir insonning haqiqiy erkinligini ta'minlash maqsadida milliy ma'naviyatini yanada rivojlantirishga kata e'tibor qaratilayotganligida ko'rshimiz mumkin. Zero, o'zligini anglamagan, o'tmish saboqlaridan yetarlicha xulosa chiqarmagan voqelikdagi munosabatlar xolis fikr bildiray olmaydigan inson fikran hur va erkin bo'la olmaydi. Fikrimizcha, mustaqillik tufayli bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tish davrida o'zlikni anglashning o'ziga xos ko'rinishlarini anglamasdan ma'naviy yuksalish va taraqqiyot darajasini anglab bo'lmaydi. Yuksak rivojlangan jamiyat esa o'zligini anglagan shaxslardan tarkib topishi mumkin. O'zligini anglagan yoki anglay boshlagan kishigina shaxs darajasiga ko'tariladi. Demak, o'zlikni anglash, avvalo, har bir insonning shaxsi, alohida "meni" bilan bog'liq. Suqrot ta'kidlaganidek, "O'zini anglagan inson o'zi uchun nima foydali va nimalarga qodir ekanligini yaxshi tushunadi. U qo'lidan keladigan ish bilan shug'ullanish asnosida o'z ehtiyojini qondiradi va saodatga erishadi. Har qanday xato va baxtsizliklardan xoli bo'ladi. Buning natijasi o'laroq, u o'zga odamlarni qadrlay oladi va ulardan ezgulik yo'lida foydalana oladi. Oqibatda o'zini kulfatlardan asraydi".

Bizning fikrimizcha, ma'naviyat mustaqillik uchun muhim hayotiy zaruriyatdir. O'zbekistonda ma'naviy-madaniy islohotlarning rivojlanish yo'li va uning zaruratini quyidagi yo'nalishlarda olib borsak katta yutuqlarga erishishimiz mumkin:

- ma'naviy meros va diniy qadriyatlarini chuqur o'zlashtirish, millatimizning o'z-o'zini anglashiga erishish, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini izchillik bilan mustahkamlash;
- mustaqillik sharoitida milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish hamda uni xalqimiz dunyoqarashiga aylantirishga erishish;
- ta'lim tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlashning milliy dasturini amalga oshirish asosida barkamol avlodni tarbiyalash, sog'lom avlod dasturini amalga oshirish asosida jismonan baquvvat, ruhi, fikri sog'lom, iymon-e'tiqodi butun, bilimli, ma'naviyati yuksak, mard va jasur vatanparvar avlodimizni shakllantirish;
- milliy – ma'naviy salohiyatimizning jahon sivilizatsiyasidagi o'rmini tiklash va bugungi kunda ma'naviyat, ma'rifat, fan, texnika, texnologiya yutuqlarini chuqur o'zlashtirish asosida hozirgi zamon umumjahon ma'naviyati tizimi rivojiga hissa qo'shish;

- yoshlar ma'naviyatini milliy istiqloq g'oyalari bilan boyitib borish, ular ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish;
- insoniyatning asrlar davomida yaratgan va umumjahon mulkiga aylangan barcha boyliklarni milliy-ma'naviy salohiyatimizning ajralmas qismiga aylantirish kabilardir.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, Istiqloq yillarida yurtimizda amalga oshirilgan ma'naviy islohotlarning butun qamrovini ko'rsatish, ma'naviy sohadagi o'zgarishlar samaralarining mustaqil taraqqiyotimizda tutgan o'rni va ahamiyatini, qolaversa, istiqboldagi vazifalarimizning mazmun-mohiyatini to'liq ochib berish bilan cheklanib qolmasdan, bu islohotlarni munosib davom ettirish oldimizda turgan eng asosiy vazifalardan biridir. Zero, —Ma'naviyat – uzluksiz harakatdagi jarayondir. Fikr, tafakkur, his-tuyg'u tinim bilmaganidek, ularning mahsuli o'laroq ma'naviyat ham doim o'zgarish va yangilanishda bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni/<https://lex.uz/docs/-5841063>
2. Ergashev I. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. –T.: "Navro'z", 2005, 136-b.
3. Rahmonova, S. (2023). Dynamics and main directions of spiritual and cultural eforms implemented in Uzbekistan. Modern Science and Research, 2(10), 850-854.

4. Rahmonova, S. (2023). Yangi O'zbekistonda ma'naviy-madaniy islohotlar. Current approaches and new research in modern sciences, 2(10), 40-43.
5. Rahmonova, S. (2023). Yuksak ma'naviyatli avlod-uchinchi renessans bunyodkorlari. Наука и технология в современном мире, 2(3), 76-79.
6. Rahmonova, S. (2024). The reforms implemented in new uzbekistan are the foundation of the third Renaissance. Modern Science and Research, 3(2), 394-399.
7. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. SPAST Reports, 1(7).



UDK:182.2

Siroj RO‘ZIMURODOV,
SamISI Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti (PhD)
E-mail: rozimurodov86@mail.ru

SamDCHTI professori, f.f.d O.G‘aybullayev taqrizi asosida

YOSHLARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZI RIVOJLANISHIDA MILLIY VA DUNYOVIY QADRIYATLARNI UYG‘UNLASHTIRISHNING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI

Annotasiya

Maqolada yoshlarda sog‘lom turmush tarzi rivojlanish asosida ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash va tarbiya masalasiga e‘tibor qaratilgan. Shu o‘rinda jamiyatni milliy va dunyoviy qadriyatlar yoshlar madaniyati va xulq-atvorniga bog‘liqligi yaxlit tizim sifatida samarali yoritiladi. Ular o‘rtasidagi ijtimoiy-funksional munosabatlar uzviyligi to‘g‘risida qarashlari, ta‘riflari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Oila, yoshlar, ma‘naviy-axloqiy tarbiya, qadriyat, integrativ, funksional, turmush tarzi, xulq, mehnat, odob-axloq.

СОЦИО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ГАРМОНИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ И МИРОВЫХ ЦЕННОСТЕЙ В РАЗВИТИИ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В статье основное внимание уделяется вопросу обеспечения социальной стабильности и воспитания молодежи на основе развития здорового образа жизни. Здесь эффективно освещается зависимость общества от национальных и светских ценностей в молодежной культуре и поведении как целостной системы. Изложены их взгляды, определения на преемственность социально-функциональных отношений между ними.

Ключевые слова: Семья, молодежь, духовно-нравственное воспитание, ценностное, интегративное, функциональное, образ жизни, поведение, труд, этикет.

SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE HARMONIZATION OF NATIONAL AND WORLDLY VALUES IN THE DEVELOPMENT OF A HEALTHY LIFESTYLE IN YOUTH

Annotation

The article focuses on the issue of ensuring social stability and educating young people based on the development of a healthy lifestyle. It effectively highlights the dependence of society on national and secular values in youth culture and behavior as an integral system. Their views and definitions on the continuity of socio-functional relations between them are outlined.

Key words: Family, youth, spiritual and moral education, value, integrative, functional, lifestyle, behavior, work, etiquette.

Kirish. Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotchilik zamirida yoshlarda kundalik turmushda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu o‘rinda insonning hayoti va sog‘lig‘i - eng katta ijtimoiy boylik bo‘lib hisoblanadi. Millatning sog‘lig‘i ham tabiiy ravishda, sog‘lom turmush tarzini amalga oshirish orqali ta‘minlanadi. Sog‘lom turmush tarzi insonning mehnat unumdorligini ta‘minlaydi va mamlakatning iqtisodiy qudratini yuksaltirishda, xalq farovonligini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu o‘rinda davlat va jamiyat ishlarini boshqarishdagi ishtiroki, mas‘uliyatli vazifalarni o‘z vaqtida bajarish muvaffaqiyatli mexanizmlarni ishlab chiqish taqozo etilmoqda. Bu masalada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev: “Jismoniy tarbiya va sport sohasida aholining keng qatlamlarini sport bilan shug‘ullanishga va sog‘lom turmush tarzini yuritishga jalb etish, jismonan sog‘lom avlodni tarbiyalash, sport industriyasi va infratuzilmasini rivojlantirish, oliy sport mahorati sohasida mamlakatimizning xalqaro sport maydonida munosib ishtirokini ta‘minlashga qaratilgan konseptual dasturlarni amalga oshirish” muhim ahamiyatga ega degan edi [1].

Adabiyotlar tahlili. O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma‘naviy hayoti sohalarida islohotlarni chuqurlashtirish va rivojlantirish jarayonida ijtimoiy hayot sohasida sog‘lom turmush tarzini qaror toptirishga katta e‘tibor qaratilayotganligi masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim omillariga, axloqiy va huquqiy tarbiyaga e‘tiborni kuchaytirish, qonunga so‘zsiz ichki intizom bilan rioya etish, demokratik tamoyillarni, davlatga, fuqarolik burchiga hurmat ko‘nikmasini mustahkamlash aksariyat mahallalarning faoliyat markaziga qo‘yilgan. Shuningdek sog‘lom turmush tarzini tarixiy ildizlari, uni yuksaltirish bo‘yicha dunyo tamadduni tarixida qo‘llanilgan eng samarali mexanizmlar, olimlar tomonidan turmush tarzi sharoitlarini, uning tarixidan boshlab, bugungi kunga qadar rivojlanish va faoliyat usullarini, shakllarini, ijtimoiy xususiyatlarini o‘rganishga oid ilmiy xulosalar asosidagi turli yondashuvlar, gepotezalar, paradigmalarni ishlab chiqish va uning ilmiy-falsafiy tahlil qilish muxim ahamiyatga ega. Yoshlarda sog‘lom turmush tarzini

ta‘minlash, jismoniy va ma‘naviy jihatdan komil inson qilib tarbiyalash asosida mamlakatimizda keng qo‘llamli ishlar amalga oshirilmoqda. “O‘zbek xalqi yosh avlod tarbiyasida o‘z modeliga ega bo‘lib, mazkur model asrlar davomida shakllantirilgan va uchta asosiy negiz – xalq amaliy tajribalari e‘tiqodiy (zardushtiylik va Islom) hamda nazariy-falsafiy (O‘rta Osiyo mutafakkirlari va jadid ma‘rifatparvarlarining ta‘lim-tarbiyaga oid ilg‘or g‘oyalari) negizga ega” [2]. Yoshlarni turli zararli illatlardan asrab avaylash, ularni turli g‘oyaviy, mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish jarayoni sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish negizida amalga oshirilib kelmoqda. Sog‘lom turmush tarzi - inson xatti-harakatining yakka individual tizimi bo‘lib hisoblanadi va unda tabiiy, texnogen va ijtimoiy muhitda insonning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy hayot farovonligi va uzoq umr ko‘rishi ta‘minlanadi. Jamiyatdagi sog‘lom turmush tarzi insonning fiziologik va ruhiy kamoloti uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratadi, sog‘lom turmush tarzi turli kasalliklarning ehtimolini kamaytiradi hamda insonning uzoq umr ko‘rishini yanada oshiradi deb ta‘kidlaydi.

“Salomatlik uch muhim turkumga bo‘linadi. Ularni shartli ravishda quyidagilarga ajratish mumkin deb ta‘kidlaydi.

1-Jismoniy. 2-Aqliy va axloqiy. 3-Ijtimoiy salomatlikdan iboratdir.

Muhokama va natijalar. Jismoniy salomatlikda shu narsa tushuniladiki, tanadagi barcha organlar va tizimlar o‘z meyorida ishlasa, butun inson tanasi, ya‘ni o‘zini o‘zini boshqarish tizimi mukammal ravishda faoliyat olib boradi hamda rivojlanadi. Inson ruhiy salomatligi-bu ong va miya faoliyati hamda holatiga bog‘liq bo‘lib, u o‘zida xotiraning rivojlanishi, fikrlash darajasi, sifati, diqqatni jamlash, hissiy barqarorlik darajasi hamda irodaviy xislatlarning rivojlanishini ifodalaydi. Insondagi axloqiy salomatlik uning ijtimoiy hayotiga bog‘liq bo‘lgan axloqiy tamoyillarga asoslanadi. Shaxsning axloqiy salomatligi mehnatga ongli munosabatda bo‘lishida, madaniyat xazinalarini o‘zlashtirishida, oddiy turmush tarziga zid bo‘lgan urf va odatlardan faol ravishda voz kechishida ko‘rinadi. E.Dyurkgeym tafavutlar ortib borish tendensiyasini ochib berib, shuni ta‘kidlaydi «mehnat taqsimoti holatida ular bir-biridan tashqarida bo‘lib, faqat bir-biridan farq qilgani uchun bog‘lanadi va bu farqlar erkaklar va ayollar o‘xshash

funksiyalarni bajarganda ham saqlanib qoladi, chunki ularda ayol erkakdan o'z mohiyati va roli bilan juda farq qiladi[3]. Oiladagi sog'lom turmush tarzi inson mehnat qilishi va hayotining turli yo'nalishlari bilan uzviy bog'liq, buning natijasida inson sog'lom faol umrguzaronlik qilishi hamda uzoq umr kechirishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari orasidagi sog'lom turmush tarzini rivojlantirish uchun "Salomatlik yo'laklari"ni tashkil etish, ushbu yo'laklarda fuqarolar, davlat organlari hamda tashkilotlari xodimlari ham jalb etilgan holatda piyoda va velosipedda yurish bo'yicha sport musobaqalari hamda marafonlarni tashkil etish belgilandi.

Mamlakatimizda sog'lom turmush tarzini rivojlantirishda oila, maktabgacha ta'lim muassasalari, xalq ta'limi, oliy ta'lim tizimi, mehnat jamoalari, birlashmalari, mahallalar, davlat organlari hamda nodavlat-notijorat tashkilotlarida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish masalalariga katta e'tibor qaratilib, sog'lom turmush tarzini rivojlantirish vositalari - jismoniy tarbiya hamda ommaviy sportni rivojlantirish, ommaviy axborot vositalari bo'lgan gazeta va jumallar, radio va televidenie, ijtimoiy tarmoqlar, internet orqali sog'lom turmush tarzini keng tashviqot qilish uchun barchaga foydali bo'lgan kontentlar qilish masalasiga e'tibor kuchaytirilmoqda. Shu boisdan ham "Mustaqil davlatlar Hamdo'stligi Davlat rahbarlari Kengashining Sochida bo'lib o'tgan sammitida ham MDHga a'zo davlatlar rahbarlarining oila instituti va an'anaviy oilaviy qadriyatlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha bayonoti qabul qilindi" [4].

Shu bilan birgalikda davlat va xususiy sport muassasalari, sport maydonchalari hamda sport inshootlari, turli sport jihozlari, sog'lom ovqatlanish shahobchalari, fitobarlar, fitnes markazlari, sport buyumlari va zallari, milliy sport turlari, xalq o'yinlarini rivojlantirishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Sog'lom turmush tarzi turli reklamalar, buklet va eslatmalar orqali ham targ'ib qilinadi.

Yangilanayotgan O'zbekistonda sog'lom turmush tarzini rivojlantirishda milliy va dunyoviy qadriyatlarning uyg'unligi masalasiga katta e'tibor qaratilayotganligi, "Dunyoviylik - dahriylik emas" degan tamoyil asosida dunyoviy davlatning dinga munosabati belgilanayotganligi ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekistonda bugungi kunda fuqarolarda buyuk kelajakka, ulkan taraqqiyotga bo'lgan ishonchni, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni barpo etishga bo'lgan ishonch-e'tiqodni shakllantirish, mustahkamlash masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Sog'lom e'tiqodni shakllantirishda esa milliy va dunyoviy qadriyatlarining uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda diniy bag'rikenglik g'oyasi asosida turli diniy e'tiqoddagi fuqarolar hamjihat bo'lib, yashab, mehnat qilib kelmoqdalar shu bilan birga jamiyatdagi ma'naviy yangilanish jarayoni tarkibiga diniy qadriyatlar ham kiradigan jamiyatning o'tmishdagi ma'naviy qadriyatlarini bilangina cheklanmaydi. Hozirgi tezkor globallashtirish davrida milliy tarixiy-manaviy qadriyatlarimizni zamonamizga monand gumanizm (insonparvarlik) g'oya va qadriyatlarini ila mustahkam mahkam bog'lash va uyg'unlashtirish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston jahon hamjamiyatiga integratsiyalashib borayotgan bir sharoitda turli din vakillari bilan muloqot qilishning yuksak madaniy darajasiga erishish jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhitning tashkil topishida muhim ahamiyat talab etmoqda. O'zbekiston xalqining ilg'or madaniy meros, ma'naviy merosini, diniy qadriyatlarini o'rganish esa ularni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda muhim o'rin tutmoqda. O'zbekistonda dunyoviylik va diniylik uyg'un holatda rivojlantirilib, mamlakatning ijtimoiy madaniy taraqqiyotida diniy qadriyatlar muhim o'rin tutib kelmoqda. Xalqimizning boy ma'naviy merosini tiklash orqali davlatimizning xalqaro nufuzini oshirish, fuqarolarni buyuk kelajak sari ruhlandırishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Sog'lom turmush tarzini aholida shakllantirish atrof tabiiy muhit, ekologik barqarorlikka ham bog'liq bo'lib, Taraqqiyot strategiyasidagi 79-maqсадda O'zbekiston fuqarolari, aholisining sog'ligi, salomatligi hamda genofondiga salbiy tomonlama ta'sir ko'rsatadigan mavjud bo'lgan ekologik muammolarni oldini olish masalasi bayon etilgan bo'lsa, 80-maqсадda ekologik vaziyatni yaxshilash, atrof muhitni asrab-avaylash, shahar hamda tumanlardagi ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, «Yashil makon» umummilliy loyihasi asosida amalga oshiriluvchi vazifalar bayon qilingan ko'rish mumkin.

O'zbekistonda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishdagi eng muhim jihatlardan biri - jamiyatning barqarorligini asrash va mustahkamlashdan iborat bo'lib, jamiyatdagi ijtimoiy sog'lomlik millatning, har bir yurt fuqarosining salomatligi bilan chambarchas

bog'liqdir. Jamiyatni ijtimoiy sog'lomlashtirish tamoyillari asosida olib borilayotgan islohotlar O'zbekistonda ijtimoiy sog'lom muhitni hamda barkamol insonlarni va ularning sog'lom turmush tarzini shakllantirishni taqozo etadi. Bu esa, xalq salomatligini mustahkamlash, turmush tarzini yanada yuksaltirish orqaligina amalga oshiriladi. Shu o'rinda "2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ko'rsatilgan "oila institutini mustahkamlash borasidagi ishlarni tizimlashtirish va samaradorligini yanada oshirish" [5] kabi muhim vazifalar belgilab qo'yilgan edi.

O'zbekistondagi yangilanish jarayonida sog'lom turmush tarzi shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, vositalar, tamoyillar mavjud bo'lib, xalq salomatligini ta'minlash tabiiy atrof muhit holatiga, ijtimoiy muhitdagi ma'naviy, siyosiy, huquqiy munosabatlarga bog'liqdir. O'zbekistonda sog'lom turmush tarzining rivojlanishiga ta'lim-tarbiya tizimi, oila, mahalla, jamoat tashkilotlari, jamiyatda mavjud bo'lgan urf-odat, an'ana, udumlar, marosimlar ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, sog'lom turmush tarzi insonning faol mehnatiga asoslanadi, ijodiy faoliyatida namoyon bo'ladi, kuchli jismoniy va ruhiy holatiga tayanadi, jismoniy va ma'naviy kamolotini o'zida ifodalaydi. Jamiyat hayotida sog'lom turmush tarzining rivojlanishiga axloq va axloqiy munosabatlar ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sog'lom turmush tarzi rivojlanishiga tizimli jarayon sifatida yondashuv uni o'rganishning falsafiy, ruhiy, tibbiy-gigiyenik, iqtisodiy, ijtimoiy, motivatsion, metodologik tomonlari mavjud ekanligini ko'rsatadi. Sog'lom turmush tarzini o'rganishda uning metodologik muammolari, ijtimoiy-gigiyenik mezonlariga e'tibor kuchaytirilmoqda.

Sog'lom turmush tarzini oiladagi mehr-oqibat, o'zaro totuvlik, g'amxo'rlik, teran tarbiya va yaxshi odatlar, ota-onaning bolalar tarbiyasiga teng jonkuyarligi, o'z insoniy burchiga mas'uliyatni his etishlari, ota-onaning mehnatga, ijtimoiy hayot hodisalariga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishlik kabilar oilaviy munosabatning va oila madaniyatining nozik qirralaridir. Ularning qaysi birida mutanosiblik buzilsa, demak, o'sha oiladagi sog'lom turmush tarziga putur yetadi. Oilada sog'lom munosabat mavjud bo'lsa, millat va jamiyatda sog'lom turmush tarzi qaror topadi. Bola oila hayotida faol, bevosita qatnashadi. Oila o'zining rasm-rusumlari, odatlari, an'analari, odob-axloq va huquqiy me'yorlari bilan jipslashgan tarkibga ega. Ushbu tarkib doirasida ota-onalar, bola-chaqa, bobolaru buvilarni bir qolipga tushgan son-sanoqsiz munosabatlar bog'lab turadi.

Jamiyat hayotida sog'lom turmush tarzi ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ib etiladi, shu bilan birgalikda barcha ta'lim-tarbiya tizimi muassasalari, maktab, litsey, oliy ta'lim dargohlarida beriladigan ta'lim-tarbiya jarayonida, kundalik hayotdagi urf-odat, an'ana, udumlar, marosimlarda sog'lom turmush tarzi haqidagi bilimlar yoshlar ongi va qalbiga singdiriladi. Shu o'rinda sog'lom avlodni axloqiy tarbiyalash deganda uning sharqona odob-axloq hamda umuminsoniy g'oyalar ruhida kamolga yetgan insonni tarbiyalash tushuniladi. Iymon-e'tiqod, halollik-poklik, adolat-himmat insonning muhim ma'naviy fazilatlaridir. Bu fazilatlarini yoshlarimizning hayot qoidasiga aylantirish, ularni demokratik jamiyat talablariga mos inson qilib tarbiyalash bugungi kunning muhim vazifasidir. Jamiyat a'zolarining ma'naviy-axloqiy tarbiyasida iymon, yaxshilik, ezigulik, halollik, diyonat, ma'rifat, mehr-muruvvat manbai bo'lgan islom dini va islomiy qadriyatlarning tutgan o'rmi va ahamiyati kattadir. Islom madaniyati va axloqiy qarashlarida ilmi kalom, ilmi rivoyat, ilmi aqida, ilmi tavhid kabi islom ilmlari muhim o'rin tutadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda mamlakatimizda insonning salomatligi hamda jismoniy barkamolligi, uning sog'lom turmush tarzi madaniyatiga egaligi muhim ijtimoiy qadriyat bo'lib hisoblanadi. Millatning salomatligini ta'minlash, xalq genofondini mukammal holatda saqlash sog'lom turmush tarzi yordamida amalga oshiriladi hamda ijobiy hal etiladi. Jamiyatimizdagi barcha ijtimoiy institutlar, oila, mahalla, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot va kommunikatsiya vositalari yordamida sog'lom turmush tarzi muntazam ravishda targ'ib qilinadi. Binobarin, uzluksiz mukammal sifatli ta'lim va tarbiya vositaligida jamiyatdagi fuqarolarni ongi va qalbiga sog'lom turmush tarzi tub mohiyati haqidagi dastlabki bilim hamda tasavvurlar yetkaziladi. Fuqarolarni jismi-tani salomat va ma'naviy sog'lom qilib tarbiyalash, yoshlarni bilimli, keng yuksak dunyoqarashli, barkamol inson qilib tarbiyalash jamiyat hayotida sog'lom turmush tarzini qaror toptirilish sohasida olib borilayotgan davlat siyosatiga bevosita mos keladi.

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 208
2. Убайдуллаева Б.М. Ўзбекларнинг бола тарбиясига доир анъаналари ва инновациялар (XX асрнинг иккинчи ярми–XXI аср бошлари). Докторлик диссертацияси автореферати. Тошкент, 2018. 28 бет.
3. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Метод социологии. – Москва: Наука, 1991. – С. 62.
4. МДХнинг Сочи саммити //http://uza.uz/oz/politics/md-ning-sochi-sammiti-11-10-2017.
5. 2022 - 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини «Инсон кадрини улуғлаш ва фаол маҳалла йили»да амалга оширишга оид Давлат дастури <https://lex.uz/docs/5841063>.



Zilola RUZMETOVA,
teacher of the "Romano-German Philology" department of Ma'mun University
E-mail: zilola.ruzmetova1111@gmail.com

Rewiew professor D.Mukhamedova

ANXIETY LEVELS OF STUDENTS IN THE PROCESS OF LEARNING FOREIGN LANGUAGES

Annotation

This article examines the anxiety levels of university students engaged in foreign language acquisition and the methods used to assess it. To assess anxiety levels, the Spielberger-Hanin approach was used, which includes medium and low criteria indicative of elevated anxiety; specifically, reactive anxiety is characterized by tension and anxiousness.

Key words: Anxiety, foreign language, fear, self-confidence.

XORIJY TILLARNI O‘RGANISH JARAYONIDA TALABALARDAGI XAVOTIRLIK DARAJALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada universitetda ta'lim olayotgan talabalarning xorijiy tillarni o'rganish jarayonida yuzaga keladigan xavotirlik darajasi va uni aniqlash jarayoni yoritib berilgan. Xavotirlik darajasini aniqlash maqsadida esa Spielberger-Xaninning "Xavotirlik darajasini aniqlash" metodikasi tanlandi va metodologiyada yuqori darajadagi xavotirni ko'rsatadigan o'rta va past standartlar mavjuddir, ya'ni reaktiv xavotirlanish keskinlik, asabiylashish bilan tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: Tashvish, chet tili, qo'rquv, o'ziga ishonch.

УРОВЕНЬ ТРЕВОЖНОСТИ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Аннотация

В данной статье рассматриваются уровни тревожности студентов вузов, изучающих иностранный язык, и методы их оценки. Для оценки уровня тревожности использовался подход Spielberger-Ханина, включающий средние и низкие критерии, указывающие на повышенную тревожность; в частности, реактивная тревожность характеризуется напряжением и тревожностью.

Ключевые слова: Тревожность, иностранный язык, страх, уверенность в себе.

Introduction. Recent research examining the characteristics of foreign language acquisition have concentrated on both the cognitive aspects of learning and the emotive realm. Since 1970, research in the subject has transitioned from a concentration on the instructor to an emphasis on the student, resulting in a growing number of studies centered on the learner. Research has sought to elucidate the learner's emotional characteristics, including risk-taking, self-confidence, empathy, inhibition, belief, attitude, motivation, and anxiety, as well as their positive or detrimental impacts on foreign language acquisition. Anxiety, recognized as a variable of individual differences, is often misinterpreted, leading to uncertainty over its role in the learning process. Anxiety is a multifaceted construct that obstructs learning, characterized primarily by dread and phobia, and is seen as an adversary to be eradicated (Scovel, 2001). Spielberger (1983) characterizes anxiety as "an undesirable emotional condition that presents with tension, fear, nervousness, and activation of the nervous system." Anxiety is characterized as "a nebulous fear linked to an object" (Scovel, 1978:134). Young (1992) defines anxiety as "a complex psychological phenomenon specific to language learning." Foreign language anxiety refers to a condition of tension and trepidation associated with foreign or second language contexts, including speaking and listening, or a concern and adverse emotional response that arises throughout the process of learning or using a foreign or second language (MacIntyre, 1999). Zhang (2001) characterized anxiety as the psychological strain encountered by students during task execution in the learning process. Numerous scholars assert that anxiety significantly impedes foreign language acquisition (Krashen, 1981; Horwitz et al., 1986; MacIntyre, 1999; Young, 1986). Krashen (1981) perceives the emotional state or attitudes of the language learner as a modifiable filter that facilitates, obstructs, or halts the "input" essential for learning. It is advantageous for the learner and the class to avoid anxiety-induced enthusiasm around second language learning. The emotional filter theory posits that language learners with a low affective filter absorb more input, engage confidently, and are prepared to assimilate the material they encounter. Students who are excited or worried possess a heightened emotional filter, which obstructs acquisition or learning. Establishing a classroom climate devoid of worry significantly influences pupils.

literature review. Horwitz et al. (1986) first identified a distinct anxiety phenomenon termed "Foreign Language Anxiety" based on their research findings. Foreign language anxiety is a distinct

phenomenon arising from the peculiarities of the foreign language acquisition process, including learners' self-perception, beliefs, emotions, and actions pertinent to foreign language learning contexts. Two distinct forms of anxiety may be identified in the development of anxiety: "trait anxiety," associated with the inherent traits of the person, and "situational anxiety," linked to experiences encountered in social and physical contexts (Dörnyei, 2005). MacIntyre (1999) deemed the differentiation between situational and trait anxiety inadequate, asserting that foreign language anxiety constitutes a form of "situation-specific" anxiety, as it arises exclusively when foreign language production is necessitated, pertaining specifically to foreign language acquisition and classroom contexts.

As to Oxford (1999), students in foreign language lessons have situational anxiety when required to speak; nevertheless, this worry diminishes as their proficiency and competence in the foreign language improve. For several kids, this worry manifests as persistent and unrelenting apprehension. The persistent anxiety encountered in foreign language lessons adversely impacts performance and proficiency in the language. Horwitz, Horwitz, and Cope (1991; 30-31) characterize foreign language anxiety as a distinct phenomenon pertinent to language acquisition, asserting that it is associated with "performance evaluation in academic and social contexts." They identified three particular characteristics of foreign language anxiety: "communication anxiety," "test anxiety," and "fear of negative evaluation." Communication anxiety is the apprehension and trepidation associated with conversing with others. This is attributable to the individual's deficiency in knowledge or skill proficiency. This indicates that the individual struggles with comprehending others or being understood by them. In language lessons, students must converse with peers and the instructor in the target language; yet, some students have challenges in this regard, indicating the presence of communication anxiety (Horwitz & Young, 1991). Test anxiety refers to the apprehension of failing and the distress induced by the testing process. Speaking assessments, mainly, are the examinations when students encounter the most significant levels of test and communication anxiety. The last element of anxiety, the fear of unfavourable assessment, encompasses the apprehension of avoiding evaluative situations owing to the dread of being evaluated unfavourably or inaccurately by others. Students in foreign language classrooms typically encounter this sort of anxiety due to evaluations from both their instructors and peers (Horwitz & Young, 1991).

Purpose of the Study: This research aims to assess the foreign language anxiety levels of potential English instructors and to investigate the significant link between foreign language anxiety and independent factors, including gender, age, and grade levels.

Research methodology. The study used Spielberger-Hanin's approach, "Determining the Level of Personal and Reactive Anxiety", to assess pupils' anxiety levels.

To execute study tasks, we performed psychodiagnostic assessments, categorizing the individuals into control and Table 1.

Statistical analysis of the conformity of the Spielberger-Xanin "Reactive and Personal Anxiety Scales" methodology to a normal distribution, n=303

Scales	Min	Max	Average value	Standard deviation	Kolmogorov Smirnov Z	
					Z	p
Reactive Anxiety Scales	23	60	36,8911	8,61414	2,161	,000
Personal Anxiety Scales	23	60	37,7162	9,15206	1,517	,020

Note: **p<0.01;

The following findings were noted while analyzing the average distribution indicators of Spielberger-Xanin's "Study of Reactive and Personal Anxiety Scales" technique. The reactive anxiety state (Z=2.161; p<0.001) has a minimum score of 23, a maximum score of 60, and an average score of 36.89. Due to the nonconformity of the reactive anxiety state to the normal distribution, analysis will be conducted using non-parametric methods.

The personal anxiety state (Z=1.517; p<0.001) has a minimum score of 23, a maximum score of 60, and an average score of 37.71. The analysis of the personal state of anxiety, which does not adhere to the normal distribution, is conducted using non-parametric criteria. The study used Spielberger-Xanin's approach, "Determining Table 2.

Gender differences in Spielberger-Hanin's "Reactive and Personal Anxiety Scale Study" methodology (Mann Whitney criterion n=303)

Scales	Gender	N	Average	U	p
Reactive anxiety state	Boys	57	148,03	6693,500	,741
	Girls	246	152,29		
	Total	303			
Personal anxiety state	Boys	57	109,42	4531,500	,000***
	Girls	246	161,08		
	Total	303			

Note: ***p<0,001

Significant disparities in personal anxiety were shown (U=4531.500; p<0.001). A primary contributor to the elevated anxiety levels among female students is the imposition of specific restrictions on girls within our cultural values, such as prohibitions against walking alone at night, travelling abroad, and engaging in certain occupations. Ingrained from an early age, these constraints hinder their ability to acquire foreign language skills. May induce heightened personal anxiety throughout the learning process. In comparison to boys, irrespective of their proficiency in foreign languages, girls encounter challenges in obtaining the perspectives and approval of family members concerning studying and working abroad, resulting in heightened personal anxiety that surpasses the residual anxiety and fear from their youth—resulting in surpassing.

Conclusion. The results include significant ramifications for pedagogical practices in the classroom. Interpretation lessons include several forms of worry. The results of this research may assist educators in distinguishing Foreign Language Anxiety from other forms of anxiety. Provisions may be established to assist pupils managing Foreign Language Anxiety. For instance, educators may engage students in discussions regarding the varying speaking styles of native and non-native speakers; allow students to converse with their peers prior to prompting an individual student to respond to the teacher's inquiries or exhibit interpretation in class; modify the speaking pace of the speakers to facilitate gradual enhancement of students' listening comprehension in a foreign language; assist students in performing structured peer evaluations.

The study's findings indicate that female students experience heightened anxiety related to communication, assessment, and negative evaluation, whereas male students exhibit greater resilience to stress and increased confidence in speaking a foreign language. This communication anxiety encountered by foreign language students is felt by those without adequate communication abilities in

experimental groups. A total of 303 students comprises 160 from Khorezm, 78 from the Republic of Karakalpakstan, and 65 from Bukhara region. The respondents' age ranges from 18 to 30 years.

Analysis and results. This research used the Foreign Language Anxiety Scale to obtain quantitative data, which were then analyzed using the SPSS for Windows 14.0 software. The data collected to assess students' foreign language anxiety were examined using descriptive statistics (frequencies, percentages, averages, standard deviation).

the Level of Personal and Reactive Anxiety", to assess pupils' anxiety levels.

In the context of language acquisition, "language learning anxiety" refers to the emotions of dread, tension, or concern that individuals may have while learning or using other languages. It may occur in a wide variety of contexts. Anxiety is often detrimental to language learning because it diverts our attention away from the information that is essential to language acquisition. A moderate level of worry might motivate people to put in more effort and learn more. Anxiety interacts with several other variations when learning a language, such as aptitude, working memory, and motivation.

the target language. Test anxiety is a kind of anxiety that arises during academic assessments. The fear of unfavorable assessment pertains to the anxiety associated with being assessed by peers who fail to create a positive impression. This study's findings indicate that female students encounter challenges associated with the three characteristics outlined in the foreign language anxiety scale, struggle to manage anxiety in foreign language classrooms, and fail to use anxiety reduction measures. Nonetheless, these assessments did not diminish the inherent abilities and inclinations of female pupils in the domain of language. The elevated anxiety levels among female students should be seen as arising from their individual experiences or societal and conventional viewpoints associated with their gender and specific beliefs. The emotional aspect of learning has many components that are influential. This is a multifaceted domain that requires the simultaneous assessment and resolution of individual differences, as well as elements such as the educator, learning environment, and peers. The gender variable significantly impacted this study; however, Aida (1994), Onwuegbuzie et al. (1999), Batumlu and Erden (2007), Öner and Gediklioğlu (2007), Çubukçu (2008), Şakrak (2009), Genç (2009), Tiryaki (2012), and Aydın (2013) found in their research that gender did not influence foreign language anxiety. Conversely, several research have shown that male students exhibit more anxiety than female pupils (Kitano, 2001; Nyikos, 1990; Sertçetin, 2006; Han, 2014).

In addition, in order to reduce the tension associated with language abilities, it is strongly recommended that instructors give teaching and learning activities that are more enjoyable and pleasant for their students. It is strongly advised that the students do this since it will help them get better results in their studies, reduce the amount of worry they experience, and provide them the opportunity to do further research.

REFERENCES

1. Aida, Y. (1994). Examination of Horwitz, Horwitz, and Cope's construct of foreign language anxiety: The case of students of Japanese. *Modern Language Journal*, pp. 78, 155–167.
2. Batumlu, D. Z. and Erden, M. (2007). The relationship between foreign language anxiety and English achievement of Yıldız Technical University of foreign languages preparation students. *Theory and Practice in Education*, 3 (1), 24–38.

3. Çubukçu, F. (2008). A study on the correlation between self-efficacy and foreign language learning anxiety. *Theory and Practice in Education*, 4(1), 148–158.
4. Dörnyei, Z. (2005). *The psychology of the language learner, individual differences in second language acquisition*. Lawrence Erlbaum Associates, Inc., Publishers. London.
5. Genç (2009), Foreign language anxiety of students of the school of foreign languages at İnönü University. *E-journal of New World Sciences Academy*, 4(3), 1080-1087.
6. Han, J. (2014). A study on the influence of anxiety and metacognitive strategies on listening proficiency. *Journal of chemical and pharmaceutical research*, 6(6), 2484–2496.
7. Horwitz, E. K., Horwitz, M. B., & Cope, J. (1986). Foreign language classroom anxiety. *Modern Language Journal*, 70, 125-132.
8. Horwitz, E. K., Horwitz, M. B., & Cope, J. A. (1991). Foreign Language Classroom Anxiety. In E. K. Horwitz & D. J. Young (Eds.), *Language anxiety: From theory and research to classroom implications*. Englewood Cliffs. (pp. 27-39). New Jersey: Prentice Hall.
9. Horwitz, E. K., & Young, D. J. (1991). *Language anxiety: From theory and research to classroom implications*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
10. Kitano, K. (2001). Anxiety in the college Japanese language classroom. *The Modern Language Journal*, 85(4), 517–566.
11. Krashen, S. (1981). *Principles and Practice in second language acquisition*. English Language Learning Series. London.
12. MacIntyre, P. D. (1999). Language anxiety: A review of the research for language teachers. In D. J. Young (Eds.), *Affect in foreign language and second language learning*. (pp. 4–25). Boston: McGraw-Hill.
13. Öner, G. ve Gedikoğlu, T. (2007). Foreign language anxiety affecting learning English of secondary school students in Gaziantep. *Gaziantep University Journal of Social Sciences*, 6 (2): 67-78.
14. Nyikos, M. (1990). Gender-related differences in adult language learning: Socialization and memory factors. *Modern Language Journal*, 74(3), 273–287.
15. Oxford, R. (1999). *Anxiety and the Language Learner: New Insights*. Jane, A. (Eds.), *Affect in Language Learning*. Cambridge University Press, pp. 58–6.
16. Scovel, T. (1978). The effect of affect on foreign language learning: A review of the anxiety research. *Language Learning*, pp. 19, 245–254.
17. Scovel, T. (2001). *Learning new languages: A guide to second language acquisition*. Boston: Heinle and Heinle.
18. Şakrak, G. (2009). *The relationship between emotional intelligence and foreign language anxiety in Turkish EFL students*. Yayınlanmamış yüksek lisans tezi, Bilkent Üniversitesi, Ankara.
19. Young, D. J. (1986). The relationship between anxiety and foreign language oral proficiency ratings. *Foreign Language Annals*, pp. 23, 539–553.
20. Young, D. J. (1992). Language anxiety from the foreign language specialist's perspective: Interviews with Krashen, Omaggio Hadley, Terrell, and Rardin. *Foreign Language Annals*, 25(2), 157–172.



Malohat SAIPOVA,

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, psixologiya fanlari doktori

E-mail: malohat_saipova@mail.ru

Psixologiya fanlari doktori (DSs), dotsent A.Shamshetova taqrizi asosida

MEHNAT MIGRANTLARI BO'LGAN VA BO'LMAGAN OILALARDA OILAVIY XAVOTIRNI O'RGANISH NATIJALARI

Аннотация

Hozirda mehnat migratsiyasi daxl qilmagan – xoh u yirik, rivojlanayotgan, xoh kichik, rivojlanish bo'sag'asida turgan bo'lsin – biror mamlakat qolmagan, u jamiyatning deyarli barcha ijtimoiy qatlami va guruhi, ijtimoiy turmush faoliyatining turli sohalari jalb qilingan keng qamrovga ega jarayon hisoblanadi. XX va XXI asrda migratsiya jamoatchilik hayotining yanada xarakterli va ahamiyatli ko'rinishlaridan biriga aylanib ulgurdi. Bugun butun dunyo xalqlari migratsiyani odatiy hodisa sifatida qabul qilmoqdalar. Yana shuni ta'kidlab o'tish lozimki, migratsiya sabablari nihoyatda turli-tuman bo'lib, har bir oilaning bu borada o'z tarixi, ta'sir omillari mavjud.

Mazkur maqolada ota-onasi mehnat migratsiyasiga chisib ketgan o'smirlarning oilaviy hayotdan xavotirlari masalalari tadsisot natijalari asosida ochib berilgan. Shuningdek, muallifning shaxsiy xulosasi va tavsiyalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Aholi, mehnat, migratsiya, hodisa, jarayon, bosqich, sabablar, oilaviy, aybdorlik, xavotir, asabiy, tazhanglik, metodika, qiymat, farqlar, ahamiyat, vaziyat, stress, dastur.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СЕМЕЙНОЙ ТРЕВОЖНОСТИ В СЕМЬЯХ С ТРУДОВЫМИ МИГРАНТАМИ И БЕЗ ТРУДОВЫХ МИГРАНТОВ

Аннотация

В настоящее время нет ни одной страны, которую не затронула бы трудовая миграция – будь то большая, развивающаяся или маленькая страна, находящаяся на пороге развития – она имеет широкий размах, охватывая практически все социальные слои и группы общества, различные сферы общественной жизни. В XX и XXI веках миграция стала одним из наиболее характерных и важных проявлений общественной жизни. Сегодня люди во всем мире воспринимают миграцию как нормальное явление. Следует также отметить, что причины миграции чрезвычайно разнообразны, и каждая семья имеет свою историю и факторы, влияющие на этот счет.

В данной статье на основе результатов исследования раскрываются проблемы подростков, чьи родители находятся в трудовой миграции. Особое внимание уделяется обеспокоенности несовершеннолетних вопросами, связанными с семейной жизнью. Также представлены личный вывод и рекомендации автора.

Ключевые слова: Население, работа, миграция, событие, процесс, этап, причины, семья, вина, тревога, нервозность, кризис, методология, значение, различия, значимость, ситуация, стресс, программа.

METHODOLOGICAL ANALYSIS OF FAMILY ANXIETY IN FAMILIES WITH AND WITHOUT LABOR MIGRANTS

Annotation

Currently, there is not a single country that is not affected by labor migration - be it a large, developing or a small country on the threshold of development - it has a wide scope, covering almost all social strata and groups of society, various spheres of public life. In the 20th and 21st centuries, migration has become one of the most characteristic and important manifestations of public life. Today, people all over the world perceive migration as a normal phenomenon. It should also be noted that the reasons for migration are extremely diverse, and each family has its own history and factors influencing this.

This article, based on the results of the study, reveals the problems of teenagers whose parents are in labor migration. Particular attention is paid to the concerns of minors about issues related to family life. The author's personal conclusions and recommendations are also presented.

Key words: Population, work, migration, event, process, stage, reasons, family, guilt, anxiety, nervousness, crisis, methodology, meaning, differences, significance, situation, stress, program.

Kirish. Hozirda dunyo bo'ylab migratsiyaning ko'lami yanada kengayib, misli ko'rilmagan miqyosdagi insonlar harakatlanishi, ya'ni ko'chib yurishi sodir bo'lmoqda. Migratsiya inson harakatchanligining o'ziga xos ko'rinishi bo'lsa-da, mamlakatdan mamlakatga qisqa muddatli ko'chish doimiy yoki uzoq muddatli yashash istagi bilan emas, balki faqat ish safari yoki turistik sayohat bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday harakatlar boshqa davlatga ishlash uchun tizimli (masalan, mavsumiy) ko'chish bilan bog'liq bo'lgan vaqtinchalik yoki mehnat migratsiyasini anglatadi. Mehnat migratsiyasining maqsadi chet elda ishlash natijasida olingan mablag'lardan foydalangan holda o'z mamlakatida moddiy farovonligini oshirishdan iborat. Albatta, moddiy farovonlik bevosita oilaviy baxt fenomenining tarkibiy qismi sifatida ham idrok etiladi. Moddiy farovonlikka erishish maqsadida oiladan uzoqda bo'lgan migrant ota-onalarning o'z farzandlari haqida qayg'urishlari, tabiiy hol. Bunda bolaning psixologik rivojlanishidagi disfunktsiyalarni o'rganish muhim hisoblanadi. Shu orqali migrant oila farzandlaridagi o'zgarishlarni erta aniqlash, prevensiyasini qilish bo'yicha chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mehnat migrantlari oilalarida tarbiyalanayotgan bolalarda qadriyatlar transformatsiyasi, ota-onasiz uzoq muddat yashash, migrant oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning psixologik rivojlanish xususiyatlari, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va diniy tomonlari mamalakatimiz olimlari qator olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot predmeti sifatida kompleks o'rganilgan.

Rus olimasi V.G.Alekseevaning fikriga ko'ra, "aholi migratsiyasi – bu fuqarolarning doimiy yashash yoki o'qish yoxud mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun hududda vaqtincha bo'lish joyini o'zgartirish maqsadida ham ichki, ham tashqi chegarani har qanday kesib o'tishi bilan bog'liq ham qanday ma'muriy-hududiy harakatidir [1].

Amerikalik tadqiqotchilar Jon F.Xellivel, Shun Vang, Xyu Shiplett xalqaro migratsiyani psixologik farovonlik va baxtga erishish nuqtai nazardan o'rganadilar [7].

L.A.Geydenrix [3] tadqiqotida migrant va migrant bo'lmagan oilalar farzandlari muloqotining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari maqomli-rolli parametrlari (o'qituvchilar, ota-onalar, sinfdoshlar) bilan farq qiluvchi o'zaro ta'sir holatlariga qarab o'zgarishi aniqlandi. Muloqotning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari migrant oilalar farzandlarida yuqori darajada muloqot vaziyatiga bog'liq ravishda o'zgarishi aniqlandi. Migrant oilalar farzandlarida muloqotning migrant bo'lmagan oilalar farzandlaridan ajratib turadigan eng yuqori ifodalangan xususiyati ularning o'qituvchilar, ota-onalar, sinfdoshlari bilan muloqotning etishmasligi, muloqot jarayonida etarli darajada ishtirok etmasligi bilan uyg'unlashgan holda ular bilan munosabatlaridan qoniqishining yuqori darajasi ekanligi ko'rsatilgan.

"Mehnat migratsiyasi migrantlarining o'zlariga bo'lganiday ularning Vatandagi qolgan oilalariga ham muayyan ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Xususan:

Bolalar mehnat migratsiyasida bo'lgan otasi yoki onasini doimiy ravishda qo'rsab yashaydi.

Ba'zida buvi-buvalar yoki qarindoshlar, hatto begonalar qaramog'ida qolgan bolalar hayot tarzining nazorati susayadi.

Ota-ona mehridan mahrum bo'lib yashayotgan bolalarning xulq-atvorida o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bu esa ularning kelgusi hayotiga ta'sir ko'rsatadi" [6].

Adabiyotlar tahlili ko'rsatdiki, yuqori sinf o'quvchilari, ya'ni o'smirlar boshqa yoshdagilarga solishtirganda eng yuqori darajadagi xavotir tuyg'usiga egalar, ular ko'pincha aybdorlik tuyg'usini his qiladilar, shu bilan bog'liq ravishda ularda frustratsiya kabi emotsional holat yuzaga keladi, biroq bunda ular salbiy emotsiyalardan ko'ra ko'proq quvonchni namoyon etishga moyildirlar [4].

O'smirlarning emotsional holati qator xususiyatlar bilan tavsilanadi emotsional zo'riqish va psixologik stressning oson yuzaga kelishi, kayfiyatning doimiy tarzda o'zgarib turishi, affektiv holatning tez-tz paydo bo'lishi, ular kuchli his-tuyg'ularga kuchli tarzda beriladilar, o'smir o'zini kechinmalarning tuganmas doirasiga qamab qo'yadigan shaxsiy emotsiyalariga yopishib oladi [5].


Chunki "klassik adabiyotlarda o'smirlik yoshi bolalik va ulg'ayish o'rtasidagi o'tish davri, inson bolalar olamidani kattalar olamiga o'tishi zarur bo'lgan o'ziga xos "ko'prik" sifatida ko'rib chiqilarkan" [2], bu paytda o'smirning rivojlanishida oilaning o'rni,

shubhasiz, yuqori. Shu nuqtai nazardan ham biz olib borgan tadqiqot dolzarflik kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot da subhat, kuzatish metodlaridan, shuningdek, E.Eydemiller, V.Yustitskislarining «Oilaviy xavotir tahlili» so'rovnomasini.

Tahlil va natijalar. Biz "Mehnat migrantlari oilalarida voyaga etayotgan farzandlarning psixologik rivojlanish xususiyatlari" mavzusidagi tadqiqotimiz doirasida E.G.Eydemiller va V.Yustitskisning "Oilaviy xavotirni tahlil qilish" so'rovnomasidan foydalandik. Tadqiqotimizda respublikaning Navoiy, Samarqand va Farg'ona viloyatlaridan 762 nafar sinaluvchi ishtirok etdi.

Oilaviy xavotir tahlili metodikasining o'rtacha qiymatlari solishtirilganda oilaviy aybdorlik hissi (2,57), oilaviy hayotda xavotir hissi (2,47) hamda oilaviy hayotda asabiy tajanglik (3,07) ko'rsatkichlaridan oilaviy hayotda asabiy tajanglik o'smirlarda baland bo'lishi aniqlandi. Oilaviy hayotdagi asabiylikni doim ota yoki onadan ko'r narsa talab qilish, ularni o'zidagi muvaffaqiyatsizliklarning aybdori sifatida qarash hamda doim norozilikni yig'i, achchiqlanish hamda agressiya ko'rinishida aks ettirish bilan tushuntirish mumkin. Oilaviy hayotda aybdorlik hissi ham migrant oila farzandlarida baland bo'lib, ular ota-onasining migratsiya motivi sifatida o'zining shaxs sifatidagi mavjudligi, oilaviy beqarorlik motivatsiyasi o'smir ekanligi kabi g'oyalar og'ushida o'zida aybdorlik hissinii tuyishi bilan izohlash mumkin.



1-rasm. Oilaviy xavotir tahlili metodikasining o'rtacha qiymatlari

Oilaviy xavotir tahlili testining normal taqsimlanish qonuniga mosligi tekshirilganda Oilaviy hayotda aybdorlik hissi shkalasi bo'yicha (Z=2,355; r<0,01), Oilaviy hayotda xavotir hissi shkalasi 1-jadval.

"Oilaviy xavotir tahlili" metodikasi shkalalarining normal taqsimlanish qonuniga mosligini tekshirish natijalari Kolmogorov-Smirnov Z mezonini bo'yicha, (n=762)

Shkalalar	O'rtacha	St.og'ish	Z	r
Oilaviy hayotda aybdorlik hissi	2,57	2,05	2,355	0,000**
Oilaviy hayotda xavotir hissi	2,47	2,14	2,725	0,000**
Oilaviy hayotda asabiy tajanglik	3,07	2,14	1,990	0,001**

Izoh: ** - r<0,01

Mazkur mezon bo'yicha natijalar tahlil qilinganida oilaviy hayotdan xavotir hissi baland ko'rsatkich qayd etib, migrant oila farzandlarida oilaning ertangi kunidan, ota-onasining ahvolidan, sog'ligidan hamda moddiy ta'minlanganlikning dinamik sur'atda kechish yoki kechmasligidan xavotirlanish vaziyatli hamda shaxsiy xavotir o'chog'ining alanga olishiga olib kelishi mumkin ekan.

2-jadval.

«Oilaviy xavotir tahlili» metodikasi ko'rsatkichining korreksiyadan keyin o'zgarishi (Wilkokson mezonini bo'yicha (n=50))


Ko'rsatkichlar	Treningdan keuingi ko'rsatkichlar o'zgarishi			W(z)	r
	Pasaygan	Oshgan	O'zgarmagan		
Oilaviy hayotda aybdorlik hissi	40	8	2	-4,561	0,000**
Oilaviy hayotda xavotir hissi	46	4	0	-6,125	0,000**
Oilaviy hayotda asabiy tajanglik	49	1	0	-6,157	0,000**

Izoh: ** - r<0,01

«Oilaviy xavotir» bir yoki bir nechta oila a'zolarining tashvish holatini anglatadi, ushbu holat ko'pincha tushunarsizdek tuyuladi. Ushbu turdagi xavotirlarning o'ziga xos belgisi, birinchi navbatda, oilaga – uning a'zolarining sog'lig'iga, ularning yo'qligi va kech qaytib kelishiga, janjal va nizolarga nisbatan shubhalar,

Oilaviy xavotir tahlili metodikasining korreksion dasturlar ketma-ketligi asosida bajarilgan tizimli mashg'ulotlardan so'ng tahlili amalga oshirilganida oilaviy hayotda aybdorlik hissi shkalasida (W(z)=-4,561; r<0,01), oilaviy hayotda xavotir hissi shkalasida (W(z)=-6,125; r<0,01) hamda oilaviy hayotda asabiy taranglik shkalasida (W(z)=-6,157; r<0,01) natijalar qayd etildi.

qo'rquvlar, tashvishlarning mavjudligi bilan belgilanadi. Bunday xavotir odatda oilaviy bo'lmagan sohalarga – ishlab chiqarish faoliyati, oila, qo'shnichilik munosabatlari va boshqalarga taalluqli emas.



2-rasm. «Oilaviy xavotir tahlili» metodikasi ko'rsatkichining korreksion ishlardan keyingi natijalari

Oilaviy xavotirning asosi insonning oilaviy hayotining juda muhim jihatida noto'g'ri tushunilgan noaniqlikdir. Bu boshqa turmush o'rtog'ining his-tuyg'ulariga, o'zingizga nisbatan noaniqlik bo'lishi mumkin. Ko'pincha o'zi haqidagi g'oyalarga zid bo'lgan bunday tajribalar bostiriladi, ular oilaviy munosabatlarda tashvish shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Oilaviy xavotirning muhim tarkibiy qismlari, shuningdek, nochorlik hissi va oiladagi voqealar jarayoniga aralasha olmaslik; uni to'g'ri yo'nalishga yo'naltirish. Oila bilan bog'liq xavotirlarga duchor bo'lgan odam, u qanday pozitsiyani egallashidan va qanchalik faol rol o'ynashidan qat'i nazar, o'zini oilaning muhim a'zosi sifatida his qilmaydi. Migrant oila farzandlarida ham xuddi yuqorigidagidek bo'lib, korreksion ishlar ta'siri ostida oilaviy xavotiri eng yuqori bo'lgan 50 ta sinalluvchida tizimli psixologik dastur asosida mashg'ulotlar olib borildi. Natijada barcha ko'rsatkichlarda pasayish sezildi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, migrant oila farzandlaridagi shubhalanishning ortishi bilan oilada aybdorlik hissi

ADABIYOTLAR

1. Алексеева В.Г. Ценностные ориентации как фактор жизнедеятельности и развития личности. // Ж.: Психологический журнал, 1984. Т. 5. № 5. С. 63-70.
2. Бочавер А.А., Жилинская А.В., Хломов К.Д. Перспективы современных подростков в контексте жизненной траектории. // Электронный журнал «Современная зарубежная психология», 2016. Том 5. № 2. С. 31-38.
3. Гейденрих Л.А. Социально-психологические особенности общения детей из семей мигрантов и немигрантов с учителями, одноклассниками, родителями. // Автореф. дисс. канд. психол. наук. – Ростов-на-Дону, 2009.
4. Ильин Е.П. Эмоции и чувства. // Серия «Мастера психологии»). – СПб: Питер, 2001. 752 с.
5. Казанская В.Г. Подросток. Трудности взросления. – СПб.: Питер, 2006.
6. Madjidova D., Yaxnyaeva M. Mehnat migrantlari oilalarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalalari // Jurnal: "Bola va zamon", 2021 yil 1-son. 44-46-b.
7. Helliwell J.F., Huang H., Wang Sh., Shiplett H. International Migration and World Happiness. // Eds J.F.Helliwell, R.Layard, J.D. Sachs. WorldHappiness Report. Chapter 2. United Nations SDSN, P. 12-43. // (murojaat sanasi: 28.10.2023).



Ravshonbek SAUROV,
Toshkent xalqaro universiteti katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: ravshonbek.saurov@gmail.com

F.f.n., dotsent U.Doschanova taqrizi asosida

FRANSUZ FAYLASUFLARINING HOKIMIYATNING BO'LINISHI PRINSIPI TO'G'IRISIDAGI FIKR-MULOHAZALARI

Annotatsiya

Fransuz falsafiy-kratologik va siyosiy-huquqiy tajribalarini tahlil qilar ekanmiz hokimiyatning bo'linish prinsipi mazkur davlat tarixida muhim ahamiyat kasb etganining guvohi bo'lamiz. Fransuz revolyutsiyasi hamda fransuz ma'rifatparvarlari, faylasuflari va gumanistlarining g'oyalari ushbu jarayonga bevosita va bilvosita ta'sir qilgan. Mazkur maqolada davlat hokimiyati bo'linishi prinsipi haqidagi fransuz faylasuflarining falsafiy-kratologik qarashlari tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: Fransuz revolyutsiyasi, absolyutizm, senat, konsul, erkin davlat g'oyasi.

МНЕНИЯ ФРАНЦУЗСКИХ ФИЛОСОФОВ О ПРИНЦИПЕ РАЗДЕЛЕНИЯ ВЛАСТЕЙ

Аннотация

Анализируя французский философско-кратологический и политико-правовой опыт, мы можем засвидетельствовать, что принцип разделения властей стал важным в истории этой страны. Французская революция и идеи французских интеллектуалов, философов и гуманистов прямо и косвенно повлияли на этот процесс. В данной статье рассматриваются философско-кратологические взгляды французских философов на принцип разделения государственной власти.

Ключевые слова: Французская революция, абсолютизм, сенат, konsul, идея свободного государства.

OPINIONS OF FRENCH PHILOSOPHERS ON THE PRINCIPLE OF SEPARATION OF POWERS

Annotation

Analyzing the French philosophical-cratological and political-legal experiences, we can witness that the principle of separation of powers has become important in the history of this country. The French Revolution and the ideas of French intellectuals, philosophers and humanists directly and indirectly influenced this process. This article examines the philosophical and cratological views of French philosophers about the principle of separation of state power.

Key words: French revolution, absolutism, senate, konsul, idea of a free state.

Kirish. Ma'rifatparvarlik davrigacha suveren (knyaz, monarx) davlat ishlarini yakka o'zi olib borgan. Bu esa ko'pincha despotik boshqarishni yuzaga keltirgan. XVII asrda mehnat taqsimotining obyektiv zaruratga aylanishi, differentsiatsiya davlat ishlarida ham shunday bo'linishni taqozo eta boshladi. J.Lokk va Sh.Monteskyoning davlat hokimiyatining bo'linishi borasidagi falsafiy-kratologik doktrinasi ana shu ijtimoiy obyektiv zarurat ifodasi edi.

Monteskyoning hokimiyatning bo'linish haqida falsafiy-kratologik nazariyasi ma'rifatparvarlarda turlicha fikrlarni uyg'otgan. Masalan, F.M.A.Volter absolyutizm tarafdori sifatida Monteskyo qarashlarini rad etgan. Uning fikricha, hokimiyatning ulug'vorligi va davlatning zaiflashiga sabab bo'ladi, bu esa jamiyatda boshboshdoqlikni, xaosni, fuqarolar urushini keltirib chiqaradi. Xalq ommasi isyon ko'tarishga moyil, hokimiyatning bo'linishi esa uning axloqini buzilishiga olib kelishi mumkin [1].

Fransuz ma'rifatparlari ichida falsafiy-kratologik qarashlari bilan Sh.Monteskyo alohida o'rin tutadi. Uning "erkin davlat" mohiyatan esa ijtimoiy davlat haqidagi falsafiy-kratologik va ijtimoiy-siyosiy qarashlari "Sulla va Evkrat", "Rimliklarning ulug'vorligi va tushkunligi sabablari to'g'risida mulohazalar", Insonning vazifalari haqida umumiy mulohazalar, "G'oyalar tizimi haqida mulohazalar", "Qonunlar ruhi haqida" kabi asarlarida o'z ifodasini topadi. Faylasuf ilgari surgan "erkin davlat" g'oyasi biz bugun ishlatayotgan ijtimoiy davlatga yaqin turadi, shuning uchun ushbu faylasuf qarashlari va asarlari haqida kengroq to'xtalish zarur.

Monteskyo vakillik demokratiyasi va hokimiyatning bo'linishi g'oyasini ilgari surib, g'arb liberalizmiga asos solgan falasuf hisoblanadi. U davlatning kelib chiqishi va boshqarishini ma'lum bir tarixiy shart-sharoitlar bilan bog'laydi. Tabiiatda, borliqda barcha narsalar o'z qonunlariga, tartiblariga ega. Kishilar tomonidan yaratilgan davlat va uni boshqarish esa ana shu tartiblar, qonunlarning eng yuksagidir. Jamiyat tarixida uchraydigan respublika, monarxiya va despotiya boshqarish shakllari mavjud. Bu davlat shakllarining ichki xususiyatlari, immanent belgilari ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning mahsuli bo'lib, ularga kishilarning o'zlari o'zgartirish kiritadilar yoki o'z mayl, istak va manfaatlariga muvofiq keladigan boshqarish mexanizmlarini yaratadilar. Demak, davlat va hokimiyat ma'lum bir ijtimoiy-tarixiy jarayonlar mahsulidir, ularni xudo yaratgan emas,

hokimiyatni ham monarxga, hukmdorga, absolyutga xudo bergan emas.

Adabiyotlar tahlili. Mishel Montening uch jildli "Tajribalar" asari, muallifning ta'kidlashicha, zamondoshlari, ayniqsa "e'tiborli dvoryanin" uchun "kundalik, siyosiy, harbiy ishlarda qo'llanma" sifatida yozilgan [3]. Asarda yunon rim madaniyati va ma'naviy merosining yadrosi bo'lgan antropotsentizmga tayaniladi. Fransuz ma'rifatparvarlarining gumanistik qarashlarida asosiy leytmotiv bo'lgan mazkur g'oya Yevropa falsafasiga, siyosiy qarashlariga, davlat va jamiyatni boshqarish prinsiplarining shakllanishiga ta'sir etadi. Gumanizm konstitutsionalizm va demokratizmga asos qilib olinadi. Shuning uchun Monten falsafasi haqida gapirganda uning davlatchilikka bevosita taalluqli yoki taalluqli emasligidan emas, balki inson va jamiyat o'rtasidagi aloqalarga oid fikrlari mohiyatidan kelib chiqish zarur. Faylasuf fikriga ko'ra, inson "mudom va azaldan ikkilanuvchan mavjudot. U haqda barqaror va yakdil biror fikr aytish oson emas" [3]. Agar ushbu fundamental ahamiyatga ega fikrni insonning ijtimoiy-siyosiy va davlatchilikka oid izlanishlariga tatbiq etsak, haqiqatan ham, biror davrda, davlatda barqaror kratologik paradigma bo'lmaganini ko'ramiz. Ijtimoiy-siyosiy tuzum bilan birga davlatchilik ham tinmay o'zgarishda, davlat boshqaruvi mudom yangilanib, hatto bemaqsad o'zgartirilib turganini ko'ramiz. Insondagi tuzuvchi va buzg'unchi kuchlar uni va jamiyatni fluktatsion o'zgarishlarga undab kelgan. Beoromlik insonga va jamiyatga xos immanent xislat bo'lib qolgan. Chunki, M.Monten yozganidek, inson va jamiyat o'rtasidagi aloqalar alohida boshqaruv, ya'ni davlat boshqaruvi, mexanizmlarini va, ularning ikkalasidan ham ayri-ayri turuvchi kratologik vositalarni taqozo etadi. Monten konstitutsionalizm haqida hech nima demaydi, biroq uning qonunlar ta'sir kuchi va vazifalari haqidagi qarashlari e'tiborlidir.

Natijalar va muhokama. Blez Paskal falsafasida ham davlat va jamiyatning inson oldidagi burchlari, ularning dialektik aloqalari haqida turli fikrlar uchraydi. Biroq faylasufning aniq bir falsafiy-kratologik yoki ijtimoiy-siyosiy konsepsiyasi yo'q, uchramaydi. Ha, ba'zan u jamiyat yoki davlat shakllantirgan ijtimoiy muhit shaxs ahvoriga, tasavvurlari va kechinmalariga ta'sir etishini qayd etadi. "Inson o'zining ayanchli ahvolini anglashi bilan ulug'vordir, deb yozadi u. Zero, muhtojlik o'zining mushkul ahvolini anglash

demakdir. Bunday anglash ulug'vorlik belgisidir" [6]. Demak, inson o'z ahvolini anglashi mumkin. og'ir turmushning boisini izlash orqali u turmushini yaxshilash choralarini topishi mumkin. Fikrlar insonni yuksaltiradi, uning o'z kelajagi haqida o'ylashga undaydi. "Bizning bor yo'q fazilatlarimiz fikrlarimizda mujassamdir. Shu bois biz fazo va vaqt bilan emas, balki fikrlarimiz bilan yuksalmog'imiz lozim. Zotan, biz hech qachon fazo va vaqtni to'ldirolmaymiz. Jo'yali fikrlash axloqiylik ibtidosidir" [6]. Ko'rinib turibdiki, Paskal yon atrofni anglash va o'zgartirishni insonga, uning aql-u idrokiga yuklaydi. Insonning fikrlash qobiliyatiga ishonish B.Paskalni gumanist qiladi.

Volter Platonning falsafiy-kratologik qarashlariga ergashgan. U Platon kabi davlatni, hokimiyatni faylasuf hukmdor boshqarishi zarur, deb biladi. "Monarx qonun chiqaruvchi, yaratuvchi va jangchi" faylasuf nazarda tutgan ideal hukmdor [1]. Faylasuf yo hukmdor bo'lishi kerak, yoki hukmdor faylasufga quloq tutishi, uning davlat boshqaruvi va hokimiyatni mustahkamlashga oid qarashlariga ergashishi lozim. Ma'rifatli shoh yoki monarx boshqa faylasuflarda ham uchraydi. Monteskyo ham, Volter ham davlatni, hokimiyatni boshqarishda qonunning o'rniga katta ahamiyat berishgan, shu nuqtai nazardan ularning falsafiy-kratologik qarashlari yaqin va umumiy siyosiy-huquqiy mohiyatga egadir.

Monteskyo va Volterning falsafiy-kratologik va siyosiy-huquqiy qarashlari D.Didro ijodida davom ettirildi. Uning "Ensiklopediyasi"dagi ko'pgina fikrlar Monteskyo falsafasiga monandir. U ham, Monteskyo kabi, xalq hokimiyatchiligini, demokratik boshqarishga moyillik bildirgan tarzda, konstitutsiyaviy monarxiyani qo'llab-quvvatlaydi. Uning falsafiy-kratologik va siyosiy-huquqiy g'oyalari nafaqat Yevropaga, shuningdek, Rossiyaga ham tarqaladi. Manbalarda keltirilishicha, Rossiya imperatori Yekaterina II uni Rossiyaga taklif etgan, u bilan har kuni davlat boshqaruvi, ijtimoiy-siyosiy muammolar haqida suhbatlar olib borgan. U imperatorga "konstitutsiyaviy monarxiya boshqaruvi (Angliya kabi), uni xalq tomonidan saylangan kishilar boshqarishi, krepostnoylikni bekor qilish, yerga egalik qilishning feodal xo'jaligidan voz kechib, fermerlikni tashkil etish, fuqarolar huquqini tenglashtirish, iqtisodiyotni erkin bozor asosida tashkil etish, ta'limda chuqur islohotlar o'tkazish, tabiiy ilmiy fanlarni yuqori darajaga olib chiqish kabi takliflarni bergan" [5]. Bu masalalar u yoki bu tarzda faylasufning asarlarida o'z ifodasini topgan. Uning fikricha, "jamiyatda insonlar faoliyatini bo'g'ib qo'ymaslik, demokratiya, tenglik jamiyatini qurish lozim. Xalqni cheksiz soliqlar solib qiynashga yo'l qo'ymaslik, barcha kishilar qonun oldida barbar bo'lishlari kerak" [5].

Didro, barcha fransuz ma'rifatparvarlari kabi, "ijtimoiy shartnoma" tarafdori edi. Demak, uning falsafiy-kratologik ta'limoti davlatning ma'lum bir ijtimoiy-tarixiy jarayonlarda yuzaga kelganini tan oladi. Uning ateistik qarashlari ushbu yondashuvga hamohangdir. Didro konstitutsionalizm to'g'risida aniq bir fikrni aytmasa ham, uning adolat, tenglik va qonun ustuvorligi, demokratik boshqarish,

ma'rifatli hukmdor haqidagi qarashlarida mavzumizga oid jihatlar mavjud. Didroning "demokratik monarxiya" hokimiyat shakli haqidagi fikrlari ratsional utilitar xususiyatga ega bo'lib, davlat boshqarishida kimdir (monarx, hukmdor, shoh) mas'ul bo'lishini anglatadi. Ushbu mas'ullikni qonunlar va tartiblar bilan chegaralash, belgilab berish, natijada absolyutizm yoki deespotizmga imkon qolmaydi. Konstitutsion monarxiya hukmdorning o'z zimmasiga olgan vazifasi oldida mas'ulligini oshiradi. Har holda, fransuz ma'rifatparvarlari shunday falsafiy-kratologik va siyosiy-huquqiy qarash tarafdorlari edilar.

Fransuz ma'rifatparlari ichida K. A.Gelvesiy va P.A.Golbaxning alohida o'rnini bor. Ular tafakkur tarixida materialistik qarashlari bilan hanuzgacha bahs, munozaralar uyg'otib kelayotgan faylasuflardir. Ular "tabiiy holat"ni rad etib, inson aql-u idroki bilan jamiyatdagi munosabatlarni, boshqarish usullarini, hokimiyatga oid voqeliklarni yaratgan, degan falsafiy fundamental qarashni ilgari surganlar. Faylasuflar nazariya hokimiyatning haddan tashqari ko'pligi tiraniyaga, erkinlikning behad ko'pligi esa tartibsizlikka, davlat boshqaruvida esa hokimiyatni suiiste'mol qilishga olib keladi. Shu tarzda, hokimiyatning bir qo'lda yig'ilib qolishi xavfli, bo'lingan hokimiyat esa zaifdir. Gelvesiy zamondoshi Monteskyoning hokimiyatni bo'linishi prinsipiga qarshi chiqadi. Bunday bo'linish hokimiyatning zaiflashuviga olib keladi, zaif davlat esa xalq ommasini boshqarolmaydi. Hokimiyat kuchli bo'lishi, o'z qo'lida boshqarishning barcha samarali vositalari va usullarini ushlab turishi zarur. U Monteskyoning behuda ingliz modeliga ergashgani ko'rsatadi. Shunday bo'lsa-da, Didro, Gelvesiy va Golbax, xuddi Monteskyo kabi, konstitutsiyaviy parlamentli monarxiya tarafdorlari sifatida fikr yuritganlar [4].

Xulosa. Monteskyoning hokimiyatni bo'linishiga oid falsafiy-kratologik nazariyasini keskin va beshafqat tanqid qilgan J.J.Russo bo'ldi. Uning "ijtimoiy shartnoma" nazariyasi radikal demokratizm va respublikachilik ruhi bilan sug'orilgan. U o'zidan oldingi J.Lokk va T.Gobbsning falsafiy-kratologik qarashlariga tayanib, ularni sintezlashtirib, "xalq suvereniteti" yoki "xalq absolyutizmi" kabi tushunchalarni iste'molga kiritdi. U xalq demokratiyasini davlat hokimiyatini boshqarishdagi ideal usul deb bildi. Boshqarishni xalq irodasi va suvereniteti bilan bog'lab, davlat suvereniteti xalq irodasini ifoda etadi. Bu huquq boshqalarga berilmaydi, aks holda hokimiyatni boshqarishda jamiyat hayotiga zid hollar yuzaga keladi va bu ijtimoiy shartnomani buzadi, deb talqin qildi. J.J.Russo Monteskyoni hokimiyat bo'linishi orqali eski feodal boshqarish usullarini asrab qolishga, shu tariqa davlat ichidagi aloqalarni yo'q qilishga, jamiyatda va boshqarishda anarxiyani keltirib chiqarishga intilishda aybladi. Ammo tarix Monteskyoning haqligini, u tufayli Yevropada, umuman dunyoda, liberal qarashlar tarqalganini isbotladi. XIX asr Fransiyada liberal demokratik g'oyalari, konstitutsional demokratizm prinsipi qaror topdi, XX asrda esa ushbu prinsip inson huquq va erkinliklari bilan uyg'unlashib, yangi siyosiy-ijtimoiy voqelikni, falsafiy-kratologik paradigmani shakllantirdi.

ADABIYOTLAR

1. Вольтер Ф.М.А. Собрание сочинения. – Москва: Сигма Пресс, Том 2. 1998.
2. Кузнецов В.Н. Вольтер и философия французского просвещения XV111 века. — Москва: Изд. Моск. ун-та, 1965.
3. Ментень М.Э.де. Опытты. Избранные главы. — Москва: Изд. "Правда", 1991.
4. Милованов К.Ю. Философский проект "свободного государства" Монтескье и его критика современниками // "Проблемы современного образования", 2016, № 5.
5. Тўхлиев О. Европа фалсафаси. — Тошкент: Тафаккур, 2016.
6. Ҳақиқат манзаралари. 99 мумтоз файласуф. — Тошкент: Янги аср алоди, 2007.



Mastura SIDIKOVA,
"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti dotsenti, PhD
E-mail: mastura.sidikova@univ-silkroad.uz

JTSBMQTMOI Samarqand filiali dotsenti A.Abdumannotov taqrizi asosida

IMOM ABU MANSUR MOTRUDIYNING ILMYI-MA'NAVYI MEROSI VA UNING ISLOM TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI
Annotasiya

Mazkur maqola Imom Abu Mansur Motrudiy va uning ilmiy-ma'naviy merosi haqida batafsil ma'lumot beradi. Bizga ma'lumki, Imom Motrudiy islom tamadduni rivojida muhim o'rin tutgan ulug' mutafakkir va faqih sifatida tanilgan yetuk ulamodir. Motrudiyning asarlari, xususan, aqida, tafsir va fiqh sohalaridagi yutuqlari islomiy ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shgan. Ushbu maqolada Imom Motrudiy falsafasi va uning musulmon ummatining dunyoqarashi, ijtimoiy hayoti hamda diniy amaliyotlarida aks etgan ta'siri chuqur tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Imom Abu Mansur Motrudiy, Diniy-ma'rifiy soha, ma'naviy qadriyatlar, ma'naviy meros, "Kitobut tavhid", "Ta'vilotul Qur'on", Moturidiya ta'limoti, Aql va naql (vahiy) muvozanati, aqidaviy masalalar.

**НАУЧНОЕ И ДУХОВНОЕ ИМАМА АБУ МАНСУРА МОТРУДИ НАСЛЕДИЕ И ЕГО МЕСТО В ИСЛАМСКОЙ
ЦИВИЛИЗАЦИИ**

Аннотация

В данной статье представлена подробная информация об Имаме Абу Мансуре Мотруди и его научном и духовном наследии. Мы знаем, что Имам Мотруди – великий учёный, известный как великий мыслитель и правовед, сыгравший важную роль в развитии исламской цивилизации. Труды Мотруди, особенно его достижения в области акиды, тафсира и фикха, внесли большой вклад в развитие исламской науки. В данной статье глубоко анализируется философия имама Мотруди и ее влияние, отраженное в мировоззрении, общественной жизни и религиозных практиках мусульманского сообщества.

Ключевые слова: Имам Абу Мансур Мотруди, Религиозно-просветительская сфера, духовные ценности, духовное наследие, «Китабут Таухид», «Тавилатул Коран», учение Мотуридийа, Разум и повествование (баланс откровения, идеологические проблемы).

SCIENTIFIC AND SPIRITUAL OF IMAM ABU MANSUR MOTRUDI HERITAGE AND ITS PLACE IN ISLAMIC CIVILIZATION
Annotation

This article provides detailed information about Imam Abu Mansur Motrudiy and his scientific and spiritual heritage. As we know, Imam Motrudiy is an accomplished scholar who is known as a great thinker and jurist who played an important role in the development of Islamic civilization. Motrudiy's works, especially his achievements in the fields of aqeedah, tafsir and fiqh, made a great contribution to the development of Islamic science. In this article, the philosophy of Imam Motrudiy and its influence reflected in the worldview, social life and religious practices of the Muslim community are analyzed in depth.

Key words: Imam Abu Mansur Motrudiy, Religious-educational sphere, spiritual values, spiritual heritage, "Kitabut Tawheed", "Ta'vilatul Qur'an", teaching of Moturidiyya, Aql va naql (revelation) balance, ideological issues.

Kirish. O'zbekiston – dunyo sivilizatsiyasi va islom ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan ulug' allomalar, aziz-avliyolar yurti. Ushbu haqiqatni keyingi yillarda ajdodlarimizning bebaho merosini ilmiy asosda chuqur o'rganish, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va yanada rivojlantirish, yuksak insoniy g'oyalari va muqaddas qadriyatlarimizni o'zida ifoda etgan manbalarni tizimli asosda tadqiq etish, ulardan diniy ta'lim, ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarida samarali foydalanish, darslik va o'quv qo'llanmalar, ommabop nashrlar, ilmiy-amaliy tavsiyalar tayyorlash yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarda ham ko'rish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tashabbusi bilan 2018-yil 16-aprelda qabul qilingan "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-5416-sonli farmonning qabul qilinishi yurtimiz tarixi uchun zaruriyat bo'lgan milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm - fan va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan allomalarimiz va ulamolarimizning bebaho merosini o'rganish, shu asosida O'zbekistonning taraqqiyoti rivojida bugungi yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash, shuningdek, jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlashkabi jarayonlar muhim ustuvor masala hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur jarayonga vatanimizdan yetishib chiqqan mutakallim olimlarning bir necha avlodi o'zlarining beqiyos hissalarini qo'shganligi bilan yanada ahamiyatlidir. Ularning yirik safida, shubhasiz alohida o'ringa ega bo'lgan vatandoshimiz Abu Mansur Moturidiy roli kattadir: "Samarqandda yashab ijod etgan mutakallim olim muayyan shahar tabaqalari, ulamolar guruhlari orasida o'z faoliyatini olib bordi. U ishlab chiqqan moturidiya ta'limoti shahar aholisining o'rta tabaqalari manfaatlari bilan bog'liqdir. Mazkur ta'limot shu davrdan boshlab uzoq vaqtgacha Movarounnahr ma'naviyatining asosiy tamoyillarini belgilab keldi. U zot asos solgan moturidiya maktabi Sharq mamlakatlarida bunday katta shuhrat topishining sababi shundaki, unda ilgari surilgan g'oyalari islom dinimizning asosini to'g'rilik, ezgulik va insoniylikdan

iborat deb biladigan jamiki mo'min-musulmonlarning qarash va intilishlari bilan hamohangdir[1].

Hazrati Navoiyning 901 (1495-96) yillarda yozilgan "Nasoyim ul – muhabbat min shamoyim ul - futuvvat" (Ulug'lik xushbo'yliklarini taratuvchi sevgi shabbodalari) nomli tazkira asarida Motrudiy nisbatiga quydagicha baho beradi: "Ummatim (Motrudiy) ulamosi bani Isroil payg'ambarlaridek va yana ulamolar payg'ambarlar vorisidir" [2]. Bizga ma'lumki, "Nasoyim ul – muhabbat" asari Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq, Hindiston kabi hududlarda yashab ijod etgan va faoliyat ko'rsatgan 770 avliyolar haqida ma'lumot beruvchi tazkiradir. Ushbu tazkirada Abu Mansur Motrudiy nomini zikr etilishi, avliyo darajasiga yetgan ulug' zot ekanligidan dalolat beruvchi qimmatli manba hisoblanadi.

O'zbekistonda Moturidiy merosini o'rganishga bo'lgan harakat mustaqillikdan keyin keng tarzda amalga oshirila boshladi. Kalom ilmining asoschilaridan biri, hadis va fiqh, olamining ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan yirik alloma, buyuk vatandoshimiz Abu Mansur al-Moturidiy ilmiy-diniy merosining xalqimiz ma'naviy-ruhiy hayotidagi beqiyos o'rni va mamlakatimiz keng jamoatchiligi takliflarini hisobga olib hamda ushbu merosni avaylab asrash, qadrlash va jamiyatning barkamol kishilarini tarbiyalashda undan oqilona foydalanishga shart-sharoit yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 dekabr, 517 – son qaror qiladi. Ushbu qarorga muvofiq 2000-yilda Moturidiy tavalludining 1130-yilligi O'zbekistonda keng nishonlandi, Samarqandda alloma xotirasiga yodgorlik majmui bunyod etildi. Toshkent va Samarqandda Moturidiy ta'limoti va uning islom olamida tutgan mavqeiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjumanlar o'tkazilib, Moturidiy hayotining turli qirralarini yorituvchi maqolalar, risolalar va tadqiqotlar chop etiladi. Shuningdek, Moturidiy merosini o'rgangan xorijlik olimlar bilan samarali hamkorlik aloqalari o'rnatilib, 2001-yilda Germaniyaning Gottingen universitetining professori Rudolf Ulrich qalamiga mansub "Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik

ilohiyoti" kitobi o'zbek tilida nashr etiladi. 2002-yilda mazkur kitob keng ommaga ma'lum qilinib, oliy o'quv yurtlarining talabalari va o'rta maxsus o'quvchilari e'tiboriga Motrudiy ilmiy merosidan xabardor bo'lish uchun havola qilinadi. Rudolf Ulrichning ushbu asarida Motrudiyning yuqorida sanab o'tilgan asarlari haqida umuman ma'lumot berilmagan. Ammo Motrudiyning "Ta'viloti ahl as - sunna", "Kitab at - tavidh" asarlarini teologiya nuqtai nazaridagi asarlar sarasiga kirishini qayd etgan[3].

Imom Abu Mansur Motrudiy (853-944) islom olamining mashhur mutakallimlaridan (kalom ilmida bilimdon olim) biri bo'lib, u o'zining ilmiy va ma'naviy merosi bilan islom tamadduniga katta hissa qo'shgan. U hanafiy mazhabi tarafdori bo'lgan va hanafiylik asosida islom aqidaviy masalalarini tushuntirib, musulmonlar o'rtasida diniy birlik va aqidaviy yaxlitlikka erishishni maqsad qilgan. Shu masalada, "ul zot asos solgan moturidiya maktabi Sharq mamlakatlaridabunday katta shuhrat topishining sababi shundaki, unda ilgari surilgan g'oyalari islom dinimizning asosini to'g'ri, ezigulik va insoniylikdan iborat deb biladigan jamiki mo'min-musulmonlarning qarash va intilishlari bilan hamohang edi [4], - deya bejizga nisbat berib o'tilmagandir.

Motrudiy haqida mualliflardan biri Faxriddin Muhammadiyevning ma'lumot berishicha, asl ism sharifi Abu Mansur Muhammad ubn Muhammad ibn Mahmud al - Hanafiy al - Motrudiy as - Samarqandiy bo'lgan, Imom abu Mansur Motrudiy haqida yozgan tarixchilar uning tabarruk nomini xilma - xil yuksak va sharaflil laqablar bilan bezab zikr qilganlarki, ehtimol butun musulmon olamidani chiqqan allomalardan birortasiga ham shu tarzidagi fazilatli laqablar nasib etmagan bo'lsa kerak, deydi. Taniqli muarrif al - Kafaviy va boshqa qator bir qator mualliflarning bergan ma'lumotlariga ko'ra imom al - Motrudiy o'z zamonasidayoq "Imom al xudo" ("Rushudi hidoyatga boshlovchi imom"), "Quvat ahl as - sunna" ("Sunna va hidoyat ahliga ibrat zot"), "Rofi' a'lom as sunna va - l jamoa" ("Ahl sunna val jamoaning bayrog'ini baland ko'taruvchisi"), "Qoli' azoliyo'l al - fitna va - l - bid'at" ("Xurofat va bid'atga botgan uydirmalarni ildizi bilan qo'poruvchisi"), "Imom al - mutakkalimiyin" ("Barcha mutakkalimlarning imomi"), "Musahhah aqid al - muslimiyin" ("Barcha musulmonlar aqidalarining tuzatuvchisi"), ash - Shayx al - Imom kabi bir qator yuksak laqablarga sazovor bo'lgan bo'lgan buyuk alloma hisoblanadi[5,4]. Imom Motrudiy islomiy ilmdagi buyuk olimlardan biri bo'lib, u aqidaviy masalalarda asos solgan Motrudiylik maktabining yetakchi arbobi sifatida tanilgan. U ilmiy chuqurlik, fikriy aniqlik va adolatli nuqtai nazar bilan ajralib turar edi. Manbalarning guvohlik berishicha, Imom Buxoriy vafot etgan yili, ya'ni milodiy 870 yili tariximizdagi yana bir mumtoz siymo Imom Motrudiy tavallud topgan ekan. Bu voqea zamirida shaxsan menga ilohiy bir bog'liqlik, Oллоhning buyuk marhamati bordek, bamisoli Imom Buxoriyning nurli qalamini Imom Motrudiy olib, ul zotning xayrli ishlarini davom ettirishga bel bog'lagandek tuyuladi. Imom Motrudiy bobomizning o'rta asrlardagi g'oyat xatarli va tahlikali bir vaziyatda o'z hayotini xavf ostiga qo'yib, avlodlarga ibrat bo'ladigan ma'naviy jasorat namunasini ko'rsatib, islom olamida "Musulmonlarning e'tiqodini tuzatuvchi" degan yuksak sharafga sazovor bo'lgani bu nodir shaxsning ulkan aql-zakovati va matonatidan dalolat beradi [6].

Imom Motrudiyning islom olamida eng mashhur asari "Kitab Tavidh" - asaridir. Bu asar bizning davrimizga yetib kelgan sara asarlaridan biri bo'lib, 1970 yilda Fathulloh Xulif tomonidan Bayrutda nashr etilgan. Asarda islom dinidagi sunniylarning to'rtta asosiy mazhabi mukammal o'rganilib, kengroq asoslab o'tilganligi bilan yanada ahamiyatlidir. Shuningdek, "Tavidh" asarida Oллоhning yakkayu yagonaligi, Oллоh bir ekanligi qat'iy va uzul - kesil hal etilgan. Qur'onning "Ixlos" surasi tavidh kalimasi sifatida atalib, bu orqali shariat bir, tariqat bir, ma'rifat bir, haqiqat bir degan qonuni qaror topishiga xizmat qilgan, "Motrudiyning "Tavidh" asari Qur'oni Karim asosida, uning har bir oyati, kalimasi, harfi sirini anglash nuqtai nazaridan yondoshgan holda yozdiki, bu ulug' ishga, sirlar sirriga butun dunyo lol qoldi [10].

Mashhur hanafiy mazhabining taniqli olimlaridan Abulxayr Isomuddin Ahmad ibn Mustofa Toshko'prizodaning "Miftahu-saoda" asarida Abu Mansur Motrudiyning ilmiy merosiga va tarixiy ahamiyatiga yuksak baho berib o'tgan: "Ahl sunna val jamoaning kalom ilmidagi rahnamolari ikki kishidir. Biri hanafiy bo'lsa, ikkinchisi shofeydir. Hanafiy rahnamo Abu Mansur Muhammad ibn Mahmud Imomu-l-huda, Rais ahli sunna val jamoa Abu Mansur Motrudiydir. Shofey rahnamo esa Shayx ahli sunna, Raisu-l-jamoa, Imomu-l-mutakallimin Abul Hasan Ash'ariy Basriydir" [11].

Motrudiyning ilmiy mavqei va kalom ilmidagi qadr-qimmatini Abul Muin Nasafiy ham yuksak baholab, quyidagi fikrlarni

bayon qilgan: "Movarounnahrda Abu Mansur Motrudiydan tashqari barcha hanafiy olimlar mavjud bo'lmaganda ham, Abu Mansur Motrudiy ularning o'rniga kifoya qilar edi. Chunki u shunday zotki, ilm ummoning eng qat'iga sho'ng'ib, undan duru gavharlarni olib chiqdi va diniy hujjatlarni o'zining fasohati, mislsiz zakovati bilan ziynatladi. Shuning uchun u vafot etganida, Shayx Abul Qosim Hakim Samarqandiy uning qabri ustiga "Ushbu qabr ilmlarni o'z nafaslarigacha qamrab olgan, uni tarqatishda ko'p zahmatlar chekkan, qoldirgan merosi ko'p madh qilingan va o'zining umr daraxtidan ko'plab mevalar tera olgan zotning qabridir", - deb yozilgan jumlar uchrashini ta'kidlaydi. Darhaqiqat, Imom Motrudiyning yaratgan ilmiy merosi Kalom ilmi taraqqiyotida, jahon tafakkuri olamida, insoniyat ma'naviyat dunyosida jiddiy o'zgarishlarga olib keldi. Shuning uchun hamuning o'lmas ilmiy merosio'z qadrini hozirga qadar saqlab kelayotganligi bilan ahamiyatlidir. Motrudiyning ilohiy imlar to'g'risida yozgan asarlari munozarasiz haqiqatga aylanib, o'z davridayoq shuhrat qozongan. Uning ilmiy merosi Sunna ahlining haqqoniy e'tiqodiga aylanib, "Motrudiy" ta'limoti deya nom chiqargan. Bu xususida Abu Tohirxojaning "Samarqandiy" nomli asarida shunday bayon qilingan: "Nojiya firqasikim, ularni sunnat va jamoat ahli derlar. E'tiqod masalalarida ikkiga bo'linadilar. Shayx Abu Hasan Ash'ariyga qaraydiganlar "Ashoira" va hazrati Abu Mansur Motrudiyga qarashlilarni "Motrudiy" deb ataydilar. Rum, Buxoro, Balx, Xorazm, Samarqand, Farg'ona va Hindistondek katta musulmon o'lkalarining barcha xalqi va Turkiston hamda Qoshg'ar kabi mamlakatlarda yashovchi ellar hammasi Motrudiy e'tiqodidadir" [12].

Motrudiylik ta'limoti musulmonlarning aqidaviy masalalarda aql va dalillardan foydalanishini qo'llab-quvvatlaydi. Bu ta'limot ko'proq aqlni, dalillarni, va to'g'ri idrok qilishni e'tiborga olib, Qur'on va hadislariga asoslanadi. Shuningdek, kalom ilmni to'ri tasniflab, kalom ilmi sohasida islom aqidalarini aql va dalil orqali himoya qilishga bag'ishlaydi. Bu diniy ta'limot hamma masalalarda dalillarga tayanib, mantiqiy fikrlashni va xato tushunchalarga qarshi ilmiy bahs yuritishni targ'ib qiladi. Xususan, Motrudiyning eng muhim asarlaridan biri "Kitob at-Tavidh"da islom aqidasi asoslari batafsil yoritib berilgan va dalillar bilan asoslangan. Imom Motrudiy islom dini aqidalarini aql bilan tushunish va tushuntirish tarafdori bo'lgan. U Qur'on va hadislar mazmunini to'g'ri tushunish uchun aqlni ishlatish zarurligini ta'kidlab, aql va naql (vahiy) o'rtasidagi uyg'unlikni muhim deb hisoblagan. Bu jihati bilan u sunniy kalomning boshqa oqimlaridan farq qiladi.

Aql va naql (vahiy) o'rtasidagi muvozanatni saqlagan olim Imom Motrudiy o'zining ilmiy merosida islom tamadduniga aql va vahiyini o'zaro bog'lab tushuntirgan. U musulmon dunyosida ilmiy fikrlash va dalillar asosida islom aqidalarini himoya qilishda muhim rol o'ynagan. Shu ulkan jihatlari bilan Imom Abu Mansur Motrudiy islom tamadduni rivojiga katta hissa qo'shgan olimlardan biri bo'lib, uning ilmiy-ma'naviy merosi hozirgi kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Islom dinining chuqur ma'no va mazmunini aql bilan tushunish va tushuntirish orqali Motrudiy musulmonlar orasida diniy birlik va barqarorlikni targ'ib qilgan. Imom Motrudiyning aqidaviy masalalarga aniqlik kiritishi hozirga qadar islom aqidasi himoya qilib, uni yangilash ta'limotlar va botil oqimlardan tozalashda katta xizmat vazifasini o'tab kelmoqda. Ayniqsa, Mu'tazila oqimi ta'siriga qarshi kurashib, sunniy aqidani himoya qilgan. U aql va naql (vahiy) o'rtasida muvozanat o'rnatish orqali aqidaviy masalalarni aniq bayon qilgan.

Imom Motrudiyning tafsir sohasidagi hissasi ham benazirdir. Qur'on tafsiri bo'yicha ham chuqur izlanishlar olib borgan. Uning "Ta'vilot al-Qur'on" asari Qur'on oyatlarini tafsir qilishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Bu asarda u oyatlarni ma'no jihatidan chuqur tahlil qilishga katta e'tibor qaratgan.

Sunniy aqidaning ilmiy asoslanishida ham ishtiroki beqiyosdir. U aqidani faqatgina diniy hissiyotga tayanmagan holda, balki uni ilmiy jihatdan asoslashni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Motrudiy fikricha, aqlning islomiy aqida va e'tiqod masalalarida muhim roli bor. U islom aqidasi falsafiy va ratsional tahlil bilan qo'llab-quvvatlashga intilgan. Motrudiy falsafiy oqimlardan ayniqsa, Mu'tazila kabi oqimlarning fikrlarini tanqid ostiga olgan. Ularning aqidaviy masalalaridagi noto'g'ri yondashuvlarini ko'rsatib, an'anaviy sunniy e'tiqodni himoya qilgan.

Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Hanafiy Motrudiy Samarqandiyning ilmiy-ma'naviy merosi va uning islom tamaddunida tutgan o'rni va ahamiyati cheksiz va beqiyosdir. Bugungi kunda ham Motrudiyning ilmiy yondashuvi islom falsafasi va aqidaviy masalalarda dolzarb hisoblanadi. Uning asarlari ko'plab islomshunos olimlar tomonidan o'rganilgan va o'qitilmoqda. Hozirgi

kunda ham mamlakatimiz olimlari tomonidan Imom Moturidiy hayoti va ilmiy merosi chuqur o'rganilmoqda. 2020-yil 11-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi. Ushbu markazda alloma merosi chuqurlashtirilgan tarzda o'rganilmoqda va yurtboshimizning bevosita tashabbusi bilan Samarqandda Imom Buxoriy majmuasi yonida moturidiylik ta'limotini o'rganish maqsadida kalom ilmi maktabi, Qarshida aqida maktabi faoliyat olib bormoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Imom Moturidiyning ilmiy merosi sunniy islom aqidasiining shakllanishi va rivojlanishida ulkan

ahamiyat kasb etadi. U sunniy e'tiqodni himoya qilish, aqidani ratsional va ilmiy asoslash orqali musulmon olimlar va e'tiqod ahli uchun muhim manba hisoblanadi. Moturidiyning qarashlari va ta'limotlari islom tamaddunida muhim o'rin tutib, uning merosi musulmonlar dunyoqarashini kengaytirgan va islomiy ilmlarning ilmiy negizlarini mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etgan. Bugungi kunda ham Imom Moturidiyning ilmiy izlanishlari va falsafasi islom dunyosida keng o'rganilib, uning merosi hozirgi zamon musulmonlari uchun dolzarb hisoblanmoqda. U islom aqidaviy maktablarining rivojiga asos solgan shaxs sifatida islom tarixida alohida o'rin egallaydi.

ADABIYOTLAR

1. Abdulqodir Zohidiy. "Fan va turmush" jurnali №6, 1997
2. Abulxayr Isomuddin Ahmad ibn Mustofa ibn Jalil Toshko'prizoda. Miftah as-Saoda. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1975. – J. II.
3. Abu Tohirxo'ja. Samariya. Toshkent.: "Kamalak", 1991.
4. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch", T.: "Ma'naviyat" nashriyoti 2008 y.
5. Muhammadiyev F. "Mutafakkirlar", "Movarounnaxr" nashriyoti T; 2011
6. Ziyodov Sh. Imom Moturidiy [Matn]: risola / Sh.Ziyodov. – Toshkent.: «O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2022
7. Rudolf Ulrich. Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti. Leyeden – Nyu York – Kyolen, 1977
8. Ziyodov Sh. Imom Moturidiy [Matn] : risola / Sh.Ziyodov. – Toshkent.: «O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2022
9. Hamidxon Islomiyning. Sulton ul – Mu'izzuddin abu Mansur Moturidiy as – Samarqandiy. G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. T.: 2000
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi. Imom Moturidiy. 2000.



UDK: 373.2

Ulug'bek SODIKOV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, p.f.n
E-mail: Sodikov_7377@mail.ru
Dildora BOZAROVA,
Olmazor tumani 111-maktab o'qituvchisi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika kafedrası professori, p.f.d. Raxmonova Muqaddas Qaxramonovna taqrizi asosida

TA'LIM JARAYONIDA INTERFAOL METODLAR VA ULARGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Аннотация

Ushbu maqolada interfaol metodlardan foydalanish qoidalari bo'yicha ko'rsatmalar berilgan bo'lib, bunda faol, interfaol metodlar ta'riflari, ular orasidagi farqlar, interfaol metodlarini samaradorlik omillari, ta'lim jarayonida talabalar ongliligi va faolliги oshirishga qaratilgan usullar va bu haqda soha olimlarining fikrlari bayon etilgan. Interfaol ta'lim ishtirokchilari haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: faol, interfaol, onglilik, faollik, moderator, fasilitator, innovator, menejer, assistent, koordinator.

INTERACTIVE METHODS IN THE EDUCATIONAL PROCESS AND REQUIREMENTS APPLIED TO THEM

Annotation

This article provides guidelines for the use of interactive methods, including definitions of active, interactive methods, differences between them, factors of effectiveness of interactive methods, methods aimed at increasing student awareness and activity in the educational process, and the field about it. The opinions of scientists are stated. Important information about the participants of the interactive education is provided.

Key words: active, interactive, awareness, activity, moderator, facilitator, innovator, manager, assistant, coordinator.

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ И ТРЕБОВАНИЯ К НИМ

Аннотация

В ней из интерактивных методов, по направлению, по интерактивной методике, активной, интерактивной методике, их различия в эффективности, методы повышения осведомленности и активности учащихся в образовательном процессе, а также статьи ученых по этому поводу. Важная информация об участниках интерактивного обучения.

Ключевые слова: активный, интерактивный, осведомленность, активность, модератор, фасилитатор, новатор, менеджер, помощник, координатор.

Kirish. Ta'lim islohotlarining tub yo'nalishlarini to'g'ri anglash o'qituvchilar uchun ta'lim tizimida yangicha faoliyat usullarini ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradiki, bu bevosita o'qituvchilar oldiga ta'lim jarayoniga qat'iy o'zgarishlar kiritish xamda pedegogik hamda axborot texnologiyalariga oid bilimlarni egallash vazifasini qo'yadi.

Oliy ta'lim tizimida yuksak malakali, ijodkorlik va tashabbuskorlik qobiliyatiga ega, kasbiy va hayotiy muammolarni mustaqil hal qila oladigan, yangi texnika va texnologiyalarga tez moslanishga layoqatli kadrlarni tayyorlashda ta'lim jarayonini zamonaviy o'quv-metodik majmualar bilan ta'minlash, o'quv mashg'ulotining ta'lim texnologiyasini loyixalashtirish, rejalashtirish va uni ishlab chiqish xamda amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Fanni o'qitishda ta'limning faol va interfaol metodlaridan foydalanilgan xolda ma'ruza, suxbat – ma'ruza, suxbat - munozara, baxs – munozara, davra stoli, ijodiy tashkiliy - o'yinlar, innovatsion o'yinlar, noan'anaviy darslar o'tkazilsa maksadga muvofik bo'ladi. Bunday darslarni o'tkazishdan maqsad mantiqiy – strukturaviy sxemani tuzish, nazorat topshiriqlarni ishlab chiqish, o'quv materiallarini texnologiya talablari asosida tuzib chiqishdan iborat.

Respublikamizning pedagogik olim va amaliyotchilari ilmiy asoslangan xamda O'zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan ta'lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim amaliyotida kullashga intilmokdalar. Zamonaviy pedagogikada xam, ta'limni shunday modellari, unga nisbatan shunday yondashuvlar ishlanmokdaki, ular ta'limga, ishlab chikarish - texnologik jarayon, ma'lum sharoitlarda va belgilangan vakt ichida kuzlangan ta'lim maksadlariga erishishni kafolatlaydigan xarakterni berish imkoniyatini yaratadi.

Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy sohalarining rivojlanib borishi, oliy va umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida kadrlar tayyorlash sifatini yanada takomillashtirish; fan-texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlariga tayangan holda talabalarni kasb-hunarga o'rgatishda ularning izlanuvchanlik, ijodkorlik, kreativ fikrlash qobiliyatlarini yuksaltirish, nutq madaniyatini o'stirish; axborot-kommunikatsion texnologiyalar xizmatidan maqsadli ravishda samarali foydalanish; ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb muammolardan biridir.

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarishi va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Ta'lim oluvchilarning ongliligi va faolligini oshirish uchun o'qitish jarayoni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda talabalar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq rivojlanadigan bo'lsin.

Materialni yaxshi o'zlashtirib olishi uchun ta'lim oluvchi shu material ustida faol ishlashi kerak. Shunchaki quloq solib tinglash yoki ko'zdan kechirib chiqishning o'zi yetarli emas. Ta'lim oluvchi materialni o'ylab ko'rishi, muhokama qilib chiqishi yoki mazkur mavzuga doir mustaqil ish topshirig'ini bajarishi kerak.

Ta'lim oluvchi mustaqil va ijodiy faoliyati obyekt-jarayon va hodisalarni kuzatish, taqqoslash, bir-biridan farqli jihatlarini aniqlash, umumlashtirish kabi xususiyatlar orqali ko'zlangan maqsadiga erishishi mumkin. Demak fanlarni o'qitishda ham ta'lim oluvchilarning bilim olish va o'rganish faoliyati o'z-o'zidan faollashtirilmaydi, u eng avvalo aqliy va ongli munosabat natijasida yuzaga keladi.

Biz tomondan o'tkazilgan izlanishlar va olingan dastlabki natijalar tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ta'lim oluvchilarning bilim olish faoliyatini faollashtirish orqali ularning bilim imkoniyatlari, ijodiy va mustaqil ishlash qobiliyatlarini hamda amaliy ko'nikmalarini o'rganish darajalarini rivojlantirishga erishish mumkinligi aniqlandi.

Ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtirishdan oldin ularning dastlabki bilim darajasi, o'zlashtirgan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishi ko'nikmalarini hamda mustaqil ishlash qobiliyatlarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki ushbu xususiyatlarni har

tomonlama tahlil qilmay turib, talabalarning faol faoliyat ko'rsatish darajasi haqida fikr yuritib bo'lmaydi.

Demak, ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish va o'quv amaliy faoliyatlarini faollashtirishga yo'naltirilgan faol ta'lim metodlarini o'rganish, ularning pedagogik texnologiyalar tizimida o'rni va rolini aniqlash va o'quv jarayonida qo'llash metodikalarini ishlab chiqish ham bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Ta'lim tizimida metod tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak uning ma'nosi-ko'zlangan o'quv maqsadiga erishish uchun avvaldan belgilangan eng aniq va qisqa yo'ldir. Tadqiqotlarda metod bir muammoni yechish, biror tajribadan natija olish, bir mavzuni o'rganish yoki o'rgatish kabi maqsadlarga erishish uchun bilib tanlangan yoki shunga qarab boriladigan yo'ldir deb ta'riflanadi.

Ba'zi pedagogik adabiyotlarda metod atamasi o'miga metod so'zi ham ishlatilib kelinmoqda. Masalan, metod – (grekcha metodos so'zidan olingan bo'lib, izlanish yoki bilish yo'li, nazariya, ta'limot ma'nosini anglatadi) konkret vazifani yechishga bo'ysundirilgan, borliqni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish operatsiyalarining yoki yo'llarining yig'indisi deb ta'rif beriladi.

Keyingi paytlarda pedagogik amaliyotda ko'pdan "Ta'limning faol shakl va metodlari" atamasi qo'llanila boshlagan. U talabalar o'quv faoliyatining yuksak darajasini ta'min etuvchi qator pedagogik texnologiyalar guruhi o'zida uyg'unlashtiradi.

So'nggi vaqtlarda esa yana bir atama keng tarqalgan bo'lib, u "interfaol ta'lim"dir. Interactive Learning atamasi ingliz tilida ta'lim subyekti (o'qituvchi, trener, rahbar, boshqaruvchi) bilan favol aloqadorlikka asoslangan ta'lim ma'nosini anglatadi. Mohiyatan u kommunikativ texnologiyaning variantlaridan biri (model)ni bildiradi. Boshqaruvchi qilib aytganda, interfaol ta'lim-ta'lim obyekt va subyekti o'rtasidagi a'lo darajada tashkillashtirilgan o'zaro hamkorlik munosabatidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi o'zaro ikkiyoqlama (teskari) axborot almashinuviga asoslanadi.

Ta'lim metodi belgilangan o'quv maqsadiga kafolatli erishish uchun o'qituvchi va talabning o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishning tartibga solinishidir.

Faol ta'lim metodlarisiz qo'yilgan o'quv maqsadiga, erishishda bilim olish va o'rganish faoliyatini faollashtirishga, ta'lim natijalariga erishish qiyin.

O'qituvchi tomonidan bunday faol metodlarni tadbiq etilishi talabalarni mehnat qilishga, diqqatini tortishga o'z ustida mustakil ishlashga, fikrlashga, izlanishga undaydi, darslarga qiziqishi ortib, qatnashishi faollashadi.

Biz, faollashtirishni ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan asosiy faktorlardan biri sifatida qaraymiz. Faollashtirish lotincha so'zdan olingan bo'lib -faol, ishchan) ma'nosini anglatadi, ya'ni shaxsning aqli va irodasini kuchaytirish orqali uning bilim olish va o'rgatish, faollashtirish qobiliyatini tushuniladi.

Faol ta'lim deganda, - biz ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi va o'qituvchilarning ongli va faol ishtiroki, mustaqil va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omillar majmuini tushunamiz.

Ta'lim oluvchining umumiy faolligi uning bilim va ko'nikmalarni egallash, jarayon va hodisalarning mohiyatini anglab olishga qaratilgan faoliyatini bildiradi.

Ya.Ya.Yurchenko ta'lim oluvchilarni faollashtirishda quyidagi usullardan foydalanish yuqori samara berishini ta'kidlagan:

- o'rganilayotgan o'quv materiallarini dolzarblashtirish;
- muhim o'quv materialiga ta'lim oluvchilar diqqat-e'tiborini tortish;

- ta'lim oluvchilarda o'z fikr-mulohazalarini bayon etish va uning to'g'riligini himoya qilishga shart-sharoit yaratish;

- o'zlashtirilgan materialni ilmiy-amaliy jihatdan baholashga undash;

- o'rganilayotgan mavzu, bag'ishlangan manbalarni muntazam ravishda ko'rgazmali targ'ib etish.

Faollik tufayli shakllantiriladigan bilim, ko'nikma va malakalar ta'lim oluvchining "shaxsiy mulki"ga ko'chadi va bu bilimlarni istagan paytda ishga solish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Dastlabki izlanishlar shuni ko'rsatdiki, ta'lim oluvchilarni faollashtirish quyidagilarga imkoniyat yaratadi:

- ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar orasida ongli munosabatlarni o'rnatilishiga;

- ta'lim oluvchilarning mustaqil va erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga;

- ta'lim oluvchilarning axborot manbalari bilan mustaqil ishlashlariga;

- ta'lim oluvchilarning mashg'ulotlarga muntazam va to'liq ishtirokini ta'minlashga;

- ta'lim olishga qiziqish uyg'otadi;

O'qituvchi qanchalik ta'lim oluvchilarda yoqimli emotsional tasavvurlar hosil qila olsa, yangi o'quv materialini o'zlashtirish jarayonida ularning faolligi shuncha oshadi.

Shuni ta'kidlash joizki o'qitishning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ta'lim oluvchi tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish jarayonining har bir bosqichida o'qituvchi ularning ongli fikr yuritish faolligini vujudga keltiradi va tashkil etadi.

Onglilik avvalo ta'lim oluvchi erishish kerak bo'lgan o'quv maqsadlarini, hamda o'rganilayotgan material mazmuni va o'zi boshqarish lozim bo'lgan topshiriqlarning mazmunini tushunishdan iboratdir. Shuningdek onglilik shuni takozo kiladiki, ta'lim oluvchi o'quv materialini mexanik tarzda yodlab olmaydi, yoki topshiriqni mexanik tarzda bajarmaydi, balki topshiriqni shu tarzda bajarilganligining mohiyatini tushuntirib bera oladi, o'qituvchining savollariga bergan o'z javoblari bilan u o'rganilayotgan o'quv materialning ma'nosini haqiqatan ham tushunishini namoyon qila oladi.

Onglilik, shuningdek ta'lim oluvchining topshiriqlarini bajarishga mas'uliyatli munosabatini bildiradi. Ongli fikrlovchi va ishlovchi ta'lim oluvchi har qanday o'quv topshirig'ini o'z vaqtda va aniq bajarishga harakat qiladi. U zaruriy hollarda o'qituvchilarning yoki iqtidorli o'quvchilarning yordamiga tayanib topshiriqning mustakil bajarishga intiladi.

Demak, o'quv-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchilarning faolligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham an'anaviy ta'lim tizimida aynan mana shu muammoga yetarli darajada ahamiyat berilmaganligi sababli ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchilarning bilim olish va o'rganish faoliyatini faollashtirish «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da talab darajasiga ko'tarilgan. Biz ta'lim oluvchilarni har tomonlama rivojlantirish, ularning ijodiy qobiliyati, bilim olish va o'rganishdagi faolligini oshirishga qaratilgan bir qator ilmiy ishlarni o'rgandik.

Tadqiqotlarda talabalarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish masalasi o'quv jarayonining muhim vazifalaridan ko'p ta'kidlanadi.

O'quv jarayonini oqilona, to'g'ri tashkil qilish, o'qitishni zamonaviy usullari va xorij tajribalaridan foydalanib tashkillashtirish dars samaradorligini oshiribgina qolmasdan, ta'lim oluvchilarning ilmiy-intellektual salohiyatini va erkin fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

I.A.Allayorov «faol ta'limning didaktik asoslari – bu, jarayon ishtirokchilarning ongli, oqilona munosabatlarini o'rnatilishi va yuqori sifat hamda samaradorlikni ta'minlanishi» deb ta'lim etgan.

Ta'lim oluvchining faqatgina o'rganilayotgan obyektga, jarayonga yoki hodisaga ongli munosabati natijasida bilim, amaliy ko'nikma va ijodiy shaxsiy xislatlari hamda fazilatlar shakllanadi.

A.M.Matyushkinning fikricha faol bilish – ta'lim jarayonida muntazam ravishda, birin-ketin topshiriqlar berish, muammoli vaziyatlar hosil qilish natijasida yuzaga keladi. Faollik onglilik natijasida vujudga kelar ekan, bu hol fanlarni o'rganish mazmuni, shakli, usul va vositalarini o'zaro muvofiqlashtirishni ham taqozo etadi. Faollik darajasini belgilashda o'quv materialning murakkablik darajasi inobatga olinishi lozim.

Ta'lim oluvchilarning bilim olish va o'rganish faoliyatini faollashtirishda psixologik hamda pedagogik muammolar yuzaga keladi. Chunki, psixologlar ta'lim oluvchilarning bilim olish va o'rganish faolligini psixologik xususiyat sifatida, pedagoglar esa ta'lim jarayonining asosiy qonuniyati va zamonaviy talabi sifatida qaraydilar.

O'qituvchi ta'lim oluvchilarning bilim olish va o'rganish faolligini oshirish uchun o'quv materialini murakkablik darajasidan kelib chiqib mashg'ulotni o'tkazishning turli shakllari va usullarini ishlab chiqishi kerak.

Tadqiqotlarda faollikning quyidagi darajalari keltiriladi.

1. Faollikning birinchi darajasi - ta'lim oluvchilarning avval o'zlashtirgan bilimlarini qayta takrorlashi, uni xotirada tiklashi hamda o'qituvchining bevosita rahbarligi va ko'rsatmalari asosida unga ergashib bajaradigan ishlari yoki berilgan namunaga qarab aynan bajaradigan topshiriqlari jarayonida namoyon bo'ladi. Chunki, ta'lim oluvchilarning o'tilgan nazariy materialini eslashi, unga mos keladigan ishlab chiqarish mazmunidagi masalalarni namunaga qarab yechimini topishga qaratilgan hatti-harakatlarini qayta xotirlashga xizmat qiladi.

2. Faollikning ikkinchi darajasi - o'rganilayotgan obyekt yoki jarayonning mohiyatini tushunishni, ma'lum ma'noda ijodiy fikrlash elementlarini taqozo etadi. Faollikning bunday darajasi o'rganilayotgan obyekt va jarayonlardagi o'xshashlik va farqli

jihatlarni aniqlash, o'zlashtirilgan bilimlarni ma'lum o'zgartirilgan holat va vaziyatlarda qo'llanishini ko'zda tutadi.

3. Faollikning uchinchi darajasi - ijodiy xarakterdagi hatti-harakatlarni talab etadi. Ko'zlangan o'quv maqsadga erishish yo'lida ijodiy faoliyatni ko'rsatadi. Qisman izlanish xarakteridagi faoliyat to'la ijodiy xarakterga ega bo'ladi. Faollikning bu darajasida egallangan bilimlar tizimli, chuqur va puxta bo'lib, ulardan istalgan sharoitda foydalanish mumkin.

Faollashtirish darajasi birinchidan, ta'lim oluvchilarning o'quv materialini o'rganishga motivatsiya uyg'otish, ularda mustaqil ishlash va izlanish qobiliyatlari qanday darajada ekanligi bilan belgilansa, ikkinchidan, o'qituvchi tomonidan o'qitish va o'rgatish jarayonini faollashtirish maqsadida yaratilgan sharoit, ta'limning shakli va faol usullari hamda didaktik vositalarga bog'liq bo'ladi.

Ko'plab pedagog olimlar, metodistlar va tadqiqotchilar tomonidan ta'lim oluvchilarning bilim olish va o'rganish, o'quv-bilish faolligining mohiyati, shakllari, darajalari va amalga oshirish shartlari to'g'risida turli fikrlarni bildirganlar.

Ta'lim jarayonidagi talabaning faolligi, didaktikaning asosiy tamoyillaridagi biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Talabaning faolligi, maqsadli yo'naltirilgan boshqaruvchi pedagogik ta'sirlar va pedagogik muhitning tashkil etishi natijasidir.

Yuqorigi tahlillar shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda ta'lim oluvchilarni mustaqil bilim olish, o'z fikr mulohazalarini, mustaqil va erkin bayon qilish malakalarini shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim oluvchida bunday xususiyatlarni shakllantirish uchun o'qitishning dastlabki bosqichlaridayoq bilim olish va o'rganish faoliyatini faollashtirish lozim.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarda bilim va malakalarni shakllantirish jarayonida ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va o'quv faoliyatini faollashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Interfaol ta'lim:

- hamkorlikdagi pedagogik muloqot uchun imkon yaratuvchi metodlar tizimidir

- bilim olishda ta'lim jarayoni barcha ishtirokchilarining faol va muntazam ishtirokidir.

- pedagog tomonidan mahorat bilan tanlangan metod, shakl, vositalardir.

Pedagogik muhitda bilim va malakalar olish, ularni mustahkamlashga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchining faol muloqotidir.

Bilim, tajriba, malaka ko'nikmalarni ayrboshlash negiziga qurilgan hamkorlikdagi pedagogik faoliyat

Interfaol ta'lim va tarbiya jarayoni ishtirokchilari

Interfaol mashg'ulotlar o'ziga xos tashkiliy tuzilishga ega bo'lib, uni tashkil qilish va olib borish bo'yicha faoliyat turlari alohida ajratilgan va har biri bo'yicha alohida vazifalar shaklida nomlar berilgan. Bunda bir mashg'ulot jarayonida shu mashg'ulotni olib boruvchi bir vaqtda ushbu turli vazifalarni bajarishi ko'zda tutiladi. Shu bilan birga bir mashg'ulotni ikki yoki uch pedagog yoki yordamchilar birgalikda olib borishi ham qo'llaniladi. Ular bajaradigan vazifalariga ko'ra quyidagicha nomlanadilar:

Moderator - ta'lim mazmunini yaratish, modullarini ishlab chiqish.

Trener - o'quvchilarning ko'nikmalarini rivojlantiruvchi mashqlar o'tkazuvchi maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassis.

Tyutor - masofadan o'qitish dasturlarini yaratish va bajarilishini ta'minlash.

Fasilitator - darsda ko'makchi, yo'naltiruvchi, jarayonga javob bermaydi, xulosa chiqarmaydi.

Mentor - ustoz, o'rgatuvchi (yakka va guruhi tartibda).

Kouch - ta'lim oluvchilarning to'liq o'zlashtirishlari uchun yordam ko'rsatuvchi repetitor, instruktor, trener.

Amaliyot davomida amaliy mashg'ulotni, ish jarayonini nazorat qiluvchi, kuzatuvchi. (Kouching-imtixonlarga yoki sport bo'yicha tayyorgarlik ko'rish).

Konsultant - maslahat berish, tushuntirish, qo'shimcha ma'lumot berish.

Lektor - nazariy ma'lumotlar bilan tanishtiruvchi.

Ekspert - kuzatish, tahlil, tekshirish, xulosa, tavsiya, taklif, mulohaza bildirish.

Innovator - yangiliklarni ta'lim mazmuni va mashg'ulotlar jarayoniga joriy qilish.

Kommunikator - o'zaro muloqotlarning sifati va samaradorligini oshirish, takomillashtirish.

O'qituvchi - mashg'ulot mavzusi bo'yicha ko'zda tutilgan mazmunni tushuntirish, o'quv jarayoniga rahbarlik.

Menejer - tashkiliy - pedagogik va iqtisodiy masalalarni hal etish.

Spekter - kuzatish, tahlil qilish va xulosalarni bayon qilish.

Assistent - mashg'ulot uchun tayyorlangan vositalarni amalda qo'llashga tayyorlash, mashg'ulot ishtirokchilariga yordam ko'rsatib turish.

Sekretar - zarur ma'lumotlarni yozib borish, tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish, o'rnatilgan tartibda saqlash.

Texnolog - pedagogik texnologiya mutaxassisi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosidagi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ta'minlash bilan bog'liq masalalarni hal etib boradi.

Metodist - ta'lim - tarbiya metodlari bo'yicha mutaxassis. Dasturlarni ishlab chiqishda va amalga oshirish jarayonida metodik masalalarni hal etib boradi.

Koordinator - loyihalar, dasturlarni ishlab chiqishga rahbarlik, ularni amalga oshirishni rejalashtirish, muvofiqlashtirish, tashkiliy va moliyaviy masalalarni hal etish.

O'quvchilar - ta'lim oluvchilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol ta'lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi-o'quvchilarning muloqot olib borish bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, o'quvchilar orasida emostional aloqalar o'rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o'z o'rtoqlarining fikrini tinglashga o'rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, amaliyotdan ma'lum bo'lishicha, dars jarayonida interfaol metodlarni qo'llash o'quvchilarning asabiy zo'riqishlarini bartaraf qiladi, ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish imkoniyatini beradi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi 3775-son «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohtlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori.
2. Yuldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. -T, 2001.
3. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).- T.: Istedod, 2008.



UDK: 373.3:81'243 + 37.091.3

Barno SULAYMANOVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti
E-mail: sulaymanovabarno@gmail.com

DSc, professor B.Abdullayeva taqrizi asosida

FORMATION OF READING AND WRITING SKILLS IN THE DEVELOPMENT OF SPEAKING COMPETENCES OF PRIMARY CLASS STUDENTS

Annotation

Teaching students to freely and correctly express their thoughts is very important for society, psychologically and methodologically, and is considered one of the most pressing issues of today. The formation of the speech process is of great importance in the development of a person as a mature person. However, its development continues throughout people's lives at different stages. However, there are a number of proven ways to develop the speech process in students. Speech performs the function of communication and message, emotional expression and influence of mutual opinion. This article describes in detail the formation of reading and writing skills in the development of speech competence of primary school students.

Key words: Speech competence, child psychology, primary school students, pedagogues-experts, etc.

ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ И ПИСЬМА В РАЗВИТИИ РЕЧЕВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация

Обучение учащихся свободно и правильно выражать свои мысли имеет большое значение для общества, в психологическом и методическом плане и считается одним из самых актуальных вопросов современности. Формирование речевого процесса имеет большое значение в развитии человека как зрелой личности. Однако его развитие продолжается на протяжении всей жизни людей на разных этапах. Однако существует ряд проверенных способов развития речевого процесса у учащихся. Речь выполняет функцию общения и сообщения, эмоционального выражения и влияния взаимного мнения. В данной статье подробно описывается формирование навыков чтения и письма в развитии речевой компетентности учащихся начальных классов.

Ключевые слова: Речевая компетентность, детская психология, учащиеся начальных классов, педагоги-специалисты и др.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA O'QISH VA YOZISH KO'NIKMLARINI SHAKLLANTIRISH

Аннотация

O'quvchilarni o'z fikrlarini erkin, to'g'ri ifodalashga o'rgatish jamiyat uchun ham, psixologik va metodik jihatdan ham juda muhim bo'lib, hozirgi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Inson yetuk shaxs bo'lib yetishishda nutq jarayoni shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq uni riojlanishi insonlar aro turlicha bosqichlarda umr bo'yi davom etadi. Vaholanki, o'quvchilarda nutq jarayonini rivojlantirishning bir qancha sinovdan o'tgan usullari mavjud. Nutq o'zaro aloqa va xabar funksiyasini, o'zaro fikrni his-hayajon bilan ifodalash va ta'sir etish vazifasini bajaradi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirish haqida atroflicha bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: Nutqiy kompetensiya, bolalar psixologiyasi, boshlang'ich sinf o'quvchilari, pedagog-mutaxassislar va h.k.

Introduction. In the concept, the main four types of speech activities acquired in this language by teaching the mother tongue: listening comprehension, speaking, reading and writing actions, development of the standard of competence and skills required in each class. , in which the ability to independently exchange ideas and express ideas in various speech situations that occur during study and work, in family and public places, to perceive the heard material, as well as to obtain information by reading written sources, to read events The dynamics of acquiring communication skills in the way of expressing z attitude is assumed [1]. The type of speech activity is the use of thinking based on language tools (words, phrases, sentences). A well-developed speech serves as one of the important tools of a person's active activity in society. For a student, speech is a tool for successful education at school.

These mainly include the methods of developed countries. Because he showed positive results with his efficiency. Nowadays, more and more children are facing speech disorders. Many parents are interested in this question. We will try to help you! A child's physical, mental and intellectual education begins in early childhood. All skills, including the ability to speak correctly, are acquired in the family.

Literature review. A.N. Leontev describes the process of speech development as follows: "The process of growth and development of speech is a process of quantitative changes expressed in the increase of the child's vocabulary and association of words, but also a process of qualitative change, because it is the development of thinking and consciousness is a real developmental process that includes all the functions, aspects and relations of the word, internally connected with it. K.D. Ushinsky based on the necessity of teaching children in their native language and developed the methodology of the initial teaching of the native language to children [1]. express their

opinions about the legalities. In Russian science, research on the ontogenesis of speech was carried out based on the cultural-historical theory of L.S. Vygotsky and the theory of activity of A.N. Leontev. As a result, a system of views was formed that the emergence and development of children's speech occurs in the process of communication with the people around them. A. A. Leontev, based on the rules of L. S. Vygotsky and A. N. Leontev, developed the concept of the formation of speech activity, which he considers as the main type of activity. According to him, the development of a child's speech is primarily the development of communication methods, and their mastery requires the formation of language skills [2].

The most important stages of speech acquisition correspond to preschool age. At the moment, special attention is being paid to the study of some stages in the development of speech. Scientists have realized that the pre-speech stage plays an important role and are analyzing it in detail. K. D. Ushinsky stated that "...a child can easily and quickly learn so much in two or three years that even if he studies diligently for twenty years, he will not be able to master half of it." It is known that many people have been interested in the place and role of speech and thinking in human life since ancient times [3]. Thinkers such as Farobi, Zamakhshari, Beruni, Ibn Sina, Yusuf Khos Hajib, Kaikovus, Alisher Navoi noted speech as one of the signs of spiritual perfection in their works.

For example, Farobi says about the power of speech: "... the power of speech (speech) is such a power that a person acquires knowledge and skills with the help of it, with the help of which he can distinguish between ugly and beautiful actions in his behavior and it is necessary to perform them. he does things that have not happened, and at the same time he understands what is harmful and what is useful, what is tasty and what is bitter." In the process of formation of speech

skills in elementary grades, great attention is paid to studying fiction. Fiction is a multifaceted phenomenon. Here speech is presented as a means of representation and appears as a subject of representation. A person becomes a "speaker" only in literature [4]. As noted by F.K.Murodov in his "Diagnostics of Social Development of a Child": "The main feature of literature is that here language is not only a means of communication and expression, but also an object of image."

Research methodology. In the National Curriculum of General Secondary Education, "Speech aimed at thinking in the person of the student of the mother tongue, understanding the opinion of others, being able to express one's opinion in oral and written form correctly and fluently in accordance with the conditions of speech development of (communicative) competence; It implies the development of the learner's practical knowledge of language construction (phonetics (orophony), lexicon, word structure, morphology, syntax, writing and spelling, punctuation, speech styles, stylistic concepts). The role of the native language teacher in the development and improvement of the students' requirements for this qualification is incomparable. In this regard, the psychologist scientist E. Ghazyev says: "The role of the native language and literature teacher is very important in developing the correct logical thinking of a teenager [5]. He always teaches students to make correct sentences, to think fluently, to think, to write." So, in the process of developing speaking competences, the native language teacher, based on contextual teaching and modern approaches, teaches students to compose meaningfully and grammatically correct sentences, to think independently, and to express their opinions orally and in writing. teaches how to apply the knowledge gained in practice.

The mother tongue is important not only in mastering all subjects, but also in the interaction of people in the society in general - in the formation of communication. The national language in mother tongue classes is the main four linguistic skills of speech activities that are expected to be acquired by students in each class in the teaching of the mother tongue, i.e. listening comprehension, speaking, reading and writing. the standard of qualifications and skills required is being developed.

This article is devoted to the peculiarities of the use of a work of art in Russian-language lessons, the peculiarities of the use of students of the national group in teaching the Russian language based on the materials of a work of art, to the connection with apperception, which, depending on the content of the personality's psyche, simultaneously coordinates logical and figurative. At the same time, the main focus is on the peculiarities of the structural and semantic features of the work of art, the normalization of the literary language of society and its implementation with the help and active support of fiction.

Key words: Epic, lyric, drama, fiction, aesthetics, mind, learning, perception, knowledge, experience, inclination, level, dynamics, statics, literature, logic.

Введение. Специфика использования в обучении русскому языку студентов национальных групп на материале художественного произведения обусловлена апперцепцией, которая в зависимости от содержания психики индивидуума (знания, опыт, наклонности) согласовывает логические и образные нагрузки, одновременно передаваемые словом, и на основе учета родного языка в динамике, способствует созданию индивидуального стиля обучающегося.

Анализ литературы по теме. Языковое значение не детерминируется индивидуальную деятельность непосредственно - имеет место многосторонний процесс взаимодействия между индивидуальной деятельностью и индивидуальным сознанием, с одной стороны, общественной деятельностью и общественным сознанием - с другой (Шмелев А.Г., 1983). Художественное произведение - это одна из форм общественного сознания. Литературное явление обладает большой силой воздействия на студента - как в познавательном, так и в чисто языковом плане. Сознательное воздействие общества на процессы нормализации и кодификации литературного языка осуществлялось и продолжает осуществляться, прежде всего, с помощью и при активном содействии художественной литературы.

Методология исследования. В художественном произведении структурно-композиционная емкость контекста расширяется чередованием речевых ситуаций, которое благоприятствует осуществлению коммуникативного подхода к обучению языка, потому что каждый контекст говорит своим языком, представляя каждый раз новые комбинации естественной речевой среды.

Доминанта колебания зависит как от содержания информации, так и от передающей его жанровой формы, то есть структуры. Поэтому при системном обучении языку на материале художественной литературы считаем целесообразным в зависимости от базовых знаний студентов и этапа обучения дифференцированно использовать композиционно-стилистическое оформление жанров художественной литературы в определенной последовательности нарастания трудностей восприятия.

При этом, проводя в жизнь принцип связи обучения с жизнью, необходимо сочетать аудиторную и внеаудиторную форму работы с художественной литературой, где раскрывается весь программный материал, определенная система и целесообразная последовательность его предъявления учащимся. Все остальные компоненты учебного комплекса строятся на этом лексико-грамматическом материале.

Анализ и результаты. В обучении русской речи художественная литература применяется в такой последовательности, которая соответствует задаче обучения на каждом этапе, а также соответствует специфике жанра художественного произведения как особого учебника.

Последовательность применения художественной литературы в обучении разработана с учетом принципа преемственности, обусловленного сменяемостью этапов обучения, а также с учетом композиционно-стилистических особенностей этих жанров, позволяющих постепенно снимать усложняющиеся трудности учебного процесса, а именно:

- эпоса (словесно-изобразительные жанры);
- лирики (декларативно-выразительные жанры).
- драмы (драматические жанры)

Эта последовательность определяется уровнем знаний студентов и целью этапов обучения.

Уровень знаний у студентов первого курса Узбекистана различен, что объясняется разными условиями жизни и учебы до поступления их в вуз. Те студенты, которые живут в городе, где имеются языковая среда и поэтому лучшие условия для обучения языку. Они имеют языковую базу, а студенты, которые учились в сельской местности, где не было языковой среды и надлежащих условий, имеют более слабую языковую подготовку. Поэтому на начальном этапе с целью выравнивания знаний у всех студентов, чтобы они дольше могли продолжать обучение коллективно, вводится интенсивно-корректировочный курс.

Для интенсификации этого курса, на наш взгляд, целесообразно применять в обучении маленькие рассказы, а затем адаптированные главы из повестей и романов русских писателей.

Рассказы отбираются на различный круг вопросов, главное, чтобы они были интересными и значимыми по тематике и проблематике. Эти материалы, будучи идентичны текстам аудиторных занятий, способствуют повторяемости лексико-грамматического материала. Для самостоятельной работы может быть привлечен и материал, непосредственно не связанный с темой аудиторных занятий. Он привлекается с целью расширить сферы общения. Материал вводится на первых порах в форме внеаудиторного чтения, а затем главы из повестей и романов отбираются с целью усложнения задач обучения. Преподавателю, готовясь к занятиям необходимо всегда намечать обучающие и воспитательные задачи, потому что стабильными в обучении является жанры художественной литературы, которые в усложняющейся последовательности их структурных и лексико-синтаксических характеристик используется для обучения диалогу, а затем и монологу на материале художественного текста.

После рассказа в учебный процесс привлекаются повести и романы, в которых отдельные ситуативные высказывания сменяются более сложными повествованиями. Темы и круг вопросов усложняется. Сложность речи в повести и романе по сравнению простым рассказом затрудняется. Форму повести определяет его содержание, а применение романа в обучении идет по принципу от легкого к трудному, от простого к сложному. Сюжетно-композиционная ситуация в эпическом произведении усложняет функцию оперативной памяти, так как студент при оформлении содержания этого жанра, не только составляет предложения на основе произведенных при этом эквивалентных замен. Но и удерживает в памяти начало повествования, чтобы получить единое целое и вычленив основное содержание на основе нахождения «смысловых век», ключевых слов, что готовит план - программу будущего высказывания. При подборе ключевых слов надо исходить из особенностей эпического произведения, а именно, использовать фразеологизмы и специальные конструкции, которые делают художественную речь экспрессивной и образной и создают дополнительные стилистические коннотации. Особенности этого жанра использует разные языковые единицы, последовательно усложняющиеся в целях обучения русскому языку: от текстов, не имеющих подтекста, к текстам с отклоняющимся подтекстом. Метафоричность, параллелизм делают речь эмоциональной, образной, что является неотъемлемой чертой всего стиля художественной литературы. Это наиболее ярко проявляется в эпических произведениях, потому что разговорность и относительная свобода в выборе языковых средств делают речь героев произведения личностной и близкой к разговорному, что также способствует более легкому восприятию материала.

Следующим жанром, специфичным и эффективным в обучении русскому языку является лирика как литературный род.

Эпические произведения, лирика, драма требуют при изучении в вузе разного подхода к себе, потому что каждый из этих литературных родов обладает ярко выраженной художественной спецификой. В чем заключается специфика лирики?

Специфической особенностью лирики является то, что поэт присутствует в ней не только как автор – создатель этого стихотворения, не только как субъект, включенный в эстетическую структуру произведения в качестве действенного ее элемента, но и как часть этого творения, со своим взглядом, мнением, думами, чаяниями.

Современные психологи, основываясь на открытом И. П. Павловым действии слова как реального раздражителя, приходят к выводу, что художественное произведение способно вызвать у человека такое же душевное состояние, какое вызывают реальные события. В самом деле, каждый человек может, вероятно, припомнить минуты, когда чувства, выраженные в стихотворении, вдруг совпадали с его собственными переживаниями. Чтобы лирическое произведение произвело впечатление на учащихся, оно должно быть хорошо прочитано. Как правило, стихи читаются в аудитории (преподавателем, подготовленным студентом, артистом - в записи на диктофоне).

Если студенты не все понимают в художественном содержании стихотворения, они все равно сразу эмоционально реагируют на его ритм, мелодию. Часто их поражает образность, необычность в выражении переживания. После чтения нужна

«минута молчания» - та пауза на занятии, когда студент еще находится во власти эмоции, когда он внутренне, интуитивно воспринимает тот слой лирического текста, который доступен его непосредственному читательскому опыту. И лишь после этого наступает пора анализа.

Не существует какого-то единого, магистрального пути разбора лирических произведений: подходы к ним могут быть так же разнообразны, как многообразна сама поэзия. Выбор формы, приема работы больше всего зависит от специфики лирического текста, от подготовленности аудитории, эмоционального настроения учащихся.

Хотя основные линии в анализе (обучающий анализ, свободные формы работы) лирики сохраняются, усложняется литературный материал, серьезнее ставятся теоретические вопросы, раскрывающие студентам сущность поэзии как особого рода литературы. Каждое лирическое произведение, названное программой, вписывается в творчество поэта и позволяет открыть ту или иную грань его поэтического мира. Поэтому изучение лирики в национальной аудитории включает обзорное рассмотрение отдельных поэтических тем, уяснение общих концепций творчества крупнейших поэтов, знакомство с основными проблемами поэтики. Однако нельзя забывать и о монографическом анализе стихотворений: только научив студента искусству видеть, понимать, чувствовать конкретный поэтический текст, можно добиться полноценного восприятия ими лирики. Для того чтобы осознанно и полноценно воспринимать поэзию, нужно обладать некоторыми теоретико-литературными знаниями о стихе. Эти знания должны охватывать три основных раздела: 1) образность поэтической речи (и вообще язык поэзии), 2) поэтический синтаксис и 3) стихосложение (ритмические особенности стиха). Конечно, сам анализ стихотворений в национальной аудитории отличается и по форме, и по глубине от того, к какому студент привыкли в начале обучения над стихотворением (Ревякин А.Н., 2001).

Особо стоит вопрос использования в обучении драмы как рода художественного произведения. Действительно, драма в системе литературы занимает особое место, так как она одновременно и полноправный литературный род, и явление, закономерно принадлежащее театру. Драма как род обладает специфическим содержанием. Специфическими чертами драмы как рода являются отсутствие повествователя и резкое ослабление описательного элемента. Основа драмы - зримое действие, и это сказывается на особом соотношении в ней событийного движения и речей персонажей. Высказывание героев и расположение, соотношение частей - важнейшие способы раскрытия мысли автора. Но не всегда, читая драму, студент имеет возможность посмотреть изучаемое произведение в театре. Поэтому как у читателя у студента надо воспитывать хорошо развитое, воссоздающее и творческое воображение. За репликой, диалогом он должен будет услышать, увидеть героев, представить обстановку, то есть при изучении драмы от читателя - студента требуется активное сотворчество.

Цель преподавателя – научить читать и понимать драматическое произведение, как литературное явление. В процессе чтения студент должен представлять жизнь на сцене со всеми условностями сценического воплощения пьесы: с кулисами, декорациями, занавесом и рампой, с мизансценами и сменой актеров и явлений. Это составляет подготовительную работу к восприятию спектакля. На вступительных занятиях целесообразно обязательно использовать фотографии сцен из спектаклей, отдельные кадры диафильмов.

Выводы и рекомендации. Главное для использования в обучении драмы - это релаксация, превращение студента в участника, в действующее лицо. Для подготовки восприятия и глубокого понимания драмы надо активизировать воссоздающее и творческое воображение.

Установка преподавателя в своем вводном рассказе свое видение героев и место действия, отбор материала, сведений, связанных с жизнью пьесы на сцене, с первой постановкой в театре, об эпохе, среде, которую отражает писатель в своем произведении.

Для развития у студентов образного мышления и воображения целесообразно научить студентов не читать, а «смотреть» спектакль, даже если студент остается наедине с книгой.

ЛИТЕРАТУРА

1. Методика преподавания литература. Под ред. З. Я. Рез М., 1986,- 368с.
2. Ревякин А. Н. Проблема изучения и преподавания литературы. М., 2001,-231с.
3. З.Шмелев А.Г. Введение в экспериментальную психолингвистику. - М.: МГУ, 1983-157с.



Soyib TUXTAYEV,

Qarshi davlat universiteti, San 'atshunoslik fakulteti yoshlar masalalari va ma'naviy-marifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari

Qarshi davlat universiteti professori, p.f.d. Sh.Nurillayeva taqrizi asosida

TALABALARINING KOMMUNIKATIV TA'LIMINI PEDAGOGIK BOSHQARISH KONTSEPTUAL MODELINING TARKIBIY QISMLARI

Аннотация

Ushbu maqolada oliy ta'limda talabalar kommunikativ ta'limini pedagogik boshqarishning konseptual modeli mazmun komponentining o'ziga xos xususiyatlari va bu borada tadqiqotlar tahlili keltirilgan. Shuningdek, mazmun komponenti ko'rib chiqilayotgan modelda tizimshakllantiruvchi hisoblanadi, chunki uning rivojlanishi orqali oliy ta'lim talabalarining kommunikativ ta'limini pedagogik boshqarish jarayoni va natijasi tavsiflangan. Bundan tashqari, oliy ta'lim talabalarining kommunikativ ta'limini pedagogik boshqarishning konseptual modelining mazmun tarkibini loyihalashda talabalarning kommunikativ kompetensiyasining uzluksiz rivojlanishini ta'minlashga qodir bo'lgan bilim miqdori va izchil kommunikativ faoliyatini aniqlash zarurligini nazarda tutilgan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, kommunikativ ta'limini pedagogik boshqarish, konseptual modeli mazmun komponenti, kommunikativ ta'lim, pedagogik boshqarish, pedagogik shart-sharoitlar va boshqalar.

СОСТАВНЫЕ ЧАСТИ КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ МОДЕЛИ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ КОММУНИКАТИВНЫМ ОБУЧЕНИЕМ УЧАЩИХСЯ

Аннотация

В данной статье представлены особенности содержательной составляющей концептуальной модели педагогического управления коммуникативным обучением студентов в высшем образовании и проведен анализ исследований по этому вопросу. Также содержательный компонент является системообразующим в рассматриваемой модели, поскольку через его развитие описывается процесс и результат педагогического управления коммуникативным обучением студентов высших учебных заведений. Кроме того, при проектировании содержательной структуры концептуальной модели педагогического управления коммуникативным образованием студентов высших учебных заведений предусматривается необходимость определения объема знаний и Связной коммуникативной активности учащихся, способных обеспечить непрерывное развитие их коммуникативной компетентности.

Ключевые слова: Высшее образование, педагогический менеджмент коммуникативного образования, содержательный компонент концептуальной модели, коммуникативное образование, педагогический менеджмент, педагогические условия и др.

COMPONENTS OF THE CONCEPTUAL MODEL OF PEDAGOGICAL MANAGEMENT OF THE COMMUNICATIVE EDUCATION OF THEIR STUDENTS

Annotation

This article presents an analysis of the specifics of the content component of the conceptual model of pedagogical management of student communicative education in higher education and studies in this regard. Also, the content component is system-specific in the model under consideration, since through its development, the process and result of pedagogical management of the communicative education of higher education students are described. In addition, when designing the content content of the conceptual model of pedagogical management of the communicative education of higher education students, it is envisaged that it is necessary to determine the amount of knowledge and consistent communicative activity capable of ensuring the continuous development of communicative competence of students.

Key words: Higher education, pedagogical management of communicative education, content component of the conceptual model, communicative education, pedagogical management, pedagogical conditions, etc.

Kirish. Modellashtirish - obyektiv tabiiy, ijtimoiy, ijtimoiy-tabiiy voqelikning real hayotiy predmetlari (predmetli modellashtirish) va hodisalarni, jarayonlarni (belgini, axborotni modellashtirish) o'rganishning eng muhim usuli. Haqiqiy mavjud bo'lgan obyektlarini belgili (axborot) modellashtirish o'rganilayotgan obyektning aqliy vizual tasvirlari orqali almashtirishi mumkin. "Modellashtirish mavhumlashtirish va ideallashtirish protseduralaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Modellashtirishning bu xususiyati, ayniqsa, uning predmeti xatti-harakati turli tabiatdagi o'zaro bog'liq bo'lgan ko'plab omillarga bog'liq bo'lgan murakkab tizimlar bo'lsa, ayniqsa ahamiyatlidir"[2].

Murakkab tashkil etilgan ijtimoiy-tabiiy antropometrik tizimlar bilish subyektining faoliyati bilan bog'langan bo'lib, uning ongida materiya harakatining turli shakllarini aks ettiradi. Murakkab tuzilgan obyektning bilish va boshqarishga qaratilgan tizimli modellashtirish amalda bilish subyektini va obyektning yaxlit birligini amalga oshiradi. Antropometrik tizimni modellashtirish orqali o'rganishda uning strukturasi modellashtirish va uning xatti-harakatlarini, unda sodir bo'ladigan jarayonlarning ishlashini modellashtirish farqlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So'ngi yillarda modellashtirish fan va amaliyotning turli sohalarida keng tarqaldi. Buni modellashtirish muammolari va alohida fanlarda modellardan foydalanish imkoniyatlariga bag'ishlangan ko'plab ishlar tasdiqlaydi. Pedagogika fanida bu usul juda keng qo'llaniladi, uning asoslari V.G.Afanasyev, Y.K.Babanskiy, V.P.Bespalko, I.B.Novik va boshqalarning tadqiqotlarida keltirilgan. Tadqiqotimiz uchun

metodologik asos bo'lib xizmat qilgan pedagogika fanida modellashtirish masalalari S.I.Arxaangelskiy, Y.A.Konarjevskiy, V.V.Krayevskiy va boshqalarning tadqiqotlarida yoritilgan.

O'rganilayotgan obyektning ushbu tomonlarini muvaffaqiyatli modellashtirish uchun yetarli darajada real isbotlanadigan bo'lgan holda, modellashtirishda ruxsat etilgan soddalashtirish darajasini ko'rsatadigan tegishli nazariyalar yoki farazlarga ega bo'lish kerak. Modelni (modellashtirish) yaratish jarayonining regulatori nafaqat empirik faktlar, balki murakkab tizimning alohida tarkibiy qismlarining ishlashini tushuntiruvchi ilmiy nazariyalar, shuningdek, doirasida obyektning xatti-harakati tushuniladigan dunyoning ilmiy manzarasi ham hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Modellashtirish boshqa tadqiqot usullari bilan organik bog'liqlikda qo'llaniladi. Modelning ahamiyati, aslligi tajriba jarayonida isbotlanadi va tasdiqlanadi. Modelning obyektga adekvatligi obyektning tavsiflovchi kuzatilishi mumkin bo'lgan ma'lum parametrlar (invariantlar) to'plamiga nisbatandir. O'zlashtirilgan fundamental yangi bilimlarning kognitiv funksiyasi nafaqat aqliy kuzatilgan jarayon yoki hodisani tavsiflash va tushuntirish, balki obyektning kelajakdagi xatti-harakatlarini bashorat qilishdir.

Modellashtirish jarayonining natijasi modeldir. Model (lotin tilidan modulus — o'lchov, namuna, meyor) fan metodologiyasida tabiiy yoki ijtimoiy voqelikning ma'lum bir bo'lami, kontseptual va nazariy shakllanishning analogi *(o'xshashi) (tuzilmasi, belgilar tizimi) hisoblanadi. Xususan, V.A. Shtoff modelni aqliy jihatdan ifodalangan yoki moddiy jihatdan amalga oshirilgan tizim sifatida

belgilaydi, u o'rganish obyektini ko'rsatish yoki ijro etish orqali bizga ushbu obyekt haqida yangi ma'lumotlarni beradi.

Tahlil va natijalar. Model obyekt haqidagi ilmiy g'oyalarni saqlash va kengaytirish, uni yanada maqsadga muvofiq o'zgartirish va boshqarish uchun xizmat qiladi. Model - ko'rib chiqilayotgan jarayonning analitik yoki grafik tavsifidir (bizning tadqiqotimiz doirasida oliy ta'lim talabalarining kommunikativ ta'limini pedagogik boshqarish jarayoni).

Modelning tabiati quyidagi xususiyatlar asosida aniqlanadi: muayyan uslubiy tamoyillar asosida tuzilgan; komponentlar va ularning aloqalarini ichki talqin qilinishi; tashqi qo'shimcha fiksatsiya vositalariga tayanmasdan modelni xotirada saqlab qolish imkonini beruvchi semantik ixchamlik; modelga kiritilgan komponentlarning o'zaro bog'liqliklari va o'zaro shartlilik shunday muvofiqlash-tirilganki, ularning har qandayini modeldan olib tashlash u haqidagi to'liq ma'lumotni yo'qotilishiga olib keladi.

Ilmiy hamjamiyatta obyektning analogi sifatida modelni aqliy qurish uchun zarur va yetarli talablari ishlab chiqilgan. Model nazariyani ishlab chiqish vositasi bo'lib xizmat qilishi kerak; hodisa yoki jarayon haqidagi har qanday gipotezani izohlash vositasi bo'lish; boshqaruv nazariyasi yoki boshqa nazariyani ishlab chiqish, gipotezani tasdiqlash yoki rad etishi; kuzatilishi mumkin bo'lgan yoki kuzatish qiyin bo'lgan jarayonlarning rivojlanishini bashorat qilish vositasi bo'lishi; modellashtirish obyektining turli xil aloqalarini tavsiflash uchun eksperimental boshqariladigan, vizual va universal bo'lishi kerak. Bunday holda, modelning strukturaviy jihati tizimning ichki tashkil etilishini ajratib ko'rsatish va elementlarning aloqa usuli va xarakterini aniqlashga qaratilgan; funksional jihat tizimning ishlash mexanizmini, elementlarning ichki funksional o'zaro ta'sirini va tizimning tashqi muhit bilan o'zaro ta'sirini ko'rib chiqadi.

Oliy ta'lim talabalarining kommunikativ ta'limini pedagogik boshqarishning konseptual modelini ishlab chiqishda biz olimlar tomonidan modellashtirish jarayoniga qo'yilgan asosiy talablarga amal qildik. Ularni sanab o'tamiz:

- model elementlari o'rtasida tadqiqot yo'li bilan o'rnatilishi kerak bo'lgan va ulardan birida sodir bo'ladigan o'zgarishlarga javob beruvchi sabab-natija aloqalari mavjud bo'lib, bu faqat o'zaro aloqa mavjud bo'lgandagina mumkin; u yo'q bo'lganda, jarayonning samaradorligi minimal darajaga tushadi;
- model dinamikdir, ya'ni, sifat holatini o'zgartirish qobiliyatiga ega;
- faqat modelda ta'sir etganda jarayonning borishini o'zgartirish mumkin bo'lgan parametr mavjud bo'lgandagina modellashtirish amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim talabalarining kommunikativ ta'limini pedagogik boshqarishning konseptual modelini ishlab chiqishda biz quyidagilarni hisobga oldik: a) bo'lajak mutaxassislarining kommunikativ ta'limini ta'minlovchi o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi; b) obyektiv mavjud omillar: oliy kasb-hunar maktabining ijtimoiy buyurtmasi, oliy kasbiy ta'limning Davlat ta'lim maktarti; v) oliy ta'limning yaxlit ta'lim sohasi; d) semiotik-situatsion yondashuv imkoniyatlari; e) oliy ta'lim talabalarining kommunikativ kompetensiyasi darajasi.

Oliy ta'lim talabalarining kommunikativ ta'limni pedagogik boshqarishning konseptual modelini loyihalash quyidagi mantiqqa bo'ysunadi: 1) model chegaralarini aniqlash; 2) loyihalashning maqsad va vazifalarini, ularning loyihalashtirilayotgan jarayonning maqsad va vazifalari bilan bog'liqligini aniqlash; 3) ko'rib chiqilayotgan jarayon subyektlarini aniqlash; 4) model loyihalashtiriladigan tamoyillarni tanlash va asoslash; 5) modellashtiriladigan jarayonning asosiy vazifalari, mazmuni, usullari, yo'llari, vositalari, shakllarini aniqlash; 6) loyihalashtirilayotgan modelning maqsadiga erishish uchun zarur tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash; 7) ushbu modelni amalga oshirishda erishish kerak bo'lgan asosiy natijani aniqlash, texnologiya va diagnostika vositalarini asoslash.

Biz ishlab chiqqan oliy ta'lim talabalarining kommunikativ ta'limini pedagogik boshqarishning konseptual modeli tizimli tuzilmaga ega bo'lib, semiotik-vaziyatli yondashuvning mazmuni bilan belgilanadi va morfologik jihatdan besh komponent bilan ifodalanadi: maqsadli, tashkiliy-ijro etuvchi, mazmuniy, texnologik, analitik-natijaviy.

Boshqaruvga oid adabiyotlarda maqsadlarga quyidagi talablar qo'yiladi: ular aniq va o'lchanadigan, vaqtga aniq yo'naltirilgan, erishish mumkin (realistik), izchil va boshqa maqsadlarga mos bo'lishi kerak; asosiy ta'sir qiluvchilar uchun maqbul bo'lishi. Eksperimental tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim talabalarining kommunikativ ta'limini pedagogik boshqarish jarayoni rivojlanishining turli bosqichlarida ushbu manba omillarining nisbati o'zgaradi.

Maqsad konsepsiyasining turli xil talqinlariga asoslanib, uning tushunchasi istalgan natijaga erishishning belgilangan vaqti bilan, uni kerakli muddatda olish imkoniyatlari bilan bog'liq holda shakllanadi, ya'ni, olingan natijani har doim kutilgan natija bilan taqqoslashingiz mumkin bo'lgan tarzda berilgan kelajakdagi mutaxassislarini unga erishish yo'lida harakat qilishga undaydi. Shu bilan birga, yaqindagi maqsad deganda biz kelajakdagi samarali kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bo'lajak mutaxassislarining kommunikativ kompetensiyasini yanada yuqori darajada rivojlantirishni, istiqbolli maqsad deganda esa – jadal rivojlanayotgan zamonaviy jamiyat sharoitida yuqori moslashuvchan va professional raqobatbardoshlik va harakatchanlikka ega ta'lim oluvchilarning ta'lim sifatini oshirishni tushunamiz.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, biz ishlab chiqqan modelning maqsadli komponenti bo'lajak faoliyatni loyihalash va uni ishlab chiqishning mumkin bo'lgan variantlarini asoslash usullarini tavsiflaydi. U talabalarini o'quv maqsadiga erishish uchun o'z o'quv faoliyatini rejalashtirishga va kommunikativ muammolarni hal qilish yo'llarini topishga o'rgatishdan iborat. Maqsadli komponent talabalarining kommunikativ ta'limini pedagogik boshqarishni amalga oshirishda o'qituvchining barcha keyingi faoliyati uchun muhimdir.

Tashkiliy-ijro etuvchi komponent quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: o'quv ma'lumotlari bilan ta'minlash, talabalarining mustaqil ishini tashkil etish, o'quv jarayonida tezkor aloqani o'rnatish, ta'lim oluvchilarning kommunikativ ta'lim jarayonining doimiy monitoringi va biz ishlab chiqqan modelni tashkiliy-pedagogik amalga oshirish uchun shart-sharoitlari natijalarini tahlil qilish.

O'quv ma'lumotlarini berish. Ushbu bosqichning mohiyati o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasida ta'lim jarayonida bevosita aloqani o'rnatishdan iborat. Ushbu bosqich orientirli bo'lib, bo'lajak mutaxassislarining kommunikativ ta'limini pedagogik boshqarish maqsadiga erishish uchun muhim belgilar va zarur xususiyatlarni belgilaydi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi: a) boshqaruv maqsadlarini aniqlash; b) talabalarining kommunikativ ta'limini amalga oshirish uchun o'quv materialining sifat jihatidan o'ziga xosligini hisobga olish; v) ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olish.

Talabalarining mustaqil ishlarni tashkil etish - boshqariladigan ta'lim jarayonining ikkinchi bosqichi bo'lib, muayyan shartlar, ularning asosiy talabalarining vaqt budjetini to'g'ri taqsimlash mavjudligida sodir bo'ladi. Talabalarining kommunikativ ta'limini boshqarish sohasi aqliy mehnat ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Ta'lim jarayonida tezkor qayta o'zaro aloqani o'rnatish oliy ta'lim talabalarining kommunikativ ta'limini pedagogik boshqarishning uchinchi bosqichini o'zida nomoyon qiladi. O'quv jarayonida boshqaruv subyektlari o'rtasida turli aloqalar yuzaga keladi. O'qituvchidan talabaga ta'lim ma'lumotlarini yetkazib berish ta'limda bevosita aloqani tashkil qiladi. Ta'lim ma'lumotlarining sifati haqida ma'lumot olish, ya'ni, "ta'lim oluvchi-o'qituvchi" aloqasi ta'limda o'zaro aloqani shakllantiradi. Bundan tashqari, u o'quv jarayonining oxirida va o'quv jarayonida o'rnatilishi mumkin. O'quv jarayonida tezkor o'zaro aloqani o'rnatish olingan ta'lim ma'lumotlarini o'zlashtirish sifatini oshirishni ta'minlaydi.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan nazariy va eksperimental tadqiqotlar quyidagilarni ta'kidlashga imkon berdi: bo'lajak mutaxassislarining kommunikativ ta'limini pedagogik boshqarishning barcha bosqichlarida o'qituvchi ta'lim oluvchilarning kognitiv faoliyatini boshqarish uchun o'quv obyektlarining butun arsenalidan mohirona foydalanishi, shuningdek, talabalarining kognitiv faoliyatini boshqarishning umumiy nazariyasi tomonidan qo'yiladigan aniq ishlab chiqilgan talablar tizimiga amal qilishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. Бергильсон, М.Б. Межкультурная коммуникация как исследовательская программа: лингви-стические методы изучения кросс-культурных взаимодействий / М.Б. Бергильсон // Вестник МГУ. Сер. 19, Лингвистика и межкультурная коммуникация. - 2001. — №4.-С. 166-175.

2. Виханский, О.С. Менеджмент: человек, стратегия, организация, процесс : учебник / О.С. Виханский, А.К. Наумов. - Л. : Изд-во ЛГУ, -416 с.
3. Герчикова, Н.Н. Менеджмент : учебник / Н.Н. Герчикова. - 2-е изд. - М. : Банки и Биржи, 1995. — 480 с.
4. Yuldashev M.A. Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirishda ta'lim sifati mene-jmentini takomillashtirish. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2016. 92-b.
5. Qurbonov Sh.E., Seytxalilov E. Ta'lim sifati boshqarish. /T.: "Turon-Iqbol", 2006. -592 b.
6. Hamidov J.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasi. Diss. ... p.f.d. DSc. – T.: - 2017. – 335 b.



Gulzoda UZOQOVA,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: sharopovr@bk.ru

Qarshi davlat universiteti professori, f.f.n A.Irkayev taqrizi asosida

MILLIY YUKSALISH DAVRIDA MA'NAVIYAT TIKLANISHI: TARIXIY ILDIZLAR VA ZAMONAVIY TARAQQIYOT

Аннотация

Mazkur maqolada milliy yuksalish davrida ma'naviyatning tiklanishi jarayoni, uning tarixiy ildizlari va zamonaviy taraqqiyotdagi o'rnini tahlil qilinadi. Ma'naviyatni tiklashning zamonaviy davrga ta'siri va uning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishga qo'shgan hissasi falsafiy va ijtimoiy nuqtai nazardan o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Milliy yuksalish, ma'naviyat, tiklanish, zamonaviy taraqqiyot, tarixiy ildizlar, falsafiy tahlil.

ВОССТАНОВЛЕНИЕ ДУХОВНОСТИ В ЭПОХУ НАЦИОНАЛЬНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ: ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ И СОВРЕМЕННОЕ РАЗВИТИЕ

Аннотация

В данной статье анализируется процесс восстановления духовности в эпоху национального возрождения, его исторические корни и роль в современном развитии. Исследуется влияние возрождения духовности на современную эпоху, а также его вклад в социальное, экономическое и культурное развитие с философской и социальной точек зрения.

Ключевые слова: Национальное возрождение, духовность, восстановление, современное развитие, исторические корни, философский анализ.

SPIRITUAL REVIVAL DURING THE ERA OF NATIONAL RISE: HISTORICAL ROOTS AND MODERN DEVELOPMENT

Annotation

This article analyzes the process of spiritual revival during the era of national rise, its historical roots, and its role in modern development. The influence of spiritual revival on the modern era and its contribution to social, economic, and cultural development are studied from a philosophical and social perspective.

Key words: National rise, spirituality, revival, modern development, historical roots, philosophical analysis.

Kirish. Milliy yuksalish — bu xalqning tarixiy ildizlariga qaytishi, o'zligini anglash jarayoni bo'lib, u jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatlarida rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi milliy yuksalish uchun yangi imkoniyatlar ochdi. Milliy ma'naviyat tiklanishi va bu jarayonning zamonaviy taraqqiyot bilan bog'liq jihatlarini o'rganish milliy tiklanishning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

1991 yilda erishilgan mustaqillik bilan O'zbekiston o'zining milliy qadriyatlarini, madaniy merosini tiklash va rivojlantirish yo'liga kirdi. Bu davrda xalqning ma'naviyatini qayta tiklash va zamonaviy taraqqiyot jarayoniga moslashtirish masalalari dolzarblashdi. Milliy yuksalish davrida tarixiy voqealar, qadimiy an'analar va zamonaviy taraqqiyotning uyg'unlashuvi orqali jamiyatda yangi mafkura shakllana boshladi.

Tarixiy voqealar va ulardan kelib chiqadigan falsafiy xulosalar milliy ma'naviyatni yanada rivojlantirish va mustahkamlashga asos bo'ldi. Shuningdek, davlat tomonidan qabul qilingan ma'naviyatni tiklashga qaratilgan qarorlar va dasturlar, jumladan, 1997 yilda qabul qilingan "Ma'naviyat va ma'rifat" davlat dasturi bu jarayonda katta ahamiyat kasb etdi. Ushbu maqolada milliy yuksalish davrida ma'naviyat tiklanishining tarixiy ildizlari va zamonaviy taraqqiyot jarayonidagi o'rnini tahlil qilinadi. Xususan, milliy qadriyatlarining zamonaviy jamiyatdagi o'rnini va ma'naviyatning ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri keng ko'lamda yoritiladi.

Metodologiya. Maqolada ma'naviyat tiklanishining tarixiy va falsafiy aspektlarini o'rganish uchun asosan ijtimoiy-falsafiy va tarixiy tadqiqot usullari qo'llaniladi. Ma'lumotlar to'plashda ilmiy adabiyotlar, hujjatlar, milliy va zamonaviy manbalardan foydalanilgan. Yondashuv sifatida tarixiy voqealar va ularning hozirgi taraqqiyotga ta'siri o'rganiladi.

Tarixiy-falsafiy tahlil usuli milliy ma'naviyatning tiklanish jarayonini chuqurroq o'rganishga imkon beradi. Ushbu usul yordamida, o'timishda yuz bergan ijtimoiy-falsafiy voqealarning zamonaviy jamiyatga ta'siri o'rganildi. Tarixiy ildizlarni qayta tiklash orqali ma'naviyat va madaniyatning milliy o'zlikni mustahkamlashdagi roli ko'rib chiqildi. Jumladan, Temuriylar davrida va jadidlar harakati davridagi ma'naviyat tiklanishi bosqichlari tahlil qilindi.

Tizimli yondashuv orqali milliy yuksalish davridagi ma'naviyatning rivojlanishiga keng qamrovda qaraldi. Bu yondashuv milliy ma'naviyatni jamiyatning barcha sohalari bilan uzviy bog'liq tizim sifatida ko'rishga imkon beradi. Ma'naviyat tiklanishining davlat siyosatidagi, ta'lim sohasidagi va madaniy hayotdagi o'rnini o'rganildi.

Ijtimoiy-madaniy tahlil orqali milliy yuksalish davridagi ma'naviyatning ijtimoiy va madaniy hayotdagi o'rnini o'rganildi. Bu usul jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar, ta'lim va tarbiya tizimidagi islohotlar hamda zamonaviylik va vorisiylik tamoyillarini tahlil qilishda yordam berdi. Ayniqsa, milliy madaniyat va san'atning tiklanish jarayonida ma'naviyatning qamrovli o'rnini chuqur o'rganildi.

Milliy yuksalish va ma'naviyatning tiklanish jarayonida muhim rol o'ynagan davlat hujjatlari, qonunlar va milliy dasturlar tahlil qilindi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining 1997 yilgi "Ma'naviyat va ma'rifat" dasturi hamda boshqa ma'naviy islohotlarga doir qarorlar va farmonlarning ahamiyati o'rganildi. Bu jarayonda davlat siyosatining milliy ma'naviyatni tiklash va rivojlantirishga qo'shgan hissasi ham ko'rsatib o'tildi.

Metodologiyaning har bir usuli milliy yuksalish jarayonidagi ma'naviyatning zamonaviy jamiyatdagi rolini chuqurroq o'rganishga qaratilgan bo'lib, milliy va tarixiy ildizlarning zamonaviy davrda qanday namoyon bo'layotgani tahlil qilindi.

Natijalar. Tarixiy ildizlar va milliy yuksalishda ma'naviyatning ahamiyati. Milliy yuksalish davri inson ma'naviyatining tiklanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tarixga nazar solsak, o'zbek xalqining madaniyati va ma'naviy qadriyatlarini qadimdan rivojlangan. Ayniqsa, islom madaniyati, temuriylar davri, va jadidlar harakati kabi davrlar ma'naviy tiklanishga zamin yaratgan. Shuningdek, mustaqillik davrida bu qadriyatlar qayta tiklanib, milliy yuksalishga asos bo'lgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy ma'naviyatning tiklanishi va rivojlanishi ustuvor vazifaga aylandi. Bu jarayon milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani qayta tiklash, xalqning ruhiy va madaniy qadriyatlarini mustahkamlashga xizmat qildi. Islom Karimov rahbarligida milliy istiqlol g'oyalari shakllandi va rivojlantirildi. Ayniqsa, 90-yillar oxirida O'zbekistonda ma'naviy tiklanish dasturi ishlab chiqildi.

Zamonaviy jamiyatda milliy yuksalishning asosiy komponentlaridan biri sifatida ma'naviyat qadriyatlarini muhim o'rin

tutadi. Bunda ta'lim-tarbiya tizimi orqali yosh avlodga milliy va ma'naviy qadriyatlarini yetkazish eng asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Ma'naviyatni rivojlanishi ijtimoiy hayotning turli jabhalarida, xususan, madaniyat, fan, ta'lim va siyosat sohalarida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Milliy yuksalishda vorisilik tamoyili barqarorlikning asosi sifatida namoyon bo'ladi. Milliy qadriyatlarining avloddan-avlodga o'tishi jamiyatni barqaror rivojlantirish va madaniy merosni asrab-avaylashning muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda ta'lim va tarbiya tizimining o'rni alohida ahamiyatga ega.

O'zbekistonning 1991 yil 1 sentyabrda mustaqillikka erishishi milliy yuksalish jarayonida ma'naviyatni qayta tiklash uchun asos yaratdi. Bu voqea xalqning milliy o'zligini anglash va tarixiy ildizlarga qaytish jarayonini boshlashga imkon berdi. Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarini qayta tiklash va rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

1997 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan "Ma'naviyat va ma'rifati" davlat dasturi qabul qilindi. Ushbu dastur milliy o'zlikni saqlash, tarixiy va madaniy merosni asrab-avaylash hamda milliy ma'naviyatni tiklash maqsadida ishlab chiqildi. Dastur milliy va ma'naviy qadriyatlarining ta'lim-tarbiya jarayoniga keng joriy qilinishiga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyasi milliy yuksalish va ma'naviyatni tiklash jarayonida huquqiy asos yaratdi. Konstitutsiyaning qabul qilinishi mustaqil davlat qurish, milliy qadriyatlar va ma'naviyatni asrab-avaylash uchun asos bo'lib xizmat qildi.

1996 yil O'zbekistonda Amir Temurning 660 yilligi keng nishonlandi. Shu munosabat bilan Amir Temur siyosati xalq orasida milliy iftixor va ma'naviyat ramzi sifatida qayta tiklandi. Amir Temur ordeni ta'sis etilib, u mamlakat rivojiga katta hissa qo'shgan shaxslar va tashkilotlarga topshirila boshlandi. Bu voqea O'zbekiston tarixidagi buyuk siymolarni qayta kashf etishga va ularning merosini asrab-avaylashga zamin yaratdi.

Munozara. Tarixiy ildizlarning milliy yuksalishdagi o'rni. Milliy yuksalish jarayonida tarixiy ildizlarning tiklanishi xalqning o'z o'tmishiga bo'lgan hurmatini oshiradi va milliy o'zlikni saqlab qolishga xizmat qiladi. Milliy o'zlikni anglash va uni zamonaviy davrda qayta tiklash, avvalo, xalqning madaniy va ma'naviy merosini chuqur o'rganishni talab etadi. Temuriylar davrida milliy madaniyat va ma'naviyatning yuksalishi, jadidlar davrida esa islohotlar orqali milliy tafakkurning yangilanishi tarixiy jarayonlarning zamonaviy taraqqiyotga ta'sirini ko'rsatadi. Ma'naviyat tiklanishining tarixiy ildizlari ayniqsa mustaqillik davrida milliy tiklanish uchun poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

Ma'naviyatning milliy yuksalishdagi falsafiy talqini. Milliy yuksalishda ma'naviyatning falsafiy ahamiyati katta o'rin tutadi. Ma'naviyat milliy o'zlikni shakllantiruvchi va jamiyatni birlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Milliy yuksalish davrida jamiyatning ma'naviy qadriyatlarini qayta tiklanadi va zamonaviy davrga moslashtiriladi. Bu jarayonda ta'lim-tarbiya tizimi asosiy rol o'ynaydi, chunki milliy va ma'naviy qadriyatlar yosh avlodga o'rgatilib, jamiyatda barqaror rivojlanish ta'minlanadi. Falsafiy tahlilga ko'ra, ma'naviyatning tiklanishi milliy madaniyatning zamonaviy taraqqiyotga mos ravishda rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Milliy yuksalish va zamonaviy taraqqiyot: ma'naviyatning o'zaro ta'siri. Milliy yuksalish va zamonaviy taraqqiyot o'rtasidagi munosabatlarda ma'naviyatning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviyat xalqning ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri bo'lib, zamonaviy taraqqiyotning ma'naviy jihatlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Milliy yuksalish davrida jamiyatda o'z-o'zini anglash va o'z madaniy qadriyatlariga bo'lgan hurmat kuchayadi. Bu jarayonda xalqning o'z ma'naviy merosiga qaytishi va uni zamonaviy davr talablariga moslashtirishi milliy yuksalishning ijtimoiy jihatlari mustahkamlaydi.

Ma'naviy qadriyatlarining tiklanishi va ta'lim-tarbiya tizimidagi o'zgarishlar. Milliy yuksalish davrida ta'lim-tarbiya tizimining islohotlari ma'naviyatning tiklanishiga katta ta'sir qiladi.

Ta'lim jarayonida milliy va ma'naviy qadriyatlar yosh avlodga o'rgatiladi va bu orqali xalqning ma'naviy merosi davom ettiriladi. Ta'lim-tarbiya tizimidagi o'zgarishlar milliy tiklanish va yuksalish jarayonida muhim o'rin tutadi, chunki ma'naviyatni qayta tiklash jarayoni, avvalo, ta'lim tizimi orqali amalga oshiriladi.

Uchinchi renessans: milliy yuksalishning yangi bosqichi. Milliy yuksalish jarayonida uchinchi renessansning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning hozirgi davrida uchinchi renessans poydevorini yaratish milliy yuksalishning asosiy vazifalaridan biridir. Ushbu jarayon ma'naviyatni tiklash va jamiyatni marifatli qilish orqali amalga oshiriladi. Uchinchi renessansning asosiy talablari orasida ma'naviy va madaniy qadriyatlarini rivojlantirish, yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, ilm-fan va madaniyatni yangilash kabilar mavjud. Ma'naviy tiklanishning yangi bosqichi sifatida uchinchi renessans jarayoni zamonaviy taraqqiyot va globalizatsiya sharoitida milliy madaniyatni asrab-avaylash va rivojlantirishga qaratilgan.

Milliy yuksalishda vorisilik va barqarorlikning falsafiy talqini. Milliy yuksalishning yana bir muhim jihati bu vorisilik va barqarorlikdir. Milliy qadriyatlarining avloddan-avlodga o'tishi jamiyatning ma'naviy barqarorligini ta'minlaydi. Vorisilik orqali milliy madaniyat va ma'naviyat davomiyligi saqlanib qoladi. Bu jarayonning zamonaviy taraqqiyotga ta'siri shundaki, milliy o'zlikni saqlash orqali xalqning global madaniyatga bo'lgan qarshi immuniteti shakllanadi va milliy qadriyatlar mustahkamlanadi.

Ma'naviyat tiklanishining zamonaviy jamiyatga ta'siri. Milliy yuksalish davrida ma'naviyat tiklanishi zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy-falsafiy asosini tashkil qiladi. Ma'naviy tiklanish, avvalo, xalqning o'z madaniy merosiga qaytishi va uni zamonaviy hayotga moslashtirishi bilan bog'liq. Bu esa, milliy o'zlikni saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Uchinchi renessans va ma'naviy yuksalishning ijtimoiy ahamiyati. Uchinchi renessans poydevorini yaratish milliy yuksalish davridagi muhim vazifalardan biridir. Bu jarayonda ma'naviy tiklanish va rivojlanishning ijtimoiy va falsafiy ahamiyati yanada chuqurroq anglanadi. Uchinchi renessansni barpo etish orqali zamonaviy jamiyatda yangi madaniy va ma'naviy qadriyatlar shakllanadi.

Xulosa. Milliy yuksalish davrida ma'naviyatning tiklanishi O'zbekistonning mustaqillik yillarida erishgan eng yirik yutuqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada milliy yuksalishning ma'naviy va tarixiy ildizlari, ularning zamonaviy jamiyat taraqqiyotiga ta'siri va ma'naviyatning xalqning milliy o'zligini tiklashdagi o'rni tahlil qilindi.

Milliy yuksalish faqatgina iqtisodiy yoki siyosiy o'zgarishlarni emas, balki xalqning ma'naviy uyg'onishi va qadriyatlarini saqlashini ham o'z ichiga oladi. Mustaqillikdan so'ng O'zbekistonda milliy ma'naviyatning tiklanishi davlatning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Tarixiy qadriyatlar va meroslar xalqning milliy o'zligiga xizmat qilib, zamonaviy taraqqiyot jarayoniga moslashtirildi. Shuningdek, ta'lim va madaniyat sohasida amalga oshirilgan islohotlar yosh avlodning milliy va ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalanishiga xizmat qildi.

Maqolada milliy yuksalish davrida ma'naviyat tiklanishining ahamiyati, tarixiy ildizlari va zamonaviy taraqqiyotdagi o'rni ko'rib chiqildi. Ma'naviyatni tiklash jarayoni xalqning milliy o'zligini anglash va mustahkamlashda, madaniy merosni asrab-avaylashda muhim o'rin tutadi. Milliy yuksalish jarayoni ma'naviy islohotlar va ta'lim-tarbiya tizimining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, milliy yuksalish jarayonida ma'naviyat tiklanishi xalqning milliy o'zligini anglash va mustahkamlashda, madaniy merosni asrab-avaylashda muhim ahamiyat kasb etdi. Milliy yuksalish va ma'naviyat tiklanishi faqat o'zbek xalqi uchun emas, balki butun jamiyat rivoji uchun muhim bo'lib, kelajak avlodlar uchun mustahkam poydevor yaratishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, milliy va zamonaviy qadriyatlarining uyg'unlashuvi milliy yuksalishning uzluksiz davom etishiga ishonch uyg'otadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviyat-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5040-son Qarori. 2021. 26 mart. <http://lex.uz/docs/-5344692>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviyat-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida" PQ-3160-son Qarori. 2017. 28 iyul. <https://lex.uz/docs/-4071203>
3. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston, 2017, 9-bet.
4. Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik" - T: 2021
5. Karimov, I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.: O'zbekiston, 1996.

6. Karimov I. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T: 2008
7. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Tanlangan asarlar, 2-jild. T.: "Ma'naviyat", 1998, 34-bet.
8. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. - T.: "Yoshlar nashriyot uyi", 2018. - 97 bet.
9. Abdullayev, A. Milliy madaniy merosning tiklanish jarayoni. T.: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, 2020.
10. Begmatov A. Tarbiya jarayoni va pedagogik diagnostika. // "Xalq ta'limi" jurnali, 2007. 5-son. -25 bet.
11. Uzoqova G. Milliy yuksalish sharoitida ma'naviyatning falsafiy tahlili //xalq ta'limi. – C. 22.
12. Uzoqova G. Siyosat jarayonlarda barqarorlik va beqarorlik dialektikasi //Ta'lim fidoyilari. – 2022. – T. 24. – №. 17. – C. 2-204.



Surayo UMIRZOQOVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi
E-mail: umirzoqovas25@bk.ru

Qarshi davlat universiteti professori, N.X. Oripova P.f.d, taqrizi asosida

MODERN APPROACHES TO MOTIVATING LEARNING IN THE DIGITAL AGE

Annotation

The article is devoted to the problem of formation of motivation for educational activities in the era of digitalization of education. The article concretizes the features of cognitive, emotional and social development of the digital generation, as well as the nature of the motivational process. The interpretation of the term «anti-motive» is presented, the set of reasons for the decrease in motivation for educational activities is described.

Key words: Motivational process, anti-motive, motivational pedagogical technologies, self-reflection of motivational opportunities.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К МОТИВАЦИИ И МОТИВАЦИИ УЧАЩИХСЯ В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

Статья посвящена проблеме формирования мотивации к учебной деятельности в эпоху цифровизации образования. В статье конкретизированы особенности когнитивного, эмоционального и социального развития цифрового поколения, а также характер мотивационного процесса. Представлено трактование термина «антимотив», описана совокупность причин снижения мотивации к учебной деятельности.

Ключевые слова: Мотивационный процесс, антимотив, мотивационные педагогические технологии, саморефлексия мотивационных возможностей.

ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA TA'LIMDA O'QUVCHILARNI MOTIVATSIYA QILISH

Аннотация

Maqola ta'limni raqamlashtirish davrida ta'lim faoliyati uchun motivatsiyani shakllantirish muammosiga bag'ishlangan. Maqolada raqamli avlodning kognitiv, hissiy va ijtimoiy rivojlanishining xususiyatlari, shuningdek motivatsion jarayonning tabiati ko'rsatilgan. «Antimotiv» atamasining talqini taqdim etiladi va ta'lim faoliyati uchun motivatsiyaning pasayishi sabablari tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: Motivatsion jarayon, antimotiv, motivatsion pedagogik texnologiyalar, motivatsion qobiliyatlarni o'z-o'zini aks ettirish.

Kirish. Raqamli avlodning kognitiv rivojlanishiga oid xususiyatlar orasida tadqiqotchilar «mozaik» yoki «klip» fikrlash, diqqatning tarqalishi, diqqatni bir predmetda 8 soniyadan ko'proq saqlash qobiliyatsizligi, katta hajmdagi matnlarni o'qish va tushunish qobiliyatsizligi, leksikaning cheklanganligi, shuningdek, «suzib yuruvchi dunyo tasavvuri», virtual va haqiqiy dunyolarni aralashtirishni kiritadilar [1].

Raqamli avlodning emosional-iroda rivojlanishida olimlar va amaliy pedagoglar o'quvchilarning sezgirlik tajribasining kambag'aligi, soddallashtirilgan haqiqat tasavvurini, haqiqiy hayotni « juda zerikarli» va « juda sekin» sifatida qabul qilishini ta'kidlaydilar. Ular sabrsizlik va darhol mukofotlanish ehtiyojini ko'rsatadilar, tizimli ta'lim faoliyatiga qodir emaslar [2].

Ijtimoiy rivojlanish nuqtai nazaridan zamonaviy sharoitlarda o'quvchilarda infantilizm, ya'ni shaxsning rivojlanishining yuqori intellektual darajasi bilan ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishning orqada qolgan darajasi o'rtasida disbalans kuzatiladi. Bir tomondan – individualizm, o'zining takrorlanmasligi va noyobligiga ishonch, ikkinchi tomondan – jonli mulqotga bo'lgan ehtiyojning kamayishi, hamkorlikka tayyor emaslik, o'z ichki dunyosiga e'tibor va mo'rt axloqiy-etik qarashlar. Umuman olganda, o'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishida asosiy rol tarmoqdagi ijtimoiylashuvga tegishli bo'lib, onlayn ham o'sishning barcha bosqichlarida «ma'ruzachi guruh» sifatida qabul qilinadi. Onlayn «ma'ruzachi guruh» o'quvchilarning rol modellari va ijtimoiy davranish trendlarini belgilaydi [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shaxsiga xos bo'lgan xavotirlanish ikki yunalishda ya'ni xavotir holati va xavotir shaxs xususiyati sifatida yuzaga keladi [1]. Xavotir holati aniq xavfni yuzaga keltiruvchi tashqi ta'sir natijasida paydo bo'ladi [2]. Futbolida hujumchining darvozaga to'pni yo'llash uchun qilayotgan harakati raqib darvozabonida xavotir holatini yuzaga keltiradi. Xavotir shaxs xususiyati sifatida esa individning xavotirlanishga shaxsiy moyillik darajasini ifodalaydi [3]. Xavotirlanishga moyilligi yuqori bo'lgan shaxslar xavotirni yuzaga keltiruvchi ta'sir kuchli bo'lmagan vaziyatda ham kuchli xavotirni kechirishi bilan ajralib turadi [4]. Bunday vaziyatda xavotirning nevroitik darajasi ifodalanadi va Z.Freyd talqini bo'yicha individ noreal ta'sirlardan xavotirlana boshlaydi [5]. Buning natijasida shaxs o'zida irodasizlikni namoyon eta boshlaydi [6]. Irodaviy faollik ongli jarayon ekanligi bois instinkitiv jarayon hisoblangan xavotirning kuchayishi natijasida irodaviy faollikning zaiflashuvi, irodaning buzilishi holatlari yuzaga keladi [7]. Sportchilarda irodaning zaiflashuvi yoki buzilishi ularning

musobaqa oldidan tushkunlik, salbiy natijani idrok etish, g'alabaga intilishga nisbatan irodaning etishmasligi holati kelib chiqadi [8]. Shu sababli o'smir futbolchilarni musobaqa irodaviy tayyorlash, ularning xavotirlanish darajasini me'yorlashtirish tadqiqotning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'smir futbolchilarni musobaqa irodaviy tayyorlash, sportchilarning musobaqa faoliyati uchun zarur bo'lgan irodaviy sifatlarini shakllantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot [9], sportchilarda irodaviy faollik zaiflashuvining oldini olish, xavotir darajasini me'yorlashtirish hamda psixik barqarorligini ta'minlash borasidagi qarashlar hamda o'smir futbolchilarning faoliyatida yuzaga kelgan qiyinchilik va to'siqlarni yengib o'tish borasida olib borilgan izlanishlar [10] tadqiqotning metodoligik asosi hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotda o'smir futbolchilarning xavotirlanish darajasini o'rganish maqsadida "Xavotir darajasini baholsh" so'rovnoma (Ch.D. Spilberger, Yu.L. Xanin) qo'llanildi. Tadqiqotda 511 nafar o'smir futbolchilar (tajriba guruhida 276 nafar, nazorat guruhida 235 nafar) qatnashdi. Ushbu so'rovnoma TG va NG ishtirokchilarning xavotirlanish darajasini xavotir holati va xavotir shaxs xususiyati sifatida aniqlashga yordam berdi. Dastlabki diagnostik natijaga asosan xavotir holati TG va NG ishtirokchilarida yuqori, xavotir shax xususiyati TG va NG ishtirokchilarida o'rta (yuqoriga moyil) ekanligi aniqlangan. Diagnostik natijalar asosida TG ishtirokchilarida xavotir holati va shaxs xususiyatini me'yorlashtirish bo'yicha psixokorreksiya amaliyoti tashkil etildi. Psixokorreksiya

amaliyoti samaradorligini aniqlash maqsadida o'tkazilgan keltirildi. (1-jadval)
postdiagnostik natijalar o'zgarishi dinamikasi va statistik tahlili


1-jadval

O'smir futbolchilarda xavotir darajasining tajribadan oldingi va keyingi ko'rsatgichlari o'zgarishi dinamikasi N=511/ TG=276, NG=235

Xavotir shkalasi	TG/NG	TO						TK						t
		y/6	%	k/6	%	m	%	y/6	%	k/6	%	m	%	
Xavotir holati	TG	54,1	67,7	56,4	70,5	55,3	69,1	34,5	43,2	34,4	43,0	34,5	43,1	4,21***
	NG	54,9	68,6	56,6	70,8	55,8	69,7	55,3	69,2	55,8	69,7	55,5	69,4	
Xavotir xususiyat	TG	44,1	55,1	45,2	56,5	44,7	55,8	39,9	49,9	40,2	50,2	40,1	50,1	3,24**
	NG	44,8	56,0	45,3	56,6	45,0	56,3	45,3	56,6	45,2	56,5	45,3	56,6	

Izoh: **p<0,01; ***p<0,001

O'smir futbolchilarda xavotir holati va xavotir shaxs xususiyati sifatida ifodalanishi darajasining tajribadan oldingi va keyingi ko'rsatgichlari o'zgarishi dinamikasi 1-rasmda diagramma shaklida ifodalangan.



1-rasm. O'smir futbolchilarda xavotir darajasining tajribadan oldingi va keyingi ko'rsatgichlari o'zgarishi dinamikasi

O'smir futbolchilarning TG va NG ishtirokchilarida vaziyatga xos xavotir holati va xavotir shaxs xususiyatining tajribadan oldingi va keyingi ko'rsatgichlari o'zgarishi dinamikasi tahlili:

Xavotir holati tajribadan oldin TGda m – 55,3 (69,1%) yuqori darajali vaziyatga xos xavotir ifodalangan bo'lsa, tajribadan keyin m – 34,5 (43,1%) o'rta darajada me'yoriy xavotir darajasiga pasaygan. Xavotir holati tajribadan oldin NGda m – 55,8 (69,7%) yuqori darajali vaziyatga xos xavotir ifodalangan bo'lsa, tajribadan keyin m – 55,7 (69,6%) yuqori darajali vaziyatga xos xavotir saqlanib qolgan. TGda olib borilgan xavotir holatini me'yorlashtirish bo'yicha olib borilgan psixologik korreksiya amaliyoti samarali ta'sir ko'rsatgan.

Xavotir shaxs xususiyati tajribadan oldin TGda m – 44,7 (49,9%) o'rta darajali xavotir xususiyati ifodalangan bo'lsa, tajribadan keyin m – 40,1 (50,1%) o'rta darajada me'yoriy xavotir darajasiga pasaygan. Xavotir shaxs xususiyati tajribadan oldin NGda m – 45,0

(56,3%) o'rta yuqori darajali (yuqoriga moyil) xavotir xususiyati ifodalangan bo'lsa, tajribadan keyin m – 45,3 (56,6%) o'rta yuqori darajali (yuqoriga moyil) xavotir xususiyati saqlanib qolgan. TGda olib borilgan xavotir shaxs xususiyatini me'yorlashtirish bo'yicha olib borilgan psixologik korreksiya amaliyoti samarali natija bergan.

O'smir futbolchilarning psixologik barqarorligi hamda xavotirlanish darajasining me'yoriyligini ta'minlash maqsadida sportchilarni musobaqa irodaviy tayyorlash jarayonida psixik barqarorlik komponentlari yuqoriga ko'tarish va xavotir shkalalarini me'yorlashtirish tajriba amaliyoti TG ishtirokchilarida olib borilgan. Tajriba amaliyoti samaradorligi psixik barqarorlik komponentlari va xavotir shkalalari ko'rsatgichi hamda irodaviy sifatlar bilan o'zaro bog'liqlik korrelyatsion tahlil qilinib, sportchilarning psixik barqarorligi hamda xavotir darajasi me'yorlashuvida qaysi irodaviy sifatning ahamiyati mavjud ekanligi ko'rsatib berildi. (2-jadval)

2-jadval

O'smir futbolchilarda psixik barqarorlik komponentlari va irodaviy sifatlar o'zaro bog'liqligi N=276 (TG)

shkalalar	emotsional barqarorlik	o'zini boshqarish	musobaqa motivatsiyasi	stabillik-bardoshlilik	Stress barqaror	Xavotir holati me'yori	Xavotir xususiyati me'yori
Maqsadga intiluvchanlik	0,82**	0,78**	0,85**	0,68**	0,81**	0,62**	0,58**
Qat'iyat va matonat	0,68**	0,72**	0,67**	0,73**	0,76**	0,74**	0,71**
Jur'at va jasorat	0,73**	0,68**	0,66**	0,64**	0,69**	0,76**	0,58**
Mustaqillik va tashabbuskorlik	0,64**	0,59**	0,75**	0,54**	0,46**	0,14*	0,16*
Sabotlilik va o'z-o'zini tuta bilish	0,81**	0,77**	0,64**	0,82**	0,73**	0,63	0,72**

Izoh: *p<0,05; **p<0,01

O'smir futbolchilarning psixik barqarorligini ifoda etuvchi xususiyatlari va xavotir darajasining irodaviy sifatlariga o'zaro bog'liqligi tahlil qilinib, sportchilarning psixik barqarorligini ta'minlashda qaysi irodaviy sifatning o'rni yuqori ekanligi hamda xavotir darajasi bilan o'zaro ta'siri ochib berilgan.

Korrelyatsion tahlilga asosan, psixik barqarorlikning emotsional barqarorlik komponenti maqsadga intiluvchanlik (r=0,82), sabotlilik va o'z-o'zini tuta bilish (r=0,81), jur'at va jasorat (r=0,73) irodaviy sifatlari bilan yuqori bog'liqlikni ifoda etadi. O'smir futbolchilarning emotsional barqaror bo'lishi ularning maqsadga intilishini oshiradi, murakkab harakatlarni sabot bilan bajarishga itiladi, salbiy ta'sirlarga nisbatan o'zini tub turadi hamda bunday harakatlarga ularning jura'ti va jasorati yetarli bo'ladi.

Sportda o'zini boshqarish komponenti maqsadga intiluvchanlik (r=0,78), sabotlilik va o'z-o'zini tuta bilish (r=0,77), qat'iyat va matonat (r=0,72) irodaviy sifatlari bilan yuqori bog'liqlikka ega bo'lgan. O'smir futbolchilar sport faoliyatida o'zlarini boshqara olishi ularning natijaga erishishi, belgilangan maqsadga intilishida yordam beradi. Shu bilan birga sportchilarning murakkab harakatlarni bajarish jarayonida qat'iyatlilik, matonat, sabotlilik ko'rsatishi, qiyin vaziyatlarda tutishi uchun sportchi o'zini boshqara olishi lozim.

O'smir futbolchilarning musobaqa motivatsiyasi maqsadga intiluvchanlik (r=0,85), mustaqillik va tashabbuskorlik (r=0,75)

irodaviy sifatlari bilan yuqori bog'liqlik namoyon etadi. Sportchilarning musobaqa motivatsiyasi yuqori bo'lishi uchun ularda maqsadga intilish va unga erishish istagi yuqori bo'lishi hamda maqsad sari intilishda mustaqil bo'la olish, musobaqa jarayonida tashabbus ko'rsata olish zarur irodaviy faollik hisoblanadi.

Stabillik-bardoshlilik komponenti sabotlilik va o'z-o'zini tuta bilish (r=0,82), qat'iyat va matonat (r=0,73) irodaviy sifatlari bilan yuqori bog'liqlikni ifoda etadi. O'smir futbolchilarning tanlangan harakatlarni bajarishda stabil bo'lishi va beqarorlikka yo'l qo'ymasligi, qiyin vaziyatlarga bardoshli bo'lishi uchun ularda sabotlilik va o'z-o'zini tuta bilish, qat'iyat va matonat zaruriy irodaviy sifatlar hisoblanadi.

O'smir futbolchilarning stress barqarorligi komponenti maqsadga intiluvchanlik (r=0,81), qat'iyat va matonat (r=0,76), sabotlilik va o'z-o'zini tuta bilish (r=0,73) irodaviy sifatlari bilan yuqori bog'liqlikka ega bo'ladi. Sportchilar yuqori natijaga etish va maqsadga intilish bilan harakat qilishi uchun ularda stress barqarorlik bo'lishi kerak. Shu bilan birga sportchilarning stress barqarorligi yuqori bo'lishi uchun qanchalik qiyin bo'lmasin maqsad sari qat'iyat va matonat bilan harakat qilishi, og'ir vaziyatlarda sabotlilik bo'lishi va o'zini tuta olishi kerak.

Xavotir holati me'yoriyligi qat'iyat va matonat (r=0,74), jur'at va jasorat (r=0,76) irodaviy sifatlar bilan yuqori bog'liqlikni ifoda etadi. Sportchilarning xavotir darajasi me'yoriy bo'lishi uchun

qat'iyat va matonat hamda jur'at va jasorat irodaviy sifatleri tarbiyalanishi lozim. Ushbu irodaviy sifatler sportchilarda hayajonli, tahlikali vaziyatlarda harakatga kirish uchun qat'iylik, sabr va bardoshli bo'lishiga hamda o'zini irodaviy tuta bilishiga turki bo'ladi.

Xavotir shaxs xususiyati sifatida me'yoriyligi qat'iyat va matonat ($r=0,71$), sabotlilik va o'z-o'zini tuta bilish ($r=0,72$) irodaviy sifatleri bilan bog'liq bo'lib, sportchilarda me'yoriy xavotir xususiyatini shakllantirishda qat'iyatlilik, matonatlilik, sabotlilik va

o'z-o'zini tuta bilish irodaviy sifatleri shakllanganligi bilan belgilanadi.

Xavotirlanish darajasining me'yoriyligi psixik barqarorlik komponentleri bilan qanday bog'likka ega elanligi futbolchilarning xavotir holati ularning psixik barqarorligiga qanday ta'sir etishini aniqlashga imkon beradi. Buning uchun TG ishtirokchilarida olib borilgan tajriba amliyotidan keyingi xavotirlanish darajalari va psixik barqarorlik ko'rsatgichlari korrelyatsion tahlil qilingan. (3-jadval)

3-jadval

O'smir futbolchilarda psixik barqarorlik komponentlarining xavotir bilan o'zaro bog'liqligi N=276 (TG)

Xavotir shkalalar	Psixik barqarorlik komponentleri				
	emotsional barqarorlik	o'zini boshqarish	musobaqa motivatsiyasi	stabillik-bardoshlilik	Stress barqaror
Xavotir holati me'yori	0,85**	0,74**	0,62**	0,64**	0,82**
Xavotir xususiyat me'yori	0,76**	0,71**	0,54**	0,57**	0,78**

Izoh: ** $p \leq 0,01$

O'smir futbolchilarda psixik barqarorlik komponentlarining xavotir holati va xavotir shaxs xususiyati bilan o'zaro bog'liqligini korrelyatsion tahlil qilish natijasida sportchilarning psixik barqarorligi komponentlarining me'yoriyligini ta'minlashda xavotir holati va xususiyatining ahamiyati aniqlandi. Tahlilga asosan, xavotir holati me'yoriyligi emotsional barqarorlik ($r=0,85$), stress barqarorlik ($r=0,82$), o'zini boshqarish ($r=0,74$) komponentleri bilan yuqori bog'liqlikka ega bo'lib o'smir futbolchilarning emotsional barqarorligi, stress barqarorligi, o'zini boshqarishi yuqori bo'lishi uchun ularning xavotir holati ham me'yoriy bo'lishi talab etiladi. Xavotir holati musobaqa motivatsiyasi ($r=0,62$), stabillik-bardoshlilik ($r=0,64$) komponentleri bilan o'rta darajada bog'liqlikka ega bo'lib, o'smir futbolchilarning musobaqa motivatsiyasi yuqoriligi hamda musobaqa jarayonida bardoshli bo'lishida xavotir holati me'yoriyligi ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi.

Xavotir xususiyati me'yoriyligi emotsional barqarorlik ($r=0,76$), stress barqarorlik ($r=0,78$), o'zini boshqarish ($r=0,71$) komponentleri bilan yuqori bog'liqlikka ega bo'lib o'smir futbolchilarning doimiy ravishda emotsional barqarorligi, stress barqarorligi, o'zini boshqarishi yuqori bo'lishi uchun ularning xavotir xususiyati me'yoriy bo'lishi lozim. Xavotir xususiyati musobaqa motivatsiyasi ($r=0,54$), stabillik-bardoshlilik ($r=0,57$) komponentleri bilan o'rta darajada bog'liqlikka ega bo'lib, o'smir futbolchilarning musobaqa motivatsiyasi doimo yuqori saqlanishi, musobaqa

jarayonida doim bardoshli harakat qilishida xavotir xususiyati me'yoriyligi samarali ta'sir etadi.

Xulosa va takliflar. O'smir futbolchilarni musobaqa irodaviy psixologik tayyorlash tizimida sportchilarning xavotirlanish darajasi irodaviy faollik jarayoniga ta'siri tadqiqotda o'rganildi. Ishtirokchilarning xavotir holati va shaxs xususiyati sifatida diagnostik natijalar asosida irodaviy tayyorgarlikni oshirish maqsadida xavotir darajasini me'yorlashtirish tajriba amaliyoti tashkil etildi. Musobaqa jarayonida irodaviy tayyorgarlikning yuqori darajasiga etkazishga qaratilgan o'smir futbolchilarning psixik barqarorligi va me'yoriy xavotir darajasini saqlash uchun zarur bo'lgan irodaviy sifatlarining bog'liqligi tahlil qilinib maqsadga intiluvchanlik, qat'iyat va matonat, jur'at va jasorat, mustaqillik va tashabbuskorlik, sabotlilik va o'z-o'zini tuta bilish irodaviy sifatlarining ahamiyatli ekanligi aniqlangan. Shu bilan birga futbolchilarning psixik barqarorligi me'yoriy xavotir darajasi bilan o'zaro bog'liqlikka ega ekanligi isbotlandi. O'smir futbolchilarni musobaqa irodaviy psixologik tayyorlash jarayonida sportchilarning xavotir holati va shaxs xususiyatini o'rganish orqali musobaqa jarayonida futbolchilarning irodaviy faollik darajasini oshirishga e'tibor qaratish lozim. Irodaviy tayyorgarlik tizimi sportchining psixik barqarorlik tizimi va xavotir darajasiga bog'liq ekanligini e'tiborga olib korrelyatsion aloqadorlik asosida belgilangan irodaviy sifatlarini rivojlantirish va buning natijasida musobaqa davomida psixik barqarorlik va me'yoriy xavotir darajasini ta'minlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

ADABIYOTLAR

- Xaitov A.U. Sport psixodiagnostikasi va psixokorreksiya. Darslik. - T.: "O'zkitobsavdonashriyoti", 2020. - 343 b.
- Schultz D., Schultz S. Theories of personality. 8th edition. Phoenix color corp. USA 2005. 550 p.
- Ильин Е.П. Эмоции и чувства. - СПб: «Питер», 2001. 752 с.
- Исаев Д.Н. Эмоциональный стресс, психосоматические и соматопсихические расстройства у детей. СПб.: Речь, 2005. 400 с.
- Хьелл Л., Зиглер Д. Теории личности. СПб: Питер-2014. 836 с.
- Ильин Е.П. Психология воли. СПб., ООО «Питер Пресс». 2009. - 368 с.
- Arziqulov D.N., Garparov Z.G. Psixologiya va sport psixologiyasi. Darslik. - T.: "O'zkitobsavdonashriyoti" NMIU, 2021. - 408 b.
- Сопов В.Ф. Теория и методика психологической подготовки в современном спорте. Методическое пособие. М. 2010. 118 с.
- Xaitov A.U. O'smir futbochilar irodaviy sifatlarini rivojlantirishning psixologik asoslari. Maktab va hayot. Toshkent 2023. №5. 25-27-b.
- Xaitov A.U. O'smir futbochilar faoliyatida chidamlilik va iroda kuchini rivojlantirish. Fan va jamiyat. Nukus 2024. №3/2. 91-93-b.



UDK:372.881.111.1

Yulduz KHAYITMURODOVA,
Renaissance university
E-mail: yulduzxayitmurodova@gmail.com

Based on the review of AUT professor, Doctor of Philosophy, Yu.Badelbaeva

STUDENTS' OR FUTURE SPECIALISTS' ATTENTION TO A FOREIGN LANGUAGE IN THE DEVELOPMENT OF THE ENGLISH LANGUAGE

Annotation

Nowadays, some trends have appeared for students to study English thoroughly. The need to educate students and specialists as socially active citizens, to teach people's spiritual culture, ethnic traditions, and foreign languages is growing. Preparation for communication requires the acquisition of special knowledge, skills and abilities

Key words: student, higher education, foreign language, specialist, communication, competence.

ВНИМАНИЕ СТУДЕНТОВ ИЛИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ К ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ В РАЗВИТИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В настоящее время наметились тенденции углубленного изучения английского языка студентами. Растет потребность в воспитании студентов и специалистов как социально активных граждан, в обучении духовной культуре народа, национальным традициям, иностранным языкам. Подготовка к общению требует приобретения специальных знаний, навыков и умений.

Ключевые слова: студент, высшее образование, иностранный язык, специалист, коммуникация, компетентность.

INGLIZ TILINI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR YOXUD BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNING XORIJIY TILGA BO‘LGAN E‘TIBORI

Annotatsiya

Hozirgi vaqtda talabalarning ingliz tilini puxta o‘rganishlari uchun ba‘zi tendentsiyalar paydo bo‘ldi. Talaba va mutaxassislarni ijtimoiy faol fuqaro sifatida tarbiyalash, xalqning ma‘naviy madaniyati, etnik an‘analari, chet tillarini o‘rgatish zarurati ortib bormoqda. Muloqotga tayyorgarlik maxsus bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashni talab qiladi

Kalit so‘zlar: talaba, oliy ta‘lim, xorijiy til, mutaxassis, muloqot, kompetensiya.

Introduction. Modern people should be formed not only as a specialist in a field, but also as a person who knows foreign languages and information technologies well, have a broad outlook and knowledge. Currently, not only the need of students to acquire higher education, but also their acquisition of oral and written communication in a foreign language for personal and professional purposes is an important factor. Learning a foreign language is one of the factors that increase the value of a student in the future as a specialist. It plays an important role in the process of globalization, serves to expand political, economic, cultural and personal inter-ethnic relations, cultural relations between countries. Fundamental reforms in the field of language teaching are being implemented in our republic based on world experience. Competence in education as one of the main directions of modernization of the content of education in the developed countries of the world in the 21st century serious attention to the issue of introduction of cooperation being directed.

Since ancient times, people have been very interested in learning languages, and knowing languages and speaking several languages was considered a great virtue.

Today, there is a multilingual environment in many countries of the world, and knowing and using different languages in everyday life, having mutual respect for representatives of other nations, helps to provide for one's vital needs. Multilingual environment for education system to adapt learners to such a complex environment is responsible for creating opportunities, ensuring that they receive quality education, taking into account their social, cultural and political requirements.

Literature Review. According to the analysis, according to international standards, the current program of foreign language education for students in general sets the goal of acquiring a foreign language and presupposes the formation of a mature citizen [2]. In the framework of this general goal, "the ability of bachelors to carry out intercultural relations for professional purposes, competitiveness, striving for self-development in a constantly changing multilingual and multicultural world, activity in solving tasks in the production and scientific sphere, the need for independent education, etc. are prioritized" [3].

Training of bachelors in a foreign language implies the acquisition of certain content of education, including professional

knowledge, which is considered as the organizer of socio-cultural competence according to G.D. Tomakhin [4] of cultural studies in modern science. One of the main and important methodological concepts that need to be compared in teaching a foreign language is the concept of conditions, which includes information about what stage, who, and how long to teach.

Socio-cultural competence is the ability to present authentic national characteristics: customs, values, rituals and other national-cultural characteristics of the country where one lives in comparison with the country where the language is being studied. Includes socio-cultural, socio-linguistic and socio-cultural, lexical, communicative competences. It is manifested in the understanding of the importance of learning a foreign language in today's multicultural world, the formation and development of the need to communicate in a foreign language, to work independently on oneself and use it as a means of social adaptation, to educate citizenship and patriotism, and to realize intercultural communication through a foreign language will be [5].

M. Selche-Murcia, Z. Dorney, S. Terrell developed a more perfect model of competencies and suggested adding new terms. They called sociolinguistic competence "Socio-cultural competence" and defined this competence as follows: "Socio-cultural competence refers to the ability of the speaker to use the language of communication in accordance with the pragmatic factors associated with changing the appropriate expression of the message within the context of social and cultural communication. These factors are complex and interrelated, and language is not only a communication coding system, but also an integral part of personal identity and the most important channel through which language is embedded in the culture of the community of speakers [6]".

Teacher's only lesson giving tasks check in students language in learning positive to grow each does not always show. Foreign teachers 80% tasks to students loads, tasks and the remaining 20% partially explanation, direction to give and from assessment organize found will be. That's why to study in their countries local study to those of the countries relatively independent to work a higher score was given. Both independent work or tasks based on students own from group mates positive and negative criticisms to hear and teacher this criticisms in total one whole give feedback through to the student price was given and this process with student and teacher between to

science or to the field relative to (language relevant) cultural competence developed [7].

So, in the process of acquiring new socio-cultural knowledge while learning a foreign language, their worldview expands, it provides effective management of communicative activity and personal behavior[2].

Research Methodology. It can be said that the culture of a person's life activity and the stable interaction of the socio-cultural space in which it changes determines the ability of a person to have different competencies [8].

One of the most important tasks is to improve students' enthusiasm for education, abilities, knowledge, skills and abilities, to teach them general professional subjects, to organize their independent and creative work. Our republic needs specialists who can think freely and have developed a comprehensive thinking in various fields. How urgent this issue is today is confirmed by the following comments of President Sh.M. Mirziyoev: "Today's rapidly changing world opens up new and great opportunities for humanity and young people" [1]. Teaching young people to think independently and freely is the need of the hour. It should remain a basic requirement for the youth of our country to be able to think independently throughout their lives and at all stages of education. J. Jalolov said that language is important for humanity is one of the values, in which the mother tongue is in the formation of thinking is the first source of service. Native word concepts formed on the basis of foreign language learning. It is embodied in the sound words. The transfer of language skills usually occurs in two ways can be observed. In the first case, the foreign language skills of the learner native language skills, if weaker than native language skills replaces foreign language skills. An example of this is English article occurrence in Uzbek, Russian and Kazakh languages. It is a bit of a challenge for English language learners and students who have not mastered the topic of the article well show that they omit this element in spontaneous speech possible. In the second case, the foreign language skills of the language learner if not at all, because of the interference of native language skills easily occupies the created space. In such a psychological process the balance between the rules of the languages that come into contact is broken.

Results. The most basic and a big challenge is the first point in the student's language experience - his mother occurs through language interference. In this case, the mother tongue and if the differences between the first foreign language are strong, that is, these languages belong to different groups both genetically and morphologically if there is, then the effect of interference will be strong. If these languages if they are close to each other or brothers in some way, then the effect of interference will be weak. The second foreign language and the above-mentioned universals are the first for students to acquire any skills acquired through foreign language experience helps to quickly eliminate the interfering effect. The formation of politeness in language in different cultures speech etiquette when speaking in a foreign language because it is different cases of incorrect use of units may also occur. Such inaccuracies

belong to the type of socio-cultural errors. To politeness, there are two or more different attitudes and ways of its manifestation

culture originates from the unique worldview of the representatives.

A foreign language teacher is organizing a lesson it will be necessary to take into account the existing language experience of students. The term "experience" or "language experience" is interpreted here as a scientific categorical term, that is, the student's general awareness of the structure of the language, lexical, grammatical, pronunciation of the language reserve. Tool means the ability to give and receive information within a specific topic, to work with language units related to a specific topic during speech. There are some points which we need according to language:

1) teaching a foreign language in a specific educational institution (kindergarten / school / academic lyceum / vocational college / higher education institution);

2) teaching where there is/is no foreign language environment;

3) intensive (short-term accelerated) and extensive (time stretched with attention) education.

"Education of whom?" characteristics of language learners as well as language experiences are implied, that is, only those who know their mother tongue, those who know another language besides their mother tongue.

"How long?" means weekly and yearly in the curriculum the amount of classes (lesson hours) is provided. The content of education is formed based on the purpose and conditions of teaching a foreign language in an educational institution. Although the components of the content (speech topics, skills and language material) are relevant for all educational institutions, their quantity and quality indicators differ depending on the purpose and conditions. Requirements for qualifications and subjects are the determining factor of the content of education. Each educational institution selects separate lexical, grammatical, pronunciation, spelling, and word formation minimums for foreign language subjects. The process of mastering the educational content is also in each situation.

Traditional methods of language teaching based on characteristics and circumstances one of the unconventional methods is chosen

Conclusion. In conclusion, it should be said that the relations of representatives of different cultures, the modern socio-economic situation, management, the processes of globalization of international relations (production, science, culture, education, etc.) require the improvement of integration and international activities of people's life activities. The main and greatest difficulty in language acquisition occurs at the first point in the learner's language experience. In this case, the stronger the differences between the mother tongue and the first foreign language, that is, if these languages belong to different groups both genetically and morphologically, then the stronger the interference effect. Forewarning language learners about the differences between these languages, choosing the right form and type of lesson will reduce the likelihood of interference errors and help prevent them.

REFERENCES

1. Uzbekistan Republic President Shavkat Mirziyoev Uzbekistan Republic Constitution acceptance for the 24th anniversary it's done in the ceremony lecture. 2016 year . December 7 .
2. Pustovalova J.S., Galimzyanova I.I. Pedagogical conditions for the formation of inoyazychnoy communicative competence in the process of professional-orientirovannogo obucheniya inostrannomu zыzyku. / Journal: Vestnik of Kazan Technological University. Tom : 15. #15. 2012 S. 311-315. UDK: 378
3. Perfilova G.V. Primernaya program po discipline " Inostranny yazyk " dlya preparation bachelor (neyazykovoy vuz): program / G.V. , Perfilova . - M.: MGLU "Rema", 2011. -31p.
4. Tomakhin G.D. Lingvostranovedenie : chto eto takoe? / G.D. Tomakhin // IYaSh. -1996. - #6. - p. 22-27.
5. Foreign language (DEUTSCH) science according to study methodical complex . This is it educational and methodological complex High and medium special education Order No. 107 of the Ministry dated March 1 , 1017 with approved curriculum and program based on prepared // Compiler : Davlatov K.D. Tashkent - 2019.
6. Celce-Murcia M., Dornyei Z., & Thurrell S. (1995). Communicative Competence: A Pedagogically Motivated Model with Content Specifications. Issues in Applied Linguistics ISSN 1050-4273 C Regents of the University of California VoL 6 No. 2/ P. 25.
7. Badelbaeva Yu.O. Development of students' cultural competence based on integrative approach. Dis. (Phd) UDK 378.180.6, 2024, 18 page.
8. Minova M.E. Pedagogicheskie usloviya formirovaniya npravstvennyx tsestnostnyx orientatsiy podrostkov v detskom obshchestvennom ob'edinenii. Journal: Vestnik Kostromskogo gosudarstvennogo universiteta IM. N.A. Nekrasova . Tom: 18. #3. 2012 S. 232-237. UDC: 329.78



UDK 37.016:316.77 + 070:37.091.3

Xayrullo XASANOV,
Qo‘qon DPI, “Informatika” kafedrasida o‘qituvchisi
E-mail: hayrulloh2210@gmail.com

PhD, dotsent M.Boltayeva taqrizi asosida

THE DECISION-MAKING ROLE OF MEDIA LITERACY AND EDUCATION DIRECTED TO IT IN THE LIFE OF SOCIETY

Annotation

This article highlights the decisive role of media literacy and education focused on it in the life of society. Media literacy is the ability of people to correctly understand, analyze and consciously use messages from mass media. The article discusses the role of media literacy in protecting against false information and manipulation, active participation in democratic processes, and ensuring personal development and well-being. The necessity of media literacy for social stability and reliable information exchange is justified.

Key words: Media literacy, information analysis, critical thinking, protection from false information, democratic processes, information sources, social stability, digital literacy.

РЕШАЮЩАЯ РОЛЬ МЕДИАГРАМОТНОСТИ И НАПРАВЛЕННОГО НА НЕЙ ОБРАЗОВАНИЯ В ЖИЗНИ ОБЩЕСТВА

Аннотация

В данной статье подчеркивается решающая роль медиаграмотности и ориентированного на нее образования в жизни общества. Медиаграмотность – это способность людей правильно понимать, анализировать и осознанно использовать сообщения средств массовой информации. В статье рассматривается роль медиаграмотности в защите от ложной информации и манипуляций, активном участии в демократических процессах, обеспечении развития и благополучия личности. Обоснована необходимость медиаграмотности для социальной стабильности и надежного обмена информацией.

Ключевые слова: Медиаграмотность, анализ информации, критическое мышление, защита от ложной информации, демократические процессы, источники информации, социальная стабильность, цифровая грамотность.

MEDIASAVODXONLIK VA UNGA YO‘NALTIRILGAN TA‘LIMNING JAMIYAT HAYOTIDAGI HAL QILUVCHI ROLI

Аннотация

Ushbu maqola mediasavodxonlik va unga yo‘naltirilgan ta‘limning jamiyat hayotidagi hal qiluvchi roli yoritiladi. Mediasavodxonlik insonlarning ommaviy axborot vositalaridan kelayotgan xabarlarini to‘g‘ri tushunish, tahlil qilish va ulardan ongli ravishda foydalanish qobiliyatidir. Maqolada mediasavodxonlikning yolg‘on axborot va manipulyatsiyaga qarshi himoyalani, demokratik jarayonlarda faol ishtirok etish hamda shaxsiy rivojlanish va farovonlikni ta‘minlashdagi o‘rni haqida fikr yuritiladi. Mediasavodxonlikning jamiyat barqarorligi va ishonchli axborot almashinuvi uchun zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Mediasavodxonlik, axborot tahlili, tanqidiy fikrlash, yolg‘on axborotdan himoyalani, demokratik jarayonlar, axborot manbalari, ijtimoiy barqarorlik, raqamli savodxonlik.

Kirish. Mediasavodxonlik bu savodxonlikning kengaytirilgan konsepsiyasi bo‘lib, u media xabarlariga kirish va tahlil qilish, shuningdek, dunyoni o‘zgartirish uchun axborot va aloqa kuchidan foydalangan holda yaratish, aks ettirish va harakat qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Media savodxonligi turli xil ommaviy axborot vositalariga taalluqlidir va ish, hayot va fuqarolik uchun muhim ko‘nikmalar sifatida qaraladi.

Adabiyotlar tahlili. Duglas Kellner va Jeff Share media-talimga to‘rt xil yondashuvni tasnifladilar: proteksionistik yondashuv, media-san‘at ta‘limi, mediasavodxonlik harakati va tanqidiy media savodxonligi. Proteksionistik yondashuv ommaviy axborot vositalari auditoriyasini madaniy, mafkuraviy yoki axloqiy ta’sirlarga nisbatan zaif va ta‘lim orqali himoyaga muhtoj deb hisoblaydi. Media san‘ati bo‘yicha ta‘lim yondashuvi o‘quvchilar tomonidan turli xil media shakllarini ijodiy ishlab chiqarishga qaratilgan. Mediasavodxonlik harakati - bu savodxonlikning an’anaviy jihatlarini ta‘lim sohasidan olib chiqish va uni ommaviy axborot vositalarida qo‘llashga urinishdir. Tanqidiy media savodxonligi ommaviy axborot vositalari vakillarini shakllantiradigan kuch tuzilmalarini tahlil qilish va tushunishga qaratilgan va ommaviy axborot vositalarining dominant, muxolif va muzokaralar asosida o‘qishlari orqali ma’no yaratish uchun auditoriyalar qanday ishlashlari mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada mediasavodxonlik, media xabarlariga kirish va tahlil qilish, shuningdek, dunyoni o‘zgartirish uchun axborot va aloqa kuchidan foydalangan holda yaratish, aks ettirish masalalari muhokama qilinadi. Uning asosiy tarkibiy omillari va qismlari tavsiflanadi.

Tahlillar va natijalar. Media savodxonligi bo‘yicha ta‘lim mediasavodxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun qo‘llaniladigan jarayon bo‘lib, u ommaviy axborot vositalarining ta’siridan xabardorlikni oshirish va ommaviy axborot vositalarini iste’mol qilish va yaratishga nisbatan faol pozitsiyani shakllantirishga qaratilgan [1]. Media savodxonligi bo‘yicha ta‘lim dunyoning ko‘plab

mamlakatlarida o‘qitiladi va o‘rganiladi [2]. Finlyandiya media savodxonligiga katta sarmoya kiritadigan yetakchi davlatlardan biri sifatida tilga olinadi.

Media savodxonligi uchun ta‘lim ko‘pincha odamlarni ko‘rganlari, eshitganlari va o‘qiganlari haqida savollar berishga undaydi. Ko‘rib chiqilgan ommaviy axborot vositalarining ba’zi misollariga televizor, video o‘yinlar, fotosuratlar va audio xabarlar kiradi, lekin ular bilan cheklanmaydi.

Media savodxonligi bo‘yicha ta‘lim odamlarga xabarlarini tanqidiy tahlil qilish uchun qabul qiluvchi media qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan vositalarni taqdim etadi, o‘quvchilarga ommaviy axborot vositalaridan foydalanish tajribasini kengaytirish imkoniyatlarini taqdim etadi va o‘zlarining media xabarlarini yaratishda ijodiy qobiliyatlarini oshirish uchun generativ media qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi [3]. Tanqidiy tahlillar muallifni, maqsad va nuqtai nazami aniqlash, qurilish texnikasi va janrlarini o‘rganish, ommaviy axborot vositalari vakillarining namunalarini o‘rganish, yangiliklar va jamoat ishlarini dasturlashda tashviqot, senzura va tarfakashlikni aniqlashni (va bularning sabablarini) o‘z ichiga olishi mumkin. Media savodxonligi bo‘yicha ta‘lim taqdim etilgan ma’lumotlarga qanday ta’sir qilishini o‘rganishi mumkin, masalan, ommaviy axborot vositalariga egalik yoki uni moliyalashtirish modeli.


Media savodli odamlar har bir vositaning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunishni ko‘rsatish uchun, shuningdek, ommaviy axborot vositalarini yaratish va faol fuqarolar sifatida ishtirok etish uchun mohirlik bilan media xabarlarini yaratishi va ishlab chiqarishi mumkin. Mediasavodxonlikni savodxonlikning kengaytirilgan konsepsiyasiga hissa qo‘shishi, ommaviy axborot vositalari, ommabop madaniyat va raqamli ommaviy axborot vositalariga tahlil va baholashni talab qiladigan yangi turdagi "matnlar" sifatida qarash mumkin. Ommaviy axborot vositalarini iste’mol qilish jarayonini faol va tanqidiy jarayonga aylantirish orqali odamlar noto‘g‘ri talqin qilish

va manipulyatsiya imkoniyatlari haqida ko'proq xabardor bo'ladilar va ommaviy axborot vositalari va ommaviy axborot vositalarining voqelik qarashlarini shakllantirishdagi rolini tushunadilar.

Maqsadlar aloqaning barcha shakllaridan foydalanish, tahlil qilish, baholash, yaratish va harakat qilish odatlari va ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga olishi mumkin. Media savodxonligi bo'yicha ta'limni erta bolalikdan boshlab, ko'proq tanqidiy fikrlash va tushunchalar va matnlarni chuqurroq tahlil qilish va so'roq qilish atrofida pedagogikani rivojlantirish orqali boshlash mumkin.

Talabalar yoshi va balog'at yoshiga etishi bilan, media savodxonligini o'rganishdan foydalanish ommaviy axborot vositalaridagi axloqiy va texnik standartlarni aniqlashda, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining ularning kognitiv, ijtimoiy va hissiy ehtiyojlari bilan qanday bog'lanishini tushunishda ta'sir qiladi.

Shuningdek, fikrimizcha mediasavodxonlikning ma'lum komponentlari borki, ular bir-biridan ajralgan holda namoyon bo'la olmaydi:



1-rasm. Mediasavodxonlik komponentlari.

Inqiroz davrida samarali muloqot va media savodxonligining jamoatchilik idrokini shakllantirish va chidamlilikni oshirishda asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Inqirozli muloqot, shaffoflik va strategik xabarlar o'rtasidagi nozik o'yin, odamlarga noaniqlik va tez rivojlanayotgan rivoyatlarning shov-shuvli oqimlarida harakat qilish imkoniyatini berish uchun mediasavodxonlik bilan kesishadi [4]. Mediasavodxonlik, axborotni tanqidiy tahlil qilish va sharhlash qobiliyati dezinformatsiyaga qarshi qalqon va inqiroz davrida ongli qarorlar qabul qilish katalizatoriga aylanadi. Inqiroz bilan bog'liq aloqalarning markazida shaffoflik va aniqlik zarur. Mediasavodxonlik jamoatchilikni ma'lumot manbalarini sinchiklab o'rganish, tasdiqlangan yangiliklar va mish-mishlarni farqlash uchun vositalar bilan ta'minlaydi. Axborot tez sur'atlar bilan tarqaladigan ijtimoiy media asrida mediasavodxonlik tekshirilmagan yoki shov-shuvli kontentning ko'payishiga qarshi hal qiluvchi himoyaga aylanadi va shu tariqa jamoatchilikning yanada xabardor va oqilona munosabatiga hissa qo'shadi [5].

Bundan tashqari, mediasavodxonlik inqiroz haqidagi ma'lumotlarning nuanslarini tushunishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mediasavodxonligi ko'nikmalariga ega bo'lgan shaxslar kontekstni tushunishlari, mumkin bo'lgan noto'g'ri fikrlarni aniqlashlari va taqdim etilgan ma'lumotlarning sabablarini shubha ostiga olishlari

mumkin. Ushbu tanqidiy obyektiv haqiqiy inqiroz aloqasi va jamoatchilik kayfiyatini manipulyatsiya qilishga urinishlarni farqlay oladigan, yanada faol va aqli jamoatchilikni rivojlantiradi. Mediasavodxonlikka yo'naltirilgan ta'lim tashabbuslari inqirozga tayyorlanishning ajralmas qismiga aylanadi. Jamiyatlar kutilmagan hodisalarga tayyorlanar ekan, mediasavodxonlik ko'nikmalarini berish odamlarning nafaqat rasmiy xabarlarni qabul qilishlarini, balki ma'lumotni mustaqil ravishda izlash va sharhlash qobiliyatini ham ta'minlaydi. Ushbu proaktiv yondashuv mediasavodxonlikni passiv vositadan inqirozlarga jamoaviy javobni shakllantiruvchi faol kuchga aylantiradi [6].

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, inqirozli aloqa va mediasavodxonlikning kesishishi dinamik makon bo'lib, unda jamoatchilikning axborot bilan tanqidiy munosabatda bo'lish qobiliyati barqarorlik uchun asos bo'lib qoladi. Navigatsiya qilish nafaqat samarali muloqot strategiyalarini, balki vakolatli va ommaviy axborot vositalaridan xabardor jamoatchilikni ham talab qiladi. XXI asrning noaniqliklariga duch kelganimizda, inqirozli muloqot va mediasavodxonligi o'rtasidagi sinergiya jamiyatlarni ongli qarorlar qabul qilish va jamiyatda jamoaviy barqarorlikka yo'naltiruvchi mayoq sifatida namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Xobbs, Rene(2010). Raqamli va media savodxonligi: Harakat rejasi (PDF). Aspen instituti.
2. Potter, U. Jeyms (2010-11-30). "Mediasavodxonlik holati". Radioeshittirish va elektron ommaviy axborot vositalari jurnali. 54 (4): 675–696. doi: 10.1080/08838151.2011.521462. ISSN 0883-8151. S2CID 143563044.
3. Claybourn, Cole (2023 yil 14-noyabr). "Media savodxonligi nima? Ota-onalar nimani bilishi kerak". US News & World Report.
4. Fielding, Jennifer A. (2019 yil dekabr). "CRAAPni qayta ko'rib chiqish: talabalarni veb-manbalarini baholashda fakt-tekshiruvchilar kabi fikrlashga undash". C&RL News.80(11): 620–622. doi: 10.5860/crln.80.11.620. S2CID214267304. Asl nusxadan arxivlangan. Olingan 2019-12-31.
5. Hughes, Skylar (2023-07-20). "Yon tomondan o'qish: ishonchli manbalarni tekshirish uchun media savodxonligi bo'yicha eng yaxshi maslahat". Poynter. Olingan 2024-07-16.
6. Ruggeri, Amanda (2024 yil 10-may). "Elakdan o'tkazish" strategiyasi: noto'g'ri ma'lumotni aniqlashning to'rt bosqichli usuli". BBC. Olingan 2024-07-16.
7. Renee., Hobbs (2011). Raqamli va media savodxonligi: madaniyat va sinfni bog'lash. Ming Oaks, Kaliforniya: Corwin Press. ISBN 9781412981583. OCLC 704121171



Odinaxon XODJAEVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: odinaxon@mail.ru

Andijon davlat tibbiyot instituti professori, p.f.d A.Ismanova taqrizi asosida

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF CORRECTIONAL AND REHABILITATION WORK WITH PUPILS WITH SPEECH DISORDERS

Annotation

The article is devoted to the analysis of psychological and pedagogical foundations for the development of correctional and rehabilitation work in pupils with speech disorders. It examines key approaches and methods aimed at correcting speech disorders in children, taking into account their psychological and pedagogical characteristics. Particular attention is paid to the integration of modern scientific achievements in the field of speech therapy and psychology, as well as the need for an integrated approach that includes the interaction of various specialists. The article emphasizes the importance of individualization of the educational process and early intervention for the successful correction of speech disorders and the harmonious development of the personality of pupils.

Key words: Disorder, correction, rehabilitation, speech therapy, diagnosis of disorder, pedagogic-psychological approach, effectiveness of correctional-rehabilitative work.

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ КОРРЕКЦИОННО-РЕАБИЛИТАЦИОННОЙ РАБОТЫ С ВОСПИТАННИКАМИ С НАРУШЕНИЯМИ РЕЧИ

Аннотация

Статья посвящена анализу психолого-педагогических основ развития коррекционно-реабилитационной работы у воспитанников с нарушениями речи. В ней рассматриваются ключевые подходы и методики, направленные на коррекцию речевых нарушений у детей, учитывающие их психологические и педагогические особенности. Особое внимание уделяется интеграции современных научных достижений в области логопедии и психологии, а также необходимости комплексного подхода, включающего взаимодействие различных специалистов. В статье подчеркивается значимость индивидуализации образовательного процесса и раннего вмешательства для успешной коррекции речевых нарушений и гармоничного развития личности воспитанников.

Ключевые слова: Нарушения речи, коррекция, реабилитация, логопедия, диагностика причин нарушений речи, педагогико-психологические подходы, эффективность коррекционно-реабилитационных работ.

NUTQIDA NUQSONI BO‘LGAN TARBİYALANUVCHILARDA KORREKSION-REABILITATSION ISHLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqola nutqida nuqsoni bor tarbiyalanuvchilar uchun korreksiya va reabilitatsiya ishlarini rivojlantirishning psixologik va pedagogik asoslarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. U bolalarning psixologik va pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda nutq buzilishlarini tuzatishga qaratilgan asosiy yondashuvlar va usullarni o‘rganadi. Logopediya va psixologiya sohasidagi zamonaviy ilm-fan yutuqlarini integratsiyalashuviga, shuningdek, kompleks yondashuv, jumladan, turli mutaxassislarining o‘zaro hamkorligi zarurligiga alohida e‘tibor qaratilgan. Maqolada ta‘lim jarayonini individuallashtirish va nutq buzilishlarini muvaffaqiyatli tuzatish va tarbiyalanuvchilar shaxsini barkamol rivojlantirish uchun erta aralashuv muhimligi ta‘kidlangan.

Kalit so‘zlar: Nutqdagi nuqsonlar, korreksiya, reabilitatsiya, logopediya, nutqdagi nuqsonlarning sabablari diagnostikasi, pedagogik va psixologik yondashuvlar, korreksion-reabilitatsion ishlar samaradosligi.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar sonining ko‘payishi kuzatilmoqda, bu korreksiya va reabilitatsiya usullarini ishlab chiqish va takomillashtirishni talab qiladi. Bunday ishning psixologik va pedagogik asoslari bolaning aqliy rivojlanishining xususiyatlarini, nutq buzilishlarining uning shaxsiy va kognitiv rivojlanishiga ta‘sirini tushunishni, shuningdek, ushbu buzilishlarni engishga yordam beradigan usul va yondashuvlarni ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi. Ushbu maqolada nutq buzilishi bo‘lgan bolalar bilan korreksiya va reabilitatsiya ishlariga asosiy psixologik-pedagogik tamoyillar va yondashuvlar muhokama qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Nutq-bu faqat insonga xos bo‘lgan eng muhim aqliy funktsiya. Nutq-bu ma‘lum bir til orqali amalga oshiriladigan asosiy kommunikativ funktsiya. Nutq va uning so‘zning semantik birligi asosida idrok, tasavvur va xotira kabi aqliy jarayonlar shakllanadi va rivojlanadi. L. S. Vygotskiy nutq fikrlashni rivojlantirish va "Men"ni shakllantirish uchun asosiy omil ekanligini ta‘kidlagan [1].

Nutqning ma‘lum darajada buzilishi (nutq buzilishlarining xususiyatiga qarab) bolaning barcha aqliy rivojlanishiga salbiy ta‘sir qiladi, uning faoliyati va xatti-harakatlariga ta‘sir qiladi. Nutqning jiddiy buzilishi aqliy rivojlanishga, ayniqsa kognitiv faoliyatning yuqori darajalarining shakllanishiga ta‘sir qilishi mumkin, bu nutq va fikrlashning bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligi va ijtimoiy, xususan nutq, aloqalarning cheklanganligi bilan bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda bolaning atrofidagi voqelikni bilishi amalga oshiriladi [2].

Nutqning buzilishi, cheklangan nutq aloqasi bolaning shaxsiyatining shakllanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi, aqliy qatlamlarni, hissiy-ixtiyoriy sohaning o‘ziga xos xususiyatlarini keltirib chiqarishi, xarakterning salbiy fazilatlarini (uyatchanlik, qat‘iyatsizlik, izolyatsiya, negativizm, kamsitilganlik hissi) rivojlanishiga hissa qo‘shishi mumkin [4].

Logopediya nutq buzilishlarini o‘rganish, oldini olish va tuzatish bilan shug‘ullanadi.

Zamonaviy logopediyaning tuzilishi maktabgacha, maktab logopediya va o‘smirlar va kattalar logopediyadan iborat. Maktabgacha logopediyaning pedagogik fan sifatida asoslari R. E. Levina tomonidan ishlab chiqilgan va L. S. Vygotskiy, A. R. Luriya, A. A. Leontievning ta‘limotlariga asoslangan [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Nutqida nuqsoni bo‘lgan tarbiyalanuvchilar bilan korreksiya va reabilitatsiya ishlari sohasidagi tadqiqotlar metodologiyasi nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlash samaradorligini o‘rganish, diagnostika qilish, tuzatish va baholashga qaratilgan turli xil yondashuv va usullarni o‘z ichiga oladi. Ushbu sohada qo‘llaniladigan metodologiyaning asosiy jihatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Sifat tadqiqotlari. Sifat tadqiqotlari nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalarning individual xususiyatlarini va tuzatish jarayonlarini chuqur tushunishga qaratilgan. Amaldagi usullarga quyidagilar kiradi:

- Case study: muayyan bolalardagi nutq buzilishlarining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga va qo‘llaniladigan tuzatish usullarining samaradorligini baholashga imkon beradigan individual holatlarni batafsil o‘rganish.

- Kuzatish: tuzatish ishlari jarayonida bolalarning nutq rivojlanishini uzoq muddatli kuzatish, nutq xatti-harakatlaridagi o'zgarishlarni va boshqalar bilan o'zaro munosabatlarni qayd etish.

- Intervyular: o'qituvchilar, nutq terapevtlari, ota-onalar va bolalarning o'zlari bilan tuzilgan va yarim tuzilgan suhbatlar, ishtirokchilar tomonidan tuzatish va idrok etish jarayoni to'g'risida ma'lumot olish.

Miqdoriy tadqiqotlar. Miqdoriy tadqiqotlar tuzatish ishlari jarayonida olingan ma'lumotlarni statistik tahlil qilishga qaratilgan va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Eksperimental usul: turli xil texnikalarning bolalarning nutq qobiliyatini yaxshilashga ta'sirini o'rganadigan boshqariladigan tajribalarni o'tkazish. Masalan, yangi nutq terapiyasi dasturining samaradorligini baholash uchun eksperimental va nazorat guruhlarini yaratish.

- Sinov: tuzatish aralashuvidan oldin va keyin nutqni rivojlantirish darajasini o'lchash uchun standartlashtirilgan testlar va diagnostika usullaridan foydalanish.

- So'rovnomalar va so'rovlar: nutqni rivojlantirish va ijtimoiy moslashuvdagi o'zgarishlarni miqdoriy tahlil qilish uchun ota-onalar, o'qituvchilar va bolalarning o'zlari ma'lumotlarini to'plash.

Tadqiqotda qo'llanilgan usullar. Tadqiqotlar davomida adabiyotlar tahlili, taqqoslash, sabab- oqibat bog'lanishlarni aniqlash, mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tajriba-sinov ishini tashkil etishda birinchi navbatda tarbiyalanivchilarning mashg'ulotlarga psixologik jihatidan tayyorligi, qiziqishlari, ilmiy-ijodiy dunyoqarashlariga, ya'ni kreativ qobiliyatiga baho berilgandan so'ng mashg'ulotda ko'rgazmali organayzerlar, ko'rgazmali demonstratsion maketlar va tarqatma materiallardan foydalanib, o'yinlar va savol-javob metod va usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Bolalardagi nutq buzilishlarining psixologik jihatlarini o'rganishda ushbu omillar ko'rib chiqiladi va hisobga olinadi:

1. Nutq buzilishlarining shaxsning rivojlanishiga ta'siri - Bolalardagi nutqning buzilishi ularning shaxsiyatining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Nutqni rivojlantirishning kechikishi yoki buzilishi muloqotda qiyinchiliklarga, o'z-o'zini hurmat qilishning pasayishiga va hissiy va xulq-atvor muammolarining rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nutqda nuqsoni bo'lgan bolalar ko'pincha ijtimoiylashishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, bu esa izolyatsiya va kamsitilish tuyg'usiga olib keladi.

2. Kognitiv va nutq rivojlanishining o'zaro bog'liqligi - Nutq va fikrlash bir-biri bilan chambarchas bog'liq va nutqning buzilishi bolaning kognitiv rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, izchil nutqni shakllantirishdagi qiyinchiliklar mantiqiy fikrlash, xotira va e'tiborni rivojlantirishda muammolarga olib kelishi mumkin. Bu o'qituvchilar va psixologlardan bolaning nutqi va kognitiv xususiyatlarini hisobga oladigan yaxlit yondashuvni talab qiladi.

Korreksiya va reabilitatsiya ishlariga pedagogik yondashuvlar bu sohadagi pedagogik usul va vositalardan maqsadli foydalanishni nazarda tutadi. Bunda quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish maqsadga muvofiq:

1. Ta'lim jarayonini individuallashtirish - Nutqda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan pedagogik ishning asosiy tamoyillaridan biri bu o'quv jarayonini individuallashtirishdir. Har bir bola o'ziga xos ehtiyojlarini, rivojlanish darajasini va nutq buzilishining turini hisobga

oladigan shaxsiylashtirilgan korreksiya dasturini ishlab chiqadi. Shaxsiy yondashuv bolaning zaif tomonlariga yanada samarali ta'sir ko'rsatishga va uning kuchli tomonlarini mustahkamlashga imkon beradi.

2. Rivojlantirish usullaridan foydalanish - Nutqda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan korreksiya va reabilitatsiya ishlarida nutq faoliyatini rag'batlantirishga qaratilgan turli xil rivojlantirish usullari qo'llaniladi. Bunday usullarga logopediya mashqlari, artikulyatsiya va fonemik eshitishni rivojlantirishga qaratilgan o'yinlar, shuningdek so'z boyligini boyitish va nutqning grammatik tuzilishini rivojlantirishga qaratilgan usullar kiradi. Ushbu metodologiyalar umumiy ta'lim dasturiga kiritilishi va ta'limning barcha bosqichlarida qo'llanilishi muhimdir [5].

Korreksiya va reabilitatsiya ishlarida fanlararo yondashuvni ta'minlash yuqori samara beradi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Mutaxassislarining hamkorligi - Korreksiya va reabilitatsiya ishlarining samaradorligi fanlararo yondashuvdan foydalangan holda sezilarli darajada oshadi. Reabilitatsiya jarayonida nutq terapevtlari, psixologlar, defektologlar, o'qituvchilar va tibbiyot mutaxassislari ishtirok etishlari kerak. Ushbu mutaxassislarining birgalikdagi ishi bolaning muammolariga har tomonlama yondashishga, harakatlarning izchilligini va tuzatish choralarining to'liqligini ta'minlashga imkon beradi [6].

2. Oila bilan o'zaro hamkorlik - Korreksiya va reabilitatsiya jarayonida oilani faol jalb qilish ish muvaffaqiyatining muhim omilidir. Ota-onalar korreksiya ishlarining usullari va maqsadlaridan xabardor bo'lishlari, shuningdek, uyda bolani qo'llab-quvvatlash bo'yicha tavsiyalar olishlari kerak. Oilaviy mashg'ulotlar va maslahatlar ota-onalarga farzandining xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga va ular bilan samarali munosabatda bo'lishga yordam beradi.

Bolani psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

1. Psixologik yordam- Nutqning buzilishi ko'pincha hissiy qiyinchiliklar bilan birga keladi, shuning uchun bolani psixologik qo'llab-quvvatlash Korreksiya va reabilitatsiya ishlarining ajralmas qismidir. Psixologlar bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini rivojlantirish, hissiy stressni yengillashtirish va aloqa qo'rquvini engish uchun ishlaydi.

2. Rivojlanishni kuzatib borish va baholash - Psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlashning zarur elementi bolaning rivojlanishini muntazam monitoring qilish va baholashdir. Bu o'quv va reabilitatsiya dasturlarini o'z vaqtida tuzatishga imkon beradi, ularning bolaning o'zgaruvchan ehtiyojlariga mos kelishini ta'minlaydi.

Xulosa va takliflar. Nutqda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda korreksiya va reabilitatsiya ishlarini rivojlantirish psixologik va pedagogik asoslari mashg'ulotlarni individuallashtirish, rivojlanish usullaridan foydalanish, fanlararo hamkorlik va oilaning faol ishtirokini birlashtirgan kompleks yondashuvni o'z ichiga oladi. Bunday ishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mutaxassislar va ota-onalarning harakatlarining izchilligiga, shuningdek bolani o'z vaqtida psixologik qo'llab-quvvatlashga bog'liq. Zamonaviy tadqiqotlar va amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, ushbu yondashuv nutq buzilishlarini tuzatishda sezilarli yutuqlarga erishishga imkon beradi va bolaning shaxsiyatining to'liq rivojlanishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Выготский Л.С. Психология развития ребенка. — М.: Педагогика, 1984.
2. Лалаева Р.И. Коррекционно-развивающее обучение детей с нарушениями речи. — М.: Владос, 2002.
3. Леонтьева Т.В. Психолого-педагогические аспекты коррекции речевых нарушений. — М.: Просвещение, 2015.
4. Ушакова Т.Н. Развитие связной речи у детей: методические рекомендации. — М.: Аркти, 2010.
5. Петрова М.А. Междисциплинарный подход в коррекционной педагогике. — СПб.: Питер, 2021.
6. Муминова, Л., & Нуркельдиева, Д. (2022). Актуальные проблемы современной специальной педагогики находящиеся в сфере внимания современных ученых и практиков Узбекистана. Центральноеазиатский исследовательский журнал междисциплинарных исследований, 1 (Conference TSPU), 756–766. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/carjis/article/view/6079>



Elyorbek XOLMIRZAYEV,

Viloyat hokimligi yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha kotibiyati mudiri

E-mail: xolmirzayev@mail.ru

Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, p.f.d B.S.Abdullaeva taqrizi asosida

OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING CREATIVE THINKING AMONG STUDENTS IN TEACHING "HISTORY"

Annotation

The main task of higher education is to equip its graduates with the necessary knowledge and skills, based on modern requirements. When looking for new approaches to historical education in higher education, a set of problems arises related not only to the renewal of the subject itself, but also its entire methodology. This speaks, first of all, of the need for students to develop creative thinking, to form new methods of cognitive activity that meet modern requirements.

Key words: Creative thinking, future historians, heuristic teaching methods, professional training, creativity, creative thinking, creative thinking, creative ability, creative motivation, creative environment.

ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У СТУДЕНТОВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ «ИСТОРИИ»

Аннотация

Основная задача высшего образования состоит в том, чтобы вооружить своих выпускников необходимыми знаниями и навыками, исходя из современных требований. При поиске новых подходов к историческому образованию в высшем образовании возникает совокупность проблем, связанных не только с обновлением самого предмета, но и всей его методологии. Это говорит, прежде всего, о необходимости развития у студентов творческого мышления, формирования новых методов познавательной деятельности, соответствующих современным требованиям. Об этом говорится в статье.

Ключевые слова: Творческое мышление, будущие историки, эвристические методы обучения, профессиональная подготовка, креативность, творческое мышление, творческие способности, творческая мотивация, творческая среда.

“TARIX” FANINI O‘QITISHDA TALABALARDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Аннотация

Oliy ta'limning bosh vazifasi o'z bitiruvchilarini aynan hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda zarur bilim va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Oliy ta'limda tarix ta'limiga nisbatan yangicha yondashuvlarni izlab topish asosida, nafaqat predmetning o'zini, balki uning butun metodologiyasini yangilash bilan bog'liq muammolar majmui kelib chiqadi. Bu esa, avvalo, talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish, buning uchun hozirgi zamon talablariga mos keladigan bilish faoliyatining yangi usullarini shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Maqolada shu haqda so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ijodiy tafakkur, bo'lajak tarixchilar, evristik o'qitish usullari, kasbiy tayyorgarlik, kreativlik, ijodiy tafakkur, ijodiy fikrlash, ijodiy qobiliyat, ijodiy motivatsiya, ijodiy muhit.

Kirish. Bugungi kunda “jamiyatning axborotlashuvi”, hozirgi zamon kishisining “axborot madaniyati” haqidagi qarashlari ortib bormoqda. Aniqrog'i, axborot hajmining ko'pligi va turli-tumanligi ularni faqat darsliklardagi o'quv materiallari orqali bolalarga yetkazish yetarli bo'lmay qoldi. Shunday ekan, ushbu axborot oqimida talaba o'zini yo'qotib qo'ymasligi, shuningdek, mustaqil izlana olishi va kerakli bilimlarni u yoki bu sohada qo'llash uchun tegishli vositalar va metodlarga ega bo'lishi lozim.

Bu bilan bog'liq holda hozirgi zamon oliy ta'limida asosiy urg'u rivojlantiruvchi ta'lim funksiyasiga qaratiladi. Bu umumiy metodik yondashuvni boshqacha yo'naltirish talab qilinadi, ya'ni talabalarga o'zlashtirilishi mo'ljallangan axborot hajmini ko'paytirishdan ko'ra, axborotni mustaqil topish va undan foydalanish malakasini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuvni tarix faniga tatbiq qiladigan bo'lsak, darsda ish shunday tashkil qilinishi kerakki, toki talabalar o'qituvchi yordamida yangi tarixiy faktlarni aniqlash, yangi tarixiy voqealar va xodisalarni keltirib chiqarish, yangi tushunchalarni o'zlashtirish hamda umumlashmalar qilishda faol ishtirok etishi samaralidir. Rivojlantiruvchi ta'limning o'ziga xos belgilaridan biri bu talabalarning produktiv faoliyati bo'lib, talabalarning mazkur faoliyatini tashkil qilishda, odatda, o'qituvchi ular oldiga muammoli vazifa va topshiriqlar qo'yadi.

Tarix fanida juda ko'p sanalar, tarixiy voqealar, tarixiy makonlarni eslab, yodlab olish kerak, degan soxta fikr qaror topgan. Bu haqiqatan ham qiyin va bu fikr maktabda ushbu fanni o'qitishda noto'g'ri yondashuvdan kelib chiqqan. Natijada ko'pchilik talabalarda tarix faniga qiziqmaslik, uni yoqtirmaslik hislari yuzaga keladi. Aslida tarix fanini o'qitishda rivojlantiruvchi ta'lim g'oyasini amalga oshiruvchi to'g'ri metodik yondashuvga nisbatan kam hajmdagi axborotni yod olsa ham bo'ladi. Muhimi bu axborotdan yangi bilimlarga ega bo'lish uchun foydalana olishdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shuni aytish kerakki, o'qituvchining talabalardan tarix fani bo'yicha ko'plab tarixiy sanalar, tarixiy voqealar va faktlarni yodlab olishlarini talab qilishga intilishi

an'anaviy usulga aylangan. Bu usul ko'p hollarda talabalarda fanga nisbatan turg'un norozilikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun bo'lajak tarixchilarga tarix fanini o'qitishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad (ayniqsa, dastlabki bosqichda) ularga to'g'ri, mantiqiy fikrlash natijasida egallagan bilimlarining naqadar yoqimli va quvonchli ekanini anglatish, tarix har qanday yoshdagi kishini kundalik hayotda o'rab turishini, juda kerakli fan ekanini tushuntirish, xullas, tarix o'qitishning birinchi bosqichidanoq bolalarni unga qiziqtirish, tarixga nisbatan salbiy munosabat paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslikdan iborat[141]

Ayrim tarix-pedagoglarning, masalan, Stenford universiteti professori D.Polyaning fikricha, tarix ta'lim olish uchun biror predmetni egallash, biror bir fan bo'yicha bilimlar yig'indisiga ega bo'lgandan ko'ra muhimroq. Zero, bilimlarni maxsus adabiyotlar, ma'lumotnomalar orqali hamma vaqt to'ldirib borish mumkin. Tarixdan predmetni egallash deganda professor D.Polya: “ijodiy tafakkur mustaqilligini, oqillikni, topqirlikni talab qiladigan xodisalarni yechish malakasi”, - deb tushunadi [214].

Tarixiy tushuncha dastlab, kiritilgan daqiqadan e'tiboran talabada to'g'ri tasavvurlarni shakllantirish g'oyat muhim. Aynan shu dastlabki bosqichda keyinchalik tarixni o'qitish uchun tayanch bo'ladigan poydevor yaratiladi. Aynan mana shu bosqichda o'qituvchi tomonidan yo'l qo'yilgan metodik xatolar talabalarda aytib o'tilgan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi hamda ularning tarix ta'limi sifatiga tuzatib bo'lmaydigan zarar keltiradi.

Bo'lajak tarixchilarga ta'lim berishda ularning hayotiy tajribasiga tayanish kerakligi hammaga ma'lum haqiqatdir. Tarix fanini o'qitishda tanlab olinadigan material mazmunining muhim jihati uning tarbiyaviy ahamiyati bilan bog'liq. Bu jihatdan to'g'ri tanlab olingan materialning tarbiyaviy ahamiyati, shubhasiz, katta bo'ladi. Tarixni o'qitishda o'quv materialining qiziqarliligi ham katta ahamiyatga ega.

O'quv materialini dars maqsadiga moslashtirish, ko'rgazmali qilish maqsadida multimedia vositalari tavsiya qilinishi mumkin. Ayrim o'qituvchilar ulardan foydalanib kelmoqda.

Oliy ta'limda o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashda ijodiy tafakkurni pedagogik jihatlari Yu.P. Azarov, O.V. Akimova, R.S. Gurevich, I.A. Zyazyun, N.V. Kichuk, N.V. Kuzmina, O. N. Kutsevol, L.M.Luzina, M.D. Nikandrov, N.G. Nichkalo, M.M. Potashnik, S.A. Sysoeva, M.I. Smetanskiy, G.S.Tarassenko, A.V. Temchenko va boshqa ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. O'qituvchi ijodiy tafakkuri deganda biz ta'lim jarayonida paydo bo'ladigan pedagogik vazifalarni o'qituvchining har xil echimlar uchun o'ziga xos, noyob, innovatsion g'oyalarni yaratish qobiliyatini belgilaydigan yaxlit sifatini tushunamiz[147] Bu o'qituvchining pedagogik muammoni o'z vaqtida ko'rish, uni hal qilishning ijodiy yo'llarini ishlab chiqishi va ma'lum shablon bo'yicha emas, balki o'ziga xos bo'lgan usulda harakat qilish bilan tavsiflanadi [147]. Bo'lajak o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri bu o'quv jarayonini talabalarning shaxsiy xususiyatlarini, mayllari va intilishlarini hisobga olgan holda uning shaxsiyatiga yo'naltirishdir. Ya'ni, talabalarga kasbiy pedagogik ta'limni, avvalo, shaxsning individual fazilatlariga yo'naltirilgan kreativ o'qitishning har xil yondashuvlaridan foydalanishni nazarda tutadi. Oliy o'quv yurtlarida bo'lajak o'qituvchining ijodiy salohiyatini shakllantirishga o'qitishning noan'anaviy shakllari va uslublarini, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, turli xil psixologik-pedagogik mashg'ulotlarni tashkil etish yordam beradi. Bunda kasbiy va pedagogik vazifalar, ilmiy konferentsiyalarda, tanlovlarda, oliy ta'lim muammolari bo'yicha munozaralarda va boshqa o'quv va ilmiy-uslubiy faoliyatda faol ishtirok etishi tashkil etiladi. Bunda, o'qituvchi shaxsining kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish, o'zini o'zi tasdiqlashi va o'zini namoyon qilishi uchun sharoit yaratiladi[147]

Tadqiqot metodologiyasi. Bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy fikrlashlarini shakllantirish jarayonida, muammoli ta'lim texnologiyalaridan o'quv, ilmiy va kasbiy pedagogik muammolarni shakllantirish va hal qilishni ta'minlashda foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning barcha tashkiliy shakllari va usullarini bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish: ma'ruzalar, amaliy va seminarlar, mustaqil va yakka tartibdagi ishlarga bo'ysundirish zarur.

Ma'lumki, muammoli ma'ruza talabalarning o'rganilayotgan masalalarga qiziqishini uyg'otadi, qo'shimcha ma'lumot izlashda faollik va mustaqillikni rag'batlantiradi. Shu bilan birga, o'qituvchi tomonidan taklif qilingan muammolarni hal qilish jarayonida ular tomonidan mustaqil qo'shimcha bilimlar olinadi. Muammoli ma'ruzalarga quyidagilar kiradi: ma'ruza-dialog, ma'ruza-munozara, ma'ruza-munozara va boshqalar. Bo'lajak tarixchilarning ijodiy tafakkurini shakllantirish jarayoni maqsadga muvofiq ravishda o'zaro ta'sir qilishdan, o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi hamkorlikdan, o'quv jarayonini tashkil qilishning zarur shakllari va usullaridan foydalangan holda maxsus tashkil etish, talabalarning kasbiy ijodiy tafakkurini shakllantirishga hissa qo'shadigan usullarning ayrim guruhlarini ajratish mumkin [87], ular quyidagicha tasniflanadi:

1. Ta'lim faoliyatini tashkil etish usullari bo'yicha: didaktik vazifalarni belgilashni bosqichma-bosqich tashkil etish, ularni hal etish usullarini tanlash, diagnostika va olingan natijalarni baholash bilan tavsiflanadigan strukturaviy va mantiqiy usullar; o'quv-kognitiv harakatlarning muayyan algoritmlarini ishlab chiqish va mashg'ulotlar davomida odatdagi muammolarni hal qilishga qaratilgan trening usullari (bular testlar va amaliy vazifalar bo'lishi mumkin, ularning tarkibiga ijodkorlik elementlarni qo'shish maqsadga muvofiq); ta'lim jarayoni sub'ektlarining o'zaro ta'siri bilan tavsiflanadigan o'yin usullari (ta'lim vazifalari o'yin tarkibiga kiritilgan bo'lsa) va boshqalar.

2. Shakllantiruvchi yo'nalish bo'yicha, o'z navbatida: a) ijodiy faoliyat tajribasini rivojlantirish usullari: murakkablashtiruvchi sharoitlardan foydalanish usullari, ya'ni: vaqtni cheklash usuli, to'satdan taqiblash usuli, yangi variantlar usuli, axborot etishmasligi usuli, inkor etish usuli; ijodiy vazifalarni guruhli echish usullari: Delphi usuli, "qora quti" usuli, kundalik usuli; jamoaviy ijodiy izlanishlarni rag'batlantirish usullari: aqliy hujum, sinektika va boshqa usullar.

b) o'zlarining kasbiy, ijodiy va o'quv-bilish faoliyati tajribasi orqali tajribani shakllantirishga hissa qo'shadigan va ijobiy munosabati yaratadigan hissiy ta'sir usullari: bunga hissiy munosabat, rag'batlantirish, tarbiyaviy va hissiy o'yin, muvaffaqiyat holatini yaratish, ijodiy vazifalarni erkin tanlash, muqobil echimlarni tanlash motivatsiyasi kabilir kiradi[147]

Albatta, ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradigan usullarni tasniflashda boshqa ko'plab yondashuvlar ham mavjud. Ammo bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy tafakkur namoyon bo'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillar ham mavjud. S.D. Smirnov [23] ning fikriga ko'ra, bunga quyidagilar kiradi:

vaqt chegarasi; yoki tashvish kuchayishi; o'rganish uchun kuchli yoki kuchsiz motivatsiya;

tezda yechim topishga intilish, bu odatda, uni bajarish vaqtini qisqartirish orqali topshiriqlar sifatini pasayishiga olib keladi; noto'g'ri hal qilish usulini qo'zg'atadigan vazifa shartlarini shakllantirish usuli;

oldingi muvaffaqiyatsizliklar va boshqalarning sabablari tufayli ularning qobiliyatlariga ishonch etishmasligi.

Taniqli ijodiy tafakkur tadqiqotchisi G. Ouch, ijodiy fikrlashga to'sqinlik qiluvchi omillarni "aqliy quflar", ya'ni hayot va kasbiy vaziyatlarni hal qilishga ijodiy yondoshishga to'sqinlik qiladigan ongning kuchli munosabati deb ataydi. Uning fikriga ko'ra [6], bunga quyidagilar kiradi:

o'z-o'ziga ishonchsizlik;

boshqalardan ko'ra yomonroq ko'rinishdan qo'rqish;

barcha hayotiy va ta'limiy vaziyatlarni mantiq nuqtai nazaridan baholash odati;

har doim amaliy bo'lishga intilish;

umumiy qabul qilingan qoidalarga rioya qilish odati;

faqat bitta to'g'ri javobni belgilash;

noaniqlikdan qochishga moyillik;

umuman va boshqalarga xato qilish mumkin emas degan ong osti fikrlash.

Biz bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorgarligi bosqichida evristik o'qitish usullaridan keng foydalandik, bu talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishni faol ravishda rag'batlantiradi va ularning ijodiy fazilatlarini shakllantiradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bo'lajak o'qituvchilarni oliy ta'lim sharoitida kasbiy tayyorgarlikda qo'llash maqsadga muvofiq bo'lgan usullarning asosiylikni ta'hlil qilaylik. Masalan, "Aglutinatsiya" usuli, bu o'quvchilarning haqiqiy dunyoda mos kelmaydigan narsalarning fazilatlarini, xususiyatlarini yoki qismlarini, masalan, issiq qor, hajm bo'shlig'i, shirin tuz, qora yorug'lik va boshqalarni birlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishga mo'ljallangan. Ushbu metodikadan foydalanish kelajakdagi o'qituvchilarda fantaziya, xayolot, jasur g'oyalar va farazlarni ilgari surish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Fanni o'qitish metodikasi bo'yicha faol ma'ruzalar va amaliy (seminar) mashg'ulotlar paytida ushbu metodikadan foydalanish maqsadga muvofiq. Aglutinatsiya metodi — bu ijodiy tafakkurni rivojlantirish usuli bo'lib, turli xil g'oyalar, tushunchalar yoki obyektlarni yangi va innovatsion usullar bilan birlashtirishni o'z ichiga oladi. Bu metod orqali o'qituvchilar yangi dars usullarini ishlab chiqishlari va mavjud usullarni takomillashtirishlari mumkin.

Misol: Tarixiy voqealarni interaktiv xaritalar bilan birlashtirish

Vazifa: Bo'lajak tarix o'qituvchilariga "Ikkinchi Jahon Urushi davomida sodir bo'lgan asosiy janglar" mavzusini o'rgatish topshirig'i beriladi. Oddiy ma'ruza yoki kitobdan foydalanish o'rniga, o'qituvchi Aglutinatsiya metodidan foydalangan holda, tarixiy voqealar va interaktiv texnologiyalarni birlashtirishni taklif qiladi.

Aglutinatsiya yondashuvi:

1. Tarixiy voqealar: talabalar Ikkinchi Jahon Urushining asosiy janglarini, ularning sanalari, joylashuvi va natijalarini o'rganadilar.

2. Interaktiv xaritalar: talabalar janglar sodir bo'lgan joylarni aniqlash uchun interaktiv xaritalardan foydalanadilar. Xarita har bir jang joyini, urush davomidagi harakatlanish yo'nalishlarini va ularning ta'sirini ko'rsatadi.

3. Birlashtirish. O'qituvchi talabalar bilan birgalikda tarixiy voqealarni xaritada belgilash va ularga tegishli ma'lumotlarni joylashtirishni taklif qiladi. Talabalar har bir jang haqida ma'lumot qo'shadilar, so'ngra bu xaritani o'qituvchining qo'llab-quvvatlashi bilan interaktiv ma'ruza yoki darslikka aylantiradilar.

Natija. Ushbu yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda ikkita turli xil tushunchani (tarixiy voqealar va interaktiv texnologiyalarni) birlashtirish orqali ijodiy tafakkurni rivojlantiradi. Bu usul o'qituvchilarga darslarni jonli va esda qolarli qilish, o'quvchilarni jarayonga jalb qilish va ularda tarixga nisbatan qiziqish uyg'otish imkonini beradi. Aglutinatsiya metodi orqali bo'lajak o'qituvchilar yangi dars usullarini yaratish va mavjudlarini takomillashtirishni o'rganadilar.

Tadqiqotda qo'llanilgan usullar. Tadqiqot jarayonida muammoga doir siyosiy, falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil etish; pedagogik kuzatish; sotsiologik-pedagogik (kuzatish, suhbat, anketa, so'rovnomaga); pedagogik eksperiment; monitoring; natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Oliy ta'lim muassasalarida "Tarix" fanini o'qitishda talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari quyidagi omillar bilan bog'liq:

Muammoli o'qitish usuli. Talabalar oldiga muammoli vaziyatlarni qo'yish va ularni hal qilishga yo'naltirish ijodiy tafakkurni rivojlantirishda samarali usullardan biri hisoblanadi. Tarixiy hodisalarni tahlil qilish, ularning sabab va oqibatlarini baholash, alternativ variantlarni topish kabi jarayonlar talabalarni mustaqil fikrlashga undaydi.

Interaktiv va hamkorlikda o'qitish usullari. Guruhda ishlash, kollektiv tadqiqotlar o'tkazish va munozaralar tashkil etish talabalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi. Interaktiv mashg'ulotlar jarayonida talabalar bir-birlaridan o'rganadilar va yangi g'oyalarni paydo qiladilar.

Ijodiy vazifalar va loyihalar. Talabalarga tarixiy mavzular bo'yicha ijodiy yozuvlar, insholar yoki loyihalar ishlab chiqish topshirig'i berish ularni yangi g'oyalarni va yondashuvlar o'ylab topishga majbur qiladi. Bu vazifalarni bajarishda talabalar tarixiy voqealarni tahlil qilishda o'z qarashlari va nuqtayi nazarlarini bayon qiladilar.

Erkin fikrlarni qo'llab-quvvatlash. Pedagog talabalarining fikrlarini erkin ifodalashini rag'batlantirishi va ularni turli nuqtayi nazarlarni ko'rib chiqishga undashi lozim. Bu ijodiy fikrlashga erishishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotlar va izlanishlar. Talabalarga mustaqil tadqiqotlar olib borish imkoniyatini berish ijodiy tafakkurni rivojlantirishning yana bir samarali yo'li hisoblanadi. Tadqiqot ishlari jarayonida talabalar yangi faktlarni topish, ularni tahlil qilish va o'z xulosalarini chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Multimedia vositalari, onlayn manbalar va virtual muzeylardan foydalanish orqali ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va interfaol qilish

mumkin. Bu talabalarni yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishga ilhomlantiradi. Ushbu pedagogik imkoniyatlar tarix fanini o'qitishda ijodiy tafakkurni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi va ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi.

Mashhur olim-pedagog A. Disterveg shunday yozgan edi: "Xar bir talaba mustaqil o'qimog'i, izlanmog'i, o'zini ko'rsatmog'i, o'zining uyg'onmagan qobiliyatlarni rivojlantirmog'i lozim". Haqiqatdan ham talaba mustaqil ravishda bilimni oshirib boraversa, unda o'qib o'rganishga bo'lgan qiziqish va intilish ortadi, hamda yoki bu darajadagi ijodkorligi ortadi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tabor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning sabablaridan biri shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda asosiy e'tibor o'quvchi va talabalar faqat tayyor bilimlarni egallashga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari chiqarishlariga o'rgatadi [3].

O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi va talaba asosiy shaxsga aylanadi. Shuning uchun o'quvchi yoshlarda ijodiy tafakkurni shakllantirishda zamonaviy o'qitish usuli hisoblangan innovatsion texnologiyalarning va ularning tarkibiy qismi bo'lgan interfaol metodlarning ahamiyati benihoya kattadir. Bir necha yillik tajribalardan kuzatilishicha, interfaol usullar o'quvchi yoshlarning bilimli, erkin fikrlaydigan shaxs bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlashning asosiy garovi bo'lib bormoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, Bo'lajak tarixchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish muayyan pedagogik jarayonda amalga oshirilib, aniq mazmun, maqsad, vosita, usul va metodlarga ega. Buning uchun birinchi navbatda, talabalarda rivojlanadigan ijodiy tafakkur ko'nikmasi va uning tarkibini xar tomonlama chuqur tushunish lozim. Talabalarda shakllangan ijodiy tafakkur darajalarini aniqlashda turli tuman diagnostik metodlaridan foydalaniladi [7].

ADABIYOTLAR

1. Давыдов В. Теория развивающего обучения // В. Давыдов. - М.: ИНТОР, 1996. - 544 с.
2. Психологические аспекты профессионально-технического образования и трудового воспитания школьников: Сборник научных трудов / Отв. ред. М.Г. Давлетшин. Ташкент: ТГПИ, 1986
3. Лернер И.Я. Поисковые задачи в обучении как средство развития творческих способностей // Научное творчество. - М.: Наука, 1969. — 415 с.
4. Матюшкин А. М. Проблемные ситуации в мышлении и обучении. - М.: Педагогика, 1972. — 208 с.
5. Махмутов М. И. Проблемное обучение. — М.: Педагогика, 1975. — 210 с.
6. Safarova R G'. R.H. Jo'raev "Pedagogika Ensiklopediya" "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2015.
7. G'oziev E.G. Psixologiya. Yosh davrlar psixologiyasi. -T.: O'qituvchi, 1994. -223b.
8. Жарова Л.В. Учит самостоятельности : Кн. для учителя : [Пособие для студентов пед. ин-тов и учителей] / Л. В. Жарова. - М. : Просвещение, 1993. - 203,[2] с.; 20 см.; ISBN 5-09-003662-4 : Б. ц.



Фарида ХОСИЛОВА,
PhD, старший преподаватель, кафедра русского языкознания НУУз
E-mail: faridasalimova@list.ru

По отзыву DSc, профессор Д.Махмудовой

APPLICATION OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN TEACHING A PHILOLOGIST

Annotation

The use of electronic communication as a means of teaching helps to partially solve one of the main tasks of teaching – creating a natural language environment, since it provides additional opportunities for communication in the language being studied. A natural communication environment based on such means of electronic communication as e-mail, chat communication, forums, guest books, online diaries, can be used by teachers of Russian as a foreign language to maintain and improve the level of knowledge, assess students' speech behavior in different communicative situations.

Key words: Information and communication tools, e-learning, information and communication technologies, interactive forms of learning, synchronous e-education.

ПРИМЕНЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ ФИЛОЛОГА.

Аннотация

Использование электронной коммуникации в качестве средства обучения помогает частично решить одну из основных задач обучения – создание естественной языковой среды, поскольку дает дополнительные возможности общения на изучаемом языке. Естественная среда общения на базе таких средств электронной коммуникации, как электронная почта, чат коммуникация, форумы, гостевые книги, сетевые дневники, может быть использована преподавателями РКИ для поддержания и повышения уровня знаний, оценки речевого поведения студентов в разных коммуникативных ситуациях.

Ключевые слова: Информационные и коммуникационные средства, электронное обучение, информационно-коммуникационных технологий, интерактивные формы обучения, синхронное электронное образование.

AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARINI FILOLOGLARNI TAYYORLASHDA QO‘LLANILISHI.

Аннотация

Elektron aloqadan o‘qitish vositasi sifatida foydalanish o‘qitishning asosiy maqsadlaridan biri - tabiiy til muhitini yaratishni qisman hal qilishga yordam beradi, chunki u maqsadli tilda muloqot qilish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. Elektron pochta, chat aloqasi, forumlar, mehmonlar kitoblari va onlayn kundaliklar kabi elektron aloqa vositalariga asoslangan tabiiy aloqa muhiti RFL o‘qituvchilari tomonidan bilim darajasini saqlab qolish va yaxshilash va turli kommunikativ sohalarda talabalarning nutq xatti-harakatlarini baholash uchun ishlatilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Axborot-kommunikatsiya vositalari, elektron ta‘lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o‘qitishning interaktiv shakllari, sinxron elektron ta‘lim.

С появлением и широким распространением глобальных сетей со всем набором предоставляемых ими информационных и коммуникационных средств преподаватели получили возможность корректно организовывать обучение иностранным языкам с использованием их возможностей (Э Г Азимов, М А Бовтенко, Е С Полат, О И Руденко-Моргун и др.).

Под электронным обучением понимается не только «организация образовательной деятельности с применением... информационно-коммуникационных технологий», но, что особенно важно, и организация «взаимодействия обучающихся и педагогических работников», а под дистанционными технологиями обучения понимается использование информационно-телекоммуникационных сетей для организации «опосредованного (на расстоянии) взаимодействия обучающихся и педагогических работников» [Роберт и др., 2017]. Именно такое обучение позволяет активно использовать электронные и дистанционные технологии для организации интерактивных форм обучения, которые реализуются через организацию самостоятельной работы студентов, взаимодействие обучающихся и преподавателей, организацию совместной работы студентов над проектами и др.

Исходя из направленности современного учебного процесса на развитие активности и самостоятельности обучающихся, в последнее время значительно активизировалась разработка информационных и коммуникационных технологий (ИКТ) для решения этих задач.

Современный этап технического развития открывает большие возможности совершенствования процесса формирования иноязычной коммуникативной компетенции. Информационные коммуникационные технологии позволяют достичь соответствия языковой подготовки студентов требованиям современного глобального информационного пространства и общества к личности, обладающей

необходимыми социокультурными компетенциями. Использование видеоресурсов способствует

- расширению и углублению знаний, умений и навыков иноязычной коммуникативной деятельности;
- повышению мотивации и самостоятельности в обучении;

- делает занятия более динамичными, информативными, соответствующими современным образовательным требованиям.

Обучающиеся получают аудиовизуальную практику, способствующую более легкому и прочному усвоению материала, позволяющую эффективно пользоваться полученными знаниями, адаптировать свое поведение к поведению, близкому к носителю языка, а также уметь корректно и толерантно интерпретировать культурные и исторические реалии.

Целью применения в современном образовании ИКТ является обеспечение сферы образования методологией и практикой разработки и оптимального использования средств электронного обучения, ориентированного на реализацию психолого-педагогических целей обучения, воспитания. Основная цель применения компьютерных технологий состоит в повышении качества обучения.

Информатизация образования актуализирует следующие процессы:

- 1) совершенствование методологии и стратегии отбора содержания, методов и организационных форм обучения, воспитания, соответствующих задачам развития личности обучающегося в современных условиях информационного общества глобальной, массовой коммуникации;

- 2) создание методических систем обучения, ориентированных на развитие интеллектуального потенциала обучающегося, формирование умений самостоятельно приобретать знания, осуществлять информационно-учебную,

экспериментально-исследовательскую деятельность, разнообразные виды самостоятельной информационной деятельности;

3) совершенствование механизмов управления системой образования на основе использования автоматизированных банков данных научно-педагогической информации, информационно-методических материалов, а также коммуникационных сетей;

4) создание и использование компьютерных тестирующих, диагностирующих методик контроля и оценки уровня знаний обучаемых.

Как считают исследователи, важнейшими задачами информатизации иноязычного образования являются:

1) повышение качества подготовки специалистов на основе использования в учебном процессе современных информационных технологий;

2) применение активных методов обучения, повышение творческой и интеллектуальной составляющих учебной деятельности;

3) интеграция различных видов образовательной деятельности (учебной, исследовательской и т.д.);

4) адаптация информационных технологий обучения к индивидуальным особенностям обучаемого;

5) разработка новых информационных технологий обучения, способствующих активизации познавательной деятельности обучаемого и повышению мотивации на освоение средств и методов информатики для эффективного применения в будущей профессиональной деятельности;

6) обеспечение непрерывности и преемственности в обучении;

7) разработка информационных технологий дистанционного обучения;

8) совершенствование программно-методического обеспечения учебного процесса;

9) внедрение информационных технологий обучения в процесс специальной профессиональной подготовки специалистов различного профиля.

Использование ИКТ в учебном процессе позволяет:

- рационально использовать время учебного занятия;
- наглядно представить учебный процесс;
- повысить познавательную активность студентов;
- усилить образовательные эффекты;
- осуществлять дифференцированный подход к учащимся с разным уровнем готовности к обучению;
- быстро и качественно тиражировать дидактические пособия, раздаточный материал;
- поиск и использование информации из Интернета для практических занятий, проектно – исследовательских работ;
- создавать задания для проверки и контроля усвоения пройденного материала;
- повысить качество усвоения учебного процесса;
- ведение электронного журнала, электронная почта, составление отчётов, графиков, документации учителя и проведение родительских собраний, для проведения внеклассных мероприятий, участия в конкурсах, викторинах, олимпиадах различных уровней, развивающие игры по предметам;
- оперативно обмениваться опытом работы и методическими материалами с коллегами.

А.В. Поршневу в своей работе предлагает следующую схему, которая отражает действия по реализации поставленных задач с применением интернет-ресурсов:

1. Определение студентом поставленной перед ним задачи.

2. Изучение информационного пространства новой предметной области, которое предполагает: – ознакомительное изучение статей, материалов, тезисов на интернет-порталах; – адаптирование материала поставленной задаче.

3. Формулирование задачи с учетом исследованной информации.

4. Поиск всех возможных способов достижения поставленной цели (аннотирование, оценка релевантности).

При этом следует иметь в виду, что использование электронной коммуникации в учебном процессе предполагает специфические виды деятельности учащихся и преподавателя, так как такое взаимодействие происходит в информационно-технологическом образовательном пространстве (специально организованной виртуальной учебной среде). С распространением интернета стало возможным говорить о новом подходе к созданию учебной языковой среды. Он заключается не

только в разработке специализированных обучающих программных продуктов, но и в системном и комплексном использовании тщательно подобранных для конкретных целей обучения компьютерных аутентичных и учебных материалов, прикладных и инструментальных программ, в организации учебного процесса в виртуальной языковой среде, применимой как в дистанционном обучении, так и в традиционных очных формах обучения.

Можно констатировать, что интернет-технологии обладают значительными образовательными возможностями, которые могут не только найти применение в такой дисциплине, как сетевая лингводидактика, но и способствовать модернизации традиционных форм очного обучения.

Несколько подробнее об учебных телеконференциях. Они являются частью реального учебного процесса и поэтому имеют некоторые особенности как в организации, так и в проведении, в отличие от других телеконференций в сети Интернет. А именно:

имеют строгую учебную направленность обсуждений, а это от модератора требует организации строго контроля за деятельностью каждого участника;

время их проведения ограничено, что связано с учебным процессом и такая конференция имеет конкретное время начала и конца и не может проходить более одного-двух месяцев. Введение учебной телеконференции в реальный учебный процесс требует организации участия студентов в телеконференции с активным использованием телекоммуникационных средств. Телеконференции проводятся в учебное время, так как использование внеучебного времени не рекомендуется. Такое участие будет восприниматься у некоторых как развлечение, а не как активная деятельность. А другие обучаемые просто не будут ничего делать вследствие банальной лени или нехватки времени.

В последнее время возможности интернета как средства электронной коммуникации стали активно применяться в учебном процессе. Использование электронной коммуникации в качестве средства обучения помогает частично решить одну из основных задач обучения – создание естественной языковой среды, поскольку дает дополнительные возможности общения на изучаемом языке. Естественная среда общения на базе таких средств электронной коммуникации, как электронная почта, чат-коммуникация, форумы, гостевые книги, сетевые дневники, может быть использована преподавателями для поддержания и повышения уровня знаний, оценки речевого поведения студентов в разных коммуникативных ситуациях. При этом, в зависимости от содержания и целей обучения, электронная коммуникация может осуществляться как в синхронном, так и в асинхронном режимах с использованием различных форматов: текстового (электронная почта, чат, форум, сетевые дневники), аудио- или видео- (видеоконференции, голосовая почта, пересылка звуковых и видеофайлов).

Широкое использование информационно-коммуникационных технологий в образовательном процессе вузов позволяет обеспечить:

вариативность и личностную ориентацию образовательного процесса (проектирование индивидуальных образовательных траекторий);

практическую ориентацию образовательного процесса с введением интерактивных деятельностных компонентов (освоение проектно-исследовательских и коммуникативных методов);

завершение профильного самоопределения и формирование способностей и компетентностей, необходимых для продолжения образования в соответствующем профессиональном направлении.

Система электронного обучения ускоряет процесс формирования языковой и коммуникативной компетенции на разных уровнях. На занятиях с использованием ИКТ следует использовать следующие условия:

учет уровня владения языком обучающей группы – языковой портфель,

принцип концентризма, деление обучения на учебные блоки и использование демонстративной формы и работы со следующими типами упражнений:

1) презентативными; 2) имитативными; 3) подстановочными.

В условиях информатизации образования в вузе создаётся информационно-образовательная среда (ИОС) и условия для: обеспечения доступа к базам данных, в том числе к

электронной научной библиотеке вуза; разнообразным онлайн-курсам, авторы которых – преподаватели данного учебного заведения, поиска нужной информации, развития учебного информационного взаимодействия между педагогом, студентами

и средствами ИКТ; формирования познавательной активности студентов при прохождении учебного курса по выбранной дисциплине.

ЛИТЕРАТУРА

1. Азимов Э.Г. Информационно-коммуникационные технологии в обучении РКИ: состояние и перспективы // Русский язык за рубежом – 2011 – и №6 – С.45-55.
2. Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентовфилологов (на материале художественных текстов): Дис. ... д-ра пед. наук. - Т., 2012. NOVATEUR PUBLICATIONS JournalNX- A Multidisciplinary Peer ReviewedJournal ISSN No: 2581 - 4230 VOLUME 8, ISSUE 10, Oct. -2022 36 | P a g e
3. Ахмедова М.Х. Хосилова Ф.Р. Основные направления оптимизации обучения русскому языку в вузе на базе ИКТ //Ta'lim, fan va innovatsiya – 2020 – № 3 – С.69-74.
4. Ахмедова М.Х. Хосилова Ф.Р. Использование ИКТ для развития умений профессиональной иноязычной устной речи // EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) Volume: 6 | Issue: 5 | May 2021 / EPRA Journals DOI 10.36713/epra2016 С.83-86.
5. Полат Е. С., Бухаркина М. Ю. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования: учеб. пособие для студентов высш. учеб. заведений. // М.: Издательский центр «Академия», 2007. 368 с.



УДК:101.8:316.344.5(575.1)049

Kudrat XUDAYBERGANOV,
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi polkovnigi
Email: Otabekallayarov@gmail.com

O‘zMU dotsenti f.f.f.d, dotsent S. Usmonov taqrizi asosida

THE ROLE OF SPIRITUAL AND ETHICAL SCIENCES IN THE EDUCATION OF CADETS AS PERFECT HUMAN SPIRIT

Annotation

The article analyzes the role of spiritual and moral sciences in the education of cadets. It is mentioned that military ethics and moral standards are very important in military service. Military ethics and moral standards are important in educating cadets as perfect human beings. Has been thoroughly analyzed.

Key words: Cadet, spiritual and moral sciences, Military ethics, morals, honesty, justice, responsibility and perfection.

РОЛЬ ДУХОВНО-ЭТИЧЕСКИХ НАУК В ВОСПИТАНИИ КАДЕТОВ КАК СОВЕРШЕННОГО ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ДУХА

Аннотация

В статье анализируется роль духовно-нравственных наук в воспитании курсантов. Отмечается, что военная этика и моральные нормы имеют важное значение в воспитании курсантов как совершенных людей. Проанализировано.

Ключевые слова: Кадет, духовно-нравственные науки, Военная этика, мораль, честность, справедливость, ответственность и совершенство.

KURSANTLARNI KOMIL INSON RUHIDA TARBİYALASHDA MA'NAVİY-AHQLOQIY FANLARNING O'RNI

Annotatsiya

Maqolada Kursantlarni tarbiyalashda ma'naviy-axloqiy fanlarning o'rni tahlil qilib berilgan. Harbiy etik va axloqiy me'yorlar harbiy xizmatda juda muhim ahamiyatga ega ekanligi keltirib o'tilgan. Harbiy etik va axloqiy me'yorlar kursantlarni komil inson sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega ekanligi atroficha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Kursant, ma'naviy-axloqiy fanlar, Harbiy etika, axloq, halollik, adolat, mas'uliyat va komillik.

Kirish. Jamiyat kelajagi bo'lgan harbiy kursantlarni sog'lom fikrli, yuksak ma'naviyatli va ajdodlar merosiga sadoqatli qilib tarbiyalash – mamlakatning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy rivojlanishida muhim omildir. Ushbu jarayon faqatgina harbiy tayyorgarlik bilan chegaralanib qolmay, balki yosh avlodning axloqiy yetukligini oshirish, ularni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash va shaxsiy mas'uliyat hissini shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, bunday tarbiya jarayoni kursantlarning kelgusida mustaqil hayotda o'z o'rnini topishiga, yetuk mutaxassis va vatanparvar inson bo'lib yetishishiga katta turki beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida» gi Qonuni bugungi davr talablariga mos ravishda har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaatini yo'lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi [1].

Kursantlarni tarbiyalashda ma'naviy-axloqiy fanlarning o'rni juda muhimdir. Ushbu fanlar harbiy xizmatchilarning professional qobiliyatlarini, shuningdek, shaxsiy sifatleri va axloqiy me'yorlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Mavjud ma'naviy-axloqiy fanlar, shuningdek, harbiy xizmatchilarning shaxsiy mas'uliyatini va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Harbiy xizmatchilarni tarbiyalashda ma'naviy-axloqiy fanlar ularga nafaqat professional ko'nikmalar, balki shaxsiy va axloqiy sifatlarini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayon ularni komil insonlar sifatida tarbiyalashga yordam beradi va harbiy xizmatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlariga imkon yaratadi.

Kursantlarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi ularga o'zaro hurmat, fidoyilik va jamoaviy ish ko'nikmalarini o'rgatish orqali amalga oshiriladi. Ma'naviy-axloqiy kursantlarning ijtimoiy munosabatlar tizimida ishtirok etib, bir-birlariga ta'sir qilib insoniy xislatlarni egallab olishlariga yordam beradi [2]. Shu bilan birga, harbiy faoliyat va ahloqiy qadriyatlarini muvofiqlashtirish va ular o'rtasidagi munosabatlarni kuchaytiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma'naviy-axloqiy fanlar kursantlarga kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga, ularning shaxsiy sifatlarini ham, masalan, etika va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa ular o'zaro aloqalarida samimiylik, ochiqlik va halollikni namoyon etishlariga yordam beradi.

Axloqiy qadriyatlar va etik normalar harbiy xizmatchilarni nafaqat kasbiy, balki shaxsiy jihatdan ham rivojlantiradi. Bu ular o'z vazifalarini bajarishda mas'uliyatni his qilishlari va jamoaviy ishda yetakchilik qilishlarini ta'minlaydi.

Ma'naviy-axloqiy fanlar harbiy xizmatda jamoaviy ishning ahamiyatini o'rgatadi. Kadrlarning o'zaro hamkorligi, jamoaviy ruhda ishlash va muvaffaqiyatli harbiy operatsiyalarni amalga oshirish uchun zarur.

Harbiy etik va axloqiy me'yorlar harbiy xizmatda juda muhim ahamiyatga ega bo'lib, harbiy xizmatchilarni nafaqat kasbiy, balki shaxsiy jihatdan ham shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Bu me'yorlar harbiy xizmatchilarning ijtimoiy mas'uliyatini, axloqiy qarorlarini va jamoada o'zaro munosabatlarini tartibga soladi.

Harbiy xizmatchilar uchun axloqiy me'yorlarni tushunish va ularga rioya qilish harbiy xizmatda barqarorlik va adolatni ta'minlashda juda muhim ahamiyatga ega. Axloqiy me'yorlar harbiy xizmatchilarni quyidagi jihatlardan birlashtiradi:

Axloqiy me'yorlarni bilish va ularga amal qilish, harbiy xizmatchilarga o'z vazifalarini bajarishda mas'uliyat hissini rivojlantirishga yordam beradi. Bu har bir askarning o'z harakatlarining natijalarini tushunishi va ularni hisobga olishi kerakligini anglatadi.

Harbiy xizmatda axloqiy me'yorlarga rioya qilish harbiy xizmatchilar o'rtasida adolat va tenglikni ta'minlaydi. Bu harbiy tashkilot ichidagi ijtimoiy muvozanatni saqlash va harbiy goidalarga muvofiq ishlashni rag'batlantiradi. Bu ularning xizmatlarini jamiyat manfaatlariga mos ravishda amalga oshirishga yordam beradi.

Harbiy xizmatchilar o'z xalqiga va davlatiga xizmat qilishda ijtimoiy mas'uliyatni his qilishlari kerak. Axloqiy me'yorlar bu mas'uliyatni kuchaytiradi va harbiy xizmatchilarga jamiyatda o'z rolini to'g'ri anglashga yordam beradi.

Harbiy xizmat davomida axloqiy me'yorlarga rioya qilish, harbiy xizmatchilarning boshqa davlatlar bilan aloqalarini ham mustahkamlashga yordam beradi. Bu diplomatik munosabatlarning mustahkamlanishiga va xalqaro qonunlarga rioya etilishiga olib keladi. Harbiy axloqiy me'yorlar xalqaro qonunlar va inson huquqlariga hurmat bilan qarashni ta'minlaydi. Bu harbiy xizmatchilarning xalqaro munosabatlarda ishonchligini oshiradi.

Harbiy etik va axloqiy me'yorlarga rioya qilish harbiy xizmatchilarni tinchlikni saqlash va xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu, o'z navbatida, xalqaro qonunlarga va inson huquqlariga hurmat bilan qarashni ta'minlaydi. Harbiy xizmatchilar

o'z vazifalarini bajarishda axloqiy me'yorlarga amal qilishlari, muhim qarorlar qabul qilishda halollik va adolatga asoslangan yondashuvlarni qo'llashlari lozim.

Harbiy xizmatchilarni tarbiyalashda ma'naviy-axloqiy fanlar ularga nafaqat professional ko'nikmalar, balki shaxsiy va axloqiy sifatlarini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ma'naviy-axloqiy fanlar harbiy xizmatchilarga o'z kasbida yuqori standartlarga erishish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni taqdim etadi. Bu fanlar nafaqat kasbiy ko'nikmalarni, balki axloqiy qadriyatlarini ham o'rgatadi, bu esa harbiy vazifalarni samarali bajarishga yordam beradi.

Ma'naviy-axloqiy fanlar harbiy xizmatchilarga o'z vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan muhim bilimlarni, masalan, etika, qonun va inson huquqlari haqida ma'lumotlarni beradi. Bu bilimlar ularga har qanday vaziyatda to'g'ri qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Harbiy etikani o'rgatish harbiy xizmatchilarni mas'uliyatli, halol va adolatli insonlar sifatida shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu qadriyatlar ularning shaxsiy va professional hayotida o'z aksini topadi. Ma'naviy-axloqiy bilimlar harbiy xizmatchilarning tinchlik va xavfsizlikni saqlashdagi mas'uliyatini oshiradi. Ular xalqaro qonunlarga va inson huquqlariga hurmat bilan yondashishga undaydi, bu esa global xavfsizlik muammolarini hal qilishda muhimdir.

Tahlil va natijalar. Ma'naviy-axloqiy ta'lim harbiy xizmatchilarni muhim qadriyatlar, masalan, halollik, adolat, va mas'uliyat bilan tanishtiradi. Bu qadriyatlar harbiy faoliyatda zaruriy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu fanlar harbiy xizmatchilarni halollik, adolat va mas'uliyat kabi axloqiy qadriyatlarini qabul qilishga undaydi. Bu qadriyatlar ularning harakatlari va qarorlarida muhim rol o'ynaydi:

Halollik- harbiy xizmatda ishonchni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Harbiy xizmatchilar o'z vazifalarini bajarishda halol bo'lishlari, shuningdek, o'zaro munosabatlarda ochiq va halol bo'lishlari kerak. Agar har bir a'zo o'z vazifalarini halol va adolatli tarzda bajarsa, bu jamoada yuqori darajadagi ishonchni shakllantiradi. Iшонch esa, o'z navbatida, samarali hamkorlik va jamoaviy ishlarni osonlashtiradi.

Ochiq va halol munosabatlar harbiy xizmatda shaffoflikni ta'minlaydi. Bu jamoa a'zolarining bir-biriga qarshi tushunmovchiliklarni kamaytiradi va hamkorlikni kuchaytiradi. Ochiqlik, shuningdek, harbiy xizmatchilarning o'z vazifalarini bajarishda to'g'ri qarorlar qabul qilishlariga yordam beradi.

Halollik shuningdek, harbiy xizmatchilarni tinchlikni saqlash va huquqni himoya qilishda mas'uliyatli yondashishga undaydi. Bu xalqaro qonunlarga rioya qilish va inson huquqlarini himoya qilishda muhimdir. Bu jamoada yaxlitlikni ta'minlaydi va qiyinchiliklarga duch kelganda to'g'ri qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Adolat- tamoyili harbiy xizmatchilarni har bir insonning huquqlarini hurmat qilishga undaydi. Bu o'z navbatida, harbiy amaliyotlarda etika va inson huquqlariga rioya qilishni ta'minlaydi. Harbiy xizmatchilar adolatli qarorlar qabul qilish orqali inson huquqlarini himoya qilishlari kerak. Bu harbiy operatsiyalar davomida aholi va jangchilarga nisbatan adolatli va ehtiyotkorlik bilan yondashishni ta'minlaydi. Inson huquqlarini hurmat qilish, xalqaro qonunlarga mos ravishda harakat qilishni anglatadi. Adolatli qarorlar jamoa ichida ishonchni va hamkorlikni oshiradi. Harbiy xizmatchilar o'zaro munosabatlarda adolatli va halol bo'lsalar, bu ularning jamoaviy ruhini mustahkamlaydi va kutilmagan vaziyatlarda ham bir-birlariga yordam berishlariga imkon yaratadi.

Tinchlikni saqlashda adolatli qarorlar qabul qilish, xalqaro va mahalliy jamoalarda tinchlik va barqarorlikni ta'minlaydi. Harbiy xizmatchilar, adolatli yondashuvlari orqali mintaqadagi murakkab vaziyatlarni engillashdirishlari va muammolarni hal qilishda ishtirok etishlari mumkin.

Mas'uliyat- hissi harbiy xizmatchilarning o'z vazifalarini bajarishdagi samarasini oshiradi. Ular o'z harakatlari uchun javobgar ekanini anglashlari va ularning qarorlari o'z jamoasiga va jamiyatga ta'sir etishini bilishlari kerak. Mas'uliyatni his qilish harbiy xizmatda jamoada ishonchni va hamkorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Harbiy xizmatchilar mas'uliyatni his qilsalar, bu ularning harakatlariga va qarorlariga ishonchni oshiradi. Har bir xizmatchi o'z vazifalarini bajarishga va jamoa manfaatlari uchun xizmat qilishga intilganida, bu umumiy ishonchni mustahkamlaydi.

Mas'uliyat hissi harbiy xizmatchilarning o'zaro hamkorligini kuchaytiradi. Har bir a'zo o'z rolini va mas'uliyatini anglab, bir-birini qo'llab-quvvatlashga tayyor bo'ladi. Bu jamoaning umumiy maqsadlariga erishish uchun birgalikda ishlashga yordam beradi.

Mas'uliyatni his qilish harbiy xizmatchilarning muammolarni tez va samarali hal qilishlariga sezilarli darajada yordam beradi. Agar har bir a'zo o'z vazifalariga mas'uliyat bilan yondashsa, jamoa ichidagi muammolarni hal qilish jarayoni soddalashadi. Bu o'z navbatida, harbiy xizmatchilarning jamoaviy ishlarini samarali va tezkor ravishda amalga oshirishiga imkon beradi. Mas'uliyat hissi harbiy xizmatchilarning harakatlarini aniq belgilaydi, shuning uchun ular vazifalarini tez va sifatli bajarishga intilishadi.

Mas'uliyatni his qilgan harbiy xizmatchilar bir-biriga yordam berishga tayyor bo'ladilar. Bu jamoa ichidagi muammolarni hal qilish jarayonini soddalashtiradi va muammolarni tezda bartaraf etishga imkon beradi. Agar har bir a'zo o'z vazifalarini mas'uliyat bilan bajaradigan bo'lsa, bu jamoa ichidagi ishonchni mustahkamlaydi. Bu esa, o'z navbatida, yanada samarali va muvofiqlikda ishlashga olib keladi.

Mas'uliyatni his qilish, harbiy xizmatchilarning qarorlar qabul qilish jarayonida aniq va ehtiyotkor yondashuvga olib keladi. Ular o'z harakatlarining oqibatlarini tushunib, jamoa va misollarni hisobga olgan holda to'g'ri qarorlar qabul qilishlari muhimdir. Bu jihatlar harbiy xizmatchilar o'rtasida kuchli jamoa ruhini shakllantirishga yordam beradi. Harbiy xizmatda mas'uliyatni his qilish va unga amal qilish, tinchlikni saqlash va jamiyatda ijobiy o'zgarishlarga erishishda asosiy omil hisoblanadi. Qadriyatlarini anglangan harbiy xizmatchilar o'z vazifalarini yaxshiroq bajarishadi, chunki ular o'z harakatlari va qarorlari bilan jamiyat va xalqaro qonunlarga hurmat bilan qarashadi.

Ma'naviy qadriyatlar harbiy xizmatchilar o'rtasida ishonch va hurmatni oshiradi, bu esa samarali hamkorlikni ta'minlaydi. Iшонchli muhitda harbiy xizmatchilar o'z vazifalarini yaxshiroq bajaradilar, chunki ular o'zaro aloqalarda halollik va ochiqlikka tayyor bo'ladilar. Harbiy muhitda ishonch va hurmatni oshirish, jamoaning muvaffaqiyatini ta'minlash uchun zarurdir. Ma'naviy qadriyatlar bu ishonchni yaratadi va uni mustahkamlaydi. O'zaro ishonch va hurmatning mavjudligi, harbiy xizmatchilar o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlaydi. Jamoada ochiq muloqot va qo'llab-quvvatlash muhitini yaratish, muammolarni hal qilish jarayonini soddalashtiradi.

Iшонchli muhitda harbiy xizmatchilar o'z vazifalarini samarali va sifatli bajarishga qodir bo'ladi. Ular o'zaro aloqalarda mas'uliyatni his qilib, jamoa maqsadlariga yo'naltirilgan holda harakat qilishadi.

Qadriyatlarini qabul qilish harbiy xizmatchilarni bir maqsadga yo'naltiradi va jamoada ijobiy muhitni yaratadi. Bunday muhit, o'z navbatida, harbiy xizmatdagi muammolarni birgalikda hal qilishga yordam beradi. Harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, ishonch va jamoaviy ruh, har qanday vaziyatda samarali hamkorlikni ta'minlaydi. Qadriyatlarini qabul qilish harbiy xizmatchilarni umumiy maqsadlar atrofida birlashtiradi. Bu, ularni muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga undaydi va jamoaning ko'proq natijalarga erishishiga yordam beradi.

Ma'naviy qadriyatlar jamoada ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratadi, bu esa harbiy xizmatchilarni o'z vazifalarini yanada samarali bajarishga tayyorlaydi. Ijobiy muhit, stress va muammolarni birgalikda yengishga imkon beradi.

Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar harbiy xizmatchilarni o'z harakatlariga mas'uliyat bilan yondashishga undaydi. Bu, ularni harbiy vazifalarini bajarish jarayonida halol va adolatli bo'lishga rag'batlantiradi.

Ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini qabul qilish harbiy xizmatchilar o'rtasida o'zaro aloqalarni mustahkamlaydi. Ular o'zaro hurmat va ishonchni oshiradi, bu esa jamoaviy ruhni kuchaytiradi. Bu jarayon harbiy xizmatchilarni komil insonlar sifatida tarbiyalashga yordam beradi va ularga harbiy xizmatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkoniyatini yaratadi. Ma'naviy-axloqiy fanlar harbiy xizmatchilarga o'z shaxsiyatlarini rivojlantirish, mas'uliyatni his qilish va jamiyatda o'z o'rnini anglashda muhim rol o'ynaydi.

Ma'naviy-axloqiy ta'lim harbiy xizmatchilarga o'z qadriyatlarini shakllantirish va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon harbiy xizmatchilarning o'z vazifalarini samimiy va axloqiy jihatdan to'g'ri bajarishlariga zamin yaratadi. O'z qadriyatlarini anglash orqali, ular halol va adolatli qarorlar qabul qilishga tayyor bo'ladilar, bu esa nafaqat o'zlarining, balki jamoaning muvaffaqiyatini ham ta'minlaydi.

Harbiy xizmatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun harbiy xizmatchilar nafaqat kasbiy ko'nikmalarga, balki axloqiy me'yorlarga ham ega bo'lishlari zarur. Axloqiy me'yorlar harbiy xizmatchilarning harakatlarida halollik va adolatni saqlashda asosiy rol o'ynaydi. Ular o'z vazifalarini bajarayotganda o'z harakatlarining

natijalarini hisobga olishlari va jamiyatga, xalqqa va xalqaro qonunlarga hurmat bilan qarashlari muhimdir.

Kursantlar tarbiyasida ma'naviy-axloqiy fanlar ularga professional va shaxsiy sifatlarni rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayon, o'z navbatida, ularning harbiy xizmatga tayyorgarligini oshiradi va jamiyatdagi axloqiy me'yorlarni saqlashga hissa qo'shadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, bunday tarbiya kursantlarni har jihatdan kamolotga erishishlariga imkon yaratadi va ularni komil inson sifatida shakllantiradi. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, bilim va ko'nikmalarni birlashtirgan holda, harbiy

kursantlar nafaqat professional, balki shaxsiy rivojlanishda ham yuksalishga erishadilar. Kursantlarni har jihatdan kamolotga erishishga rag'batlantirish orqali, ularning o'z-o'zini anglash, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlari rivojlanadi.

Harbiy etik va axloqiy me'yorlar, kursantlarni komil inson sifatida tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Bu, ularda halollik, adolat va mas'uliyat kabi qadriyatlarni shakllantiradi. Bunday tarbiya kursantlarga o'z jamiyatlari va xalqaro kontekstda ijtimoiy mas'uliyatni his qilishlariga yordam beradi, bu esa ularni yanada sifatliliderlar bo'lishga tayyorlaydi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi PF-5106-son «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – T., 2017. – № 27. – 607-m.
2. Karimov B.B. Kursantlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tamoyillari. internationalsciences, education and new learning.technologies volume 1| ISSUE 4| 2024



Sevara XUDAYBERDIYEVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi, PhD
E-mail: Seavaraergasheva98@gmail.com

DSc, professor F.Akromova taqrizi asosida

IDEOLOGICAL AND SCIENTIFIC VIEWS OF EASTERN THINKERS AND SCIENTISTS OF UZBEKISTAN ON THE INFLUENCE OF INTERPERSONAL RELATIONSHIPS IN THE FAMILY LIFE CYCLE ON FAMILY STABILITY

Annotation

A family is a hearth of upbringing that ensures the eternity of life, the continuity of generations, keeps our sacred customs, while at the same time directly affecting how future generations become human beings. While marriage-family relations, the psychology of family life, many of the situations observed in the Modern Family are viewed from a psychological point of view, their root is associated with the distant past of the evolution of marriage-family relations. Marriage-family relations appear as a biological need from the primitive periods of the pre-era, and gradually, as a result of the emergence of groups, tribals, seeding and mainly conscious people, the development of farming, marriage-family relations, male and female relations, in which the couple raises a family, begin to form.

Key words: Marriage, family, interpersonal relationships, family functions, married couple, psychological development.

ИДЕЙНО-НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ И УЧЕНЫХ УЗБЕКИСТАНА НА ВЛИЯНИЕ МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ЖИЗНЕННОМ ЦИКЛЕ СЕМЬИ НА СТАБИЛЬНОСТЬ СЕМЬИ

Аннотация

Семья - это очаг воспитания, который обеспечивает вечность жизни, преемственность поколений, хранит наши священные традиции, но при этом напрямую влияет на то, каким человеком вырастут будущие поколения. Брачно-семейные отношения, если рассматривать с психологической точки зрения психологию семейной жизни, многие ситуации, наблюдаемые в современной семье, их корни связаны с далеким прошлым эволюции брачно-семейных отношений. Брачно-семейные отношения возникли как биологическая потребность с первобытных времен до нашей эры и постепенно, в результате появления групп, племен, кланов и преимущественно сознательных людей, развития земледелия, начинают формироваться брачно-семейные отношения, супружеские отношения мужчины и женщины [1].

Ключевые слова: Брак, семья, межличностные отношения, функции семьи, супружеская пара, психологическое развитие.

SHARQ MUTAFFAKIRLARI HAMDA O'ZBEKISTON OLIMLARINING OILA BARQARORLIGIGA OILAVIY HAYOT SIKLIDAGI QARASHLARI

Annotatsiya

Oila - hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir. Nikoh-oila munosabatlari, oilaviy hayot psixologiyasiga, hozirgi zamon oilasida kuzatiladigan ko'plab holatlarga psixologik nuqtai nazardan qaraladigan bo'lsa, ularning ildizi nikoh-oila munosabatlari evolyusiyasining uzoq o'tmishi bilan bog'liqdir. Nikoh-oila munosabatlari eramizdan oldingi ibtidoiy davrlardan biologik ehtiyoj sifatida paydo bo'lib, asta-sekinlik bilan guruhlar, qabilalar, urug'chilik va asosan ongli odamlarning paydo bo'lishi, dehqonchilikning rivojlanishi natijasida, nikoh-oila munosabatlari, er-xotin oila boquvchi erkak va ayol munosabatlari shakllana boshlaydi.

Kalit so'zlar: Nikoh, oila, shaxslararo munosabatlar, oila funksiyalari, er-xotin psixologik rivojlanish.

Kirish. Maxsus manbalarda qayd etilishicha, qur'on, hadis va boshqa muqaddas kitoblarda oila masalalarining yoritilishi. O'tmish mutafakkirlarining oila mohiyati haqidagi fikr-mulohazalari. Al-Buxoriy, Burhonuddin Marg'iloniy, At-Termiziy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy va boshqalarning oila, oilaviy munosabatlar haqidagi qarashlari.

Darhaqiqat, Sharqning buyuk allomalari va ma'rifatparvarlari hisoblangan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxruddin, Ahmad Donish, Abdulla Avloniy, Fitrat va boshqalarning asarlarida Markaziy osiyoda yashab kelayotgan xalqlar, jumladan, o'zbek xalqining oilaviy hayoti, undagi o'zaro munosabatlarning ayniqsa er-xotin, qaynona-kelin munosabatlari, milliy psixologik xususiyatlari, er-xotinning burch va vazifalari, oilaning turmush tarzi va tarbiyaviy muhiti va boshqalar haqida qimmatli fikrlar mavjud [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Sharq mutafakkirlarining ilmiy-madaniy merosini o'rganar ekanmiz, ularda bayon qilingan oilaviy turmush qoidalari, undagi shaxslararo munosabatlar madaniyati, farzand kamoloti, erkak bilan ayol munosabati, insoniy fazilatlarining shakllanishi haqidagi qimmatli fikrlar sharq xalqlari, xususan, o'zbek xalqining og'zaki ijodi, eposining (o'zbek xalq maqollari, ertaklari, dostonlari, afsonalari, rivoyatlari) uzviyligi asosida tarkib topgan ilmiy-madaniy meros ekanligini ko'ramiz.

Ma'lumki, muqaddas dinimiz islomda, uning asosiy manbalari hisoblangan "Qur'oni Karim" va Hadislarda ham oilaviy turmushning va er-xotin munosabatlarining barcha tomonlari haqida

qimmatli ma'lumotlar va shar'iy qonunlar yoritilgan. Islomda bo'lajak oilaning vujudga kelishiga alohida e'tibor berilgan. Shariat bo'yicha nikohdan o'tishda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim bo'lgan.

1. Nikohlanuvchilarning o'zaro roziligi.
2. Nikoh yoshiga to'lish.
3. Nikohni guvohlar ishtirokida tuzish.
4. Kelin uchun qalin va mahr to'lash.
5. Dinij e'tiqod birligi.
6. Nikohlanuvchilar yaqin qarindosh bo'lmasligi.
7. Tabaqa bo'yicha tenglik.
8. Nikohdan o'tuvchilarning ruhiy jihatdan sog'lom bo'lishi.

Bu shartlarga rioya qilinib tuzilgan nikohgina qonuniy hisoblanib, taraflarni tegishli huquq va majburiyatlar bilan ta'minlagan.

Zardushtiylikning axloq me'yorlari majmuida ayollar masalasiga ham alohida o'rin berilgan. Zardushtiylikda oila muqaddas sanalgani uchun boshqa sabablarga ko'ra, jumladan, ig'vo, tuhmat, er-xotinning o'zaro kelishmovchiligiga, ota ona bilan chiqisha olmaslik bahonasi bilan nikohni bekor qilinishiga yo'l qo'yilmagan. Umuman Zardushtiylikda ham, Islomda ham nikohda ikki tomon teng va munosib bo'lishi aytib o'tilgan[3]. Nikoh tartiblari va hayotiy tajribalariga ko'ra, kelin va kuyov nasl nasabda, ijtimoiy mavqeda, bilim-saviyada, did-farosatda, ilm-e'tiqodda, mulkdorlikda bir-birlariga yaqin bo'lishi ma'qul topilgan. Shu bois, Sharq xalqlarida yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash, ularning tengini topib uylantirishga jiddiy e'tibor berilgan. Ayniqsa, qizlarni oilaviy turmushga tayyorlashda, ularda birinchi navbatda insoniy fazilatlar shakllangan bo'lishi, oilaning muqaddas ekanligi, uni avaylab-asrash aynan uy bekalariga bog'liqligi haqida ajdodlarimizdan bizgacha yetib

kelgan nasihatnoma, pandnoma va hikmatnomalarda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan qimmatli nasihatlar hikoya qilinadi.

Ko'rinib turibdiki, xalq og'zaki ijodi va diniy g'oyalar hamda hikmatnomalar og'zaki tarzda avloddan-avlodga ko'chib sayqallashgan holda saqlanib kelgan bo'lsa, xalqimiz orasidan etishib chiqqan donishmand va allomalar esa ana shunday qimmatli ma'lumotlarni xalq an'analar va qadriyatlariga tayangan holda o'z asarlarida yoritgan holda ilmiy-madaniy meros sifatida kelgusi avlodlar uchun qoldirganlar[4]. Ulardan biri - jahon ilm-fani hazinasiga munosib hissa qo'shgan mutafakkir olim Abu Nasr Farobiydir.

Abu Nasr Farobiy jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini va inson kamoloti bosqichlarini, insonlar yashash jarayonida baxt-saodatga erishuv yo'llarini o'zining mashhur asari "Fozil odamlar shahri"da bayon etadi. Farobiy oqil insonlar haqida gapirib, "Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, yomon ishlardan o'zlarini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydlar" degan edi. Alloma oqillar bor joyda hech qachon muammolar va kelishmovchiliklar bo'lmasligiga ishora qiladi. Uning g'oyalarida oilaning to'liqligi, unda qaror topgan sog'lom ma'naviy muhitning ahamiyatini aks ettiradigan fikrlar ham mavjud. "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi. U bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi" yoki "odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang'ich asos insoniylikdir. Haqiqiy baxtga erishish maqsadida o'zaro yordam qiluvchi kishilarni birlashtirgan shahar (bizningcha, oila) fazilatli shahardir, baxtga erishish maqsadida birlashgan kishilar jamoasi (bizningcha, oila jamoasi) fazilatli jamoadir".

Farobiyning inson kamoloti, uning jamiyatdagi, oiladagi o'rni, yoshlarning voyaga yetishiga ta'siri to'g'risidagi fikrlari, insonlar jamoasidagi o'zaro hamjihatlik, yordam haqidagi hikmatlari hozirgi oilaviy turmush masalalarini yechishda, undagi munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishda farovon turmush kechirish uchun dasturlamal bo'lib xizmat qiladi.

Abu Rayhon Beruniy o'z ijtimoiy qarashlarini aks ettirgan yaxlit ijtimoiy ta'limot yaratmagan bo'lsa-da, lekin u ijtimoiy masalalar bo'yicha o'zining nuqtai nazarini ko'pgina qomusiy asarlarida izhor etishga yoki ular yuzasidan tanqidiy fikrlar aylatishga harakat qilgan. Abu Rayhon Beruniyning muayyan qarashlari oilaviy turmush, oila va nikoh, oilaviy qadriyatlar va uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlarga xosdir. Bunday ishoralarni Beruniy hikmatlarida ham uchramiz. "Yaxshi xulq yaxshilik alomatidir". "Buzuq niyatli va yomon axloqli kishilar o'rtaga kirib olishi bilan ish to'g'ri bo'lmaydi". "Tenglik hukm surgan joyda sotqin, aldamchi ehtiroslar, g'am-g'ussa bo'lmaydi" oilaviy munosabatlarda ana shunday hikmatlarga amal qilishimiz maqsadga muvofiqdir[5] Beruniy O'rta Osiyo, Qadimgi Yunon va Hind xalqlari hayotini yaxshi bilgani uchun ular amal qiladigan urf-odatlar, qadriyatlar va milliy madaniyatlarining o'ziga xos tomonlarini taqqoslab tahlil qiladi. Ushbu tahlillar oila-nikoh, oiladagi o'zaro munosabatlarga ham xosdir. Jumladan, u oilalarning "poligamiya" (erkak yoki ayol bir paytning o'zida bittadan ortik er yoki xotinga ega bo'lishiga yo'l qo'yiladigan nikoh shaklini bildiradi) turi haqida ham qimmatli ma'lumotlarni keltiradi. Masalan, Janubiy Hindiston madaniyatida tud erkaklari biologik nuqtai nazardan otalikni o'rnatish bilan qiziqmaganlar. Ularda bolaga otalik rasmini amalga oshirish chog'ida o'qli kamonni homilador ayolga tantanali suratda bergan erkak bolaning otasi hisoblangan. Agar keyinchalik boshqa bir erkak bolaga otalik qilishni xohlab qolsa, bu rasm ayolning navbatdagi homiladorligida takrorlangan. Bu ma'lumotlar izlanuvchilarda ijtimoiy tarixiy taraqqiyot davomida oilaviy turmushning takomillashuvi, oila-nikoh munosabatlarining barqarorlashuvi va monogamiya oila turining kelib chiqishi tarixi haqida ilmiy tasavvurlar shakllanishiga yordam beradi.

Beruniy qarashlarida oilaviy munosabatlar barqarorligining yetakchi omillari oqillik va mehnatsevarlikning ahamiyati haqida ham qimmatli fikrlar mavjud. "Muayyan vazifalarni bajarish zaruriyati inson faoliyatining bir umrga yashash qoidasidir. Insonning qadr-qimmatini o'z vazifasini a'lo darajada bajarishidan, shuning uchun ham insonning erg asosiy vazifasi va o'rni mehnat bilan belgilanadi. Zero, inson o'z hohishiga mehnat tufayli erishgan".

Ibn Sino oilaviy munosabatlarning turli va muhim tomonlarini yoritgan ekan, avvalo oila boshlig'i erning oldidagi mas'uliyatli vazifalarga e'tiborini qaratadi. Uning fikricha, birinchi

navbatda er oiladagi tarbiyaviy ishlarga doir ham nazariy, ham amaliy ma'lumotlarga ega bo'lishi shart. Shundagina, u haqiqiy oila boshlig'i bo'la oladi. Er-xotin munosabati tenglik hamjihatlik va o'zaro hurmat asosida qurilishi haqida to'xtalib, "Erkak kishi oila boshlig'idir, u oilaning barcha ehtiyojlarini qondirmog'i lozim, chunki bu uning birlamchi vazifasidir. Ayol esa erkakni yaxshi, munosib yo'ldoshi va bola tarbiyasi borasida eng yaxshi voris va yordamchisidir" deb yozadi Ibn Sino.

Ibn Sino oilaviy munosabatlar maromi oiladagi tinch-totuvlik, mehr-muruvvat, oila g'ururi va sha'ni ko'p jihatdan ayollarga ham bog'liq ekanligi haqida ko'p yozgan. Jumladan, "Oilaxo'jaligi" asarida ayollar axloq eng maqbul, yuqori insoniy fazilatlariga ega bo'lmoqlari lozim, deb yozadi. Mazkur asarning "Ayollarning yaxshi fazilatlariga haqida" nomli bo'limida ularning quyidagi fazilatlarini bayon qilindi; ayol aqlan dono, uyatchan, iboli, iffatli bo'lib, ko'p gapirmasligi lozim; u eriga bo'ysunmog'i, uni sevmog'i, farzandlar tug'ib, doimo halol, pok, to'g'ri so'z, kamtar bo'lishi kerak; inij bo'lmasligi, o'z iffat va obro'sini to'kmasligi lozim; u hech qachon eriga nisbatan dimog'dorlik, viqor hissini ko'rsatmasligi, o'z ishlarni yaxshi, o'z vaqtida bajarib, oilaning moddiy boyliklarini tejankorlik bilan ishlatmog'i lozim; o'z xulq-atvori bilan o'z erining qalbida hadiksirash hissiga o'rin qoldirmasligi kerak ("Ibn Sino va tadbiri manzil".

Kaykovus qalamiga mansub Qobusnoma asari (1082-1083 yillarda yozilgan) Sharq xalqlari orasida ma'lum va mashhurdir. Qobusnomada qator ibratli va hayotiy pand nasihatlar bilan birgalikda "ishq va uning odatlari zikrida", "xotin olmoq zikrida" ham qimmatli ma'lumotlar berilgan. "Ey farzand, to kishining ta'bi latif bo'lmaguncha oshiq bo'lmag'usidir, nedinkim ishq beshak ta'bi latiflikdan paydo bo'lur. Har narsaki ta'bi latiflikdan paydo bo'lsa, ul beshak latif bo'lur". Bu yerda

Tadqiqot metodologiyasi. Yusuf xos Hojibning mashhur asari "Qutadg'u bilig" (baxt saodatga yo'llovchi bilim) da er yoki xotin tanlashda uning qaysi sifat va fazilatlariga e'tibor berish zarurligi, inson shaxsiga xos sifat va fazilatlarining oilaviy hayotni boshqarishdagi roli, o'rni va ahamiyati, er-xotin o'zaro munosabatlarining me'yori, farovon turmush kechirishning muhim shartlari haqida qimmatli fikrlar aytilganki, ular hozirgi oila turmushi va er-xotin munosabatlari uchun ham ahamiyatlidir[6]. Asarda "Sen xotin olsang, o'zingdan quyisini ol, zoti oliysiga boqma, sen qul bo'lib qolasan". Asli, urug'i hamda zoti yaxshi bo'lsin, uyatli, andishali, pokizasini istagin. Yuzi chiroyni istama, xulqi yaxshisini ista, fe'l-atvori yaxshi bo'lsa, sening yuzingni yoritadi. Fe'l-u atvori yaxshi bo'lsa, u to'kis bo'ladi. Fe'lu-atvori to'g'ri bo'lsa, juda munosib bo'ladi, xotin chiroyi xulqdir, buni bilgan biladi. Agar yaxshi andishali ayol topishga muvassar bo'lsang, boy berma (darhol olgin) ey ezgu kishi andishali, pokiza bo'lsa, unday kishi asl bo'ladi. Sen xotinning andishali-aqlisini ista, ey dono, andishali, aqlli xotin topilsa - farosat, andisha, boylik, chiroy, nasl-nasab jam bo'ladi. «Sen xotinni qadrl tut, nima so'rasa muhayyo et». Asarda xotin bilan bir qatorda er ham bilimdon, farosatli, aql-idroqli, zukko bo'lishi, oila tartibini saqlash va uni yuritishda intizomli (intizom o'rnatuvchi), uni kuzatib borishi kerakligi, oilaning iqtisodiy jihatdan to'kisligini ta'minlovchi, xotiniga va farzandlariga mehribon, xushmuomalali, to'g'ri so'z bo'lishi uning farovonligi va barqarorligini ta'minlovchi muhim omillar ekanligi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Alisher Navoiy «Mahbub ul qulub», ya'ni «qalblar sevgilisi» va «Vaqfiya» asarlarida oilaviy turmushi bilan bog'liq er va xotinning vazifalari, buchlari, o'zaro munosabat-muloqot madaniyati, ularning muvofiqligi va nomuvofiqligi, uning oqibatlariga haqida qimmatli nasihat va ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Jumladan, Alisher Navoiy «Mahbub ul qulub» asarining 37 fasl «uylanganlik va xotinar to'g'risida» ayolning fazilatlarini va uning oiladagi o'rni haqida quyidagilarni yozadi; «er bilan xotin bir-biriga mos tushsa, o'rtada boylik va saranjomlik bo'lur, uy bezagi undan va uylanganing (erning) tinchligi undan. Husni bo'lsa, ko'ngilga yoqimli bo'lur, yaxshiligi bo'lsa, jon ozig'idir. Aqlli bo'lsa, turmush intizomli va ro'zg'or kerak yarog'i tartibli va saranjomli bo'ladi. Ana shunday turmush o'rtog'i bo'lsa - g'am kulfatda sirdosh va hamdaming bo'lur, maxfiy va yashirin dard va mashaqqatda hamnafas va hamrohing bo'lur [7]. Tili yomon bo'lsa kuyovning ko'ngli yaranadi, yomon ishlik bo'lsa, erga yuz qarolik keladi. Mayxo'r bo'lsa, uy obodonligi yo'qoladi va buzuqi bo'lsa uy ichi rasvogarlikka aylanadi».

Alisher Navoiy mazkur asarida (11 qismida) har bir kishi uchun zarur bo'lgan yaxshi fe'llar va yomon xislatlar to'g'risida qanoat, sabr, tavozu' va odob, ishq, vafo, hamon, yumshoq ko'ngillilik va bir qator yomon illatlar to'g'risida qimmatli maslahatlar beradi.

Alisher Navoiyning fikrlarini psixologik nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, o'sha zamonlarda ham, hozir ham yigit va qizlarning o'zlariga har tomonlama mos turmush o'rtoq tanlashi, ularda zarur sifat va fazilatlar mujassamligi oilaning baxti va farovonligidir. Bir-biriga nomunosib er yoki xotin oilaning tanazzulidir. Husayn Voiz Koshifiy o'zining hayotdan olgan saboqlari, tajribalari asosida insonparvarlik, ijtimoiy hayot, oilaviy odob, adolat, halollik, sofdillik, to'g'rilik, rostgo'ylik haqidagi fikrlarini qiziqarli hikoyalar, rivoyatlar, pandu-nasihatlar yordamida bayon etgan. U salbiy axloqiy xislatlarni qoralaydi va ularning inson hayoti va jamiyat uchun katta zarar olib kelishini qator ibratli rivoyatlar bilan ko'rsatadi. Koshifiy jamiyatda, odamlar o'rtasida va oiladagi o'zaro munosabatlarda axloq me'yorlari bo'lib, bu me'yorlar insonlarning xulq, fe'l-atvorlarini tartibga solib turadigan axloqiy talablardir, deb baholaydi. Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yohud axloq" nomli asarida bola tarbiyasi borasida va umuman uning ijtimoiy roli falsafiy va pedagogik jihatdan keng ochib berilgan. Abdulla Avloniy tarbiya jarayonida oila va jamoatchilikning rolini, uning hamkorligini alohida ta'kidlab o'tadi. Allomaning fikriga ko'ra barkamol shaxsning ko'p qirrali bilimlarga ega bo'lishi, yaxshi bir kasbu – korning sirlarini egallash bir tomondan ijtimoiy muhit va oilaviy sharoitga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan bolalarning g'ayrat va shijoatiga,

xohish – istaklariga bog'liq bo'ladi. Abdulla Avloniy "Bolaning sog'ligi va baxti, avvalo uning yaxshi tarbiyalanishiga, bolaning tozaligiga, e'tiqod hosil qilishiga, yaxshi xulqqa ega bo'lishiga. Uni g'ayri axloqiy harakatlardan ogohlantirilishiga bog'liq" degan edi.

Xulosa va takliflar. Oila masalasi dunyoning ko'pgina mutafakkirlari tomonidan har doim o'rganilib kelinayotgan masalalardan biri hisoblanadi. Deylik, Fransuz yozuvchisi [8] V. Gyugo "Oila – jamiyatning duru gavhari" deb baho bersa, Amerika pedagogi F. Adler "Oila mo'jzagina bir jamiyatchadir, butun insoniyat jamiyatning daxlsizligi ham uning jipsligiga bog'liq" deb o'z fikrini bildiradi. Tarixan oila va uning qanday ko'rinishlari mavjud bo'lgan degan masala ham ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir, chunki oila turlari undagi o'zaro munosabatlarga aloqador bo'lgan oila tipi yoki modeli haqidagi fikrlarni keltirib chiqaradi. Insoniyat ijtimoiy tashkil topishining eng kadimiy shakli bu urug'-qabila bo'lib, u bir ayol urug'idan tarqagan, matriarxat zotidan kelib chiqadigan (uning qizlari, qizlarning farzandlari va ularning avlodlari) barcha odamlarni o'zida birlashtirgan. Shu toifa urug' mohiyatan matriarxal oila bo'lib, onaning zotidan tarqalgan barcha avlodni bir-biriga chatishtirib boravergan. Bunday urug' shaklining saqlanib qolgan andozalaridan biri ruslardagi "matreshka" o'yinchoqi bo'lib, u bizga ona avlodlarining o'zaro bir-birlaridan kelib chikishini ifodalaydi.

ADABIYOTLAR

1. Сермягина О.С. Многодетная семья в современном мире [Текст] / О.С. Сермягина. - М.: Проспект, 2008. - 225 с.
2. Торохтий В.С. Психологическое здоровье семьи [Текст] / В.С. Торохтий. - СПб.: Каро, 2009. - 275 с.
3. Фотеева Е.В. Межличностные отношения супругов и число детей в семье [Текст] / Е.В. Фотеева // Семья и школа. - 2010, № 2. - С. 31-32.
4. Юдина И.Ф., Юдина Л.И. Социально-психологические основы семейной жизни [Текст] / И.Ф. Юнда. - М: Речь, 2010. - 145 с.
5. Янкова З.А. Мужчина и женщина в семье [Текст] / З.А. Янкова. - М.: Астрель, 2012. - 180 с.
6. Эйдемиллер, Э.Г. Семейный диагноз и семейная психотерапия [Текст] / Э.Г. Эйдемиллер. - СПб: Речь, 2013. - 274 с.
7. Андреева Т.В. Психология современной семьи. Монография. - СПб.: Речь, 2005. - 436 с.
8. Гребенникова И.В. Основы семейной жизни: Учеб. пособие для ст. -в педагогических институтов. -М.: Просвещение, 1991. - 158 с., С. 24-28
9. Марковская И.М. Тренинг взаимодействия родителей с детьми. СПб., 2002. - 243 с.
10. Семенова Ф.О., Семенова М.Д. Психологические особенности влияния семьи на формирование образа мира ребенка / Семенова Ф.О., Семенова М.Д. // Ученые записки университета им. П.Ф. Лесгафта. 2015. № 11 (129). С. 282-285.
11. Семенова Ф.О., Боваева А.В. Категория детности в проблемном поле психологии семьи // Семья и личность: проблемы взаимодействия. 2019. № 13. С. 114-120.



Akbar XO'JAQULOV,
Qarshi davlat universiteti dotsenti
E-mail: xojaqulov82@mail.ru

Qarshi davlat universiteti professori, PhD O.Aslanova taqrizi asosida

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARDA QADRIYATLI MUNOSABATLAR ORQALI PEDAGOG-TARBIYACHI HAMDA OILA VA TARBIYALANUVCHILAR O'RTASIDA HAMKORLIK

Аннотация

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog-tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarida qadriyatli munosabatni shakllantirish, tarbiyalanuvchining yosh xususiyatlarini hisobga olish, hamda ijtimoiy-madaniy ta'lim-tarbiyaviy muhitida qulay sharoit yaratishda pedagog-tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasida munosabatlarning ilmiy-nazariy masalalari haqida fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchisi shaxsini shakllantirishning yana bir pedagogik shartlari, unda dastlab pedagogning eng avvalo namuna manbai sifatidagi shaxsiy xususiyatlari va maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchisini yoshiga doir ruhiy xususiyatlari, oila - maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchisi ta'siri prioriteti, nihoyat xulq-atvor etalonini namoyon qiluvchi tengdoshlar masalasi e'tibordan chetda qolmasligi lozimligini alohida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim tashkiloti, pedagog-tarbiyachi, tarbiyalanuvchilar, pedagogik shartlar, muhit, oila, qadriyat, munosabat.

СОТРУДНИЧЕСТВО ВОСПИТАТЕЛЯ С СЕМЬЕЙ И УЧАЩИМИСЯ ЧЕРЕЗ ЦЕННЫЕ ОТНОШЕНИЯ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Аннотация

В статье рассматриваются научно-теоретические вопросы формирования ценностных отношений у педагогов-воспитателей и воспитанников дошкольной образовательной организации, учета возрастных особенностей воспитанников, а также создания благоприятных условий в социально-культурной образовательной и воспитательной среде во взаимодействии между педагогом-воспитателем и воспитанником.

Кроме того, подчеркиваются и другие педагогические условия формирования личности воспитанника дошкольной образовательной организации, в том числе, что личные качества педагога, прежде всего как образца для подражания, должны играть важную роль. Необходимо также учитывать психологические особенности, связанные с возрастом воспитанников дошкольной образовательной организации, влияние семьи и приоритетное воздействие на воспитанника семьи и дошкольной организации, а также не упускать из виду вопрос влияния сверстников как модели поведения.

Ключевые слова: Организация дошкольного образования, педагог-воспитатель, воспитанники, педагогические условия, среда, семья, ценности, отношение.

COOPERATION BETWEEN THE EDUCATOR AND FAMILY AND STUDENTS THROUGH VALUABLE RELATIONSHIPS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Annotation

The article discusses the scientific and theoretical issues related to forming value-based relationships between preschool educational institution teachers and their pupils, taking into account the age characteristics of the pupils, and creating favorable conditions in the socio-cultural educational and upbringing environment through the interaction between teachers and pupils.

Additionally, the article emphasizes other pedagogical conditions necessary for shaping the personality of preschool institution pupils. Firstly, it highlights the importance of the teacher's personal qualities as a source of example. It also stresses the need to consider the psychological characteristics of preschool pupils based on their age, the influence of the family, and the priority of family and preschool institution impact on the pupil. Finally, the issue of peers serving as behavioral role models should not be overlooked.

Key words: Preschool education organization, pedagogue-educator, pupils, pedagogical conditions, environment, family, value, attitude.

Kirish. Jamiyatda oilaga muqobil institutning vazifasi har doim muhim masalalardan hisoblanib kelgan. Ijtimoiy hayotimizda yuzaga keluvchi yaxshi va yomon tushunchalar, jamiyatdagi turli xatti-harakatlar va meyorlar faqat oiladagi munosabatlarda paydo bo'ladi. Umuman olganda, oilaviy munosabatlar va hatti-harakatlarini amalga oshirish, ularni ma'lum tartibga saqlab turishda muqobil institutlarning o'rni kattadir. Misol uchun jamiyatimiz ma'naviy tizimida ijtimoiy xavf tug'duruvchi diniy ekstremizm va terorizmga qarshi turuvchi kuch ham bevosita oila muhitida dastlab sodir bo'ladi.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'limiy o'yin faoliyatida oilada qadriyatli munosabatlarni shakllantirishning konseptual asoslari pedagogik shart-sharoitlar majmuasini hisobga olganda muvaffaqiyatli amalga oshadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida oilada qadriyatli munosabatlarni muvaffaqiyatli shakllantirishning pedagoglar va ota-onalar birligi tashkil etilganligi bir qator ijobiy ishlar natijasidir.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar

yaratish maqsadida mamlakatimizda tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, uni jahon ta'lim standartlari talablari darajasiga olib chiqish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, bolalari kamolga erishgan davlatlar taraqqiyotida bu omil o'ziga xos o'rin tutadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Maktabgacha ta'lim tashkilotining tashkiliy-boshqaruv vazifalarini hal etish bilan bog'liq "tashkiliy-boshqaruv" sharoitlari borasida bir qator olimlarning nazariy qarashlari mavjud bo'lib, ulardan M.I. Rojkov va L.V. Bayborodovalarning fikrlarida ma'lum izchillik ko'zga tashlanadi. Shuningdek, yuqoridagi olimlarning qarashlariga tayangan holda ushbu holat borasida quyidagilarni inobatga olsak. Birinchidan, qonuniy vakillar huzurida maktabgacha ta'lim tashkiloti va guruhda tarbiyaga yo'nalgan barcha tadbirlarni tashkil etish nazarda tutiladi. Ikkinchidan, ota-onalar bilan birga ishlash tizimini tashkil etish (psixologik, tibbiy, pedagogik). Uchinchidan, oila bilan o'zaro munosabatlar muammosi bo'yicha ta'lim jarayoni ishtirokchilari (pedagoglar) bilan uzluksiz metodik ishlashni takshil etish, tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini rag'batlantiruvchi tizimni ishlab chiqish va ta'minlashdir. To'rtinchidan, saylov organi - ota-onalar qo'mitasi ishini tashkil etish va maktabgacha ta'lim

tashkilot jamoasi kundalik faoliyati masalalarini faollashtirish va rolini ko'tarish masalalaridir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchisi shaxsini shakllantirishning yana bir pedagogik shartlari majmuasiga e'tibor qaratsak. Bunda dastlab pedagogning eng avvalo namuna manbai sifatidagi shaxsiy xususiyatlari va maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchisini yoshiga doir ruhiy xususiyatlari (taqlidchiligi va ta'sirchanligi, reaktivligi va emotsionalligi) hisobga olinsa, undan so'ngra oila - maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchisi ta'siri prioriteti, nihoyat xulq-atvor etalonini namoyon qiluvchi tengdoshlar masalasi e'tibordan chetda qolmasligi lozimligini alohida ta'kidlash lozimdek.

Tabii va natijalar. Mazkur jarayonni to'ldirgan va aksiologik boyitgan holda biz tarbiyalanuvchilarda oilani qadrlash tuyg'usini shakllantirishning samaradorligini ta'minlovchi quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni ajratib ko'rsatamiz. Ushbu shartlar mazkur tadqiqot ishi metodologik mo'ljallari sifatidagi tizimli faoliyatga oid, aksiologik, oilaviy, shaxs faoliyatiga oid, gumanistik, genderli va kompetentli yondashuvlar kontekstida ajratilganligi ko'plab metodik qo'llanmalarda ko'rsatilgan. Biz esa ularning asosiyalariga e'tiborni qaratsak:

tarbiyalanuvchilarning yoshga doir xususiyatlarini hisobga olish;

maktabgacha ta'lim tashkilotining ijtimoiy-madaniy ta'lim muhitida maqbul oilaviy maydon yaratish;

xususiy qo'shimcha ta'lim muassasasi metodologik faoliyati orqali, ota-onalarning prospektik va introspektik refleksiya-rivojlantirish texnologiyasini qo'llagan holda ota-onalar kompetentligini shakllantirish;

pedagoglarda oilaviy kompetentlikni shakllantirish; maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida ta'limiy o'yin faoliyatida oilani qadrlash tuyg'usini shakllantirish bo'yicha ma'no izlash, hamda oilani psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash va boshqalar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat haqidagi bilimlarini tizimlashtirishning asoslari: jonli va jonsiz tabiat hodisalari, o'simlik va hayvonot dunyosi, o'z tana a'zolari, ularning tuzilishi va xususiyatlari, yashash muhiti, himoya vositalari, oziqlanishi haqida bilim beriladi. Bolalarda kattalar mehnati haqida bilimlarni shakllantirishda tizimlashtirishning asosini mehnat buyumlari, kishilar ehtiyojini qondirish uchun mehnat mahsulotlariga aylantirish aloqalarini tushunish tashkil etadi. Mashg'ulotlarda o'zlashtiriladigan bilim va ko'nikmalar bolalarning amaliy faoliyatlari bilan bog'lanadi. O'lchash usullarini bolalar o'yin va mehnat faoliyatida o'simliklar va ularni parvarish qilish haqidagi bilimlarni tabiat burchagidagi navbatchilikda, guldorzi mehnat ishlarida, turli material xususiyat va sifatleri haqidagi bilimlarni o'yin va qurishyasash va boshqa faoliyat turlarida qo'llaydilar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi vositasida bolalarni axloqiy sifatini shakllantirishdan avval bolalar tarbiyasiga alohida e'tibor bergan ma'qul. Tarbiya - inson kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi omillardan hisoblanadi. Tarbiya - aniq maqsadlarni ko'zlab sistemali ravishda, insonda ijobiy fazilatlarini tarkib topirishi yo'lida tarbiyachi rahbarligida amalga oshirib boriladi. Insonni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo'lib. O'tmishni, tarixni anglash va hurmat ruhiy ma'naviyatga erishishga bir qadam desak mubolag'a bo'lmaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi vositasida bolalarni axloqiy sifatini yaxshilashda tarbiyachi ertak, hikoya, maqol, tez aytish, raasal, topishmoq, qo'shiq va alia kabi xalq og'zaki ijodini ko'plab o'qigan, o'rgangan bo'lishi joiz. Chunki bola tarbiyasida bularning ahamiyati muhim hisoblanib, kelajakda bolalarga asqotadi. Pedagog A.S.Makarenko fikricha "Tarbiyaviy

ta'siming g'oyat qudratli ta'sir ko'rsata olishiga ishonchim komil. Agar odam yomon tarbiyalangan bo'lsa, bunda faqat tarbiyachilar aybdorligiga aminman. Agar bola yaxshi bo'lsa, buning uchun u tarbiyadan, o'z bolaligidan qarzdordir"[2]. Shundan ham sezsak mubolag'a bo'lmaydi. Yangi o'sayotgan nihol kabi bo'ladi murg'ak qalb sohiblari. Ulami xalq og'zaki ijodi vositasida axloqiy salohiyatini yanada oshirishga maqolar, tez aytish, topishmoqlar alohida e'tirof etgan joiz.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida ta'limiy o'yin faoliyatida oilani qadrlash tuyg'usini, oilani ma'naviy-ruhiy va milliy uyg'otishni shakllantirishga qo'yilgan vazifalarini biz maxsus tashkil etgan ota-onalar va tarbiyalanuvchilar uchun mo'ljallangan oilaviy mavzudagi aksiologik boyitilgan slayd-ma'ruzalar va video-ma'ruzalar, ekspertlarning brifinglari va bahs-munozalari yordamida hal etdik. "Oilaviy pedagogik xususiyatlari", "Milliy oilaviy tarbiya ildizlari", "Ota-ona uyi iliqlik bilan qarshi oladi", "maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila ruhiy-axloqiy rivojlanish yo'lida", guruh soatlari, etik suhbatlar, festivallar, muayyan oilashunoslik mavzusiga oid taqdimotlar o'tkazishda, "Mustahkam oila - mustahkam qo'rg'on", "Oilaviy tarbiyada ijodkorlik", "Oilada tabiatga munosabatni shakllantirish", tarixiy va etnografik muzeylarga oilaviy ekskursiyalar, oilaviy ijod ko'rgazmalarini borib ko'rish, "Bir piyola choy ustida" butun oila bo'lib o'tirishlar maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarning shakllanishi va kamol topirishdagi asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Pedagoglarda oilaviy kompetentlikni shakllantirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- pedagog tomonidan oilaning umuminsoniy qiymati va shaxs kamolotidagi ahamiyatini anglab yetilishi;
- oilaning ko'p jabhali va yarim funktsionalligini tushunib yetish;
- oilaviy munosabatlarda madaniyati, maishiy ko'nikmalar, qarindoshlar va yaqin insonlar bilan muloqot qilish mahoratini kasb etish;

- tarbiyalanuvchilarning turli tipga mansub oilalari bilan konstruktiv munosabatga kirishish ko'nikmasini orttirish;

- axloq meyorlarini (taktikaviylik, ota-onalar tuyg'ulariga nisbatan hurmat va boshqalar) hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida bo'lajak oilaparvar sifatlarini tarbiyalashda zarur kasbiy kompetensiyalarni egallash kabi vazifalarni o'z ichiga oladi.

Hozirgi sharoitda pedagoglarning tarbiyaviy faoliyatida kompetentli paradigma katta ahamiyat kasb etadi. Oilaviy kompetentlikni shakllantirish masalalari borasida biz bo'lg'usi pedagogik kadrlarni tayyorlash jarayonida turli shakl, metod va texnologiyalarni qo'llashga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Oilaviy kompetentlikni shakllantirish maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari uchun mo'ljallangan modulli yondashuv "ta'limiy o'yin faoliyatida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchisida oilani qadrlash tuyg'usini shakllantirish" dasturi bo'yicha turli shakllarda amalga oshirildi. Bular ma'ruza, suhbat, mustaqil ish, shuningdek, malaka oshirish tizimida qo'llanadigan metodlar, pedagogik vaziyatlarga yechim topish, loyihalash, modellashtirish, hamda axborot texnologiyalardan foydalanish masalalarida ko'rinadi.

Xulosa va takliflar. Pedagoglarda oilaviy kompetentlikni shakllantirishdan asosiy maqsad quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirish sharoitida kasbiy faoliyat tizimini loyihalash va tatbiq etishda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi-pedagogini metodologik qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida oilani qadrlash tuyg'usi va qadriyatli munosabatlarni shakllantirish dolzarb masalalardan biri bo'lib, u tarbiyalanuvchilarni ota-onaga, oilaga, mahallaga, vatanga mehr-muhabbatini o'tirishdagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-sonli qarori bilan tasdiqlangan Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standart. - T., 2020.
2. Khujakulov A.E. The formation of value relations to the family pre-school as psycho-pedagogical problem. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 7 No. 2, 2019.
3. Рожков, М.И. Воспитание толерантности у школьников: учеб.-метод. пособие/ М.И. Рожков, Л.В. Байбородова, М.А. Ковальчук - Ярославль: Академия развития. - 2003. -191 с.
4. Хўжакулов А.Э. МТТ тарбияланувчиларининг оилага кадрятли муносабатини шакллантиришда таълим-тарбия жараёни субъектларининг роли ҳамда уларнинг таъомиллари Педагогика ва психологияда инновациялар махсус сон журнали Тошкент, 2020. 62-67- бетлар.
5. Николина, В.В. Дети, молодежь и духовность: ценности и цели/В.В. Николина // Воспитание ценности и цели: науч.-метод. сб.- Н.Новгород.: НГПУ, 2004. - С. 6-15.
6. Шадиёв Р.Д., Ибрагимова Г, Набиев И Современное дошкольное образование и инновационная деятельность. Бюллетень науки и практики — Bulletin Of Science and Practice (scientific journal) №4 2018. p-457-460. DOI: 10.5281/zenodo.399225.



Baxtiyor HAQBERDIYEV,
Alfraganus University dotsenti, PhD
E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru

TIQXMMI MTU mudiri, PhD, dotsent J.Qosimov taqrizi asosida

IN TECHNICAL AND ARTISTIC SCIENCES: INTEGRATION, SYNERGETICS, COMPETENCE.

Annotation

This article discusses the rules, criteria, methods, technologies, synergetic principles, approaches, paradigms, categories, concepts, directions, system of competencies, principles, qualities, types, methodologies, concepts, concepts of integration of technical and artistic sciences. are mainly discussed in this article, sources on forms and methods are sufficiently covered.

Key words: Technology, art, integration, synergy, competence, method, technology, education, global, scientific, knowledge, society, science, philosophy, natural science, program, concept, skill, competence, approach.

В ТЕХНИЧЕСКИХ И ХУДОЖЕСТВЕННЫХ НАУКАХ: ИНТЕГРАЦИЯ, СИНЕРГЕТИКА, КОМПЕТЕНТНОСТЬ.

Аннотация

В данной статье рассматриваются правила, критерии, методы, технологии, синергетические принципы, подходы, парадигмы, категории, понятия, направления, система компетенций, принципы, качества, виды, методологии, понятия, концепции интеграции технических и художественных наук. в основном обсуждаются в данной статье, достаточно освещены источники о формах и методах.

Ключевые слова: Техника, искусство, интеграция, синергия, компетентность, метод, технология, образование, глобальное, научное, знание, общество, наука, философия, естествознание, программа, концепция, умение, компетентность, подход.

TEXNIK VA SAN'AT FANLARIDA: INTEGRATSIYA, SINERGETIKA, KOMPITENSIYA.

Annotatsiya

Bu maqolada asosan texnik va san'at fanlarini integratsiyalash qonun qoidalari, kriteriyalari, uslublari, texnologiyalari, sinergetikani tamoillari, yondashuvlari, paradigmalari, kategoriyalari, konsepsiyalari, yo'nalishlari, kompetensiyani tizimi, tamoyili, sifatleri, turlari, metodologiyalari, konsepsiyasi, tushunchalari, shakl va metodlari haqidagi manbalar yetarlicha yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Texnika, san'at, integratsiya, sinergetika, kompetensiya, metod, texnologiya, ta'lim, global, ilmiy, bilim, jamiyat, fan, falsafa, tabiyatshunoslik, dastur, konsepsiya, ko'nikma, malaka, yondashuv.

Kirish. Bugungi kunda barcha ta'lim jarayonlarida fanlarni integratsiyalash, interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kuchayib bormoqda. Buning sababi shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talabalarni tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, fanlarni integratsiyalash hamda zamonaviy texnologiyalar ularning egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Bugungi kunda dunyo aqliy tajribasining taraqqiyotini turli fanlar integratsiyasiz tasavvur etib bo'lmaydi, bugungi globalashayotgan dunyoda ilmiy integrativ jarayonlar juda katta sur'at bilan kechmoqda O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shu bilan birga boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi, talaba esa asosiy shaxsga aylanadi. Ta'limni integrativ rivojlantiruvchi va uzviylik xususiyatlari shaxsning barkamollik jihatlari tarkib toptirish, undagi ijtimoiy moslashuvchanlik malakalarini rivojlantirish, mustaqil, ongli fikr yuritishga oid malakalarni, ijobiy sifat va fazilatlarini jonlantirish uchun munosib omil deb e'tirof etiladi.

Juda keng ma'noga ega bo'lgan tushunchalardan biri bu integratsiyadir. Integratsiya degan tushuncha bizga yangi kirib kelgan so'zlardan bo'lsada, aslida u uzoq tarixga ega. Jamiyat, fan va texnika rivojlanish taraqqiyotida, davlatlarning rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydi. Integratsiya fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni hisoblanadi. Yana fanlarni ayrim qismlarning, mavzularini, elementlarning bog'liqlik holatini, ularni qo'shib birlashtirishni ifodalovchi tushunchadir. Fanlararo aloqaning yuqori darajasi, bir butun integrallashgan bilimlarni yaratishga imkon beruvchi vosita ta'lim integratsiyasi hisoblanadi.

Fanlar no'qtai nazaridan yaxlitlikka intilish, turli sohalaridagi bilimlar yig'indisi, qadimiy manbalarga, xususan, falsafa, tabiatshunoslik, ijtimoiy fanlar, san'at tarixi bilan birligi bilan antik fanga o'ziga xos qaytish, barcha bilimlarni integratsiyalashgan holda, o'ziga xos dunyoqarashga ega bo'lgan qadimgi madaniyatning yagona hodisasidir. Integratsiya konsepsiyasi fundamental fanlar sohasida ishlab chiqilgan bo'lib, hozirgi vaqtda u dolzarb masala hisoblanadi,

chunki u nafaqat fanda, balki umuman san'at va madaniyatda sodir bo'layotgan jarayonlarni ham o'z ichiga oladi.

Mazuga oid adabiyotlar tahlili. Respublikamiz, Mustaqil Davlatlar hamdo'stligi va xorij davlatlarida oliy ta'lim tizimini takomillashtirish, o'quv fanlari mazmunini integratsiyalash, sinergetik kompetentlikda talabalarni bilim, ko'nikma va malakalarini samarali rivojlantirish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan: Respublikamizda ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish sohasida R.X.Jo'raev, U.K.Tolipov, P.Musaev, R.F.Yuzlikaev, E.Ro'ziev, A. Xamroqulov, D.Nozilov, Sh.Abduraxmonov, Mustaqil Davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida A.P.Belyaeva, V.V.Kozlov, I.V.Glazkova, A.V.Ivanov, M.Pak, V.D.Krasilmnikov, G.B.Minervin, A.A.Bartashevich, Chet el mamlakatlarida bu borada D Karagiannis, Condoor S.S, Baxter, D. H., Jerz R., A. Sadegh, Guerra M, Bolton, R.W, Smith S, Chassapis C., Sheppard K, texnik va san'at fanlariga doir yutuqlarni shu dasturlar mazmuniga kiritish va uning samaradorligi ustida ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Jamiyat va hozirgi dunyo taraqqiyotida integratsiya tendentsiyasining ahamiyati haqida Kuptsov V.I., G.I.Marinko, M.A.Rozov, A.V.Surin, E.V.Girusov, G.Palvelg'tsig, G.Shtayninger va boshqalar fikr yuritishgan. Dalning izohli lug'atida "integratsiya" tushunchasi tizimlar nazariyasi tushunchasi sifatida ko'rib chiqilib, alohida differensial qismlarning bir butunga bog'langanlik holatini, shuningdek, bunday holatga olib keladigan jarayonni anglatadi. Shu bilan birga, bu ta'rif o'rganilayotgan hodisaning to'liq tasavvurini bermaydi, chunki "integratsiya" tushunchasi N.I. Kondakov "bir butunlikka birlashish, har qanday elementlarning birligi, har qanday birligni tiklash" deb ta'riflanadi. Bu shuni anglatadiki, integratsiya alohida qismlarni umumiy bir butunga qaytarish qobiliyatiga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Jahondagi ko'pgina mamlakatlar ta'lim tizimida integrativ xarakterdagi o'quv dasturlari va darsliklardan foydalanilmoqda. Respublikamizda fanlarni integratsiyalab o'qitish bo'yicha bir qancha ijobiy ishlar qilingan bo'lsada texnik va san'at sohasidagi fanlar integratsiyalari amalga oshirilmagan hamda hali ko'pgina global muammolar hal etilmagan:

- uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini bo'lgan oliy ta'limda texnik va san'at yo'nalishi fanlari uchun integratsiyalashgan ta'lim kontsepsiyasi ishlab chiqilmagan;

- o'quv fanlarining integratsiyalashgan mazmuni va uni o'qitish metodikasi yaratilmagan;
 - o'quv fanlari mazmunini integratsiyalashning shakl va metodlari ishlab chiqilmagan;
 - o'qituvchilar o'quv fani mazmunini integratsiyalab o'qitish metodlarini aniq tasavvur eta olmaydilar.

Metodologiyaning integratsiya bosqichlari to'rt bosqichdan iborat:

muammoning ta'rifi,
 ilovalarni tahlil qilish,
 spesifikatsiya,
 amalga oshirish.

Ta'lim metodologiyasi tushunchasi ostida quyidagi umumiy metod va tamoyillari tizimi tushuniladi:

sub'ektlarning (o'qituvchi va talabalarining) ta'lim faoliyatini tashkil etish;

ta'lim sub'ektlari kompetensiyalarini o'sishi (bilim, ko'nikma, kasbiy tajribada);

sub'ektlar ta'limiy faoliyatini (o'qituvchilik, o'quv, ilmiy tadqiqot) ratsionalashtirish va optimallashtirish.

Inson borlig'ining barcha bosqichlarida psixologik reallikning yaxlit manzarasini anglashni integrativ metodologiya ta'minlashi mumkin. Mazkur metodologiyadagi eng muhim tamoyillar sifatida quyidagi tamoyillarni ajratib ko'rsatish mumkin:

pozitivlik,
 mos keluvchanlik,
 potentsiallik,
 haqiqat,
 ko'p qirralilik

Tahlil va natijalar. Dunyo ilm-fani tinimsiz o'zgarib borar ekan, albatta, uning tadqiq etish usullari va metodlari ham shunga muvofiq tarzda o'zgarib va almashinib turadi. "Fandagi inqilob obyektga bo'lgan yondashuvning o'zgarishi bilan bog'liq bo'ladi". Obyektga bo'lgan yondashuvning o'zgarishi natijasida uning hali o'rganilmagan jihatlari to'la va teran o'rganilishi mumkin. Bu esa fanda katta o'zgarish (inqilob)lar yuzaga kelishiga zamin hozirlaydi. Biz buni sinergetik paradigmaning paydo bo'lishi va rivojlanishi misolida ham ko'rishimiz mumkin.

"Integrativ metodologiya" va "integrativ yondashuv metodologiyasi" tushunchalari o'zaro farqlanadi. Integrativ metodologiya turli metodologik yondashuvlardan kompleks tarzda foydalanadi, shu jumladan integrativ yondashuv metodologiyadan ham. Integrativ yondashuv metodologiyasining keng mustaqil bo'lish imkoniyatlariga ega. Ko'p yillardan buyon integrativ yondashuvdan kelib chiqqan turli metodologik yondashuvlar muvaffaqiyatli ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. Bularni sinergetik kompetentlikda ko'rish mumkin:

sinergetik kompetentlikda integrativ-modulli,
 sinergetik kompetentlikda integrativ-kontekstli,
 sinergetik kompetentlikda innovatsiya,
 sinergetik kompetentlikda algoritmik yondashuv,
 sinergetik kompetentlikda axborot-kompyuterli,
 sinergetik kompetentlikda integrativ-aksiologik,
 sinergetik kompetentlikda integrative-loyihalari,
 sinergetik kompetentlikda integrativ-kompetentli,
 sinergetik kompetentlikda integrativ-gumanitar va

boshqalar.

Barcha fanlarni sinergetik kompetentli yondashuvlar asosida aloqadorlik muammolaridan biri hisoblanib, o'quv jarayonida texnik va san'at mutaxassisligi talabalarida integratsiyalashuv bilish faoliyatini faol holatga olib keladi, kasb qizishlarini oshirib bilim sifatini ko'tarilishiga erishiladi, ta'limni ilmiyligi, tizimligi, mazmuniyligi yaxshi natijaga erishishini ta'minlaydi. Shu o'rinda kompetentlik haqida ham so'z yuritsak - ma'lum holat xususida to'g'ri

mulohaza yuritishga imkon beradigan bilimga ega bo'lish, dalil-isbotli fikr, kishining muayyan sohada saviyasini ifoda etadigan atama. Kompetentlik shaxs xususiyatlari va holatining murakkab majmui bo'lib, ma'lum sohadagi bilim, ko'nikma va tajribani mujassamlashtirishi.

Har qanday o'qituvchi ham "kompetentlik" nimani anglatishini va u "kompetensiya"dan nimasi bilan farq qilishini bilavermaydi. "Kompetentlik" tushunchasi pedagogning ma'lumoti, ko'nikmasi, qobiliyati va tajribasini o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, uning ma'lum bir ish turini bajarish qobiliyati hisoblanadi. Aslida, ikkala atama o'xshashdir. Kompetentlik tushunchasi nafaqat aniq bilim va ko'nikmalar, balki aniq strategiya, mos emotsiya va munosabat, xuddi shuningdek, butun bir tizimni boshqarish mexanizmi mavjud ekanligi talab etiladigan murakkab amaliy masalalarni hal etish bilan bog'liq. Kompetensiya bilimlarning umumiyligi va ularning odamlarda mavjudligini anglatadi, kompetentlik - bu bilimlarni ish jarayonida ishlatish darajasini anglatadi. Umuman, "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalari mazmun-mohiyati o'rganilar ekan, ushbu tushunchalarni aynan o'xshash, o'zaro bog'liq bo'lgan tushunchalar sifatida qo'llanilishi hamda differensial va integral xususiyatlari bilan farqlanishi pedagog olimlar tomonidan ta'kidlab o'tilgan.

Bir qator ilmiy ishlarda "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalarining psixologik, pedagogik mohiyati, kompetentli yondashuv, professional kompetentlikni rivojlantirish masalalari atroflicha o'rganilgan. V.S.Elegina va S.M.Poxlebaevlar o'zlarining ilmiy maqolasida quyidagi fikrlarni bildiradilar: "Kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida talaba o'z faoliyatidan ijodiy natija oladi va shu bilan birgalikda, muvaffaqiyat qozonishning usullari, yo'llari, metodlari, yondashuvlari va uslublarini o'zlashtirib oladi. Aynan talaba tomonidan yaratilgan ijodiy natija talaba bilan o'qituvchining hamkorlikdagi ijodiy natijasi hisoblanadi. Talabaning o'zlashtirishiga baho berishdan maqsad, berilgan ta'limning qanchalar samarador bo'lganligi darajasini aniqlash, bu birinchidan, maktabda olgan nazariy bilimlari darajasini bilish, ikkinchidan undagi kompetensiya shakllanishi, amaliyot paytidagi muvaffaqiyatli faoliyati yanada tezlashadi".

Sinergetika atamasi esa qadimgi yunon tilidan kelib chiqqan bo'lib, birgalik, birlashgan xolda, hamkorlik, ko'maklashish, ishtirokchilik yoki ko'maklashuvchi, yordam beruvchi degan ma'nolarni anglatadi. Mazkur atamaning qo'llash izlarini isixazm - Vezantiyadagi mistik oqim faoliyatidan ham topish mumkin. Sinergetikaning rivoji va shakllanishi natijasida ko'pgina sohalarida tabiiy fanlarga aloqador qonuniyatlarining umumfalsafiy, metodologik asosga aylanib borayotganligi kuzatilmoqda. U ilmiy tadqiqotlardan ko'pincha muvofiqlashtirilgan xarakat, o'zliksiz xamkorlik, birgalikda foydalanish, degan ma'nolarda qo'llaniladi. Sinergetik yondashuv orqali inson hayotining turli tomonlari o'rganiladi. Hozirgi dunyoda bo'layotgan o'zgarishlar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi o'qitish tizimiga uni yanada rivojlantirish strategiyasini nazarda tutuvchi mutlaqo yangicha yondashuvga ehtiyoj sezmoqda.

Xulosa va takliflar. Oliy ta'lim tizimidagi sinergetik yondashuvga hozirgi kunda talabalarda yangicha fikrlash shakllanishining asosiy jihatlardan biri sifatida qaralmoqda. O'quv jarayonida, talaba shaxsini tahlil qilishda, talabalarining ilg'or fikrlashi, talabani o'ziga xos tizim deb hisoblashga yordam beradi. Ushbu tizim professional bilimlarni o'z ichiga oladi, ta'lim olishda ko'proq muvaffaqiyatga erishish, dunyodagi yangi tendentsiyalarni tan olish muhimdir. Ta'lim jarayoniga sinergetik g'oyalarni tadbir qilish samarali hisoblanadi. Ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishning muhim talablaridan biri - bu ilmiy ta'lim makonining integratsiyalashuvi va madaniy qadriyatlarini o'zlashtirgan holda talabalarining o'zini-o'zi tashkil etishidir.

ADABIYOTLAR

1. Haqberdiyev, B. R. Projection method in the integration of design elements and engineering graphics and design sciences. Наука и Общество, 110.
2. Хакбердиев Б. Мухандислик графикаси ва дизайн fanlarini ўзаро интеграциялаш асосида талабаларни график ва бадий-ижодий bilim va kўnikmalarini takomillashtirish. O'zbekiston milliy universiteti xabarlar, 2022, [1/2] ISSN 2181-7324 193-197 b
3. Haqberdiyev B.R. Integrativ o'qitishni takomillashtirishda dizayn va muhandislik grafikasi fanlarini tutgan o'rni. // NamDU ilmiy axborotnomasi. - Namangan, 2022. № 6 - son. B. 1028-1032.
4. Хакбердиев Б.Р. Интеграция в дизайне: роль и значение. // ЎзМУ хабарлари Тошкент, 2022. 1/10 - сон. - Б. 175-177
5. Хакбердиев Б.Р. Современные подходы к преподаванию интегрированных наук // Xalq ta'limi jurnali. Toshkent, 2020. № 5. -B 141-143.
6. Haqberdiyev, B. R. The Role of Engineering Graphics and Design Sciences in the Study of the Analysis of Patterns in the Ancient Monuments of Uzbekistan. International Journal on Integrated Education, 4(7), 49-53.
7. Haqberdiyev, B. R. An International Multidisciplinary Research Journal.

8. Haqberdiyev, B. R. (2021). Goals and objectives of pedagogical experimental work. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6(3), 2-2.
9. Rustamovich, H. B., & Qabiljanovich, R. U. (2024). The educational direction " fine arts and engineering graphics" in the formation of the scientific worldview of students the role of computer graphics engineering science. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 6(03), 97-100.
10. Hakberdiyev, B. R. (2024, September). Integrative methodology in architecture and design. In *International Conference on World Science and Resarch* (Vol. 1, No. 2, pp. 52-56).
11. Rustamovich, H. B., & Abdurafikjonovna, A. H. (2024). The oretical solutions for integrative teaching of fine arts and engineering graphics with various disciplines of still life, consisting of geometric shapes in pencil painting. *International Journal of Advance Scientific Research*, 4(03), 102-106.
12. Haqberdiyev, B. R. (2020). The degree to which the problem has been studied. *Cutting EDGE-SCIENCE*, 191.
13. Haqberdiyev, B. R., Qosimov, J. A., & Abbasov, I. B. (2021). Проектирование архитектурных элементов.



Dilbar SHUKUROVA,
CHDPU Maxsus pedagogika kafedrası tayanch doktoranti
E-mail: dilbarmatkasimova@mail.com

Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent F.Qodirova taqrizi asosida

INKLYUZIV TA'LIM SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI

Аннотация

Ushbu maqola mazmunida inklyuziv ta'lim samaradorligini baholashning mezonlari, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan o'quvchilarning akademik faoligini aniqlash natijalari, tahlili va ular yuzasidan samarali taklif va tavsiyalar ishlab chiqish yo'llari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Inklyuziv, akademik, mezon, baho, model, tavsiya, taklif, maktab, o'quvchi, kadr.

КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В содержании данной статьи описаны критерии оценки эффективности инклюзивного образования, результаты определения учебной активности обучающихся с особыми образовательными потребностями, их анализ, а также пути разработки эффективных предложений и рекомендаций.

Ключевые слова: Инклюзивный, академический, критерий, оценка, модель, рекомендация, предложение, школа, ученик, персонал.

EFFECTIVENESS ASSESSMENT CRITERIA OF INCLUSIVE EDUCATION

Annotation

The content of this article describes the criteria for evaluating the effectiveness of inclusive education, the results of determining the academic activity of students with special educational needs, their analysis, and ways to develop effective suggestions and recommendations.

Key words: Inclusive, academic, criterion, assessment, model, recommendation, proposal, school, student, personnel.

Kirish. Jahon ta'lim tizimida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning samarali mexanizmlari, korreksion pedagogik strategiyalari, innovatsion texnologiyalari amaliyotga keng tadbiiq etilgan. Natijada ta'lim oluvchining akademik ijtimoiy ehtiyojlarini tezkor diagnostika qilish orqali sifatli ta'lim bilan taminlashning modernizatsiyalashgan tizimini yuqori sifatda modellashtirish imkoniyati kengaydi. Natijada rivojlanishda muommosi bo'lgan bolalarning kompleks ya'ni akademik, aqliy, ruhiy, jismoniy, ijtimoiy ehtiyojlarini tezkor diagnostika qilish mos sifatli ta'lim bilan qamrab olishning modelashtirish imkoniyati kengaydi. Davlatimiz Konstitutsiyasining bir qancha moddalarida nogironlikka mansub bolalar ta'limiga dahldor me'yorlar belgilab berilgan. Jumladan. 26-moddada "Insonning sha'ni va qadr-qimmatı daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas"-deyilgan bo'lsa, 50-moddada: "Har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi"[1]. Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir. Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi" deb ta'kidlangan [2].

Ma'lumki, sog'lom bolalar xamda imkoniyati cheklangan sog'lom bolalarni o'qitishga oid ma'lumotlar tarixiy manbalarda mavjud bo'lib, ular bugungi kunda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar uchun metodologik asos bo'lib hisoblanmoqda. Ibn Sino "Tib qonunlari" asarida bolalarga individual tarzda, alohida ta'lim berishdan ko'ra jamoa ichida ta'lim berishni afzal deb biladi va uning ustunlik jihatlari haqida quyidagicha yozadi: "O'quvchilar o'qish va tarbiya davomida ilgama chanqoqlik sezadilar. O'z bilimlari bilan g'ururlanadilar, bir-birlarining bilimlariga havas qiladilar. G'urur va o'ziga e'tibor tarbiyalanuvchilarni bir-birlaridan orqada qolmaslikka undaydi. O'quvchilar birga bo'lganda, doim bir-birlari bilan gaplashadilar va bu bilan o'z xotiralari va nutqlarini rivojlantiradilar"[5].

Qomusiy olim Abu Nasr Forobiy ta'lim va tarbiyaga quyidagicha ta'rif bergan: "Ta'lim, - degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir. Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilan bo'ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb

hunarga berilgan bo'lishni, o'rganishidir" deb ta'rif bergan[3]. Mazkur fikrlar maxsus pedagogikaga ham taalluqlidir. Chunki alohida ehtiyojli bolalar uchun ham ta'lim muhim omil, tarbiya esa ijtimoiylashish shartidir. Ular sog'lom insonlar orasida samarali uyg'unlashuviga erishish ta'lim-tarbiyasiz amalga oshmaydi. Ta'lim-tarbiya jarayoni esa mazkur bolalarning individual hususitiga ko'ra o'ziga xosdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahon miqiyosida inklyuziv ta'limni joriy etish hamda alohida ta'lim ehtiyojlari bor o'quvchilarga sifatli ta'lim berish masalasi ustuvor sanalib kelinmoqda. Bu borada MDX davlatlari olimlari tomonidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib ulardan O.Korshunova inklyuziv ta'lim tushunchasini tadqiqot ishlarida yoritib beradi. U tomondan inklyuziv ta'lim tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Ta'limga yanada moslashuvchan yondashuv bo'lib, har bir o'quvchining bir-biridan farq qilishi bilan bog'liq to'siqlarni bartaraf etadigan va o'quvchidagi potensial imkoniyatlarni o'z-o'zini anglashi uchun foydalanishga imkoniyat yaratadigan jarayondir"[4]. I.Xafizulina o'zining kadrlar tayyorlash jarayonida o'qituvchilarning inklyuziv kompetentligini shakllantirishga bag'ishlangan ilmiy ishida inklyuziv kompetentlikning motivatsion, kognitiv, refleksiv va operatsion komponentlari ajratib berilgan. Mazkur komponentlar doirasida o'qituvchilarda shakllanishi lozim bo'lgan kasbiy malakalar belgilab berilgan[8]. I.Voznyak tomonidan malaka oshirish tizimida o'qituvchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlash bo'yicha tajriba-sinov ishlari olib borilgan[7]. T.Tenkachyova o'zining "Inklyuziv ta'lim sharoitida katta maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining grammatik tuzilishini shakllantirish" mavzusida olib borgan izlanishida ta'lim maqsadlariga erishishda pedagog, alohida ehtiyojli bola hamda sog'lom bolalar o'rtasidagi o'zaro faoliyat, muloqot muhitining muhim omil ekanligi asoslab berilgan[6].

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda respublikaning 100 dan maktablarida inklyuziv ta'lim tashkil etilgan bo'lib, ushbu sinflarda sog'lom tengdoshlari bilan birga alohida ta'lim ehtiyojlari bor bolalar ta'lim olib kelishmoqda. Aslida inklyuziv ta'lim amaliyoti joriy etilishidan aval ham amaliyotda u yoki bu turdagi rivojlanish muammosiga ega bo'lgan bolalar sog'lom tengdoshlari bilan bir sinfda o'qib kelayotgan holatlar ham mavjud bo'lgan. Ammo qonun hujjatlari va ta'lim dasturlarida inklyuziv ta'limga alohida urg'u berilmagan.

Biz inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish muammosini ko'tarishimizdan maqsad amaliyotda uchratayotgan bir qancha savollarga javob berishdir. Chunki inklyuziv ta'limga subektlarning yetarlicha tayyor emasligi bois, ularni zarur axborotlar va metodik

vositalar bilan qurollantirishga ehtiyoj kuchaydi. Biz tadqiqot doirasida inklyuziv ta'lim samaradorligini baholashning ta'lim jarayoni hamda o'quvchilar faoliyati hamda subektlar ishtiroki bilan bog'liq mezonlarni shakllantirdik.

Inklyuziv ta'limda subektlarning, xususan, pedagoglar, psixologlar hamda maxsus pedagoglar faoliyatining natijalari aynan alohida ta'lim ehtiyojlari bor bolalardagi dinamik o'zgarishlarda ko'rinishini inobatga olgan holda quyidagi mezonlar inklyuziv ta'lim samaradorligini baholash imkonini beradi deb hisoblaymiz.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda o'qish motivatsiyasi darajasi. Bu mezon sog'lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda o'qishga qiziqishi, maktabga kelishga intilishini ko'zda tutadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning muloqotga ochiqligi. Bu mezon bolalarning do'stlarga egaligi, muloqotdan qochmasligi, darslarda uyalmasdan javob berishga qiziqishlarini tahlil qilishni ko'zda tutadi. Odatda eshitishida muammolari bo'lgan bolalar muloqotga kirishishda o'ziga xos nutqiy vositalardan foydalanadilar.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning fanlardan o'zlashtirish darajalari. Bu mezon inklyuziv ta'limning to'g'ri yo'lga

qo'yilganini, bolalar bilan ishlashning adaptiv mexanizmlari qo'llanilganini baholab beradi.

Tahlil va natijalar. Inklyuziv ta'lim samaradorligini baholovchi bosh mezon sifatida alohida ta'lim ehtiyojlari ega bo'lgan bolalarning akademik-ijtimoiy faolligi tanlab olinganligi haqida yuqorida takidlab o'tildi. Shuning uchun alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning o'qish motivatsiyasi, kommunikativlik darajalari hamda fanlardan o'zlashtirish yuzasidan tajriba sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari natijalari asosida amaliyotga biz tomondan taklif etilgan model joriy etildi.

Olingan natijalarga asoslangan holda matematik statistik tahlil qilinib, tajriba yakunidagi holat uchun topilgan natijalardan o'rtacha kvadratik chetlanish, tanlanma dispersiya, variatsiya ko'rsatkichlari, S_{xy} studentning tanlanma mezon, S_{xy} student mezon asosida erkinlik darajasi va ishonchli chetlanishlari topildi. Bular quyidagi jadvalda aks etgan (1-satr - statistik tahlil natijalari ko'rsatkichlari, 2-satr-o'qish motivatsiyasi bo'yicha, 3-satr-kommunikativlik darajalari bo'yicha, 4-satr-fanlardan o'zlashtirish darajalari bo'yicha):

\bar{X}	\bar{Y}	S_x^2	S_y^2	C_x	C_y	$T_{x,y}$	K	Δ_x	Δ_y
3,03	2,44	0,7091	0,9864	3	4	4,76	212,4	0,15	0,19
3,03	2,44	0,6899	1,0499	3	4	4,13	203,3	0,15	0,19
2,95	2,45	0,7475	1,0075	3	4	4,13	208,3	0,16	0,19

Demak, tajriba yakunida o'qish motivatsiyasi bo'yicha ta'limiy tajriba-sinov guruhidagi o'rtacha o'zlashtirish asoslovchi tajriba-sinov guruhidagiga nisbatan 14,75 foizga, kommunikativlik darajalari bo'yicha ta'limiy tajriba-sinov guruhidagi o'rtacha o'zlashtirish asoslovchi tajriba-sinov guruhidagiga nisbatan 13 foizga,

O'qish motivatsiyasi bo'yicha:

$$\text{Ma'lumki, } \bar{X}=3,03; \bar{Y}=2,44; \Delta_x = 0,15; \Delta_y = 0,19 \text{ ga teng.}$$

Bundan sifat ko'rsatkichlari

$$K_{yco} = \frac{(\bar{X}-\Delta_x)}{(\bar{Y}+\Delta_y)} = \frac{3,03-0,15}{2,44+0,19} = \frac{2,88}{2,63} = 1,1 > 1;$$

$$K_{6no} = (\bar{X} - \Delta_x) - (\bar{Y} - \Delta_y) = (3,03 - 0,15) - (2,44 - 0,19) = 2,88 - 2,25 = 0,63 > 0;$$

Kommunikativlik darajalari bo'yicha:

$$\text{Ma'lumki, } \bar{X}=3,01; \bar{Y}=2,49; \Delta_x = 0,15; \Delta_y = 0,19 \text{ ga teng.}$$

Bundan sifat ko'rsatkichlari:

$$K_{yco} = \frac{(\bar{X}-\Delta_x)}{(\bar{Y}+\Delta_y)} = \frac{3,01-0,15}{2,49+0,19} = \frac{2,86}{2,68} = 1,07 > 1;$$

$$K_{6no} = (\bar{X} - \Delta_x) - (\bar{Y} - \Delta_y) = (3,01 - 0,15) - (2,49 - 0,19) = 2,86 - 2,3 = 0,56 > 0;$$

Fanlardan o'zlashtirish darajalari bo'yicha:

$$\text{Ma'lumki, } \bar{X}=2,95; \bar{Y}=2,45; \Delta_x = 0,16; \Delta_y = 0,19 \text{ ga teng.}$$

Bundan sifat ko'rsatkichlari:

$$K_{yco} = \frac{(\bar{X}-\Delta_x)}{(\bar{Y}+\Delta_y)} = \frac{2,95-0,16}{2,45+0,19} = \frac{2,79}{2,64} = 1,06 > 1;$$

$$K_{6no} = (\bar{X} - \Delta_x) - (\bar{Y} - \Delta_y) = (2,95 - 0,16) - (2,45 - 0,19) = 2,79 - 2,26 = 0,53 > 0;$$

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezonidan birinchi katta va bilish darajasini baholash mezonidan katta katta ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, tajriba yakunidagi o'zlashtirish ta'limiy tajriba-sinov guruhidagi o'zlashtirishdan yuqori ekan.

Demak, inklyuziv ta'limga jalb etilgan o'quvchilarning akademik-ijtimoiy faoliyati samaradorlik darajasini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari samarador ekanligi statistik tahlildan ma'lum bo'ldi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot doirasida Inklyuziv ta'lim samaradorligini baholovchi bosh mezon sifatida alohida ta'lim

fanlardan o'zlashtirish darajalari bo'yicha ta'limiy tajriba-sinov guruhidagi o'rtacha o'zlashtirish asoslovchi tajriba-sinov guruhidagiga nisbatan 12,5 foizga oshgan.

Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatkichlarini hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
- O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr. O'zRQ-637-son <https://lex.uz/docs/5013007>
- Atayeva.N.S., Rasulo'va.F, Salayeva.M, Hasanov.S, Umumiy pedagogika. (Pedagogika tarixi). O'quv qo'llanma. I-kitob.,-T.: Fan va texnologiya, 2012,756 bet-12bet.
- Korshunova O.V. Teoretiko-metodologicheskiye osnovi inklyuzii v obrazovaniy // Nauchno-metodicheskiy elektronniy jurnal «Konsept». – 2016. – T. 8. – S. 16–20. – URL: <http://e-koncept.ru/2016/56114.htm>
- Musurmonova.O [va boshq.], Umumiy pedagogika. Qism I: darslik -Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020, 376 bet-161bet
- Tenkacheva.T.R Formirovaniye grammaticeskogo stroya rechi u detey starshego doshkolnogo vozrasta v usloviyax inklyuzivnogo obrazovaniya avto. dis.kand.ped. nauk:– Yekaterinburg 2014
- Voznyak.I.V Formirovaniye gotovnosti pedagogov k inklyuzivnomu obrazovaniyu detey v sisteme povisheniya kvalifikatsii avto. dis.kand.ped. nauk:– Belgorod-2017
- Xafizullina N.I. Formirovaniye inklyuzivnoy kompetentnosti budushix uchiteley v protsesse professionalnoy podgotovki: avto. dis.kand.ped. nauk:– Astraxan:2008. 22st.



Hamza ELLIYEV,
TAFU tadqiqotchisi
E-mail: xamza.elliye@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, prof. M.E. Axmedova taqrizi ostida

O'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASH ILMIY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarning bilimini baholash va fanga oid kreativ fikrlashini oshirish, malakalarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish haqida gap yuritilgan.

Kalit so'zlar: Umumiy kompetensiya, aniq fanlar, savodxonlik, ta'lim texnologiyalari, malaka, boshlang'ich ta'lim.

THE EVALUATION OF STUDENTS KNOWLEDGE AS A SCIENTIFIC PEDAGOGICAL PROBLEM

Annotation

In this article, special attention is paid to the issues of evaluating the knowledge of students in the continuous education system, increasing their creative thinking about science, and developing their skills. They talked about the development of education and upbringing, the decision of a healthy lifestyle, the advancement of science and innovation.

Key words: General competence, specific subjects, literacy, educational technologies, competence, primary education.

ОЦЕНКА ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ КАК НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация

В данной статье особое внимание уделено вопросам оценки знаний студентов в системе непрерывного образования, повышения их творческого мышления о науке, развития их навыков. Говорили о развитии образования и воспитания, переходе на здоровый образ жизни, развитии науки и инноваций.

Ключевые слова: Общая компетентность, конкретные предметы, грамотность, образовательные технологии, компетентность, начальное образование.

Kirish. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, jahon talablari darajasida ta'lim olishi va kasb egallashi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. Yangi sharoitlardan kelib chiqib, «Ta'lim to'g'risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, 2017-2021-yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish hamda pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish taqozo etadi. "Aniq fanlarning fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar" modulining ishchi o'quv dasturi aniq fanlarning fani o'qituvchilari malakasini oshirish kursining o'quv dasturi asosida tuzilgan bo'lib, u aniq fanlarning fani o'qituvchilariga ta'limda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalarning mazmun va mohiyatini ochib beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Aniq fanlarning turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitishda va baholashga asoslangan tadqiqotlar respublikamiz olimlari: Sh.A.Abdullayeva, S.Alixonov, I.Aliyev, M.Barakayev, G.V.Zloskiy, D.Maxmudova, I.Sh.Laktayeva, M.Tojriyev, M.I.Toshpulatova, D.Turdiboyev, A.Xurramov, E.Sharipov, D.Yunusova, Sh.M.Yunusova kabilarning ilmiy izlanishlarida yoritib berilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish faolligini oshirish va aniq fanlarning o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha B.R.Adizov, A.Yu.Bakirova, M.S.Divanova, M.Jumayev, R.Ibragimov, R.A.Mavlanova, M.J.Saidova, M.M.Sultonov, A.Xalilayev, N.Sh.Ruzikulova, E.Yangabayeva, F.Kasimov, Sh.M. Yunusova va boshqalarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Matematika fani fundamental fan bo'lishiga qaramasdan uni kasbga yo'naltirish imkoniyati mavjud va bu uning amaliy ahamiyatidan bevosita kelib chiqadi. Matematikaning amaliy ahamiyatini o'qitishning asosiy maqsadi sifatida ko'rsatib S. Alixonov shunday deb yozadi: "O'rta maktablarda matematika o'qitishning maqsadi quyidagi uch omil bilan belginadi:

1. Matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi
2. Matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi
3. Matematika o'qitishning amaliy maqsadi

Tadqiqot metodologiyasi. Aniq fanlarning imtihonlarida o'quvchilar qanday muammolarga duch kelishi mumkin? 1. Darsliklarda PISA topshiriqlariga o'xshash masalalarning yo'qligi yoki kamligi va shuning uchun o'quvchilarda bunday amaliy faoliyatlarini amalga oshirish tajribasining yetishmasligi oqibatida ularning natijalari past bo'lishi mumkin. 2. PISA topshiriqlari odatda uzundan-uzun matnlar yordamida tasvirlanib, ulardagi real vaziyat va muammolarni hal qilish usulini tanlash uchun aniq fanlarning ning qaysi bo'limiga murojaat qilish haqida ko'rsatmalar yo'q. 3. PISA topshiriqlari (matnli, rasmi, diagramma va jadvallar, real bog'lanishlar grafiklari) turli shakllarda taklif qilinadi. Ularni aniq fanlar tilga o'girish va yechim topilgandan so'ng uni yana real sharoit bilan bog'lab baholash va sharhlash talab qilinadi. 4. Odatda aniq fanlarning darsliklarida standart masalalar beriladi va ular standart usullar yordamida yechiladi, ya'ni o'quvchilar muayyan turdagi masalalarni ma'lum algoritmlar asosida yechishga o'rgatiladi. 5. Odatda aniq fanlarning darsliklaridagi masalalar muayyan bobda beriladi va bu bilan ularni yechish usullari ham shu bobda ko'rilgan usullarga bog'langan holda beriladi, ya'ni muayyan bo'limining masalalari qanday yechilishi haqida ko'rsatma beriladi. 6. Bundan tashqari, darslikdagi masalalar sof aniq fanlar masalaning tavsifidan iborat bo'lib, odatda ularning mazmuni hayotdagi real vaziyatlardan ancha uzoqda bo'ladi. Bizning darsliklarda PISA topshiriqlariga o'xshash masalalar juda kam yoki umuman yo'q. Masalalarda ko'rilayotgan vaziyatni tavsiflovchi juda katta hajmdagi axborot berilib, ularda juda ko'p yangi matnli ma'lumotlarning borligi – masalani tushunish va uni yechishni yana og'irlashtiradi. Ma'lumot turli shakllarda taqdim etiladi: matn, raqam va ma'lumotlar shaklida. Masalani yechish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar matnning turli qismlaridan olinishi kerak. Ba'zi masalalarda "aylana" so'zi topshiriq matnida qayd etilmasada, o'quvchilarning o'zlari obyektning aylana shaklida ekanligini topishlari kerak bo'ladi.

Tahlil va natijalar. 8-sinf o'quvchilariga taqdim etilgan topshiriqlaridan namunalar 1. Sakkizinchi sinfda 30 nafar o'quvchi bor. Sinf ro'yxatida tasodifiy tanlangan o'quvchining 13 yoshdan kichik bo'lishi ehtimolligi 1/5 ni tashkil etadi. Bu sinfda nechta o'quvchining yoshi 13 yoshdan kichik? 2. Ko'zoynak va kontaktli linzalarning qanday qilib yaxshi ko'rishlariga yordam berishini qisqacha izohlang. 3. Oliy maktabga shamollab bordi. Bir necha kundan so'ng, maktabdagi do'stlarining yarmi ham kasal bo'lib qoldi. O'quvchilarning bir qismi kasal bo'lib qolgani, qolganlarining esa kasal bo'lmaganini tushuntirib beradigan eng asosiy sababni ayting. TALIS (The Teaching and Learning International Survey) – rahbar va pedagog kadrlarining umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganadi.

O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholashning asosiy ko'rsatkichlari nazariy bilimlarning to'liqligi, izchilligi, samaradorligi; amaliy topshiriqlarni bajarishda o'rganilgan tushunchalardan foydalanish qobiliyati; aniq fanlarning kursining asosiy yo'nalishlari bo'yicha tushunchalarni ishlatish ko'nikmalarini o'zlashtirish: raqamlar va hisob-kitoblari; iboralar va ularning o'zgarishi; tenglamalar va tengsizliklar; koordinatalar va funksiyalar; geometrik shakllar va ularning xususiyatlari; geometrik miqdorlarni o'lchash; geometrik konstruksiyalar va transformatsiyalar.

Belgi o'quvchilarning o'quv faoliyati natijalarini baholash uchun o'n balli shkala bo'yicha ko'rsatiladi. Shu bilan birga, qilingan xatolarning tabiati (muhim, ahamiyatsiz) hisobga olinadi. Muhim xatolar toifasiga o'quvchilar tomonidan bilmaslik, nazariyaning asosiy qoidalarini noto'g'ri tushunish va dastur tomonidan taqdim yetilgan amaliy vazifalarni hal qilish usullari, usullari va usullarini noto'g'ri qo'llash bilan bog'liq xatolar kiradi. Ahamiyatsiz xatolar toifasiga yozuvlar, chizmalar, grafikalar, chizmalarning beparvo bajarilishi bilan bog'liq xatolar, shuningdek vazifaning ma'nosi va uning bajarilishining buzilishiga olib kelmaydigan xatolar kiradi. Agar sezilarli xato bo'lsa, vazifa bajarilmagan deb hisoblanadi. Ahamiyatsiz xatoga yo'l qo'yilgan vazifaning qiymati bir punktga kamayadi.

Umumiy bazaviy ta'lim asosida yuqori sinfga o'tgan o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari nazorat qilinadigan o'quv materialining mazmuni va hajmi kirish imtihonlari dasturi bilan belgilanadi.

Aniq fanlarning dan yozma kirish testining imtihon versiyasida (bundan buyon matnda imtihon versiyasi deb yuritiladi) birinchi darajadan beshinchi darajagacha bo'lgan vazifalar to'plami bo'lishi kerak. Vazifa algebraik yoki geometrik vazifa bo'lishi mumkin.

Imtihon varianti 5, 10 yoki 7 topshiriqdan iborat bo'lishi mumkin (ta'lim muassasasining xohishiga ko'ra). Har bir daraja uchun vazifalar soni 2-4-jadvalga muvofiq belgilanadi. Geometrik vazifalarning nisbati barcha vazifalar sonining taxminan uchdan bir qismi bo'lishi kerak. Masalan, agar yozma ishda beshta vazifa bo'lsa, unda ulardan 1-2 tasi geometrik bo'lishi kerak; agar o'rta vazifa bo'lsa, unda 3 tasi geometrik; agar yettita vazifa bo'lsa, unda 2 tasi geometrik.

Imtihon variantlarini shakllantirishda (tuzishda) aniq fanlarning dan yozma imtihon uchun 3 akademik soat ajratilganligini yodda tutish kerak. Ko'p vaqt talab qiladigan noqulay hisob-kitoblari bilan vazifalardan qochish tavsiya yetiladi. Aniq fanlar tayyorgarlik sifatini tekshirish va abituriyentning aniq fanlar fikrlashining turli jihatlarini aniqlash imkonini beruvchi vazifalarni kiritish tavsiya yetiladi.

Imtihon ishini yakunlash vaqti o'quvchilar imtihon variantlari (topshiriq matnlari) mazmuni bilan tanishgan paytdan boshlab hisoblanadi.

O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini nazorat qilish o'quv jarayonining muhim yelementlaridan biridir. Ta'rifga ko'ra, nazorat – bu yerilgan natijalarning rejalashtirilgan o'quv maqsadlari bilan o'zaro bog'liqligidir.

O'quvchilar materialni qanday o'rganishlari, olgan bilimlarini amaliy muammolarni hal qilishda qanday qo'llashlari haqida muntazam va ob'ektiv ma'lumotlarsiz o'rganish to'liq bo'lmaydi. Nazorat tufayli o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida fikr-mulohazalar o'rnatiladi, bu bizga o'quv materialini o'rganish dinamikasini, bilim, ko'nikma va ko'nikmalar tizimidagi haqiqiy malaka darajasini baholashga imkon beradi. O'quvchilar bilimni tekshirish nafaqat bajarilgan faoliyatning yakuniy natijasining to'g'riligi yoki noto'g'riligi, balki uning o'zi haqida ham ma'lumot berishi kerak (harakatlar shakli assimiilyatsiyaning ushbu bosqichiga to'g'ri keladimi). O'quvchilarning o'quv faoliyati ustidan to'g'ri joylashtirilgan nazorat o'qituvchiga olgan bilim, ko'nikma va

malakalarini baholash, o'z vaqtida zarur yordam ko'rsatish va o'quv maqsadlariga yerishish imkonini beradi. Bularning barchasi birgalikda o'quvchilarning bilim qobiliyatlarini rivojlantirish va aniq fanlarning darslarida mustaqil ishlarini faollashtirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Yaxshi joylashtirilgan nazorat o'qituvchiga nafaqat o'quvchilar tomonidan o'rganilgan materialni o'zlashtirish darajasini to'g'ri baholashga, balki o'zlarining muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklarini ko'rishga imkon beradi. O'qituvchining vazifasi nafaqat bilimlarni, balki yangi materialni amaliy o'zlashtirish yelementlarini ham sinab ko'rishdir.

O'quvchilarning o'quv faoliyatini monitoring qilish muammosi yangi yemas va bu sohada to'plangan pedagogik tajriba boy va ko'p qirrali. Yaxshi tasdiqlangan tekshirish va natijalarni o'z vaqtida baholashsiz aniq fanlarni o'qitish samaradorligi haqida gapirish mumkin emas.

Bilimlarni nazorat qilishning maqsad va vazifalari

Nazorat o'quv jarayonining bir qismidir. Nazorat-bu o'quv faoliyati natijasini aniqlash (o'rganishning ma'lum bir bosqichida) va uni dastur tomonidan ushbu natijaga qo'yiladigan talablar bilan taqqoslash. Bundan tashqari, ma'lum bir o'quvchining bilim va ko'nikmalarini nazorat qilish ushbu bilim va ko'nikmalarni faqat uning shaxsiy ta'lim faoliyati natijalari asosida baholashni ta'minlaydi.

Bilimlarni tekshirish nazoratning ajralmas qismidir. Aniq fanlarning dan o'quvchilar bilimni tekshirishning asosiy didaktik vazifasi o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida fikr-mulohazalarni ta'minlashdan iborat bo'lib, unga quyidagilar kiradi: o'quv jarayoni jarayonida kamchiliklarni aniqlash; o'quvchilar o'rtasidagi bilim bo'shliqlarini aniqlash; aniq fanlarning dan o'quv materialini o'zlashtirish darajasini aniqlash. Tekshirishdan tashqari, nazorat baholash (jarayon) va belgini (baholash natijasi) o'z ichiga oladi. O'quvchining aniq fanlarning dan olgan bilimlarini monitoring qilish va baholashning asosiy maqsadi o'quv materialini o'rganish sifatini, aniq fanlarning dan o'quv dasturida nazarda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish darajasini aniqlashdir. Nazorat vazifalariga har bir o'quvchining o'qitish natijalari uchun javobgarlik o'lchovini, mustaqil ravishda bilim olish qobiliyatini aniqlash kiradi.

Bilimlarni nazorat qilish o'qituvchiga aniq fanlarning dan o'quv materialini o'zlashtirish darajasini aniqlashga yoki kerak bo'lganda ushbu bilimlarni tuzatishga imkon beradi. O'quvchining bilimni nazorat qilish unga ma'lum vaqt ichida o'rgangan narsalarini tizimga kiritish imkonini beradi. O'quv materialini vaqt ajratish, umumlashtirish, asosiy narsani ta'kidlang, unga ye'tibor qarating, agar kerak bo'lsa, individual bilimlarni rivojlantirish, baholash va faoliyatigiz natijalarini ko'rishingiz mumkin.

Aniq fanlar materialini o'rganish tartibiga muvofiq o'quvchining aniq fanlarning dan bilim va ko'nikmalarini izchil ravishda tashxislash, nazorat qilish, tekshirish va baholash kerak.

O'quvchining aniq fanlardan olgan bilimlarini tizimli nazorat qilish ta'lim sifatini oshirishning asosiy shartlaridan biridir. O'qituvchining bilimlarni nazorat qilishning turli shakllarini mohirona egallashi o'quvchining aniq fanlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi, orqada qolishning oldini oladi va o'quvchining sinfdagi faolligini ta'minlaydi.

Bilim va ko'nikmalarni baholash. Bilim va ko'nikmalarni nazorat qilish natijasi baholashda ifodalanaadi. Baholash o'qituvchi-o'quvchilar tizimida hisobot paytida o'qituvchiga keladigan ma'lumotlarni qayta ishlash natijasidir. Baholash katta ta'lim va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash uchun quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- obyektivlik (o'quv materialini o'zlashtirishning haqiqiy darajasini aks yettiradi);
- individuallik (baholashda sof individual jarayon natijasi, ma'lum bir o'quvchining bilim darajasi qayd yetiladi);
- oshkorlik (e'lon qilinayotgan baho, birinchi navbatda, o'quvchiga ta'sir qiladi, chunki u tuzatuvchi ma'lumot oladi);
- mulohazakorlik (baholash asosli va ishonchli bo'lishi kerak, o'quvchilar jamoasining o'zini o'zi baholashi va fikri bilan to'g'ri bog'liq bo'lishi kerak; mulohazakorlik o'qituvchining obro'sini va o'quvchilar oldida uning baholash obro'sini saqlab qolish uchun zarur shartdir).

Pedagogik nazariya va amaliyotda yakuniy va joriy baholarni ajratish odatiy holdir. Yakuniy baholash o'quvchining umuman yutuqlarini, o'quv dasturi talablariga muvofiq bilim darajasini tavsiflaydi. Joriy baholash aslida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'sirini tartibga soluvchi sof pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi

ta'lim jarayonida. Bunday baholashning maqsadi o'quvchining keyingi faolligini rag'batlantirishdir. Joriy tekshiruvga ko'ra, o'quvchining mehnasevarligi va mehnasevarligini baholash mumkin, ammo uning umumiy rivojlanishi to'g'risida xulosa chiqarish qiyin. Shuning uchun yakuniy ball joriy balning o'rtacha arifmetikasi bo'lmasligi kerak. Baholashning dastlabki nuqtasi-kerakli o'quv natijasiga yo'naltirish. Erishilgan haqiqiy natija u bilan taqqoslanadi. Istalgan natija aslida asosiy mezon - treningning yakuniy samaradorligi sifatida ishlaydi.

Hozirgi vaqtda bilim va ko'nikmalarni baholash uchun sifat ko'rsatkichlaridan foydalanilmoqda. Ushbu yondashuv I. Ya.Lerner va M. N. Skatkinlar tomonidan ilgari surilgan. Ular o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarining to'liqligi, chuqurligi, kuchi, samaradorligi, ongini hisobga olishni tavsiya qiladilar. Bilim va ko'nikmalarining to'liqligi dasturiy ta'minot bilimlarining sifati bilan belgilanadi.

Aniq fanlarni baholash ushbu fan bo'yicha bilim darajasi va xususiyatiga asoslanishi kerak. Bilimlarni baholash qanchalik obyektiv bo'lsa, u o'quvchilarni shunchalik rag'batlantiradi va ularni ushbu fan bo'yicha keyingi ta'lim faoliyati uchun faollashtiradi. O'qituvchining individual o'quvchilarga nisbatan shaxsiy salbiy munosabatini baholashga ta'sir qilish mutlaqo qabul qilinishi mumkin emas.

Yozma nazorat

Yozma ishlar o'quvchilar bilimini va o'z bilimlarini amalda qo'llash qobiliyatini sinashning asosiy vositasidir. Yozma ish o'quvchilar bilimini hisobga olish va nazorat qilish shakllaridan biridir. Yozma nazoratning uch turi mavjud: joriy, oraliq va yakuniy.

Joriy nazoratning uch turi mavjud.

1. Ochiq – bu osonlik bilan amalga oshiriladi (mustaqil ish, o'rganilayotgan mavzu boshida 10-15 daqiqa davomida testlar, materialning qanday qabul qilinishini, uning kichik qismi o'zlashtirilganligini va mumkinmi yoki yo'qligini kuzatish uchun). oldinga borish yoki konsolidatsiya qilishda), bu sizga imkon beradi. ushbu bo'limni kim o'zlashtirganligini aniqlash.

2. Yopiq – o'rganilgan material bo'yicha barcha vazifalar ma'lumotlari darsning har bir bosqichida nazorat qilinadi.

Masalan, "eksponent va logarifmik tenglamalarni yechish" mavzusida men o'z oldimga maqsad qo'ydim: yeng oddiy yeksponent va logarifmik tenglamalarni yechish qobiliyatini mustahkamlash, yeksponent va logarifmik tenglamalar berilgan kvadrat tenglamalarni yechish ko'nikmalarini shakllantirish. Yeng oddiy yeksponensial tenglamalarning yechimi haqidagi ma'lumotlar qisqacha takrorlanadi. Og'zaki mashqlar (kartochkalar) dan ham samarali foydalaniladi.

Xulosa. Shunday qilib, uslubiy va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilib, biz o'qitish jarayonida nazorat muhim rol o'ynashiga aminmiz, chunki u aniq fanlar dastur materialini o'rganishdagi bo'shliqlarni aniqlash va tuzatishga yordam beradi, o'quvchilarning o'quv faoliyatini faollashtiradi, fanga kognitiv qiziqishni rivojlantiradi, ta'lim va tarbiya sifatini yaxshilaydi. Ammo bu yondashuv o'qituvchi fikrining subektiv tabiati tufayli mukammal emas. Olimlar va innovatsion o'qituvchilarning ijodiy pedagogik fikri nazorat, bilim va ko'nikmalarni tekshirish samaradorligini oshirish va oshirish yo'llarini qat'iyat bilan o'rganadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.-T.:O'zbekiston, 2017 y. -45 b.
2. Hasanov J.va boshqalar. Pedagogika. –Toshkent. “Noshir”, 2011. 488 b. (398)
3. Abdiraimov Sh. Ona tili ta'limida o'qib tushunish malakasini baholashning ilmiy-metodik asoslari. Ped.fan.fal. dok. Diss. –Toshkent. 2022. 14-b.
4. Tojiev M., Ziyomuhamedov B. Milliy ta'lim tarbiya jarayoniga tatbig'i va uni yoshlar intellektual salohiyatini yuksaltirishdagi o'mi texnologiyalari Toshkent: “MUMTOZ SO'Z” 2001. -268 b.
5. <https://inlibrary.uz/>
6. Alixonov S. Matematika o'qitish metodikasi. Universitetlarning matematika fakulteti bakalavr yo'nalishidagi talabalari uchun darslik – T.: O'qituvchi, 2008. 87-b.
7. Pedagogika : ucheb. posobie dlya studentov ped. in-tov [Tekst] / pod red. Yu. K. Baban-skogo. — M., 1984. — 366 s.



Gulruxsor ERGASHEVA,
Renessans ta'lim universiteti dotsenti, PhD
E-mail: flowerface0706@gmail.com

Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, p.f.n S.Adilova taqrizi asosida

PECULIARITIES OF ASSESSMENT OF SPEECH COMPETENCE OF LEARNERS OF UZBEK AS A FOREIGN LANGUAGE

Annotation

This article provides information about the levels of language acquisition of Uzbek as a foreign language and their peculiarities. The features of the assessment and assessment criteria of language learners' speech competence and their analysis are presented.

Key words: Assessment criteria, speaking competencies, listening comprehension, speaking, writing, reading comprehension, language acquisition levels, elementary level, intermediate level, advanced level.

ОСОБЕННОСТИ ОЦЕНКИ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ИЗУЧАЮЩИХ УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК КАК ИНОСТРАННЫЙ

Аннотация

В данной статье представлена информация об уровнях владения узбекским языком как иностранным и их особенностях. Представлены особенности оценки и критерии оценки речевой компетентности изучающих язык, а также их анализ.

Ключевые слова: Критерии оценки, речевая компетентность, понимание на слух, говорение, письмо, понимание прочитанного, уровни владения языком, элементарный уровень, средний уровень, продвинутый уровень.

O‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘RGANUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARI BAHOLASHNING O‘ZIGA XOSLIKLARI

Аннотация

Mazkur maqolada o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘rganuvchilarning til egallash darajalari, ularning o‘ziga xosliklari haqida ma’lumot berilgan. Til o‘rganuvchilarning nutqiy kompetensiyalarini baholash va baholash me’zonlarining xususiyatlari va ularning tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Baholash me’zonlari, nutqiy kompetensiyalar, tinglab tushunish, gapirish, yozish, o‘qib tushunish, til egallash darajalari, boshlang‘ich daraja, o‘rta daraja, yuqori daraja.

Kirish. Bugungi kunda o‘zbek tilini qardosh xalqlar orasida qiziqish va hayrat bilan o‘rganayotganlar talaygina. Xususan, Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston Respublikasi vakillari, ta’lim olish, tarixni o‘rganish, tadbirkorlik qilish, yashash va ishlash maqsadida o‘rganadilar. “O‘zbekona” dasturi asosida 2020-2024- yillar oralig‘ida Turkiya, Qozog‘iston, Turkmaniston va boshqa o‘rganuvchilarga, tadbirkorlarga, davlat xodimlariga, tashkilotarga onlayn va oflayn shaklda darslar o‘tkazildi va o‘tkazilmoqda.

O‘zbekistonning turkiy tili davlatlar hamkorlik kengashiga a‘zo bo‘lishi ham o‘zaro iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirishga, turkiy tillar, xususan, o‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda. O‘zbek tilini o‘rganishga bo‘lgan talab ortib borayotgan

Tadqiqot metodologiyasi. Xorijiy til egallashning quyidagi darajalari farqlanadi.

ushbu vaziyatda mutaxassislar oldida chet elliklar uchun zamonaviy talablarga mos ravishda til o‘rgatishga yo‘naltirgan onlayn platforma yaratish vazifasini qo‘ymoqda. Zero, bu sohada bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda.

Hozirgi kunga qadar o‘zbek tilini tizim asosida darajalarga bo‘lgan holatdagi mukammal darslik mavjud emas edi. Til egallash darajalarining me’zonlarini bilish xorijiy til o‘rganuvchilarning bilimini to‘g‘ri baholay olish bu sohaning dolzarb va ajralmas bo‘lagi. Til o‘rganuvchining darajasini aniqlash o‘qituvchining auditoriyada qanday yo‘l tutishi, qanday metod va vositalardan foydalanishi mumkinligi haqidagi axborotni beradi.

A BOSHLANG‘ICH DARAJA	A1 A2
B O‘RTA DARAJA	B1 B2
C YUQORI (MUTAXASSISLIK) DARAJA	C1 C2

A – Boshlang‘ich daraja. Ushbu darajadagi o‘quvchilar kundalik vaziyatlarda umumiy iboralar, elementar lug‘at orqali muloqot qilishlari mumkin. “Tillar bo‘yicha umumiyevropa ma’lumotnomasi” (CEFR 2001, 2008, 2016, 2020)da tillar bo‘yicha, jumladan, turkiy tillar uchun ham og‘zaki, yozma fikr ifodalash va tushunishning turli darajalarini ko‘rsatib, asoslab berilgan. Jami uchta daraja mavjud bo‘lib, ularning har biri ma’lum bloklarga bo‘lingan.

Masalan, A – boshlang‘ich daraja A1 va A2 ga bo‘linadi. Bu darajadagi til o‘rganuvchilar asosiy foydalanuvchi deyiladi, ya’ni o‘rganilayotgan xorijiy tilning asoslari bu darajada yaratiladi.

B daraja B1 va B2 ga bo‘linadi va bu bosqichdagilar mustaqil foydalanuvchi, deb yuritiladi.

B1 – bu bosqichdagilar ishda, ko‘chada, jamoat joylarida va boshqalarda doimiy uchrab turadigan vaziyatlar, masalalar bo‘yicha aniq fikrlarni tushuna oladilar, o‘z fikrlarini tushuntira

oladilar. O‘zlariga tanish bo‘lgan, o‘zlarini qiziqtirgan mavzular bo‘yicha bog‘lanishli matn tuza oladilar. Fikrlarini bir-biriga bog‘lab ifoda eta oladilar. O‘zlarining tajribalari, rejalari, orzu-umidlari, fikrlari haqida qisqacha fikrlarini sabablar bilan tushuntirib bera oladilar.

B2 - bosqichdagilar murakkab matnlar, aniq va mavhum mavzudagi asosiy g‘oyalarni, o‘z sohasi bo‘yicha ilmiy matnlarni, munozaralarni tushuna oladi. Murakkab vaziyatlarda o‘z fikrini tushuntira oladi, fikrlarining asoslari va sabablarini keltira oladi. Global mavzular bo‘yicha atroflicha fikr yuritadi, izchillik asosida matn tuza oladi va o‘z fikrini tushuntira oladi.

C – bu daraja mutaxassilik darajasi deb ham yuritiladi. Bu turdagilar tilni juda yaxshi o‘rgangan va undan erkin foydalana oladiganlardir. C darajasi C1 va C2 ga bo‘linadi.

C1 – keng doiradagi katta, uzun, ilmiy matnlarni tushuna oladi, undagi yashirin ma'nolarni anglay oladi. Muloqot jarayonida so'z izlamasdan leksik birliklarni o'z o'rnida qo'llaydi. Tildan ijtimoiy, akademik va professional maqsadlarda moslashuvchan va samarali foydalana oladi.

C2- deyarli barcha turdagi matnlarni tushunadi. Turli og'zaki va yozma manbalardan olingan ma'lumotlarni umumlashtira oladi. Turli argumentlar, hisobotlar, taqdimotlarni izchil shaklda qila oladi. Fikrlarini juda ravon, aniq ifodalab, murakkab vaziyatlardagi nozik ma'nolarni, qochirilmalarni ham anglay oladi.

Tahlil va natijalar. Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan "O'zbekona" darsligi ishlab chiqildi. Darslik tizim asosida darajalarga bo'lingan holda ishlab chiqilgan

Daraja	O'qib tushunish	Tinglab tushunish	Yozish	Gapirish
A1	11-13	11-13	11-13	11-13
A2	14-16	14-16	14-16	14-16
B1	17-20	17-20	17-20	17-20
B2	21-24	21-24	21-24	21-24
C1	25-27	25-27	25-27	25-27
C2	28-30	28-30	28-30	28-30

O'zbek tilini o'rganish istagidagilar o'zbek madaniyati urf - odatlarini ham bilish istagida. Ammo o'zbek madaniyatini xorijliklarga o'rgatish uchun maxsus va mukammal dasturlar yaratishga ehtiyoj katta. Eng dolzarb masalalardan biri – o'zbek tilini xorijiy til sifatida yangi texnologiyalar asosida o'qitishning ilmiy-metodologik asoslarini yaratish.

Afg'on talabalariga til o'rgatish jarayonida eng katta va dolzarb masalalardan biri bu alifbo va talaffuzdir. O'zbek alifbosi lotin yozuviga asoslangan, dariy va pashtu tillarining alifbosi arab yozuviga asoslangan. Afg'onistonliklarda forsiy talaffuzning yuqoriligi o'zbek tilining fonetik, intonatsion va orfoepik jihatdan to'g'ri talaffuz qilinishiga putur etkazadi. O'zbek tilidagi ko'p so'zlarda rus tilining ohangi va talaffuz shakli saqlangan. Afg'onistonlik o'rganuvchilarda esa forsiy til talaffuzi va ingliz tili talaffuzi yuqorilik qiladi. Uzoq yillar davomida ikki xalq o'rtasida aloqalar, turli siyosiy sabablar tufayli "O'zbekiston o'zbeklari", "Afg'oniston o'zbeklari" kabi tushunchalar shakllanib qolgan. Afg'oniston o'zbeklari tilida forsiy, dariy tillarning ta'siri yuqori bo'lgani kabi o'zbek tilida rus tilining ta'siri yuqori. Bu sabab esa o'z o'zidan bir tilning ikki xildagi talaffuz shaklini keltirib chiqargan. Aslida esa, O'zbekiston o'zbeklari va Afg'oniston o'zbeklari shaklida ajratish qanchalik xato bo'lmasin jonli so'zlashuvda farqlar yaqqol sezilib turadi. Afg'onistonlik o'zbeklar nutqida eski o'zbek tili va badiiy tilda ishlatiladigan so'zlar ancha faol. Bu so'zlar o'zbek adabiy tilida unchalik faol emas. Buning sababini quyidagicha izohlash mumkin:

Afg'onistonning o'zbek maktablari va o'zbek tili o'rgatiladigan oliy ta'lim muassasalarida hali hamon eski (1956) o'zbek tili grammatikasi o'rgatiladi;

o'zbek tilini o'rganuvchilar uchun yetarli manbalar mavjud emas;

- ikki xalq o'rtasida alifbodagi tafovutlar;
- ijtimoiy siyosiy munosabatlar;
- autentik manbaalarning yetishmasligi.

Bu masalalarning yechimi ikki davlat o'rtasida o'zbek tilidagi manbalarni tez-tez almashish va O'zbekiston tomonidan Afg'onistondagi o'zbek tilida faoliyat yuritadigan (Afg'onistonning 12 viloyatida o'zbeklar istiqomat qiladi) ta'lim muassasalari bilan muntazam hamkorlikni yo'lga qo'yishdir.

Turli farqlar va jarayonlar sabab, Afg'onistonlik o'zbek bo'lmagan talabalarga o'zbek tilini o'rgatish jarayoni biz kutgandan ancha murakkab kechdi. Ya'ni ularda o'zbek tilini o'rganish jarayoni Yevropaliklarning o'rganish jarayoni singari kechdi. Eng katta muammo fonetik farqlarni bartaraf etish bilan bog'liq. Biroq o'zbek madaniyati qismi uchun katta ehtiyoj sezilmadi. Afg'on va o'zbek

ADABIYOTLAR

1. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. – Toshkent. "Akademnashr" nashriyoti – 2022. –B. 252.
2. Abdurahim Sh. Ona tili ta'limida o'qib tushunish malakasini baholash. Monografiya. – Toshkent. "Nodirabegim" nashriyoti – 2021. –B. 126.
3. Ergasheva G. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishning ilmiy metodik asoslarini takomillashtirish. Monografiya. Toshkent, 2024. 100 bet.
4. Türkçenin yabancı dil olarak öğretilmesi programı. Türkiye Maarif Vakfı. İstanbul, -B 24
5. Türkçenin yabancı dil olarak öğretilmesi programı. Türkiye Maarif Vakfı. İstanbul, 2020. B.320.
6. CEFR. Language Policy Unit, Strasbourg. <https://www.coe.int/en/web/common-european-framework-reference-languages>

bo'lib, hozirgi kunda darslikning boshlang'ich darajaga mo'ljallangan qismi foydalanish uchun tayyor holga keltirildi[100]. Har bir darslik va dastur ma'lum marra va maqsadni ko'zlab tuziladi. "O'zbekona" darsligini yaratish jarayoni o'zbek tilini bilish darajasini baholash tizimini ishlab chiqishni talab etdi va MO'TUL (Mening o'zbek tilim uchun loyiham) jamoasi tomonidan o'zbek tilining xorijliklar uchun bilish darajasini belgilovchi baholash tizimi ishlab chiqildi. O'qib tushunish, tinglab tushunish, yozish va gapirish aspektlarining har biri uchun maksimal 30 ball dan ajratiladi.

Har bir aspekt uchun o'tish bali mavjud. Masalan, A2 dan B1 darajasiga o'tish 17 ballni tashkil etadi. Imtihondan so'ng, barcha aspektlarning umumiy ballari hisoblanib, o'rtacha daraja aniqlanadi. O'zbek tilini baholash standarti quyidagi jadvalda o'z aksini topgan.

xalqlari o'rtasidagi yaqinlik madaniy to'siqlar bo'lmasligiga sabab bo'ldi va auditoriyada o'zaro tushunmovchiliklar bo'lmadi. Afg'on yoshlariga o'zbek tili A2 darajada o'rgatilgandan so'ng jarayon ancha osonlashdi. B1, B2 darajadagi leksik minimumda badiiy uslubdagi so'zlar va forsiy so'zlar mavjudligi sabab o'rganuvchilarda motivatsiya oldingi darslarga nisbatan ancha yuqori bo'ldi. A2 darajadan boshlab o'rganuvchilar qisqa daqiqali filmlar tomosha qilishni, ertaklar va hikoyalarni o'qib mazmunini aytib berishni boshladilar.

B1 darajadan boshlab til o'rganuvchi, o'rganayotgan tilining badiiy adabiyoti va asarlar o'qishida ehtiyoj seza boshlaydi. Afg'on yoshlari Navoiy asarlarini o'qish istagini bildiridilar. Navoiy asarlarining tili ular uchun ancha tushunarli va yaqin. Navoiyni afg'onistonlik deb bilishlari esa talashib o'rganish muhitini yuzaga keltirdi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilining umrboqiy bo'lishi, til boyligi va sofligi uchun barchamiz mas'ulmiz. Navoiydan me'ros bo'lib kelayotgan tilni rivojlantirib, avlodlarga sof va mukammal etkazish uchun faqat tilshunoslarning harakatigina emas, ikki xalqning o'zaro hamkorligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda barcha yo'nalishlar bo'yicha yetuk kadrlar tayyorlash tizimida, o'quv rejaları va namunaviy dasturlarni davlat standartiga mos qo'yish zarurati dolzarb. Shu bilan birga xalqaro ta'lim berish standartlarini qo'llash, ajdodlarimizning boy milliy me'roslarini shu jarayonga jalb qilish kerak. Tavsiya etilayotgan "O'zbekona" dasturi ana shu maqsadlarni ko'zda tutadi.

"O'zbekona" dasturi 2018- 2019 yillarda ishlab chiqilgan bo'lib, har yili takomillashtirib boriladi. Dastur andragogik ta'limda xorijliklarga o'zbek tilini integrativ o'qitishga mo'ljallangan. Dastur tuzilishida CEFR (2001, 2008, 2016, 2020) xalqaro standartlariga tayanildi. Dastlab barcha darajalarni qamrab oluvchi dominant mavzular saralab olindi, har bir mavzu bo'yicha darajalar chastotasi belgilab olindi. Masalan, oila mavzusi: bu mavzu doirasida o'qitilishi mumkin bo'lgan barcha jihatlar jamlandi va qismlarga ajratiladi. A1 daraja uchun oila a'zolari nomlari ularning yoshi, kasbini o'rgatish A2 daraja uchun oilaviy an'analar dasturxon atrofida ovqatlanish B1 daraja uchun oilaviy qadriyatlar, marosimlar B2 daraja uchun oilaviy munosabatlar mojarolar o'rgatilishi belgilandi. Har bir daraja uchun mavzuga mos lug'at minimumlari yaratildi va shu minimum asosida matnlar tanlandi va yozildi. Leksik baza va leksik chastota dars mashqlari va matnlari, so'zlashuv uchun savollar banki va tinglash audiolarini yaratish uchun muhim. Shuning uchun faol va passiv lug'atlarni inobatga olib darslarni yaratish muhim.



Ilxomjon ERKINOV,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti K.Mirzaaxmedov taqrizi asosida

MECHANISMS FOR INCREASING POLITICAL PARTICIPATION OF CITIZENS IN SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF SOCIETY

Annotation

In this article emphasizes the approaches to improving the political participation of citizens in the development of the state and society, the forms of political participation, and the specific features of social activity. It was argued that studying the specific features of citizens' political participation in political processes allows us to study the socio-political dynamics of modern society and observe the influence of forms of political participation on the process.

Key words: Political participation, forms of political participation, types of political participation, internal political relations, political modernization, political development, political culture, political parties, social activity, political decisions, political power.

МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ПОЛИТИЧЕСКОГО УЧАСТИЯ ГРАЖДАН В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

Аннотация

В данной статье акцентируются подходы к совершенствованию политического участия граждан в развитии государства и общества, формы политического участия, особенности социальной деятельности. Утверждалось, что изучение особенностей политического участия граждан в политических процессах позволяет изучить социально-политическую динамику современного общества и наблюдать влияние форм политического участия на этот процесс.

Ключевые слова: Политическое участие, формы политического участия, типы политического участия, внутривнутриполитические отношения, политическая модернизация, политическое развитие, политическая культура, политические партии, общественная активность, политические решения, политическая власть.

JAMIYAT BARQAROR TARAQQIYOTIDA FUQAROLAR SIYOSIY ISHTIROKINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI

Аннотация

Mazkur maqolada davlat va jamiyat taraqqiyotida fuqarolarning siyosiy ishtirokini takomillashtirishga oid yondashuvlar, siyosiy ishtirokning shakllari, ijtimoiy faollikning o'ziga xos xususiyatlariga urg'u berilgan. Fuqarolarning siyosiy jarayonlardagi siyosiy ishtirokining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bizga zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-siyosiy dinamikasini o'rganish hamda siyosiy ishtirok etish shakllarining jarayonga ta'sirini kuzatish imkonini berishi asoslandi.

Kalit so'zlari: Siyosiy ishtirok, Siyosiy ishtirok shakllari, Siyosiy ishtirok turlar, ichki siyosiy munosabatlar, siyosiy modernizatsiya, siyosiy rivojlanish, siyosiy madaniyat, siyosiy partiyalar, ijtimoiy faollik, siyosiy qarorlar, siyosiy hokimiyat.

Kirish. Jahonda turli soha va yo'nalishlarda faol sivilizatsiyalashuv jarayonlarining ro'y berishi, davlatning jamiyat ijtimoiy hayotini tashkil etishga hamda unda muayyan tartiblarni bo'lishini ta'minlashga qaratilgan muhim vazifalarining samarali ijrosiga bo'lgan talab ortib bormoqda. Bunda zamonaviy ijtimoiy o'zgarishlar siyosatida sifat jihatdan yangi ijtimoiy munosabatlar tizimini shakllantirish, jamiyat boshqaruvida birinchi navbatda inson ehtiyojiga mos tuzilmalarni ishlab chiqarishga doir intilishlar yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Jamiyatda ijtimoiy hayotni boshqarishda davlatning rolini ortib borishi, ro'y berayotgan transformatsion jarayonlarining siyosiy tizimga ta'siri, jahon intellektual jamoatchiligida ijtimoiy birliklarni saqlab qolishga doir davlatning vazifalarini rivojlantirish hamda uning siyosiy rolini aniqlash bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida barqaror fuqarolik jamiyatini barpo etish, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy asoslarini shakllantirishda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida farovon hayot, inson huquqlari va manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar[1]. belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan ishlab chiqilgan "O'zbekiston - 2030 Strategiyasi"da davlat xizmatlarini chuqur isloh qilish, uni inson manfaatlarini sari yo'naltirish orqali ijtimoiy davlatchilik munosabatlariga xos amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim vazifaga aylandi. Bunda davlat, jamiyat, fuqarolar o'rtasidagi ko'p qirrali bog'liqlik, o'zaro samarali muloqotning yangi modelini yaratish Yangi O'zbekistonning bosh ustuvor islohotining muhim yo'nalishidan biridir. Shu bois mazkur vazifalarning amaliy ijrosi, ijtimoiy hayotda o'zining natijadorlikka qaratilgan aksini topishi, inson manfaatlarini ustuvorligini ta'minlash davlat va jamiyatning dolzarb maqsadi sifatida belgilanmoqda.

Aholining turli toifalarini siyosiy jarayonlardagi siyosiy ishtirokining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bizga zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-siyosiy dinamikasini o'rganish hamda siyosiy ishtirok etish shakllarining jarayonga ta'sirini kuzatish imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. G'arb ilmiy jamiyatida siyosiy ishtirok muammolari turli ijtimoiy-siyosiy kontekstlarda ijtimoiy guruhlarining siyosiy xatti-harakatlarining tuzilishi, shakllari, usullari, prognozlarini nuqtai nazaridan etarlicha keng o'rganilgan. Ushbu masala sub'ektlarning siyosatda ishtirok etish usullarini tahlil qilishni o'z ichiga olib, kuchli empirik asosga asoslangan va quyidagi ilmiy yo'nalishlarda taqdim etilgan:

XX asr boshidan shakllangan xulq-atvor yo'nalishi. B.Berelson, J.Uayt, X. Makloski va shaxslarning siyosiy xulq-atvorini tashqi sharoitlarning ta'siri orqali tushuntirib berilgan;

ijtimoiy-psixologik, F.Konverse va E.Kempbell, B.Miller tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uning diqqat markazida saylovchilar xatti-harakatlarining motivlari va shakllarini o'rganish bo'lgan;

tizimli-funksional, G.Almond, S.Verba, R.Dall, M.Kaase asarlarida ifodalangan, siyosiy ishtirokni siyosiy institutlar strukturasi bilan organik tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ayrim mutaxassislar "barqaror" va "taraqqiyot" tushunchalarini bir-birini inkor qiluvchi tushunchalar deb ham hisoblaydi. Ularning fikricha, "amalda barqaror taraqqiyot bo'lishi mumkin emas, chunki taraqqiyot bor joyda barqarorlik bo'lmaydi". Boshqa mutaxassislar esa aksincha, "barqarorlik rivojlanishga qarshi emas, aksincha, barqaror jamiyat rivojlanishni taqozo etadi" deb o'ylaydilar [2].

Bizningcha, har qanday rivojlanishga barqarorlik mavjud bo'lgan hududda erishish mumkin. Bu o'rinda barqarorlik deyilganda davlat hokimiyati faoliyati uchun zarur bo'lgan resurslarning yetariligi va uni oqilona taqsimlash vazifasi nazarda tutilmoqda.

Taraqqiyot – rivojlanishning oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga yo'nalgan shaklidir. Boshqacha aytganda, taraqqiyot muayyan bir jarayonning keyingi yuksalish (takomillashuv, mukammallashuv) bosqichiga o'tishini anglatadi. Taraqqiyotning aksi – inqirozdir, bu "regressiv rivojlanish" deb ham yuritiladi. Ayni vaqtda, o'rganilgan ilmiy manbalarda "barqaror taraqqiyot" va "barqaror rivojlanish" bir xil ma'noda qo'llanganini qayd etish lozim.

Barqarorlik – bu muayyan tizimning turli tashqi va ichki ta'sirlarga bardoshligi hamda turli davrlarga moslasha olish ko'nikmasidir.

Demokratik jamiyatlarda mavjud siyosiy tizimning ajralmas elementi bo'lgan va aholining keng siyosiy ishtiroki uchun huquq va mas'uliyatni ta'minlovchi davlat organlarining roli, demokratiya sari taraqqiyotining o'ziga xos xususiyati shakllari shakllantirishda davlatning yetakchi vazifalari nimalarda namoyon bo'lishi kerakligini ilmiy izlanishlar orqali asoslash hozirgi davrning dolzarb masalalari sirasiga kiradi.

Ma'lumki, siyosiy jarayonlarda ishtirok etuvchi subyektlar siyosiy jarayon ishtirokchisi deyiladi. Siyosiy ishtirok ijtimoiy-siyosiy jamoa a'zolarining ichki siyosiy munosabatlar va hokimiyat tarkibiga jalb etilganligini (muayyan bosqichda esa, xalqaro hamjamiyat munosabatlariga ham) bildiradi. U demokratik konsepsiyalarda, siyosiy modernizatsiya va siyosiy rivojlanish, siyosiy madaniyat, siyosiy partiyalar faoliyatida asosiy tushunchalardan biri sifatida qo'llaniladi. Siyosiy ishtirok subyektlariga fuqarolar, ijtimoiy guruhlar va qatlamlar, siyosiy va jamoatchilik institutlari kiradi [3].

Ko'lami jihatidan siyosiy ishtirok: mahalliy, mintaqaviy, umumdavlat va xalqaro siyosat darajasida amalga oshiriladi. Siyosiy ishtirok to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) va bilvosita amalga oshirilishi mumkin, shuningdek, umumiy va cheklangan; ixtiyoriy va majburiy; an'anaviy, faol va passiv, legitim va nolegitim, qonuniy va qonunga xilof bo'lishi mumkin [4].

Siyosiy ishtirok shakllari ham turlicha. Ularga:

– axborot qabul qilish va uzatish;

– siyosat va davlat arboblari hamda tashkilotlari bilan muloqot;

– saylov va boshqa siyosiy kampaniyalarda ishtirok;

– namoyishlarda, siyosiy ish tashlashlarda, ommaviy norozilik harakatlarida, ozodlik urushlarida;

– boshqaruv va o'z-o'zini boshqaruvda,

– qonunlar yaratish, ularni himoya qilish va ularga amal qilishda;

– siyosiy partiyalar va ijtimoiy-siyosiy xarakterli faoliyatidagi ishtirok kiradi. [5].

Siyosiy ishtirok uchun eng qulay sharoitni demokratik va huquqiy davlatlar yaratadi. Siyosiy jarayonlarda ishtirok etish siyosiy faoliyat deyiladi.

Fikrimizcha, siyosiy ishtirok muammosi rivojlangan demokratik mamlakatlarda zamonaviy jamiyatning eng muhim belgilaridan biri sifatida qaraladi. Bu kontsepsiya fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida, siyosiy hokimiyat tuzilmalarini qonuniylashtirish degan g'oyaga asoslanadi.

Ijtimoiy faollik shaxs faoliyatining muhim tomonlaridan biridir. U shaxsning jamiyat va jamoa ishlaridagi ishtirokida namoyon bo'ladi va ma'lum darajada siyosiy va ahloqiy o'zlikni anglashga asoslanadi. Ijtimoiy faollikni tarbiyalash – bu nafaqat jamoat ishlarida ishtirok etish darajasining oshishi, balki yoshlarning axloqiy yo'nalganligini aniqlovchi motivlarning shakllanishi hamdir.

Tabii va natijalar. O'zbekistonlik mutaxassis A. Azixonov barqaror taraqqiyotni demokratiyaning vujudga kelishi va shakllanishi bilan bog'laydi. Xususan, uning fikricha: “demokratiya kishilik jamiyatining butun tarixiy taraqqiyoti mobaynida davlat va jamiyatni boshqarish borasidagi qo'lga kiritilgan eng katta yutug'idir. Demokratik jamiyat obyektiv, tarixiy va zaruriy jarayon bo'lishi bilan birga har bir mamlakatda, har bir tarixiy davrda o'ziga xos tomonlariga ham ega. Binobarin, uning vujudga kelishi va rivojlanishi muayyan zaminlar va asoslar bilan bog'liq bo'ladi. Bular jumlasiga davlat va jamiyat qurilishi, siyosiy, iqtisodiy hayot borasidagi erkinliklar, milliy-ma'naviy tiklanish va yuksalishlar kiradi [6].

Shu o'rinda taraqqiyotning muhim belgilaridan biri sifatida ijtimoiy adolat omilini ta'kidlash lozim. Olim I. Ergashev fikricha, zamonaviy dunyoda ijtimoiy adolat demokratik taraqqiyotning asosiy omillaridan biridir. Xususan, jamiyat siyosiy rivojlanishi jarayonida mavjud ijtimoiy guruhlar manfaatlarini to'liq hisobga olish uchun o'zaro muvofiqlashtirib turish orqali ijtimoiy adolatni amalda ta'minlash mumkin bo'ladi. Shuning uchun ham siyosat va siyosiy institutlar munosabatida inson va umuminsoniy tamoyillar uning mezon bo'lsa, ijtimoiy adolat uning amaliy jihatdan ta'minlab turuvchi va ko'rsatuvchi ko'zgusi hisoblanadi. Har bir jamiyatning siyosiy tizimi doimo takomillashib, rivojlanib boradi. Har bir davr uni yangicha mazmun va mohiyat bilan boyitib boradi [7].

Ushbu fikrga qisman qo'shilgan holda aytish joizki, demokratik jarayonlar doim ham ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qilmasligi mumkin. Chunki bunday jarayonlar, avvalo, tanlov erkinligini, bir nechta imkoniyatdan samarali foydalana olish

salohiyatini shakllantirishga qaratiladi. Bu borada sotsiologiya fanlari doktori A. Xolbekovning fikrlari diqqatga sazovor. Jumladan, olim “jamiyatning ijtimoiy adolatni ta'minlay olish qobiliyati uning demokratiklashganlik darajasini ko'rsatadi. Ammo demokratiya va ijtimoiy adolat hamisha ham mos kelavermaydi. Chunki demokratiya adolatni amalga oshirish kafolati emas, balki imkoniyatidir. Demokratik davlat iloji boricha fuqarolar o'z qobiliyatini amalga oshirishi uchun ko'proq imkoniyat yaratib beradi”, deb hisoblaydi [8].

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, har bir jamiyatning qudrati uning ichki barqarorligi va xavfsizligi ta'minlanganligi darajasiga, ya'ni siyosiy tizimning mustahkamligi va izchil faoliyatiga bog'liq. Bu borada jamiyatda demokratik qadriyatlarining shakllanishi va muqim qaror topishi ustuvor ahamiyatga ega.

Ishtirok etish omillari nihoyatda turli-tuman bo'lib, ular individlarning siyosiy hayotda o'ynaydigan rollariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. G. Almond talqiniga binoan, “rol” – bu individning saylovchi, partiya faoli, parlament a'zosi bo'lishi mumkinligini tasdiqlovchi siyosiy faoliyatning (“qismi”) bir ko'rinishidir. Shuningdek, shaxsning davlat (partiya, jamiyat va hokazo) oldida majburiyati (mas'uliyati) va imkoniyatiga muvofiq har bir siyosiy rol o'zining faraz qilingan funksional burch va vazifalariga ega bo'ladi.

Siyosiy ishtirok omillarini tushunish uning tabiatini va individni siyosatdagi rolini sharhlashda muhim ahamiyatga egadir. Umumiy jihatdan siyosiy ishtirok omillari an'anaviy tarzda uning ikkita ulkan mexanizmi orqali ko'rib chiqiladi: individga nisbatan tashqi ta'sirni tirkab turadigan, shu bilan birga, individning siyosatda mustaqil ishtirok etish xususiyatini e'tiborga olgan (T. Gobbs) hokimiyatning oqillik va cheklanganlik doirasidagi majburlash va shaxsning murakkab tuzilmaviyligini va invidni xatti-harakati ichki tuzilmalarini (A. Smit, G. Spenser) e'tirof etish asosidagi manfaat [9].

Davlat siyosati va davlat boshqaruviga ta'sir qilish xarakteri nafaqat fuqarolarning faollik darajasiga, balki xalq tomonidan davlat hokimiyati organlariga saylangan vakillar bilan elektorat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga ham bog'liqdir. Tarixan bu kabi o'zaro munosabatlarning ikkita asosiy konsepsiyasi shakllandi. Birinchi konsepsiya o'z manbalariga ko'ra buyuk fransuz inqilobi va J.J. Russoning hukmdorlar va itoatgo'ylar manfaatlarining o'xshashligi g'oyasiga asoslandi. Unga muvofiq ravishda manfaatlar vakilligi qoidasi inkor etiladi: “xalq irodasini vakillik bilan ifodalab bo'lmaydi”. Bu konsepsiya deputatlarining faoliyati umumxalq irodasini ifodalashi uchun aholining jiddiy talab va topshiriqlarini yetkazib turishdan iborat bo'lgan xalq deputatlari kengashlari hayotida o'z ifodasini topdi.

So'nggi yillarda fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etishining turli mexanizmlari aniqlandi va sinovdan o'tkazildi, bu esa “davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorligi tizimini shakllantirishga turtki berdi” [10]. Bugung davrga kelib, fuqarolarning siyosiy jarayonlarda aynan davlatni idora etish jarayonlarida siyosiy ishtirokini ilmiy tadqiq etishning o'ziga xos modeli vujudga keldi. Ular:

– strukturaviy yondashuv G. Almond, S. Verba, R. Inglehart, L. Diamond, D. Rostov asarlarida ishlab chiqilgan;

– tadbiqiy yondashuvning xususiyatlari T. Karl, X. Linz, F. Shmittera asarlarida bayon etilgan;

– neoinstitusional yondashuv D. March, I. Olsen, A. Prjevorskiy asarlarida;

– tranzitologik yondashuvni qo'llash T. Karosers, S. Koen asarlarida o'rganildi [11].

Taniqli siyosatshunos olim Edmund Berk o'zining 1776 yildagi Bristolda saylovchilar oldidagi mashhur nutqida ikkita asosiy qoidadan iborat fuqarolarning siyosiy ishtirokini taqdim etadi:

parlamentga saylangan siyosatchi o'zining intellektual darajasi, kompetensiyasi darajasi bo'yicha o'zi saylanayotgan saylov okrugi aholisining o'rtacha darajasidan yuqori bo'lishi lozim;

hayotning barcha hodisalari uchun ham saylovchilar topshiriqlar (nakazlar) beravermasligi lozim. Elektorat o'z mintaqasi doirasiga tegishli nakazlar berishi mumkin, lekin parlamentdagi siyosatchi butun mamlakat manfaatlaridan kelib chiqib faoliyat ko'rsatishi lozim. Uning o'zi muayyan va aniq vaziyatlarda mamlakat va mintaqa manfaatlarini mutanosiblashtirish darajasini topishi zarur [12].

Xulosa va takliflar. Muayyan hududda barqaror taraqqiyot tartibiga o'tish, avvalo, aniq strategik yo'nalishlar (siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy) va tegishli shart-sharoitlarni taqozo etadi. Bu quyidagi ayrim jihatlarni o'zida aks ettiradi. Birinchidan, jamiyatning xalqaro munosabatlar, jahon siyosati va iqtisodiyotidagi turli o'zgarishlarga (shu jumladan, konyunkturaga) tayyorlik darajasi; ikkinchidan, hududdagi ekologik holat darajasi; uchinchidan, jamiyatning

texnologik, intellektual salohiyati va turmush tarzi; to'rtinchidan, muayyan mamlakat hududlari imkoniyatlari (ijtimoiy-iqtisodiy va h.k.) va ular o'rtasida muvozanat ta'minlanganligi holati. Ushbu jihatlarning barchasini tahlil qilish asosida barqaror taraqqiyotni ta'minlashning strategik asoslari, rejasi va uni amalga oshirish mexanizmlari ishlab chiqiladi.

Barqaror taraqqiyotning ijtimoiy-siyosiy mohiyatini quyidagi asosiy jihat va omillar orqali ko'rsatish mumkin:

birinchidan, mavjud resurslarning oqilona taqsimotini ta'minlovchi siyosiy qarorlarning qabul qilinishi. Bunda siyosiy tizimning demokratik qadriyatlariga tayanishi, siyosiy yetakchi irodasi hamda muayyan mamlakatdagi fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati muhim o'rin tutadi;

ikkinchidan, aholi daromadlari asossiz keskin farq qilishining oldini olish. Bu jamiyatda ijtimoiy noroziliklar kelib chiqishini bartaraf etish hamda ijtimoiy adolat tamoyillari amal qilishini nazarda tutadi;

uchinchidan, barqaror taraqqiyot tushunchasi va bu borada ishlab chiqilgan konsepsiyaning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib,

uni taraqqiyotning "muvozanatlashgan modeli" deb ham atash mumkin;

to'rtinchidan, barqaror taraqqiyot asosan inson kapitalini rivojlantirish, buning uchun tegishli shart-sharoit va imkoniyatlar yaratishni nazarda tutadi. Ayni vaqtda barqaror taraqqiyot doimiy, uzluksiz davom etadigan jarayondir;

beshinchidan, "barqaror taraqqiyot" tushunchasi bilan bog'liq aksariyat tadqiqotlarda ko'pincha iqtisodiy omillarga e'tibor qaratilgan. Buni inkor etmagan holda aytish lozimki, barqaror taraqqiyot/rivojlanishni ta'minlashda siyosiy omillar, xususan, muayyan hududdagi siyosiy boshqaruv tizimi (avtoritar, totalitar, demokratik) muhim hisoblanadi.

Mamlakatimiz hozirgi demokratik rivojining asosiy yo'li – siyosiy jarayonlardagi tashabbus, faollik, ijodkorlik va sog'lom raqobatni rag'batlantirish hamda uning huquqiy asoslarini takomillashtirishdan iborat. Bugungi kunda fuqarolarning turmushimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishini rag'batlantirish yo'li bilan o'rtaga qo'yilgan maqsadga erishish ayni muddaodir.

ADABIYOTLAR

1. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot
2. Костина Т., Мамедов Н. Основания концепции устойчивого роста//cawater-info.net/eoindicators/pdf/kostina_mamedov.pdf
3. Hansson K., Belkacem K., Ekenberg E. Open Government and Democracy: A Research Review // Social Science Computer Review. 2015. Vol. 33. №25. P. 540-545.
4. Жўраев Н. "Тарих фалсафасининг назарий асослари" Тошкент: 2008. 73-б.
5. Политология. Ўқув қўлланма. (муаллифлар жамоаси) Х.Қосимова 2-бўлим. 3-маву. А.Қодирий номидаги халқ меъроси нашриёти. "ЎАЖБНТ" маркази. -Т.: 2002. - 283 бет. 58-бет.
6. Азизхонов А. Ўзбекистонда маънавий юксалиш – демократик жамият куришининг мухим омили. Т.: 2002. – 88 б.
7. Эргашев И. Тараққиёт фалсафаси.-Т.: «Академия», 2000. 107 б.
8. Холбеков А. Ўзбекистонда жамиятнинг демократлашуви жараёнида адолатни амалга ошириш муаммолари (сиёсий-социологик таҳлил). автореф.-Т.: 2001. 19 б.
9. Қирғизбоев М. Сиёсатшунослик. Олий ўқув юртлари талабалари учун ўқув қўлланма. Тошкент "Янги аср авлоди" 2013 йил. 518 б.
10. Малахова О.В. Институционализация групп интересов в процессе взаимодействия гражданского общества и государства в современной России : Диссертация ... канд. полит. наук. – Орел, 2005.
11. Гольчев А. Э. Электронная демократия как фактор повышения политического участия граждан в современной России: Дис... канд. полит. наук. - М., 2006.-164с.
12. Бёрк Э. Правление, политика и общество. Сборник / Пер. с англ., сост., вступ. ст. и коммент. Л. В. Полякова: М.: Канон-Пресс-Ц Кучково Поле, 2001.480 с.



Zoxid ERNAZAROV,

Qarshi davlat universiteti, Filologiya fakulteti uquv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari, PhD

Qarshi davlat universiteti professori O.Asanova taqrizi asosida.

OLIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNI BOSHQARISHDA AXBOROT-KOGNITIV YONDASHUVNING PEDAGOGIK SALOHİYATI

Аннотация

Ushbu maqolada ijtimoiy-pedagogik tahlil jarayonida olingan umumiy (inferensial) bilimlar - barcha ta'lim agentlari manfaatlarini muvofiqlashtirish usuli sifatida ta'lim sifatiga (jarayon va natijaga) erishish rivojlanishni boshqarish uchun asos bo'lib xizmat qilishi tahlil qilingan. Ushbu mexanizmlar oliy ta'limni boshqarishning turli darajadagi nazariyalari bilan belgilanadi, ular "yangi boshqaruvchilik"ning rivojlanishi sharoitida innovatsionlikka ega bo'ladi.

Shuningdek, oliy ta'limning xilma-xilligi va o'zgaruvchanligi, uning dinamikligi va faolligi ushbu ma'lumotlar to'plamini tizimlashtirish, ularni guruhlash, tahlil qilish, doimiy monitoring, uning holatini to'g'irlab borish vazifalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, rivojlantirishni boshqarish, axborot-kognitiv yondashuv, pedagogik salohiyat.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ ИНФОРМАЦИОННО-ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ПОДХОДА В УПРАВЛЕНИИ РАЗВИТИЕМ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье анализируется, что общие (выводные) знания, полученные в процессе социально-педагогического анализа - достижение качества образования (процесса и результата) как способа согласования интересов всех образовательных агентов-служат основой управления развитием. Эти механизмы определяются различными уровнями теорий управления высшим образованием, которые приобретают инновационность в условиях развития "нового менеджмента". А также многообразие и изменчивость высшего образования, его динамичность и активность приведены задачи систематизации этого набора данных, их группировки, анализа, постоянного мониторинга, коррекции его состояния.

Ключевые слова: высшее образование, управление развитием, информационно-познавательный подход, педагогический потенциал.

PEDAGOGICAL POTENTIAL OF THE INFORMATION-COGNITIVE APPROACH IN THE MANAGEMENT OF THE DEVELOPMENT OF HIGHER EDUCATION

Annotation

This article analyzes the general (inferential) knowledge acquired in the process of socio-pedagogical analysis - the achievement of educational quality (process and result) as a way to coordinate the interests of all educational agents as a basis for managing development. These mechanisms are defined by different levels of higher education management theories, which gain innovation in the context of the development of "new stewardship". Also presented are the tasks of the diversity and variability of Higher Education, its dynamics and activity, systematization of this data set, their grouping, analysis, constant monitoring, correction of its state.

Keywords: higher education, development management, information and cognitive approach, pedagogical potential.

Kirish. Oliy ta'lim murakkab tashkiliy-texnik faol tizim xususiyatlariga to'liq javob berganligi sababli, bu "operativ, axborot, funksional-axborot va kognitiv boshqaruv fazolarida normativ, kompyuter, evristik va tashkiliy texnologiyalar bilan ishlash" imkonini beradi.

Boshqaruvning boshlang'ich nuqtasi, asosi axborot - ko'p yo'nalishli axborot oqimlari bo'lib, ular oliy ta'limning nazorat ta'sirini va javobini (tuzilmalar, ta'lim jarayonlari va vaziyatlar) belgilaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Axborot va idrok integratsiyasida axborot-kognitiv yondashuvning kelib chiqishi psixologiyada R.L.Solso, B.M.Velichkovskiy, Naysay va boshqalar idrok nazariyasining rivojlanishi sifatida aniqlagan, bunda hissiy xotirani rag'batlantirish orqali "harakat qilish" va "ma'lumotni qabul qilish, saqlash va qayta ishlash nuqtai nazaridan idrok etish jarayonining tavsiflab javob javob reaksiyasi qabul qilinadi. Bu yondashuv odam tomonidan aniq belgilangan boshlanishi (rag'batlantirishni ko'rsatish) va oxiri (reaksiya) bo'lgan stimulli ma'lumotni ketma-ket qayta ishlash akti davomida ongli tanlangan hissiy tasvirni yaratish mumkin emasligi sababli keng tarqalmagan. Bu bilan bog'liq muammo aniq - rag'batlantirishning subyektivligi va shunga ko'ra, boshqa subyekt tomonidan ko'rilganda sezilarli darajada o'zgarishi mumkin bo'lgan har qanday obyekt, jarayon yoki hodisaning subyektiv tasviri.

Tadqiqot metodologiyasi.

Oliy ta'limni rivojlantirishni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarini quyidagi qoidalar to'plami bilan tavsiflash mumkin:

1. Tuzilishi va bajariladigan funksiyalarining o'zgaruvchanligi, ya'ni oliy ta'limning strukturasi (sifat tarkibi) ham, funksiyalari ham turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, ijtimoiy sharoitda har bir ta'lim oluvchining raqobatbardosh malaka darajasiga erishishi jamiyatning ijtimoiy moslashgan va faol a'zosi hislatlarini

egallashi kabi ahamiyatli emas, shaxsiy kontekstda esa buning aksi bo'ladi. Bu nafaqat vaqt bilan (tashkiliy-texnik tizimlar uchun), balki boshqaruv turi, atrof-muhitning tashqi o'zgarishlari, ta'lim tizimiga oid davlat siyosatining proyeksiyasi bilan ham bog'liq.

2. Maqsadlar matritsasining o'zgaruvchan vaziyatlarga to'liq mos kelmasligi, bu agentlar (subyekt-subyekt) xususiyatlari doirasidagi ta'lim munosabatlarining ko'p qirraliligi, faol tizim elementlari sifatida oliy ta'limning har bir agenti pozitsiyasidan kelib chiqadigan o'zgaruvchan maqsadlar bilan belgilanadi.

3. Oliy ta'lim qonuniyatlarining sifat va miqdoriy tavsiflarining yaqqol yetarli emasligi, uning funksiyalarini amalga oshirish uchun tashqi va ichki sharoitlar to'g'risida to'liq ma'lumotlar yo'qligi, bu to'liq ma'lumotlarga va maqsadlar va boshqaruv usullarining nomuvofiqligiga, ta'lim muassasalarining rivojlanish tizimi salohiyatini pasaytirishga olib keladi.

Tahlil va natijalar. Murakkab dinamik tizimlarni boshqarishda axborot yondashuvining yutuqlaridan foydalanib, oliy ta'limning axborot tavsifini (istalgan darajadagi) - tuzilma va aloqalarni olish mumkin. Biroq, ta'limni boshqarishda axborot yondashuvini qo'llashning tahlil qilingan imkoniyatlari oliy ta'limni rivojlantirishni boshqarish bo'yicha belgilangan vazifalarga nisbatan tortilgini ko'rsatadi. Bu yerda barcha turdagi ma'lumotlarning yig'indisi (tashkiliy, boshqaruv, o'quv) nafaqat ma'lum bir tarzda tashkil etilishi, balki qayta ko'rib chiqilishi (guruhlaniishi va sintez qilinish), boshqaruv qarorlarini qabul qilishni qo'llab-quvvatlash maqsadida oliy ta'limni rivojlantirishni boshqarish amaliyotining joriy ehtiyojlarini qondirishi kerak. Shuningdek, ta'limni rivojlantirishni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarini - hodisalarning rivojlanish variantlarining xilma-xilligini, vaziyatlarning yuqori o'zgaruvchanligini, barcha ta'lim jarayonlarining siklikligini va ularning vaqtiy chegaralanganligini hisobga olish muhimdir. Ta'lim sifatiga erishish (rivojlanish vektori sifatida) ta'lim faoliyati holatini

(vaziyat, o'quv jarayoni, tuzilma yoki umuman oliy ta'lim darajasida) doimiy monitoring va tahlil qilish zarurligini belgilaydi, bu ma'lumotlar oqimini oshiradi va ularni boshqaruv maqsadlarida ishlab chiqish uchun qayta ishlash masalasini dolzarblashtiradi.

Zamonaviy menejment tafakkurining eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri bu muammolarni hal qilishning bilimga asoslanganligidir. Ushbu qarash ta'lim faoliyati holati, "bilimga", to'g'rirog'i, uni ifodalash, saqlash, qayta ishlash, talqin qilish va yangi bilimlarni ishlab chiqarish jarayonlari"ga e'tiborni qaratadigan kognitiv yondashuvning imkoniyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar to'plami bilan ishlash uchun kontekstni belgilaydigan ma'lumotga "ulanish" zarurligini taqozo etdi.

Menejmentning ikkita toifasi – "axborot" va "idrok" (tasvir, bilim) o'rtasidagi aniq ko'rinadigan bog'liqlik oshkor qilishni talab qiladi, chunki u ijtimoiy tizimlarni boshqarishga xos bo'lgan "inson tajribasi ko'rinishidagi yashirin bilim"dan ham foydalanadi.

Shu bilan birga, oliy ta'limni rivojlantirishni boshqarish muammolarini hal qilish ko'p jihatdan rivojlanishni boshqarish obyektini miqyosidagi ma'lumotlarni olish va qayta ishlashning bir xil siklik mexanizmi - ma'lumotlarni qidirish, guruhlash, tahlil qilish, "tasvir" ni bilimga asoslangan holda yuzaga kelgan vaziyat, tashxis qo'yish, bilimga asoslangan muammoni hal qilish yo'llarini izlash, boshqaruv qarorini shakllantirish bilan bog'liq.

Axborotni idrok etishning taxminiy subyektivligi va uni oliy ta'lim faoliyatining qonuniyatlari (tuzilmalari, ta'lim jarayonlari va vaziyatlar) to'g'risidagi bilimga aylantirish quyidagi yo'llar bilan kamayishi kutilmoqda:

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida barqaror pedagogik qonuniyatlar va aloqalardan foydalanish (ta'lim oluvchilar va pedagoglarga bog'liq, ularning ta'limning individual agentlari sifatida o'zaro ta'siri - agentlar guruhining individual xususiyatlarini aks ettirishga qodir jamoa vakillari);

- ma'lumotlarning sifat va miqdoriy ko'rinishini belgilovchi kvalimetrik usullar orqali ta'lim faoliyatining xususiyatlarini rasmiylashtirish, ularni masshtablash va izohlash;

- ta'lim sifatiga erishish sohasidagi manfaatlarini muvofiqlashtirish orqali oliy ta'limning barcha agentlarini boshqaruvga (ta'lim faoliyatini amalga oshirishga va uning samaradorligi uchun javobgarlikka) jalb qilish;

- jarayonni avtomatlashtirishga, ma'lumotlarning to'g'riligini hisoblashga, ularni guruhlash va miqdoriy tahlil qilishga hissa qo'shadigan ta'lim faoliyati holatini (umuman oliy ta'lim, tuzilmalar, o'quv jarayonlari va holatlari darajasida) baholashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot tizimlari yutuqlaridan foydalanish.

Shunday qilib, "subyektivlik" faqat ta'lim faoliyatining tahlil qilinadigan holatining ichki muhitiga taaluqli va o'rganilayotgan jarayon chegaralarida to'liq hisobga olinadi, uning sifat xususiyatlarida aks etadi. Shunday qilib, idrokning subyektivligi oliy ta'lim rivojlanishini boshqarishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bu rivojlanishni boshqarishning tahlil qilinadigan obyektning murakkabligi va o'ziga xosligini va tizim agentlarining xatti-harakatlarini hisobga olishga imkon beradi, bu esa dinamik javob

berish imkoniyatini ta'minlaydigan boshqaruv qarorlarini qabul qilishni qo'llab-quvvatlashning yangi mexanizmlarini shakllantirish maqsadida axborot-kognitiv yondashuvdan foydalanishni asoslaydi. Oliy ta'limning axborot atomarligi tizimning axborot salohiyati (axborotning umumiy oqimi) va foydalanuvchi (menejer) tomonidan hozirgi vaqtda idrok etilayotgan axborotning kesishmasidan shakllanadi; Aynan shu kesishuv pirovardida oliy ta'lim rivojini boshqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi tashkiliy-pedagogik bilimlarni shakllantiradi.

Axborot va kognitiv yondashuvlarning integratsiyasi oliy ta'lim holati to'g'risidagi ma'lumotlarni qayta ishlash orqali yangi bilim va qonuniyatlarini doimiy ravishda o'zlashtirish orqali taasurotlarni aдекватligi, aniqligi va ko'lamini oshirishga qaratilgan:

- "talaba – pedagog", "talabalar guruhi – pedagog", "talaba - ta'lim muhiti" pedagogik o'zaro munosabatlari doirasida;

- ta'lim tashkiloti ichidagi ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi jarayonlar o'rtasida, masalan, o'quv-uslubiy ta'minot va o'qitish, pedagoglar malakasini oshirish va o'quv-uslubiy ta'minot va boshqalar;

- bitta ta'lim tashkiloti, klaster, shahar, hudud doirasida ta'lim agentlarining o'zaro munosabatlari o'rtasida;

- oliy ta'lim tizimidagi oliy ta'lim muassasalari o'rtasida.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, "axborot" va "kognitiv"likning o'zaro ta'siri oliy ta'limning mavjud axborot resursi tufayli entropiyani kamaytirish nuqtai nazaridan aniqlanishi mumkin:

- har qanday resurs kabi ma'lumot ham "chiqarib" olinishi va undan keyin ishlatilishi kerak;

- axborotni qayta ishlashga, tizimlashtirishga, umumlashtirishga, to'plashga imkon bo'lsagina resurs vazifasini bajara oladi;

- resurs sifatida axborot nafaqat tuganmas, balki vaqt o'tishi bilan kognitiv, mazmunli, texnologik va protsessual jihatlarida sezilarli darajada ortib borish tendentsiyasiga ega;

- axborot resurs sifatida bilimning asosi bo'lib, uni ishlab chiqarish jarayonidan o'tadi;

- axborot resurs sifatida uzatish oqimlarini (aloqalarini) tashkil qilishni talab qiladi;

- axborot manba sifatida barcha tizimlarda yangi turdagi jarayonlar va faoliyat turlarini keltirib chiqaradi.

Integratsiyalashayotgan "kognitivlik" oliy ta'limning diskret elementlari (tuzilmalari, ta'lim jarayonlari va vaziyatlar) axborot tavsifini o'rganilayotgan obyektning xususiyatlariga ko'ra tasviriga o'zgartirishga imkon beradi. Vaqtning hozirgi qat'iy belgilangan nuqtasida kognitiv tasavvur tizimning holati (I), tizimning mavjud axborot potentsiali (H) va ularning kesishishi - axborot murakkabligi (C) to'g'risidagi idrok etilgan ma'lumotlar orqali shakllanadi. Oliy ta'lim rivojlanishini boshqarish amaliyoti talab qiladigan ma'lumotlarni axborotga, axborotni bilim va qonuniyatlarga aylantirish jarayoni A.A. Denisovning axborot sohasi nazariyasining asosiy postulatlariga asoslanadi. Biz ularning oliy ta'limning rivojlanishini boshqarish uchun uning holatini tahlil qilishda qo'llanilishini ko'rsatishni zarur deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR

1. Борытко Н.М. Управление образовательными системами: учебник для студентов педагогических вузов / Н.М. Борытко, И.А. Соловцова ; под ред. Н.М. Борытко. – Волгоград : Изд-во ВГИПК РО, 2006. – 48 с.
2. Красикова В.В. Управление качеством образования в дошкольном учреждении / В.В. Красикова // Управление современным дошкольным образовательным учреждением: сборник статей / научн. ред. Е.И.Касаткина. – Вологда : Изд. центр «ВИРО», 2004. – С. 56–59.
3. Лебедев О.Е. Управление образовательными системами: теория и практика: учебнометодическое пособие / О.Е. Лебедев. – СПб.: Отдел оперативной полиграфии НИУ ВШЭ, 2011. – 108 с.
4. Журинская Е.Е. Роль и место колледжа как учреждения среднего профессионального образования в системе непрерывного педагогического образования / Е.Е. Журинская // Вестник Ленинградского государственного университета им. А.С. Пушкина. – 2013. – С. 74–83.
5. Землянский В.В. Адаптивное управление образовательным процессом в колледже / В.В. Землянский, П.В. Желтов // Вестник Костромского государственного университета. – 2009. – № 2. – С. 266–270.
6. Ключева Е.В. Педагогика: курс лекций по актуальным проблемам общего и дошкольного образования: учебное пособие / Е.В. Ключева, Т.В. Наумова, Е.В. Губанихина, М.Н. Корешкова; под общ. ред. Е.В. Ключевой, Т.В. Наумовой. – Арзамас: Арзамасский филиал ННГУ, 2013. – 254 с.
7. Егоров В.В. Педагогика высшей школы: учебное пособие / В.В. Егоров, Э.Г. Скибицкий, В.Г. Храпченков. – Новосибирск: САФБД, 2008. – 260 с.



UDK:7A.371.015.

Farida ESHNAZAROVA,

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali dotsenti, PhD

E-mail: faridaeshnazarova4@gmail.com

JTSBMQTMOI professori O.Haitov taqrizi asosida

SPORTCHILARNING HISSIY-IRODAVIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRILANIRISHDA MURABBIYNING VAZIFALARI

Аннотация

Mazkur maqolada sportchilarni musobaqaga tayyorlashning psixologik xususiyatlari bayon etilgan. Shuningdek, sportchining musobaqaga umumiy psixologik tayyorgarligi, hissiy-irodaviy sifatlarning namoyon bo'lishi, musobaqaga ishtirok etish imkoniyatlari, musobaqa jarayoniga tayyorlashda murabbiyning vazifalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: sport, sportchi, musobaqa, sportchilarning hissiy-irodaviy sifatlari, psixologik tayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik, natija, motivatsiya.

ЗАДАЧИ ТРЕНЕРА В РАЗВИТИИ ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ И НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ СПОРТСМЕНОВ

Аннотация

В данной статье описаны психологические особенности подготовки спортсменов к соревнованиям. Также выделены общая психологическая подготовка спортсмена к соревнованиям, проявление эмоционально-волевых качеств, возможности участия в соревнованиях, задачи тренера в подготовке к соревновательному процессу.

Ключевые слова: спорт, спортсмен, соревнование, эмоционально-волевые качества спортсменов, психологическая подготовка, специальная подготовка, результат, мотивация.

TASKS OF THE COACH IN DEVELOPING THE EMOTIONAL AND MORAL QUALITIES OF ATHLETES

Annotation

This article describes the psychological features of preparing athletes for competition. Also, the general psychological preparation of the athlete for the competition, manifestation of emotional and volitional qualities, opportunities to participate in the competition, the tasks of the coach in the preparation for the competition process are highlighted.

Key words: sport, athlete, competition, emotional-volitional qualities of athletes, psychological preparation, special preparation, result, motivation.

Kirish. Sportchilarning hissiy-irodaviy sifatlarni rivojlantirish, sportchilarda emotsional holatining barqarorligi sportdagi natijani yuqori bo'lishida muhim ahamiyatga ega. Shuningdek bu jarayonda sportchining hissiy-irodaviy sifatlarni rivojlantirishda irodani shakllantirishning g'alabaniy asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Bu masalani kuchli taassurot qoldirarli darajada hal etish uchun irodaviy psixologik qonuniyatlarini rivojlanish jihatlarini hisobga olish zarur. Iroda sportchilarning qiyinchiliklarni yengish jarayonida shakllanib boradi. Bu irodaviy sifatlarni sportchilarning faoliyat turlarida: sport mashg'ulotlari rejasi mazmunini o'zlashtirishlarida, turli xil jismoniy mashqlarni bajarishlarida, tashqi va ichki qiyinchiliklarni yengishlarida hamda ushbu jarayonda namoyon bo'ladigan turli subyektiv munosabatlarda vujudga keladi.

Respublikamizda so'nggi yillarda sportni yanada jadallik bilan rivojlantirish, sportchi shaxsini rivojlantirish masalalari davomli ravishda amalga oshirish uchun davlat tomonidan katta e'tibor berilib, zaruriy huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: «Respublika yoshlari o'rtasida milliy sport turlarini ommalashtirish» va «O'zbekistonda sportning ommaviylikini oshirish maqsadida milliy sport turlari va xalq o'yinlarini rivojlantirish» vazifalarining belgilanganligi sportchilarni rivojlantirish masalalarini ilmiy o'rganishga zarur va yetarli asos bo'la oladi.

Adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda dunyoning rivojlangan davlatlarida shuningdek yurtimizda ham sportchilarni jismoniy imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, O'zbekistonda psixolog olimlardan R.A.Abdurasulov, D.N.Arzikulov, K.G.Atabekova, X.Sh.Barotov, A.S.Begmatov, Z.E.Gaziyeva, A.M.Nazarov, E.N.Nazarov, D.Sh.Nasirov, J.A.Pulatov, F.T.Egamberdiyev, A.U.Xaitov, A.A.Sobirov va boshqalar tomonidan sport faoliyati va sportchi shaxsiga oid masalalar o'rganilgan bo'lib, bu tadqiqotlarda yuqori malakali sportchilarni tayyorlash haqida, sportchilarning kasbiy rivojlanishi, sportchilarni sport faoliyatiga tayyorlash, sportchilarni saralash va tanlashga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan A.Abdulxakim, N.V.Rezanova, V.I.Paliy, A.A.Aksenov, M.V.Sanaya, K.N.Ataxanov, G.D.Babushkin, G.D.Babushkin, O.R.Bolshakov, U.A.Belozersev, A.Berman, A.I.Buzni, N.Yu. Volyanyuk, N.N.

Doroshenko, R.O.Bolshakov, S.B.Vichkov, M.E.Voronsova, S.B.Goncharov, Sh.P.Borovoy, V.P. Branskiy, A.O.Gabrilyan, U.N.Grigoryev, M.B.Dolgonosov, L.S.Dormidontova, A.A.Dragomirova, R.M.Zagaynov va boshqalar tomonidan jismoniy madaniyat va sport sohasi mutaxassislarining kasbiy kamolotini ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlari, shaxs intilishining darajasi tizimidagi o'rni masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Xorij olimlaridan D. Makkleland, D. Atkinson, U.A.Belozersev, A.Berman, A.I. Buzni, N.Yu. Volyanyuk, N.N. Doroshenko, R.O.Bolshakov, Yu.M.Bichkov, S.B.Vichkov, M.E.Voronsova, S.B.Goncharov, A.O.Gabrilyan, V.P.Branskiy va boshqalar tomonidan sportchi va trenerlar faoliyatining psixologik-pedagogik jabhalari, sportchilarning kasbiy faoliyatining psixologik jihatlarini, trener faoliyatining yo'nalishlari va sportchi shaxsining xarakterlovchi psixologik xususiyatlari kabi masalalar ilmiy muammo sifatida o'rganilgan. Demak, tom ma'noda ta'kidlash zarurki, sportchilarni musobaqa jarayoniga tayyorlash masalasi bugungi kunda sport sohasidagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Muhokama va natijalar. Sportchilarda hissiy-irodaviy sifatlarni rivojlantirish jarayonida qator uslublardan foydalanib, irodaviy sifatlarni tarbiyalashda ichki qiyinchiliklarni yengib o'tishni hisobga olish lozim. Sport mashg'ulotlari va mashqlar jarayonida tashqi va ichki ruhiy qiyinchiliklarni bartaraf etish o'quv materiallari xarakteriga, rejadagi me'yor talablariga hamda sportchilarning individual xususiyatlariga qarab belgilanadi. Ko'p hollarda o'smir yoshidagi sportchilarda jismoniy kuch sifatlarning past rivojlanganligi, mashqlarni bajarishda o'ziga ishonchning yo'qligi, jarohat olishdan qo'rqish holati, tortinchoqlik, uyalish, umuman, mashg'ulotlarga salbiy munosabatda bo'lish kabilar ularda umumiy qiziqishning pasayib ketishiga sabab bo'ladi. Qiziqarli tashkil etilgan mashg'ulot va mashqlar sportchilarda ijobiy irodaviy sifatlarni shakllantiradi. Shuningdek, har bir mashg'ulotda bajariladigan maxsus jismoniy mashqlar sportchilarning irodaviy faolliklarini o'stirishga kuchli ta'sir etadi. Masalan, sportchilarda mustaqil fikrlashni o'stirish uchun ular bilan birgalikda muskullarni o'stiruvchi bir guruh mashqlar o'ylab topish, shundan yengil va og'ir jismoniy mashqlarni tanlab olish, birgalikda bajarish, mashg'ulotning asosiy qismida bir nechta mashqlarni taqqoslash kabilar juda muhimdir.

Sportchilarda chidamlilikni o'stirish maqsadida mashqlarni yuqori mahorat bilan bajarish, qisqa vaqt ichida aniq ko'rsatkichlarga erishish, qiyin sharoitlarda ham mashqlarni yuqori texnik va taktik mahorat bilan bajarish asosida yuqori natijalarga erishish talab qilinadi. Shuningdek, sportchilarda irodaviy sifatlarni vujudga keltirish maqsadida maxsus mashqlarni bor kuchini sarf qilish asosida o'z-o'zini irodaviy majburlashga o'rgatish ham juda muhimdir.

Ma'lumki, sport mashg'ulotlari jarayonida sportchilarga mustaqil jismoniy mashqlarni bajarish uchun vazifa beriladi. Bundan kuzatilgan asosiy maqsad har bir sportchini jismoniy mashqlarni o'zlarida mustaqil bajarishga odatlantirish, shu asosda ularda ijodiy tafakkurni o'stirish, o'zini-o'zi boshqarish kabi bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qilishdir. O'zini-o'zi tarbiyalash har bir sportchining erkin faoliyatidir. Sportchilarda erkin faoliyat yuritish ehtiyojlarini o'stirish uchun har bir murabbiy o'zini-o'zi tarbiyalashning quyidagi qonuniyatlarini:

- o'zini-o'zi tarbiyalash uslublarini yaxshi bilishi;
- sportchilar jamoasini yuqori rivojlangan jamoaga aylantirish;
- sportchilarning o'zlarini mustaqil ravishda o'zini-o'zi tarbiyalashni kundalik hayot tarziga aylantirish hamda o'zini-o'zi tarbiyalash uchun bor kuchini safarbar qilishga odatlanish;
- sportchining o'zligini anglash va o'zini bilish darajasini aniqlash;

- sportchini o'zining ichki dunyosini bilishga qiziqish;
- irodaviylikni o'stirish kabilarni bilishi lozim[1].

Ta'kidlash joizki, sport jamoasi yoki guruhini to'g'ri boshqarish murabbiyning tashkilotchilik va pedagogik mahoratiga, bilim va qobiliyatiga bog'liq. Jumladan, murabbiyning talabchanligi, sportchilar jamoasi bilan to'g'ri va o'zaro hurmatga asoslangan munosabat o'rnatishi sportchilarning mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishlarini oshirish imkonini beradi. Murabbiy sportchilar jamoasini to'g'ri boshqarishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratishi maqsadga muvofiq: bir-biriga bo'lgan talabchanlikni xolis baholash, o'zini ishonirish, sport musobaqalarida to'g'ri raqobatlashish, bir-biriga yordamlashish, jismoniy zaif sportchilarni to'g'ri tushunish va ular to'g'risida g'amxo'rlik qilish, guruh sportchilari kayfiyatini ko'tarish kabilarni.

Sportchilarning ruhiy faollik darajasi ko'pincha sport mashg'ulotlari va musobaqalarning yuqori darajada sifatli o'tkazilishiga bog'liq bo'ladi. Sportchilar bunday tashkil etilgan musobaqa jarayonida o'zlarini ko'rsatish maqsadida bor kuchini safarbar qiladi. Shuningdek, musobaqalashish uslubi sport turlari uchun «lider»larni aniqlashga, sportchilarning bo'lajak sport musobaqalarini o'zlarida mustaqil tashkil etishlariga yordam beradi. Sport musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish uchun murabbiy hamda faol sportchilardan kuchli irodaviy sifatlarni ishga solish talab qilinadi [2].

Tajribali murabbiylar sport mashg'ulotlari jarayonini juda yaxshi idrok qilishi va shogirdlaridagi mavjud kamchiliklarni o'z vaqtida his qilishi va uni o'z vaqtida bartaraf etib borishi lozim. Bulardan tashqari, murabbiyning harakat xotirasi keng hajmda qabul qilish imkoniyatiga ham ega bo'lishi, bajariladigan har xil harakatlarning obrazlarini xotirasida saqlay bilishi, mashg'ulotlar davomida sportchilarning nima bilan mashg'ulligini kuzatib turib, ularni tez, qisqa vaqt davomida to'g'ri yo'lga solishi hamda aniq bir qarorga kelishi talab etiladi.

Sport murabbiyining faoliyatida uchraydigan obyektiv qiyinchiliklardan biri uning mutaxassisligi bilan bog'liq bo'lgan fanlarni qay darajada o'zlashtirganlik holatidir. Jumladan, jismoniy madaniyat nazariyasi, pedagogika, psixologiya, fiziologiya, sport tibbiyoti, falsafa, shuningdek, yengil atletika, gimnastika, basketbol, voleybol, qo'l to'pi, futbol, suzish, kurash kabilarni talab darajasida o'zlashtirgan bo'lishi zarur. Aks holda murabbiyning sportchilar bilan birga ishlashi juda qiyin kechadi.

Murabbiyning subyektiv qiyinchiliklarini ikki guruhga ajratib o'rganish mumkin. Birinchi guruhga ularning individual xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar: asab tizimi tiplari va tuzilishi, temperament, xarakteri kabilarni kiradi. Masalan, xolerik temperamentga ega bo'lgan murabbiyning asab tizimi kuchli muvozanatsizligi, qo'zg'aluvchanligi, ta'sirchanligi, o'zini tuta bilmasligi bilan ajralib turadi. Flegmatik temperamentdagi murabbiylar esa o'zlarining sustkashligi bois sportchilarning xatolarini kechikib payqaydilar. Murabbiyning subyektiv qiyinchiliklaridan yana biri ularning o'z maqsadiga erishishlarida paydo bo'ladigan quyidagi to'siqlardir: o'zini tuta bilmasligi, sport ishlarini aniq rejalashtira olmasligi, layoqatsizligi, aqliy xususiyatlarining cheklanganligi, salbiy odatlarga berilishi kabilarni [4].

Murabbiyning ish faoliyatida uchraydigan maxsus individual qiyinchiliklar ham subyektiv qiyinchiliklar guruhiga kiradi. Murabbiyning o'z ishini yaxshi bilmasligi yoki yoshning o'tishi sababli jismoniy mashqlarni amalda ko'rsatishda (jismoniy zaifligi, sog'ligi tufayli gimnastika va yengil atletika mashg'ulotlari jarayonida sakrash mashqlarini bajarishda, arqonda ko'tarilishda) uchraydigan qiyinchiliklar shular jumlasidandir. Murabbiy bu subyektiv qiyinchiliklarni yengishi, birinchidan, uning pedagogik mahoratiga, sportchilar ruhiyatini tez, sezgirlik bilan baholay olishiga va sport turlarini yaxshi o'zlashtirganligiga bog'liq. Ikkinchidan, murabbiyning o'z shogirdlari orasidagi obro'yi, yuqori darajadagi bilimdonligi, tadbirkorligi, o'z bilimni amaliyotda qo'llay bilishi, mashg'ulotlarni tashkil qilishdagi ijodkorligi, sportchilarning mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishini oshirib borishi kabilarni uning bu qiyinchiliklarni yengishida muhim o'rin tutadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki sportchilarning hissiy-irodaviy sifatlarini rivojlantirishda va bu orqali sport faoliyatida ma'lum bir natijalarga erishish quyidagi jihatlarni bilan uzviy bog'liq [3]:

birinchidan, maxsus jismoniy mashqlarni bajarish davrida turli shakldagi muskullar faolligi namoyon bo'lib, sport faoliyatini mobaynida inson kerakli darajada jismonan chiniqadi, umumiy jismoniy tayyorgarlikga ega bo'ladi;

ikkinchidan, sportchini tanlagan sport turi bilan bog'liq bo'lib, sportchidan muayyan ko'nikma, malakalarini takomillashtirib borishga intilishi jismoniy mashqlarni bajarishda eng yuqori natijalarni ko'rsatishga yo'naltirilgandir;

uchinchidan, sportchini tanlagan sport turiga oid jismoniy mashqlarni bajarishda yuqori texnikasini egallash bilan bog'liq bo'lib, sportchidan maxsus va izchil tarzda davom etadigan uzoq vaqtli mashg'ulotlarni talab etadi, bu jarayonda sportchi muayyan harakat malakalarini o'zlashtiradi va takomillashtirib boradi, shu bilan birga ayni sport turi bo'yicha shug'ullanish uchun zarur bo'lgan kuch, chidamlilik, tezkorlik, harakatlanishdagi chaqqonlik, epcillik va xarakterdagi irodaviy sifatlarga mardlik, jasurlik, qat'iyatlilik, tashabbuskorlik, mustaqillik, irodalilik, g'alabaga ishonch va hokazo ega bo'ladi;

to'rtinchidan, sport faoliyatini sport ko'rashi bilan bog'liqligi ya'ni, bu holat sport musobaqasi jarayonida alohida xarakterga ega bo'lib, sportchida jismoniy kuchlarini yuqori zo'rliqtirishga, katta kuch va hissiy-irodaviy kechinmalarining chuqurligi, psixik jarayonlarning keskin faoliyatini rivojlantirishga yordam beruvchi, sport faoliyatining zarur tarkibiy qismi bo'lgan, sport musobaqalari jarayonida keskin tus oluvchi bellashuvlar bilan bog'liq;

beshinchidan, jismoniy va ma'naviy kuchlarni namoyon bo'lishi bilan bog'liqligi ya'ni, sport faoliyatini murakkab tuzilishga egaligini maxsus malaka va ko'nikmalarni maksimal darajada aniqlash, motor-harakatchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni doimiy ravishda yuqori darajada saqlab turish zarurligi. Shu nuqtai nazardan sport faoliyatini nihoyatda murakkab tarkibga ega bo'lib, o'ziga nafaqat musobaqalarda ishtirok etishni, balki izchil ravishda olib boriladigan tayyorgarlik mashg'otlarini ham qamrab oldi.

ADABIYOTLAR

- Yu.M.Masharipov, F.J.Eshnazarova Sport psixologiyasi. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand: SamDU, 2021. –142 bet.
- Hayitov O.E. Po'latov J.A. Sport faoliyatini psixologiyasi. O'quv-uslubiy majmua. - T.: -2021. 156 bet.
- X.X.Jabborov, O.R.Avezov, N.Z.Jumayev. Sport psixologiyasi. O'quv qo'llanma. "Durdona" nashriyoti. 2014 y -324 bet.
- Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. - T.: Fan va texnologiya, 2008, 388-bet.
- <https://www.sports.ru/>



Baxtiyor YAKUBOV,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti v.b

O'zbekiston Milliy universiteti professori, s.f.d A.Muminov taqrizi asosida

ON THE ISSUE OF NEW APPROACHES TO PUBLIC ADMINISTRATION IN THE PROCESS OF POLITICAL MODERNIZATION IN UZBEKISTAN

Annotation

At the present stage of development, there are attempts in most countries of the world to introduce modern management that is more in line with their national interests. It can be seen that a number of new Public Administration models are being put forward in this regard. A number of ideas advanced in the process of reforms carried out in Uzbekistan are of particular interest in this aspect, gaining special attention in the world community.

Key words: Modern public administration, models of public administration, "New public management", "Corporatist management", "Good management", pandemic, voluntary obligations of states.

К ВОПРОСУ О НОВЫХ ПОДХОДАХ К ГОСУДАРСТВЕННОМУ УПРАВЛЕНИЮ В ПРОЦЕССЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

На современном этапе развития большинство стран мира пытаются внедрить современный менеджмент, отвечающий их национальным интересам. В этом отношении можно видеть, что продвигается ряд новых моделей государственного управления. Ряд идей, выдвинутых в ходе реализуемых в Узбекистане реформ, представляют в этой связи особый интерес и привлекают особое внимание мирового сообщества.

Ключевые слова: Современное государственное управление, модели государственного управления, «Новое государственное управление», «Корпоративное управление», «Хорошее управление», пандемия, добровольные обязательства государств.

O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN SIYOSIY MODERNIZASIYA JARAYONIDA DAVLAT BOSHQARUVIGA YANGI YONDOSHUVLAR MASALALARI

Аннотация

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida dunyoning aksariyat mamlakatlarida o'z milliy manfaatlariga to'laroq javob beradigan zamonaviy boshqaruvni joriy qilish yo'lida urinishlar bo'lmoqda. Bu borada qator yangi davlat boshqaruvi modellari ilgari surilayotganligini ko'rish mumkin. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida ilgari surilayotgan bir qator g'oyalar ushbu jihatdan alohida qiziqish uyg'otib, dunyo hamjamiyatida alohida e'tibor qozonmoqda.

Kalit so'zlar: Zamonaviy davlat boshqaruvi, davlat boshqaruvi modellari, "Yangi davlat menejmenti", "Korporativistik boshqaruv", "Maqbul boshqaruv", pandemiya, davlatlarning ixtiyoriy majburiyatlari.

Kirish. Bugungi kunga kelib jahonning ko'plab davlatlari dunyoda shakllanayotgan yangi global sharoitlarda o'z barqaror taraqqiyot yo'llarini belgilab olishga, shunga mos modernizatsion modellarni amalga oshirishga alohida ahamiyat qaratmoqdalar.

Ushbu jarayonlarni o'zida aks ettirgan, umuminsoniy tendensiyalar va ustivorliklarni belgilaydigan xalqaro hujjatlar qabul qilina boshlanganligi ham mazkur masalaning dolzarbligidan dalolat beradi.

Tahlil va natijalar. Xususan, jahon davlatlarining yaqin o'n yilliklardagi barqaror taraqqiyoti asoslarini o'zida mujassam etgan BMTning «Biz istayotgan kelajak» [1], «2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror taraqqiyot sohasiga oid kun tartibi» [2] kabi xujjatlari bunga misol bo'la oladi.

Albatta, ushbu masalalar dunyo davlatlari kabi O'zbekiston uchun ham juda dolzarb masalalardan hisoblanadi.

2016 yildan boshlab amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida davlat va jamiyat boshqaruvini yangilash masalalari alohida o'rin egallayotganligi bejiz emas.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham[3], Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasida ham[4], "O'zbekiston - 2030" strategiyasida ham [5] davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish yo'nalishida boshqaruv tizimida parlament maqomini yanada ko'tarish, qonun ijodkorligi sifatini tubdan yaxshilash, siyosiy partiyalar rolini oshirish masalalari ustuvor vazifalar darajasiga chiqarilgan.

Aynan shu yondashuvlarga asoslangan qarashlarni ijro xokimiyatini yangilash yo'nalishida belgilab olingan vazifalardan ham ko'rish mumkin. Bular iqtisodiyotni boshqarishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat va xususiy sektor munosabatlarini yangi darajaga, ya'ni o'zaro foydali hamkorlik munosabati darajasiga olib chiqish, davlat boshqaruvida "Elektron hukumat" tizimini joriy etish kabilarda o'z aksini topadi.

Qolaversa davlat xokimiyatiga funksional yondoshuvlarni mohiyatan o'zgartirgan "xalq davlat organlariga emas, balki davlat

organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" tamoyili[6] asosida boshqaruv tizimi faoliyatini tashkil qilinishi uzoq o'n yilliklar davomida xokimiyat tizimining mohiyatiga singib ketgan insonni davlatning bir muruvati sifatida qarashdan mutlaqo'z voz kechilayotgani, aksincha aynan insonni endilikda oliy qadriyat darajasiga ko'tarib, davlat organlarini esa butun vertikal bilan inson manfaatiga xizmat qilishga yo'naltirilayotganidan dalolat beradi.

Albatta, strategiyadan o'rin olgan nomarkazlashtirish, yoki iqtisodiyotda davlat boshqaruvini kamaytirish kabi qarashlar davlatning rolini inkor qilish sifatida tushunilmasligi lozim. Aksincha, aynan davlat boshlangan iqtisodiy islohotlarni samarali amalga oshirilishi, muvaffaqiyatli borishini ta'minlashda alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, islohotlar yo'lida kutilmagan, "fors-major" xolatlarda samarali boshqarishga qodir bo'lgan davlatning roli nihoyatda muhimligi ma'lum. Xususan, koronavirus epidemiyasi tufayli yuz bergan pandemiya sharoitida aynan salohiyatli davlatning qanday rol o'ynashi mumkinligi yana bir bor ayon bo'ldi. Shulardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, strategiya doirasida ilgari surilgan g'oya – fuqarolarning manfaatlarini ta'minlash yo'lida samarali qarorlarni qabul qila olishga qodir davlatning mavjud bo'lishi islohotlar samarasini belgilovchi omillardan biri bo'lib qoladi.

Umuman mamlakatda davlat va jamiyat qurilishini yanada takomillashtirish yo'nalishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev rahbarligida boshlangan islohotlarni ajratib turuvchi o'ziga xos jihatlarni quyidagilarda yaqqol ko'rish mumkin:

islohotlarda davlat bilan bir qatorda fuqarolik jamiyati institutlarini keng jalb qilish, amalga oshiriladigan ishlarni ularning hamkorligiga tayangan holda xayotga joriy qilishga intilish. Endilikda ular o'rtasidagi munosabatlar vertikal shakldagi munosabatlardan, gorizontal, ya'ni yaqin hamkorlik munosabatlari asosida qurilishiga bo'lgan harakatda o'z aksini topadi;

davlatning jamiyat oldida xisobdorligini oshirish masalasi qo'yilayotganligini ushbu yo'nalishdagi islohotlarni ajratib turuvchi o'ziga xos jihatlardan yana biri sifatida ko'rsatish mumkin. Harakatlar

strategiyasi doirasida qabul qilingan davlat dasturlarida "Parlament nazorati to'g'risida"gi, "Mahalliy xokimiyat organlari to'g'risida"gi qonunlarga o'zgartirishlar kiritish, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonunni qabul qilish va boshqa masalalarning kun tartibiga qo'yilishi aynan shundan dalolat beradi;

boshqaruv organlari faoliyatida "Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qiladi" shiorida o'z aksini topgan konseptual o'zgarishlar, mamlakat rahbarining xalq qabulxonalari shaklida o'z faoliyatini boshlagan mutlaqo yangi tipdagi institutlar faoliyatining yo'lga qo'yilganligi, Davlat xizmatlari agentligi faoliyati va boshqa tizimli ishlar endilikda davlatning xalq bilan ishlashida mutlaqo yangicha konseptual asoslar joy olayotganligidan dalolat beradi;

boshqaruv organlari faoliyatida ochiqlikni ta'minlashga bo'lgan tizimli qadamlarning qo'yilganligi. "Xuquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi qonun normalari bilan aholiga davlat organlaridan xuquqiy axborotni xuquq to'sqinliklarsiz olinish imkoniyati belgilab qo'yildi.

Mamlakat boshqaruvi tizimida demokratlashirish jarayonlarining nihoyatda kengaya borayotganini ko'rsatuvchi ushbu o'zgarishlar barobarida strategiya doirasida ko'zda tutilgan o'zgarishlar boshqaruv tizimining tobora rivojlanib, o'zgarib borayotgan zamon talablarini inobatga olgan holda taraqqiy etishi, samaradorligi oshirishni ko'zda tutuvchi o'zgarishlarni ham qamrab olganligi bilan ajralib turadi.

Bu borada gap ketganda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasidagi nutqida ilgari surilgan tashabbuslariga alohida e'tibor qaratib o'tish lozim bo'ladi. Ushbu sessiya doirasida davlatimiz rahbarining BMT shafeligida pandemiyalar davrida davlatlarning ixtiyoriy majburiyatlarini to'g'risidagi xalqaro kodeksini ishlab chiqish borasidagi tashabbusi ko'pchilik siyosatshunos va iqtisodchilarning alohida e'tiborini tortdi[7]. Bunga sabab ilgari surilgan g'oyada siyosatshunoslarni ko'pdan buyon o'ylantirib kelayotgan zamonaviy davlat boshqaruvi doir qarashlarga mutlaqo o'zgacha yondoshuv taklif etilganligiga borib taqaladi.

XX asr oxiri – XXI asrning dastlabki o'n yilliklari jahonda davlat boshqaruvining optimal modelini izlash yo'nalishida jiddiy harakatlar davri bo'ldi. Bu faqat rivojlangan G'arb davlatlarida emas, balki modernizatsiya jarayonlarini boshdan kechirayotgan Osiyo davlatlarida, dunyoning boshqa mintaqalarida ham kuzatildi.

Jahon banki qariyb chorak asr oldin, XXI asr arafasida ushbu mavzuda o'tkazgan tadqiqotlaridan birida davlat boshqaruvi isloh qilishga bunday intilishlar zaminida kuchli yoki aksincha, o'z ta'sirini minimal darajaga tushirgan davlat barpo etish yotmaganligini ko'rsatib o'tadi. Chunki, har ikkala yondashuv shu vaqtgacha turli mamlakatlarda amalga oshirilgan ma'muriy islohotlarda kutilgan natija bermagan. Shuning uchun ham davlatlarning bu boradagi barcha say-harakatlari samarali davlat bunyod qilishga qaratilgani to'g'risidagi muhim xulosaga keladi.

Lekin bunday maqsadga erishish borasida taklif etilgan yo'llar va vositalar bir-biridan farq qilishini ham ta'kidlab o'tish o'rinni. Keyingi o'ttiz-qirq yilda ilgari surilgan va ayrimlari turli mamlakatlarda tajribadan o'tgan "Davlatning minimal ishtiroki", "Korporativistik boshqaruv", "Yangi davlat menejmenti", "Maqbul boshqaruv", "Virtual boshqaruv", "Tarmoqli boshqaruv", "Ochiq davlat boshqaruvi" kabi konsepsiyalar aynan shundan dalolat beradi.

Yondashuvlarning nomiga birlamchi nazar tashlashdoyoq davlat boshqaruvi hozirgi zamon texnologik yutuqlarini keng joriy etishga intilishni sezish qiyin emas.

Ularining ayrimlariga to'xtalib o'tsak. "Davlatning minimal ishtiroki" yoki "Tarmoqli boshqaruv" yondashuvlari davlatning jamiyatni boshqarishdagi ishtirokini kamaytirish yo'lidan borishni ma'qul ko'radi. Masalan, "Tarmoqli boshqaruv" tarafdorlarining fikricha, davlat mavjud boshqaruv tizimidagi aktorlardan biri bo'lishi kerak, xolos. Boshqacha aytganda, davlat boshqaruvining alohida, mustaqil roli inkor etiladi. Natijada davlatning xalq oldidagi javobgarligi susayibgina qolmay, ayni paytda mustaqil davlatchiligi rivojlantirish yo'lidan borayotgan mamlakatlar globallasuv sharoitida yanada kuchsizlanishiga sabab bo'ladi.

"Ochiq davlat boshqaruvi" kabi yondashuvlar esa jamiyat oldida hisobdorlikka erishishni maqsad qiladi. 2011 yili AQSH, Braziliya, Buyuk Britaniya, Meksika, Filippin, Norvegiya, Indoneziya va JAR yangi xalqaro tashkilot – Ochiq davlatlar hamkorligi uyushmasi tuzilganini e'lon qilgan, tashkilot oldiga a'zo davlatlarning o'z fuqarolari oldidagi hisobdorligini yanada oshirishga erishish vazifasi qo'yilgan edi. Lekin ushbu konsepsiyada aholini o'ylantirgan

ijtimoiy masalalarni hal qilishda davlatning o'rni to'g'risidagi masalalar ochiq qolgan.

Keyingi o'n yilliklarda ayniqsa mashhur bo'layotgan va ko'plab mamlakatlar boshqaruv tizimlariga ta'sir qilyotgan modellar sifatida "Yangi davlat menejmenti" (New Public Management yoki qisqacha NPM) [8] va "Maqbul boshqaruv" (Good Governance) [9;10;11]ni alohida tilga olish mumkin. Birinchi konsepsiya 1990-yillarda ilmiy doiralarga kiritila boshlagan bo'lsa-da, uning asosida turgan yondashuvlar o'tgan asrning 80-yillaridan G'arb mamlakatlarining aksariyatida kuzatila boshlagan edi.

N. Menning va N. Parison G'arbnig o'n to'rtta davlatida NPM bo'yicha amalga oshirilgan o'zgarishlarni tahlil qilgan. Mazkur modelga tayangan mamlakatlar davlat xarajatlarining kamayishiga erishish, davlatning rivojlanib borishi uchun zarur asoslarni yaratish, aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilashga erishishni maqsad qiladi. Shu maqsadlarda davlat boshqaruvi tejamkorlik, harakatchanlik va samaradorlikka erishish birlamchi vazifalar sifatida belgilanadi.

Xususiy sektorga xos ish uslubi, ya'ni bozor iqtisodiyoti qonuniyatlarini davlat boshqaruvi qat'iy qilib g'oyasi ilgari surilgani NPMning o'ziga xosligini belgilaydi. Ya'ni davlat tasarrufidagi ko'plab resurslarni xususiy sektorga o'tkazish, davlat vakolatlarining ham bir qismini bozor tuzilmalari ixtiyoriga berish, nomarkazlashtirish, davlat apparatini qisqartirish orqali xarajatlarni kamaytirish va shunga o'xshash bozor iqtisodiyotida samaradorligini isbotlagan mexanizmlarni davlat boshqaruvi ham joriy qilish maqsadlari ko'zlanadi.

Davlat boshqaruvi zamonaviy, menejerial yondashuv sifatida samaradorlik asosiy o'ringa qo'yilar ekan, bunga xalqat qiladigan omillar qatorida davlatning fuqarolar oldidagi bir qator majburiyatlaridan voz kechish ham nazarda tutiladi. Aynan ijtimoiy sohaga oid majburiyatlarni soqit qilish mazkur modelning ko'plab ijobiy tomonlariga qaramasdan, qimmatini tushiradigan jihatlaridan biridir. NPMda ko'zga tashlanadigan bu kamchilik unga muqobil bo'lgan yangi yondashuvlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi[12].

«Good Governance» tushunchasi ilk bor 1992 yili Jahon bankining iqtisodiy rivojlanish masalalariga bag'ishlangan yillik konferensiyasida ilgari surilgan bo'lsa-da, alohida boshqaruv modeli sifatida 1997 yildan ishlatila boshlagan. BMT aynan o'sha yili davlat boshqaruvi dalldor yangi rivojlanish dasturini e'lon qildi. Unda boshqaruvda jamiyatning imkon qadar kengroq qatlamlari ishtirokini ta'minlash, qarorlarni qabul qilishda ijtimoiy himoyalangan qatlamlar ovozini ham eshitish g'oyasi ilgari surildi. Bunday yondashuv davlat boshqaruvi o'zida ikki modelni bir-biridan farqlovchi asosiy jihatlardan sanaladi.

Xulosa va takliflar. Koronavirus pandemiyasi oqibatida yuzaga kelgan vaziyat har ikki yondashuv - davlat boshqaruvining samaradorligini targ'ib qiluvchi "Yangi davlat menejmenti" modeli uchun ham, boshqaruvda aholining ehtiyojmand, kambag'al qatlamlari fikrini inobatga olishni targ'ib qiluvchi «Good Governance» modeli uchun ham o'ziga hos sinov bo'ldi. Har qanday davlatdagi mavjud boshqaruv tizimi faqat iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik sharoitida emas, balki mana shunday murakkab pallalarda ham sinovdan o'tishi yaqqol ko'zga tashlandi. Aholining muayyan qismi o'ziga bog'liq bo'lmagan tarzda doimiy ish joyidan ajralib qolgan, iqtisodiy barqarorlik, qolaversa davlatlarning o'zaro majburiyatlari ma'lum darajada xavf ostida turgan vaziyatda davlat zimmasiga aniq majburiyatlarni olishi lozimligini bugun davrning o'zi ko'rsatib qo'ydi.

Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT shafeligida pandemiyalar davrida davlatlarning ixtiyoriy majburiyatlarini to'g'risidagi xalqaro kodeksni qabul qilish g'oyasini ilgari surgan bugun jahonda keng ommalashgan boshqaruv modellaridagi bo'shliqlarni to'ldirgan va mavjud vaziyatda davlatning boshqaruvchilik roliga, kerak bo'lsa mas'uliyatiga mutlaqo yangicha yondashuv lozimligini ko'rsatib bergan qarash sifatida o'rtaga chiqdi. Bu bilan, bir tomondan, davlat hokimiyatini mutlaqlashtirish, ikkinchi tomondan esa, buning aksi o'laroq davlatning jamiyat hayotidagi ishtirokini minimal darajaga tushirishga intilishlardan farqli ravishda davlatning o'z funksiyasini samarali bajarishga xizmat qiladigan yondashuv taklif etildi.

Pandemiya oqibatida yuzaga kelgan vaziyat dunyo davlatlarida mamlakatimiz rahbarining ushbu g'oyasiga qiziqish uyg'otganligi tabiiy. Negaki, favqulodda vaziyatlarda mamlakat aholisi va xalqaro hamkorlar oldida mas'uliyatni his qilgan har qanday davlat bir qator majburiyatlarni mas'uliyatni olishi lozimligini, o'z navbatida boshqalardan ham shuni kuta olishi uchun maxsus xalqaro konvensiya qabul qilinishi zarurligini anglamasdan boshqa iloj yo'q.

Shu o'rinda O'zbekistonda boshlangan chuqur islohotlarning dastlabki davidan o'z xalqi oldida chuqur mas'uliyat his qiladigan davlat boshqaruvini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilganini eslab o'tish lozim.

Keyingi o'n yilliklarda shakllangan siyosiy menejment endilikda davlatning fuqarolar hamda xorijiy hamkorlar oldida, ayniqsa, favqulodda vaziyatlarda, ixtiyoriy majburiyatlari bo'lishi

kerak, degan muhim g'oya bilan boyidi. Shu ma'noda O'zbekiston Prezidenti ilgari surgan taklif davlat boshqaruvini jahon hamjamiyatining taraqqiyot tendensiyalaridan kelib chiqqan holda yanada rivojlantirishga turtki berishiga, ushbu yondashuv dunyo davlatlari faoliyatidagi muhim tamoyillardan biriga aylanishiga shubha yo'q.

ADABIYOTLAR

1. Будущее, которого мы хотим. Итоговый документ Конференции ООН по устойчивому развитию. — ООН, Рио-де-Жанейро, июнь 2012 г.
2. Преобразование нашего мира: Повестка дня в области устойчивого развития на период до 2030 года. — ООН, Нью-Йорк, сентябрь 2015 г.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. 2017 йил 7 февраль. ПФ-4947-сон //Электрон ресурс: <https://lex.uz/docs/3107036>
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони. 2022 йил 28 январь. ПФ-60-сон// Электрон ресурс: <https://lex.uz/uz/docs/5841063>
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон – 2030 стратегияси тўғрисида”ги Фармони. 2023 йил 11 сентябрь. ПФ-158-сон// Электрон ресурс: <https://lex.uz/docs/6600413>
6. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. — Т.:“Ўзбекистон”, 2-нашри. 2020.- 71 б.
7. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 75-сессиясидаги нутқи// Электрон адрес: <https://president.uz/uz/lists/view/3851>
8. Мэннинг Н., Парисон Н. Реформа государственного управления: международный опыт. М., 2003. – С.35-37.
9. World Bank. Proceedings of the World Bank Annual Conference on Development Economics 1991. Washington, 1992.
10. UNDP. Governance for Sustainable Human Development. Jan., 1997 [Электрон ресурс]. URL:<http://gis.emro.who.int/HealthSystemObservatory/Workshops/WorkshopDocuments/Reference%20reading%20material/Literature%20on%20Governance/GOVERN~2.PDF>.
11. Graham G., Amos B., Plumptre T. Principles Good Governance in 21-st Century //Policy Brief. 2003. № 15.
12. Саидов С.Ш. Пять пробелов в государственной кадровой политике Узбекистана. // Научно-политический журнал «Власть». – Россия, 2020. –№04. – С. 213-216



UDK: 37.091.3:81'243

Faxriddin YARMANOV,
QarDU Fransuz tili va adabiyoti kafedrasida katta o'qituvchisi

QarDU dotsenti, PhD M.B.Nizomova taqrizi asosida

INTERACTIVE METHODS OF TEACHING THE FRENCH LANGUAGE

Annotation

This article explores the advantages and effectiveness of teaching French using interactive methods. Interactive approaches enhance student engagement and facilitate the rapid development of language skills. The study examines methods such as group work, role-playing, discussions, and didactic games, highlighting their role and practical application in teaching the French language.

Key words: French language, interactive methods, educational technologies, didactic games, communicative skills.

FRANSUZ TILINI O'QITISHNING INTERFAOL USULLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada fransuz tilini interfaol usullar asosida o'qitishning afzalliklari va samaradorligi ko'rib chiqiladi. Interfaol usullar o'quvchilarning faolligini oshirishga, ularning til ko'nikmalarini tezroq rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqolada jamoaviy ish, rolli o'yinlar, munozaralar va didaktik o'yinlar singari metodlar o'rganilib, ularning fransuz tilini o'rgatishdagi o'rni va amaliy qo'llanishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Fransuz tili, interfaol usullar, ta'lim texnologiyalari, didaktik o'yinlar, kommunikativ ko'nikmalar.

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ФРАНЦУЗСКОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация

В статье рассматриваются преимущества и эффективность преподавания французского языка с использованием интерактивных методов. Интерактивные подходы способствуют повышению активности учащихся и ускоряют развитие языковых навыков. В статье проанализированы такие методы, как групповая работа, ролевые игры, дискуссии и дидактические игры, а также их роль и практическое применение в обучении французскому языку.

Ключевые слова: Французский язык, интерактивные методы, образовательные технологии, дидактические игры, коммуникативные навыки.

Zamonaviy ta'lim tizimida chet tillarni o'qitishning samaradorligi masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. O'qituvchilarning asosiy vazifasi o'quvchilarda til ko'nikmalarini shakllantirish, ularni muloqotga tayyorlashdir. Ayniqsa, fransuz tilini o'qitishda interfaol usullar juda katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada fransuz tilini o'qitishda qo'llaniladigan interfaol usullar tahlil qilinadi va ularning samaradorligi, ta'lim jarayonidagi roli ilmiy asosda o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Interfaol usullar - Méthodes interactives, Fransuz tili ta'limi - Enseignement du français, Rolli o'yinlar - Jeux de rôles, Muloqot ko'nikmalari - Compétences de communication, Madaniy anglashuv - Compréhension culturelle, Guruhda ishlash - Travail en groupe, O'qitish metodlari - Méthodes d'enseignement, Axborot texnologiyalari - Technologies de l'information, Multimedia vositalari - Outils multimédia, Onlayn ta'lim - Enseignement en ligne, Didaktik o'yinlar - Jeux didactiques, Talaffuz mashqlari - Exercices de prononciation, O'zaro tushunish - Intercompréhension, Ta'lim samaradorligi - Efficacité de l'enseignement, Motivatsiya - Motivation, Innovatsion yondashuvlar - Approches innovantes, Til o'rganish - Apprentissage des langues, Muloqot texnikalari - Techniques de communication, Virtual ta'lim - Enseignement virtuel, Til integratsiyasi - Intégration linguistique;

I. Interfaol usullar nazariyasi

Interfaol o'qitish — bu pedagogik jarayon bo'lib, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi faol muloqotni ta'minlaydi, bilimlarni birgalikda egallashni ko'zda tutadi. Ushbu yondashuvda:

Kognitiv faoliyat: O'quvchilarning fikrlash qobiliyati rivojlantiriladi, ular mustaqil ravishda yangi bilimlarni o'zlashtiradi.

Kommunikativ yondashuv: O'quvchilar faqat grammatika va lug'atni emas, balki muloqot qila olish ko'nikmalarini ham egallaydi. Bu jarayonda o'quvchilarning til o'rganishga qiziqishi oshadi.

Hamkorlikdagi ta'lim: O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik, guruhda ishlash ko'nikmalari rivojlantiriladi.

II. Fransuz tilini o'qitishda interfaol usullarni qo'llashning metodologik asoslari

Fransuz tilini o'qitishda interfaol usullarni samarali qo'llash uchun quyidagi metodologik tamoyillar e'tiborga olinishi lozim:

O'quvchilar faoliyatini uyg'otish: Har bir darsda o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash. O'quvchilarga turli vaziyatlarni modellashtirish, rolli o'yinlar orqali tilni qo'llash imkoniyatini yaratish.

Didaktik o'yinlar: O'quvchilarda qiziqish uyg'otish va motivatsiyani oshirish uchun didaktik o'yinlardan foydalanish. Bu jarayonda o'quvchilar o'z bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Axborot texnologiyalari va interaktiv vositalardan foydalanish: Multimedia vositalari, onlayn darslar, interaktiv dasturlar va testlardan foydalanish. Bu nafaqat o'quvchilarning tilni o'zlashtirish darajasini oshiradi, balki darslarni qiziqarli va samarali qiladi.

III. Fransuz tilini o'qitishda asosiy interfaol usullar

1. Rolli o'yinlar va simulyatsiyalar

Rolli o'yinlar fransuz tilini o'rganish jarayonida real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish imkonini beradi. Ushbu usul orqali o'quvchilar quyidagi ko'nikmalarni rivojlantiradi:

Yangi so'zlarni amaliyotda ishlatish;

Fransuzcha muloqotga kirishish, nutqni rivojlantirish;

Ijtimoiy va madaniy jihatlariga oid bilimlarni kengaytirish.

2. Guruhda ishlash va munozaralar

Guruhda ishlash o'quvchilarning bir-birlari bilan muloqot qilish imkonini yaratadi. Munozaralar orqali o'quvchilar:

Tilni muloqot jarayonida faol qo'llash;

Mustaqil fikrlash va o'z nuqtai nazarini bayon qilish;

Tinglash va o'z fikrini baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

3. Kommunikativ vazifalar va loyihalar

Loyihaviy metod fransuz tilini o'rganishda o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Loyihalar davomida o'quvchilar:

Muayyan mavzuga oid axborot yig'ish;

Olingan ma'lumotni tahlil qilish va taqdimot qilish;

Jamoa bo'lib ishlashni o'rganadi.

IV. Axborot texnologiyalari va multimedia vositalaridan foydalanish

Axborot texnologiyalari va multimedia vositalaridan foydalanish til o'rganish jarayonida quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

Onlayn resurslar: YouTube kanallari, fransuzcha podkastlar, audiokitoblar va video darslar yordamida o'quvchilarning eshitish ko'nikmalarini rivojlantiriladi.

Interaktiv darslar: Zoom yoki Google Meet kabi platformalar orqali onlayn darslar o'tkazish. Virtual doskalar va testlar yordamida darslar samaradorligini oshirish.

Talaffuzni rivojlantirish uchun dasturlar: O'quvchilarning talaffuzini takomillashtirish uchun maxsus dasturlar va mobil ilovalardan foydalanish. Misol: Duolingo, Babbel va boshqalar.

V. Fransuz tilini o'qitishda interfaol usullarning samaradorligi

Motivatsiyani oshirish: Interfaol usullar o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb qiladi, bu esa ularning tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Til ko'nikmalarini shakllantirish: Yangi bilimlarni amalda qo'llash, so'zlashuv ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Madaniy anglashuvni oshirish: Interfaol usullar yordamida fransuz tili bilan birga, fransuz madaniyatiga oid bilimlar ham egallanadi, bu esa tilni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Tahlillar. Fransuz tilini o'qitishning interfaol usullarini qo'llash, nafaqat til bilimlarini samarali o'zlashtirish, balki o'quvchilarning qiziqishini oshirish va ularni faol ishtirok etishga undash uchun ham muhimdir. Quyida interfaol usullar va ularni amalda qo'llash misollari batafsil yoritiladi.

I. Rolli o'yinlar -Les jeux de rôles

Rolli o'yinlar fransuz tilini o'qitishda eng samarali interfaol usullardan biri bo'lib, u o'quvchilarga real hayotiy vaziyatlarda tilni qo'llash imkonini beradi. Ushbu usulda o'qituvchi va o'quvchilar turli rollarni bajarishadi va o'zaro muloqotga kirishishadi.

Misol:

Vaziyat: Restoranda mijoz va ofitsiant o'rtasidagi suhbat (Un client et un serveur dans un restaurant).

Maqsad: O'quvchilar restoran muhitida buyurtma berish va xizmat ko'rsatish jarayonini fransuz tilida mashq qilishadi.

O'yin jarayoni:

Client (mijoz): "Bonjour, je voudrais un café et un croissant, s'il vous plaît." (Salom, bir chashka kofe va bir dona kroissant olmoqchi edim, iltimos.)

Serveur (ofitsiant): "Bien sûr, monsieur/madame. Vous désirez autre chose?" (Albatta, janob/xonim. Yana nimadir istaysizmi?)

Client: "Non, merci. L'addition, s'il vous plaît." (Yo'q, rahmat. Hisobni keltirib, iltimos.)

Serveur: "Voilà, l'addition. Cela fait 5 euros." (Mana, hisob. Jami 5 yevro bo'ldi.)

Bu usul o'quvchilarga yangi so'zlarni o'rganish, muloqot qilish va turli vaziyatlarda o'zini fransuz tilida ifoda etish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Munozara va guruhda ishlash -Les discussions et le travail en groupe

Munozaralar o'quvchilarning fransuz tilida o'z fikrini bildirish va himoya qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Guruhda ishlash esa o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlik va muloqotni mustahkamlaydi.

Misol:

Mavzu: "L'importance de l'apprentissage des langues étrangères" (Chet tillarni o'rganishning ahamiyati).

Tashkilot: O'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruh chet tillarni o'rganishning foydasi haqida dalillar keltiradi, ikkinchi guruh esa til o'rganish qiyinchiliklarini muhokama qiladi.

Munozara jarayoni:

Groupe 1 (Foyda tarafdorlari): "Apprendre une langue étrangère ouvre des portes vers de nouvelles cultures et de nouvelles opportunités professionnelles." (Chet tilini o'rganish yangi madaniyatlar va yangi ish imkoniyatlariga yo'l ochadi.)

Groupe 2 (Qiyinchiliklarni muhokama qiluvchilar): "Il est difficile de maîtriser une langue étrangère sans immersion complète. Cela prend beaucoup de temps et d'efforts." (Chet tilini to'liq egallash murakkab, bu juda ko'p vaqt va kuch talab qiladi.)

Munozara o'quvchilarning o'z nuqtai nazarini ifoda etish, muloqot qilish va o'z fikrini himoya qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

III. Kompyuter va multimedia vositalaridan foydalanish- Utilisation des technologies de l'information et des médias

Zamonaviy ta'limda axborot texnologiyalari va multimedia vositalari fransuz tilini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Ular o'quvchilarning tilni o'zlashtirish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi.

Misol:

Interaktiv dasturlar: Fransuz tilini o'rgatishga ixtisoslashgan "Duolingo", "Babbel", "Rosetta Stone" kabi dasturlardan foydalanish. Ushbu ilovalar o'quvchilarning so'z boyligini kengaytiradi va grammatik qoidalarni o'zlashtirishga yordam beradi.

Audiovizual materiallar: Fransuzcha filmlar, multfilmlar va hujjatli filmlarni tomosha qilish. Masalan, "Les Choristes" filmi yoki "Le Petit Prince" multfilmi orqali o'quvchilar fransuz tilining talaffuzi va madaniyatini o'rganishlari mumkin.

Onlayn resurslar: YouTube'dagi fransuzcha tilli podkastlar yoki darslar. Masalan, "Français Authentique" kanali o'quvchilarning eshitish ko'nikmalarini rivojlantiradi va yangi so'zlarni o'rganishga yordam beradi.

Talaffuzni yaxshilash uchun innovatsion usullar - Méthodes innovantes pour améliorer la prononciation

Fransuz tilida to'g'ri talaffuz qilish o'quvchilar uchun qiyin bo'lishi mumkin. Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi interfaol usullardan foydalanish mumkin:

Fonetik o'yinlar: O'quvchilar o'rtasida har xil so'zlarning to'g'ri talaffuzini o'rganish uchun fonetik o'yinlar o'tkaziladi. Masalan, "le bon mot" o'yini orqali o'quvchilar berilgan so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rganadilar.

Talaffuz dasturlari: O'quvchilarning talaffuzini rivojlantirish uchun maxsus dasturlardan foydalanish. Masalan, "Forvo" yoki "Speechling" dasturlari orqali o'quvchilar so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni mashq qilishadi.

Raqamli talaffuz murabbiylari: Maxsus mobil ilovalar orqali fransuz tilida talaffuzni mashq qilish. Masalan, "Elsa" ilovasi yordamida o'quvchilar o'z talaffuzlarini avtomatik tarzda baholashlari mumkin.

Madaniy anglashuv va o'zaro tushunish- La compréhension culturelle et l'interculturalité

Fransuz tilini o'qitishda madaniy kontekst ham muhim o'rin tutadi. O'quvchilar nafaqat tilni, balki fransuz madaniyati va qadriyatlarini ham o'rganishlari zarur.

Misol:

Madaniy tadbirlar tashkil qilish: "La Fête de la Francophonie" kabi madaniy tadbirlar o'tkazish orqali o'quvchilar fransuz madaniyati va tilini amalda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Adabiyot va san'atga oid darslar: Fransuz adabiyotining buyuk asarlari, masalan, Viktor Gyugo yoki Gyustav Flobler asarlarini o'rganish. Ushbu asarlar orqali o'quvchilar fransuz madaniyati va adabiyoti bilan tanishadilar.

Fransuzcha an'ana va bayramlarni o'rganish: "Noël", "Pâques", "Le 14 juillet" kabi fransuz bayramlari haqida ma'lumotlar o'rgatish. Bu o'quvchilarning fransuz madaniyatini chuqurroq tushunishlariga yordam beradi.

Xulosa. Fransuz tilini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish nafaqat o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini oshiradi, balki ularni muloqotga tayyorlaydi, til o'rganishga qiziqishini oshiradi. Ushbu usullar o'quv jarayonini jonlantiradi, o'quvchilarni faol va mustaqil fikrlashga undaydi. Kelgusida fransuz tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan kengroq foydalanish, dars jarayonini yanada interfaollashtirish uchun yangi metodikalarni joriy etish lozim. Fransuz tilini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarning til ko'nikmalarini samarali rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Rolli o'yinlar, munozaralar, axborot texnologiyalari va madaniy tadbirlar orqali o'quvchilar nafaqat tilni o'rganish, balki fransuz madaniyati va qadriyatlarini bilan tanishish imkoniga ega bo'ladilar. Interfaol usullarni keng qo'llash orqali o'quvchilarning tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish va ularni fransuz tilida erkin muloqot qilishga tayyorlash mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.
2. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2001). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
3. Widdowson, H. G. (1990). Aspects of Language Teaching. Oxford University Press.
4. Krashen, S. D. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon Press.
5. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.
6. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2001). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
7. Lévy, P. (1997). Les Technologies de l'intelligence: L'avenir de la pensée à l'ère informatique. La Découverte.
8. Widdowson, H. G. (1990). Aspects of Language Teaching. Oxford University Press.

9. Krashen, S. D. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon Press.
10. Legrand, J.-L., & Beacco, J.-C. (2001). Enseigner le français langue étrangère et seconde. Didier.
11. Bérard, É. (1991). Approche communicative et enseignement des langues. Hachette.
12. Lazar, G. (1993). Literature and Language Teaching: A Guide for Teachers and Trainers. Cambridge University Press.
13. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching. Pearson Education.
14. Dubin, F., & Olshtain, E. (1986). Course Design: Developing Programs and Materials for Language Learning. Cambridge University Press.